

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAHRSABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
IJTIMOIV FANLAR FAKULTETI

SANATSHUNOSLIK KAFEDRASI
HAYOT FAOLIVATI VA XAVFSIZLIGI
FANIDAN

O'QUV - USLUBIV MAJMUA

Shahrisabz - 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAHRSABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

SANATSHUNOSLIK KAFEDRASI
HAYOT FAOLIOYATI VA XAVFSIZLIGI
FANIDAN

O'QUV - USLUBIIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60112300 – Texnologik

Shahrisabz - 2024

O'UM ning Kelishilgan varaqasi

Fanning o'quv uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat pedagogika instituti kengashining 2024-yil "30" avgustdagi 1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan, (Kasb hunarga yo'naltirish diagnostikasi) fanidan namunaviy dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar: J.X.Xayitov. Shahrisabz davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" kafedrası v/b dotsent, pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)
Z.Sh.Nurmamatov. Shahrisabz davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" kafedrası v/b dotsent, pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar: Turdiyev E. Qar.DU "Texnologik ta'lim" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
Ismoilova M. Shahrisabz davlat pedagogika instituti, "San'atshunoslik" kafedrası mudiri, dotsen, pedagogika fanlari nomzodi.

Fanning o'quv uslubiy majmua Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" fakulteti "Sanatshunoslik" kafedrasining 2024 yil "___" avgustdagi 1-sonli majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

Ismoilova M

Fanning o'quv uslubiy majmua Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" fakulteti "Sanatshunoslik" kafedrasining 2024 yil "___" avgustdagi 1-sonli majlisida muhokamadan o'tkazilgan.

Fakultet dekani

t.f.n., E.Tilayev

Fanning o'quv uslubiy majmua Shahrisabz davlat pedagogika instituti Kengashining 2024 yil "___" avgustdagi 1-sonli bayoni

O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i:

A. Berdiyev

Mundarija

№	Bo'limlar	betlar
1	O'MMning kelishilgan varag'i	
2	O'MMning mundarajasi	
3	Ma'ruza mashg'ulotlar mazmuni	
1	Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari.	
2	Sog'lom turmush tarzi asoslari va uning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni	
3	Mehnatni muhofaza qilish sohasida xodimning huquqlari va majburiyatlari. ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenasi.	
4	Texnika va elektr xavfsizligi	
5	Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari	
6	Tabiiy, texnogen va ekalogik tUSDagi favqulodda vaziyatlar va ulardan ximoyalanish chora tadbirlari	
7	Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish. O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi	
8	Ommaviy qirg'in qurollari, ularning ta'sir xususiyatlari va talofatlari. zararli nurlanishlar va kimyoviy moddalar, ularning xususiyatlari va inson organizmiga ta'siri	
9	Favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda aholiga xabar berish va ularni xavfli hududlardan xavfsiz hududlarga ko'chirishni (evakuatsiya qilishni) tashkillashtirish. Himoya vositalari va ulardan foydalanish.	
10	Himoya vositalari va ulardan foydalanish.	
11	Terrorizm va xalqaro terroristik tashkilotlar. terrorizm va undan aholini muhofaza qilish	
12	Yonish, yong'in va portlash haqida umumiy ma'lumotlar.	
13	Yong'inni o'chirish moddalari va ularning xossalari. yong'inni o'chirishning zamonaviy texnika va texnologiyalari	
14	Baxtsiz hodisa va ularning kelib chiqish sabablari. Jaroxatlanishlar, kasb kasalliklari va uning profilaktikasi.	
15	Elektr tokidan jaroxatlanganda va zaharlanganda birinchi yordam ko'rsatish.	
4	Amaliy mashg'ulotlari mavzulari.	
1	Ishlab chiqarishda jarohatlarning statistik ko'rsatkichlarini hisoblash va mehnat muhofazasi sohasidagi hujjatlarini tadqiq qilish.	
2	Mehnat havfsizligi to'g'risida instruktaj va ta'lim berish.	
3	Ishlab chiqarishda baxtsiz va ishlovchilar sog'lig'iga zarar keltiruvchi boshqa hodisalarni taftish qilish va kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish.	
4	Jaroxatlanishlar va kasallanishlarni taxlil qilish usullari.	
5	Havodagi gaz va chang miqdorini aniqlash.	
6	Ishlab chiqarish xonalarida mikroiklim sharoitini aniqlash.	

7	Korxonalarda yoritilganlikni hisoblash.	
8	Korxonalarda yong'in xavfsizligini ta'minlash.	
9	Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi	
10	Korxonalarda shovqindan himoyalanih.	
11	Radioaktiv nurlarni qayt qiluvchi hisoblash asoboblarining tuzilishi va ishlash usullari.	
12	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini faoliyatini o'rganish.	
13	Elektromagnit maydonlar va ulardan saqlanish usullarini aniqlash.	
14	Ish jarayonini erganomik talablarga moslashtirishni o'rganish.	
15	Sun'iy nafas berish va yurakni massaj qilish (birinchi yordam berish) usullarini o'rganish.	
5	Ilovalar	
6	Fan dasturi	
7	Ishchi fan dasturi	
8	Glossariy	
9	Nazorat savollari	
10	Foydalanilgan adabiyotlar	

1-Mavzu; HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI ASOSLARI

Reja:

1. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari.
2. Hayot faoliyati xavfsizligi nazariyasining asosiy tushuncha va ta'riflari.
3. Hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash asoslari va uni boshqarishning uslubiy asoslari.
4. Hayot faoliyati xavfsizliginin huquqiy va tashkiliy asoslari.

HFXning tadqiqot predmeti – har qanday muhitlarning insonlarning bexatar yashashi va mehnat qilishidagi xavfsizlik ko'rsatkichlari, darajalari va uni optimallashtirish yo'llari.

HFXning xavfsizlik darajasi – har qanday muhitlarni insonlarni bexatar yashash va mehnat qilish sharoiti. Ushbu qulaylik holati odatda 4 darajada namoyon bo'ladi.

-komfort – har qanday muhitlar holati inson hayot faoliyati uchun eng qulay sharoit;

-xavfsiz – har qanday muhitlar holati inson faoliyati uchun salbiy oqibatlarni olib kelmaydigan sharoit;

-xavfli – har qanday muhitlar holatining davomiyligi inson faoliyati uchun salbiy oqibatlarni olib keladigan sharoit;

-fojiali – har qanday muhitlar holati qisqa muddatda inson faoliyati uchun og'ir oqibatlarni olib keladigan sharoit.

“Hayot faoliyat xavfsizligi” kursi inson organizmi va atrof muhit o'rtasidagi murakkab aloqalarni bilish jarayonini ko'zda tutadi. Insonni muhitga ta'siri fizikaviy qonunlar bo'yicha muhitning barcha tashkil etuvchilari (komponentlari)ni qarama-qarshi ta'sirini yuzaga keltiradi. Inson organizmi u yoki bu ta'sirlarni moslashish chegarasidan oshmaguncha og'riqsiz qabul qiladi.

Maishiy muhit – bu maishiy sharoitdagi insonga ta'sir qiluvchi barcha omillarning yig'indisidir. Organizmni maishiy omillarga reaksiyasini fanning sog'lom turmush tarzi, sog'lom turmush tarzining kasallik profilaktikasi bilan aloqasi masalalariga bag'ishlangan mavzularda o'qish mumkin.

Ishlab chiqarish muhiti – bu mehnat faoliyati jarayonida insonga ta'sir qiluvchi omillar yig'indisidir. Tabiiy muhitdagi xavfsizlik – bu ekologiyaning sohalaridan biridir. Ekologiya inson organizmni atrof muhit bilan o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rganadi.

Hayot faoliyat xavfsizligi insonni har qanday muhitdagi faoliyatida uning xavfsizligi va sog'ligini ta'minlovchi, xavfli va zararli omillardan himoya qiluvchi amaliyot va nazariyani qamrab olgan ilmiy bilimlar majmuidir. Xavfsizlikni ta'minlovchi prinsiplar:

orientirlovchi prinsiplar: operatorning faolligi; faoliyatning insonparvarligi; operatorni almashinishi; tasniflanish; xavfni bartaraf etish; tizimlash; xavfni kamaytirish;

texnik prinsiplar: blokirovkalash; vakuumlash; germetiklash; masofadan himoyalash; bosim ostida himoyalash; mustahkamlikni oshirish; bo'sh (zaif) zvenodan foydalanish; ekranlashtirish;

tashkiliy prinsiplar: vaqt bilan himoyalash; ma'lumot olish; zahiradan foydalanish; muvofiqlash; me'yorlash; kadrlar tayyorlash; ketma-ketlik o'rnatish; ergonomik shartlar;

boshqarish prinsiplari: adekvatlik; nazorat; teskari bog'lanish; javobgarlik; rejalashtirish; rag'batlantirish; boshqarish; samaradorlik;

me'yorlash prinsipi – insonni turli xil xavflardan himoyalash maqsadida, standart asosida xavfli va zararli omillarning ruxsat etilgan miqdorlarini o'rnatish demakdir;

bo'sh (zaif) zveno prinsipi. Texnik tizimning xavfsiz ishlashini ta'minlash maqsadida unga zaif element o'rnatiladi, ya'ni belgilangan ko'rsatkich me'yoridan oshgach birinchi navbatda ushbu o'rnatilgan element ishdan chiqadi va natijada xavf bartaraf etiladi. Bularga saqlash klapanlarini, elektr saqlagichlarini («predoxranitel») va muftalarni misol keltirish mumkin;

ma'lumot berish prinsipi. Ishchiga ish davrida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar berish. Bunga kurs o'qishlari, yo'riqnomalar o'tish, xavfsizlik va ogohlantiruvchi belgilardan foydalanish kabilar kiradi; *tasniflash prinsipida* ob'ektlarni xavflilik darajasiga bog'liq xolda sinflar, guruhlar yoki toifalarga ajratiladi. Masalan, sanitar-himoya zonalari (5- sinfga ajratilgan), portlash-yonish xavfliligi bo'yicha ishlab chiqarish binolarining toifalari (A, B, V, G, D), yong'in darajalari va boshqalar.

Hayot faoliyat xavfsizligi quyidagi asosiy masalalarni:

- xavf-xatarlarni identifikatsiyalash, ya'ni ularning sonli xarakteristikasini va koordinatalarini aniqlash;

- xavfsizlikni ta'minlash prinsiplari, uslublari va vositalarini tahlil qilishga va ularni amalda qo'llay bilishni;

- faoliyatning xavfsiz sharoitlarini loyihalash uslublarini;

- faoliyat xavfsizligini atrof-muhit ekologiyasi va insonning fiziologik va psixologik holati ko'rsatkichlariga bog'liq holda tahlil qilish va loyihalash;

- hayot-faoliyat xavfsizligi bo'yicha asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish, o'rganish va amalda qo'llay bilish;

- faoliyat xavfsizligi sharoitlarini yaratishda mansabdor shaxslarning vazifalari va javobgarliklarini;

- jarohatlanish va kasb kasalliklarini tahlil qilish uslublarini;

- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining yuzaga kelishining oldini olish usullarini;

- zararsiz ish sharoitini ta'minlovchi umumiy va shaxsiy himoya qilish uslub va vositalarini;

- elektr qurilmalari, mashina va mexanizmlarni ishlatganda, texnik xizmat ko'rsatganda va ta'mirlashda ko'riladigan asosiy texnika xavfsizligi talablarini;

- yong'in chiqish sabablari, uning oldini olish va o'chirishning tashkiliy va texnik vositalarini;

- favqulodda vaziyatlar turlari, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini tahlil qilish uslublarini;

- favqulodda vaziyatlarda insonlar va moddiy boyliklarni saqlash va qutqarish prinsiplari, uslublari va vositalariga qo'llay bilishini yechadi. HFX faniga o'qitish talabalarning umumta'lim va maxsus fanlardan olgan bilimi, malakasi, saviyasi, ko'nikmasi va tajribasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

HFX ilmiy fan sifatida o'zining nazariyasi, metodologiyasi va metodlariga ega. HFXning metodologik bazasi tizimiy (sistemali) tahlildir. Shu sababli HFX yuqoridagi masalalarini yechishda faqat o'z nazariya va uslublaridan foydalanibgina qolmay, balki boshqa fanlar – matematika, fizika, odam fiziologiyasi, injenerlik psixologiyasi, ekologiya, ergonomika, ekonomika va bir qator texnik fanlar yutuqlaridan ham foydalanadi.

Hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalari va terminlari.

Hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi. Hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasida ko'p uchraydigan ta'riflar quyidagilar bilan ifodalanadi.

Faoliyat – insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit va mehnat faoliyatining yuqori shaklidir. Faylasuflarning fikricha, insonning ta'rifi harakatdagi, mehnatdagi faoliyatidir. Mehnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular hayotda uchraydigan aqliy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Havfsizlik – ma'lum darajada xavf tug'ilishi bartaraf etilgan faoliyat holatidir. Faoliyat bilan barcha shug'ullanadi. Shuning uchun, xavfsizlik hamma tirik insonlarga turli munosabatda bo'ladi.

Xavf xatar– odam sog'lig'iga bevosita yoki bilvosita zarar etkazadigan ko'ngilsiz hodisalar tushuniladi.

Hayot muhiti – organizmni o‘rab turuvchi va u bilan doimiy munosabatda bo‘ladigan tabiatning ma‘lum bir qismi.

Tabiiy muhit – ma‘lum bir sub’ektning hayotiy faoliyati kechadigan tabiiy sharoitlar va ob’ektlar majmui.

Ijtimoiy muhit – inson o‘z ehtiyojlarini qondirish, tajriba va bilimlar ortdirish, ularni o‘zaro almashish maqsadida tashkil etadigan va foydalanadigan muhit.

Ishlab chiqarish muhiti – insonning mehnat faoliyati amalga oshadigan maydon. Insonning hayotiy faoliyat muhiti qulay (“komfort”), ruxsat etilgan, xavfli va favqulodda xavfli holatlarda bo‘lishi mumkin.

Qulay (komfort) muhit – insonning hayoti va sog‘ligi kafolatlangan, ish qobiliyati to‘liq ta‘minlangan, salbiy ta‘sir etuvchi omillar bartaraf etilgan hayotiy faoliyat sharoitidir.

Ruxsat etilgan muhit – insonning ish qobiliyatini to‘liq namoyish etishi cheklangan, mehnat samaradorligini pasayishiga olib keluvchi, lekin faoliyat davrida ta‘sir etuvchi xavfli va zararli omillarning ruxsat etilgan miqdori ta‘minlangan muhit.

Xavfli muhit – ishlab chiqarish omillari inson sog‘ligiga salbiy ta‘sir etib, uzoq ta‘sir etuvchi kasalliklarni yoki tabiiy muhitning salbiy o‘zgarishiga olib keluvchi muhit.

Favqulodda xavfli muhit – ta‘sir etuvchi omillar qisqa vaqt ichida turli xil jarohatlar yoki baxtsiz hodisalarni keltirib chiqarishi va atrof – muhitni buzilishiga olib kelish xavfi bilan tavsiflanadi.

Noksofera – doimiy yoki davriy xavf sodir bo‘ladigan yoki mavjud bo‘lgan maydon. Noksofera maydonida xavfli va zararli omillar miqdori (darajasi) doimo ruxsat etilgan miqdordan katta bo‘ladi,

Gomosfera – inson o‘z faoliyat jarayonlari davrida bo‘ladigan muhit, joy, maydon (mehnatdagi, sport bilan shugullanayotganda, dam olish vaqtida va b.).

HFX fanining rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar va ularning ishlari. Insoniyat jamiyati rivojlanishi tarixining eng dastlabki bosqichlaridan boshlab faoliyat olib borish sharoitlariga e‘tibor qaratilgan, shu jumladan inson sog‘lig‘ini saqlash masalalari ham ko‘rilgan.

Inson faoliyatining turli sohalarida xavfsizlik masalalarini o‘rgangan buyuk shaxslar va olimlardan quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

- Aristotel (bizning eramizdan oldingi 384-322 yillarda yashagan), Gippokrat (eramizdan oldingi 460-377 yillarda yashagan) va boshqa olimlarning asarlarida mehnat sharoiti masalalari o‘rganilgan;

- Tiklanish davrining buyuk tabibi Parasel’s (1493-1541) o‘zining asarlarida tog’ ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan xavflarni o‘rgangan. Quyidagi “Bor bo‘lgan hamma narsa zahar va bor bo‘lgan hamma narsa doridir. Faqat bitta dozagina moddani zaharga yoki doriga aylantiradi” degan fikr uning qalamiga mansub;

- Nemis vrachi va metallurgi Agrikola (1494-1555) o‘zining “Tog’ ishlari to‘g‘risida“ deb nomlanuvchi asarida mehnat muhofazasi masalalarini bayon qilgan;

- Italiyalik vrachi Ramassini (1633-1714) kasbiy gigienaga asos solgan, u “Hunarmandlar kasalliklari” degan kitobini yozgan;

- Rus olimi M.B. Ломоносов (1711-1765) tog’ ishlarida mehnat xavfsizligi bo‘yicha asos bo‘luvchi asarlarini yozgan;

- XIX asrda sanoatning jadal rivojlanishi bilan xavfsizlik muammolari bilan shug‘ullanuvchi bir qancha ko‘zga ko‘ringan olimlar paydo bo‘lishdi: Д.Л. Кирпичёв (1845-1913), А.А. Пресс (1857-1930), D.P. Nikolskiy (1855-1918), V.A. Leviskiy (1867- 1936), А.А. Skochinskiy (1874-1960), S.I. Kaplun (1897-1943) va b. Texnosferaning xavfsiz rivojlanish muammolariga akademik

B.A. Лерасовning asarlari bag'ishlangan. Hozirgi vaqtda hayotda va ishlab chiqarishda xavfsizlik masalalari muammolarini o'rganishga O.H. Русак, A.B. Луковников, B.C. Шкрабак va boshqalar katta hissa qo'shgan.

Hayot faoliyat xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari.

Hayot faoliyat xavfsizligi (HFX) — ishlab chiqarish va noishlab chiqarish muhitida insonni atrof muhitga ta'sirini hisobga olgan holda xavfsizlikni taminlashga yo'naltirilgan bilimlar sistemasidir. Hayot faoliyat xavfsizligining maqsadi ishlab chiqarishda avariya holatga erishish, jarohatlanishni oldini olish, insonlar sog'ligini saqlash, mehnat qobiliyatini oshirish, mehnat sifatini oshirish hisoblanadi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi ikki masalani yechish lozim bo'ladi:

- ilmiy (inson-mashina sistemasini; atrof muhit-inson, xavfli (zararli) ishlab chiqarish omillari va boshqalarni matematik modellashtirish);

- amaliy (uskunalarga xizmat ko'rsatishda mehnat xavfsizligini taminlash). Hayotiy jarayonda insonni atrof-muhit va uning tashkil etuvchilari bilan o'zaro ta'siri YU.N. Kurjakovskiyning «Hayot faqat moddalar, energiyalar va informatsiyalar oqimlarini tirik tana orqali harakati jarayonida mavjud bo'la olmaydi» degan hayotni saqlash qonuniga mos holda elementlar orasidagi moddalar massasining, barcha turdagi energiyalar va informatsiyalarning oqimlari sistemasiga asoslangan.

Hayotni saqlash qonunidagi oqimlar insonga o'zini oziq-ovqatga, suvga, havoga, quyosh energiyasiga, o'rab turgan muhit haqidagi informatsiyalarga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishi uchun kerak. Shu bilan bir vaqtda inson hayotiy fazasida o'zidan ongli faoliyati bilan aloqador (mexanik, intellektual energiyalar), biologik jarayon chiqimlari ko'rinishidagi ma'lum massadagi moddalar oqimini, issiqlik energiya va boshqa energiya oqimini ajratadi. Moddalar va energiyalar oqimi almashinuvi inson ishtirok etmaydigan jarayonlar uchun ham xarakterlidir. Tabiiy muhit bizning planetamizga quyosh energiyasi oqimi kirib kelishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida biosferada o'simlik va hayvonlar oqimini, moddalar (havo, suv) adiabatik oqimini, har xil energiyalar oqimini, jumladan favqulodda holatlarda tabiiy muhitdagi energiyalar oqimini ro'yobga keltiradi. Texnosfera uchun barcha turdagi xom ashyo va energiyalar oqimi, mahsulotlar va odamlar navbati oqimlarining har xilligi; chiqindi oqimlari (atmosfera tashlanayotgan chiqindilar, suv hovzalariga tashlanayotgan sanoat va boshqa iflos suvlar, suyuq va qattiq chiqindilar, har xil energetik ta'sirlar) xarakterlidir.

Har qanday xo'jalik yuritishning chiqindilari va teskari samarasi bo'ladi va ularni yo'qotib bo'lmaydi. Ularni bir fizik-kimyoh shakldan boshqa shaklga o'tkazish yoki fazoga chiqarib yuborish mumkin. Texnosfera, bundan tashqari to'satdan portlash, yong'in natijasida, qurilish konstruksiyalarini buzilishida, transport avariylarida va shunga o'xshashlarda katta miqdordagi chiqindilar va energiya oqimini yuzaga keltirishi mumkin. Ijtimoiy muhit tabiiy va texnogen olamni o'zgartirishga yo'naltirilgan insonga xarakterli bo'lgan barcha energiya oqimlarini ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi, jamiyatda chekish, alkogol ichimliklar, narkotik moddalar va shunga o'xshashlarni iste'mol qilishga aloqador zararli holatlarni shakllantiradi. «Inson

- atrof muhit» sistemasini har xil komponentlari energiya va informatsiyalarini xarakterli massalar oqimini quyida keltiramiz:

Tabiiy muhitning asosiy oqimlari: quyosh nurlanishi, yulduz va planetalar nurlanishi; kosmik nurlar, chang, asteroidlar; erning elektr va magnit maydoni; ekosistemalarda, biosferada moddalar aylanishi; atmosfera, gidrosfera va litosfera holatlari shu jumladan favqulodda holatlar; boshqalar.

Texnosferadagi asosiy oqimlar: xomashyolar, energiyalar oqimi; iqtisod sohasi mahsulotlarining oqimi; iqtisod sohasi chiqindilari; maishiy chiqindilar; informatsiya oqimlari;

transport oqimlari; yorug'lik oqimi (sun'iy yoritish); moddalar va texnogen avariyalardagi energiya oqimlari; boshqalar.

Ijtimoiy muhitdagi asosiy oqimlar: informasiya oqimlari (o'qitish, davlat boshqaruvi, xalqaro hamkorlik boshqalar); odamlar oqimi (demografik portlash, aholi urbanizatsiyasi); narkotik , alkogol vositalar va boshqa oqimlari; boshqalar.

Hayot faoliyat jarayonida inson iste'mol qiladigan va chiqaradigan asosiy oqimlar: kislorod, oziq-ovqat, suv va boshqa moddalar (alkogol, tamaki, narkotiklar) oqimlari; energiyalar oqimi (mexanik, issiqlik, quyosh va boshqalar); informasiya oqimlari; hayot faoliyat jarayonidagi chiqindilar oqimi va boshqalar.

Tahlil usuli. Xavfsizlikni ko'ngilsiz voqea ro'y berishdan oldin (aprior) yoki keyin (aposterior) tahlil etish mumkin. Har ikki holda qo'llaniladigan usul bevosita yoki aksincha bo'ladi. Aprior tahlilda shu tizimga xos bo'lishi mumkin bo'lgan (yashirin) kungilsiz voqealar tanlab olinadi va ularni yaratuvchi bir qancha holatlar to'plami tuziladi. Aposterior tahlil esa ko'ngilsiz voqea yuz bergandan so'ng kelajakda tadbirlar ishlab chiqishdir. Bu ikki uchul bir-birini to'ldiradi. To'g'ri usulda taxrir qilishda oqibatni oldindan kurish uchun sabablar o'rganiladi. Teskari usulda esa oqibat tahlil kilinib, sabablari aniqlanadi. Bu usullarning asosiy maqsadi ko'ngilsiz voqealarni oldini olishdir. Voqealarni kelib chiqish ehtimoli va tezligi ma'lum bo'lsa, voqeaning taxminan qanday natija bilan tamom bo'lishini aniqlash mumkin. Xavfsizlikning tahlilida tizimning parametrlarini yoki chegarasini aniqlash asosiy masala hisoblanadi. Agar tizim juda chegaralangan bo'lsa, biror xavfli hollar yoki omillar etibordan tashqarida qolishi, agar tizimga o'ta keng qaralsa, tahlil natijalari noaniq bo'lishi mumkin. Tahlil o'tkazish darajasi aniq maqsadlarga bog'liq. Aniq bir holatda ogohlantirish yo'li bilan ta'sir qilish mumkin bo'lgan hodisalarni aniqlash umumiy ish uslubi hisoblanadi.

“Inson - muhit” tizimida inson omili. Hozirgi kunda tabiatni muhofaza qilish masalasi tinchlikni saqlashdan keyingi o'rinda turadigan eng dolzarb muammolardan biridir. Atrofimizdagi tabiat millionlab yillar davomida yuzaga kelgan hamda o'zining murakkab qonunlariga rioya qilgan holda yashaydi. Ana shu tabiat bilan inson o'rtasida murakkab muvozanat mavjud. O'zbekiston Respublikasi azaldan o'z tabiatining go'zalligi bilan olamga mashhur bo'lgan va bu hududda qadimdan chorvachilik, dehqonchilik, sug'orish inshootlari qurish, baliqchilik, ipakchilik, paxtachilik va asalarichilik sohalari rivojlangan. Ajdodlarimiz o'zlari yashagan maskanni ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilganlar, uning tabiatini asrab avaylaganlar, doim avlodlarga ozod va obod Vatanni qoldirish uchun harakat qilganlar. Ular o'zlarini tabiatning farzandlari deb bilganlar. Bu avlodlarimiz Mahmud Qoshg'ariy, Beruniy, Xorazmiy, Forobiy, Jayxuniy, Abu Ali ibn Sino, Bobur asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. «Tabiat - bu tirik organizmdir: u har bir buzilgan eri uchun insondan shafqatsiz o'ch olishi mumkin». Hozirda atrof-muhitni saqlash, sog'lomlashtirish eng dolzarb muammolardan biridir.

Dunyoning barcha mintaqalarida yirik sanoat markazlari, transport vositalari atrof-muhitni ifloslantirayotgani, katta-katta o'rmonlarning kesilib tugatilayotgani, dengiz va okeanlar zaharlanayotgani, hayvonot va o'simliklar olamidagi turlarning tobora kamayib borayotgani sir emas. Sayyoramizda har yili tashqi muhitga 70 mln.m³ zaharli gaz, 50 mln.tonna metan, 13 mln.tonna ga yaqin azot oksidlari chiqarilmoqda, okeanlarga 10 mln.tonna neft va neft mahsulotlari, suv havzalariga 32 km³ iflos sanoat suvlari quyilmoqda, 11 mln.gektar o'rmon kesilmoqda va yonib ketmoqda. “Inson - muhit” tizimining evolyusion rivojlanishi tarixida beshta ijtimoiy ekologik bosqichni ajratish mumkin:

- **ibtidoiy bosqich.** Uzoq vaqt davomida insonlar tayyor mahmulatlar bilan oziqlanib,ov bilan kun kechirganlar.Keyinchalik mehnat va ov qurollari takomillashtirish,hayvonlarni

xonakilashtirish, ayrim o'simliklarni etishtirish bilan insoniyat ovqat ta'minoti masalasini hal qilgan. Bu davrda insonlarning atrof muhitga ta'siri mahalliy darajada bo'lgan. Keyinchalik dehqonchilik, chorvachilik rivojlanishi bilan insonlar o'troq yashay boshladilar va jamiyat shakillandi. Insonlarning atrof muhitga ta'sir etish darajasi va miqyosi o'zgardi;

- **agrар bosqich.** Bu davrga kelib inson ta'sirining kuchayishi o'rmonlarning kesilishi, erlarning sho'r bosishi, dastlabki cho'llanish vaziyatlari kuzatilgan. Antropogen ta'mir natijasida, ayrim hayvon turlari qirilib ketgan, alhida o'simlik va hayvon turlari muhofaza qilingan. Insonlarning tabiiy muhitga ta'siri yanada kuchayib borgan. O'simlik va hayvonlarning hayot tarzi, yashash sharoitlari va mostlashishlari, sonining o'zgarishi haqidagi dastlabki ekologik bilimlar Eramizdan avllgi asrlarda qadimgi Rim va YUnonistonda vujudga kelgan;

- **industrial bosqich.** O'rta asrlarga kelib aholi soni 500 mln. kishidan ortgan. O'rta Osiyoda dastlabki ekologik bilimlar vujudga kelgan. XYIII asrning oxirlarida, 1784-yilda bug' mashinasining ixtiro qilinishi bilan insoniyat tarixida industrial bosqich boshlandi. Bu davrga kelib xilma xil tabiiy resurslardan foydalani boshlangan. Jamiyatning tabiatga ta'sir etish darajasi yanada ortib borgan;

- **texnogen bosqich.** XIX asr aholi soni 1 mlrd. Kishidan oshgan, tabiiy resurslarni qazib olish va ishlatish xajmi o'sgan, ayrim o'simlik va hayvon turlari qirilib ketgan. XIX asrning ikkinchi yarmida jamiyat tarixidagi texnogen bosqich boshlangan. 1864-yili AQSHda geograf olim G. Marsh (1801-1882)ning "Inson va tabiat yoki Insonning tabiatni fizik-geografik sharoitlarni o'zgartirishga ta'siri" degan asari e'lon qilindi. G. Marsh birinchi bo'lib insonning tabiatga salbiy ta'siri haqida alohida kitob yozgan. XX asrda jamiya va tabiat munosabatlari keskinlashdi. Asosiy mineral xom ashyo resurslarining etishmovchiligi, isrofchilik bilan o'zlashtirilishi noxush ijtimoiy-siyosiy va ekologik oqibatlarga olib keldi.

- **noosfera bosqichi.** Aholi sonining o'sishi tabiatga ta'sirining kuchayishi natijasida global ekologik muammolar kelib chiqdi. Yadro energiyasidan keng foydalana boshlandi. Jamiyat taraqqiyotining noosfera ("noos"-aql, "sfera"-qobiq) bosqichiga o'ta boshlandi. Tabiatga jiddiy putur etdi. Hozir sayyoramizdagi biologik muvozanat buzilishining oldini olish eng katta muammodir. Sanoatning rivojlanishi, tabiiy boyliklardan o'ylamasdan foydalanish tabiatga, atrof-muhitga katta zarar etkazadi. Shu tufayli tabiatni muhofaza qilish masalasi, undan unumli va to'g'ri foydalanish, birinchi navbatda ekologik qonuniyatlarga asoslanib ish yuritish, kishilik jamiyatining asosiy vazifalaridan biridir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi faniga kirish

Jamiyatning asosiy rivojlantiruvchi va ishlab chiqarish tizimini boshqaruvchi kuch inson ekanligini e'tiborga olib, uning ishlab chiqarish faoliyatini va sog'lig'ini saqlash ijtimoiy taraqqiyot yo'lidagi muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham sanoat korxonalarining muhim talabi, faqat sifatli mahsulot ishlab chiqarish bo'lib qolmasdan, balki ishlab chiqarish sharoitini yaxshilash, ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari kelib chiqishiga sabab bo'lgan manbalarni yo'qotish, ish faoliyati inson uchun charchash, toliqish va kasalliklar manbai bo'lmasdan, quvonch va baxt keltiruvchi faoliyat bo'lishini ta'minlashga harakat qilish zarur.

Sanoat korxonalarida normal sanitar-gigienik sharoitlarini yaratish, og'ir qo'l kuchi bilan bajariladigan mehnatni tugatish va aqliy mehnat rolini oshirish, sanoatda jarohatlanish va kasb kasalliklarini butunlay tugatish chora-tadbirlarini amalga oshirish yo'li bilan mehnat qilish, yashash vositasigina bo'lib qolmasdan, hayot talabi bo'lishi zarur.

Inson mehnatini muhofaza qilishni yaxshilash-davlatimiz amalga oshirayotgan asosiy va muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Insoniyat qanday xavf qarshisida turganligini, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli etkazilayotgan zarar qanday

natijalarga olib kelganligini yaqqol his etish qiyin emas.

Turli kimyoviy vositalar, zararli moddalar, mineral o'g'itlarni, sanoat va qurilish materiallarini saqlash, tashish va ulardan foydalanish qoidalarining qo'pol ravishda buzilishi erning, havoning ifloslanishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida: «Mamlakatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va ilmiy infrastrukturani rivojlantirish g'oyat muxim ahamiyatga ega. Davlat faoliyatining muvaffaqiyati hozir ko'p jihatdan fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalar qanchalik keng joriy etilayotgani, kadrlarning kasb tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi» - deb uqtirib o'tganlar.

Respublikamizda chuqur iqtisodiy o'zgarish bo'layotgan bir davrda, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi kuchga kirishi yuqoridagi fikrni amalga oshirishning dastlabki bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Ko'p bosqichli ta'lim tizimiga binoan Respublikamizdagi barcha universitet va institutlarda ta'lim olayotgan bakalavrlarning o'quv rejasiga "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fanining kiritilishi bo'lg'usi mutaxassislarning bilimni chuqurlashtirishga, xar xil turdagi shikastlanishlar va kasallanish xodisalarini oldini olishda hamda barkamol, sog'lom kadrlarni tayyorlashda yordam beradi

Hayotiy faoliyat xavfsizligi (HFX) fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi - bu xar qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol xarakati (mexnat jarayonida, dam olishda, uyda, hamda sportda) uning faoliyatini tashkil qiladi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muxit bilan aloqasi, uy sharoitidagi va mexnat faoliyatidagi xavfsizligi bo'limlarini qamrab olgandir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi printsip va usullar asosida: yashash sharoitlarining og'irligi, axoli tibbiy madaniyatining etishmasligi, baxtsiz xodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosga qo'yadigan va xal qiladigan fandır. HFX - bu xar qanday ko'rinishdagi faoliyatga qo'llanilishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligining ishlab chiqarish jarayonidagi «Mexnat muhofazasi» qismi, to'qimachilik, paxta, ipak ishlab chiqarish va engil sanoat korxonalarida mexnat muhofazasining umumiy masalalarini, ishlab chiqarish sanitariyasi, uskunalarning xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligi masalalariga oid umumiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va mexnat muhofazasining hozirgi zamon talablari hamda me'yoriy materiallarini xisobga olgan xolda yoritilgan.

Respublikamizda mehnat muhofazasi ishi ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, gigienik hamda tashkiliy tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, bu tadbirlar mehnatkashlarning xavfsiz ishlashini, sog'lig'i va ishlash qobiliyatini saqlashni ta'minlaydi.

Mehnat qonunchiligi, barcha ishchi va xizmatchilarning mehnat munosabatlarini boshqarib turuvchi huquqiy me'yorlar majmuasidir. Mehnat gigienasi va sanoat sanitariyasi, ishchilarni kasbiy kasalliklarga, zararlanish va zaharlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan zararli ta'sirlarni kamaytirish yoki butunlay yo'q qilishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar va texnika vositalaridir.

"Hayotiy faoliyat xavfsizligi" ko'p bo'lg'usi mutaxassislarni mehnat muhofazasining ilmiy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularda ishlab chiqarishdagi mehnat sharoiti hamda mehnat muhofazasini yaxshilash muammolarini ijobiy hal etishga qiziqish uyg'otishga mo'ljallangan. Buning ilmiy zamini esa quyidagilardan iboratdir: ishlab chiqarishda shikastlanish, kasalliklar, ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan yong'in hamda portlashlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish: ishlab chiqarishdagi xavflilik va zararlilik darajasini o'rganish: to'qimachilik, paxta,

ipak va engil sanoatda qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan, og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni ko'zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholash. Mazkur kurs "Ergonomika", "Muhandislik psixologiyasi", "Mehnatni ilmiy tashkil qilish", "Texnik estetika", "Mehnat fiziologiyasi va gigienasi". "Huquqshunoslik",

"Iqtisodiyot", "Atrof muhitni muhofaza qilish" kabi fanlar bilan bog'langandir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyati hal etish uchun texnika, iqtisodiyot, mehnat gigienasi, fiziologiyasi va psixologiyasi, mehnatni ilmiy tashkil etish, sanoat estetikasi va boshqa sohalardagi mutaxassislarining birgalikda hamda kelishgan holda ishlashlari talab elilgan.

Mehnatni ilmiy tashkil etish ishlab chiqarishga muntazam ravishda joriy etiladigan fan yutuqlariga hamda ilg'or tajribaga asoslanadi. Mehnat va moddiy boyliklardan keng, samarali tarzda foydalanishni ta'minlaydi, inson sog'lig'ini saqlashga yordam beradi va mehnatni hayotiy extiyojga aylantiradi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi fanining ahamiyati va uning tarkibi.

HFX fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi roli. Mehnat muhofazasi insonni ishlab chiqarishdagi ahvoli, u bilan bog'liq masalalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi vaqtda inson - tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatar dunyosida ishlaydi. Shu xavf - xatarlar natijasida juda ko'p insonlar hayotdan ko'z yumadilar (Armanistondagi zilzila, Chernobil AES halokati. Jigaristondagi er siljishi, Admiral Naximov paroxodining cho'kishi, Sverdlovskiyda, Chelyabinsk - Ufa temir yo'l uchastkasida portlash va h.k. SHular natijasida 3000 dan ortiq odam halok bo'lgan, 20000 nogiron va 200000 odam kasallangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 42 sestsiyasida 1991 yildan boshlab tabiiy ofat va falokatlarini kamaytirish bexatarlik yillari, deb belgilangan edi.

Hayot faoliyat xavfsizligi - inson va uning salomatligi uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan texnikaviy sanitar-gigienik va huquqiy tadbirlar majmuidir.

Xavfsizlik texnikasi-xavfli ishlab chiqarish omillarning, ya'ni xavfsizlik qoidalari buzilgandagi baxtsiz hodisalar, shikastlanishlarni keltirib chiqaradigan omillarning insonga ta'sir etishini oldini oladigan tashkiliy va texnikaviy tadbirlar majmuidir.

Ishlab chiqarish sanitariyasi-zararli ishlab chiqarish omillarining, ya'ni kasalliklar keltirib chiqaradigan omillarning ishchilarga ta'sirini oldini oladigan tashkiliy, gigienik va sanitariya-texnikaviy tadbirlar va vositalar majmui.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi tushunchasi. Hayotiy faoliyat xavfsizligi tushunchasi ko'p uchraydigan ta'riflar bilan belgilanadi. Faoliyat - insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mehnat - faoliyatning yuqori shakli. Faylasuflarning fikricha, insonning ta'rifi - harakatdagi, mehnatdagi faoliyatidadir.

Mehnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular hayotda uchraydigan aqliy, manaviy, madaniy, ilmiy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Faoliyat jarayoni modeli. Faoliyat jarayoni modeli ikki elementdan, ya'ni inson va muhit orasidagi to'g'ri va teskari munosabatlardan tuzilgan deb tasavvur qilish mumkin. Teskari munosabatlar moddiy dunyoning qarama-qarshilik umumiy qonunlaridan kelib chiqadi. "Inson-muhit" sistemasi ikki maqsadli bo'ladi: 1) aniq bir natijaga erishish, 2) ko'ngilsiz hodisalarni chiqarib tashlash (inson sog'lig'iga va hayotiga ziyon, yong'inlar va falokatlar). Shularning kelib chiqishi va shunga o'xshash hodisalar oqibatida kelib chiqadigan natijaga xavf deb ataladi.

Xavflar, yashirin va xaqiqiy (yaqqol) xavflar.

Xavflar - yashirin (potentsial) va xaqiqiy bo'ladi. YAshirin xavflar amalga oshishi uchun aniq

shartlar bo'lishi lozim. Bu shartlar sabab deb ataladi. Xavf va sabablarni misollarda (raqamlarda) ko'rish mumkin:

1. So'nggi 30 yil ichida (1969-1990 y.) tabiiy ofatlar ikki marta ko'paygan;
2. 1909 yildan 1974 yilgacha asabiy kasalliklar 24 marta ko'paygan;
3. Dunyoda 500 mln.ga yaqin nogironlar bo'lib, ularning 1/5 qismi baxtsiz hodisa natijasida bo'lgan.

Har qanday faoliyat yashirin (potensial) xavflidir. Shu bilan birga xavf darajasini boshqarish ham mumkin. Bu fikr mutlaqo xavfsiz faoliyat bo'lmasligiga asoslangan.

Xavfsizlik - bu ayrim extimollarga asoslanib paydo bo'ladigan xavf-xatarlarni istisno etilgan faoliyat holatidir. Xavfsizlik - bu maqsad, HFX bo'lsa shu maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar, yo'l-yo'riq, qo'llanmalar, usullardir.

HFX - bu xavf-xatarlarni o'rganish va insonni himoya qilishni o'rganadigan fandır.

Hayotiy faoliyat xavfsizligining uchta o'zaro bog'liqlik masalasi

HFX - uchta o'zaro bog'liqlik masalani xal etadi:

1. Xavflarni birday (umumlashtirish) deb hisoblash, yani ularning qiyofasiga qarab, koordinati va miqdoriy xususiyatlarini ko'rsatish.
2. Sarf harajatlari va foydasini solishtirish asosida xavflardan himoya qilish.
3. Paydo bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy (xavfning qoldiq deformatsiyasidan kelib chiqqan) xavflarni yo'qotish.

HFX - o'z nazariya va metodologiya usullariga ega. Shunga qaramay HFX - muhandislik, ruhiy holat (psihologiya), inson fiziologiyasi, mehnat muhofazasi, ekologiya, ergonomika, iqtisod va boshqa fanlarning yutuqlariga asoslangan. HFX ning metodologik asosi - bu tartibiy taxlildir. Texnika va sanoat yuqori taraqqiy etgan hozirgi davrda HFX ning ahamiyati yana ham oshib ketdi. Xavfsizlik masalalari yana ham keskinlashib ketdi. SHuning uchun mehnat xavfsizligini chuqur o'rganish, bilish, tashviqot qilish va odamlarni xavf-xatardan himoya qilish masalalari asosida tarbiya qilish kerak. Bu HFX ning vazifasi va maqsadi. HFX - jamiyatimizning mustahkamlanishida xalqning xavfsizlik faoliyati darajasini ko'tarishda muhim ijtimoiy rol o'ynaydi. HFX fanini o'rganmay, odamlar umumiy inson huquqlarida aytilgan. Hayot, erkinlik, mehnat, shaxsiy daxlsizlikka erisha olmaydi. (Inson huquqlari deklaratsiyasi, 3-bandi).

Hayotiy faoliyat xavfsizligi nazariyasining asosiy tushunchalari va ta'riflari.

Xavf-xatar nima?

Xavf-xatar hayotiy faoliyat xavfsizligining markaziy tushunchasi bo'lib, odam sog'ligiga bevosita yoki boshqa yo'llar bilan zarar etkazadigan, yani ko'ngilsiz hodisalar, oqibat yaratuvchilar tushuniladi. Xavfni ifodalaydigan belgilar soni tajribaning maqsadiga qarab ko'p yoki kam bo'lishi mumkin.

Xavfning bunday tushunchasi oldingi standart tushunchalarni (ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillarini) o'z ichiga oladi, chunki hayotiy faoliyat xavfsizligida faoliyatning hamma shakllari va omillarini nazarda tutadi. Hayotiy faoliyatga to'g'ri kelmaydigan elementlar sistemasi kimyoviy va biologik aktiv moddalar yashirin xavfga egadir.

Xavflar taksonomiyasi

Taksonomiya - bu murakkab hodisalarning tushunchalarini, kishi faoliyatiga qaratilgan narsalarni turkumlash (klassifikatsiya) va sistemalash to'g'risidagi fandır. U faoliyat xavfsizligi sohasida ilmiy bilimlarni uyushtirishda, xavflarning tarkibini yanada chuqurroq o'rganishda katta ahamiyatga ega. Taksonomiya yangi fan bo'lib, hali to'la ishlab chiqilmagan. Shuning uchun bu to'g'rida taksonomiyaning ishlangan qismi to'g'risida so'z olib boramiz:

1. Kelib chiqishi bo'yicha xavflar tabiiy, texnik, ekologik va aralash bo'ladi.

2. Rasmiy standartga asoslanib xavflar xili bo'yicha fizik, kimyoviy, biologik va ruhiy turlarga bo'linadi.

3. Salbiy oqibatlarining ro'y berish vaqti bo'yicha xavflar impulsiv (beixtiyor harakat) va kumulyativ (to'satdan keluvchi) larga bo'linadi.

4. Xavflarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha (lokulizatsiya) - litosfera, gidrosfera, atmosfera va koinot bilan bog'liq bo'ladi.

5. Xavflar kelib chiqadigan oqibatlari bo'yicha - charchash, kasallanish, jarohatlanish, halokatlar, yong'inlar va o'limga olib boradigan sabablar.

6. Xavflar keltiradigan zarari bo'yicha - ijtimoiy, texnik, ekologik va h.k.

7. Xavfni namoyon bo'ladigan muhiti bo'yicha - maishiy, sport, yo'l transport, ishlab chiqarish va harbiy.

8. Odamga ta'siri bo'yicha xavf - aktiv va passiv, o'ta (zaharlar, kislotalar) va sust ta'sirchan (narkotik moddalar, aroq, sigareta) bo'ladi. Passiv deganda odamning o'zi sababchi bo'ladi.

Xavflar ro'yxati. Bu aniq bir tartiblar bo'yicha qo'yilgan nomlar, atamalar, ro'yxati (o'zgaruvchan harorat, havo tezligi, bosimi, yorug'lik, havoni ionizatsiyalash, portlash, gerbetsid, shovqin, tebranish yoki titrash, yong'in, zaharli moddalar, lazer nurlari, elektr yoyi va h.k.).

Har bir tekshiriladigan obektda o'tkaziladigan aniq tekshirishlar uchun shu obektda (tsexda, ish joyida, texnologik jarayonda, kasbda) uchraydigan xavflar ro'yxati tuziladi.

Xavflarning kvantifikatsiyasi

Bu hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar uchun etarli darajada kerak bo'lgan miqdoriy, vaqtincha fazoviy va boshqa xususiyatlarni aniqlab, amalga oshirish jarayonidir. Tenglashtirish jarayonida aniq bir masalani hal qilish xavflar ro'yxati, fazodan tashqariga chiqarmaslik (jamlash), mumkin bo'lgan zarar va boshqa omillar aniqlanadi.

Sabablar va oqibatlar. Yashirin xavflar amalga oshishiga olib keladigan sharoit - sabab deb ataladi. Sabablar - jarohatlar, yuqumli kasalliklarni keng tarqalishini (epidemiya), atrof muhitga zarar va boshqa xil oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Xavf-sabab-oqibat uchligi - bu yashirin xavflarni va zararlarni amalga oshiruvchi taraqqiyotning mantiqiy jarayonidir. Masalan: zahar (xavfli) - dori tayyorlovchining xatosi (sabab) - zaharlanish (ko'ngilsiz oqibatlar). elektr toki - qisqa ulanish - kuyib qolish. Aroq - juda ko'p bo'lsa - o'lim.

Yashirin xavflar aksiomasi (o'z-o'zidan ma'lum xaqiqat).

Mutloq xavfsiz bo'lgan ish (faoliyat) bo'lishligi mumkin emas. Demak, xar qanday (faoliyat) bo'lmasin - unda yashirin xavf bo'ladi. Bu aksioma HFX da g'oyat katta metodologik ahamiyatga ega.

Tavakkal nazariyasining asosiy fikrlari

1950 yil sentyabr oyida Kioln shaxrida bo'lgan Hayotiy faoliyat xavfsizligi birinchi jaxon kongressida, olimlar HFXni fan deb atashni qabul qildilar va o'z ma'ruzalarida «tavakkal» tushunchasini qo'lladilar. Kongressda xar bir olim «tavakkal» tushunchasini o'zicha talqin qildi. Masalan: V.Marshal - tavakkal - bu xavfning miqdoriy baxosidir. Miqdoriy baxo - bu bo'lib o'tgan ko'ngilsiz xodisalarning aniq bir davr ichida bo'lishi mumkin bo'lgan soniga nisbatidir. «Tavakkal»ni aniqlashda nimani tavakkali degan savolga javob berish kerak.

Rasmiy nuqtai nazardan «tavakkal» - bu takrorlanish. Ammo, bu tushunchalar orasida muayyan farq mavjud, chunki xavfsizlik ma'salalari bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz oqibatlar soni to'g'risida shartli ravishda aytishga to'g'ri keladi.

Tavakkal ikki xil bo'ladi:

1. Shaxsiy tavakkal - ayrim shaxs uchun aniq xavf turi.
2. Ijtimoiy tavakkal - takroriy xodisalar natijasida jaroxatlangan insonlar orasidagi bog'liqlik.

Tavakkalni klassifikatsiyalash. Tavakkalni baholashda uni foyda" bilan solishtirish, ya'ni odam hayotini saqlab qolish uchun pul birligi kirgizilishi taklif qilinadi. Ko'pchilik insonlar bunga norozilik bildirishdi, chunki odam hayotining bahosi yo'q, bunda pulvozlik qilish yaramaydi. Lekin odam hayotini saqlab qolish uchun qancha mablag' sarf qilish kerak deganda, bunday baho kerakdir. Xorijda o'tkazilgan tekshirishlarga ko'ra odam hayoti AQSH da 650 mingdan 7 mln dollargacha baholanar ekan.

Tavakkalni aniqlash qancha taxminiy bo'lishiga qaramay, uni aniqlashning quyidagi 4 yo'li mavjud:

1. Muxandislik yo'li. Bu yo'l statistikaga, takrorlanishlarni hisoblashga, xavfsizlikning tahminiy taxliliga (analiz), "xavflar daraxti" qurishga asoslanadi.

2. Modellash yo'li (andozalash). Bu yo'l odamga guruhga, kasbga ta'sir qiluvchi omillar modelini qurishga asoslangan va h.k. Bu yo'llar bilan hisoblashga ma'lumotlar topish ancha qiyin.

3. Ekspert (tekshirish) yo'li. Ma'lumotlarni ekspertlardan (mutaxassislardan) so'rab yig'ishga asoslangan.

4. Ijtimoiy yo'l. Bu yo'l odamlardan so'rab, surishtirib aniq xulosa chiqarishga asoslangan. Bu yo'llar tavakkalni har xil nuqtayi nazardan tasvirlaydi, shuning uchun hamma yo'llar birga qo'llaniladi.

"Tavakkal"ning yo'l qo'ysa bo'ladigan fikr yuritish usuli. Xavfsizlik texnikasi, mutloq xavfsizlikni yaratib berishga asoslangan. Ammo, bunday holatni yaratib berish haqiqatan mumkin emas. SHuning uchun yo'l qo'ysa bo'ladigan "Tavakkal"ning fikr yuritish usuli qabul qilinadi. "Tavakkal" o'z ichiga texnik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy nuqtayi nazarlarni oladi va ayrim muhosilarga borishga to'g'ri keladi.

Aniqki, texnik sistemaning xavfsizligini ko'tarish uchun iqtisodiy imkoniyatlar bepoyon emas. Agar xavfsizlikka qancha ko'p xarajat qilinsa, ijtimoiy sohalarga shuncha kam xarajat qilishga to'g'ri keladi.

Tavakkalning yo'l qo'ysa bo'ladigan mintaqasi shunday minimal chegaraki, unda ijtimoiy va texnik mablag'lar ma'lum mutanosiblikka ega. Tavakkalni tanlashda buni hisobga olish kerak va jamiyat shu bilan qanoatlanishga majbur.

Jahonning ayrim mamlakatlarida tavakkalning yo'l qo'ysa bo'ladigan qiymati qonuniy asosda belgilangan. O'lim hodisalarining maksimal yo'l qo'ysa bo'ladigan darajasi bir yilda 10-6 deb olingan. Odatda tavakkalning yo'l qo'ysa bo'ladigan darajasi 10-8 bo'lsa, bu juda kichik qiymat hisoblanadi.

Tavakkalning yo'l qo'ysa bo'ladigan mohiyati tushunchalari bizda hali qabul qilinmagan va to'la amalga oshirilmagan. Bundan tashqari, ayrim mutaxassislar bunga tanqidiy nazar bilan qaraydilar. Ularning fikricha, xavfsizlikni bunday baholash insonparvarlik nuqtayi nazaridan yiroq deb tushuniladi. Haqiqatan, hozirgi mavjud usullardan, tavakkalning yo'l qo'ysa bo'ladigan mohiyatli usuli 2-3 daraja jiddiyroqdir. Binobarin, bu tushunchani kiritish bevosita odamning himoyasiga yo'naltirilgandir.

Tavakkalni boshqarish. Xavfsizlik darajasini ko'tarish xavfsizlikning asosiy nazariy va amaliy maqsadidir. Buning uchun mablag'ni uch yo'nalishda harajat qilish kerak:

1. Ishlab chiqarish, texnik sistemalarni, ish obektlarini takomillashtirishga;
2. Malakali ishchilarni tayyorlashga;
3. Favqulodda oqibatlarni yo'qotishga.

Xarajatlarni bular orasida qanday bo'lishini rejalash uchun chuqur tekshirishlar o'tkazish

lozim, unda ham aniq bir fikrga kelish qiyin.

Tavakkalni boshqarish yo'liga o'tish texnika doirasida xavfsizlikni ko'tarishda yangi imkoniyatlar ochadi. Tavakkalni boshqarishda - texnik, ma'muriy, tashkiliy yo'llarga, iqtisodiy usul ham qo'shiladi. Bular sug'urtalash, ko'rilgan zararni pul tariqasida to'lash.

Tavakkalni hisoblash uchun asoslangan raqamlar yo'q desa ham bo'ladi. Tavakkalni boshqarish harajat bilan Tavakkalni pasaytirish yo'li bilan olingan foydani solishtirishga asoslangan.

Xavfsizlikni o'rganish tartibi. Xavflarni o'rganish tartibi uch xil bo'ladi:

1. Bosqich - xavflarni oldindan tahlil etish. Bu bosqich uch qadam bilan bajariladi:

- 1- qadam xavf manbalarini aniqlash;
- 2- qadam xavflarni vujudga keltiradigan qismlarni aniqlash;
- 3- qadam tahlilni chegaralash, ya'ni tekshirilmaydigan xavflarni chiqarib tashlash.

2. Bosqich - xavfli holatlarning ketma-ketligini aniqlash, hodisa va xavflar daraxtini" (shajarasini) tuzish.

3. Bosqich-oqibatlarini tahlil qilish.

Xavfsizlikning sistemasi. Bu xavfsizlikning murakkab masalalarini xal qilish yo'llarini tayyorlashda va asoslashda foydalaniladigan metodologik choralar yig'indisidir.

O'zaro ta'siri bilan aniq bir maqsadga erishtiradigan aloqador qismlar yig'indisi - sistema deb ataladi. Qism - (komponent) - deganda birgina moddiy obektdan tashqari aloqalar va bog'lanishlar ham tushuniladi. Har qanday sozlangan mashina texnik sistemasining misoli tariqasida ko'rinishi mumkin.

Tarkibiga odam ham kiradigan sistema - ergatik sistema deb ataladi.

Ergatik sistemaning misollari "odam-mashina", "odam-mashina-atrof muhit".

Sistemalash printsip hodisalarga o'zaro bog'liq ravishda bir dasta yoki to'plam (yig'indi) tariqasida qaraydi.

Sistema beradigan maqsad yoki natija sistema yaratuvchi element deb aytiladi. Masalan, yong'in - yonuvchi modda, oksidlovchi kislorod, yondiruvchi. Bu erda yong'in sistema, yonuvchi modda, oksidlovchi, yondiruvchi uning elementlari.

Agar birorta elementni shulardan chiqarib tashlasak, sistema buziladi. Sistemada bor sifat uning elementlarida bo'lmaydi. Bu sistemaning muhim xususiyati bo'lib, xavfsizlik masalalari taxlili asosida joylashgan.

Ko'ngilsiz voqealarning paydo bo'lish sabablarini aniqlash, ularni kamaytirishga qaratilgan tadbirlar xavfsizlik sistemasi tahlilining asosiy maqsadidir.

"Sabablar va xavflar daraxti" - sistema tariqasida.

Har qanday sabab(lar) natijasida vujudga kelgan xavflar zarar keltiradi. Sababsiz chinakam (xaqiqiy) xavf ham zarar ham yo'q. Demak, xavfdan saqlanish uning kelib chiqish sabablarini bilishga asoslangan.

Sodir bo'lgan xavflar bilan sabablar o'rtasida sabab-oqibat aloqasi bor. O'z yo'lida bir sabab ikkinchi sababiy oqibat bo'lib chiqadi va h.k. SHunday qilib, sabablar va xavflar zanjirsimon sistemani yaratadi. Bunday grafik ko'rinishi (tasvir) shoxli daraxtga o'xshaydi. Xorijda "Sabablar daraxti", "Inkorlar daraxti", "Xavflar daraxti" va bo'lak xil "daraxtlar" degan tushuncha va u "daraxtlar"ni tuzish uchun kerakli raqamlar mavjud. Quriladigan "daraxtlarda sabab shoxlari va xavflar shoxlari bor. Ularni o'zaro ajratib tashlash mumkin emas. Shuning uchun xavfsizlikni tahlil etishda tuzilgan daraxtni "sabablar va xavflar" daraxti deb atash lozim.

Tahlil usuli. Xavfsizlikni ko'ngilsiz voqea ro'y berishdan oldin (aprior) yoki keyin (aposterior) tahlil etish mumkin. Har ikkala holda qo'llaniladigan usul bevosita yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Aprior tahlilda shu sistemaga xos bo'lishi mumkin bo'lgan (yashirin) ko'ngilsiz voqealar tanlab olinadi va ularni yaratuvchi bir qancha hollar to'plami tuziladi.

Aposterior tahlil esa ko'ngilsiz voqea yuz bergandan so'ng kelajakda tadbirlar ishlab chiqish. Bu ikki usul bir-birlarini to'ldiradi. To'g'ri usulda tahlil qilishda oqibatni oldindan ko'rish uchun sabablar o'rganiladi. Teskari usulda esa, oqibat tahlil qilinib- sabablari aniqlanadi.

Bu usullarning asosiy maqsadi ko'ngilsiz voqealarni oldini olishdir. Voqeaning kelib chiqish ehtimoli va tezligi ma'lum bo'lsa, voqeaning taxminan qanday natija bilan tamom bo'lishini aniqlash mumkin.

Xavfsizlikning tahlilida sistemaning parametrlarini yoki chegarasini aniqlash asosiy masala hisoblanadi. Agar sistema juda ham chegaralangan bo'lsa, biror xavfli hollar yoki omillar e'tibordan tashqarida qolishi mumkin.

Agar sistemaga o'ta keng qaralsa, tahlil natijalari noaniq bo'lib qolishi mumkin. Tahlil o'tkazish darajasi aniq maqsadlarga bog'liq. Aniq bir ogohlantirish yo'li bilan ta'sir qilish mumkin bo'lgan hodisalarni aniqlash umumiy ish uslubi hisoblanadi.

Inson faoliyatining asosiy turlari Inson faoliyatining turli-tuman qirralari mavjud bo'lib, har xil hududlarda yashovchilar uchun o'ziga xos bo'lgan faoliyat turlari bo'ladi. Bu faoliyat turlari eski zamonlardan beri har xil tarzda rivojlanib kelgan. Masalan, shaharlar hududida yashagan aholining faoliyat shakli qishloqlarda yashovchilar faoliyatidan ancha farq qilishi ma'lum. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, keyingi davrlarda aholining shaharlashish darajasi o'sganligi munosabati bilan va qishloqlarga zam onaviy texnika va texnologiyalar kirib kelishi natijasida bu tafovut kamayib bormoqda.

Ba'zi bir rivojlangan davlatlarda bu tafovutlar deyarli yo'qoldi deb aytish mumkin. Shuning uchun ham inson faoliyatini hozirgi zamon taraqqiyotini hisobga olib, inson faoliyati ikkita turga: ya'ni **jismoniy mehnat va aqliy mehnat turlariga bo'lish mumkin**. Bunday bo'linish, albatta, birm uncha umumiy tarzda nisbiy bo'lsa ham , bunday bo'lib qarash faoliyat turlariga baho berishda ancha yengillik tug'diradi. Inson jismoniy ish bajarganda uni o'z kuchi va qudrati asosida bajaradi, bunda uning butun tanasiga og'irlik tushadi, ya'ni paylari zo'riqadi va buning natijasida tanadagi harakatlanish, ko'tarish qobiliyati oshadi ham da hadeb zo'riqish natijasida umumiy jismoniy rivojlanish vujudga keladi va bu o'z navbatida nafas olish, qon aylanish tizimlarining mustahkam va tekis ishlashini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, uning organizmidagi ovqatlanish va modda almashish jarayonlarini yaxshilanishiga olib keladi. Jismoniy mehnat asosan yakka tartibda ishlovchi hunarmandlar va uncha katta bo'lmagan yer mulkiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari uchun birmuncha samara berishi mumkin. Lekin boshqa sohalarida va ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazaridan va insoniyatning taraqqiyoti nuqtayi nazaridan bunday mehnat yaxshi samara berishi mumkin emas. Buning asosiy sababi iqtisodiy samaradorligi kam bo'lishi bilan birga jismoniy ish bajarilganda inson zo'riqib charchashi hisobiga yarmidan ko'p vaqti dam olishga sarf bo'ladi, bu esa mehnat samaradorligini o'sishiga yordam bermaydi.

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, hech qachon va hech qayerda faqatgina jism oniy mehnat bilan shug'ullanish imkoniyati yaratilgan desa bu m ubolag'a bo'ladi, chunki har qanday ishni bajarishdan oldin uni rejasi tuziladi va bu aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan qo'shib olib boriladi demakdir. XX asming ikkinchi yarmidan boshlab sanoat va qishloq xo'jaligida jismoniy mehnatni rolini kamaytirishga keskin kirishildi. Bu birinchi navbatda mexanizatsiyalashtirish asosida amalga oshirildi. Bu ishlarni bajarish aqliy mehnat qiluvchilarning sonini ko'paytirishdan boshlandi. Bu esa o'z navbatida institutlar va universitetlar sonini ko'paytirishga olib keldi. Mexanizatsiyalashtirish, boshlang'ich davrlarda yaxshi natija beradi.

Yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishi faqat mexanizatsiyalash bilan chegaralanib qolish foydali emasligi yangidan-yangi usullarni yaratish erasi boshlandi va bu davrda har xil uy-ro'zg'or buyumlari va ko'plab yangidan-yangi maishiy buyumlarga ehtiyoj ortaboshladi. Bu albatta, buyumlarni ko'plab ishlab chiqarish kerakligini va rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan davlatlardagi maishiy mahsulotni butunlay o'zgartirish kerakligi sezila boshladi. Kompyuter texnologiyalarini yaratilishi bu ishlab bajarishdagi asosiy vositaga aylandi. Kompyuter texnologiyalari faqatgina mexanizatsiyalashtirish ishlarinigina o'z zimmasiga olib qolmasdan, butunlay katta-katta sexlarninigina emas, balki umuman fabrika zavodlarni hamma texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatini yaratdi. Bu esa o'z navbatida ko'plab ishchilarni jismoniy ish jarayonidan qutqardi. Rivojlangan davlatlarda jismoniy Mehnatdan bo'shagan ishchi kuchlarini yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga jalb qilindi. Bundan tashqari, elektron sanoatini rivojlantirishda foydalanildi. Ko'pchiligi aqliy mehnat jabhasiga ishga o'tkazildi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun bu jarayon og'irroq kechdi, chunki ko'plab ishchilarni bo'shatishga to'g'ri keldi va bu ishsizlar sonini oshishiga olib keldi. Ishchi kuchi arzonlashib ketdi. Bu esa yangi texnologiyaga va sarmoyaga ega bo'lgan ko'pgina ishlab bajaruvchi odamlarni bu yerga ko'p ishchi kuchi talab qiladigan yig'ish sexlari va yig'ish konveyer liniyalarini olib kelinishiga sabab bo'ldi. Bunda ishchilar jismoniy mehnatdan xalos bo'lgan bo'lsalar ham, uning o'rniga bir xil zerikarli va sur'ati baland bo'lgan ishlab bajarishlariga to'g'ri keldi. Ko'rinib turibdiki, bu ish turlarini oshishiga olib keldi. Endi aqliy mehnat bilan hayot faoliyati xavfsizligi o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rib o'tamiz. Ma'lumki, aqliy mehnat bilan bajariladigan ishlar bu umumiy ma'lum otlarni to'plash va ularni ishlatish joylarini aniqlash uchun fikrni bir joyga to'plash hamda aqlni ishlatishni taqozo qiladi.

Hozirgi zam onaviy texnologiyalarda kelib, jismoniy mehnat deyish mumkin bo'lgan ishlar deyarli yo'q. Shuning uchun umuman jismoniy ish deb belgilanadigan ishlarni quyidagi ish turlariga bo'lish mumkin: anchagina bilak kuchini ishlatib bajariladigan ishlar; mexanizatsiyalashtirilgan ishlar; sanoatda yarim avtomatlashtirilgan yoki to'liq avtomatlashtirilgan ishlar; ko'pchilik bilan bajariladigan ish turlari (konveyerlar); masofadan turib boshqarish yo'li bilan bajariladigan ish turlari; aqliy mehnat. Hozirgi zam on texnika taraqqiyoti yuqori bosqichlarga ko'tarilgan bo'lishidan qat'i nazar, qo'l mehnati hali hamma jabhalarda yo'qolib bormoqda deb aytish ancha qiyin. Albatta qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlar inson organizmi tomonidan ko'p miqdorda energiya sarflanishini talab qiladi. Bu ishlarni mexanizatsiyalashtirish esa ishchi kuchi sarflab ishlanadigan ba'zi jarayonlarni anchagina qiyinlashtirilgan programmalar asosida ishlashga olib keladi.

Mexanizatsiyalashtirilgan sanoat korxonalarida endi qo'lning hamma muskullari kuchi sarflanmasdan, balki qo'l uchlaridagi muskullarning ishlash faolligi ortadi. Chunki bunday sharoitda faqatgina mexanizatsiyalashtirilgan vositalarning boshqarish tugmalarinigina bosishga to'g'ri keladi va bu ishlar tez va aniq bajarilishini talab qilganligi sababli va bundan tashqari boshqarish mexanizmlarida bajarilayotgan ishlar murakkab boshqarish pulklarida amalga oshirilsa, bunda juda katta miqdordagi axborotlar majmuasidan foydalanilsa, bu ishlarning bir xilligi va doimo bir xil ishni qayta-qayta bajarish inson organizmida fikrlash qobiliyati susayadi, reaksiyasi tezligi pasayadi va juda tez toliqish boshlanadi. Yarim avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonida odam bajarayotgan ishning tashqi tom onida faqat kuzatuvchi sifatida qatnashadi, chunki boshqa ishlov berish ishlarini mexanizmlar bajaradi. Bu yerda odamning asosiy vazifasi mashina bajara olmaydigan mayda-chuyda ishlarni bajarib, mashinaga xizmat ko'rsatish bo'lib qoladi: ishlov berilishi kerak bo'lgan materialni mashinaga o'rnatish, mexanizmlarni ishlatib yuborish, tayyor bo'lgan mahsulotni olish. Bu ishlardagi asosiy tavsif tomoni ishlarning doimo bir xilligi, ish bajarish tempi yuqoriligi, ishda tezkorlik va ijodiy yondashish masalalari yo'qotiladi.

Ish faoliyatining konveyer turida ish mayda-mayda bo‘lakchalarga bo‘linib, har bir bo‘lakni bitta odam bajaradi va bunda kerakli mahsulotlar va detallar konveyer yordamida o‘sha ish bajarilayotgan joyga yetkazib beriladi. Bu ish turida ishning ma‘lum ritmga rioya qilinishi va bu ritmning juda tez kechishi va har bir bajariladigan operatsiya aniq tartibni va ketma-ketlikni talab qilishi ishchidan maksimal diqqatni talab qiladi va bu ish turida iloji boricha konveyer tezligini saqlash talab etiladi. Bunda bir xil uncha katta bo‘lmagan operatsiya doimo takrorlanganligi sababli, ishchini tezda toliqishi va asab tolalarining tarang tortilishiga olib keladi va bu asabiy toliqish salbiy hodisalar kelib chiqishining asosiy omili hisoblanadi.

Ish bajarishning masofadan turib boshqarish turida ish bajaruvchi kishi ma‘lum bir ishni bajarish uchun emas, balki umumiy texnologik jarayonning bir halqasiga aylanib qoladi. Bunda uning asosiy vazifasi pult yordamida texnologik jarayonga ta‘sir ko‘rsatishga tayyor holatda bo‘lishni taqozo qiladi. Shuning uchun ishchi doimo biror bir vazifani bajarishga tayyor holatda bo‘lsa ham, uning umumiy fiziologik faoliyatida chegaralanish vujudga keladi. Demak, masofadan turib boshqarish vazifasini tez-tez texnologik jarayonga aralashib turilgandagina odam ma‘lum darajada o‘z ishidan qoniqish hosil qiladi. Aqliy mehnatni bir necha turkumlarga bo‘lib qarash maqsadga muvofiqdir. Bular: operatorlik ishlari, boshqarish, ijodiy, tibbiyot xodimlarining mehnati, o‘qituvchilar Mehnati, o‘quvchilar va studentlar mehnati sifatida tavsiflanishi mumkin.

Masalan, operatorlik Mehnati umumiy aqliy mehnat turlari ichida kat‘i mas‘uliyat talab qiladigan va nihoyatda ko‘p miqdordagi ma‘lumotlarni o‘ziga jamlagan holda ma‘lum yechimga kelishni talab qiladigan mehnat turi hisoblanadi. Bu albatta, inson organizmini asabiy zo‘riqishga olib keladi. Masalan, aviadispecherlarning Mehnati haqida so‘z yuritsak, ularning qanchadanqancha ma‘lumotlarni hisobga olgan holda ayrim yechimga kelishi uchun vaqt chegaralangan holatda ma‘lum xulosaga kelish talab etilishi, albatta, katta mas‘uliyat va qo‘yilgan vazifani aniq bajarishga intilish asabiy zo‘riqishga olib keladi.

Boshqaruvchi rahbar xodimlarning Mehnatini ham xuddi shu aviadispecherlar xizmatiga taqqoslash mumkin, chunki bularning Mehnatida ham ma‘lum bir korxonaning ish faoliyatidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ham ma‘lum nosozliklarning oldini olish, odamlar, ya‘ni ishchilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar bilan bir qatorda texnologik jarayonlar ishini bir ma‘lum darajada olib borish va umumiy ish faoliyatini boshqarish qanchadan-qancha asabiy zo‘riqishlarga olib kelishini tasavvur qilish mumkin. Bunda yana umumiy ishga javobgarlik hissi ham kelib qo‘shiladi.

O‘qituvchilar va tibbiyot xodimlarining ishida ham o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Bular doimo odamlar bilan muloqotda bo‘ladilar. Ularga turli-tuman ma‘lum otlar har lahzada kerak bo‘lib turadi va buning ustiga vaqt tanqisligi holatida aniq bir yechimga kelish kerakligi ularning mas‘uliyat hissini oshirib yuboradi va bu o‘z navbatida asabiy va emotsional zo‘riqish paydo bo‘lishiga olib keladi. Ijodiy ish mehnat qilishning eng murakkab formasi hisoblanadi. Bu mehnatda, albatta, birinchidan katta bilim va yetarli darajadagi sohada bo‘ladigan ma‘lum otlar, fikrlash qobiliyati va eslash qobiliyati kabi asabiy zo‘riqish paydo qiluvchi xodimlar: bular ilmiy xodimlar, konstruktorlar, yozuvchilar rassomlar va arxitektorlarning Mehnati hisoblanadi. Bunday mehnat turlari juda katta emotsional va asabiy zo‘riqishlarni talab qiladi. Bunday mehnat qiluvchilarda texnokardiya va qon bosimini oshishi, kislorodga organizm talabining oshishi, tana haroratining oshishi kabi funksional o‘zgarishlar bo‘lishi kuzatiladi.

Odamning ish jarayonida energiya sarflashi ishning og‘iriyengilligiga, ya‘ni muskul energiyasini sarflashiga, ishga taalluqli bo‘lgan ma‘lumotlarning zarurligiga, emotsional zo‘riqishning darajasi va boshqa sharoitlar (havoning harorati, nisbiy namligi va havo harakati tezligi)ga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, aqliy mehnat qiluvchilar (o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlar va muhandislar) ning bir kecha-kunduz davomida sarflagan energiyalari 10,5—11,7 MJ ni,

mexanizatsiyalashtirilgan ishlarda va xizmat ko'rsatish jabhalarida ishlayotganlar 11,3—12,5 MJ ni va og'ir mehnat qilayotganlar esa 16,3—18 M J energiya sarflashi aniqlangan. Mehnatda energiya sarflash mehnat qilish holatiga ham bog'liq bo'ladi. O'tirib ish bajarganda umumiy energiya sarfiga nisbatan 5—10% ortiq energiya sarflaydi. Tik turib ishlaganda 10-25%, majburiy nobop sharoitda esa 40—50% ortiq energiya sarflanadi.

Aqliy mehnat qilish jarayonida bosh miya ishi uchun sarflanadigan energiya miqdori umumiy organizm sarfidan 15—20% ortiq bo'ladi (bosh miya hajmi tana hajmining 2% ini tashkil qiladi). Aqliy mehnat jarayonida sarflanadigan energiya miqdori odamning asab-emotsional holatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, o'tirib ovoz chiqarib o'qish jarayonida energiya sarfi 48% ga ortadi, ko'pchilikka ma'ruza qilgan vaqtda 94% ga ortadi va hisoblash mashinalari operatorlari sarflagan energiya hajmi 60—100% ga ortishi kuzatilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muxofazasi to'g'risida" gi qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi. Qonun 5 bo'lim va 23 moddadan iborat. Qonunning 16 va 18-moddalarida umumta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o'rgatish va fuqaro muhofazasi sohasi bo'yicha o'qitish umumiy va majburiydir, deb ta'kidlangan.

«Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunning asosiy maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, rekonstruksiya qilish xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.

«Radiasiyaviy xavfsizlik to'g'risida» gi qonun alohida o'rin tutadi. Ushbu qonunning maqsadi radiasiyaviy xavfsizlikni fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulki, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu qonun 5 bo'lim va 28 moddadan iborat bo'lib, ularda asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan, radiasiyaviy xavfsizlikni tartibga solish, radiasiyaviy xavfsizlikni ta'minlashga quyiladigan talablar, radiasiyaviy avariya sodir bo'lganda radiasiyaviy xavfsizlikni ta'minlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan. «Radiasiyaviy xavfsizlikni ta'minlashga doir talablar» III bo'limda (12-22-moddalar) keltirilgan.

«Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» gi qonunni Respublikamiz hukumati aholi xavfsizligini ta'minlash uchun 2000 yil 15 dekabrda qabul qildi. Oxirgi vaqtlarda yuzaga kelgan ayrim vaziyatlar Respublikamiz hududida terroristik aktlar ham sodir bo'lishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Qonun davlat organlarining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari, terrorchilikka qarshi operatsiyaning o'tkazilishi, terrorchilik harakati oqibatida etkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiya hamda terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqiy va ijtimoiy muhofazasi masalalarini o'z ichiga oladi.

«Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida» gi qonunning maqsadi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Standartlar, nizomlar, qoidalar va meyoriy hujjatlar. Mexnatni muxofaza qilish buyicha konunlarni rivojlantirish uchun davlat kumitalari, vazirliklar va muassasalar xar xil me'yoriy xujjatlarni markaziy kasaba uyushmalari bilan kelishilgan xolda ishlab chikishadi va amalga tadbik qilishadi. Qo'llanish soxaiga karab mexnat muxofazasi me'yor va koidalari umumiy larga va tarmokiylarga bulinadi. Umumiy me'yor va koidalar xalk xujaligining xamma tarmoklari uchun bir

xil bulgan eng zarur Mexnat muxofazasi talablarini belgilaydi, masalan: QMQ, SHNQ; SanQvaN O'zR; EUQ (ΠΕΥ)va x.k. Tarmoqiy me'yor va qoidalar xalq xo'jaligining ma'lum bir tarmog'ida qo'llaniladi va shu tarmoqqa xos bo'lgan mehnat muhofazasi talablarini o'z ichiga oladi.

Hayot xaoliyati xavfsizligi sohasidagi xalqaro tajriba

Hayot xaoliyati xavfsizligi sohasidagi xalqaro tajribani o'rganish. 1970 yillar atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida davlat boshqaruv organlariga ekologik nazorat funksiyasi beriladigan bo'ldi. Ushbu nazorat korxonalarida turli shakl va ko'rinishdagi moslama qurilmalarni o'rnatishga, ya'ni zavod va fabrikalarning *quvirlaridan chiqayotgan chiqindilarni* tekshirib borish va tegishli javobgarlikga tortish nuqtai nazardan qaraladi. Bu holat atrof-muhitni ifloslantirish korxonalar uchun juda qimmatga tusha boshladi. Natijada korxonalarni ichki ekologik korporativ boshqaruv tizimini joriy qilindi. Lekin, ushbu majburiy choralar katta samara bermadi, ya'ni "Quvirning oxiri"ko'rinmay qoldi. 1983 yil BMTning Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish va rivojlanish komissiyasi tuzildi va unga "Brundtland komissiyasi" deb nom berildi, chunki komissiya raisi etib Norvegiyalik davlat va jamoat arbobi Gro Xarlem Bruntland saylandi. U 1987 yil BMT Sammitida "Bizning umumiy kelajagimiz" mavzusidagi ma'ruzasini qildi. Ma'ruzada G.X.Brundtland iqtisodiyot kishilarning qonuniy ehtiyojlarini qondirishi kerak, lekin uning o'sish chegarasi planetamizning ekologik imkoniyatlaridan oshib ketmasligi lozim, degan talabni butun dunyo hamjamiyati oldiga qo'ydi. Natijada, 1980 yillarda o'zini o'zi ekologik korporativ boshqarish funksiyasi yuzaga keldi. *Rivojlangan mamlakatlarda "Chiqindisiz texnologiyalar"*ga asoslangan iqtisodiyot paydo bo'la boshladi. 1992 yilning iyunida Braziliyaning Rio-de-Janeyro bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada 179 ta davlatdan kelgan yuqori martabali rahbarlar Yer planetasi muammolariga bag'ishlangan qiziqarli va unumli uchrashuvlari natijasida 700 betlik "XX I asr kun tartibi"ni qabul qildilar.

XXI asrga kelib "Barqaror rivojlanish konsepsiyasini", ya'ni iqtisodiyot rivojlanish, ijtimoiy muhofazalash, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning yagona amalga oshiruvchi jarayon ekanligi tan olindi. 2010 yil O'zR Birinchi Prezidenti I.Karimov ham o'zining BMTning Minglik rivojlanishga bag'ishlangan Sammitida qilgan ma'ruzasida ushbu konsepsiyani ma'qulladi va O'zbekiston ham ushbu jarayonga faol kirisha borishni ta'kidladi. Rossiyada miqyosida ham bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilmogda. Masalan, 2001 yil 26 dekabrda birinchi marta "Atrof muhitni himoya qilish to'g'risida"gi 7-farmoni qabul qilingan. Ushbu farmonga asosan atrof muhitni himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy tadbirlarini mehnat qonunchiligi asosida belgilab bergan. 2001 yil 27 dekabrda hukumatning "Rossiyani ekologik va tabiiy resurslari to'g'risida"gi qarori chiqqan. Ushbu qarorga asosan, maqsadli federal dastur tayyorlanib, kerakli choratadbirlar ishlab chiqilgan. Hayot faoliyati xavfsizligiga oid muammolar va ularning echimlari

1 jadval

Muammolar	Yechish yo'llari
HFX normativ huquqiy aso-sining shakllanmaganligi	Global, regional va milliy miqyosda HFX oid siyosatni shakllantirish va huquqiy normativ asoslarini yaratish
HFX mustaqil fan sifatida shakllanmaganligi, ya'ni umume'tirof etilgan ilmiy nazariy asosining yo'qligi	Mazkur sohada prioritet fan ta'moyillarini aniqlash va uni amalga oshirish uchun fundamental, amaliy va innovasion ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borishni yo'lga qo'yish
HFX oid ta'lim sohasining to'liq yo'lga	Tizimlashgan (ierarxik pog'onaga joylashtirilgan), regionallik (real tabiiy va ijtimoiy sharoitdan kelib chiquvchi)

qo'yilmaganligi	va ixt
HFX kadrlar tayyorlash masalasining xal etilmaganligi	Turli soha va yo'nalishlarni inobatga oluvchi, shu sohaga kompleks yondasha oladigan kadrlarni tayyorlash, turdosh sohalaridagi pedagoglarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish
HFX o'quv kursining nomi, mazmuni va mohiyatining aniqlanmaganligi	An'anaviy va noan'anaviy o'qitish shakli, turi yuklamasi, bosqichlarini aniqlash maqsadida metodologik va metodik nuqtai nazardan tashkillashtirilgan tajriba sinov ishlarini ta'limning barcha bosqichlarida olib borish
HFX amaliyotining nimalardan iborat ekanligi, ko'rsatgichlari, darajalari va optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqilma ganligi va h.k.	O'zbekistonda HFX ta'minlash konsepsiyasini yaratish orqali davlatning tegishli yo'nalishdagi taktik va strategik rejalarini ishlab chiqish hamda moddiy va moliyaviy imkoniyatlarni barpo etish va h.k.

Muammo – hal etishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala.

HFX muammosi – insonlarning texnotizimlarda bexatar yashashlarini ta'minlashda yuzaga keladigan va echimini kutayotgan masala. *Muammolarning yechish yo'llari* – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik, huquqiy va boshqa vositalarni tanlash va qo'llash orqali yechimini topmagan masalani hal qilish chora- tadbirlari. Ijtimoiy guruhlar bo'yicha HFXga ta'sir etuvchi omillarning xavflilik darajasi (AQSH saylovchi-ayollar Ligasi, universitetlar, biznesmenlar bergan ma'lumotlar va sosiologik so'rovnomalarga ko'ra)

Hayot xaoliyati xavfsizligi sohasidagi xalqaro tajribalarini O'zbekistonda qo'llanishi

HFX xalqaro prinsiplari:

- barcha faoliyat bosqichida xavfsizlikni nazoratlash;
- favqulotdda vaziyatlada o'zaro yordam ko'rsatish;
- minitexnotizimlarga nisbatan xo'jayinlik hissini uyg'otish;
- o'zga shaxslarga zarar etkazmaslik;
- HFX huquqining ustivorligi;
- xavfsizlik muammolarini barqaror rivojlanish talablari orqali hal etish;
- xavfsizligiga oid axborot almashish;
- HFX nizolarini tinch yo'llar bilan hal etish;
- xavfsizlikni konsultasiyalash;
- xalqaro standartlarga moslashish.

HFXni yo'nalishlari:

-HFX muammolarning echimini topishda xalqaro hamjamiyatining universal yo'llarini ishlatish;

-har qanday muhitlar da ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga tatbiq etish;

-har qanday muhitlarda insonlarni bexatar yashashi va ishlashini ta'minlashda chet el ijobiy tajribasidan keng foydalanish.

HFX ta'minlash mexanizmi - insonlarning bexatar yashashi va ishlashini xalqaro miqyosda ta'minlash:

- mehnat faoliyati xavfsizligi;
- fuqarolar xavfsizligi;
- favqulotdda vaziyatlar xavfsizligi.

HFXni ta'minlashda boshqaruv funksiyalari tizim:

- HFXga oid munosabatlarni aniqlash;
- HFX siyosatini belgilash;
- HFXni ta'minlashning huquqiy asosini shakllantirish;
- HFXni ta'minlash mexanizmini yaratish;
- global, regional, lokal miqiyosida
HFX hamkorligini ta'minlash;
- HFXni ob'ektlarini ro'yxatga olish va kadastrini yaratish;
- HFXni sub'ektlarining huquq va majburiyatlarini belgilash;
- HFX monitoringini olib borish;
- HFX nazoratini yo'lga qo'yish;
- HFX ekspertiza qilib borish;
- HFX rag'batlantirish va javobgarlikni yo'lga qo'yish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

O'zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "*O'zbekiston – suveren demokratik respublika*" jumlasini quyidagicha o'zgartirilmoqda:

- *O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.*

Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. (*Konstitutsiya normalariga rasmiy sharhlar hozircha yo'q, shu sababli undagi norma va tushunchalarga tahririyat umumqabul qilingan doirada, mustaqil izoh berib o'tmoqda*).

Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, **1-moddadagi qoidalarni qayta ko'rib chiqish mumkin emas**, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o'zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O'zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri amal qiladi

15-moddaga quyidagicha qo'shimcha qo'shildi:

- *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.*

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Referendumda qabul qilingan qonunga binoan, Oliy sud 3 oy ichida tegishli Plenum qarorini qabul qilishi kerak. Bu qaror asosida sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo'llash yuzasidan yagona sud amaliyoti joriy etiladi.

Imtiyozlar qonunda yozib qo'yilishi shart emas

Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi (avvalgi 18-modda) – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat’i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgarimoqda:

- **Eski:** *Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.*
- **Yangi:** *Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.*

Bu bilan konstitutsiyaning amalda ishlamay kelgan normalaridan biri real voqelikka moslashtirilmoqda. Amaliyot shundayki, turli jabhalardagi imtiyoz va preferensiyalar nafaqat qonunlar asosida, balki ko‘p holatlarda qonunosti hujjatlar – qaror va farmonlar asosida berib kelinyapti.

Barcha noaniqliklar – inson foydasiga

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan:

- *Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.*

Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to‘liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz.

Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o‘tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

O‘qituvchilar alohida e‘tirofda

Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki banddan iborat:

- *O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi.*
- *Davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.*

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o‘qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari (sudyalar, prokurorlar va advokatlar). Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari).

Yer xususiy mulk bo‘lishi mumkin

O‘zbekistonda 2022 yildan e‘tiboran qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o‘tgan yili e‘lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

- *Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta‘minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin.*

Bosh qomusning o‘tgan yili e‘lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlani kiritish taklif etilgan edi: *“Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi”*. Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko‘rinish oldi:

- *Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi.*

- *Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.*

Hujjatning birlamchi loyahasida mavjud bo'lgan: "Xususiylashtirish natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi" degan normani konstitutsiyaga kiritmaslikka qaror qilindi. Eslatib o'tamiz, amaldagi qonunchilikda ham bunaqa qoida yo'q.

OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo'ladi

Avvalgi konstitutsiyaning "Ommaviy axborot vositalari" nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda shunday deyilgandi: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi".

Yangi konstitutsiyaga ko'ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo'ldi:

- *Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.*

- *Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.*

Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi. MJtK va Jinoyat kodekslariga tegishli javobgarlik kiritilishi haqida 4-5 yildan beri gapirib kelinadi, lekin ularning barchasi og'izda va qog'ozda qolib ketmoqda.

Endilikda, referendumda qabul qilingan qonunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi qonunchilikni yangi konstitutsiyaga moslashtirish dasturini 2 oy muddat ichida ishlab chiqib, parlamentga kiritishi kerak.

Davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar. Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo'ldi

O'zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan:

- **Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi.** Prezidentning "davlat boshlig'i" maqomi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo'lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o'zgarishsiz qoldirildi. Ma'lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003 yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan, 2011 yilda esa qaytib 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi.

Mahalliy davlat hokimiyatidagi o'zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi

Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo'linish va hokimiyat bo'g'inlarining o'zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23- sentabr kuni mazkur Qonunni imzolashi bilan, amalda bo'lgan 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlar o'z kuchini yo'qotdi.

Ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim I–XI sinflarni o'z ichiga oladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o'rta ta'lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellectual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlaydi.

Professional ta'lim boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyliigi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lovshartnoma asosida davomiyliigi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim bakalavriat ta'limiy o'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichga-bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyliigi kamida 3 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyliigi kamida 1 yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlari bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Ta'lim olish shakllari.

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- inklyuziv ta'lim;
- eksternat tartibidagi ta'lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish barcha talabgorlar uchun ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi, shaxslarning ayrim toifalari bundan mustasno, ularga qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlari talabgorlarni va (yoki) ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini ustav, litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun), davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat, o'quv dasturi hamda ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar, ta'lim oluvchilarning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirishi shart.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga o'z otaonasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligiga va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaing xulosasiga binoan qabul qilinadi.

Ayrim ta'lim tashkilotlariga (oliy ta'lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga) o'qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi.

Davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish **davlat granti va (yoki) to'lov-shartnoma asosida** amalga oshiriladi.

Chet ellik fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim muassasalariga qabul qilish **to'lov-shartnoma asosida** (bundan davlat granti ajratilgan hollar mustasno) amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish tartibi ushbu ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilish parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish chog'ida **imtiyozli kontingent uchun qo'shimcha qabul parametrlari** belgilanadi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.

Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari.

Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va

obro`sinini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o`z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Ta`lim tashkilotlari pedagog xodimlarning huquqlari, sha`ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro`si davlat himoyasi ostida bo`ladi.

Nazorat savollari

1. HFX fani nimani o'rganadi?
2. HFXning asosiy aksiomasi yoki V. Marshal nazariyasining asosi nima?
3. Xavflarning kelib chiqish sabablarini ayting?
4. Hayotiy faoliyat xavfsizligining uchta o'zaro bog'liqlik masalasini gapiring?
5. Xavf nima?
6. Xavfsizlik taksonomiyasi nima?
7. Xavflar kvantifikatsiyasi nima?
8. Tavakkal nima?
9. Tavakkalni yo'l qo'ysa bo'ladigan miqdoriy tushunchasini xarakterlang?
10. "Xavflar daraxti"ni tuzish tavakkal kvantifikatsiyasining qaysi usulida qo'llaniladi?
11. "Xavflar daraxtidan" kutilgan asosiy maqsad nima?
12. Xavfsizlikni tahlil qilishning qaysi usuli ko'ngilsiz hodisa sodir bo'lgandan so'ng bajariladi?
13. Xavfsizlikni tahlil qilishning qaysi usuli ko'ngilsiz voqea sodir bo'lmasdan oldin bajariladi?
14. Xavflarni tahlil qilishning aprior va aposterior usullari bir-biriini to'ldiradimi yoki bir-biriga zidmi?

Mavzu: SOG'LOM TURMUSH TARZI ASOSLARI VA UNING HAYOT FAOLIYAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Reja:

1. Sog'lom turmush tarzining nazariy masalalari.
2. Sog'lom turmush tarzi.
3. Sog'lom turmush tarzining mafkuraviy asoslari.
4. Sog'lom turmush tarzi gigiyenasi.
5. Zararli odatlar va sog'lom turmush tarzi.
6. Oila va uning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni.

Sog'lom turmush tarzi

Sog'lom turmush tarzi - bu avvalo qarilikkacha bo'lgan uzoq yillargacha har bir kishini sog'ligini mustahkamlovchi va ta'minlovchi turmush tarzining kechishidir. Insonni sog'lom turmush tarzini kechirishini bosh ko'rsatkichi - bu avvalo uning fizik rivojlanish holati va unga bog'liq o'zini umumiy his etishi, kayfiyati, shaxsiy hayotidagi, o'qishidagi, ishidagi muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsizliklaridir. Sog'lom turmush tarzini kechirish insonni holatidagi quyidagi normalarni o'z ichiga oladi:

- 1) Doimiy va ongli ravishda o'z sog'ligi haqida qayg'urish;
- 2) Sog'lik haqida qayg'urish oqilona, mushohadali tashkil etilishi organizmga zarar etkazmasligi, ortiqcha charchashga olib kelmasligi zarur (masalan, chiniqishda yoki davolovchi ochiqish va shunga o'xshashda);
- 3) Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, yalqovlik va sog'lik bir-biriga mutloqa mos bo'lmagan narsa hisoblanadi; Har bir inson har kuni o'z sog'ligi holatiga e'tibor ko'rsatishga o'zini majburlashi zarur;

4) Sog'likka gipodinamiya (kam harakatli turmush tarzi), alkogol, narkotik moddalarga ruju qo'yish, sigaret chekish, noto'g'ri ovqatlanish (ortiqcha ovqatlanish achchik, sho'r yoki yog'li taomlarni tez-tez iste'mol qilish va boshqalar) kabi omillar zarar keltiradi, dam olishni bilmaslik (uzluksiz, uzoq vaqtli va tanaffussiz dam) sog'lik uchun zararlidir. Shu bilan birga har narsaga xavfsirash, qo'rqish, doimiy norozilik kayfiyati, hohishlar o'rtasidagi qarama-qarshilik, doimiy nolish, qanoatlanmaslik hissi, o'z zahrini sochishlik kayfiyati, yomonlik qilish kayfiyati, hasad va shu kabilar sog'lik uchun o'ta zararlidir.

Sog'lom turmush tarzini kechirishga sezilarli ta'sir etadigan, sog'likni zarur daraja ta'minlaydigan quyidagi omillar yordam beradi:

- 1) Mehnatsevarlik bilan birga yaxshilanishga ishonch;
- 2) Hajviya va hazillarga moyillik;
- 3) Har bir holatga tez moslasha olish;
- 4) Yaxshilikni uzoq vaqt esdan chiqarmaslik va yomon narsalarni tez unutish qobiliyati;
- 5) Yengil (yoqimli) charchashga toza havoda doimiy jismoniy mehnat bilan shug'ullanish;
- 6) Xursandchilik-sog'likning eng yaxshi do'sti, har soniyada, har soatda, kun davomida yaxshi kayfiyatda bo'lishni o'rganish lozim;
- 7) Hayot va uning xursandchiliklarini mazmuni haqidagi insonning aqliy tafakkuri, maqsad sari intilish bilan ishonch birligi har bir kishini bosh tayanchi ekanligini anglash.

Inson unda bitta sog'lik mavjudligini, kasallik esa sanoqsiz, juda ko'p ekanligini har doim esda saqlashi va shu sababli ko'p sonli kasalliklar bilan kurashgandan ko'ra sog'likni asrash, avaylash osonligini unutmasligi kerak. Bunday shunday xulosa chiqarish kerakki, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish, ko'pgina kasalliklardan butunlay qutulishga yoki ularga qarshi muvaffaqiyatli kurashishga yordam beradi. Boshqa xulosa shundayki, sog'lom turmush tarziga rioya qilmaslik odatda inson organizmini har xil kasalliklarga nisbatan qarshiligini kuchsizlanishiga, ko'p hollarda esa immunitetni (organizmni himoya funktsiyasi) kuchsizlanishiga olib keladi. Sog'lom turmush tarzi jamiyatning har bir a'zosini ikki yo'nalish bo'yicha harakatini yo'lga qo'yishida amalga oshadi.

O'z sog'ligini yaxshilash va shakllantirish bo'yicha ishni gigienik qoidalarga rioya qilishdan boshlash, chiniqish, jismoniy madaniyat bilan shug'ullanish, yo'qotilgan enyergiya va ovqatlanishni doimiy muvozanatiga erishish va shu kabilar;

Sog'likni emirilishiga ko'maklashuvchi zararli odat omillari ta'siridan qutilish. Bu zararli odatlarga chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, norkotik va toksik moddalar qabul qilishlar kiradi. Sog'lom turmush tarzining muhim elementlaridan biri shaxsiy gigiyena hisoblanadi. «Shaxsiy gigiyena» ning o'zi keng tushuncha bo'lib, u sog'likni asrashga qaratilgan ko'p sonli gigienik qoidalarni, normalarni talab etadi va ular mehnatsevarlik, uzoq yillik faollik, yuqumli va yulqumsiz kasalliklarni oldini olish bo'yicha ishlar hisoblanadi. Shaxsiy gigiyena o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) Terini parvarishlash;
- 2) Tishlarni parvarishlash, sog'likni parvarishlash;
- 3) Ust kiyim, bosh va oyoq kiyimlari gigiyenasi.

Shaxsiy gigiyena o'z navbatida ijtimoiy, qolavyersa butun jamiyat gigiyenasi uchun katta ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalarida so'nggi yillarda shaxsiy gigiyenaga katta e'tibor byerilmoqda. Bozor iqtisodiyoti islohotlari mamlakatimizda sog'lom turmush tarziga rioya qilish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina kasalliklardan davolanish juda qimmat turadi. Sog'lom turmush tarzini olib borish nafaqat jismoniy sog'likni asrashga e'tibor qaratishni balki, fizik sog'likka ta'sir etadigan ruhiy-hissiy sog'lik haqida ham doimiy qayg'urishni talab etadi.

Ruhy kasalliklarni (ayniqsa surunkali ruhy kasalliklarni) har xil jismoniy kasalliklarga olib kelishi hammaga ma'lum.

Turmush tarzining kasallik profilaktikasi bilan aloqasi

Butunjahon sog'likni saqlash tashkilotining aniqlashi bo'yicha inson sog'ligining umummiy holati uning fizik, ruhy va ijtimoy holati darajasi bilan belgilanadi. Ko'p sonli tadqiqotlar natijasi mamlakat aholisining sog'ligi har bir insoning o'ziga 50 %, inson irsiyatiga 20 %, atrof-muhit ta'siriga 20 % va sog'likni saqlash bo'yicha ishlarga 10 % bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Demak talab darajasida sog'likni saqlash ko'p jihatdan har bir insonning o'ziga, xarakteriga va turmush tarziga bog'liq ekan. Ko'p asrlik tajriba turmush tarzi kasallik kelishini sekinlashtirishini yoki tezlashtirishini ko'rsatadi. Shu bilan birga ma'lum tabiiy holatda insonning biologik soatlari faoliyati ham o'z manziliga etishi ham shubhasiz. Bunday tashqari inson sog'ligi zahirasi birinchi navbatta shu insonning o'ziga bog'liq va ikkinchidan aniq bir insoniyat jamiyatining (mamlakatning davlatning) rivojlanish darajasiga ham bog'liq. Tez-tez qaytariladigan, og'ir va uzoq vaqt davom etadigan kasalliklar insonni biologik soati yulrishini tezlatishga olib keladi. Inkori qilib bo'lmaydigan tibbiy statistika shuni ko'rsatadiki, 30 yoshda ham yosh bo'lmasligi, sog'lom odam esa o'zining 50-60 yoshida ham yoshday bo'lishi mumkin. Ko'p kasalliklar jumladan ruhy tushkunlik ta'siri ostida yuzaga keladigan kasalliklar ta'sirida insonlarning erta qarishi yoki vafot etishi ma'lum. Bunday salbiy holatlar tasodif emas, o'z sog'ligi holatini bilmaslik, unga e'tiborsizlik va oddiy elementar ehtiyotsizlik ham sabab bo'lishi mumkin. Inson ko'p holda kasallikni ehtiyotsizlik, ba'zan eng oddiy bilimlarni etishmasligi, hamda o'z sog'ligiga mutloq e'tiborsiz munosabati oqibatida orttiradi. SHifokor tadqiqotchilarning qayd qilishicha insonlardagi ko'pchilik kasalliklar vijdonga, poklikka, g'ururga qarshi harakatlar, oddiy nomardlik, yolg'ondan iborat turmush, adolatsiz ishlarda faol ishtirok etish bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqadordir.

Qadimgi shifokorlarning qayd etishiga kasallik ko'pincha kam harakatli, g'azabdor, hasadguy, tushkun insonlarda hosil bo'ladi. Xuddi shunday tadqiqotlarning guvohlik berishicha har xil turdagi kasalliklarga o'ziga katta javobgarliklarni olishga moyil, faol odamlar, burchga yuqori masuliyat sezgisiga ega bo'lgan, ko'p va yuqori yuklamada ishlovchi kishilar, o'ziga nisbatan talabchan, atrofdagilarni unga byergan baholarini (ayniqsa salbiy) og'riqli qabul qiluvchi va ma'lum holda kamsitilgan sezgiga ega bo'lgan insonlar chalinar ekan. Sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish sog'likni, uzoq yashashni kafolati ekanligi inkori etib bo'lmaydigan faktdir. Turmush tarzi insonning hayoti davomida qayd etilgan bir necha odatlar jamlamasidir. Har bir individni turmush tarzi oila va umumiy xalqning an'analari asosida yaratilgan. Kavkaz, Himolay, Yaponiya ayol va erkaklarning uzoq umr ko'rishi bilan ajralib turishi ham kutilmagan holat emas. Uzoq umr ko'rgan insonlar hayotini o'rganish uzoq umr ko'rishning asosiy sabablari jismoniy va aqliy yuklamalarni normada bo'lishi, talab darajasida dam olish, chiniqish va zararli odatlardan (spirtli ichimliklar, narkotik moddalar va boshk.) o'zni tiyish ekanligini ko'rsatdi.

Tibbiyot xodimlarining olib borgan ko'p yillik tadqiqotlari natijasida har kuni uzum vinosini iste'mol qiluvchi 10 kishidan 5 tasida uzluksiz sariq kasalligi, ikkitasida jigar tsirrozi aniqlangan. Shu bilan birgalikda tadqiqot olib borilgan kishilardan zararli odatga ega bo'lmaganlarida organizmni yashartiruvchi tabiiy vositalar chiniqish va davriy (hech bo'lmaganda bir kunga) ochiqishligi ma'lum bo'lgan. Bunday tashqari uzoq umr ko'ruvchi insonlarda olib borilgan tadqiqotlar kunlik iste'mol qilinadigan ovqatlar tarkibida sho'rtak sut, pishloq vegetirian ovqatlar (tarkibida genetik apparatni qarish jarayonini sekinlashtiruvchi A, S, E, R vitaminlar mavjud bo'lgan meva va sabzavotlar, ko'kat) iste'mol qilish ham foydali ekanligini ko'rsatdi. Uzoq umr ko'ruvchi insonlarning kunlik iste'molida o'tli (myata, dushitsa, tarxun va boshqa) chaylarni

mavjudligi ham qiziqarli holdir. Tibbiy statistika chekuvchilarni onkologik kasalliklariga ko'proq chalinishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijasida kuniga bir yarim pachka sigaret chekadigan kishilar bir yil davomida 300 marta rentgen ko'krak qafasi tekshiruvdan o'tgan kishi olgan ionlovchi radiatsiyaga teng bo'lgan nurni olar ekan. Sigaretning tutunida ma'lum bosqichda o'pka rakiga olib keluvchi poloniy-210, strontsiy-90, radiy-226, qo'rg'oshin-210 va kaliy-40 radioaktiv moddalarning mavjudligi aniqlangan.

Harakat faolligini inson sog'ligi va faoliyatiga ta'siri

Zamonaviy dunyoda maishiy texnikani rivojlanishi, har xil korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirilishi, mexanizatsiyalashtirilishi, kompyulyerlashtirilishi, jamoat va shaxsiy transportidan keng foydalanish ko'pchilik odamlarda kam harakatli turmush tarzini oshishiga sabab bo'lib, insonning harakatlanish faolligini kamaytiradi. Kam harakatli turmush tarzi harakat faolligini kamayishi yoki gipokineziya hisoblanadi. Maktab yoshidagi gipokineziya bolani kundalik mehnat va dam olish tartibini ratsional tashkil etilmaganligi, kunlik topshiriklarni ortiqchaligi bilan bog'liq va buning natijasida bolani sayr qilishga kam vaqti qoladi. Gipokineziya talabalar muhitiga ham xarakterli holatdir. Qator hollarda gipokineziyani bir joyda yotishni talab qiladigan kasalliklar ham keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda organizmdagi barcha muskullarda yuklama kamayadi. Texnik taraqqiyot bir tomondan hayotni bir muncha yengillashtirsada ikkinchi tomondan organizmga yetarlicha zarar ham etkazadi. U mo'shaklarni och qolishiga sharoit yaratadi, atrof-muhitni zararli ta'siriga organizm qarshiligini pasayishini tezlatadi. Yosh o'tishi bilan bu holat chuqurlashib boradi va inson organizmini emiradi. Ko'pgina davlatlarning olimlari olib borgan tadqiqotlar natijasida harakatlanish faolligining yetarli bo'lmasligi yurak-qon tomirlari kasalligini paydo bo'lishida asosiy omil bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarning olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kam harakat qiladigan 40 yoshdan oshgan odamlarni gipyertonik va atyerosklyeroz kasalliklariga chalinishi 2 baravar ko'p bo'lishini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 80 % aholi jismoniy yuklama yetarli bo'lmagan turmush tarzini kechiradi.

Zamonaviy dunyoda bu salbiy holatga qarshi samarali kurashishi vositasi istalgan jismoniy mashq turi bilan sistematik shug'ullanish, toza havoda hech qanday maxsus sharoit talab etmaydigan yulgurish va yulrish hisoblanadi.

Yyirishda insonning 50 dan ortiq muskullarini ishga tushishi tadqiqotlar orqali aniqlangan. Shu bilan birga yulrish bilan doimiy shug'ullanish yurak-qon tomirlari, nafas olish sistemasini mashk qildirib, ularga yaxshi ta'sir etadi, organizmda modda almashinuvini yaxshilaydi, semirishni oldini oladi. Bunday tashqari yulrish davomiyligini asta-sekin oshirib borish yurakda qon aylanishini yaxshilanishiga yordam beradi. yurish vaqtida oyoq harakati nasos mexanizmiga o'xshab ishlaydi va nafaqat oyoqda balki, butun organizmda qon aylanishini yaxshilanishiga olib keladi. Faoliyat davrida harakatni yetarli bo'lmasligi bilan bog'liq holda muskullarni faoliyatini yetarli bo'lmasligi organizm holatiga birdan ta'sir etadi. Gipokineziya va gipodinamiyalarning xavfliligi uchun kasallarga ham uzoq vaqt krovatda harakatsiz yotishga ruxsat berilmaydi. Harakat faolligini yetarli bo'lmasligi yurak-qon tomir va asab sistemalarining kompensator qobiliyatiga birinchi o'rinda salbiy ta'sir etadi. Ish joyida kun bo'yi oyoqda tik turib ishlovchilarda harakat faolsizligi kuzatiladi. Stanok oldida kun bo'yi bir holatda ishlash oyoqda qon aylanishini yomonlashtiradi va bu vena qon tomirini kengayishi va teri ostidan ko'karib qolishi bilan amalga oshadi. Doimiy oyoqda tik turib ishlashda vaqti soati kelib mushaklar qayishqoqligi yo'qotilib, to'qimalar harakatlanuvchanligini kamaytiradi. Turib ishlashdan o'tirib ishlash organizmga ancha yengillik tug'diradi. Bunda tayanch maydoni oshadi, oyoq muskullariga statik yuk tushmaydi, yurak-qon tomirlari sistemasini ishini yengillashtiradi. Ammo o'tirib ishlashda harakat faolligining

kamayganligi bois ma'lum darajada organizmda gipokineziya va gipodinamiya kuzatilishi tufayli o'zining salbiy tomonlariga ham egadir.

Gipodinamiya va gipokineziyaga qarshi kurashning eng yaxshi vositalari jismoniy mashq yoki jismoniy tarbiya bilan kompleks shug'ullanish hisoblanadi.

Zararli odatlarni inson organizmiga va faoliyatiga ta'siri

Tibbiyot amaliyotida spirtli ichimliklarga, sigaret chekishga, narkotik va toksik moddalarga ruju qo'yish zararli odatlarga kiradi. Spirtli ichimlikka ruju qo'yish asta-sekin mastlik va so'ng alkogol holat bilan tugaydi. Hozirgi vaqtda ichimlik ichish, alkogol holatga tushish kam bo'lsada yoshlar (o'quvchilar, talabalar) o'rtasida ham uchrab turganligi sir emas. Shu sababli bu salbiy holatga qarshi kurashish, uni oldini olish har bir davlatning har doim birinchi darajali vazifalaridan bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Bu tadbirlarga xukumat darajasida e'tibor qaratilishi juda muhimdir. Chunki xalq sog'ligi, o'sib kelayotgan yosh avlodlar sog'ligini saqlab qolish nuqtai nazaridan asoslanadi.

Bunday salbiy holatlarga nisbatan jiddiy qarshi kurash tadbirlarini doimiy olib bormaslik aholining ma'lum qatlami orasida narkotik, toksik kabi moddalarga ruju qo'yishga olib keladi. Buning natijasida narkotik moddalarni iste'mol qilish kengayadi. Yoshlardagi bunday zararli odatlar irsiyat orqali ham ota-onadan, oila muhitidan farzandga o'tishi mumkinligi tibbiy ekspertyzalarida ham aniqlangan.

Rossiya mamlakatining tibbiy statistikasi so'ngi yillarda mamlakatda

- 1) yurak-qon tomirlari, onkologik kabi og'ir kasalliklarni;
- 2) o'limni;
- 3) zararli odatlarga ega bo'lgan fuqarolar o'rtasida jarohatlanishlarni sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi.

Buning natijasida o'rtacha umr yoshi pasayganligini (ayniqsa erkaklarda 58 yoshgacha) ko'rsatmoqda. Ushbu statistika hayotdan ko'z yumgan odamlarning 50 foizi zararli odatlar bilan shug'ullanib kelgan kishilar ekanligini tasdiqlaydi.

Alkogol ichimliklarni inson organizmiga ta'siri qadim zamonlardan juda asosli o'rganilgan. XIX asrdayoq taniqli nemis shoiri Gyote o'zining maqolalarining birida: «Vino odamlarning tansog'ligini o'ldiradi, aqliy qobiliyatini o'ldiradi, oilaviy iqtisodiy sharoitini o'ldiradi va bulardan ham eng dahshatlisi inson qalbini va ularning avlodini o'ldiradi» deb yozib qoldirgan. XX asrning boshlarida amyerikalik yozuvchi D.London quyidagicha yozadi. «Alkogol – bu insonni yoshligini kemiradigan, kuchini yo'qotadigan, enyergiyasini yakson qiladigan, odamni tug'ilishdagi eng yorqin rangini o'ldiradigan, qadimdan insoniyatni tirik o'likka aylantirishga, undan jirkanch nusxa yasashga kirishgan takabburlikning tug'ilishidir». Shu sababli bu jirkanch illat bilan qarshi kurashish har bir ta'lim muassasasida, oilada ma'naviy ishlarni yuksak darajada yo'lga qo'yish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Alkogol ichimliklar asosan (S₂N₅ON etil spirtidagi) etanolning narkotik ta'siri uchun iste'mol qilinadi. Uning kichik dozasi kayfiyatni ko'tarish orqali organizmda o'yg'oqlik baxsh etadi, ko'prog'i o'zini nazorat qilishni kuchsizlantiradi va bo'shishga olib keladi. Inson alkogol ichimlik iste'mol qilganda uning katta qismi qonga oshqozon orqali, kichik qismi esa qizil o'ngach orqali so'riladi. Alkogol ichimlikning qonga so'rilish tezligi bu ichimlikning kontsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Ovqat alkogolni qonga so'rilishini sekinlashtirib, uning qondagi miqdorini 2 baravar kamaytiradi. Kuchli charchash, miya jarohati, ruhiy kasallik, zaharlanish, infeksiyalar alkogolga organizm qarshiligini pasaytiradi, iflos havo, yuqori harorat va uni birdan o'zgarishi mast bo'lish vaqtini tezlashtiradi. Qonga so'rilgan alkogol asosan jigarda va kam darajada qonda qayta ishlanadi. Faqat 6 dan 10 % gacha alkogol o'zgarmagan ko'rinishda buyraklar, teri bezlari va o'pka

orqali ajraladi. Alkogolni tanada oksidlanish tezligi 1 kg og'irlikka soatiga 100 g ni tashkil etadi. Bunday tezlikda organizm tomonidan (yetarli gazak bilan) iste'mol qilingan 1 shisha alkogolni qayta ishlash uchun taxminan bir kun talab etiladi.

Har qanday tarkibdagi alkogol spirtli ichimliklar dori bo'la olmaydi, bakteriya va viruslarni o'ldira olmaydi. Spirtli ichimliklar bilan o'zini davolash yaxshi oqibatlariga olib kelmaydi. Alkogol ichimlik hujayralarni yangilash uchun zarur moddalarni qonga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Vrachlar alkogol ichimlikni markaziy asab sistemasiga ta'sir qiluvchi zahar deb hisoblashadi. Bu ta'sir natijasida bosh miya qatlamida tormozlash jarayoni kuchsizlanadi va insonda o'z xarakterini nazorat qilish birdan pasayadi.

Alkogolga ruju qo'yg'an insonlarda uni iste'mol qilmaydigan odamlarga nisbatan yurak-qon tomirlar kasalligiga chalinish 2 baravar, ovqat hazm qilish organi kasalligiga 18 baravar, nafas olish organlari kasalligi 4 baravar bo'lishi ma'lum. Alkogolni erkaklarning jinsiy organlariga salbiy ta'siri etishi, hatto uning funktsiyasini butunlay to'xtashiga ham sabab bo'lishi aniqlangan. Tibbiyot statistikasi ko'rsatadiki, alkogol inson organizmi immuniteti sistemasini faolligini pasaytiradi, buning natijasida alkogol odamlar ko'pincha og'ir kasallanadi, ko'pchilik kasalliklari surunkali formaga aylanadi.

Nazorat savollari

1. Sog'lom turmush tarzi nima?
2. Gipodinamiya (kam harakatli mehnat faoliyati) haqida tushunchangiz?
3. Sog'lom turmush tarziga salbiy ta'sir etuvchi omillarni sanang?
4. Zararli odatlar deganda nimani tushunasiz?
5. Mamlakat aholisining sog'ligi holatiga bog'liq bo'lgan omillarni sanang va izohlang?
6. Noto'g'ri ovqatlanish deganda nimani tushunasiz?
7. Ortiqcha ovqatlanish nimaga sabab bo'lishi mumkin?
8. Yetarli ovqatlanmaslik qanday salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi?
9. Urbanizatsiyani qanday tushunasiz?
10. Jismoniy zo'riqish yetarli bo'lmagan turmush tarzini kechirayotgan aholi necha foizga teng va buning sababini nimada deb tushunasiz?

2-Mavzu: MEHNATNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA HODIMNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

Reja;

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va boshqa qonuniy normative hujjatlar.
2. Ishga kirish jarayoni va uni davom ettirish.
3. Mehnat jarayonida xodimning huquqlari.
4. Mehnat jarayonida xodimning majburiyatlari.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi 2021 yil 14 oktyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2022 yil 17 martda Senat tomonidan ma'qullangan edi. Kodeks 7 bo'lim, 34 bob va 581 moddadan iborat.

1-bob. Asosiy qoidalar

2-bob. Mehnat to'g'risidagi qonunchilik va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar

3-bob. Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning subyektlari va yuzaga kelish asoslari

4-bob. Umumiy qoidalar

5-bob. Xodimlarning va ish beruvchilarning ijtimoiy sheriklikdagi vakilligi

6-bob. Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik organlari

7-bob. Jamoaviy muzokaralar

8-bob. Jamoa shartnomasi

9-bob. Jamoa kelishuvlari

10-bob. Umumiy qoidalar

11-bob. Ish beruvchi tomonidan bandlik va ishga joylashtirish sohasida taqdim etiladigan kafolatlar

12-bob. Mehnat shartnomasi

13-bob. Ish vaqti

14-bob. Dam olish vaqti

15-bob. Mehnatga haq to'lash

16-bob. Mehnatni normalashtirish

17-bob. Kafolatli to'lovlar va kompensatsiya to'lovlari

18-bob. Mehnat intizomi

19-bob. Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi

20-bob. Mehnatni muhofaza qilish

21-bob. Umumiy qoidalar

22-bob. Ishlab chiqarish ta'limi shartnomasi

23-bob. Ishni ta'lim bilan birga olib boruvchi xodimlar uchun kafolatlar va kompensatsiyalar

24-bob. Umumiy qoidalar

25-bob. Ijtimoiy va huquqiy jihatdan kuchli himoya qilinishga muhtoj shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

26-bob. Xodimning ish beruvchi bilan mehnatga oid aloqasi xususiyatiga va o'z mehnat faoliyatini amalga oshirish joyiga bog'liq holda mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

27-bob. Xodimning mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

28-bob. Xodim mehnatining xususiyati bilan bog'liq bo'lgan mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

29-bob. Mikrofirmalarda va ish beruvchi bo'lgan jismoniy shaxslarda ishlovchi shaxslar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

30-bob. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

31-bob. Umumiy qoidalar

32-bob. Xodim tomonidan mehnat huquqlarini o'zi himoya qilishi

33-bob. Mehnat to'g'risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga hamda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat va tekshiruv

34-bob. Mehnat nizolarini ko'rib chiqish

20-bob. Mehnatni muhofaza qilish

1-§. Umumiy qoidalar

351-modda. Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi

Mehnatni muhofaza qilish mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari va vositalari tizimidir.

352-modda. Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar

Ish beruvchilar xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlarini ta'minlashi shart.

Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar ushbu Kodeksda, boshqa qonunchilik hujjatlarida, shuningdek mehnatni muhofaza qilish masalalariga oid texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda (bundan buyon matnda mehnatni muhofaza qilish qoidalari deb yuritiladi) belgilanadi.

Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar mehnat faoliyati jarayonida xodimning hayoti va sog'lig'ini saqlashga qaratilgan qoidalarni, tartib-taomillarni va mezonlarni belgilaydi.

Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), ulardan foydalanish, mashinalarni, mexanizmlarni va boshqa jihozlarni konstruksiya qilish, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish, shuningdek o'zga turdagi faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart.

Xodimlarning shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari mehnatni muhofaza qilishga doir talablarga mos kelishi hamda muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi shart.

Mehnatni muhofaza qilishga doir talablarni va mehnatni muhofaza qilish qoidalarini o'z ichiga olgan qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va o'zgartirish tartibi Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasining takliflari inobatga olingan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

353-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid tadbirlar uchun ish beruvchi tomonidan ajratiladigan mablag'lar va materiallar

Mehnatni muhofaza qilishga oid tadbirlarni o'tkazish uchun ish beruvchi tomonidan zarur mablag'lar va materiallar ajratiladi. Bu mablag'lar va materiallarni boshqa maqsadlarga sarflash taqiqlanadi. Mazkur mablag'lar va materiallardan foydalanish tartibi jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra ish beruvchi tomonidan belgilanadi.

Mehnatni muhofaza qilishga oid tadbirlarni o'tkazish uchun ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish fondini tashkil etishga haqli.

Xodimlar mehnatni muhofaza qilishga oid tadbirlar o'tkazilishi munosabati bilan chiqimdor bo'lmaydi.

Mehnat jamoalari, kasaba uyushmasi qo'mitalari mehnatni muhofaza qilishga oid tadbirlarni o'tkazish uchun ajratilgan mablag'lar va materiallardan foydalanilishini nazorat qiladi.

354-modda. Ayrim toifadagi xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

Ayrim toifadagi xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari ushbu Kodeksning VI bo'limida va mehnat to'g'risidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilanadi.

Og'ir ishlarda hamda zararli va xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning, shuningdek mazkur ishlar sog'lig'iga to'g'ri kelmaydigan shaxslarning mehnatidan foydalanish taqiqlanadi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxati Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasining taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

2-§. Mehnat shartnomasi taraflarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari

355-modda. Xodimning mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari

Xodim quyidagi huquqlarga ega:

normativ-huquqiy hujjatlar talablariga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga mos ish joyiga ega bo'lish;

ish beruvchidan mehnat sharoitlari to'g'risida, shu jumladan kasb kasalliklariga va boshqa kasalliklarga chalinish xavfi, shu tufayli o'ziga berilishi lozim bo'lgan imtiyozlar va kompensatsiyalar, shuningdek shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari haqida axborot olish;

mehnatni muhofaza qilishning belgilangan normalariga va talablariga muvofiq ish beruvchining mablag'lari hisobidan shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanish;

qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtalanish;

mehnatni muhofaza qilish talablari buzilganligi oqibatida o'z hayoti va sog'lig'i uchun xavf yuzaga kelgan taqdirda bunday xavf bartaraf etilguniga qadar ishlarni bajarishni rad etish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organ tomonidan o'z ish joyidagi mehnat sharoitlarini va mehnatni muhofaza qilishni tekshiruvdan o'tkazishni so'rash;

ish beruvchining mablag'lari hisobidan mehnatning xavfsiz uslublari va usullari bo'yicha o'qish;

qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalar olish;

o'z mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yoki sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi munosabati bilan xodimning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rni ish beruvchi tomonidan qoplanishi;

o'z ish joyida xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda, o'zi bilan ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisani yoki o'zining kasb kasalligini tekshirishda shaxsan ishtirok etish yoki o'z vakillari orqali ishtirok etish;

tibbiy tavsiyalarga muvofiq tibbiy ko'rikdan o'tish vaqtida o'z ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlanib qolinganda mazkur tibbiy ko'rikdan navbatdan tashqari o'tish;

mehnatni muhofaza qilish talablari buzilganligi sababli ish joyi tugatilgan taqdirda ish beruvchining mablag'lari hisobidan o'qish va qayta tayyorgarlikdan o'tish.

Xodim qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Xodim:

normativ-huquqiy hujjatlar talablariga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etishi;

shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri qo'llashi;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tishi, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'qishi hamda malaka oshirishi;

majburiy tibbiy ko'riklardan o'tishi;

odamlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita tahdid solayotgan har qanday vaziyat to'g'risida, shuningdek ish jarayonida yoki unga bog'liq holda ishlab chiqarishda yuz bergan har qanday baxtsiz hodisa haqida ish beruvchini darhol xabardor qilishi shart.

Xodimning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

356-modda. Mehnatni muhofaza qilish talablariga mos keladigan sharoitlarni ta'minlash kafolatlari

Davlat xodimlarga mehnatni muhofaza qilish talablariga mos keladigan sharoitlarda mehnat qilish huquqi himoya qilinishini kafolatlaydi.

Mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat sharoitlari mehnatni muhofaza qilish talablariga mos kelishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar buzilganligi tufayli ish beruvchining faoliyati to'xtatilgan vaqtda xodimning ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlab qolinadi. Bu vaqtda xodim bajarayotgan ishi bo'yicha mehnatiga haq to'langan holda, lekin avvalgi ish bo'yicha o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda haq to'langan holda o'z roziligi bilan ish beruvchi tomonidan boshqa ishga o'tkazilishi mumkin.

Xodim o'z hayoti va sog'lig'i uchun xavf yuzaga kelganda ishni bajarishni rad etgan taqdirda, ish beruvchi bunday xavf bartaraf etilguniga qadar xodimga boshqa ish berishi shart.

Agar xodimga obyektiv sabablarga ko'ra boshqa ish berishning imkoni bo'lmasa, xodimning o'z hayoti va sog'lig'i uchun xavf bartaraf etilguniga qadar bekor turib qolgan vaqti uchun ish beruvchi tomonidan ushbu Kodeks 266-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq haq to'lanadi.

Xodim belgilangan normalarga muvofiq shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari bilan ta'minlanmagan taqdirda, ish beruvchi xodimdan mehnat majburiyatlarini bajarishni talab qilishga haqli emas va shu sababdan ishda yuzaga kelgan bekor turib qolganlik uchun ushbu Kodeks 266-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq haq to'lashi shart.

Xodimning mehnatni muhofaza qilish talablari buzilganligi oqibatida o'z hayotiga va sog'lig'iga xavf yuzaga kelgan taqdirda yoxud mehnat shartnomasida nazarda tutilmagan zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlarida ishlarni bajarishni rad etishi uni intizomiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmaydi.

Xodimning o'z mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan hayotiga va sog'lig'iga ziyon yetkazilgan taqdirda, ushbu ziyonning o'rmini qoplash qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida davlat mazkur talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi tashkil etilishini hamda amalga oshirilishini ta'minlaydi va ish beruvchi hamda uning mansabdor shaxslarining mazkur talablarni buzganlik uchun javobgarligini belgilaydi.

357-modda. Xodimni ishga qabul qilish va boshqa ishga o'tkazishda mehnatni muhofaza qilish huquqi kafolatlari

Xodimni sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lgan ishga qabul qilish va boshqa ishga o'tkazish taqiqlanadi.

Xodimni uning hayotiga va sog'lig'iga yuqori darajadagi xavf ehtimoli oldindan ma'lum bo'lgan ishga qabul qilayotganda hamda o'tkazayotganda ish beruvchi uni bu haqda ogohlantirishi shart.

358-modda. Xodimning o'z hayotiga va sog'lig'iga tahdid solayotgan ishni bajarishni rad etish huquqi

Xodim ish jarayonida o'z hayotiga va sog'lig'iga tahdid soladigan holatlar yuzaga kelganligi to'g'risida ish beruvchini darhol xabardor qilib, o'z hayotiga va sog'lig'iga tahdid soluvchi holatlar bartaraf etilguniga qadar tegishli ishni bajarishni rad etishga haqli. Ana shu davr mobaynida xodimning o'rtacha ish haqi saqlanadi.

Agar xodimning hayotiga va sog'lig'iga xavf soladigan holatlar yuzaga kelmaganligi aniqlansa, ish beruvchi ushbu Kodeksning 302 — 311-moddalarida belgilangan tartibda xodimga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazish tashabbusi bilan chiqishga haqli.

359-modda. Ish beruvchining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari

Ish beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

xodimlardan mehnatni muhofaza qilish va ishlarni bexatar olib borishga doir normalarga, qoidalarga hamda yo'riqnomalarga rioya etilishini talab qilish;

alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatini tekshirish uchun xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

xodimlarning ishlab chiqarishda olgan jarohatlarining og'ir-yengilligi, ularda jarohatlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan kasalliklar bor-yo'qligi, shuningdek alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida bo'lgan-bo'lmaganligi to'g'risida ma'lumotlar olish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga yoki bevosita sudga shikoyat qilish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etganlik uchun xodimlarni mukofotlash va moddiy rag'batlantirish choralarini ko'rish;

mehnatni muhofaza qilish talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan xodimlarni intizomiy javobgarlikka tortish.

Ish beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ish beruvchi:

har bir ish joyidagi mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiqligini ta'minlashi;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini yaratishi va uning ishlashini ta'minlashi;

binolar, inshootlar, asbob-uskunalardan foydalanishda, texnologik jarayonlarni amalga oshirishda, shuningdek xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishda qo'llashda, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishda xodimlarning xavfsizligini ta'minlashi;

ish joylaridagi mehnat sharoitlarining holati ustidan, ayniqsa zararli ishlab chiqarish omillari va xavfli ishlab chiqarish omillari ustidan nazoratni amalga oshirishi;

xodimlarni mehnat sharoitlari, shu jumladan kasb kasalliklari va boshqa kasalliklar xavfi mavjudligi, muayyan ish joylaridagi hamda ishlab chiqarishdagi mehnatni muhofaza qilish holati, shuningdek shu munosabat bilan ularga berilishi lozim bo'lgan imtiyozlar va kompensatsiyalar, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilishi;

mehnatni muhofaza qilish xizmatini va yo'l harakati xavfsizligi xizmatini qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etishi;

belgilangan normalarga ko'ra xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari, shuningdek jamoaviy himoya vositalari bilan ta'minlashi;

qonunchilik hujjatlariga, shuningdek mehnatni muhofaza qilish qoidalariga muvofiq xodimlarga sanitariya-maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlashi;

xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tishini, o'qitishni, qayta tayyorlashni, malakasini oshirishni va mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha bilimlarini tekshirishni ta'minlashi;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quvdan, yo'l-yo'riqdan o'tmagan va bilimlari tekshirilmagan xodimlarni ishga qo'ymasligi;

zararli, xavfli va boshqa mehnat sharoitlarida ishlayotgan xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar belgilanadigan, imtiyozli sharoitlarda pensiyaga chiqish huquqi beriladigan, nogironligi bo'lgan shaxslar band bo'lgan ish joylarini qonunchilikda belgilangan tartibda ulardagi mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazishi;

dastlabki (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etishi;

mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarga, shuningdek kasaba uyushmalariga va xodimlarning boshqa vakillik organlariga mehnatni muhofaza qilishning holati ustidan nazorat qilish, tekshirish va monitoring qilish, ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalar hamda kasb kasalliklarini tekshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va materiallarni taqdim etishi;

avariya holatlarining oldini olish, bunday holatlar yuz berganda xodimlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, shu jumladan jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish choralarini ko'rishi;

mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarning ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarishi hamda kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlarining taqdimnomalarini o'z vaqtida ko'rib chiqishi;

xodimlarning ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasini, shuningdek ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni ta'minlashi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari tekshiruvini amalga oshirishi, shuningdek ularning hisobini yuritishi shart.

Ish beruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

360-modda. Majburiy tibbiy ko'riklar

Ish beruvchi quyidagilarni dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etishi shart:

o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni;

umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetgan shaxslarni;

nogironligi bo'lgan shaxslarni;

mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda, tungi ishlarda, shuningdek transport vositalarining harakati bilan bog'liq ishlarda band bo'lganlarni;

oziq-ovqat sanoatida, savdoda va bevosita aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarda ish bilan band bo'lganlarni;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining va boshqa tashkilotlarning bevosita bolalarga ta'lim yoki tarbiya berish bilan band bo'lgan pedagog xodimlarini va boshqa xodimlarini.

Mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarning hamda bajarilayotganda dastlabki va davriy majburiy tibbiy ko'riklar o'tkaziladigan boshqa ishlarning ro'yxati va ushbu ko'rikning o'tkazilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Majburiy tibbiy ko'riklar tashkilotlarga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan erdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi.

Majburiy tibbiy ko'riklarni o'tkazish majburiyati qonunchilikka muvofiq majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxslar boshqa ishga o'tkazilgan taqdirda ham ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Xodimlar majburiy tibbiy ko'riklardan o'tishi munosabati bilan chiqimdor bo'lmaydi.

Xodimlar majburiy tibbiy ko'riklardan o'tishdan bo'yin tovlashga haqli emas.

Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.

Agar xodim sog'lig'ining yomonlashishi mehnat sharoitlari bilan bog'liq deb hisoblasa, u navbatdan tashqari majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishni talab qilish huquqiga ega.

Majburiy tibbiy ko'riklarni o'tkazish vaqtida xodimning ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

361-modda. Ish joylariga qo'yiladigan talablar

Ish joylari joylashtiriladigan binolar (inshootlar) tuzilishiga ko'ra ularning belgilangan funksional maqsadiga hamda mehnat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish talablariga mos bo'lishi kerak.

Ishlash uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar mazkur turdagi asbob-uskunalar uchun belgilangan xavfsizlik normalariga mos bo'lishi, tegishli texnik pasportlarga (sertifikatga), ogohlantiruvchi belgilarga ega bo'lishi va ish joylarida xodimlar xavfsizligini ta'minlash uchun to'siqlar yoki himoya vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Xodimlarning binodan chiqishi uchun avariya yo'llari va chiqish joylari belgilangan bo'lishi, bo'sh qolishi hamda ochiq havoga yoxud xavfsiz hududga olib chiqishi kerak.

Xavfli zonalar aniq belgilangan bo'lishi kerak. Agar ish joylari ishning xususiyati tufayli xodim uchun xavf mavjud bo'lgan xavfli zonalarda joylashgan bo'lsa, bunday joylar begona kishilarning bu zonalariga kirishiga to'siq bo'ladigan qurilmalar bilan jihozlanishi kerak.

Tashkilot hududida piyodalar va texnologik transport vositalari xavfsiz sharoitlarda harakatlanishi kerak.

Ish vaqti davomida ish o'rinlari joylashgan xonada harorat, yorug'lik, shuningdek ventilatsiya sanitariya normalari va qoidalariga mos bo'lishi kerak.

Quyidagilar mehnat sharoitlari bo'yicha ish o'rinlari attestatsiyasidan o'tkaziladi:

qonunchilikda belgilangan tartibda xodimlarga mehnat sharoitlariga ko'ra imtiyozlar va kompensatsiyalar nazarda tutilgan ish o'rinlari;

nogironligi bo'lgan shaxslar band bo'lgan ish o'rinlari;

imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarida ko'rsatilgan ish o'rinlari;

xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi ish o'rinlari.

Qonunchilikda, shuningdek jamoa kelishuvlarida va jamoa shartnomasida mehnat sharoitlariga ko'ra boshqa ish o'rinlarini ham attestatsiyadan o'tkazish nazarda tutilishi mumkin.

362-modda. Xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tkazish va o'qitish

Ishga yangi kirayotgan barcha xodimlar, shuningdek boshqa ishga o'tkazilayotgan xodimlar uchun ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riq berishni amalga oshirishi, ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullari hamda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishga oid o'quvni tashkil etishi shart.

Yuqori xavfga ega bo'lgan ishlab chiqarishga yoki kasbiy tanlov talab etiladigan ishga kiruvchi xodimlar uchun ishni xavfsiz uslublar va usullar bilan bajarish bo'yicha dastlabki tayyorgarlik, kasb bo'yicha bir oy davomida mehnatni muhofaza qilishga doir o'quv o'tkazilib, imtihon topshiriladi va keyinchalik mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha majburiy davriy attestatsiya o'tkaziladi.

Tashkilotlarning xodimlari, shu jumladan rahbarlari mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan ushbu xodimlar va rahbarlarning kasbi hamda ish turlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitilishi, yo'l-yo'riq olishi, bilimlarining tekshiruvdan o'tkazilishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan tartibda o'quvdan o'tmagan, yo'l-yo'riq olmagan va bilimlari tekshiruvdan o'tkazilmagan shaxslarni ish beruvchi ishdan chetlashtirishi shart.

363-modda. Xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash

Mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan normalar bo'yicha sut (shunga teng boshqa oziq-ovqat mahsulotlari), davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun), maxsus kiyim-bosh, sanitar kiyim-bosh, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan bepul ta'minlanadi. Bunday ishlarning ro'yxati, beriladigan narsalarning normalari, ta'minot tartibi va shartlari jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra qonunchilikda belgilangan normativlarga muvofiq belgilanadi.

Xodimlarning shaxsiy himoya vositalarini olish, saqlash, yuvish, tozalash, ta'mirlash, dezinfeksiya qilish va zararsizlantirish ish beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

364-modda. Xodimni sog'lig'i holatiga ko'ra yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazish

Ish beruvchi sog'lig'i holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazishga muhtoj xodimni uning roziligi bilan, tibbiy xulosaga muvofiq vaqtincha yoki muddatini cheklamagan holda, shunday ishga o'tkazishi shart.

Xodim sog'lig'i holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan, kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilganda shunday ishga o'tkazilgan kundan e'tiboran ikki hafta mobaynida uning avvalgi o'rtacha ish haqi saqlanadi.

Sil kasalligiga yoki boshqa kasb kasalligiga chalinganligi sababli kamroq haq to'lanadigan boshqa ishga vaqtincha o'tkazilgan xodimga shu ishga o'tgan vaqt uchun, lekin ikki oydan ortiq bo'lmagan muddat davomida yangi ishda beriladigan ish haqiga xodimning avvalgi ishidagi haqiqatda olgan ish haqidan oshib ketmaydigan miqdorda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to'lanadi. Agar ish beruvchi mehnatga qobiliyatsizlik varaqasida ko'rsatilgan muddatda boshqa ish topib berolmagan bo'lsa, buning oqibatida bekor o'tgan kunlar uchun mazkur nafaqa umumiy asoslarda to'lanadi.

Mehnatda mayib bo'lganligi yoki ish bilan bog'liq holda sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi munosabati bilan vaqtincha kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilgan xodimlarga ularning sog'lig'i shikastlanganligi uchun javobgar bo'lgan ish beruvchi avvalgi ish haqi bilan yangi ishda oladigan ish haqi o'rtasidagi farqni to'laydi. Bunday farq mehnat qobiliyati tiklanguniga qadar yoki nogironlik belgilanguniga qadar to'lanadi.

Qonunchilikda sog'lig'ining holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan, kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilganda avvalgi o'rtacha ish haqini saqlab qolishning yoki davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lashning boshqa hollari ham nazarda tutilishi mumkin.

365-modda. Xodimlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ularni davolash-profilaktika muassasalariga olib borish

Ish beruvchi ish joyida kasal bo'lib qolgan xodimlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan choralar ko'rishi shart.

Ish joyida kasal bo'lib qolgan xodimlarni davolash-profilaktika muassasalariga olib borish, zarur hollarda, ish beruvchining hisobidan amalga oshiriladi.

366-modda. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini tekshirish hamda hisobga olish

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari majburiy ravishda tekshirilishi va hisobga olib borilishi lozim.

Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini o'z vaqtida tekshirishi hamda hisobga olishi shart.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirish hamda hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Kodeksga ko'ra, yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari etib quyidagilar belgilandi:

mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash;

mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash;

mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;

mehnat huquqlari ta'minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;

xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmaslik.

Jumladan, mehnat erkinligi har kimning mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashg'ulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqini anglatadi.

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari:

14 yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz ota-ona, shuningdek ko'p bolali oilalardagi ota-onalar;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablari va kollejlari hamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar;

"Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari;

Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar;

nogironligi bo'lgan shaxslar;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar (qonunda belgilangan pensiya yoshiga qadar ikki yil oldin);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar yoki sudning qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar;

odam savdosidan jabrlanganlar.

Hujjatga ko'ra, davlat aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlarni ta'minlaydi.

Mehnat shartnomasiga ayrim normalarni kiritish taqiqlanadi

Endi Mehnat kodeksiga ko'ra, mehnat shartnomasiga quyidagi shartlarning kiritilishi o'z o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi:

xodimning holatini mehnat qonunchiligiga va mehnat haqidagi boshqa hujjatlarga nisbatan yomonlashtiradigan;

mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash talablarini buzadigan;

majburiy mehnatni taqiqlash haqidagi talablarni buzadigan;

xodimni qonunga xilof harakatlarni, boshqalarning yoki xodim o'zining huquqlarini buzadigan, hayoti va sog'lig'iga tahdid soladigan, sha'niga, qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan harakatlarni amalga oshirishga majburlaydigan shartlar.

Mehnat shartnomasi ayrim shartlarining haqiqiy emasligi mehnat shartnomasining umuman haqiqiy emasligiga sabab bo'lmaydi.

Dam olish kuni

Yangi kodeksga muvofiq dam olish kuni bayram kuniga to'g'ri kelsa keyingi kunga ko'chiriladi. Masalan, yakshanba – dam olish kuni 1 sentyabrga to'g'ri kelsa, dam olish kuni dushanbaga ko'chiriladi.

Bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko'rsatish, navbatchilik asosida ishlash va boshqalar) tufayli ishlanmaydigan bayram kunlari to'xtatib qo'yish mumkin bo'lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko'chirilmaydi.

Dastlabki sinov

Yangi kodeks kuchga kirgach, quyidagilar ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi (129-modda):

homilador ayol, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayol yoki uch yoshga to'lmagan bolani yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan ota (vasiy);

zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish uchun yuborilgan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslar;

davlat grantlari asosida o'qigan va oliy ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran uch oy ichida yo'llanma bo'yicha olingan mutaxassisligiga doir ishga kirayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;

tegishli ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus,

professional va oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;

o'zi bilan olti oygacha muddatga mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar;

o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar;

ishga qaytadan qabul qilingan taqdirda ish beruvchi ilgari qaysi xodimlar bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bo'yicha bekor qilgan bo'lsa, o'sha shaxslar;

ishlab chiqarishda o'qitish shartnomasi bo'yicha ushbu ish beruvchida o'qishni o'tagan o'quvchilar;

jamoat kelishuvlarida, shuningdek jamoat shartnomasida va ish beruvchining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xodimlar.

Dastlabki sinov faqat xodimni ishga qabul qilish chog'ida belgilanishi mumkin. Xodim boshqa ishga o'tkazilayotganda va boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborilganda dastlabki sinov belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kodeksning 130-moddasiga ko'ra, dastlabki sinov muddati uch oydan, tashkilotlarning rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, bosh buxgalterlar hamda tashkilotlar alohida bo'linmalarining rahbarlari uchun esa olti oydan oshmasligi kerak.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri va xodim haqiqatda ishda bo'lmagan boshqa davrlar dastlabki sinov muddatiga qo'shilmaydi.

Ishdan bo'shatish nafaqasi

Yangi Mehnat kodeksining 173-moddasiga ko'ra, ishdan bo'shatish nafaqasining miqdori mazkur ish beruvchidagi ish stajiga bog'liq bo'ladi va u:

3 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 50 foizidan;
3 yildan 5 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 75 foizidan;

5 yildan 10 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 100 foizidan;

10 yildan 15 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 150 foizidan;

15 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 200 foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

Amaldagi Mehnat kodeksida ishdan bo'shatish nafaqasining miqdori o'rtacha oylik ish haqidan kam bo'lishi mumkin emasligi belgilangan.

Homilador ayollarga qo'shimcha bo'sh kunlar beriladi

Yangi kodeksda, shuningdek, ish beruvchi homilador ayollarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash (perinatal skrining va tashxis, majburiy tibbiy ko'riklar va boshqa majburiy tibbiy muolajalar) uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda qo'shimcha bo'sh kunlar berishi shartligi belgilandi (403-modda).

Homilador ayollarni antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qonuniylashgan masofadan ishlash tartibi

Hujjatning 452-moddasiga muvofiq masofadan turib ishlash tartibi qonunlashtirildi. Yangi Mehnat kodeksi asosida axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish sharti bilan ish beruvchi va xodim o'rtasida masofaviy mehnat munosabatlari joriy etilishi mumkin. Masofadan turib ishlash to'g'risidagi mehnat shartnomasi elektron hujjatlar almashinuvi orqali tuziladi.

Masofadan turib ishlash rejimi quyidagi hollarda belgilanishi mumkin:

xodimni ishga qabul qilishda;

xodim odatdagi ish rejimidan masofadan turib ishlash rejimiga o'tkazilgan taqdirda ish jarayonida.

Uy ishchilari

Uy ishchilarining mehnati huquqiy jihatdan tartibga solindi (514-modda). Kodeksda ish beruvchi bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun ishlarni bajaruvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi xodimlar (bog'bonlar, enagalar, qorovullar, oqsochlar, haydovchilar va boshqalar) uy ishchilari deb belgilandi.

Uy ishchilarini ishga qabul qilishga ular o'n olti yoshga to'lganida yo'l qo'yiladi.

Uzaytirilgan mehnat ta'tili

Kodeksdagi asosiy yangiliklardan yana biri yillik asosiy mehnat ta'tili davomiyligining eng kam muddati **yigirma bir** kalendar kuni etib belgilandi va xalqaro standartga muvofiqlashtirildi. Ilgari ta'til 15 ish kunidan davom etardi.

Ommaviy ishdan bo'shatish mezonlari

Ishchilarni ommaviy ishdan bo'shatish mezonlarini belgilandi. Ularga quyilagilar kiritildi:

a) xodimlarining soni yigirma nafar va undan ortiq bo'lgan har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi tashkilotni (uning alohida bo'linmasini) tugatish;

b) xodimlar sonining (shtatining) quyidagi miqdorda:

o'ttiz kalendar kun ichida ellik nafar va undan ortiq xodimning;

oltmish kalendar kun ichida ikki yuz nafar va undan ortiq xodimning;

to'qson kalendar kun ichida besh yuz nafar va undan ortiq xodimning qisqarishi.

Kodeksda xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish tartibi joriy etildi.

Bunda xodimning tug'ilgan vaqti, tugatgan ta'lim muassasasi, ishlagan tashkilotlari, telefon raqami, uylanganligi yoki turmushga chiqqanligi, sog'ligi holati, qarindosh-urug'lari va shu kabi boshqa faktlar ish beruvchi tomonidan uchinchi shaxslarga qonunga zid tarzda taqdim etilishi mumkin emas. Soddaroq aytganda, "menga falon xodimingizning "ob'ektivka"sini tashlab yuboring" qabilidagi "iltimoslar" endi qonunan taqiqlanadi.

Ayollarga qo'shimcha huquqlar beriladi (25-bob, 1-paragraf)

Ayollarning va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari ham alohida belgilandi.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari kengaytirildi, shuningdek, xodimning pensiya yoshiga yetganligi munosabati bilan ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishi taqiqlandi.

Ish vaqti turlari kengaytirilmoqda: smenali ish, moslashuvchan ish tartibi, ish kunini qismlarga bo'lish, xizmat safarlari va boshqalar kiritildi.

Mehnat shartnomasida quyidagilar belgilanadi

- ish joyi (korxonada yoki uning bo'linmasi);
- xodimning **mehnat vazifasi** mutaxassisligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim;
- ishning boshlanish kuni;
- mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzilganda, uning **amal qilish muddati**;
- **mehnat haqi miqdori** va mehnatning boshqa shartlari.

Mehnat shartnomasining shakli

- Mehnat shartnomasi yozma shaklda ikki nusxada tuziladi va bir nusxasi xodimga beriladi. Mehnat shartnomasi xodim va ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan **mansabdor shaxsning imzolari bilan mustahkamlanib**, imzolangan muddati qayd etib qo'yiladi. Mansabdor shaxsning imzosi **korxonada muhri** bilan (muhir mavjud bo'lgan taqdirda) **tasdiqlanadi**.

Mehnat shartnomasining muddati

- nomuayyan muddatga;
- **5 yildan ortiq** bo'lmagan muayyan muddatga;
- muayyan **ishni bajarish** vaqtiga mo'ljallab tuzilishi mumkin.

Xodim tashabbusi bilan mehnat shartlarini o'zgartirish

- Xodim mehnat shartlarini o'zgartirishni **talab qilishga haqlidir** va bunday ariza **3 kundan kechiktirmay** ish beruvchi tomonidan ko'rib chiqilishi shart.
- Mehnat shartlarini o'zgartirish haqidagi talab **rad etilgan taqdirda**, rad etish sabab yozma shaklda **ma'lum qilinishi shart**.
- Mehnat shartlarini rad etganlik ustidan tegishli organlarga **shikoyat qilish mumkin**.

Xodimning rozilgisiz mehnat shartnomasini o'zgartirish

Quyidagi hollarda mehnat shartlarini o'zgartirish uchun xodimning **roziligi talab etilmaydi**:

- **texnologiyadagi**, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar;
- ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining **qisqarganligi**.

Boshqa ishga o'tkazish

1. mehnat shartnomasida belgilab qo'yilgan ishni **davom ettirishning imkoni bo'lmagan hollarda** xodimga boshqa mutaxassislik, malaka, lavozimga oid ishni topshirishga faqat uning **roziligi bilan** yo'l qo'yiladi;
2. xodimning boshqa ishga o'tkazish haqidagi iltimosi (bunday ish korxonada mavjud bo'lsa);

3. vaqtincha boshqa ishga o'tkazish uchun uzrli sabablar ro'yxati **jamoa shartnomasida**, jamoa shartnomasi bo'lmasa ish beruvchi tomonidan xodimlarning **vakillik organi bilan kelishib** belgilanadi;
4. ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolinishi munosabati bilan **xodimni uning roziligisiz** vaqtincha boshqa ishga o'tkazish mumkin. Bunday holda xodim **sog'lig'iga to'g'ri kelmaydigan ishga o'tkazilishi mumkin emas.**

Xodimlarning huquq va majburiyatlari

O'z mehnati uchun qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo'yicha belgilanganidan oz bo'lmagan miqdorda **haq olish**;

- muddatlari chegarasi belgilangan **ish vaqtini o'rnatish**, bir qator kasblar va ishlar uchun ish kunini qisqartirish, har haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari, shuningdek haq to'lanadigan **yillik ta'tillar berish** orqali ta'minlanadigan **dam olish**;
- **xavfsizlik** va gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish;
- kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va **malakasini oshirish**;
- ish bilan bog'liq holda sog'lig'iga yoki **mol-mulkiga etkazilgan zararining** o'rnini qoplash;
- **kasaba uyushmalariga** hamda xodimlar va mehnat jamoalarining manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlarga **birlashish**;
- **qariganda**, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda **ijtimoiy ta'minot olish**;
- o'zining **mehnat huquqlarini himoya qilish**, shu jumladan sud orqali himoya qilish va malakali yuridik yordam olish;
- jamoalarga doir **mehnat nizolarida** o'z manfaatlarini quvvatlash huquqiga egadir.

Barcha fuqarolar **mehnat munosabatlarida teng huquq va imkoniyatga** ega.

- Xodimlarning ishchanlik qobiliyati va **mehnatining natijalariga aloqador bo'lmagan** (*jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi va h.k.*) jihatlariga qarab har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga **yo'l qo'yilmaydi** va **bular kamsitish deb hisoblanadi.**
- Mehnatning muayyan turiga xos bo'lgan talablar yoki **ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar** (*ayollar, voyaga etmaganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va b.*) g'amxo'rliqi bilan bog'liq farqlash **kamsitish deb hisoblanmaydi.**
- Mehnat sohasida o'zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs kamsitishni bartaraf etish hamda o'ziga etkazilgan **moddiy va ma'naviy zararni** to'lash to'g'risidagi ariza bilan **sudga murojaat qilishi mumkin.**

Majburiy mehnat hisoblanmaydigan ishlar ro'yxati

- **harbiy yoki muqobil xizmat** to'g'risidagi qonunlar asosida;
- **favqulodda** holat yuz bergan sharoitlarda;
- **sudning** qonuniy kuchga kirgan **hukmiga** binoan;
- qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar (masalan, ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar jismoniy mehnatidan foydalanish).

Kasaba uyushmasi huquqlari

- xodimlar manfaati uchun **muzokara olib** borish, jamoa kelishuvi tuzish;
- korxonalar, tashkilot va muassasani **rivojlantirishga doir masalalarni** ko'rib chiqishda qatnashish;
- mehnat nizolarini ko'ruvchi organlarda xodimlar manfaatini **himoya qilish**;
- ish beruvchining qarorlari ustidan **sudga shikoyat qilish.**

Ish beruvchining majburiyatlari

- xodimlarning mehnat huquqlariga rioya qilish;
- xodimga dam olish va ovqatlanish uchun **tanaffus berish**, ta'til berish;
- xodimning mehnatiga **haq to'lash**;
- xodimning sog'ligi va mol-mulkiga etkazilgan **zararni qoplash**;
- xodimlarga munosib **mehnat sharoitini yaratish**;
- xodimlarni **tibbiy ko'rikdan o'tkazishni** tashkil qilish.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish

Quyidagi holatlarda sug'urta to'lovi amalga oshiriladi:

- Tashkilot xodimlarining kasbiy kasalligi.
- Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalardan jarohatlanishi.
- Ishlab chiqarishda xodimning vafot etishi.

Tovonlar quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

• Jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lgunga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lov yoki kasb kasalligi aniqlangunga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida belgilanadigan har oylik to'lov.

• marhumning o'rtacha oylik ish haqi miqdoridagi, uning o'ziga va qaramog'ida bo'lgan, lekin yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishiga haqli bo'lmagan, mehnatga qobiliyatli shaxslarga to'g'ri keladigan ulush chegirib tashlangan holdagi har oylik to'lov.

• Xodim vafot etgan taqdirda majburiy sug'urta qilish shartnomasida belgilangan eng kam oylik ish haqining 3 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdordagi dafn etish xarajatlari.

• Ish beruvchining qo'shimcha xarajatlari ni qonun hujjatlariga muvofiq kompensatsiya qilish.

Baxtsiz hodisa natijasida nogironlik

Baxtsiz hodisa yuz berganda Ish beruvchining xatti-harakatlari:

• Sug'urtalovchini ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa yuz berganligi to'g'risida o'ziga ma'lum bo'lgan vaqtdan boshlab uch ish kuni mobaynida yozma shaklda xabardor qilishi.

• Xodimni ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartlari hamda shartnoma bo'yicha tomonlarning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirishi.

So'ng nima qilish lozim:

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda Ish beruvchi Sug'urtalovchiga sug'urta to'lovi talabidan iborat bo'lgan yozma shakldagi ariza bilan murojaat qiladi (sug'urta qoidalariga 4-ilova), unga quyidagilarni ilova qiladi:

• Ish beruvchining yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi Buyrug'ining nusxasi (sug'urta qoidalariga 5-ilova);

• Xodimning yoki naf oluvchining yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talabi ko'rsatilgan, ish beruvchining nomiga yozilgan arizasining nusxasi;

• Sug'urta hodisasi yuz berguniga qadar xodim olgan o'rtacha oylik yoki yillik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

• Mehnat shartnomasining (kontraktining) nusxasi;

• Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa sodir bo'lganligini va xodim uchun uning oqibati ni tasdiqlovchi hujjatlar (ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani maxsus tekshirish dalolatnomasi, tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasining xulosasi, nizolar yuzaga kelgan hollarda esa - sudning qarori).

Kasbiy kasallik natijasida vaqtinchi yoki doimiy mehnatga qobiliyatsizlik.

Xodimda kasbiy kasallik aniqlanganda Ish beruvchining xatti-harakatlari:

- Sug'urtalovchini ishlab chiqarishda xodimda kasbiy kasallik aniqlangani to'g'risida o'ziga ma'lum bo'lgan vaqtdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay yozma shaklda xabardor qilishi.

- Xodimni ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartlari hamda shartnoma bo'yicha tomonlarning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirishi.

So'ng nima qilish lozim:

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartomasi bo'yicha xodimda kasbiy kasallik aniqlangan taqdirda, Ish beruvchi Sug'urtalovchiga sug'urta to'voni talabidan iborat bo'lgan yozma shakldagi ariza bilan murojaat qiladi (sug'urta qoidalariga 4-ilova), unga quyidagilarni ilova qiladi:

- Ish beruvchining yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi Buyrug'ining nusxasi (sug'urta qoidalariga 5-ilova);

- Xodimning yoki naf oluvchining yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talabi ko'rsatilgan, ish beruvchining nomiga yozilgan arizasining nusxasi;

- Sug'urta hodisasi yuz berguniga qadar xodim olgan o'rtacha oylik yoki yillik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

- Mehnat shartnomasining (kontraktining) nusxasi;

- Xodimning tibbiy kasallangani haqida tibbiy xulosa;

- Ishlab chiqarishda xodimning kasbiy kasallangani faktini tasdiqlovchi hujjatlar (tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasining xulosasi, nizolar yuzaga kelgan hollarda esa - sudning qarori).

Ishlab chiqarishda xodimning vafot etishi.

Ishlab chiqarishda xodim vafot etganda Ish beruvchining xatti-harakatlari:

- Sug'urtalovchini ishlab chiqarishda xodim vafot etganligi to'g'risida o'ziga ma'lum bo'lgan vaqtdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay yozma shaklda xabardor qilishi.

- Naf oluvchini ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartlari hamda shartnoma bo'yicha tomonlarning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirishi.

So'ng nima qilish lozim:

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha ishlab chiqarishda xodim vafot etgan taqdirda Sug'urtalovchiga sug'urta to'voni talabidan iborat bo'lgan yozma shakldagi ariza bilan murojaat qiladi (sug'urta qoidalariga 1-ilova), unga quyidagilarni ilova qiladi:

- Ish beruvchining yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi Buyrug'ining nusxasi (sug'urta qoidalariga 5-1-ilovasi);

- Xodimning yoki naf oluvchining yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talabi ko'rsatilgan, ish beruvchining nomiga yozilgan arizasining nusxasi;

- Sug'urta hodisasi yuz berguniga qadar xodim olgan o'rtacha oylik yoki yillik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

- Mehnat shartnomasining (kontraktining) nusxasi;

- Ishlab chiqarishda xodim vafot etganli faktini tasdiqlovchi hujjatlar (ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisani maxsus tekshiruvi dalolatnomasi);

- Xodim vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tartibda tasdiqlangan nusxasi va naf oluvchining zararining o'rnini qoplanishiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasining Qonuni

ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2008-yil 11-noyabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2009-yil 27-martda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunchilik

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi — hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

jabrlanuvchi — o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan sog'lig'iga zarar yetkazilgan, sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan xodim;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa — xodimning u mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha o'z vazifalarini ish beruvchining hududida ham, undan tashqarida ham bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o'tkazish zaruriyatini keltirib chiqargan, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo'lgan hodisa;

ish beruvchi — qonunchilikda belgilangan tartibda jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi — umumiy sug'urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

kasb kasalligi — xodimning unga ishlab chiqarishning zararli yoki xavfli omili ta'siri natijasi bo'lgan va uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud turg'un yo'qotishiga sabab bo'lgan o'tkir yoki surunkali kasalligi;

kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi — kasbga oid mehnat qobiliyatining ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berguniga qadar bo'lgan, foizlarda ifodalangan, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tomonidan aniqlanadigan pasayishi;

mehnatda mayib bo'lish — xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha yoki turg'un yo'qotishi;

naf oluvchi — xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan shaxs;

sug'urta hodisasi — ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilishi davrida xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi vujudga kelganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan fakt;

xodim — ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishlayotgan jismoniy shaxs.

4-modda. Ish beruvchining o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha majburiyati

Xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha ish beruvchi o'z fuqarolik javobgarligini ushbu Qonunda belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urtalashi shart.

2-bob. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish shartlari va tartibi

5-modda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish obyekt va subyektlari

Xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi vujudga kelganda uning mulkiy manfaatlari ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish obyektidir.

Ish beruvchi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi (bundan buyon matnda sug'urtalovchi deb yuritiladi), annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi, jabrlanuvchi va naf oluvchi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish subyektlaridir.

6-modda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ommaviy shartnomadir.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganda ish beruvchiga va (yoki) jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta puli doirasida qoplash majburiyatini oladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ish beruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida tuziladi. Mazkur shartnomani tuzish uchun ish beruvchining yozma shakldagi arizasi asos bo'ladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari va uni tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasida ko'rsatilishi lozim bo'lgan shartlarning to'liq emasligi uchun javobgarlik sug'urtalovchi zimmasida bo'ladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bir yil muddatga tuziladi. Agar ish beruvchining faoliyati bir yildan kam bo'lgan muddatga amalga oshiriladigan bo'lsa, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ish beruvchi mazkur faoliyatni amalga oshiradigan muddat uchun tuziladi.

7-modda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tariflarini tartibga solish

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tariflarining eng yuqori darajalarini, sug'urta tariflarining tuzilishini va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti summasini belgilashda mazkur tariflarning sug'urtalovchi tomonidan qo'llanilishi tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu Qonunga muvofiq belgilanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha belgilangan sug'urta tariflarining amal qilish muddati bir yildan kam bo'lishi mumkin emas. Sug'urta tariflari darajalarining o'zgarishi ish beruvchi tomonidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti to'lanishi sanasida amalda bo'lgan sug'urta tariflari bo'yicha to'langan sug'urta mukofoti miqdori shartnomaning amal qilish muddati ichida o'zgarishiga olib kelmaydi.

8-modda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tariflarining bazaviy stavkasi va koeffitsiyentlari

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tariflari bazaviy stavka va koeffitsiyentlardan iboratdir.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tarifining bazaviy stavkasi barcha ish beruvchilar va sug'urtalovchilar uchun yagonadir.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tariflarining koeffitsiyentlari ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlarining xavflilik darajasiga bog'liq holda belgilanadi.

Sug'urtalovchi ushbu Qonunga muvofiq belgilanganidan farq qiladigan bazaviy stavkani va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tariflarining koeffitsiyentlarini qo'llashga haqli emas.

9-modda. Ish beruvchi faoliyati turlarining xavflilik darajasini belgilash

Ish beruvchi faoliyati turlarining xavflilik darajasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan xavflilik darajalari tasnifiga va faoliyat turlarini muayyan xavflilik darajasiga kiritish tartibiga muvofiq belgilanadi.

10-modda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta puli

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta puli quyidagicha belgilanadi:

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzilgan sanadagi holatga ko'ra faoliyatini bir yildan ortiq amalga oshirib kelayotgan ish beruvchi uchun — mazkur shartnoma tuzilgan oydan oldingi o'n ikki oy uchun ish beruvchi barcha xodimlarining bir yillik ish haqi miqdorida;

o'z faoliyatini yangitdan amalga oshirayotgan ish beruvchi uchun — ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzilgan oydan keyin keladigan o'n ikki oy uchun ish beruvchi barcha xodimlarining bir yillik ish haqi miqdorida. Bunda yillik ish haqi birinchi oydagi ish haqi miqdorini o'n ikkiga ko'paytirish orqali hisoblab chiqariladi;

faoliyatini bir yildan kam bo'lgan muddatga amalga oshiruvchi ish beruvchi uchun — ish beruvchi barcha xodimlarining ish beruvchining mazkur faoliyati amalga oshiriladigan muddatdagi ish haqi miqdorida.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilish muddati davomida yillik ish haqi miqdori o'zgartirilgan taqdirda, bu shartnomaning sug'urta puli va sug'urta mukofoti qismiga ushbu shartnomaga yozma ravishda qo'shimcha kelishuv tuzish orqali o'zgartishlar kiritiladi. Bunda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini qayta hisob-kitob qilish mazkur shartnoma tuzilgan sanada amalda bo'lgan sug'urta tarifi bo'yicha, qolgan sug'urta davri va sug'urta puliga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Agar sug'urtalovchi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilish davrida sug'urta tovonini to'lagan bo'lsa, sug'urta puli to'langan

sug'urta tovonni summasi miqdorida kamaytiriladi. Bunda ish beruvchi to'langan sug'urta tovonni summasiga hamda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining qolgan amal qilish muddatiga mutanosib ravishda sug'urta mukofotini yetti ish kuni ichida qo'shimcha to'lashi shart.

11-modda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti sug'urta pulini sug'urta tarifiga ko'paytirish orqali hisoblab chiqariladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti bir yo'la to'lanadi.

3-bob. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini to'lash

12-modda. Zararning miqdorini aniqlash tartibi

Xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tovonni yetkazilgan zarar miqdorida, lekin sug'urta puli miqdoridan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tovonni:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lov yoki kasb kasalligi aniqlanganiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida belgilanadigan har oylik to'lov;

marhumning o'rtacha oylik ish haqi miqdoridagi, uning o'ziga va qaramog'ida bo'lgan, lekin yetkazilgan zararning o'rnini qoplanishiga haqli bo'lmagan, mehnatga qobiliyatli shaxslarga to'g'ri keladigan ulush chegirib tashlangan holdagi har oylik to'lov;

qonunchilikda belgilangan hollarda jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga bir yo'la beriladigan nafaqa to'lovi;

xodim vafot etgan taqdirda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasida belgilangan miqdorda dafn etish xarajatlari;

ish beruvchining qo'shimcha xarajatlarini qonunchilikka muvofiq kompensatsiya qilish tarzida amalga oshiriladi.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori qonunchilikda belgilangan tartibda oshirilgan taqdirda, xodimning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi munosabati bilan zararning o'rnini qoplashning belgilangan summasi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining oshirilishiga mutanosib ravishda ko'paytiriladi. Bunda zarar o'rnini qoplashning ko'paytirilgan summasi qonunchilikda belgilangan tartibda qo'shimcha tarzda to'lanadi.

Jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga sug'urta hodisasi yuz berganligi munosabati bilan yetkazilgan ma'naviy zararni kompensatsiya qilish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

13-modda. Sug'urta tovonini olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuz berganda, ish beruvchi sug'urta tovonini to'lash talabi ko'rsatilgan yozma shakldagi ariza bilan quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda sug'urtalovchiga murojaat etadi:

ish beruvchining yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi buyrug'ining ko'chirma nusxasi;

xodimning yoki naf oluvchining yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talabi ko'rsatilgan, ish beruvchining nomiga yozilgan arizasining ko'chirma nusxasi;

sug'urta hodisasi yuz berguniga qadar xodim olgan o'rtacha oylik yoki yillik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

mehnat shartnomasining (kontraktning) ko'chirma nusxasi;

kasb kasalligida — xodimning kasb kasalligi to'g'risidagi tibbiy xulosa;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa sodir bo'lganligini va xodim uchun uning oqibatini tasdiqlovchi hujjatlar (ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani maxsus tekshirish dalolatnomasi, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining xulosasi, nizolar yuzaga kelgan hollarda esa — sudning qarori).

Xodim vafot etgan taqdirda xodimning vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tartibda tasdiqlangan nusxasi va naf oluvchining zararining o'rnini qoplanishiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar ham ilova qilinadi.

Ushbu moddada nazarda tutilmagan hujjatlar taqdim etilishini talab qilish taqiqlanadi.

14-modda. Sug'urta tovonini to'lash tartibi

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini, agar yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bir yilgacha muddat uchun to'lovni nazarda tutsa, sug'urtalovchi tomonidan jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga to'lanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining ish beruvchining xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning sog'lig'i yomonlashganligi yoxud vafot etganligi tufayli kelib chiqqan va har oylik tusga ega bo'lmagan qo'shimcha xarajatlarining kompensatsiya qilinishiga doir qismi bo'yicha sug'urta tovonini sug'urtalovchi tomonidan ish beruvchiga to'lanadi. Bunda sug'urta tovonini ish beruvchi taqdim etgan, u shunday xarajatlarni amalga oshirganligini tasdiqlaydigan hujjatlar asosida to'lanadi.

Agar yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bir yildan ortiq muddat uchun to'lovni nazarda tutsa, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini sug'urtalovchi tomonidan ish beruvchiga to'lanadi. Bunda ish beruvchi annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi bilan annuitetlar shartnomasini tuzishi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha olingan sug'urta tovonidan faqat annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash uchun foydalanishi shart. Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha ish beruvchi olgan sug'urta tovonini summasi annuitetlar shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdoridan kam bo'lsa, farq ish beruvchi hisobidan qo'shimcha to'lanishi kerak.

15-modda. Annuitetlar shartnomasi

Annuitetlar shartnomasi ommaviy shartnomadir.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi annuitetlar shartnomasida shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga, sug'urta puli doirasida tegishincha:

jabrlanuvchiga u o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun;

xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan naf oluvchiga joriy to'lovlar tarzida bir yildan ortiq muddat uchun sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladi.

Annuitetlar shartnomasi ish beruvchi bilan annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'rtasida tuziladi. Annuitetlar shartnomasini tuzish uchun ish beruvchining yozma shakldagi arizasi asos bo'ladi.

Annuitetlar shartnomasi shartlari va uni tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Annuitetlar shartnomasida ko'rsatilishi lozim bo'lgan shartlarning to'liq emasligi uchun javobgarlik annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi zimmasida bo'ladi.

Annuitetlar shartnomasi qonunchilikka muvofiq jabrlanuvchiga mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi belgilangan muddatga yoki naf oluvchi sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'ladigan muddatga tuziladi.

16-modda. Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta puli va sug'urta mukofoti

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta puli jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga qonunchilikka muvofiq o'rni qoplanishi lozim bo'lgan yetkazilgan zarar miqdorida belgilanadi.

Yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashda jabrlanuvchiga uning o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan tayinlangan nogironlik pensiyasi, xuddi shuningdek boshqa turdagi pensiyalar, nafaqalar va sog'lig'i shikastlanguniga qadar ham, undan keyin ham bo'lgan boshqa shunga o'xshash to'lovlar hisobga olinmaydi va yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi lozim bo'lgan miqdori kamaytirilishiga olib kelmaydi (yetkazilgan zararining o'rnini qoplash hisobiga kiritilmaydi). Jabrlanuvchi sog'lig'i shikastlanganidan keyin oladigan ish haqi (daromad) ham yetkazilgan zararining o'rnini qoplash hisobiga kiritilmaydi.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti ish beruvchi tomonidan annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtaning butun davri uchun bir yo'la to'lanadi.

4-bob. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish subyektlarining huquq va majburiyatlari

17-modda. Ish beruvchining huquq va majburiyatlari

Ish beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

ushbu Qonunga muvofiq ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish uchun sug'urtalovchini va annuitetlar shartnomasini tuzish uchun annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchini tanlash;

sug'urtalovchidan va (yoki) annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining va (yoki) annuitetlar shartnomasining shartlarini tushuntirib berishni talab qilish;

sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

yillik ish haqi miqdori kamayganda sug'urta mukofotining yillik ish haqi miqdorining kamayishiga va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining tugallanmagan davriga mutanosib qismini olish.

Ish beruvchi:

o'zi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran yoki ish beruvchilar — jismoniy shaxslar uchun mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzilgan sanadan e'tiboran o'n besh ish kunidan kechiktirmay o'zining fuqarolik javobgarligini ushbu Qonunga muvofiq sug'urtalashi;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha va ayrim hollarda ainuitetlar shartnomasi bo'yicha qonunchilikda belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta mukofotini to'lashi;

yillik ish haqi miqdori o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda xabar qilishi;

ish beruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat turlarining xavflilik darajasi o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi va zarur bo'lgan hollarda, qo'shimcha hisoblab chiqarilgan sug'urta mukofotini to'lashi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berganligi o'ziga ayon bo'lgan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi;

xodimlarni ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan tanishtirishi, shu jumladan mazkur shartnoma bo'yicha taraflarning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni jabrlanuvchi yoki naf oluvchi yozma shakldagi ariza bilan murojaat qilgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida taqdim etishi;

agar sug'urta to'voni jabrlanuvchi yoki naf oluvchi tomonidan qilingan suiiste'molliklar oqibatida asossiz ravishda to'langan bo'lsa, ortiqcha to'langan sug'urta to'voni haqida sug'urtalovchiga xabar qilishi va ortiqcha to'langan mablag'larni sug'urtalovchiga qaytarish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rishi shart.

Ish beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

18-modda. Sug'urtalovchining huquq va majburiyatlari

Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirishda ishtirok etish va zarur bo'lgan hollarda tegishli ekspertlarni jalb etish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisaga doir axborotni tekshirish;

sug'urta mukofotini aniqlash uchun sug'urta xavfini baholash;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar berish.

Sug'urtalovchi:

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan ish beruvchini tanishtirishi, shu jumladan uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan, ish beruvchi va (yoki) jabrlanuvchi yoxud naf oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi;

sug'urta to'vonini to'lashni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ish beruvchi sug'urta to'vonini to'lash uchun murojaat etganidan keyin o'n besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda ish beruvchiga rad etish sabablarini dalillar bilan asoslantirgan holda yozma shaklda xabar qilishi;

ushbu Qonunning 13-moddasida nazarda tutilgan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'n ish kunidan kechiktirmay qaror qabul qilishi va sug'urta to'vonini to'lashi;

o'zi almashtirilgan taqdirda bu haqda ish beruvchiga darhol yozma shaklda xabar berishi shart.

Sug'urtalovchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

19-modda. Jabrlanuvchining huquqlari

Jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

ish beruvchiga yoki sug'urtalovchiga yoxud annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash haqida yozma shakldagi ariza bilan murojaat etish;

qonunchilikda belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta tovonini olish;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining yoki annuitetlar shartnomasining shartlari to'g'risida ish beruvchidan yoki sug'urtalovchidan yoxud annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan bepul axborot olish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirishda zaruriyat bo'lganda, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillarini yoxud o'zining ishonchli shaxsini jalb etgan holda belgilangan tartibda ishtirok etish;

ish beruvchidan sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni olish.

20-modda. Naf oluvchining huquqlari

Naf oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

sug'urta tovonini olish haqidagi talab bilan ish beruvchiga yoki sug'urtalovchiga murojaat etish;

qonunchilikda belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urtalovchi va (yoki) annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan sug'urta tovonini olish;

ish beruvchidan, sug'urtalovchidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining shartlari to'g'risida hamda annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan annuitetlar shartnomasi shartlari haqida bepul axborot olish;

xodim o'z mehnat vazifalarini bajarayotganda vafot etganligi haqida ish beruvchiga xabar qilish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirishda belgilangan tartibda ishtirok etish, zarur bo'lgan hollarda kasaba uyushmasi vakillarini yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillarini yoxud o'zining ishonchli shaxsini jalb etgan holda ishtirok etish;

ish beruvchidan sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni olish.

5-bob. Sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

21-modda. Sug'urtalovchiga va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga qo'yiladigan talablar

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish uchun sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi belgilangan tartibda faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli litsenziyaga ega bo'lishi kerak.

Sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'zining alohida bo'linmalariga ega bo'lishi kerak, ular ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi yoki annuitetlar shartnomasini tuzish, ish beruvchilarning va (yoki) jabrlanuvchilarning yoxud naf oluvchilarning sug'urta tovonini to'g'risidagi talablarini ko'rib chiqish hamda belgilangan tartibda sug'urta tovonini to'lash vakolatiga ega bo'lishi lozim.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishda raqobatni cheklash yoki bartaraf etish, ayrim sug'urtalovchilarga va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchilarga boshqalariga nisbatan asossiz imtiyozlar berish yoki olish, ish beruvchilar, jabrlanuvchilar va naf oluvchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari kamsitilishiga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

22-modda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta zaxirasini shakllantirish

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishda mazkur sug'urta turi bo'yicha sug'urtalovchining daromadlari va xarajatlari orasidagi farq bir yilda ushbu daromadlarning besh foizidan ortiq bo'lsa, ortiqcha summa keyingi yillarda sug'urta tovonini to'lash xarajatlarini kompensatsiya qilish uchun sug'urtalovchi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda sug'urta zaxirasini shakllantirishga yo'naltiriladi.

23-modda. Sug'urtalovchini va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchini almashtirish

Sug'urtalovchini va (yoki) annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchini almashtirishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

sug'urtalovchi yoki annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda;

sug'urtalovchiga yoki annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga nisbatan bankrotlik taomili qo'llanilganda;

sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli litsenziyaning amal qilishi belgilangan tartibda tugatilganda yoki u bekor qilinganda.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

24-modda. Nizolarni hal etish

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

25-modda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

26-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

27-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi tartibi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi, 17-moddaning ikkinchi qismi bundan mustasno.

Ushbu Qonun 17-moddasining ikkinchi qismi qoidalari mazkur Qonun kuchga kirganidan keyin olti oy o'tgach amalga kiritiladi.

Yo'riqnomalar o'tkazish va bilimlarni tekshirish

Mehnat muhofazasiga o'qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish bo'yicha namunaviy nizomda (№ 272, 14.08.1996) barcha korxonalar, tashkilot, muassasa, institut, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, birlashma, assotsiatsiya, korpooratsiya, xolding, tarmoq, vazirlik va boshqa mulk shaklidan qat'iy nazar malaka talablari hajmida ishchilar, rahbarlar, mutaxassislar, muhandis-texnik xodimlar uchun mehnat muhofazasidan bilimlarni majburiy nazorat qilish tartibi belgilangan. Korxonaga ishga kirayotgan har bir xodimga xavfli ish usullari bo'yicha yo'riqnomalar, maxsus malaka olgandan va bilimi tekshirilgandan keyin mustaqil ishlashga ro'xsat beriladi. Bug' va issiqlik qozonlari, yuk ko'tarish kranlari, bosim ostida ishlovchi idishlar, elektr uskunalari, maxsus uskunalar kabi xavfli ishlarda ishlovchilarga maxsus o'qitish kurslarini bitirganlari xaqida hujjatlari bo'lsagina ishlashga ruxsat beriladi. Xodimlarni xavfsiz ish usullariga o'qitish va ularni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha umumiy rahbarlik hamda javobgarlik korxonalar rahbarlariga va boshqaruv

tashkilotlariga yuklanadi. Tsexlarda, bo'limlarda ishchilarni va ustalarni xavfsiz ish usullariga o'rgatish shu tsex hamda bo'lim rahbarlariga, shuningdek, o'z vaqtida va sifatli o'qitishni nazorat qilish esa mehnat muhofazasi bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

Ishchilar bilan yo'riqnoma o'tkazish. Yo'riqnoma ikki xil bo'ladi: kirish va ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma. O'z navbatida ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma 3 xil bo'ladi: dastlabki, davriy va navbatdan tashqari.

Kirish yo'riqnomasi. Barcha ishga yangi kiruvchilar, boshqa korxonalaridan xizmat safariga jo'natilganlar (ish malakasi va stajidan qat'iy nazar) amaliyot o'tayotganlar va shogirdlar kirish yo'riqnomasini o'tadilar. Uni korxonaning mehnat muhofazasi bo'yicha mas'ul xodimi yoki shu vazifa yuklatilgan boshqa rahbar xodim o'tkazadi. Agar ishga qabul qilish bevosita tsexlarda amalga oshirilsa, kirish yo'riqnomasini shu tsexning boshlig'i o'tkazishi kerak. Shikastlanganlarga dastlabki yordam ko'rsatish, yong'in xavfsizligi va boshqa maxsus masalalar bo'yicha yo'riqnomalarni tegishli mutaxassislar olib boradilar. Kirish yo'riqnomasi maxsus adabiyot, ko'rgazmali qurollar bilan jihozlangan mehnat muhofazasi xonasida, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda o'tkaziladi. Kirish yo'riqnomasi guruh bilan va yakka tartibda o'tkazilishi mumkin. Guruh bilan o'tkazilganda eshituvchilar soni 10 kishidan oshmasligi kerak. Kirish yo'riqnomasi o'tkazilganligi haqida maxsus jurnalga va ishchi qo'lga topshiriladigan ishga kirish varaqasiga yozib qo'yiladi.

Kirish yo'riqnomasining dasturi:

1. korxonada to'g'risida umumiy ma'lumot.
2. mehnat muhofazasi. Havfsizlik standartlari tizimlari haqida umumiy ma'lumot. Ish vaqti va dam olish vaqti. Ayollar va balog'atga etmaganlar mehnatini muhofaza qilish. Davlat, tarmoq va jamoat nazorati. Korxonada baxtsiz hodisalarni taftish qilish. Ichki mehnat tartibi qoidalari.
3. Xavfsizlik texnikasi. Xavfli, zararli ishlab chiqarish omillari va ulardan himoyalash. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning va kasb kasalliklarining asosiy sabablari. Xavfsizlik standartlari tizimlarida ishlab chiqarish jarayonlariga va uskunalariga qo'yiladigan talablar. Uskunalarining asosiy xavfsizlik qoidalari. Ogohlantiruvchi, to'suvchi va signal beruvchi vositalar. Xavfsizlik ranglari va belgilari. Elektr toki bilan jarohatlanish xavfini oshiruvchi sharoitlar. Jarohatlarning oldini olish tartiblari. Ish joyini xavfsiz tashkil qilish va saqlashga qo'yiladigan talablar. Yuk ko'tarish va tashish mexanizmlari, ichki transport vositalaridan xavfsiz foydalanish qoidalari.
4. Ishlab chiqarish sanitariyasi. Ishlab chiqarish muhitining asosiy sanitariya-gigienik omillari. Mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha asosiy tadbirlar (texnik va tashkiliy, sanitariya-gigienik, davolashprofilaktik). Ish joylari havosini almashtirishning zarurati va tuzilishi. Yorug'likni to'g'ri tashkil qilish. Syovqinga qarshi tadbirlar.
5. SHaxsiy himoya vositalari, ulardan foydalanish me'yor va qoidalari. Himoya vositalariga qo'yiladigan talablar. Korjomalar maxsus poyafzallar. Qo'l, bosh, yuz, ko'z, nafas a'zolari, quloqni himoya qilish. Ogohlantiruvchi moslamalar.
6. Shaxsiy gigiyena qoidalari. Sanitariya kiyimlari, poyafzallari va vositalariga qo'yiladigan talablar.
7. Korxonada Yong'in xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.
8. Mexanik jarohat olganda, kuyganda, kislota va ishqorlar bilan kuyganda zaharlanishda, elektr va ko'z jarohatlari olgandagi dastlabki yordam.
9. Xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalari buzilganda qo'llanadigan javobgarlik.

Ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma. Barcha ishchilar kirish yo'riqnomasidan tashqari ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnomalarni xam bilishlari lozim. Ish joyida o'tkaziladigan

yo'riqnomadan maqsad-har bir ishchini to'g'ri va xavfsiz ish usullariga o'rgatish hisoblanadi. Yo'riqnomani o'tkazish jarayonida ishchiga u ishlaydigan uskunada bajariladigan texnologik jarayon, uning harakat uzatish mexanizmlari, xavfli joylari, konstruktiv xususiyatlari, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavflar, ishni xavfsiz bajarish usullari, ish joyini to'g'ri tashkil qilish va shu kabi masalalar tushuniladi. Yo'riqnoma o'tkazish ishchining bevosita rahbari bo'lgan ustaga yuklatiladi. Ayrim zarur hollarda bu yo'riqnoma tegishli mutaxassislar (mexanik, enyergetik, texnolog) ishtirokida o'tkaziladi. Xodimlarga elektr xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma o'tkazish va malaka guruhi berish korxonada bosh enyergetigi zimmasiga yuklatiladi. Ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma ishni xavfsiz olib borish qoidalari asosida tsex boshliqlari tomonidan tuzilgan va korxonada bosh muhandisi tasdiqlagan dastur bo'yicha olib boriladi. Bu yo'riqnomalar ruyxatini korxonada bosh muhandisi kasaba uyushmasi raisi bilan birgalikda tasdiqlaydi. Ish joyida o'tkaziladigan dastlabki yo'riqnoma ishchini mustaqil ishlashga qo'yishdan oldin yoki ish xarakteri o'zgargan hollarda o'tkaziladi. Korxonaga ishga kirayotgan shaxs kasbiy malakasini malakali va tajribali ishchiga biriktirib qo'yish orqali oshiradi. Bunday biriktirib qo'yish tsex boshlig'ining vazifasi hisoblanadi.

Dastlabki yo'riqnoma o'tkazish yo'riqnomalarni rasmiylashtirish jurnaliga yozib qo'yish orqali mustahkamlanadi. Barcha ishchilar o'ta xavfli ishlarni bajarishga vazifa olishlaridan avval javobgar rahbar tomonidan yo'riqnoma olishlari va bu haqda jurnalga xavfsizlik choralari ko'rsatilgan holda rasmiylashtirilishi kerak. Ish joylarida o'tkaziladigan yo'riqnomaning dasturi.

1. texnologik jarayon va uskuna haqida umumiy ma'lumotlar. Asosiy xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari.

2. Ish joyiga qo'yiladigan xavfsizlik talablari.

3. Uskunaning (mashina, dastgoh, mexanizm) tuzilishi. Xavfli joylari, to'siqlari, ogohlantiruvchi moslamalari, blokirovka va signal berish tizimlari.

4. Ishga tayyorgarlik tartibi (uning sozligini, kerakli asbob-uskunalarining mavjudligini, yerga ulash va boshqa himoya vositalarining mavjudligini tekshirish).

5. Xavfsiz ishlash usullari, xavfli vaziyatlar paydo bo'lganda qilinadigan ishlar.

6. Korjomalar, shaxsiy himoya vositalari va ulardan foydalanish.

7. Ishchilarni elektr xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan asosiy talablar.

8. Tsexda xavfsiz harakatlanish sxemasi.

9. Yuk ortish-tushurish va tashish ishlarida xavfsizlik talablari. Yuk ko'tarish, tashish uskunalari va mexanizmlarini xavfsiz ishlatish.

Davriy yo'riqnoma. Ishchining malakasi va ish stajidan qat'iy nazar har 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatda xavfsiz ishlash usullari bo'yicha davriy yo'riqnoma o'tkazib turiladi. Bunday asosiy maqsad-ishchining asosiy va doimiy bajarib turadigan ishida xavfsizlik qoidalari bo'yicha bilimlarini yangilab va to'ldirib turishdir. Davriy yo'riqnoma yakka tartibda va guruh (bir xil kasbdagi ishchilar) bilan o'tkazilishi mumkin, bunda tsex yoki korxonada bo'lib o'tgan noxush hodisalarni talqin qilgan holda suhbat o'tkaziladi. Turli sabablar bilan (ta'til, kasallik, mehnat safari va x.k.) o'z muddatida ishchilarga o'tkazilmagan yo'riqnoma keyinchalik o'tkaziladi. Davriy yo'riqnoma o'tkazilganligi haqida jurnalga yozib rasmiylashtirilib qo'yiladi. Navbatdan taashqari quyidagi hollarda o'tkaziladi: -texnologik jarayon o'zgarganda, bir uskuna o'rniga boshqa uskuna o'rnatilganda va mehnat sharoiti o'zgartirilganda; -tsex bo'limi yoki brigadada baxtsiz hodisa yoki avariya ro'y byerganda; -ishlarni xavfsiz bajarish bo'yicha yangi qoida va yo'riqnomalarni ishchilar diqqatiga etkazish zarurati to'g'ilgan hollarda; -ishlab chiqarish intizomi qoida va yo'riqnomalarni talablari buzilishi aniqlangan hollarda. Navbatdan tashqari yo'riqnomada dastlabki yo'riqnomaning shu yo'riqnoma o'tilishiga sabab bo'lgan qismigina ko'rib chiqiladi. Bu yo'riqnoma ham dastlabki

va davriy yo'riqnoma singari bevosita rahbar (usta) tomonidan o'tkaziladi va jurnalga yozib rasmiylashtiriladi va sababi ko'rsatiladi. Ishchilarni bilimini tekshirish.

Dastlabki yo'riqnomadan va malaka oshirishdan keyin (mustaqil ishlashga ruxsat berishdan yoki boshqa ishga o'tkazishdan avval) ishchilarning xavfsiz ishlash usullari bo'yicha bilimlarini tekshirish kerak bo'ladi. Buning uchun korxonada ma'muriyati tomonidan maxsus komissiya tuziladi va unga rais qilib tsex boshliqlaridan biri belgilanadi. Zarurat bo'lganda, aniq sharoitdan kelib chiqib komissiya tarkibiga mexaniklar, enyergetiklar va boshqa mutaxassislar kiritilishi mumkin. Ishchiga dastlabki tekshiruvdan keyin ma'lum nusxada rasmiylashtirilgan shahodatnoma beriladi. Bilimlarni tekshirish yo'riqnoma dasturi asosida tsex boshliqlari tomonidan tuzilgan savollar yuzasidan o'tkazilib, dastlabki, davriy va navbatdan tashqari turlarga bo'linadi. Davriy tekshiruvdan ishchilarning bilimlarini maxsus tartibda tekshirib turiladi. Bu tartib jadvali usta tomonidan tuziladi va tsex boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Navbatdan tashqari tekshiruv texnologik jarayon o'zgarganda, yangi mexanizm va uskunalar o'rnatilganda, yangi qoida, yo'riqnomalar tadbiri qilingan hollarda hamda qoida yo'riqnomalar bo'yicha bilim etarli bo'lmagan hollarda davlat nazorat tashkilotlari, korxonada rahbarlari talabi bilan o'tkaziladi. Bilimlarni tekshirish natijalari jurnalga qayd qilinadi va ishchining shahodatnomasiga yozib qo'yiladi. Tekshiriluvchining bilimiga baho qo'yishdan (yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz) tashqari uni mustaqil ishlashga ruxsat berish haqida jurnalga ham qayd qilishi kerak. Agar tekshiruv paytida ishchi bilimining qoniqarsizligi aniqlansa unga mustaqil ishlashga ruxsat berilmaydi va ikki haftadan oshmagan muddat ichida qayta tekshiruvdan o'tishi kerak. Qayta tekshiruvga kelmaslik yoki sababsiz tayyorlanmasdan kelish mehnat intizomini buzish deb qaraladi. Ushbu kamchiliklarga yo'l qo'ygan ishchiga ichki mehnat intizomi qoidalarida belgilanganidek intizomiy choralar qo'llaniladi.

Mutaxassis va rahbar xodimlarni o'qitish va bilimlarini tekshirish. Mutaxassis va rahbar xodimlarning mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarini oshirish uchun korxonada, boshqaruv bo'limlarida davlat nazorat tashkilotlari ilmiy tadqiqot institutlari va tarmoq mutaxassislarini jalb qilgan holda kurslar, seminarlar, ma'ruzalar hamda maslahatlar tashkil qilinadi. Xodimlar rahbarlik lavozimiga tayinlanishidan avval quyidagilar bilan tanishishlari kerak: -ularga ishonib topshirilayotgan tashkilotda (bo'lim, tsex, korxonada) mehnat muhofazasi va sharoiti holati;

-xavfli va zararli ishlab chiqarish omillaridan ishchi hamda xizmatchilarni himoyalash vositalari; -jarohatlanish va kasb kasalliklarining tahlili;

-mexnat sharoitlarini yaxshilashning kerakli tadbirlari hamda mehnat muhofazasi bo'yicha qshllanma va lavozim vazifalari ruyxati. Mutaxassis va rahbar xodimlarning mehnat muhofazasidan bilimlarini tekshirish yuqori tashkilot mehnat muhofazasi bo'limlarining doimiy imtihon komissiyalari tomonidan bajariladi. Komissiya tarkibi yuqori tashkilot rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi. Imtihon komissiyalarini boshqaruv tashkilotlarining rahbarlari boshqaradi. Yirik korxonalarda imtihon topshiruvchi xodimlar soni ko'p bo'lsa, bir necha imtihon komissiyalari tashkil qilinishi mumkin.

Bunday hollarda komissiya raisi qilib mehnat muhofazasi bosh mutaxassislari va korxonada rahbarining muovnlari tayinlanadi. Imtihonlarni tashkil qilish va o'tkazish korxonada ma'muriyatiga hamda imtihon komissiyalari raislari zimmasiga yuklatiladi. Imtihonlar tasdiqlangan reja bo'yicha o'tkaziladi. Bu reja imtihon komissiyasining barcha a'zolariga bir oy oldin tarqatiladi. Tekshiruvchi esa imtihon kuni va o'tkazilish joyi haqida kamida 15 kun oldin ogohlantiriladi. Komissiya a'zolari uch kishidan kam bo'lsa imtihon o'tkazishga ruxsat berilmaydi. Imtihon komissiyasi tarkibiga kiritilgan rahbarlar va mutaxassislar boshqaruv tashkilotlari komissiyalariga imtihon topshirgan bo'lishlari kerak. Imtihon komissiyasi quyidagilar bo'yicha rahbarlarning bilimlarini tekshiradi:

-O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, boshqa qonun va me'yoriy hujjatlar;

-mehnat xavfsizligi standartlar tizimlari;

-halokatlarni cheklash va ogohlantirish tizimlarini; -elektr jarohatlaridan ogohlantirish;

-Yong'in xavfsizligi, halokat, portlash hamda Yong'inlarni bartaraf qilish usul va vositalari; -ko'ngilsiz hodisalar ro'y byerganda xodimlarning harakatlari;

-ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasining asosiy talablari;

-mehnat muhofazasi holatini nazorat qilishda davlat, tarmoq va jamoat nazoratlari to'g'risidagi nizomlar;

-baxtsiz hodisalarni taftish qilish, hisobga olish va rasmiylashtirish;

-texnologik tizimning xavfsizligini ta'minlovchi pasport, sxemalar, texnologik reglamentlar va lavozim yo'riqnomalari;

-SHHV ni tarqatish tartibi va me'yorlari, ishlatish muddatlari;

-mehnat bitimlari, ish vaqti, dam olish vaqti, ayollar mehnatini muhofaza qilish va balog'at yoshiga etmaganlar mehnatini muhofaza qilish. Imtiyozlar va to'lovlar;

-jabrlanganlarga dastlabki yordam ko'rsatish usullari. Imtixon savollari texnologik jarayonning o'ziga xos tomonlarini, mutaxassis rahbarlarga qo'yiladigan malaka talablari va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda tuzilib, komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi. Mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarni tekshirishning quyidagi turlari belgilangan: **dastlabki, davriy, navbatdan tashqari**. Lavozimlarga ishga tushgan kundan boshlab bir oy o'tkazmay tegishli imtixon komissiyasi bilimlarini tekshiruvdan o'tkazishi kerak. Davriy bilimlarni tekshirish kamida uch yilda bir marta o'tkaziladi. Quyidagi holatlarda ushbu nizomda qayd qilingan rahbarlar va mutaxassislarning bilimlari navbatdan tashqari tekshiriladi:

-mehnat muhofazasi bo'yicha yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan me'yoriy hujjatlar amalga kiritilganda; -yangi texnologik jarayonlar yoki yangi uskunalar o'rnatilganda;

-xodim bilimini mehnat muhofazasidan boyitish talab qilinadigan yangi ish joyiga o'tkazilganda; -guruhiy o'lim yoki nogironlik bilan tugagan baxtsiz hodisalar sodir bo'lganda hamda halokat, portlash, yong'in va zaharlanish hollari ro'y byerganda;

-ishda bir yillik uzilish sodir bo'lganda;

-Davlat nazorat tashkilotlari talablariga ko'ra. Bilimlarni navbatdan tashqari nazorat qilish ayrim hujjatlar chegarasida o'tkazilishi mumkin. Bu hujjatlarning ruyxatlari yuqori tashkilot tomonidan belgilanadi. Bilimlarni tekshirish natijalari bayonnoma tarzida rasmiylashtiriladi va imtixon komissiyasi raisi hamda a'zolari tomonidan imzo chekiladi. Bu bayonnoma olti yildan kam bo'lmagan muddatda korxonaning mehnat muhofazasi yoki kadrlar bo'limida saqlanadi. Ishlab chiqarish o'ta xavfli bo'lgan korxonalar mutaxassis va rahbarlari mehnat muhofazasidan imtixon topshirganlarida ularga maxsus shahadotnoma beriladi. Shahadotnomaga komissiya raisi (yoki uning muovini va a'zosi bo'lgan Mehnat muhofazasi Davlat texnik inspeksiyasining nazoratchisi imzo chekadi). Bunday shahadotnomaning mavjudligi rahbar yoki mutaxassisni ushbu Nizomning 28- bandida keltirilgan masalalar bo'yicha tekshiruvdan ozod qilmaydi. Imtihonda qoniqarsiz baho olgan rahbar shaxs bir oy ichida imtihonni qayta topshirish sharti bilan o'z lavozimida qoldirilishi mumkin. Imtihonni qayta topshira olmagan rahbar haqidagi materiallar korxonaning attestatsiya komissiyasiga, uning lavozimiga mos emasligini ko'rib chiqish uchun yulboriladi. Imtixon komissiyasining qarori yuzasidan nizolar Mehnat muhofazasi Davlat texnik inspeksiyasi yoki sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarni tekshirishni tashkil qilish va o'tkazish korxonalar rahbarlari hamda yuqori tashkilot mehnatni muhofaza qilish bo'limlari zimmasiga yuklanadi. Nazorat huquqi Mehnat muhofazasi Davlat texnik inspeksiyasiga yuklanadi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlari tekshirilishidan bo'yin tovlagan mutaxassis va rahbarlar lavozimlaridan chetlashtiriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

“MEHNATNI MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDA”GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 10-martda qabul qilingan

Senat tomonidan 2016-yil 25-avgustda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi 839-XII-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 5, 223-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 102-modda; 2001-yil, № 5, 89-modda; 2002-yil, № 1, 20-modda) o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

3-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2016-yil 22-sentabr,

O'RQ-410-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDA

(yangi tahriri)

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Ushbu Qonunning amal qilish sohasi

Ushbu Qonun:

korxonalar, muassasalar va tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) bilan, shuningdek alohida yollovchilar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan xodimlarga;

ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalariga, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilariga, boshqa ta'lim muassasalari tinglovchilariga;

tashkilotlarda ishlash uchun jalb etiladigan harbiy xizmatchilarga;

muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolarga;

sud hukmiga ko'ra jazoni o'tayotgan shaxslarga ular jazoni ijro etish muassasalari tomonidan belgilanadigan tashkilotlarda ishlashi davrida, shuningdek ma'muriy qamoqqa olish tarzidagi ma'muriy jazo qo'llanilgan shaxslarga, boshqa turdagi ishlarni bajarishga, shu jumladan jamiyat va

davlat manfaatlarini koʻzlab tashkil etiladigan ishlarni bajarishga jalb etiladigan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonun ish beruvchilarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida koʻrsatilgan shaxslar bundan buyon matnda xodimlar deb ataladi.

4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

jamoaviy himoya vositalari — tuzilishi yoki vazifasi jihatidan ishlab chiqarish binosi va ishlab chiqarish jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan, xodimlarga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili taʼsirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoya qilish uchun moʻljallangan texnik vositalar va boshqa vositalar;

zararli ishlab chiqarish omili — taʼsiri xodimning kasb kasalligiga chalinishiga olib kelishi mumkin boʻlgan ishlab chiqarish omili;

ish oʻrni — mehnat faoliyati jarayonida xodimning doimiy yoki vaqtinchalik boʻlish joyi;

ishlab chiqarish faoliyati — mahsulot ishlab chiqarish, xomashyoni qayta ishlash, ishlar bajarish, xizmatlar koʻrsatish chogʻida amalga oshiriladigan harakatlar yigʻindisi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa — xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham oʻz mehnat vazifalarini bajarishi bilan bogʻliq holda, shu jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda mehnatda mayib boʻlishiga yoki sogʻligʻining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga oʻtkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turgʻun yoʻqotishiga yoxud vafot etishiga sabab boʻlgan hodisa;

kasb kasalligi — xodimning unga zararli ishlab chiqarish omili yoki xavfli ishlab chiqarish omili taʼsiri natijasida yuzaga kelgan va uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud turgʻun yoʻqotishiga sabab boʻlgan oʻtkir yoki surunkali kasalligi;

mehnat sharoitlari — mehnatni amalga oshirish chogʻidagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yigʻindisi;

mehnatni muhofaza qilish — mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sogʻligʻi, ish qobiliyati saqlanishini taʼminlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi;

mehnatda mayib boʻlish — ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turgʻun yoʻqotishi;

noqulay ishlab chiqarish omillari — zararli ishlab chiqarish omilining va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilining mavjudligi;

xavfli ishlab chiqarish omili — taʼsiri xodimning shikastlanishiga olib kelishi mumkin boʻlgan ishlab chiqarish omili;

shaxsiy himoya vositalari — xodimga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili taʼsirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoyalash uchun foydalaniladigan texnik vositalar va boshqa vositalar.

5-modda. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

xodimning hayoti va sogʻligʻi ustuvorligini taʼminlash;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

barcha tashkilotlar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni belgilash;
mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

xodimlarni himoya qiluvchi xavfsiz texnika, texnologiya va vositalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishini rag'batlantirish;

fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or milliy va xorijiy tajribadan foydalanish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish;

xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

6-modda. Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish

Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish sohasida qonunchilikka muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi;

mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasini o'tkazish tartibini belgilaydi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirish hamda hisobga olish tartibini belgilaydi;

tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish tartibini belgilaydi;

mehnatni muhofaza qilish uchun ish beruvchi tomonidan mablag'lar ajratish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish jamg'armalarini tuzish va ularning mablag'laridan foydalanish tartibini belgilaydi;

mehnatni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi:

mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni va normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi, kelishib oladi hamda tasdiqlaydi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi, shu jumladan noqulay va alohida mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar berilishi yuzasidan davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiradi;

mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasi o'tkazilishini ta'minlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining yagona reyestrini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda yuritadi;

mehnatni muhofaza qilishning holati monitoringini o'tkazadi;

ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarning sabablarini tahlil qiladi hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga bunday jarohatlanishlarning oldini olish bo'yicha takliflar kiritadi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning maxsus tekshiruvini o'tkazilishini va hisobga olinishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

xodimlarning dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'riklarini o'tkazish tartibini belgilaydi;

ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha sanitariya qoidalarini, normalarini va gigiyena normativlarini belgilaydi;

mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlarga beriladigan sutni (shunga teng bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini), davolash-profilaktika oziq-ovqatini, gazlangan tuzli suvni (issiq sexlarda ishlovchilar uchun) berish normativlarini belgilaydi;

xodimni yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'sirini istisno etadigan ishga o'tkazish uchun tibbiy va boshqa ko'rsatkichlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

xodim kasb kasalligiga chalingan deb gumon qilinganda uning mehnat sharoitlarining sanitariya-gigiyena tavsifini tuzishga doir talablarni belgilaydi;

kasb kasalliklarini aniqlash va xodimlarning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganligi darajasini aniqlash uchun yo'llanma berish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida:

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi tarmoq maqsadli va maxsus dasturlarni tasdiqlaydi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

tizimidagi tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

tizimidagi tashkilotlarda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning va xodimlar sog‘lig‘iga boshqacha shikast yetkazilishining tekshiruvdan o‘tkazilishi hamda hisobga olinishini tashkil etadi va ta‘minlaydi;

tizimidagi tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislarining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha tayyorlanishi, qayta tayyorlanishi, malakasi oshirilishi va bilimlari tekshirilishini tashkil etadi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tegishli hududiy bo‘linmalarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. Tashkilotning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari

Ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati mutaxassislari mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalariga barcha xodimlar tomonidan rioya etilishini nazorat qilish, tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlariga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to‘g‘risida ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablarini buzayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida tashkilot rahbariga taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifalari mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

13-modda. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari

Mehnatni muhofaza qilish sohasida shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilaridir.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari:

tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifalarini amalga oshirishi;
ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasini o‘tkazishi;
mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlashi va ularning malakasini oshirishi;

tashkilotda mehnatning muhofaza qilinishini boshqarish tizimi auditini o‘tkazishi mumkin.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilariga va ular tomonidan xizmatlar bajarilishiga doir talablar, shuningdek ularning yagona reyestrini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

14-modda. Ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasi

Ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasi mehnat sharoitlarining, ish o‘rinlaridagi mehnat jarayoni og‘irligi va tig‘izligining hamda ularning jarohatlanish jihatidan xavfliligining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash, zararli ishlab chiqarish omilini va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilini aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlar majmuidir.

Ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasidan quyidagilar o‘tkazilishi kerak:

mehnat sharoitlari bo‘yicha xodimlarga qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozlar va kompensatsiyalar nazarda tutilgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar band bo‘lgan ish o‘rinlari;

imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlar ro‘yxatlarida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari;

xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi ish o‘rinlari.

Qonunchilikda, shuningdek jamoa shartnomalari va kelishuvlarida boshqa ish o‘rinlarining ham mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilishi nazarda tutilishi mumkin.

Ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasi belgilangan tartibda ish beruvchining o‘zi tomonidan o‘tkaziladi. Ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasini o‘tkazish davriyligi qonunchilikda belgilanadi, biroq besh yilda kamida bir marta o‘tkaziladi.

15-modda. Tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditi

Tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditi mehnatni muhofaza qilish tizimining holatini baholash bo‘lib, ushbu audit ish beruvchining qaroriga binoan o‘tkaziladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining ishlashi sifatini, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olishga, darajasini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar samaradorligini baholash;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olishga qaratilgan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

16-modda. Mehnatni muhofaza qilishni moliyalashtirish

Mehnatni muhofaza qilishni moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan ajratiladigan budjet mablag‘lari;

ish beruvchining o'z mablag'lari;
qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilgan mehnatni muhofaza qilish jamg'armalarining mablag'lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;
qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Mehnatni muhofaza qilish uchun budget mablag'lari tegishli (respublika va mahalliy) budgetlarda alohida qayd bilan ajratiladi, bu mablag'lardan boshqaruv organlarining, nazorat qiluvchi va tekshiruvchi organlarning ta'minoti, ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish, mehnatni muhofaza qilishga oid davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni bajarish uchun foydalaniladi.

Har bir ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan mablag'larni qonunchilikda, jamoa shartnomasida, shuningdek jamoa kelishuvlarida yoki boshqa ichki normativ hujjatlarda belgilanadigan miqdorda ajratadi. Xodimlar ana shu maqsadlar uchun biror-bir chiqim qilmaydilar.

Tashkilotlar mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamg'armani o'zining tijorat faoliyati va boshqa faoliyatidan olinadigan foyda (daromadlar), shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tashkil etishga haqlidir.

Mehnatni muhofaza qilishga mo'ljallangan mablag'lardan boshqa maqsadlar uchun foydalanilishi mumkin emas.

Mehnatni muhofaza qilish uchun ish beruvchi tomonidan mablag'lar ajratish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamg'armalarni tashkil etish va ularning mablag'laridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi ishtirokida belgilanadi.

17-modda. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarning tayyorlanishi belgilangan tartibda ta'minlanadi.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy soha xususiyatlari hisobga olingan holda talabalar va o'quvchilar tomonidan mehnatni muhofaza qilish kursi majburiy o'rganilishini tashkil etishi kerak.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ish beruvchilar mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar qayta tayyorlanishini va ularning malakasi oshirilishini ta'minlaydi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

18-modda. Xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash

Mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan normalar bo'yicha sut (shunga teng bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari), davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun), maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal hamda boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan bepul ta'minlanadi. Bunday ishlarning ro'yxati, ularni berish normalari, ular bilan ta'minlash tartibi va shartlari jamoa shartnomalari hamda kelishuvlarida belgilanadi, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kelishuvga ko'ra, qonunchilikda belgilangan normativlarga muvofiq belgilanadi.

Xodimlarning shaxsiy himoya vositalarini olish, saqlash, yuvish, tozalash, ta'mirlash, dezinfeksiya qilish va zararsizlantirish ish beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

19-modda. Obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanish, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va ta'mirlash chog'ida mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni ta'minlash

Mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga javob bermaydigan obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanishga, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va ta'mirlashga, texnologiyalarni joriy etishga, shu jumladan xorijdan olinganlarini joriy etishga yo'l qo'yilmaydi.

Yo'l qo'yiladigan eng yuqori normativlari (konsentratsiyalari) belgilangan tartibda ishlab chiqilmagan va tegishli ekspertizalardan o'tkazilmagan zararli moddalarning ishlab chiqarishda qo'llanilishi taqiqlanadi.

20-modda. Tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish vositalarini yaratish va ishlab chiqarish borasidagi faoliyatini rag'batlantirish

Tashkilotlar foydasining mehnatni muhofaza etishga oid adabiyotlarni, plakatlarini, boshqa targ'ibot vositalarini nashr etish hisobidan hosil bo'lgan qismiga, shuningdek ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik tashkilotlari foydasining jamoaviy himoya vositalari va shaxsiy himoya vositalarining, ishlab chiqarish muhitini nazorat qilish asboblari va dozimetriya vositalarining yangilarini yaratish, mavjud vositalarni ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilish hisobidan olingan qismiga qonunchilikka muvofiq imtiyozli soliq solish belgilanishi mumkin.

21-modda. Ishga qabul qilishda va boshqa ishga o'tkazishda mehnatni muhofaza qilishga bo'lgan huquqning kafolatlari

Mehnat shartnomasining shartlari mehnat to'g'risidagi qonunchilik, jamoa shartnomalari, shuningdek jamoa kelishuvlari va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi boshqa ichki normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Fuqarolarni sog'lig'ining holatiga ko'ra o'ziga to'g'ri kelmaydigan ishga qabul qilish va xodimlarni boshqa shunday ishga o'tkazish taqiqlanadi.

Fuqarolarni sog'lig'i va hayotiga yuqori darajada xavf tug'dirishi mumkinligi oldindan ayon bo'lgan ishga qabul qilish hamda xodimlarni boshqa shunday ishga o'tkazish chog'ida ish beruvchi ularni bu haqda ogohlantirishi shart.

Sog'lig'ining holatiga ko'ra yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'sirini istisno etadigan ishga o'tkazishga muhtoj xodimlarni ish beruvchi ana shunday ishga ularning roziligi bilan, tibbiy xulosaga muvofiq vaqtincha yoki muddatini cheklamay o'tkazishi shart.

Sog'lig'ining holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini istisno etadigan kam haq to'lanadigan ishga o'tkazishda xodimlarning avvalgi o'rtacha oylik ish haqi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida belgilangan tartibda va muddatlarda saqlanib qoladi.

22-modda. Xodimning mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatlari

Xodim quyidagi huquqlarga ega:

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning va normativ-huquqiy hujjatlarning talablariga mos bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;

ish beruvchidan mehnat sharoitlari to'g'risida, shu jumladan kasb kasalliklari va boshqa kasalliklarga chalinish ehtimoli mavjudligi, shu munosabat bilan o'ziga berilishi lozim bo'lgan imtiyozlar va kompensatsiyalar, shuningdek shaxsiy himoya vositalari va jamoaviy himoya vositalari haqida axborot olish;

mehnatni muhofaza qilishga oid belgilangan normalar va talablarga muvofiq ish beruvchining mablag‘lari hisobidan shaxsiy himoya vositalari bilan ta‘minlanish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug‘urta qilinish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida o‘z hayoti va sog‘lig‘i uchun xavf yuzaga kelgan taqdirda, agar shunday holatlar mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan tasdiqlansa, ishlarni bajarishni bunday xavf bartaraf etilguniga qadar rad etish;

o‘z ish o‘rnidagi mehnat sharoitlari hamda muhofazasi mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organ tomonidan tekshirishdan o‘tkazilishi uchun so‘rovnoma berish;

ish beruvchining mablag‘lari hisobidan mehnatning xavfsiz uslublari va usullari bo‘yicha o‘qish;

qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni olish;

o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetishi munosabati bilan hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararining o‘rnini ish beruvchidan undirish;

o‘z ish o‘rnida mehnat qilish uchun xavfsiz sharoitlar ta‘minlanishi bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilayotganda va o‘zi bilan sodir bo‘lgan baxtsiz hodisa yoki uning kasb kasalligi tekshirilayotganda shaxsan o‘zi ishtirok etish yoki o‘z vakillari orqali ishtirok etish;

tibbiy tavsiyalarga muvofiq navbatdan tashqari tibbiy ko‘rikdan o‘tish, ushbu tibbiy ko‘rikdan o‘tish vaqtida uning ish joyi (lavozimi) va ish haqi saqlanishi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida ish o‘rni tugatilgan taqdirda ish beruvchining mablag‘lari hisobidan qayta tayyorgarlikdan o‘tish.

Xodim qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Xodim:

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishi;

shaxsiy himoya vositalarini to‘g‘ri qo‘llashi;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar olishi, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘quvdan va malaka oshirishdan o‘tishi;

odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diruvchi har qanday vaziyat to‘g‘risida, shuningdek ish jarayonida yoki u bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan har qanday baxtsiz hodisa haqida ish beruvchini darhol xabardor qilishi shart.

Xodimning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

23-modda. Ish beruvchining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatlari

Ish beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

xodimlardan mehnatni muhofaza qilishga hamda ishlarni xavfsiz olib borishga doir normalar, qoidalar va yo‘riqnomalarga rioya etishni talab qilish;

xodimlarning alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik moddasi yoki toksik modda ta‘siridan mast holatda ekanligini aniqlash uchun ularni tekshiruvdan o‘tkazish;

xodimlar ishlab chiqarishda olgan jarohatlanishlarning og‘irlik darajasi, xodimlarda ularning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan kasallik mavjudligi to‘g‘risida, shuningdek ularning alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik moddasi yoki toksik modda ta‘siridan mast holatda ekanligi haqida ma‘lumotlar olish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bevosita sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga shikoyat qilish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etganlik uchun xodimlarni taqdirlash va moddiy rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'rish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni buzganlikda aybdor xodimlarni intizomiy javobgarlikka tortish.

Ish beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ish beruvchi:

har bir ish o'rnida mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlashi;

binolar, inshootlar, asbob-uskunalardan foydalanish, texnologik jarayonlarni amalga oshirish chog'ida, shuningdek ishlab chiqarishda xomashyo va materiallarni qo'llash, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish chog'ida xodimlarning xavfsizligini ta'minlashi;

ish o'rinlarida mehnat sharoitlarining holati, ayniqsa zararli ishlab chiqarish omillari va xavfli ishlab chiqarish omillari yuzasidan nazoratni amalga oshirishi;

mehnat sharoitlari to'g'risida, shu jumladan kasb kasalliklari va boshqa kasalliklar xavfi mavjudligi, muayyan ish o'rinlarida va ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilishning holati haqida, shuningdek shu munosabat bilan xodimlarga berilishi lozim bo'lgan imtiyozlar va kompensatsiyalar, shaxsiy himoya vositalari to'g'risida xodimlarni o'z vaqtida xabardor qilishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda mehnatni muhofaza qilish xizmatini va yo'l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etishi;

xodimlarni belgilangan normalar bo'yicha sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya hamda gigiyena vositalari bilan ta'minlashi, shuningdek jamoaviy himoya vositalari qo'llanilishini ta'minlashi;

xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar olishini, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan, qayta tayyorgarlikdan o'tishini, malaka oshirishini va bilimlari tekshirilishini ta'minlashi;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quvdan o'tmagan, yo'l-yo'riqlar olmagan va bilimlari tekshirilmagan shaxslarni ishga qo'ymasligi;

xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar belgilanadigan, imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqi beriladigan, nogironligi bo'lgan shaxslar band bo'lgan zararli, xavfli va boshqacha mehnat sharoitlariga ega ish o'rinlarida qonunchilikda belgilangan tartibda ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasini o'tkazishi;

dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'riklar belgilangan tartibda o'tkazilishini tashkil etishi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarga, shuningdek kasaba uyushmalariga va xodimlarning boshqa vakillik organlariga ularning mehnatni muhofaza qilish holati, baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirishi yuzasidan nazoratni, tekshirishni va monitoringni amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan axborot va materiallarni taqdim etishi;

avariya vaziyatlarining oldini olish, bunday vaziyatlar yuzaga kelganda xodimlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, shu jumladan jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarning ko'rsatmalarini bajarishi hamda kasaba uyushmalarining va xodimlar boshqa vakillik organlarining taqdimnomalarini ko'rib chiqishi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinishini, shuningdek ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta qilinishini ta'minlashi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazishi, shuningdek ularning hisobini yuritishi shart.

Ish beruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

24-modda. Majburiy tibbiy ko'riklar

Ish beruvchi o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning va umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetgan shaxslarning, nogironligi bo'lgan shaxslarning, shuningdek bir qator kasblar va ishlab chiqarishlar xodimlarining O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'riklardan o'tkazilishini tashkil etishi shart.

Tibbiy ko'riklar tashkilotlarga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, bunday muassasalar mavjud bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan erdagi hududiy davolash-profilaktika muassasasi tomonidan o'tkaziladi.

Qonunchilikka muvofiq majburiy tibbiy ko'riklardan o'tishi lozim bo'lgan shaxslar boshqa ishga o'tkazilgan taqdirda ham tibbiy ko'riklarni o'tkazish majburiyati ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Tibbiy ko'riklardan o'tilishi munosabati bilan xodimlar chiqimdor bo'lmaydilar.

Xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bo'yin tovlashga haqli emas.

Xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bo'yin tovlagan yoki ular o'tkazilgan tekshiruvlar natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarmagan taqdirda ish beruvchi ularni ishga qo'ymaslikka haqli.

Agar xodim o'z sog'lig'ining holati mehnat sharoitlari bilan bog'liq holda yomonlashgan deb hisoblasa, u navbatdan tashqari tibbiy ko'rik o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega.

Tibbiy ko'riklarni o'tkazish vaqtida xodimning ish joyi (lavozimi) va o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

25-modda. Xodimlarga mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish va ularni o'qitish

Ish beruvchi barcha yangi ishga kirayotgan, shuningdek boshqa ishga o'tkazilayotgan xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berishi, ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullarini hamda baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishga o'qitishni tashkil etishi shart.

Xavfliligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishga ishga kirayotgan yoki kasbiy tanlov talab etiladigan ishga kirayotgan xodimlar uchun ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullariga dastlabki tarzda tayyorlash, kasb bo'yicha imtihonlar topshirgan holda bir oy mobaynida stajirovka va so'ngra mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha davriy attestatsiya o'tkaziladi.

Tashkilotlarning xodimlari, shu jumladan rahbarlari o'z kasblari va ish turlari uchun mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda hamda muddatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan o'tishi, yo'l-yo'riqlar olishi, bilimlari tekshirilishi va attestatsiyadan o'tishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan tartibda o'quvdan o'tmagan, yo'l-yo'riqlar olmagan va bilimlari tekshirilmagan shaxslarni ishga qo'yish taqiqlanadi.

26-modda. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirish hamda hisobga olish

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xodimlarning o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi, shuningdek kasb kasalliklari belgilangan tartibda tekshirilishi hamda hisobga olinishi shart.

Fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha ishlar bajaruvchi (xizmatlar ko'rsatuvchi) shaxslarga nisbatan ham ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar hamda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi, kasb kasalliklari belgilangan tartibda tekshirilishi va hisobga olinishi shart.

27-modda. Xodimlarning ayrim toifalari uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

Mehnat sharoiti og'ir, zararli va xavfli ishlarda band bo'lgan xodimlar, shuningdek xodimlarning ayrim toifalari (ayollar, o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lgan shaxslar, mehnat qobiliyati cheklangan shaxslar) uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

28-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari quyidagi huquqlarga ega:

nazorat va tekshiruv vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, tushuntirishlarni, axborotni tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan so'rash va olish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirishlardan o'tkazish yoki tekshirishda ishtirok etish;

tashkilotlarning rahbarlariga va boshqa mansabdor shaxslariga mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarini bartaraf qilish haqida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni taqdim etish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rish haqida taqdimnomalar kiritish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan shaxsiy himoya vositalaridan va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlikda aybdor shaxslarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish;

mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan hamda xodimlarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan tashkilotlarning faoliyatini yoki asbob-uskunalaridan foydalanishni qonunchilikda belgilangan tartibda to'xtatib qo'yish;

qurilishi, rekonstruksiyasi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiya ishida ishtirok etish va ular mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmagan taqdirda tegishli xulosalar berish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi hamda ishlab chiqarishda xodimlarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash haqidagi da'volar yuzasidan sudda ekspert sifatida ish yuritish.

Mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruv qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari tomonidan ham amalga oshiriladi.

29-modda. Mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasi

Mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasi:

ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasini o'tkazish sifatini;

xodimlarga zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun kafolatlar hamda kompensatsiyalar berilishining to'g'riligini;

xodimlarning haqiqiy mehnat sharoitlarini baholash maqsadida amalga oshiriladi.

Mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertlari quyidagi huquqlarga ega:

nazorat va tekshiruv vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, tushuntirishlarni, axborotni tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan so'rash va olish;

tashkilotlarning rahbarlariga va boshqa mansabdor shaxslariga mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarini bartaraf qilish haqida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni taqdim etish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rish haqida taqdimnomalar kiritish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan shaxsiy himoya vositalaridan va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni va shartlarni buzganlikda aybdor shaxslarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish;

mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va xodimlarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan tashkilotlarning faoliyatini yoki asbob-uskunalaridan foydalanishni qonunchilikda belgilangan tartibda to'xtatib qo'yish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi hamda ishlab chiqarishda xodimlarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash haqidagi da'volar yuzasidan sudda ekspert sifatida ishtirok etish.

Mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

30-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining mehnatni muhofaza qilishni ta'minlashdagi ishtiroki

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etishi, mehnatni muhofaza qilishni ta'minlashda ishtirok etuvchi davlat organlariga va boshqa organlarga ko'maklashishi, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ishtirok etishi mumkin.

31-modda. Kasaba uyushmalarining, xodimlar boshqa vakillik organlarining mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash borasidagi huquqlari

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari mehnatni muhofaza qilish sohasida vakillikni, shuningdek xodimlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradi.

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari, shuningdek xodimlarning o'zi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil etgan shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

tashkilotlarning rahbarlaridan va boshqa mansabdor shaxslaridan mehnat sharoitlari va muhofazasi to'g'risida, shuningdek ishlab chiqarishdagi barcha baxtsiz hodisalar hamda kasb kasalliklari haqida axborot olish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirishda ishtirok etish;

xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilgan hollarda ishlarni to'xtatib turish, shuningdek mehnatni muhofaza qilishga oid talablarning buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ish beruvchiga takliflar kiritish;

mehnatni muhofaza qilish holatini o'rganish, ish beruvchilarning jamoa shartnomalari va kelishuvlarida nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish;

ishlab chiqarish obyektlarini va ishlab chiqarish vositalarini sinash hamda foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiyalar ishida mustaqil ekspert sifatida ishtirok etish, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi majlislarida ishtirok etish;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni buzganlikda, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar faktlarini yashirganlikda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi talablar bilan tegishli organlarga murojaat qilish;

mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mayib bo'lishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun hamda xodimlarning sog'lig'i va mehnatni muhofaza qilinishiga bo'lgan huquqlari cheklangan boshqa hollarda xodimning huquqlarini himoya qilib sudga murojaat etish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik, jamoa shartnomalarida va kelishuvlarida nazarda tutilgan majburiyatlar buzilganligi, shuningdek mehnat sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq mehnat nizolarini ko'rib chiqishda ishtirok etish.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil etilgan shaxsga o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi uchun har haftada kamida ikki soat ish vaqti ajratiladi va bu vaqt uchun ish joyi (lavozimi) bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari mehnatni muhofaza qilish sohasida ijtimoiy sheriklikni amalga oshiradi, bosh kelishuvlar, tarmoq va hududiy (mintaqaviy) jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomalari tuzishi mumkin.

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari, shuningdek xodimlarning o'zi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil etgan shaxslar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

32-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga javob bermaydigan, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun javobgarlik

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga javob bermaydigan, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va yetkazib berganlik iste'molchilarga yetkazilgan zararining o'rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan ishlab chiqarish vositalarini, shaxsiy himoya vositalarini va jamoaviy himoya

vositalarini, shu jumladan chet ellardan olingan shunday vositalarni sotish, tarqatish va reklama qilish taqiqlanadi hamda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

33-modda. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun ish beruvchining moddiy javobgarligi

Ish beruvchi xodimning o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli uning hayoti va sog'lig'iga o'zi yetkazgan zararining o'rnini qonunchilikda belgilangan tartibda to'liq hajmda qoplashi shart.

Xodimning sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash jabrlanuvchining mehnatda mayib bo'lishiga qadar bo'lgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan jabrlanuvchi tomonidan kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga muvofiq bo'lgan foizlardagi har oylik to'lovdan, shuningdek xodimning bir yillik ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lovidan hamda xodimning sog'lig'i shikastlanishidan kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlarni (agar u davolanish, protez qo'ydirish va tibbiy hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlariga muhtoj deb topilgan bo'lsa, ushbu tadbirlar bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek jabrlanuvchining qayta tayyorgarligi va tibbiy xulosaga muvofiq ishga joylashishi uchun xarajatlar va boshqa xarajatlar) kompensatsiya qilishdan iboratdir.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida xodim vafot etgan taqdirda, zararining o'rni qoplanishi huquqiga ega bo'lgan shaxslarga boquvchining vafoti bilan bog'liq holda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun qonunchilikda belgilangan tartibda har oylik to'lovlar amalga oshiriladi, shuningdek vafot etgan xodimning o'rtacha yillik ish haqining olti baravaridan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi va dafn etish xarajatlarining o'rni qoplanadi.

Voyaga yetmagan xodimning sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda zararining o'rnini qoplash uning avvalgi ish haqidan kelib chiqqan holda, ammo qonunchilikda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan kam bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqariladi.

34-modda. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda qoplash

Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda zararining o'rnini qoplash bo'yicha tegishli to'lovlarni to'lash majburiyati uning huquqiy vorisi zimmasida bo'ladi. Zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talablar ham unga taqdim etiladi.

Xodimning mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan, qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning mablag'lari mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirda tegishli summalar qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan to'lanadi. Mazkur summalar qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham davlat tomonidan to'lanadi.

Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs tugatilgan taqdirda tegishli to'lovlar ularni jabrlanuvchiga to'lash uchun qonunchilikda belgilangan tartibda kapitallashtirilishi kerak.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki mavjud bo'lmaganligi yoki yetarli bo'lmaganligi sababli to'lovlarni kapitallashtirish mumkin bo'lmagan hollarda tegishli summalar jabrlanuvchiga qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan to'lanadi.

35-modda. Nizolarni hal etish

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

36-modda. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Soha faoliyatlarini tashkil qilish
2. Mehnat xavfsizligi xizmatining asosiy vazifasi
3. Soha xodimlarining hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash
4. Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar
5. Ish vaqti va dam olish rejimi
6. Ayollar va yoshlar mehnatini muhofaza qilish

-Mavzu: ISHLAB CHIQRISH SANITARIYASI VA GIGIYENASI

Reja;

1. **Ishlab chiqarish sanitariyasi, mehnat gigiyenasi va uning vazifalari.**
2. **Ishlab chiqarishda mikroiklim omillari va ularning gigiyenik me'yorlari.**
3. **Ishlab chiqarish shovqini va titrashlarni xususiyatlari va ularni inson organizmiga ta'siri.**

Ishlab chiqarish sanitariyasi, mehnat gigiyenasi va uning vazifalari.

Mehnat gigiyenasi - ishlab chiqarish muhitini va mehnat jarayonini kishi organizmiga ta'sirini o'rganadi va ularning sanitariya-gigiyena holatlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyanomalarni ishlab chiqadi, bularning hammasi ishchilarning sog'lig'ini va ish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Ishlab chiqarish sanitariyasi - ishlab chiqarish korxonalarini hududlarining tozalik holatini yaxshi saqlash, obodonlashtirish, ishlab chiqarish binolarini va xonalarini, sanitariya-texnik qurilmalari (ventilyatsiya, isitish, yoritish), sanitariya-maishiy xonalar qurilmalari, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi zaharlanishlarni hamda kasb kasalliklarini oldini olish, xizmatchilar sog'lig'ini muhofaza qilish, shuningdek mehnatni ilmiy tashkil qilish va ishlab chiqarish estetikasi bilan bog'liq bo'lgan gigiyena choratadbirlarini ishlab chiqish masalalarini hal qiladi.

Vujudga kelishi mumkin bo'lgan kasalliklarni oldini olish va ulardan himoyalashda avvalambor ish joyidagi shaxsiy gigiyena masalalari asosiy rol o'ynaydi. Shaxsiy gigiyena tushunchasiga kiradigan masalalar doirasi juda keng. Bu badanni toza tutish, ishlaganda, ovqatlanganda shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, ya'ni yashaydigan joyni ozoda tutish va boshqalar. Shaxsiy gigiyena qoidalarini bajarish faqat individual emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ham molik bo'ladi. Agar bir kishi shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilmasa, u o'z oilasida va ishlaydigan jamoada yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Sog'lom ish sharoitlarini yaratilishining negizida sanitariya me'yorlari va qoidalari yotadi, ya'ni kishilar organizmini turli sharoit va muhitlarda qobiliyati va chidamlilik chegarasi aniqlanilib ishlab chiqarish joylarida muhitning MRK (me'yoriy ruxsat etilgan konsentratsiya), MRM (me'yoriy ruxsat etilgan miqdor), MRD (me'yoriy ruxsat etilgan daraja)lari ishlab chiqilgan va joriy qilingan.

Bularning me'yoriy darajasini ta'minlab turish sog'lom mehnat sharoitlariga kafolat beradi. Amaldagi sanitariya me'yorlaridan SM 245-71 korxonalarini joylashishiga hamda ularning hududini rejalashtirish, ishlab chiqarish maqsadida qurilgan binolarga umumiy talablarni belgilaydi.

Korxonada sanitariya qoidalari

Xavfsizlik va sog'liqni saqlash menejeri mahsulot ishlab chiqarish menejeri, ma'lumotlarni tahlil qilish, xavfsizlik va sog'liqni saqlash jamoasi hamda uning boshqa barcha a'zolari ustidan nazoratga ega. Bu kompaniyaning ish ta'rifi belgilangan majburiyatlari xavfsizligi va salomatligi uchun, maxsus xavfsizlik va sog'liqni saqlash menejeri bo'lishi uning etarlicha katta ekanligini ko'rsatadi.

Xavfsizlik va sog'liqni saqlash menejerining yana bir asosiy roli boshqarish masalasidir. Hujjatlar bo'limi yoki uning xodimlarining qanday vakolatlari bor? Chiziqli bunday korxonadagi boshqaruv tizimida xavfsizlik va sog'liqni saqlash menejeri ayrim xodimlarni (ya'ni, boshqa xavfsizlik va sog'liqni saqlash xodimlari) ham nazorat qilish vakolatiga ega. Xavfsizlik va sog'liqni saqlash menejeri u muayyan vazifani ya'ni mas'ul xodimlar, shaxslar ustidan boshqaruv funktsiyasi vakolatlariga ega, degan ma'noni anglatadi. Lekin xodimlari ustidan ichki faoliyat maslahatchilari kabi tavsiya, taklif va rag'batlantirish yoki hayfsan e'lon qilish huquqiga ega emas mumkin. Bu holat, odatda xavfsizlik va sog'liqni saqlash rahbari uchun ham shundaydir. Xavfsiz boshqa va sog'liqni saqlash xodimlari ustidan tizimli nazorat organi hatto uning rahbarlari ham, odatda, boshqa ishlab menejerlarining (masalan, xodimlar, ishlab chiqarish, yoki xarid qilish) bilan xodimlar munosabatlariga aralashish huquqiga ega emas. Misol uchun, quyidagi xavfsizlik va sog'liqni saqlash bilan bog'liq vaziyatlarni ko'rib chiqamiz:

- Har bir mashina operatori xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik doimo baxtsiz hodisalarning vujudga kelishiga olib keladi.
- Biror jarayonga e'tiborsizlik ham baxtsiz hodisalar bilan bog'liq raqamlarning juda ortishiga olib keladi.
- Boshqa kompaniyalarda falokatlarga sabab bo'lgan yangi mashinalarni xarid qilish ham baxtsiz hodisalarga olib keladi.

Birinchi misolda, xavfsizlik va sog'liq menejeri xodimining intizomli bo'lishini tavsiya etiladi lekin odatda intizomiy choralarni boshqarish menejering zimmasiga emas. Ikkinchi misolda, xavfsizlik va sog'liq menejerining loqaydligi natijasida yuzaga keladigan xavflar aniqlangan va bunday hollarda tuzatish va chora – tadbirlarni qabul qilish batafsil tahlilini amalga oshirish va jarayon uchun tavsiyalar ishlab chiqish ham aynan menejering vazifasidir.

Biroq, menejer kamdan - kam hollarda jarayonni butkul boshqarish huquqiga ega. Uchinchi misoldagi, xavfsizlik muammosida: sog'liqni saqlash menejeri bir muqobil mashina sotib olinishini tavsiya qilishi mumkin, lekin odatda uning yordamchilari uning sotib olinishini to'xtatish huquqiga ega emas.

Ichki maslahatchi rolini o'ynab, xavfsiz va sog'lom ish joyini ta'minlash ko'pincha xavfsizlik va sog'liqni saqlash menejerlar eng asosiy vazifadir. Butun rivojlanish ta'siridan foydalanish, aqlli, topqir korporativ siyosat yuritish, boshqaruv jarayonida nisbatan ziyrak bo'lish, bilimdon, ishonchli, va iqtidorli bo'lish har bir menejerdan talab qilinadi.

Ishlab chiqarishda mikroiqlim ko'rsatgichlari va ularning gigiyenik me'yorlari.

Ma'lum og'irlikdagi jismoniy mehnat bilan band bo'lgan kishi o'zini yaxshi his qilishi, ya'ni u qizib ketmasligi uchun mikroiqlim sharoitlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Ish joylaridagi mikroiqlim omillarini harorat, nisbiy namlik, havoning tezligi hamda atmosfera bosimi tashkil etadi. Bu sharoitlarni yaratish GOST 12.1.005-86 «Ish joyining havosi. Umumiy sanitar-gigiyenik talablar» bilan belgilanadi.

Ish joylaridagi namlikning eng maqbul qiymati 40-60 % deb qabul qilingan, lekin turli ishlab chiqarish sharoitlardan kelib chiqqan holda, ya'ni ba'zi bir texnologik jarayonlar talablari nisbiy namlikning o'zgarishiga olib keladi.

Havoning odam uchun sezilarli minimal tezligi 0,2 m/s hisoblanadi. Sanitariya-epidemiologiya nazoratining tavsiyasiga ko'ra ish joylaridagi havo harakatining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan tezligi ish joyining haroratiga keltirilgan jadvaldagidek bog'liqdir.

Muhitning haroratini ma'lum vaqt davomida qayd qilib borish uchun termograflardan va lahzaviy o'lchash uchun termometrlardan foydalaniladi.

Ish joylarida havoning harakati ish sharoitini yaxshilashning muhim omillaridan hisoblanadi. Issiqlik yuqori bo'lgan joylarda havoning harakati organizmdan chiqadigan issiqlikni atrof-muhitga berilishini yaxshilaydi va aksincha, sovuq ish joylarida organizmga salbiy ta'sir qiladi.

Havoning odam uchun sezilarli minimal tezligi 0,2 m/s hisoblanadi. Yilning sovuq paytlarida havoning tezligi 0,2-0,5 m/s, issiq joylarda esa 0,2 -1,0 m/s bo'lishi tavsiya etilgan. Issiq joylarda bu ko'rsatkich 3,5 m/s. gacha oshirilishi mumkin.

Mikroiqlimni tashkillashtiruvchi elementlar ko'rsatkichlarini nazorati uchun turli o'lchov uskunalardan foydalanadilar. Havoning nisbiy namligini o'lchash uchun Avgust va Asman aspirasion psixrometrlari va gigrograflardan keng foydalanadilar.

Ish o'rinlarida havoni almashish harakat tezligini aniqlash anemometrlar yordamida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishda xonalarni isitish va havosini almashtirish

Ishlab chiqarish binolari va texnika vositalari kabinalarida mikroiqlimni ta'minlovchi elementlarni omillari qo'shimcha uskuna va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ishchi hududdagi temperaturani me'yor darajasiga etkazish –yilning sovuq paytlarida isitish uskunalari kalarefir va ventilyator, batareyalarga bug'ni bosim ostida haydab berish, yoqish pechlari va individual isitish uskunalri yordamida amalga oshiriladi va aksincha yilning issiq paytlarida ishchi hududda havoni sovitish maqsadida, qo'shimcha sovitilgan havo markazlashgan shamollatgichlar yordamida va individual shamollatgichlar yordamida amalga oshiriladi.

GOST 12.1.005-86 talablariga asosan ish joylarida me'yor darajasidagi sharoitlarni yaratish uchun isitish jarayonidan keng foydalanadilar. Ish joylarini isitish mahalliy yoki markazlashgan holda bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligida mahalliy isitish tizimi asosan qishloq xo'jaligi texnikalarini kabinalarini isitish uchun va ishlab chiqarishdan uzoq bo'lgan maydoni 500m² dan ko'p bo'lmagan binolarni isitish uchun qo'llaniladi. Boshqa hollarda markazlashgan isitish tizimidan foydalanadilar.

Issiqlikni etkazuvchi vosita sifatida suv, bug', yoki havo ishlatilishi mumkin. Ma'lumki suv va bug' maxsus bug' qozonlari yordamida va muhitni quvurlar yoki radiatorlar orqali isitiladi. Havoni qizdirish esa kaloriferlarda, issiq suv, bug' va yelektr toki yordamida amalga oshiriladi. Mehnat muhofazasi talablaridan kelib chiqqan holda binolarni isitish mavsumi davomida binoning barcha joylarida havoni isitilishi teng va bir me'yorda bo'lishi, yong'in va portlash xavfidan xoli bo'lishi, ta'mirlashda va foydalanishda qulaylik talablariga javob berishi kerak.

Qishloq xo'jaligi texnikalari kabinalarini isitish uchun havo yordamida isitish tizimi keng qo'llaniladi.

Havoning nisbiy namligi va tozaligi markazlashgan havo almashtirgichlar (ventilyatsiya) tizimi yordamida amalga oshiriladi va havoning harakatlanish usuliga ko'ra tabiiy va mexanik shamollatishlar bo'ladi. Tabiiy shamollatishda xonaga havo tabiiy kuchlar - gravitatsion (issiqlik) va shamol bosimi ta'sirida kiradi. Gravitatsion bosim sovuq va issiq havoning solishtirma og'irliklaridagi farq natijasida yuzaga keladi.

Barcha ishlab chiqarish binolarining havosini tozalab turish tabiiy va mexanik shamollatish usullari yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun binoni loyihalayotganda derezalar va

devorlarda derazachalar, ventilyatsiya kanallari, quvurlar, derazalar, eshiklar o'rnatiladi. Ularning hajmi, binoning umumiy hajmiga nisbatan 2% ni tashkil qilishi kerak. Agar tabiiy ventilyatsiyaning samarasi kam bo'lsa binoning ichki havosini tozalash maqsadida mexanik ventilyatsiyadan foydalaniladi.

Ruxsat etilgan yuk ko'tarish va tashishning me'yorlari

Yukni ortish yoki tushirishga qadar yuk ko'taruvchi vositalarning mustahkam va turg'unligi, ularning yuk ko'taruvchanligi, ko'tariladigan yukka muvofiq kelish-kelmasligi, arqon, sim arqon va himoya to'siqlarining holatini tekshirish lozim.

Yuklar ko'pincha qoplarda, savatlarda, karton qutilarga, bochkalarda ortib tashiladi. Ortish usuli tashiladigan yukka va yuk ko'taradigan mashinalar yoki boshqa vositalarning bor-yo'qligiga bog'liqdir. Qishloq xo'jaligidagi jarohatlarning 35% ga yaqini transportda ish bajarganda sodir bo'ladi. Yuklarni qo'lda ortish va tushirish faqat muvaqqat maydonchalarda ruxsat etiladi. Bunday holda erkaklar qo'li bilan 50 kg, ayollar esa ko'pi bilan 9 kg, 16-18 yoshdagi o'smirlar uchun tashiydigan va siljitadigan yukning og'irligi o'g'il bolalar uchun 13 kg, qizlar uchun 7 kg dan ortiq bo'lmasligi kerak. O'smirlar uchun uzluksiz tashiydigan va siljitadigan yukning miqdori 4,1 kg dan ko'p bo'lmasligi lozim, 14-15 yoshdagi o'smirlar uchun esa me'yor 2 martagacha kamaytiriladi (SQ va MN 0052-96).

Ish o'rinlarini tashkillashtirishda ergonomik talablar.

Ishchilarning sog'lig'ini saqlash, yuqori ish unumiga erishish va o'zini yaxshi his qilishi ularning mehnat sharoitini yaxshilanishi va ish joylarini tashkil etishga bog'liq. Turgan va o'tirgan hollarda bajariladigan ishlar ergonomika talablari asosida kishi tanasining o'lchamlari inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

- 1 – tez-tez ishlatiladigan va muhim boshqaruv organlari joylashuvi;
- 2 – tez-tez ishlatiladigan va kam muhim bo'lgan boshqaruv organlari;
- 3 - kam ishlatiladigan boshqaruv organlari.

Ishchi yuzaning ko'rsatkichlari kishining kuchi, shaxsiy imkoniyatlarga bog'liq holda o'zgaradi va u har xil odamlarda turlichadir. Uzluksiz ish davomida kishining kuch miqdori, uning ta'sir etish davomiyligiga va chastotasiga teskari proporsionaldir. Yengil ishlarni bajarishda ish joylarini o'tirib ishlashga mo'ljallab tashkil qilinadi. Ishchining erkin ko'zg'alishiga zaruriyat talab qilinmasa, shu bilan birga texnologik jarayonning o'ziga xosligini ifodalovchi o'rta og'irliqdagi ishlar ish joyining konstruksiyasiga bog'liq holda vertikal hamda gorizont tekisliklarda bajariladi.

Ishda bajarilayotgan operatsiyalar tez va juda tez doira chegarasida va harakatlantiruvchi maydonning eng qulay doirasida amalga oshiriladi. Bajariladigan operatsiyalarni bajarilish tezligini «juda tez» - ikki va undan ortiq operatsiyalar 1 minutda, «tez» 1 minutda ikki operatsiyadan kam, ammo 1 soatda ikki operatsiyadan ko'p; «kamdan-kam» 1 soatda ikki operatsiyadan ko'p bo'lmagan deb qabul qilinadi.

Shularga muvofiq axborot va boshqarish pulklarining kanali joylashtiriladi. Bundan tashqari ish o'rinlarini ish turiga qarab metall stol, stellaj, qutilar, uskuna va soz asboblari bilan ta'minlash xavfsiz ishni tashkillashtirishda va samaradorligini oshirishda asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Yangi mexnat kodeksining 27-bobi "Xodimning mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlangan va quyidagilar keltirilgan

473-modda. Noqulay mehnat sharoitlari va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari tushunchalari

Zararli (o'ta zararli) va (yoki) xavfli (o'ta xavfli) ishlab chiqarish omilining mavjudligi bilan tavsiflanadigan mehnat sharoitlari noqulay mehnat sharoitlaridir. Xodimning mehnat faoliyati amalga oshiriladigan ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillari ishlab chiqarish omillaridir.

Xodimga ta'siri kasb kasalligiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omilining mavjudligi bilan tavsiflanadigan mehnat sharoitlari zararli mehnat sharoitlaridir.

Xodimga ta'siri uning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omilining mavjudligi bilan tavsiflanadigan mehnat sharoitlari xavfli mehnat sharoitlaridir. Miqdoriy tavsifiga va ta'sir ko'rsatishning davomiyligiga qarab ayrim zararli ishlab chiqarish omillari xavfli bo'lishi mumkin.

Kasb kasalliklarining og'ir shakllarini (umumiy mehnat qobiliyatining yo'qotilishi) yoxud surunkali kasalliklar sonining ancha o'sishini va mehnat qobiliyatining vaqtincha yo'qotilishi kuzatiladigan kasallanishning yuqori darajalarini keltirib chiqaradigan zararli ishlab chiqarish omillari darajalari bilan tavsiflanadigan mehnat sharoitlari o'ta zararli mehnat sharoitlaridir.

Smena davomida o'limga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omillari bilan tavsiflanadigan mehnat sharoitlari o'ta xavfli mehnat sharoitlaridir.

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari deganda xodim tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishga va uning cho'l joylarda, baland tog'li, borish qiyin bo'lgan joylarda, shuningdek noqulay ekologik vaziyatga ega bo'lgan joylarda istiqomat qilishiga noqulay ta'sir ko'rsatadigan tabiiy-iqlim, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy-biologik omillar yig'indisi tushuniladi. Mehnat qilish uchun noqulay tabiiy-iqlim sharoitlariga ega bo'lgan joylar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

474-modda. Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunaning jarohat yetkazish xavfi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish

Mehnat sharoitlari va asbob-uskunaning jarohat yetkazish xavfi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish asosida aniqlanadigan, mehnat sharoitlari xodimning mehnat qobiliyatiga va sog'lig'iga nomaqbul ta'sir ko'rsatadigan ish o'rinlarida band bo'lgan xodimlar mehnat faoliyatini noqulay mehnat sharoitlarida amalga oshiruvchi xodimlardir.

Mehnat sharoitlarini, ish o'rinlaridagi mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligini hamda asbob-uskunaning jarohat yetkazish xavfini baholash, zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini aniqlash, shuningdek mehnat sharoitlarini, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligini qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiqlashtirish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar majmui ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunaning jarohat yetkazish xavfi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazishdir.

Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunaning jarohat yetkazish xavfi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

475-modda. Mehnat faoliyatini noqulay mehnat sharoitlarida va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida amalga oshiruvchi xodimlarga qo'shimcha kafolatlar

Mehnat faoliyatini noqulay mehnat sharoitlarida, noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida amalga oshiruvchi xodimlarga mehnatni muhofaza qilish, ish vaqti, ta'tillar, mehnatga haq to'lash, shuningdek boshqa mehnat sharoitlari borasida qo'shimcha kafolatlar beriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xodimlarga kafolatlarning eng past darajasi qonunchilikda belgilanadi. Jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida yoki ish beruvchi

tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilingan boshqa ichki hujjatlarda mazkur toifadagi xodimlarga qo‘shimcha kafolatlar berish nazarda tutilishi mumkin.

476-modda. Mehnat faoliyatini noqulay mehnat sharoitlarida amalga oshiruvchi xodimlarni majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish

Ish beruvchi noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlarning dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (ish jarayonida) majburiy tibbiy ko‘riklardan o‘tkazilishini tashkil etishi shart.

Bajarilishi chog‘ida dastlabki va davriy majburiy tibbiy ko‘riklar o‘tkaziladigan noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro‘yxati hamda majburiy tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

477-modda. Noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlar uchun ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi

Mehnat jarayonida zararli va xavfli ishlab chiqarish omillari ta‘siriga duchor bo‘ladigan xodimlarga haftasiga o‘ttiz olti soatdan oshmaydigan ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi belgilanadi. Bunday ishlar ro‘yxati va ularni bajarishdagi ish vaqtining aniq davomiyligi jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, agar ular tuzilmagan bo‘lsa — ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishilgan holda ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunaning jarohat yetkazish xavfi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish asosida belgilanadi.

O‘ta zararli va o‘ta xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlar uchun ish vaqtining cheklangan davomiyligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

478-modda. Noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlarning har kungi ishi (smenasi) davomiyligi

Noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlarning har kungi ishi (smenasi) davomiyligi olti kunlik ish haftasida — olti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa — yetti soatu o‘ttiz daqiqadan ortiq bo‘lmasligi kerak.

Noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlarning har kungi ishi (smenasi) davomiyligi:

o‘ttiz soatli olti kunlik ish haftasida — besh soatdan, o‘ttiz soatli besh kunlik ish haftasida esa — olti soatdan ortiq bo‘lmasligi kerak;

yigirma to‘rt soatli olti kunlik ish haftasida — to‘rt soat, yigirma to‘rt soatli besh kunlik ish haftasida esa — besh soatdan ortiq bo‘lmasligi kerak.

479-modda. Noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlarni ish vaqtidan tashqari ishga jalb etishdagi cheklovlar

Noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlarning ish vaqtidan tashqari ishining davomiyligi kuniga ikki soatdan va yiliga bir yuz yigirma soatdan ortiq bo‘lmasligi kerak.

O‘ta zararli va o‘ta xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlarni ish vaqtidan tashqari ishga jalb etish taqiqlanadi.

480-modda. O‘ta zararli va o‘ta xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlar uchun ish vaqtini jamlab hisobga olishni qo‘llashdagi cheklovlar

O‘ta zararli va o‘ta xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlar uchun ish vaqtini jamlab hisobga olishni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

481-modda. Noqulay mehnat sharoitlaridagi ish uchun yillik qo‘shimcha ta‘til

Noqulay mehnat sharoitlarida band bo‘lgan xodimlar yillik qo‘shimcha ta‘til olish huquqiga ega.

Qo'shimcha ta'til olish huquqini beradigan ishlar, kasblar va lavozimlar ro'yxati, ta'tillarning davomiyligi, ularni berish tartibi va shartlari jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, — ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunaning jarohat yetkazish xavfi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq belgilanadi.

Noqulay mehnat sharoitlarida band bo'lgan xodimlarga beriladigan yillik qo'shimcha ta'tilning eng qisqa davomiyligi, shuningdek noqulay mehnat sharoitlaridagi ish uchun yillik qo'shimcha ta'tillarni berish shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

482-modda. Ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi belgilangan noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash

Noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida xodimlar uchun xuddi ish vaqtining normal davomiyligida bo'lgani kabi miqdorda amalga oshiriladi.

Zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlarning mehnatiga haq to'lash oshirilgan miqdorda belgilanadi.

Zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar mehnatiga to'lanadigan haqni oshirishning eng kam miqdori normal mehnat sharoitlaridagi har xil turdagi ishlar uchun belgilangan tarif stavkasining (maoshning) to'rt foizini tashkil etadi.

Mehnat haqini oshirishning aniq miqdorlari ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

483-modda. Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlaridagi ish uchun har yilgi qo'shimcha ta'til

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlaridagi ish uchun har yilgi qo'shimcha ta'til qaysi joylarda ishlaganlik uchun mehnat haqiga tegishli koeffitsiyentlar belgilangan bo'lsa, o'sha joylarda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarga beriladi.

Tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay hududlarning ro'yxati va bunday sharoitlardagi ish uchun beriladigan yillik qo'shimcha ta'tilning eng qisqa davomiyligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarda noqulay tabiiy-iqlim sharoitlaridagi ish uchun ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilmagan yillik qo'shimcha ta'tillar belgilanishi mumkin.

484-modda. Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlaridagi ish uchun mehnatga haq to'lash koeffitsiyentlari

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlaridagi ish uchun mehnatga haq to'lash koeffitsiyenti ayrim hududlardagi mehnat sharoitlarining xususiyatlari inobatga olingan holda xodimlarga to'lanadigan kompensatsiya xususiyatiga ega bo'lgan ustama turidir. Koeffitsiyentlarning eng kam miqdorlari va ularni qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nazarot savollari

1. Ishlab chiqarish sanitariyasi nima?
2. Insonga zararli omillar qanday yo'l bilan ta'sir qiladi?
3. Noqulay mikroiklim nima?
4. Mikroiklim deganda nimani tushunasiz?
5. Shovqin nima, uning qanday zararli ta'siridan qanday himoyalaniş mumkin?
6. Ishlab chiqarishda titrash, uning organizmga ta'siri va uning zararli ta'siridan himoyalaniş haqida tushunchangiz?

7. Ultra va infratovushlar nima?
8. Ishlab chiqarishdagi zararli moddalar va ularning organizmga ta'sirini ayting?
9. Ishlab chiqarish changlari va ularni organizmga zararli ta'sirini ayting?
10. Changlarni zararli ta'sirini kamaytirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak?

Mavzu; TEXNIKA XAVFSIZLIGI

Reja:

- 1. Texnika xavfsizligi haqida umumiy ma'lumot.**
- 2. Korxonalarda texnika xavfsizligiga oid ishlarni tashkil qilish.**
- 3. Mehnat xavfsizligini ta'minlovchi texnik vositalar.**
- 4. Xavfsizlik belgilari sistemasi**

Texnika xavfsizligi haqida umumiy ma'lumotlar

Mehnat xavfsizligining asosiy masalalaridan biri ishlovchilarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ish hisoblanadi. Zamonaviy ishlab chiqarish uni doimiy ravishda texnik jihatdan qurollantiruvchi, kimyoviy va mikrobiologik vositalardan foydalanishi, mobillashgan jarayonlarning keng qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitlarda xavfsizlik talablarining buzilishi, baxtsiz hodisalarga olib keladigan xavfli holatlarni keltirib chiqaradi.

Mehnat xavfsizligi-bu shunday mehnat sharoitiki, bunday ishlab chiqarishda ishchilarga zararli va xavfli omillarning ta'sirini butunlay oldi olingan bo'ladi. Ishlab chiqarish sharoitida odamlar ishlab chiqarishning fizik va kimyoviy omillaridan jarohatlanadi.


Ishlab chiqarishning xavfli fizikaviy omillari harakatlanayotgan mashinalar, uskunalarining himoyalangan ko'zgaluvchan elementlari, harakatlanuvchi buyulmlar, moddiylar, uskunalar yoki moddiylarning sirtidagi yuqori yoki pastki haroratlar, elektr setidagi xavfli kuchlanishlar, qisilgan havoning, gazning enyergiyasi, portlashlar, to'lqin zarbi va shunga o'xshashlar hisoblanadi. Odamlarning sog'ligi uchun ayniqsa ishlov byerilayotgan materiallardan va instrumentlardan uchayotgan qismlar jiddiy xavf tug'diradi. Ishlab chiqarishning xavfli kimyoviy omillari inson organizmiga achchiq, zararli va og'rituvchi moddalarni ta'siri bilan xarakterlanadi.

Ishlab chiqarishning u yoki bu xavfli omillarining paydo bo'lishi texnologik jarayon, uskunalar konstruksiyasi, mehnatni tashkillashtirish darajasi va unga o'xshashlarga bog'liq bo'ladi.

Ishlab chiqarishning xavfli omillari namoyon bo'lish xarakteri bo'yicha ochiq va yopiq turlarga bo'lish mumkin. Ochiq xavfli omillar ochiq tashqi belgilari mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bunga mashinalarning harakatlanayotgan qismlari, yong'in, ko'tarilgan va tarozidagi osilgan holda turgan yuklar kiradi.


Yopiq xavflar mashina, mexanizm, jihoz va asboblardagi ko'zga ko'rinmas nukson va kamchiliklar yoki ma'lum avariya va xavfli holatlarda paydo bo'ladigan kamchilik ko'rinishda bo'ladi.

Mashina va mexanizmlarning xavfli zonalari. Ishchilar xavfning manbaiga bevosita tekkanda yoki unga yo'l qo'yib bo'lmaydigan masofaga yaqinlashganda jarohatlanishi mumkin. Inson sog'ligiga va hayotiga xavf tug'diradigan xavfli ishlab chiqarish omillari doimo mavjud bo'lgan yoki vaqti-vaqti bilan namoyon bo'ladigan fazo xavfli zona hisoblanadi.



1.-rasm. Xavflizonalar: 1-tishli uzatmalardagi; 2-tasmali uzatmadagi (zanjirli); 3-kadanli uzatmadagi; 4-aylanma valiklardagi; 5-charxlash stanogidagi; 6-diskli arradagi; 7-old surgichi bor traktorlardagi; 8-yuk ko'tarish mexanizmdagi; 9-kesuvchi apparatdagi; a-doimiy xavfli zonalar, b-fazoda xavf doimiy bo'lmagan zonalar.

Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik talablari. Texnologik jarayonlarni tashkil etishni va bajarishni loyihalashda davlat standarti quyidagilarni hisobga olishni taqozo etadi: -xavfli va zararli ta'sir etishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish chiqindilari, materiallari bilan ishchilarni bevosita kontaktli aloqada bo'lishini oldini olishni;



2.-Rasm. Yuk arqoni uzilganda xavfli zona chegarasini aniqlash sxemasi.

-xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari mavjud bo'lganda kompleks avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishni joriy etish;

-ishchilarning himoyasini ta'minlovchi va avariya holatida ishlab chiqarish uskunalarini o'chirish nazorati sistemasini ta'minlash va texnologik jarayonlarni boshqarishni amalga oshirish;

-xavfli va zararli omil hisoblangan ishlab chiqarish chiqindilarini ish joylaridan chiqarish va uni zararsizlantirish.

Texnologik jarayonlarga xavfsizlik talablari esa texnologik hujjatlarda bayon etilishi kerak.

Ishlab chiqarish binosini tanlashda uni sanitar normalarga mosligini, Yong'in va portlash xavfi bo'yicha uning kategoriyalarini hamda elektr tokidan jarohatlanish bo'yicha xonalar klassini va boshqalarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri uskunalariga xizmat qiluvchi xodimlarni kasbiy tayyorgarligi va bajaradigan ishiga ularning jismoniy imkoniyatini mavjudligidir.

Ishlab chiqarish uskunalariga umumiy xavfsizlik talablari. Ishlab chiqarish uskunalariga, mashina va mexanizmlarga mehnat sharoiti va ularning elementlari, uskunalar konstruktsiyalarini hisobga olgan holda, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfli va zararli omillar manbaini aniqlashdan so'ng, xavfsizlik talablari belgilanadi.

Mehnatni muhofaza qilish nuqtai nazaridan uskunalarga qo'yilgan asosiy talablarga: odamlar sog'ligi va hayoti uchun xavfsizlik hamda ularni ishlatishda ishonchlilik va qulayliklar kiradi.

Uskunalarni ishlatishda mikroiklimning o'zgarishi, atmosfera xolatlarining ta'siri organizmga xavf solmasligi kerak. Ishlab chiqarish uskunolari Yong'in va portlashga xavfsiz bo'lishi kerak. Ularning konstruksiyasida qo'llaniladigan moddiyalar zararli, xavflibo'lmasligi, ularning harakatlanadigan aylanadigan qismlari xavf manbalari hisoblanadi va shu sababli ular xavfsiz qilib to'silgan bo'lishi kerak.

Uskunalarni avariya sodir bo'lganda o'chirishi lozim bo'lgan knopkalari, dastalariularningko'rinadiganvaqulayjoyidajoylashtirilishikerak. Bu talabni bajarish ular qizil ranglarga bo'yab qo'yilganda yanada osonlashadi.

Mehnat sharoitini aniqlovchi asosiy omillar tahlili

Ishlab chiqarishda kasb kasalliklarining oldini olish va ishlab chiqarish jarohatlarini kamaytirishda, ushbu baxtsiz hodisalarni chuqur tahlil qilish asosida ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni hamda ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillarni puxta o'rganish mubim rol o'ynaydi.

Baxtsiz hodisalarning sabablari asosan quyidagi 4 guruhga bo'linadi: texnikaviy, sanitar-gigiyenik, tashkiliy va psixofiziologik.

Texnikaviy sabablarga mashina va mexanizmlar hamda ish jihozlarning nosozligi, elektr qurilmalarining yerga ulanmaganligi, yuklashtushirish mashinalaridan noto'g'ri foydalanish, mashina va mexanizmlar konstruksiyasini mehnat muhofazasi talablariga javob bermasligi kabilar kiradi. Sanitar-gigiyenik sabablarga esa mehnat gigiyenasi, sanitar me'yorlar va qoidalarga amal qilmaslik, yoritilganlik, harorat, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi, havoning bosimi kabi ko'rsatkichlarni me'yordan chetga chiqishi, yuqori miqdordagi shovqin, titrash, havoning changlanganligi yoki gazlanganligini kiritish mumkin.

Tashkiliy sabablarga ish rejimi va dam olish rejimini noto'g'ri tashkil etilganligi, sog'lom va xavfsiz ish sharoitini yaratilma-ganligi, ishchilarni xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha o'qitilmaganligi, ish joylarida ogohlantiruvchi belgilarni bo'lmasligi, nomutaxassislarni ishga qabul qilish, maxsus kiyim-boshlar hamda shaxsiy himoya vositalari bilan ishchilarni ta'minlanmaganligi va boshqalar misol bo'la oladi.

Psixofiziologik sabablarga bajarilayotgan ishga e'tiborsiz qaralishi, ishchining o'z faoliyatida bo'lgan nazoratining bo'shligi, jismoniy yoki asabiy toliqish va boshqa shu kabilar kiradi.

Ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar baxtsiz hodisalarni keltirib chiqaruvchi sabablardan farq qiladi. Baxtsiz hodisalarning sabablari mehnat muhofazasi bo'yicha standartlar, qonun-qoidalar va ko'rsatmalarining buzilishi, ularga amal qil-maslik oqibati bo'lsa, ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar esa bevosita jarohatlanishlarni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlar hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar ishning turi va mehnat sharoitiga bog'liq holda 4 guruhga bo'linadi: fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik.

Fizikaviy omillarga harakatdagi mashina va mexanizmlar, ularning himoyalanmagan qo'zg'aluvchi mexanizmlari, ish joyi havosining yuqori darajada changlanganligi, gazlanganligi, baland darajadagi shovqin, titrash, infratovush, ultratovush, turli xil nurlanishlar, statik elektr zaryadlari, yuqori kuchlanishdagi elektr yoki magnit maydonlari, yoritilganlik darajasining me'yordan chetga chiqishi kabi omillar kiradi.

Kimyoviy omillarga ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan yoki ajralib chiqadigan turli xil kimyoviy moddalar kiradi. Ularni insonga ta'sir etish xususiyatiga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: umumiy zaharlovchi, ko'payish funksiyalariga ta'sir etuvchi; inson a'zolariga kirish yo'li orqali esa: nafas olish yo'li orqali ta'sir etuvchi, ovqatlanish va hazm qilish tizimi orqali va bevosita teri orqali ta'sir etuvchi.

Biologik omillarga esa har xil jarohatlar va kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikro va makroorganizmlar: bakteriyalar, virus-lar, rikket, zamburug'lar, har xil zaharli o'simliklar va hayvonlar kiradi.

Psixofiziologik omillarga jismoniy va asabiy zo'riqishlar misol bo'la oladi. Jismoniy zo'riqishlar statik, dinamik va giperdinamik holda bo'lishi mumkin. Asabiy zo'riqish esa kuchli aqliy mehnatdan, mehnatni doimiy bir xil ko'rinishda bo'lishidan, kuchli hayajonlanish yoki asabiylashishdan sodir bo'ladi.

Ishlab chiqarishdagi ko'pgina holatlarda ushbu faktorlar umumlashgan holda uchraydi. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning oldini olish zararli va xavfli faktorlarning ta'sir darajasini susaytirish maqsadida texnologik jarayonlarni to'liq mexaniza-tsiyalashtirish, avtomatlashtirish va ish joylarini germetiklashtirish, ishlab chiqarish xonalarida yoritilganlik, shovqin, titrash darajalarini hamda mikroiklim ko'rsatkichlarini me'yor-lashtirish, ishchilarni maxsus kiyim-boshlar va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashni o'z vaqtida amalga oshirish talab etiladi.

Ishlarni og'irlik va xavflilik-zararlilik darajasi bo'yicha tasniflanishi

Yuqorida ta'kidlangan zararli va xavfli faktorlarning ta'siri ishning turiga, xususiyatiga va og'irlik darajasiga bog'liqdir. Shunga mos holda, barcha jismoniy ishlar 3 sinfga ajratiladi:

yengil ishlar (I), o'rtacha og'irlikdagi ishlar (IIa, IIb) va og'ir ishlar (III). Yengil ishlarni bajarishga – 172 j/s, o'rtacha og'irlikdagi ishlarni bajarishga – 172...293 j/s, og'ir ishlarni bajarishga 293 j/s.dan ortiq energiya sarflanadi. Lekin ishlarni og'irlik darajasini aniqlashda, faqatgina ularni bajarishga sarflanadigan energiya miqdoriga asoslanish to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli, mehnat sharoitini, ishlab chiqarish muhitini, ularni insonning (ishchining) asab torlariga ta'sirini ham hisobga olish zarurdir. Umuman, ishlarni og'irlik darajasi bo'yicha guruhlashda 50 ga yaqin mezon («Kriteriya») hisobga olinishi mumkin.

Ishlar xavflilik va zararlilik darajasiga qarab esa zararli, xavfli va o'ta xavfli turlarga ajratiladi.

Zararli ishlarga nomaqbul iqlim sharoitida bajariladigan ishlar (kuchli shamol, past yoki yuqori harorat, namlik, yuqori darajada shovqin, titrash, har xil nurlar ta'sirida ishlash) kiradi.

Xavfli ishlarga, o't yoquvchilar, elektriklar va shu kabi boshqa ishlarni misol qilish mumkin. O'ta xavfli ishlarga esa, yong'inni o'chirish va uning oqibatlarini tugatish, tabiiy ofatlar davrida avariya-tiklash ishlarini olib borish kabilarni kiritish mumkin.

Jarohatlanish ko'rsatkichlari va sabablarini o'rganish uslublari

Ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisa tufayli ishchi o'z mehnat qobiliyatini bir kun va undan ortiq vaqtga yo'qotsa yoki asosiy kasbidan boshqa ishga o'tishiga sabab bo'lsa N-1 shaklli dalolatnoma tuziladi. N-1 shaklli dalolatnoma tekshirish materiallari bilan birgalikda baxtsiz hodisa ro'y bergan boshqarmada 45 yil saqlanishi kerak.

Og'ir ahvoldagi, ikki yoki undan ortiq kishilarning guruhli o'limi bilan tugagan baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi. Agar bunday baxtsiz hodisalar sodir bo'lsa, boshqarma rahbari darhol yuqori tashkilotlarga, mehnat muhofazasi bo'yicha texnik inspektorga, mahalliy prokuraturaga xabar berishi lozim.

Monografik usul. Ushbu usul har bir baxtsiz hodisani alohida chuqur tahlil qilish, uning aniq sabablarini o'rganishga asoslangan. Bunda ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan mashina,

mexanizmlar va boshqa texnik jihozlarning mexanik holati, ishlatiladigan materiallarning tarkibi, havo va suvning sanitar-gigiyenik holati kabi faktorlar tekshirilib o'rganiladi.

Statistik usulda esa jarohatlanishlarning sabablari keng masshtabda, ya'ni tuman, viloyat, vazirliklar, tarmoqlar va umuman respublika miqyosida o'rganiladi. U tashkilotlar va korxonalarining baxtsiz hodisalar bo'yicha hisobotlarini statistik qayta ishlash va tahlil qilishga asoslangan bo'lib, baxtsiz hodisalarni ishchilarni kasbi, yoshi, jinsi, ish staji kabi ko'rsatkichlar bo'yicha taqsimlanishini yoritadi.

Topografik usul baxtsiz hodisa ro'y bergan joyni o'rganish va tahlil qilishga asoslangan bo'lib, ushbu joyni ishlab chiqarish rejasiga yoki topografik kartaga tushirish orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy usulda esa mehnat muhofazasi uchun ajratiladigan mablag'lar va materiallarning baxtsiz hodisalarni kamaytirishga qanchalik ta'sir etishi va baxtsiz hodisalarning iqtisodiy oqibatlari o'rganiladi.

Mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini boshqarish

Mehnat xavfsizligi xizmatini bevosita tashkilotning bosh rahbari boshqaradi. Unga amalda bu xizmatni tashkil etish uchun uning yordamchisi va asosiy mutasaddi shaxs sifatida texnika xavfsizligi muhandisi tayinlanadi va unga hamkorlik uchun ko'p yillik ish tajribasiga ega bo'lgan muhandis hamda texnik xodimlar, mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'zlari saylagan vakillari jalb etiladi.

Mehnat xavfsizligi xizmatining asosiy vazifasi ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan jarohatlanish va boshqa baxtsizliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf qilish va tashkilot ma'muriyatining ishchi-xizmatchilarga ish sharoitini yaxshilab borishi ustidan nazorat qilib turish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish asosida mehnat xavfsizligi va himoya vositalarini muttasil takomillashtirish, mehnat madaniyatini oshirish, baxtsizliklarni oldini olishga qaratilgan tashkiliy va texnik hamda sanitariya tadbirlarini ishlab chiqish va ularni joriy qilishdan iboratdir.

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimining birdan bir maqsadi, mehnat muhofazasi qonun-qoidalariga ishchi va xizmatchilarning e'tiborini oshirish, sog'lom va xavfsiz ish sharoitini yaratishni yagona, to'g'ri yechimini aniqlash hamda uni ishlab chiqarishda tatbiq etishga tavsiya qilishdir.

Mehnat xavfsizligini boshqarish – bu bir qator, tashkiliy, texnikaviy va sanitar-gigiyenik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimini tayyorlash va joriy qilish asosida amalga oshiriladi.

Mehnat xavfsizligini ta'minlovchi tamoyillar, uslublar va vositalar

Xavfsizlikning umumiy nazariyasi tarkibida tamoyillar va uslublar evristik hamda uslubiy rol o'ynaydi. Fransuz filosofi Gelvetsiy (1715–1771-y.) xavfsizlik tamoyil- larining ahamiyati to'g'risida quyidagicha yozadi: «Ayrim tamoyillar to'g'risidagi bilimlar, osonlik bilan ba'zi omillarni bilmaslikning o'rnini to'ldiradi».

Xo'sh, tamoyillar, uslub va texnik vositalarning asosiy ta'nosi nima?

Tamoyillar – bu g'oya, fikr, umumiy tushunchalar va umumiy qoidalardir.

Uslub – bu umumiy .qoidalardan kelib chiqadigan va maqsadga olib boradigan yo'l, maqsadga erishishning usulidir.

Xavfsizlikni ta'minlovchi tamoyillar. Xavfsizlikni ta'minlovchi tamoyillar turli xil bo'lib, ularni orientirlovchi, texnik, tashkiliy, boshqarish kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Orientirlovchi tamoyillarga ishchining faolligi, faoliyatning insonparvarligi, operatorni almashinishi, tasniflanish, xavfni bartaraf etish, tizimlash, xavfni kamaytirish kabilar kiradi.

Texnik tamoyillarga blokirovkalash, vakuumlash, germetiklash, masofadan himoyalash, bosim ostida himoyalash, mustah-kamlik, bo'sh (zaif) zvenodan foydalanish, ekranlashtirish misol bo'ladi.

Tashkiliy tamoyillar vaqt bilan himoyalash, ma'lumot, zaxiradan foydalanish, muvofiqlashmaslik, me'yorlash, kadrlarni tanlash, ketma-ketlik o'rnatish, ergonomik kabi turlarga bo'linadi.

Boshqarish tamoyillari adekvatlik, nazorat, teskari bog'lanish, javobgarlik, rejalashtirish, rag'batlantirish, boshqarish, samaradorlik kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Quyida ayrim tamoyillarni ma'nosi bilan tanishib chiqamiz: Me'yorlash tamoyillari – insonni turli xil xavflardan himoyalash maqsadida, standart asosida xavfli va zararli faktorlarning ruxsat etilgan miqdorlarini o'rnatish demakdir. Masalan, REM (PDK), qo'lda ko'tarish yuk me'yori, ish vaqti me'yori va boshqalar.

Bo'sh (zaif) zveno tamoyillari. Texnik tizimning xavfsiz ishlashini ta'minlash maqsadida unga zaif element o'rnatiladi, ya'ni belgilangan ko'rsatkich me'yordan oshgach, birinchi navbatda zaif element ishdan chiqadi va texnik tizim buziladi, jarayon to'xtaydi va natijada xavf bartaraf etiladi. Bularga saqlash klapanlarini, elektr saqlagichlarini va muftalarni misol keltirish mumkin.

Ma'lumot berish tamoyillari. Ishchiga ish davrida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yo'1-yo'riqlar, ko'rsatmalar berishga asoslangan. Bunga kurs o'qishlari, yo'riqnomalar o'tish, xavfsizlik belgilari, ogohlantiruvchi yozuvlar va boshqalar kiradi.

Tasniqlash tamoyillarida obyektlarni xavflilik darajasiga bog'liq holda sinflarga yoki kategoriyalarga ajratish tushuniladi. Masalan, sanitar - himoya zonalarini (5 sinfga ajratilgan), portlash-yonish xavfliligi bo'yicha ishlab chiqarish binolarining kategoriyalari (A, B, V, G, D, Ye), yong'in zonalarini va boshqalar.

Xavfsizlikni ta'minlash uslublari. Xavfsizlikni ta'minlovchi uslublarni o'rganishdan oldin ishchi zona va xavf zonasi kabi iboralarga tushuncha beramiz. Mehnat jarayoni davrida ishchi turadigan yoki harakat qiladigan joy, ishchi zona – gomosfera deb yuritiladi.

Doimiy yoki davriy ravishda xavf sodir bo'ladigan zona–noksosfera deb yuritiladi.

Mehnat jarayoni davrida xavfsizlikni ta'minlash uslublarini quyidagi 3 turga ajratish mumkin:

1. Gomosfera va noksosferani fazoviy va (yoki) vaqt bo'yicha ajratishga asoslangan uslub. Bu asosan distansion boshqarish, av- tomatlashtirish, robotlashtirish va boshqa tashkiliy tadbirlar orqali, amalga oshiriladi.

2. Xavfni bartaraf etish orqali noksosferani me'yorlashtirish uslubi. Bunga insonni shovqin, gazlar, changlar ta'siridan himoya qilishga qaratilgan tadbirlar majmui va jamoa himoya vositalari kiradi.

3. Ma'lum muhitda insonni himoyalash darajasini oshirishga qaratilgan usullar va vositalar majmui. Bu uslub ishchilarni xavf- sizlik texnikasi bo'yicha o'qitish, ShHVdan foydalanish, psixologik ta'sir etish va boshqa shu kabi tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar – bu xavfsizlik tamoyillari va uslublarini amalga oshirishdagi konstruktiv, tashkiliy namda material mujassamlikdir. Tamoyillar, uslub va vosita – bu xavfsizlikni ta'minlovchi mantiqiy bosqichdir. Ularni tanlash faoliyatning aniq shart- sharoitlariga, xavf darajasiga, iqtisodiy ko'rsatkichlarga va shu kabi bir qancha mezonlarga bog'liq bo'ladi. Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar jamoa himoya vositalari (JHV) va shaxsiy himoya vositalariga (ShHV) bo'linadi. O'z o'rnida JHV va ShHVlar ham xavfning xususiyati, amalga oshirish tartibi, ishlatilish sohasi va shu kabi ko'rsatkichlarga bog'liq holda bir necha guruhlariga bo'linadi.

Korxonalarda texnika xavfsizligiga oid ishlarni tashkil qilish

Korxonalar ma'muriyati va muhandis-texnik xodimlarning asosiy vazifalari mehnat haqidagi qonunlar majmui hamda "Xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari" bilan belgilanadi. Ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarini kamaytirish hamda ularning oldini olishga oid mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni amalga oshirish, tadbirlariga umumiy rahbarlik hamda bu ishga javobgarlik korxonalar rahbari uning o'rinbosari-bosh muhandis zimmasiga yuklatiladi.

Korxonalar rahbari:

-ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarining oldini oluvchi tashkiliy texnik tadbirlarni rejalashtirishga;

-ana shu tadbirlar uchun o'z vaqtida mablag' ajratishga va ularni o'tkazishga doir ruyxatlarni tasdiqlashga hamda mehnat sharoitini mustahkamlash va sog'lomlashtirish uchun ajratilgan mablag'ning to'g'ri sarflanishini nazorat qilib borishga;

-mehnat muhofazasiga doir jamoa shartnomalari va bitimlarining bajarilishini ta'minlashga;

-mehnat va dam olish tartibi, ayollar hamda o'smirlar mehnatini muhofaza qilish haqidagi qonunlarga amal qilishga;

-kasaba uyushmasi texnik nazoratchilari va jamoatchi nazoratchilar hamda mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi komissiyasining mehnat muhofazasiga doir buyruqlarini bajarishga;

-ishlar va kasblarning ayrim turlari uchun xavfsizlik yo'llari bo'yicha yo'riqnomalarni tasdiqlashga;

-ishchi-xizmatchilarni o'z vaqtida amaldagi me'yorlarga muvofiq korjoma, maxsus poyafzal, yakka tartibdagi himoya vositalari va maxsus oziq-ovqatlar bilan ta'minlashga majbur.

Bosh muhandis:

-hamma tseklar va bo'linmalar boshliqlarining xavfsizlik yo'llari hamda ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qonun chiqaruvchi me'yorlar va qoidalarni bajarishlarini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

-amaldagi xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari hamda mavjud ishlab chiqarish sharoitiga muvofiq, kasblar va ishlar turlari bo'yicha xavfsiz ishlash yo'llari hamda usullariga doir yo'riqnomalarni ishlab chiqarishga qo'llanishiga rahbarlik qilish;

-xavfsiz ishlash usullari, yo'l-yo'riqlarini o'rganish yuzasidan o'quv ishlari olib borilishini nazorat qilish;

-ishchilarning dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tkazilishini nazorat qilish;

-xavfsiz ishlash usullarining ommaviy tadbiq qilinishi, xavfsizlik xonalarda ma'ruzalar, suhbatlar o'tkazilishi, xavfsizlik yo'llariga oid plakatlar va ogohlantiruvchi yozuvlar tayyorlanishini nazorat qilish;

-kasaba uyushmasi tashkiloti bilan birgalikda mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga oid ishlarning holatini tekshirish hamda mehnat muhofazasi yuzasidan qabul qilingan qarorlarning ishchilar tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

-zamonaviy tuzilishdagi to'siq texnikasi, syermehnat jarayonlarni avtomatlashtirish, shamollatish va sanitariya-maishiy uskunalarni joriy etish;

-mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish madaniyati va texnik estetika bo'yicha tajriba almashish ishiga rahbarlik qilish;

-ishchilarga o'z vaqtida sifatli korjoma, maxsus poyafzal va yakka tartibdagi himoya vositalari byerilishini nazorat qilish;

-xavfsizlik yo'llari, ishlab chiqarish sanitariyasiga doir amaldagi qoidalarga, kasaba uyushmasi texnik nazoratchisi va jamoatchi nazoratchilarning mehnat muhofazasiga doir buyruqlarga amal qilinishini nazorat etish;

-belgilangan muddatlarda ishlab chiqarishda ro'y byergan shikastlanish to'g'risidagi hisobotlarni, mehnat sharoitini sog'lamlashtirishga ajratilgan mablag'larning sarflanishini nazorat qiladi.

Bosh mexanik, enyergetik:

-binolar inshootlar, enyergotizmlar, turli uskunalarni profilaktik ko'zdan kechirish va reja asosida tuzatishlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda o'z vaqtida o'tkazilishiga, shuningdek, tuzatish ishlarining xavfsiz bajarilishiga;

-kranlar va boshqa turdagi yuk ko'tarish mexanizmlari hamda dastgohlari, mexanik uskunalaridan bosim ostida ishlaydigan bak, suv isitish qozonlari, apparatlar, idishlar hamda uskunalarni o'z vaqtida texnik tekshiruvdan o'tkazilishiga;

-nomenklaturadagi tadbirlarga doir bitimga muvofiq mehnat muhofazasiga oid tashkilish-texnik tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishiga javobgarlik;

-elektr jihozlari, kuch va Yoritish elektr tarmoqlari, elektr taqsimlash uskunalari, yashindan himoyalagichning soz holatda bo'lishini muntazam nazorat qilishga;

-shamollatish qurilmalari va isitish tizimlarining tegishli holatda bo'lishini nazorat qilishga mas'ul.

Sex boshliqlari, ustalar:

-ishchilarning mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoida hamda me'yorlarga amal qilishlarini ta'minlashga, xavfli va zararli mehnat sharoiti bilan bog'liq ishlarni bajarishda ehtiyotkorlik choralarining bajarilishini nazorat qilishga;

-mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir amaldagi qoidalar hamda me'yorlarga muvofiq, xavfsiz ishlash yo'llari va usullari yuzasidan yo'riqnomalar ishlab chiqarishda qatnashishga;

-barcha ishchilarga xavfsiz ishlash yo'llari va usullarini o'rgatishga, shuningdek, o'z tasarrufidagi bo'linma ishchilariga xavfsizlik bo'yicha yo'riqnomalar berishga majbur.

Mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir ishlarni tashkil qilishga javobgar bo'lgan mehnat muhofazasi muhandisi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

-boshlang'ich yo'l-yo'riqlarni berish;

-amaldagi qonunlarning, vazirliklar va idoralarning qarorlari hamda farmoyishlarining, shuningdek, xavfsizlik yo'llariga doir qoida va me'yorlarning tsexlar, bo'limlar rahbarlari tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

-yo'riqnomalar ishlab chiqishda qatnashish hamda ularning to'g'ri qo'llanilishini tekshirish;

-buyruq va farmoyishlar loyihalarini tayyorlash;

-mehnat sharoitini yaxshilashga doir tadbirlar ishlab chiqish, tashkiliy-texnik tadbirlar rejalari loyihalarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

-mehnat muhofazasi va xavfsizlik yo'llariga oid mukammal to'siqlar va saqlovchi uskunalarni ishlab chiqishda ilmiy-tekshirish institutlari va ilg'or korxonalarining shu sohadagi takliflarini ishlab chiqarishga joriy etishda qatnashish;

-korxonani qishki va yozgi sharoitda ishlashga tayyorlash tadbirlarini ishlab chiqishda qatnashish hamda ularning amalga oshirilishini nazorat qilish;

-jamoat shartnomasida ko'zda tutilgan mehnat sharoitlarini sog'lomlashtirish va yengillashtirish tadbirlarini bajarilishini tekshirish;

-binolar, uskunalar, apparatlar, uskunalarni qurish, qayta qurish, kapital tuzatish loyihalarini ko'rib chiquvchi va ularni foydalanishga qabul qilib oluvchi komissiyalarda qatnashish;

-ishchilarga yo'l-yo'riq berish hamda muhandis-texnik xodimlar va ishchilarning xavfsizlik yo'llari kursida o'qitilishini tashkil etish;

-dastlabki va davriy tibbiy tekshiruvlarning o'z vaqtida o'tkazilishini nazorat qilish;

-ish xonalaridagi ko'rinadigan joylarga mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir amaldagi hamma qarorlar, qoida va me'yorlardan bir nusxadan olib qo'yish;

-xavfsizlik yo'llari xonalarini jihozlash, xavfsizlik yo'llariga doir stendlar tashkil etish, plakatlar va ogohlantiruvchi yozuvlarni osib qo'yish;

-ishlab chiqarish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarning ro'y berish sabablarini tekshirishda qatnashish hamda ularni bartaraf etish, oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish;

-ishlab chiqarish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarni hisobga olib va qayd qilib borish, ishlab chiqarishda shikastlanishlarni tahlil qilish;

-xavfsizlik yo'llari ishlarini yaxshi yo'lga qo'ygan xodimlarni taqdirlash hamda xavfsizlik yo'llari talablari va qoidalarini buzganlarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish to'g'risida korxonalar rahbariyatiga takliflar berish.

Xavfsizlik yo'llari bo'yicha muhandis ushbu huquqlarga ega:

-xavfsizlik yo'llari talablari va qoidalarining buzilishlarini bartaraf etish haqida bo'linmalar, bo'limlar rahbarlariga ko'rsatmalar berish (bunday ko'rsatmalar faqat korxonalar rahbari yoki bosh muhandis (texnik rahbar) tomonidan bekor qilinishi mumkin);

-ishlovchilarning hayoti va sog'ligi uchun yaqqol xavf paydo bo'lganda bo'limlar, dastgohlar va uskunalarda ishlashni taqiqlab qo'yish yoki to'xtatish hamda bu hakda darhol korxonalar rahbariyatiga ma'lum qilish;

-xavfsizlikni ta'minlay olmaydigan, talabga javob bermaydigan uskunalar, asboblari, moslamalarni foydalanishdan chiqarib tashlash choralarini ko'rish;

-tsexlar, bo'linmalar rahbarlaridan ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ko'ngilsiz hodisalarni muntazam ravishda hisobga olib borishni va o'z vaqtida tekshirishni talab qilish;

-ishlab chiqarish bo'limining rahbari bilan birgalikda, talablar va qoidalarni buzganlarni vaqtincha ishdan chetlatish.

Xavfsizlik yo'llari bo'yicha muhandis bevosita korxonaning boshlig'i va bosh muhandisga bo'ysunadi. U o'z ishini mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi, mehnat muhofazasi bo'yicha komissiya, shuningdek, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sanoat texnik nazoratchilari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Mehnat xavfsizligini ta'minlovchi texnik vositalar

Ishlab chiqarish bunday muammolarni oldini olish, jarohatlanishga qarshi kurashni, baxtsiz hodisalarni oldini oluvchi zamonaviy vositalardan keng foydalanmasdan turib hal qilib bo'lmaydi.

Insonni xavfli ishlab chiqarish omillardan himoyalash usuli: aktiv va passiv bo'ladi.

Aktiv himoya xavfli omil hosil bo'lishini yo'qotishga yoki uning xavflilik darajasini kamaytirishga yo'naltiradi. Passiv himoya xavfli omillarning insonga ta'sirini oldini oluvchi kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bunga insonni xavfli zonadan chiqarish yoki insonni xavfli zonada bo'lmasligi uchun sharoit yaratish bilan erishiladi. Passiv himoyalash ishlab chiqarish jarayonini tashkillashtirish uskuna va jihozlarni konstruksiyalarini yaxshilash orqali ta'minlanadi. Agar qayd qilingan tadbirlar bilan ishlovchilarning xavfsizligi to'laligicha ta'min etilmasa, individual himoya vositalarini (kaskalar, ko'z oynaklar, respiratorlar va boshqalar) qo'llanilishini taqozo etadi.

Himoya vositalarini ish jarayoniga shunday jihozlash kerakki, aksincha holatda himoya vositalari bilan ish jarayonini bajarish mumkin bo'lmasin. Himoyalovchi qurilma xavf paydo bo'lishi bilan ishga tushishi va xavfli yoki zararli omilining ta'siri to'xtamaguncha o'zini ishchi holatini to'xtatmasligi kerak. Himoyalovchi qurilmalarning konstruksiyasi shunday bo'lishi kerakki, uning biror alohida elementining ishlamasligi, boshqa himoya vositalarining ishini to'xtatmasligi va qo'shimcha xavf tug'dirmasligi kerak.

Himoya vositalari unga texnik xizmat ko'rsatish va nazorat qilish uchun qulay bo'lishi kerak. Zarur hollarda himoya vositalari ishini nazorat qilish uchun ular avtomatik qurilmalar bilan ta'minlanishi mumkin. Zamonaviy mexanizmlardan qurilmalarda hamda texnologik liniyalarda ishlarni xavfsizligi to'siq, xavfdan saqlovchi qurilmalari va signal, masofadan boshqarish sistemasi, individual himoya vositalardan foydalanish va himoyalovchi vositalar sozligini muntazam nazorat qilishini ta'minlanadi.

To'siq qurilmalari. To'siq qurilmalari o'zining oddiyligi va ishonchliligi bilan mashina, mexanizmlarda, uskunalarda xavfli zonalarini izolyatsiya qilishda juda keng qo'llaniladi. To'siq qurilmalari inson bilan xavfli omillar orasida devor bo'lib, insonni qanday harakat qilishidan qat'iy nazar uni xavfdan ishonchli himoya qiladi. To'siqlar shu bilan birga insonga har xil metall uchqunlarini, qipiqlarini, detallar va jihozlar qismlarini otilidan himoya qiladi. Zarur hollarda to'siq qurilmalari ish joylarini changlanish va gazlanishini oldini oladi. To'siq qurilmalari konstruktiv formalarini va belgilanishini har xilligi bilan farqlanadi. Ular doimiy va vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Doimiy to'siqlar mashinalarni uzatish mexanizmlari va boshqalarini ajralmas qismi sifatida xizmat qiladi. Doimiy to'siq qurilmalar qo'zg'aluvchan yoki qo'zg'almas ko'rinishlarda tayyorlanadi. Qo'zg'almas to'siqlar mexanizmlar ishlaganda, ularning xavfli zonalarini ishonchli himoya qiladi va ular mexanizmlarga texnik xizmat yoki ta'mir ishlari o'tkazilayotganda mexanizmlar ishlayotganda, xavf bo'lmaganda olib qo'yilishi mumkin. Bunday to'siqlar konstruksiyaga ko'ra qo'zg'almas to'siqlarni o'rnatish mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

Ayrim mexanizmlarda, qurilmalarda jumladan mashinalarda uzatish tasmalari va zanjirlarida to'siq panjaralari sharikli mahkamlangan bo'ladi.

Vaqtinchalik to'siqlar ishlab chiqarishda asosan qo'zg'aluvchan ishlarda foydalaniladi. Vaqtinchalik to'siq qurilmalari sifatida olib yuriladigan panjaralar, yengil yog'och devorlar va boshqalardan foydalaniladi. Bunday tipdagi qurilmalarga misol sifatida elektr payvandi ish joyini to'siqlari, chuqurliklarni (quduq, transheya) to'siqlari va boshqalarni keltirish mumkin. To'siq qurilmalarini konstruksiyalari uskuna va texnologik jarayonlar xususiyatlaridan kelib chiqib tayyorlanadi. Ular qattiq karkasdagi quyma yoki payvandlangan, panjara, shitlar, to'rlar ko'rinishida tayyorlanishi mumkin. Mexanizmlarda kuzatishni talab etmaydigan xavfli zonalarda to'siqlar butun metallardan, plastmassadan, yog'ochlardan tayyorlanishi mumkin.

Agar to'siq orqasidagi uskunalarni yig'ma birliklari yoki detallarini tuzatish talab etilsa to'siqlar panjara, turlar yoki shaffof (organik shisha, tripleks va boshqalar) moddiyalar ko'rinishda tayyorlanadi.

Ma'lum diametrdagi D teshiklari bo'lgan to'siq quyidagi talabni qondirishi kerak.


$$x > 60 \text{ da } d \leq x / 10; \quad x \leq 60 \text{ da } d \leq 6.$$

bu yerda d-teshik diametri, mm; x-harakatlanayotgan yoki issiq detallardan to'siqkacha bo'lgan masofa, mm.

Panjarasimon yoki tursimon to'siqlarning teshiklari yoki ochiq joylarining o'lchamlari to'siq bilan xavf manbai orasidagi masofaga bog'liq bo'ladi.

Tik, butun to'siqlar uchun uni xavfli uskunadan qanday masofada joylashishi kerakligini bilish muhimdir. Bunday hollarda kerakli minimal masofa qo'yiladi (3.-rasm) va (1.-jadval) dan aniqlanadi.

Ishlov byerilayotgan detallardan otilayotgan zarra va qipiqnlarni kuchiga bardosh berish uchun to'siqlar etarli darajada mustahkam bo'lishi kerak.



3.-rasm. To'siq balandligini tanlash.

To'siqlarni mustahkamlik sharti quyidagicha bo'ladi.

$$mv^2 < [b]^2 \times LSg/9E$$

bu yerda m-otilayotgan zarralar massasi, kg; v-zarraning tezligi, m/s; (b)-to'siq moddiyini egilishiga ruxsat etilgan kuchlanishi, N/m²; L-to'siqni uzunligi, m; S-to'siq moddiyining ko'ndalang kesimi, m²; g-erkin tushish tezlanishi, m/s²; E-to'siq moddiyining qayishqoqlik modeli, n/m².

1.-jadval

Xavfli elementning joylashishiga bog'liq ravishda to'siqlarning balandligi, mm (davlat standarti bo'yicha)

Xavfli elementlarning joylashish balandligi, v	Himoya to'sig'ining balandligi, a							
	2400	2200	2000	1800	1600	1400	1200	1000 vakam
	Xavfli elementdan to'siqqacha bo'lgan masofa, b							
2600	100	100	100	100	100	100	100	100
2400	-	100	100	150	150	200	200	200
2200	-	250	350	400	500	500	600	600
2000	-	-	350	500	600	700	900	1100
1800	-	-	-	600	900	900	1000	1100
1600	-	-	-	500	900	900	1000	1300
1400	-	-	-	100	800	900	1000	1300
1200	-	-	-	-	500	900	1000	1400
1000	-	-	-	-	300	900	1000	1400
800	-	-	-	-	-	600	900	1300
600	-	-	-	-	-	-	500	1200
400	-	-	-	-	-	-	300	1200
200	-	-	-	-	-	-	200	1100

Tormozlash qurilmasi. Tormoz qurilmasi harakatlanayotgan mashinalarni, uskunalar qismlarini ko'tarilayotgan yoki tushirilayotgan yuklarni tezda to'xtatish uchun qo'llaniladi. Ayrim

mashinalarning ishchi organlari katta massa va chastotali aylanishga ega bo'ladi hamda ular o'z inertsiyasi bilan uzoq vaqt aylanishi mumkin. Bu esa o'z navbatida ularga xizmat ko'rsatayotgan ishchilarga xavf tug'diradi.

Bunday hollarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni jarohatlanishini xavflilik darajasi, tormoz qurilmasining ishlashi vaqtiga bog'liq bo'ladi.

Reaksiya vaqti operatorning individual xususiyatlariga, bilimiga, yoshiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Bu vaqt 0,4 sekunddan 1,5 sekundgacha bo'lishi mumkin.

Signalni uzatkichda ushlanish (kechikishi) vaqti, uzatkich konstruksiyasiga bog'liq bo'ladi va tadqiqot orqali aniqlanadi. Uni shartli ravishda qabul qilish mumkin; gidravlik uzatgichli tormozlar uchun 0,2 s, mexanik uchun 0,3 s, pnevmatik uzatgichli tormoz uchun 0,6-0,7 s. Mexanik tormozlarni tormozlash vaqti tormoz valining aylanish chastotasiga, o'lchamlariga, detallari massasiga va tormoz momenti qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida iloji boricha tormozlash vaqtini qisqartirish kerak. Ammo shuni esda saqlash zarurki, tormozlash vaqtining kamayishi bilan dinamik nagruzkalar tez o'sadi va bu o'z navbatida detallarni sinishiga olib kelishi mumkin.

Masofadan boshqarish. Texnologik jarayonlarni masofadan boshqarish mehnat xavfsizligi uchun katta ahamiyatga ega, chunki bunda ishchining bevosita xavfli zonada bo'lmasligi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonining yaqinida insonni bo'lishi qiyin yoki mumkin bo'lmaganda jarayonni masofadan boshqarish usuli qo'llaniladi. Bunda uskunalariga xizmat qiluvchi ishchining (operator) xavfli zonada yetarlicha masofaga uzoqda bo'lishi ta'minlanadi.

Masofadan boshqarish zamonaviy chorvachilik komplekslarida (ozuqa tayyorlash, gungni chiqarish va boshqalarda), oson alanganadigan yoki toksik moddalar bilan (bo'yoq ishlari, urug'larni zararlash va boshqa.), ishlaganda, bug'li quritgichlarda, mevalarni quritish uskunalarida idishlarni bug'lashda va boshqa joylarda qo'llaniladi.

O'zining ta'sir etish printsipi bo'yicha masofadan boshqarishning quyidagi sistemalari mavjud:

1. mexanik;
2. gidravlik;
3. pnevmatik;
4. elektron;
5. kombinatsiyalashgan.

Mexanik boshqarish uskunalar boshqarish pulstidan uncha uzoq bo'lmagan masofada joylashganda qo'llaniladi. Agar boshqarish yetarlicha uzoqlikdan amalga oshirilishi kerak bo'lsa boshqarishning boshqa sistemalaridan foydalaniladi.

Blokirovkalash qurilmalari. Mashina va mexanizmlarni o'ta xavfli zonalarida xavfsizlikni oshirish maqsadida to'siqlar bilan birgalikda blokirovkalash qurilmalaridan ham foydalaniladi. **Blokirovka** - bu mashinalar qismini muayyan holatda ushlab turuvchi vositalar va uslublar majmui hisoblanadi.

Ko'pgina mashina va mexanizmlarda xavfsizlikning texnik vositalari kompleks holda ishlatilsada, xavfsizlik to'liq ta'minlanmaydi. Chunki, ko'pgina baxtsiz hodisalar ishchining e'tiborsizligi yoki xavfsizlik qoidalariga amal qilmasligi sababli kelib chiqadi.

Masalan, har qanday mashina yoki traktorni o't oldirishda uzatmalar quttisi ajratilgan holda bo'lishi shart, aks holda turli ko'rinishdagi kungilsiz voqealar sodir bo'lishi mumkin.

Xuddi shuningdek, mashinalarning aylanuvchi yoxud boshqa xavfli zonadagi himoya kojuxlari ma'lum sabablarga ko'ra echilib so'ngra e'tiborsizlik tufayli o'z joyiga o'rnatilmay

qolishi ularni ishlash vaqtida ma'lum xavfli zonalarini keltirib chiqarish mumkin. Blokirovka qurilmalari ana shunday salbiy holatlarini oldini olish maqsadida ishlatiladi va har xil mashina va mexanizmlardan foydalanishda xavfsizlikni oshiradi. Masalan, mashina va mexanizmlar korpusining himoya kojuxi o'rnatiladigan joyiga maxsus kontaktlar o'rnatilib himoya kojuxi echib olinganda kontaktlar elektr ta'minotini uzadi, natijada mashina boshqarish pul'iti orqali qo'shilganda mashina yoki mexanizm ishga tushmaydi. Himoya kojuxi joyiga qayta o'rnatilganda kontakt qo'shiladi va elektr ta'minoti ulanadi. Ana shu kabi qurilmalarni mashina va traktorlarga o'rnatish mumkinki, natijada uzatmalar quttisi qo'shilgan vaqtda ularning dvigatellari o't olmaydi.

Saqlash qurilmalari. Mavjud talablar bo'yicha na biror mashina, stanok yoki uskuna, ular ishlatishga yaroqsiz hisoblanadi. Saqlash qurilmalarining asosiy vazifasi ish joylarida nazorat qilinishi talab etiladigan ko'rsatkichlar (kuch miqdori, bosim, harorat, siljish va boshqalar) ruxsat etilgan miqdoridan oshgan taqdirida, mashina yoki mexanizmni ishdan avtomatik ravishda to'xtatishdan iborat. Shu sababli saqlash qurilmalarining konstruksiyalari mashinalar va texnologik jarayonlarning xususiyatlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarishdagi xavfli omillarning hosil bo'lishi tabiatigi ko'ra saqlash qurilmalari 4 guruhga bo'linadi.

1. mexanik zo'riqishlardan saqlovchi;
2. mashinalar qismlarining belgilangan chegarada harakatlanishini ta'minlovchi;
3. bosim va haroratni ruxsat etilgan me'yordan oshishini ta'minlovchi;
4. elektr toki kuchini ruxsat etilgan me'yordan oshmasligini ta'minlovchi.


Birinchi guruhdagi saqlash qurilmalariga: muftalar, ko'tarishni cheklovchi moslamalar, uziluvchi shtiftlar va shpilkalar, aylanishlar sonini rostlagichlar kiradi; ikkinchi guruh saqlash qurilmalariga mashina mexanizmlarining harakatlanuvchi qismlarini belgilangan chegarada harakatlanishini ta'minlovchi moslamalar; ajratkichlar, tayanch to'xtatkichlar kiradi. Uchinchi guruh saqlash qurilmalariga bosim ostidagi bug', gaz yoki suyuqliklar bilan ishlovchi mexanizmlarida saqlash klapanlari va membranalar misol bo'la oladi. Barcha bug' qozonlari, gidravlik va pnevmatik sistemalar, bosim belgilangan normadan oshib ketganda avtomatik ravishda ishga tushuvchi klapanlar bilan jihozlanadi. Saqlash klapanlaridan foydalanish etarli bo'lmagan sharoitlarda membranalaridan foydalaniladi. Membranalar yupqa metall plastinkalardan tayyorlanadi va bosim belgilangan miqdordan oshib ketganda plastinka yorilib, ortiqcha bosim atmosferaga chiqarilib yulboriladi. Shu sababli membrana plastinkasining qalinligi sistemadagi bosimga mos holda tanlanadi.

Mashina va mexanizmlarining normal va rejimda elektr kuchlanishida bo'lishi talab etilmaydigan qismlarida elektr tokining yuzaga kelishi turli xil baxtsiz hodisalarni keltirib chiqaradi. Bunday xavfli vaziyatlardan hamda elektr toki kuchining belgilandan miqdordan oshib ketishini oldini olish uchun eruvchi saqlagichlar ishlatiladi. Bunday saqlagichlar elektr toki me'yoriy miqdoridan oshib ketganda erib uziladi va tok ta'minotini to'xtatadi. O'ta xavfli elektr qurilmalarida avtomatik ajratkichlardan foydalaniladi.

Xavfsizlik belgilari sistemasi

Signal o'zining funktsional vazifasi bo'yicha ogohlantiruvchi, avariya, nazorat qiluvchi, gaplashish signallarga bo'linadi.

Ta'sir etish usuli bo'yicha quyidagi signallardan foydalaniladi; yoritish, tovush, rangli va belgi. Davlat standarti quyidagi rang signallari va ularning vazifalarini belgilaydi: qizil-ta'qiqlovchi, "Stop"- muqarrar xavf; sariq-diqqat, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf haqida ogohlantirish; yashil-"xavfsizlik", "ruxsat", "yo'l bo'sh"; ko'k-"ma'lumot".



4.-rasm. Xavfsizlik belgilari: a-taqiqlovchi, b-ogohlantiruvchi, v-tushuntiruvchi, g-ko'rsatuvchi.

Yuqori shovqin ostida ishlaydigan uskunalarda yoritish signallari va past shovqinda ishlaydigan uskunalarda (60...70 dB gacha) tovushli signallar qo'llanilishkerak.

Belgili signallar yo'l belgilari ko'rinishida anchadan buyon qo'llaniladi. 1970 yildan boshlab esa belgili signallar mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun ham tobora keng qo'llanilmoqda.

Davlat standart bo'yicha xavfsizlik belgilari 4 taguruhga bo'lingan (-rasm).

Har bir guruh uchun belgilar formasi, rangi va o'lchamlari mavjud. Har bir belgini o'rnatish joyi belgilangan.

Qayd qilingan standart bilan belgilarni 12 ta variantdagi o'lchamlari belgilangan. Bulardan oltitasi odatdagi (oddiy) va oltitasi kichiklashtirilgan (uskunalarga chizilgan) belgilardir.

Buyruq beruvchi belgining kvadrati tomonlari 28 sm dan 90 sm gacha, ogohlantiruvchi belgining uchburchak tomonlari 28x36 dan 90x112sm gacha bo'ladi, kichraytirilgan (ishlab chiqarish uskunalarga chizilgan) belgilarda aylana diametri 2...12 sm, uchburchak tomonlari 2,5...16 sm bo'ladi.

Nazarot savollari

1. Ishlab chiqarish sanitariyasi nima?
2. Insonga zararli omillar qanday yo'l bilan ta'sir qiladi?
3. Noqulay mikroiklim nima?
4. Mikroiklim deganda nimani tushunasiz?
5. Shovqin nima, uning qanday zararli ta'siridan qanday himoyalaniish mumkin?
6. Ishlab chiqarishda titrash, uning organizmga ta'siri va uning zararli ta'siridan himoyalaniish haqida tushunchangiz?
7. Ultra va infratovushlar nima?
8. Ishlab chiqarishdagi zararli moddalar va ularning organizmga ta'sirini ayting?
9. Ishlab chiqarish changlari va ularni organizmga zararli ta'sirini ayting?
10. Changlarni zararli ta'sirini kamaytirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak?

Ma'ruza; ELEKTR XAVFSIZLIGI

Reja;

1. Umumiy ma'lumot.
2. Elektr tokidan jarohatlanishning xavfiligi.
3. Tok kuchining inson organizmiga ta'siri.

Umumiy ma'lumot

Ma'lumki, ijtimoiy va sanoat ob'ektlari elektr tokining asosiy iste'molchilari xisoblanadi. Shuning uchun elektr xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri ekanligini nazarda tutish lozim.

Elektr xavfsizligi - odamlarni elektr toki, elektr yoyi, elektromagnit maydon yoki statik elektrning insonga xavfli va zararli ta'siridan aniq ehtimollik bilan himoya qilishni ta'minlovchi tashkiliy va texnik tadbirlar tizimi.

Elektr toki inson organizmiga termik (ya'ni issiqlik), elektrolitik va biologik ta'sir ko'rsatadi.

Elektr tokining termik ta'siri inson tanasining ba'zi joylarida kuyish, qon tomirlari, nerv va xujayralarning qizishi sifatida kuzatiladi.

Elektrolitik ta'sir esa, qon tarkibidagi yoki xujayralar tarkibidagi tuzlarning parchalanishi natijasida qonning fizik va kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi. Bunda elektr toki markaziy asab tizimi va yurak-qon tizimini kesib o'tmasdan tananing ba'zi bir qismlarigagina ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Elektr tokining biologik ta'siri natijasida muskullarning keskin qisqarishi tufayli inson organizmidagi tirik xujayralar to'liqinlanadi, bunda asosan organizmdagi bioelektrik jarayon buziladi. Ma'lumki, inson organizmi asosan bioelektrik toklar yordamida boshqariladi. Tashqi muhitdan yuqori kuchlanishdagi elektr tokining ta'siri natijasida biotoklar rejimi buziladi va oqibatda inson organizmida tok urish holati vujudga keladi. Boshqarilmay qolgan organizmda hayot faoliyatining ba'zi bir funksiyalari buziladi: nafas olishning yomonlashuvi, qon aylanish tizimining ishlamay qolishi va boshqalar.

Elektr tokining inson organizmiga ta'sirini ikki guruhga bo'lib qarash mumkin: mahalliy elektr ta'siri va tok urish.

Mahalliy elektr ta'siri - kuyib qolish, elektr belgilari hosil bo'lishi, terining metallashib qolishi hollaridir.

Elektr ta'sirida kuyish asosan organizm bilan elektr o'tkazgichi o'rtasida volta yoyi hosil bo'lganda sodir bo'ladi. Elektr o'tkazgichdagi kuchlanishning ta'siriga qarab bunday kuyish turlicha bo'lishi mumkin. Yengil kuyish faqat yallig'lanish bilan chegaralanadi, o'rtacha og'irlikdagi kuyishda pufakchalar hosil bo'ladi va og'ir kuyishda xujayra va terilar ko'mirga aylanib, og'ir asoratlarga olib kelishi mumkin.

Elektr belgilari terining ustki qismida aniq kulrang yoki och sarg'ish rangli 1-5 mm diametrdagi belgi paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Bunday belgilar xavfli emas.

Terining metallashib qolishida, odatda erib mayda zarrachalarga parchalanib ketgan metal teri ichiga kirib qoladi. Bu holat ham elektr yoyi hosil bo'lganda ro'y beradi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin bu teri ko'chib tushib ketadi va hech qanday asorat qoldirmaydi.

Elektr urishi (tok urishi) to'rt darajaga bo'linadi:

1-daraja: muskullar keskin qisqarishi natijasida odam tok ta'siridan chiqib ketadi va hushini yo'qotmaydi.

2-daraja: muskullar keskin qisqarishi natijasida odam hushini yo'qotadi, ammo yurak va nafas olish faoliyati ishlab turadi.

3-daraja: hushini yo'qotib nafas olish tizimi yoki yurak urishi to'xtab qoladi.

4-daraja: klinik o'lim holati, bunda insonda hech qanday hayot alomatlari ko'rinmay qoladi.

Klinik o'lim holati bu hayot bilan o'lim oralig'i bo'lib, ma'lum vaqtgacha inson ichki imkoniyatlar xisobiga yashab turadi. Bu vaqtda unda hayot belgilari ya'ni, nafas olish, qon aylanish bo'lmaydi, tashqi ta'sirlarga farqsiz bo'ladi, og'riq sezmaydi, ko'z qorachig'i kengayadi va yorug'likni sezmaydi. Ammo bu davrda hali undagi hayot butunlay so'nmagan, xujayralarda ma'lum

modda almashinuv jarayonlari davom etadi va bu organizmning minimal hayot faoliyatini davom ettirishiga yetarli bo'ladi. Shuning uchun tashqi ta'sir natijasida hayot faoliyatini yo'qotgan organizmning ba'zi bir qismlarini tiklash natijasida uni hayotga qaytarish imkoniyati bo'ladi. Klinik o'lim holati 5-8 minut davom etadi. Hech qanday yordam bo'lmagan taqdirda eng oldin bosh miya qobig'idagi xujayralar parchalanadi va klinik o'lim holati biologik o'lim holatiga o'tadi.

Biologik o'lim - qaytarib bo'lmaydigan jarayon bo'lib, organizmdagi biologik jarayonlar butunlay to'xtashi bilan xarakterlanadi, shuningdek, organizmdagi oqsil parchalanadi. Bu klinik o'lim vaqti tugagandan keyin ro'y beradi.

Elektr tokining inson organizmiga ta'siri bir necha omillarga bog'liq. Asosiy omillardan biri insonga tok ta'sirining davomlilik, ya'ni odam tok ta'sirida qancha ko'p qolib ketsa, u shuncha ko'p zararlanadi. Ikkinchi omil sifatida odam organizmining shaxsiy xususiyatlari, tokning turi va chastotasi katta rol o'ynaydi.

Inson organizmining tok ta'siriga qarshiligi va tokning kuchlanishi uning ta'sir darajasini belgilaydi. Inson organizmining qarshiligi o'zgarmagan holda, kuchlanish ko'payishi natijasida organizmdan oqib o'tgan tok miqdori oshib ketadi. Inson organizmining qarshiligi teri qarshiligi va ichki organlar qarshiliklari yig'indisi sifatida olinadi.

Teri asosan, quruq va o'lik xujayralarning qattiq qatlamlaridan tashkil topganligiga sababli katta qarshilikka ega va u inson organizmining qarshiligini ifodalaydi.

Organizm ichki organlarining qarshiligi uncha katta emas.

Odamning quruq, zararlanmagan terisi 2000 dan 20000 Om gacha va undan yuqori qarshilikka ega bo'lgani holda, namlangan, zararlangan teri qarshiligi 40-5000 Om qarshilikka ega bo'ladi va bu qarshilik inson ichki a'zolari qarshiligiga teng hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda texnik hisoblar uchun inson organizmi qarshiligi 1000 Om deb qabul qilingan.

Inson organizmi orqali oqib o'tgan tokning miqdori uning asoratini belgilaydi, ya'ni oqib o'tgan tok qancha katta bo'lsa, uning asorati ham shuncha katta bo'ladi.

Inson organizmi orqali 50 Gs li sanoat elektr tokining 0,6-1,5 mA oqib o'tsa, buni u sezadi va bu miqdordagi tok sezish chegarasidagi elektr toki deb ataladi.

Inson organizmidan oqib o'tgan tokning miqdori 10-15 mA ga yetsa, unda organizmdagi muskullar tartibsiz qisqarib, inson o'z organizmi qismlarini boshqarish qobiliyatini yo'qotadi. Agar u elektr toki bo'lgan simni ushlab turgan bo'lsa, panjalarini ocha olmaydi, shuningdek unga ta'sir ko'rsatayotgan elektr simini olib tashlay olmaydi. Bunday tok chegara miqdordagi ushlab qoluvchi tok deyiladi.

Tok miqdori 25-50 mA ga yetsa, unda tok ta'siri ko'krak qafasiga ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida nafas olish qiyinlashadi. Tok ta'siri uzoq vaqt davom etsa, ya'ni bir necha minutga cho'zilsa, unda nafas olishning to'xtab qolishi natijasida odam o'lishi mumkin.

Tok miqdori 100 mA va undan ortiq bo'lsa, bunday tok yurak muskullariga ta'sir ko'rsatib, uning ishlash ritmini buzadi, natijada qon aylanish tizimi butunlay ishdan chiqadi va o'limga olib keladi.

Tokning turi va chastotasi ham zararli ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Eng zararli tok 20-100 Gs atrofidagi elektr toki hisoblanadi. Chastotasi 20 Gs dan kichik va 100 Gs dan katta toklarning ta'sir darajasi kamayadi. Katta chastotadagi elektr toklarida tok urish bo'lmaydi, lekin kuydirishi mumkin.

Agar tok o'zgaras bo'lsa, unda tokning sezish chegarasidagi miqdori 6-7 mA, ushlab qoluvchi chegara miqdori 50-70 mA, 0,5 s davomida yurak faoliyatini ishdan chiqarishi mumkin bo'lgan miqdori 300 mA gacha ortadi.

Elektr tokidan jarohatlanishning asosiy sabablari va ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar

Elektr toki ta'siridan jarohatlanishning asosiy sabablari:

- kuchlanish ostida bo'lgan elektr tarmoqlari yoki elektr o'tkazgichlarga tegib ketish yoki xavf tug'diruvchi masofaga yaqinlashish;

- elektr qurilmalari asbob-uskunalarining ustki metall korpuslari va qopqoqlarida elektr o'tkazgichlarning muhofaza qobiqlarini shikastlanishi natijasida elektr kuchlanishi hosil bo'lishi;

- elektr tokini o'chirib remont ishlarini bajarayotgan vaqtda, tasodifan elektr tokini ulab yuborish;

- yer yuzasiga uzilib tushgan elektr o'tkazgichi yer yuzasi bo'ylab elektr tokini tarqatayotgan zonaga bilmay kirib qolish natijasida kuchlanishlar ta'siriga tushib qolish.

Elektr tokidan jarohatlanishni oldini olishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar:

1. Kuchlanish ostida bo'lgan o'tkazgichlarni qo'l yetmaydigan qilib bajarish;

2. Elektr tarmoqlari o'tkazgichlarini ayrim joylashtirish;

3. Elektr qurilmalari korpusida elektr tokining hosil bo'lishiga qarshi chora-tadbirlarni belgilash:

a) kam kuchlanishga ega bo'lgan elektr manbalaridan foydalanish;

b) ikki qavatli muhofaza qobiqlari bilan ta'minlash;

v) potentsiallarini tenglashtirish;

g) yerga ulab muhofazalash;

d) nol simiga ulab muhofazalash;

ye) muhofaza o'chirish qurilmalaridan foydalanish;

4. Maxsus elektr muhofazalash sistemalaridan foydalanish;

5. Elektr qurilmalarini xavfsiz ishlatishni tashkiliy chora- tadbirlarini qo'llash.

Kuchlanish ostida bo'lgan elektr o'tkazgichlarini qo'l yetmaydigan qilib bajarishda tok o'tkazgichlarini muhofaza qobiqlari bilan ta'minlash, ularni bo'y yetmaydigan balandliklarga o'rnatish, shuningdek, o'tkazgichlarni to'siq vositalari bilan ta'minlash kiradi.

Elektr tarmoqlarini ayrim joylashtirishda - elektr tarmoqlarini o'zaro transformator yordamida tarmoqlarga bo'lib yuborish tushuniladi. Buning natijasida ajratilgan tarmoqlar katta muhofaza izolyatsiyasi qarshiligiga ega bo'ladi, shuning bilan o'tkazgichlarining yerga nisbatan sig'imi kichkina bo'lganligidan xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Yerga ulab muhofaza qilish qurilmasi va uning turlari

Har qanday elektr qurilmasini, agar uning metall korpuslarida elektr kuchlanishi hosil bo'lishi xavfi bo'lsa, qaysi joyda va qanday binoda ishlatilishidan qat'iy nazar, uning korpusini yerga ulab qo'yiladi va bu elektr qurilmalarini yerga ulab muhofaza qilish deb ataladi.

Yerga ulab muhofaza qilishning asosiy mohiyati ishlatilayotgan elektr asboblarining metall korpuslarida elektr kuchlanishi paydo bo'lsa uni yerga o'tkazib yuborishdan iborat.

Elektr qurilmalarni yerga ulab muhofaza qilishning asosiy hususiyati, qurilma korpusiga o'tib ketgan kuchlanishni xavfsiz kuchlanish darajasiga tushirish, shuningdek, yerga ulangan joy atrofida potentsiallar ayirmasi hosil bo'lmasligini ta'minlashdan iborat.

Yerga ulab muhofaza qilish qurilmasi deganda, yerga qoqilgan va elektr tokini yerga o'tkazib yuborish uchun mo'ljallangan metall qoziq va bu qoziqni elektr qurilmasi bilan biriktiruvchi metall

o'tkazgich tushuniladi. Yerga ulab muhofaza qilish qurilmalari asosan ikki xil bo'ladi: bir joyga yig'ilgan va kontur bo'yicha joylashtirilgan.

Nolga ulab muhofaza qilish

Elektr qurilmalarining tok o'tmaydigan metall qismlarini oldindan nol sim bilan ulab qo'yish nolga ulab muhofaza qilish deb yuritiladi.

Muhofazalovchi nol simi elektr manbai g'altagining neytral qismlarini mustahkam yerga ulash bilan boshlanib uch faza bilan birlikda to'rtinchi nol sim tariqasida butun tarmoq bo'ylab tortib boriladi va iloji boricha ko'proq (ma'lum masofalarda) yerga ulab boriladi.

Nolga ulab muhofaza qilishning vazifasi yerga ulab muhofaza qilishniki bilan bir xil, ya'ni elektr asbobi korpusiga o'tib ketgan kuchlanishni zararsizlantirishdan iborat. Nolga ulab muhofaza qilishning ishlash prinsipini korpusga o'tib ketgan elektr tokini nol simi bilan ulash hisobiga qisqa tutashuv hosil qilish bilan, elektr qurilmasiga kelayotgan tok kuchining ortib ketishiga erishiladi. Buning natijasida elektr qurilmasini muhofaza qilish uchun o'rnatilgan saqllovchi-eruvchi qurilmani yoki saqllovchi avtomatni o'chirish bilan elektr qurilmasiga kelayotgan elektr tokini uzib qo'yiladi. Bunday vazifani bajaruvchi, saqllovchi-eruvchi qurilmalar yoki avtomatlar oldindan elektr qurilmasidagi elektr tokining ma'lum miqdorda oshishiga mo'ljallab o'rnatib qo'yiladi.

Saqllovchi qurilmalar yordamida korpusiga tok o'tkazib yuborayotgan (buzilgan) elektr qurilmasini saqllovchi-eruvchi qurilmalar o'rnatilganda o'chirish 5-7 s, avtomatlar yordamida esa 1-2 s davomida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari nolga ulangan qismlar yerga qo'yilgan bo'lganligi sababli saqllovchi-eruvchi qurilmalar elektr qurilmasini o'chirguniga qadar ularni yerga ulab muhofaza qilish sistemasi sifatida kishilarni elektr toki xavfidan saqlab turadi.

Boshqacha aytganda, nolga ulangan elektr sistemasida yerga ulanganligi sababli kuchlanish xavfsiz darajaga tushib qolgan bo'ladi.

Muhofazalovchi o'chirish qurilmasi

Agar elektr qurilmasi korpusida inson hayoti uchun xavfli kuchlanish hosil bo'lib qolsa, uni tezda o'chirish imkoniyatini beradigan qurilmalarga muhofazalovchi o'chirish qurilmalari deyiladi.

Bunday tokning hosil bo'lishiga masalan, elektr toki fazasi korpusga urib ketishi, tarmoqda hisobga olingan kuchlanishga nisbatan kuchliroq kuchlanish paydo bo'lishi va boshqalar sabab bo'ladi. Bunda elektr tarmoqda elektr parametrlarining o'zgarishi ro'y beradi. Masalan, elektr qurilmasi tok o'tkazmaydigan qismlarida kuchlanish paydo bo'ladi, fazadagi kuchlanish yerga nisbatan o'zgaradi va boshqalar.

Muhofazalovchi o'chirish qurilmasi, xavf hosil qilgan elektr asbobni 0,2 s dan oshmagan vaqt davomida o'chirish imkoniyatini berishi kerak.

Muhofazalovchi o'chirish asbobi bir qancha qismlardan tashkil topgan bo'lib, asosan elektr sistemasida biror bir parametrning o'zgarishini sezib, elektr sistemasiga berilayotgan tokni avtomatik uzuvchi qurilmaga signal beradi. Bu elementlarning asosiysi qabul qiluvchi qurilma bo'lib (asosan qabul qiluvchi qurilma sifatida rele qo'llaniladi), u elektr sistemasidagi parametr o'zgarishlarini qabul qiladi, agar kelayotgan signal kuchsiz bo'lgan holda uni kuchaytiruvchi qurilma o'rnatiladi, shuningdek, bu sistemaning to'g'ri ishlayotganligini tekshirib turuvchi nazorat asboblari hamda signal lampalari o'rnatilishi mumkin.

Avtomatik tokni uzish qismining vazifasi olingan signalga asoslanib elektr qurilmasini ta'minlayotgan elektr tarmog'ining butunlay uzib qo'yishdan iborat.

Elektr sistemalarining saqllovchi qurilmalari sistemada elektr quvvati nominal miqdordan ortib ketgan taqdirda avtomatik ravishda tokni uzib qo'yadi. Muhofaza qurilmasi elektr sistemasidagi tok quvvati nominal miqdordan 25% ortib ketsa, muhofaza qurilmasiga o'rnatilgan

eruvchan qism erib ketadi va tok kelishi to'xtaydi. Bu eruvchan qismni elektr sistemasiga berilayotgan tok kuchining maksimal zarur miqdoriga moslab tanlanadi. Uning erib ketish vaqti undan o'tayotgan tok kuchiga bog'liq.

Agar tok kuchi birdaniga 2,5 marta ortib ketsa, eruvchi qism 0,2 s davomida erib ketadi.

Saqlovchi qurilmalarning probkasimon, plastinkali va trubkasimon turlari bo'ladi, ularning hammasida ham eruvchi qismni o'zgartirish imkoniyati bor.

Elektr yordamida qo'lda ishlatiladigan - drel, gayka buragich, silliqlovchi, parдоз berish mashinalari va boshqalarga elektr tokiga oson ulanib, oson o'chirilishi, ishlatish davrida tok o'tkazuvchi qismlariga odamning tegib ketish va tok ta'siriga tushib qolish xavfi bo'lmasligi talablari qo'yiladi.

Bunday asboblardan bilan ishlaganda elektr toki ta'siriga tushib qolish, uning metall korpuslari orqali, yaxshi yerga ulangan metall qismlarda turib ishlov berayotgan vaqtda, zax xonalarda ish bajarishda, shuningdek, ochiq havoda ish olib borilganda bo'lishi mumkin. Xavfli sharoitlarda ishlaganda ushbu elektr asboblarni elektr xavfi darajasini kamaytirish uchun ishlatish kuchlanishi 36 V dan oshmagan, 1 kvtgacha quvvatga ega bo'lgan, chastotasi 200 Gs li elektr quvvatidan foydalanish tavsiya etiladi.

Qo'lda ishlatiladigan asboblarni 110 va 220 V kuchlanishlarda ishlatishga faqat xavfsiz xonalarda ish olib borishda ruxsat etiladi.

Qo'lda ishlatiladigan elektr asboblarning tuzilishida xavfsizlikni ta'minlash elementlari bo'lishi, shuningdek, 36 V kuchlanishdan ortiq, kuchlanishda ishlaydigan asboblardan uchun, diametri 4 mm dan kam bo'lmagan o'tkazgichdan tayyorlangan, nol simiga yoki yerga ulangan simga ulash uchun qisqichga ega bo'lishi shart.

Elektr asbobini tokka ulash ko'p simli kabellardan tashkil topgan bo'lishi, oddiy sim bo'lgan taqdirda rezina shlang kiygizilib muhofazalangan bo'lishi lozim.

Ko'pincha bunday kabellar tarkibida nolga, yerga ulash uchun mo'ljallangan simlar ham bo'ladi. Rozetkalarda esa yerga ulangan yoki nol simi nuqtalari bo'ladi.

Elektr qurilmalarida qo'llaniladigan muhofaza vositalari

Elektr qurilmalarida ishlayotganlar uchun muhofaza vositalarining eng mukammal qilib bajarilganlari ham ba'zi bir hollarda elektr xavfsizligini to'la ta'minlay olmaydi. Masalan, elektr toki o'tkazgichlari yaqinida ishlayotgan kishilar, agar bu elektr o'tkazgichni mustahkam tok o'tkazmaydigan muhofaza qobiqlari bilan jihozlamasa, elektr xavfi bo'lishi aniq. Shuningdek, ba'zi bir ishlarni elektr tokini o'chirmagan holda bajarishga to'g'ri keladi, bunda elektr asboblarning tutqichlarini muhofazalash talab qilinadi. Ba'zi bir hollarda esa elektr tarmoqdarida elektr kuchlanishni uzib, remont ishlarini bajariladi. Bunday hollarda bilmasdan tokni ulab yuborish xavfli vaziyatlarga olib keladi.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlarning har biri o'ziga yarasha muhofaza vositalari va asboblardan foydalanishni taqazo etadi.

Muhofaza vositalari shartli ravishda uch turga bo'linadi: muhofaza qobiqli, to'siq va saqlovchi vositalar.

1. Muhofaza qobiqli elektrdan saqlovchi vositalar ikki turga bo'linadi:

a) asosiy muhofaza qobiqli vositalar - uzoq vaqt elektr kuchlanishlari ta'sirida ishlashi mumkin bo'lgan va elektr kuchlanishidan muhofaza qilish qobiliyatiga ega bo'lgan vositalar. Ular bilan elektr kuchlanishga ega bo'lgan o'tkazgichlarda elektrni uzmasdan ishlashga ruxsat etiladi. Bunday vositalarga rezinadan qilingan qo'lqoplar, dastasi muhofaza qobiqlari bilan jihozlangan elektr asboblari, muhofazalangan shtangalar, elektr o'lchash asboblari, shuningdek, muhofazalangan kuchlanishni o'lchash asboblari kiritiladi.

b) yordamchi elektr tokidan muhofaza qiluvchi vositalar - elektr tokidan to'liq himoya qila olmaydigan, lekin elektr ta'sirini qisman kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan vositalar. Ular asosiy vositalarga qo'shimcha ravishda ularning muhofaza qobiliyatini oshirish uchun xizmat qiladi. Yordamchi muhofaza vositalariga dielektrik kalishlar, gilamchalar oyoq ostiga qo'yiladigan quruq taxtadan qilingan tagliklar va boshqalar kiradi.

2. To'siq muhofaza vositalari elektr toki ta'siridan vaqtincha to'sish yo'li bilan muhofaza qiladi. Masalan, panjara sifatidagi to'siqlar, tok taqsimlagich shkafllari va boshqalar. Ba'zi hollarda esa ogohlantiruvchi plakatlar osib qo'yiladi.

Bundan tashqari elektr ta'minoti vositalari baland simyog'ochlarda va chuqur yer osti kabellari orqali amalga oshiriladi. Bular ham o'z navbatida to'siq vositalar vazifasini bajaradi.

3. Saqlovchi muhofaza vositalari ishchilarni nur, issiqlik va mexanik jarohlardan saqlash vazifasini bajaradi.

Elektr toki ta'siriga tushgan kishiga birinchi yordam kursatish

Elektr toki ta'siriga tushgan kishiga tibbiyot xodimi kelgunga qadar ko'rsatiladigan yordamni ikki qismga bo'lib qaraladi:

- 1) tok ta'siridan qutqarish;
- 2) birinchi yordam ko'rsatish.

Tok ta'siridan qutqarish o'z navbatida bir necha xil bo'lishi mumkin. Eng oson va qulay usuli bu elektr qurilmasiga kelayotgan tokni o'chirishdir.

Agar buning iloji bo'lmasa (masalan, o'chirish qurilmasi uzoqda bo'lsa), unda tok kuchlanishi 1000 V dan ko'p bo'lmagan elektr qurilmalarida elektr simlarini sopi yog'ochli bo'lgan boltalar bilan kesish yoki zararlangan kishining kiyimi quruq bo'lsa, uning kiyimidan tortib tok ta'siridan qutqarib olish mumkin. Agar elektr tokining kuchlanishi 1000 V dan ortiq bo'lsa, u holda dielektrik qo'lkop va elektr izolyatsiyasi mustahkam bo'lgan elektr asboblardan foydalanish kerak.

Agar jarohatlangan kishi balandlikda bo'lsa kuchlanishni o'chirishdan oldin uning xavfsizligini taminlash, yiqilib tushishini oldini olish kerak. Badanning tok tegib yaralangan joyiga quruq sterilangan bog'lam qo'yish lozim.

Elektr tokidan shikastlanishning barcha holatlarda jarohatlangan kishini holati qanday bo'lishidan qat'iy nazar vrachga murojaat qilish lozim.

Elektr ta'siriga tushgan kishiga birinchi yordam ko'rsatish uning holatiga qarab belgilanadi. Agar ta'sirlangan kishi xushini yo'qotmagan bo'lsa, uning tinchligini ta'minlab, vrach kelishini kutish yoki tezda davolash muassasasiga olib borish zarur.

Agar tok ta'sirida xushini yuqotgan, ammo nafas olishi va yurak tizimi ishlayotgan bo'lsa, uni quruq va qulay joyga yotqizish, kamari va yoqasini bo'shatish va sof havo kelishini ta'minlash zarur. Nashatir spirti xidlatish, yuziga suv purkash, tanasini va qo'llarini ishqalash yaxshi natija beradi.

Agar jarohatlangan kishining nafas olishi qiyinlashsa, qaltirash holati bo'lsa, ammo yurak urish ritmi nisbatan yaxshi bo'lsa, unda bu kishiga sun'iy nafas oldirish zarur.

Klinik o'lim xolati yuz bergan taqdirda sun'iy nafas oldirish bilan bir qatorda yurakni ustki tomondan massaj qilish kerak.

Sun'iy nafas oldirish jarohatlangan kishini tok ta'siridan qutqarib olish, uning holatini aniklash bilanoq boshlanishi kerak. Sun'iy nafas oldirish "og'izdan-og'izga" deb ataluvchi usul bilan, ya'ni yordam ko'rsatuvchi kishi o'z o'pkasini havoga to'ldirib, jarohatlangan kishi og'zi orqali uning o'pkasiga bu havoni haydaydi. Odam o'pkasidan chiqqan havo, ikkinchi odam o'pkasi ishlashi uchun yetarli miqdorda kislorodga ega bo'lishi aniqlangan. Bu usulda jarohatlangan kishi chalqancha yotqiziladi, og'zi ochib tozalanadi, havo o'tish yulini ochish uchun boshini bir qo'l

bilan ko'tariladi, ikkinchi qo'l bilan dahanidan tortib, dahanini buyni bilan taxminan bir chiziqqa keltiriladi. Shundan keyin ko'krak qafasini to'ldirib nafas olib, kuch bilan bu havoni jarohatlangan kishi og'zi orqali puflanadi. Bunda yordam ko'rsatayotgan kishi og'zi bilan, jarohatlangan kishining og'zini butunlay berkitishi va barmoqlari yordamida uning burnini berkitish kerak.

Shundan keyin yordam ko'rsatuvchi boshini ko'tarib, yana o'pkasini havoga to'ldiradi. Bu vaqtda jarohatlangan kishi passiv ravishda nafas chiqazadi.

Bir minutda taxminan 10-12 marta puflashni doka, dastrumol yoki boshqa sun'iy nafas berish moslamalari orqali ham bajarish mumkin. Agar jarohatlangan kishi mustaqil nafas olishini tiklagan taqdirda ham, sun'iy nafas oldirishni bemor o'ziga kelguncha davom ettiriladi.

Yurakni tashqaridan massaj qilish jarohatlangan kishi organizmidagi qon aylanishni sun'iy ravishda tiklab turish maqsadida amalga oshiriladi.

Qorin bo'shlig'idan ko'krak qafasiga o'tgandan keyin 2 barmok yuqoridan massaj qilinadigan joyni belgilab, qo'lni bir-biri ustiga to'g'ri burchak shaklida qo'yib, jarohatlangan kishining ko'krak qafasi tana og'irligi bilan 15-25 kg miqdordagi kuch bilan bosiladi.

Bosish sekundiga 1 marta keskin kuch bilan bo'lishi kerak. Bunda ko'krak qafasi ichkariga qarab 3-4 sm pasayishi kerak va bu yurak urishi ritmiga moslab davom ettiriladi.

Massaj qilish sun'iy nafas oldirish bilan birgalikda olib borilishi kerak. Agar yordam ko'rsatayotgan kishi bir o'zi bo'lsa, har ikki marta puflagandan keyin 15 marta ko'krak qafasini bosishi kerak. Jarohatlangan kishining yurak urishi mustaqil bo'lganligini uning pulsini tekshirib bilinadi. Buning uchun yuqoridagi vazifalarni 2-3 sekundga to'xtatib, tomir urishi sanab ko'riladi.

Nazorat savollari

1. Elektr tokidan jarohatlanish sabablari ayting?
2. Elektr tokining xavfliligi nimada?
3. Elektr tokidan jarohatlanish turlarini ayting?
4. Fibriliyatsion tok nima?
5. Insonlarni tokdan jarohatlanish ehtimoli nimalarga bog'liq?
6. Insonlarning shaxsiy xususiyatlarini tokdan jarohatlanishga aloqasi bormi, bo'lsa qanday?
7. Yerga ulash himoyasi nima?
8. Nollashtirish himoyasi nima?
9. Qadam kuchlanishi deganda nimani tushunasiz?

3-Mavzu: AHOLI VA HUDUDLARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

REJA:

1. Umumiy ma'lumot.
2. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunlari.
3. Sohaga doir O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
4. Favqulodda Vaziyatlar Vazirligining qaror va buyruqlari.

Umumiy ma'lumot

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-1378-sonli farmoni.

2. "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-1378-sonli Farmoniga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 11 dekabrda PF-2153 - sonli Farmoni

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 143-sonli Qarori

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagi 515-sonli “O‘zbekiston respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori

5.O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi “Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi 455-sonli qarori

6.O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2010 yil 5 yanvardagi “qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomini tasdiqlash haqida”gi 2-sonli qarori.

7.O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2011 yil 8 iyuldagi “Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan bog‘liq xizmatlar faoliyatini takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi 202-sonli qarori

8.O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2003 yil 13 yanvardagi “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 15-sonli qarori

Fuqaro muhofazasining hozirgi zamon sharoitidagi ahamiyati.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning qonuniy asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Favqulodda vaziyatlar vazirining ko‘rsatma va boshqa tegishli me‘yoriy hujjatlari tashkil etadi.

Bizga ma‘lumki, XX asrning 60-yillaridan fuqaro mudofaasi tizimi faoliyat ko‘rsatib kelgan. Uning asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg‘in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida iqtisodiyot bo‘ektlarining barqarorligini ta‘minlash hamda halokat o‘choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o‘z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi.

Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg‘in qurollari emas, balki boshqa xavf-xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni aslo nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Bular turli tabiiy ofatlar, avariya, halokatlardir. Sodir bo‘lib o‘tgan bir nechta halokatlar (CHernobil atom elektr stansiyasidagi avariya, 25 000 odamning yostig‘ini quritgan Spitak zilzilasi va boshq.) fuqaro mudofaasining o‘rni va vazifalariga boshqacha ko‘z bilan qarash kerak ekanligini ko‘rsatib berdi. Fuqaro mudofaasi qo‘shinlari bunday yirik ko‘lamdagi ofatlarga qarshi kurashishga tayyor emas ekanligi, fuqaro mudofaasi vazifalari faqatgina harbiy davr chegarasida qolishligi mumkin emasligi, ular oldiga qo‘yilgan vazifalar ko‘lamini kengaytirish lozimligi ayon bo‘lib qoldi.

90-yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo‘yildi, yangi-yangi zamonaviy qurol turlari kashf etildiki, ular odamlar uchun xavfli bo‘lmay, balki iqtisodiyot ob‘ektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bularning hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o‘rnida yangi tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi.

Shu o‘rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to‘g‘ri keladi. Favqulodda vaziyatning o‘zi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko‘zda tutish lozim?

Favqulotda vaziyat – odamlar qurbon bo‘lishi, ularning sog‘ligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Vatanimiz Prezidenti tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat tufayli inson manfaati, inson qadriyati eng oldingi o‘rindadir. Asosiy Qomusimiz bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining asosini ham inson, uning qadr-qimmatini, salomatligi tashkil etadi. Insonning hayoti, yashashga bo'lgan huquqi Konstitutsiya bilan muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiya) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi.

Oliy majlisning vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi.

Fuqaro muhofazasining hozirgi zamon sharoitidagi vazifalari.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng tashkil etilgan Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalaridan biri favqulodda vaziyatlarda aholi hayoti va sog'ligini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilishdan iborat. Bu vazifani samarali tashkil etish uchun muhofazaning qonuniy, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, muhandislik texnik, maxsus asoslariga ega bo'lishimiz zarur.

Har bir rahbar, har bir favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining xodimi texnogen, tabiiy va ekologik favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan vaqtda vaziyatga baho berishni, tezlik bilan tegishli qarorlar qabul qilishni, qidiruv-qutqaruv va shoshilinch ishlarni o'tkazishda boshqaruvni amalga oshirish yo'llarini bilishi va bu borada yuqori malakaga ega bo'lmog'i kerak.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish –favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y berganda esa odamlar sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish– favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan zonalarni xalqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar majmui.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri – avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF-1378 sonli Farmoni bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilishi bo'ldi.**

Farmon bilan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayotini va salomatligini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini muhofaza qilish, shuningdek tinchlik va harbiy davrlarda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazirlikning asosiy vazifalaridan biri deb belgilandi.

Aholi va iqtisodiyot ob'ektlarini muhofaza qilishni ta'minlashga rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziriga yuklatilgan.

Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash usullariga o'rgatish;

-ob'ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga o'rgatish;

-boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish;

-iqtisodiyot ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini o'tkazish;

-aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;

-fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarining shayligini ta'minlash;

-aholini umumiy va yakka tartibdagi muhozaalanish vositalari bilan ta'minlash;

-aholining harbiy harakatlar olib borish paytidagi yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta'minlash;

-radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazoratini olib borish;

-qutqarish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tashkil qilish va o'tkazish;

-harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarur ko'rgan hududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish;

-aholini va hududlarni muhofaza qilish borasida boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va tegishli hududlarning hokimlari, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda vazirlar, davlat qo'mitalari va uyushma boshqaruv raislari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda ishlab chiqarish korxonalari direktorlari, rahbarlari aholi va iqtisodiyot ob'ektlari muhofaza etishga rahbar e'tib tayinlanadilar.

Mahalliy hokimiyat organlarining Konstitutsiyamiz tomonidan belgilagan vazifalari qatoriga jumladan quyidagilar kiradi:

-qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

-mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalar hosil qilish;

-atrof muhitni muhofaza qilish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlarda favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo'limlari)ning tashkil etilishi va boshqarma (bo'lim) boshliqlarining o'rinbosarlari joylardagi o'rinbosarlari hisoblanishi aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining ish faoliyatini yanada mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlari bajarilishini ta'minlash hamda ushbu maqsadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun respublika, viloyat, tuman, shuningdek ob'ekt fuqaro muhofazasi xizmatlari tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalari tarkibi, uning tarkibiy tuzilishi, shuningdek fuqaro muhofazasi tuzilmalari faoliyatining boshqa masalalari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan belgilab qo'yilgan.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlarining faoliyati, ularni butlash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi qachon tashkil etilgan?

2. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi “Tabiiy, texnogen va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi 455-sonli qarori nima xaqida?
3. O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasining hayot faoliyatidagi ahamiyati qanaqa?

4-Mavzu: TABIIY TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR VA ULARDAN HIMOYALANISH CHORA TADBIRLARI

Reja:

1. Umumiy ma‘lumot.
2. Geologik xavfli hodisalar.
3. Gidrometeorologik xavfli hodisalar.
4. Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar.
5. Tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlarda ximoyalanish va harakatlanish qoidalari.

Umumiy ma‘lumot

Tabiiy favqulodda vaziyat - bu ma'lum bir hududda havfli tabiiy hodisalar natijasida odamlarning qurbon bo‘lishiga, shikastlanishiga va atrof tabiiy muhitga moddiy zarar etishi, aholining hayot faoliyati sharoitlari izdan chiqishiga olib keladigan sharoit.

Havfli tabiiy jarayonlar va hodisalar sodir bo‘lish joyi, sababi, ko‘lami, keltirgan moddiy zarar va boshqa hususiyalari bilan ajralib turadi. 1998 yil 27 oktyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 455-sonli «Texnogen, tabiiy va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar tasnifi to‘g‘risida»gi qarorining ilovasi asosida tabiiy favqulodda vaziyatlar kelib chiqish sabablariga ko‘ra quyidagilarga ajratiladi:

- 1. Geologik xavfli hodisalar.**
- 2. Gidrometeorologik havfli hodisalar.**
- 3. Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar.**

Tabiiy favqulodda vaziyatlar tarqalish ko‘lami, ta'sir maydoni, ushbu vaziyatlarda zarar ko‘rgan odamlar soniga, keltiradigan moddiy zararlar miqdoriga va ko‘lamlariga qarab **lokal, mahalliy, respublika va transchegara** turlarga bo‘linadi.

Lokal (ob‘yektga taaluqli) tabiiy FVlar - shikastlovchi omillari ishlab chiqarish yoki ijtimoiy ob‘yektlar hududi bilan chegaralanadi. Lokal favqulodda vaziyatlar natijasida 10 dan ortiq kishi shikastlanishi, 100ga yaqin insonlarning hayot faoliyati sharoitlari izdan chiqishi mumkin, moddiy zarar favqulodda vaziyat ro‘y bergan kunda eng kam ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo‘lmaganni tashkil etadi, favqulodda vaziyatlar zonasi ob'yekt hududidan tashqariga chiqmaydi.

Mahalliy tabiiy FVlar - shikastlovchi ta'siri aholi yashash punktlari, shahar, tuman hududi bilan chegaralanadi. Mahalliy favqulodda vaziyatlar natijasida 10 dan to 500 kishigacha shikastlanishi, 100 dan to 500 gacha insonlar hayot faoliyati sharoitlari izdan chiqishi mumkin, moddiy zarar eng kam ish haqi miqdorining 1 ming dan to 0,5 mln. gacha tashkil etadi, favqulodda vaziyatlar zonasi shahar, tuman, viloyat hududidan tashqariga chiqmaydi.

Respublika (hududiy) tabiiy FVlar – shikastlovchi omillari respublika, o‘lka, viloyat hududi bilan chegaralanadi. Respublika favqulodda vaziyatlar natijasida 500 dan ortiq kishi shikastlanishi, 500dan ortiq insonlar hayot faoliyati sharoitlari izdaan chiqishi mumkin, moddiy zarar eng kam ish haqi miqdorida 0,5 mln.dan ortiq summani tashkil etadi, favqulodda vaziyatlar respublika, o‘lka hududidan tashqariga chiqmaydi.

Transchegara tabiiy FVlar – shikastlovchi omillar bir davlat chegarasidan chiqib, boshqa hududlarga ham tarqaladi.

Geologik fvlar, ularning kelib chiqish sabablari.

Geologik xavfli hodisalar - bu hodisalar yer osti kuchlari va tashqi tabiiy omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Bundan tashqari ular insonning xo'jalik va boshqa faoliyati natijasida xam yuz berishi mumkin va odamlarga, qishloq xo'jalik xayvonlari va o'simliklarga, iqtisodiy ob'yektlarga atrofdagi tabiiy muhitga shikastlovchi ta'sir ko'rsatadi.

Havfli geologik hodisa va jarayonlarga quyidagilar kiradi:

- zilzila,
- yer ko'chishlari,
- tog' o'pirilishlari,
- vulqon otilishi,
- sunami va boshq.

Zilzila

Zilzila - eng falokatli tabiiy ofat bo'lib, yer ichki energiyasining o'zgarishi, vulqon otilishi jarayonlari va insonning xo'jalik faoliyati tufayli yuzaga keladi.

Vaqt tanlamaydigan bu ofat bir necha soniya ichida minglab insonlarning qurbon bo'lishi va katta iqtisodiy zararga olib keladi.

Ko'chki va o'pirilishlar

Ko'chkilar va o'pirilishlar asosan kuchli yomg'ir yog'ishi, qorning shiddat bilan erishi, zilzila, yerga ishlov berishdagi agrotexnik xatoliklar va boshqa omillar natijasida tog'ning o'stki tuproq qatlamining pastlikka tomon sirpanishi natijasida yuzaga kelib, aholi yashash joylari, aloqa tarmoqlari va to'g'onlarni jiddiy shikastlaydi.

Sunami

Sunami – bu asosan suv osti silkinishlari vaqtida dengiz tubi katta maydonlarining pastga yoki yuqoriga siljishi natijasida yuzaga keladigan, dengiz to'lqinidan iborat havfli tabiiy hodisa.

Sunamidani darak beruvchi tabiiy signal zilziladir. Sunami boshlanishidan avval, odatda, suv qirg'oqdan uzoq masofaga chekinadi, dengiz tubi yuzlab metr, hatto bir necha ming metrga ochilib qoladi. Bu holat bir necha daqiqadan yarim soatgacha davom etadi.

To'lqinlar harakati momaqaldiroqsimon tovush bilan birga kechadi. Sunami to'lqini ko'pincha to'lqinlar seriyasi shaklida bo'lib, qirg'oqqa bir soat va undan ortiq vaqt oralig'i bilan hujum qiladi.

Gidrometeorologik FVlar, ularning kelib chiqish sabablari.

Gidrometeorologik havfli xodisalar - bu :

- odamlar o'limiga, aholi punktlarini, ba'zi sanoat va qishloq xo'jaligi ob'yektlarini suv bosishiga, transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan **suv toshqilari, suv to'planishi va sellar;**

- aholi punktlaridagi, sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog'lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlar va sportchilarning jarohatlanishiga va o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan **qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala** va boshqa xavfli hodisalar.

Toshqin

Toshqin - bu asosan jalali yomg'ir, qorning erishi, suv bosimi natijasida daryo, ko'l va suv omborlaridagi suv hajmining ko'tarilishi hisobiga yuzaga keladi. Katta miqdordagi binolar buzilishi, inshootlar, yo'llar, aloqa tarmoqlari, elektr uzatish inshootlari, o'simliklarni, hayvonlarni va odamlarni nobud bo'lishiga olib keladi.

Sel

Sel - bu tog' daryolari o'zanlarida to'satdan yuzaga keluvchi katta hajmdagi tog' jinslari bo'laklari, harsanglar va suv aralashmasidan iborat vaqtinchalik shiddatli oqim.

Sel oqimlarini uzoq davom etgan kuchli jala, qor yoki muzliklarining jadal erishi, zilzila va vulqon otilishlari keltirib chiqaradi.

Sel oqimlari xarakati xususiyati bo'yicha **turbulent** va **strukturali** turlarga bo'linadi.

Turbulent sellar o'zan bo'ylab, daryo va soylardagi suv miqdorining ortib ketishi natijasida oqim xarakati qonuniga muvofiq vodiy yo'nalishi bo'yicha bo'ladi.

Strukturali sellar maydon bo'ylab, turli tosh bo'laklarining butun yonbag'ir bo'yicha yoppasiga bostirib kelishi natijasida sodir bo'ladi.

Sel oqimlari o'zi bilan olib kelayotgan qattiq zarrachalari o'lchamiga qarab 3 guruhga bo'linadi: - suv-toshli sellar (tarkibi va yirik tosh aralashmasidan iborat);

- loyqa sellar (tarkibi suv va mayda tuproq aralashmalari);
- aralash sellar (tarkibi suv, shagal, shagal aralash tog' jinslari, mayda tosh aralashmalaridan iborat).

Qor ko'chkisi

Qor ko'chkisi – tog'larning tik yonbag'irlarida qor massasining ag'darilib yoki sirpanib tushishi qor ko'chkilari deb ataladi. Qorning ustki qismi biroz muzlagan bo'lib, uning ustiga qalin qor yog'sa va ma'lum sabablarga ko'ra pastga qarab siljisa **quruq** ko'chki hosil bo'ladi. Bahor oylarida qor erigan suvining shimilib, qorning tagini ho'llashi natijasida qor massasining turg'unligi kamayib, pastga ag'darilib tushishidan **ho'l** ko'chki hosil bo'ladi.

Quruq ko'chkilar 100km/soat va ba'zan 300km/soat tezlikda harakatlanadi, ho'l ko'chkilar sekinroq - 30 km/soat tezlikda siljiydi.

KUCHLI SHAMOL (DOVUL)

Kuchli shamol - bu tezligi 120km/s dan ortadigan, yer yuziga yaqin joyda 200 km/s ni tashkil etadigan, vayron qiluvchi va ancha davom etuvchi shamol.

TO'FON

To'fon - bu yer ustki inshoatlarini jiddiy zararlaydi, dengizdan 10-12 metr balandlikda to'lqinni yuzaga keltiradi va toglardagi qorli bo'ron va shamol, havo massasini 12 va undan yuqori ballarda (1 ball – 2,5 m/s) harakatlantiradi. Okeanda yuzaga keladigan (50 m/s) to'fon tayfun deb ataladi.

Bo'ron

Bo'ron – bu tezligi 20 m/s dan ortiq va uzoq davom etuvchi kuchli shamol. U siklon davrida kuzatiladi va dengizda katta to'lqinlarni, quruqlikda esa vayronaliklarni keltirib chiqaradi.

Quyun

Quyun – bu momaqaldiroq bulutida yuzaga keluvchi va ko'pincha yer yuzasigacha diametri o'nlab va yuzlab metrga yetuvchi xartum shaklida cho'ziluvchi shamol. U uzoq muddat davom etmaydi, bulut bilan birgalikda harakat qiladi.

Favqulodda epidemik, epizootik, epifitotik vaziyatlar va ularning oldini olish tadbirlari.

Epidemiologik vaziyatlar - bu odamlarda uchraydigan o'ta xavfli yuqumli kasalliklar (o'lat, vabo, sarg'ayma isitma va boshq.), zoonos infeksiyalar (sibir yarasi, quirish va boshq.), virusli infeksiyalar (OITS va etiologiyasi aniqlanmagan kasalliklarni) tarqalishi.

Epizootik vaziyatlar - bu hayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo'lishi.

Epifitotik vaziyatlar - bu o'simliklarning ommaviy nobud bo'lishi.

Epidemiyalarni oldini olish uchun turli tadbirlar rejasi tuzib chiqiladi va shu reja asosida quyidagi ishlar olib boriladi:

1. Tug'ilgan paytidan boshlab reja asosida turli kasalliklarga qarshi taqvimiy emlanish o'tkaziladi;
2. Kasalliklar tarqalgan vaqtda sanitar-gigienik holatlarga e'tibor berib boriladi (yuqori nafas yo'llarini yuqumli kasalliklardan himoya qiluvchi niqoblar taqish, xonalarni o'z vaqtida tozalab, shamollatib turish);
3. Dezinfektsiya, deratizatsiya va dezinseksiya chora - tadbirlari amalga oshiriladi.

Epifitotiya va epizootiyalarni oldini olish maqsadida oldini olish tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish zarur. Hayvonlarni ma'lum reja bo'yicha tibbiy ko'rikdan o'tkazish va emlash, o'simliklarni kasallanishiga qarshi dorilardan foydalanish, o'simlik zararkunandalarining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik kerak, shuningdek meva bog'larida olma qurti, shira, qalqandorlarga qarshi kurashish uchun kuzda va erta bahorda daraxtlarning qurigan po'stloqlari, shohlari qirqilib, shakl beriladi. Qator oralarga ishlov berish, begona o'tlar va o'simlik qoldiqlaridan tozalanadi va boshqa chora-tadbirlar o'tkaziladi.

Tabiiy tUSDagi FVlar ro'y berganda aholi va hududni himoya qilish chora-tadbirlari va harakatlanish qoidalari.

Zilzilagacha aholi harakati:

1. Shaxsingizni tasdiqlovchi xujjat, xonadoningizda batareyali radiopriyomnik, cho'ntak elektr fonari va dori-darmonlar saqlanadigan quticha, qimmatbaho qog'ozlar tayyor holda turishi kerak;
2. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini bilishingiz zarur;
3. Asosiy elektr o'chirgich va gaz kranlarini joyini aniq bilib olishingiz lozim;
4. Shkaflarda og'ir buyumlarni qo'ymaslik, og'ir shkaflarni devorga mahkamlab qo'yish kerak;
5. Zilzila sodir bo'lgan vaqtda oila a'zolari bilan qayerda uchrashishni kelishib olish;
6. Tashkilotlar, muassasalarda o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish zarur.

Zilzila vaqtida aholi harakati:

- Agar binoning birinchi qavatida bo'lsangiz darhol tashqariga chiqing, binodan tashqarida bo'lsangiz, o'sha yerda qoling;
- Xona ichida bo'lsangiz, tayanch devorlar va eshik ostonasi xavfsiz joylar hisoblanadi;
- Ko'chada bo'lsangiz qulab tushishi mumkin bo'lgan bino, baland devor, elektr tarmoqlaridan yiroqroq bo'lishga harakat qiling;
- Zilzila vaqtida lift yoki zinalardan foydalanmang.

Zilziladan so'ng aholi harakati:

- Sarosimaga tushmay xotirjamlik bilan vaziyatni baholang, jabrlanganlarga va bolalarga yordam berishga kirishing;
- Suv, gaz, elektr tarmoqlari holatini tekshiring, ishdan chiqqan bo'lsa foydalanmang;
- Shikastlangan binolarga kirishda ehtiyot bo'lib harakat qiling;
- Telefon tarmoqlarini ortiqcha band qilmang;
- Zilzila qaytishiga tayyor turing, berilayotgan axborotlarni kuzatib boring.

Sunami oldidan va vaqtida aholi harakatlari:

- Bino ichida bo'lsangiz zudlik bilan uni tark eting.
- Elektr, gaz ta'minotini o'chiring, havfsiz joyni egallang.
- Eng qisqa yo'l bilan dengiz sathidan 30-40 metr balandlikka ko'tariling yoki qirg'oqdan 2-3 km nariga keting.

- Agar bino ichida qolishga to'g'ri kelsa, eng xavfsiz joylar - ichki devorlar, ustunlar oldi, tayanch devorlar hosil qilgan burchaklar ekanligini yodda tuting.

- Yaqiningizda turgan, yiqilib tushishi mumkin bo'lgan, ayniqsa shisha buyumlarini chetga olib qo'ying.

- Binodan tashqarida bo'lsangiz, daraxtlar ustiga chiqib oling yoki to'lqin zarbiga uchramaydigan joylardan o'rin egallang. Juda bo'lmaganda, darah tanaasi yoki mustahkamroq to'siqni quchoqlab oling.

Qor ko'chkisi vaqtidagi harakat:

Bino ichida bo'lsangiz:

- Sarosimaga tushmang, evakuatsiya o'tkazilsa, gaz, elektr, suv tarmoqlarini o'chiring, o'zingiz bilan hujjatlaringiz, eng zarur buyumlaringiz va oziq-ovqatni oling.

Bino tashqarisida bo'lsangiz:

- Qor ko'chkisi yo'lidan chetga qoching.
- Qor ko'chkisiga duch kelib qolsangiz, suzayotganga o'xshash harakat qilib, qor oqimi yuzasida qolishga harakat qiling.

- Qor ostida qolsangiz, boshingiz va ko'kragingiz atrofida bo'shliq hosil qiling.

Qor ko'chkisi tugandan so'nggi harakat:

- Qor tagida qolgan bo'lsangiz: yordamni kuting. Sizni albatta qutqarib olishadi.
- Qor uyumi ostida holatni bilish uchun so'lak chiqaring. Oqim yo'nalishi qanday holatda ekanligingizdan ogoh etadi.

- Boshqa hollarda jabrlanganlarga yordam bering, axborotlarni kuzatib boring, zaruriyat tug'ilganda qutqaruv guruhlariga ko'maklashing. Turar joyingizni mustahkamligini, gaz, elektr, suv, kanalizatsiya tarmoqlari holatini sinchiklab tekshirib chiqing. Favqulodda vaziyat oqibatlarini tugatishga kirishing.

Toshqingacha bo'lgan harakat:

1. Toshqin xavfi mavjud joylarda qurilish ishlarini faqat davlat organlari ruxsati bilan amalga oshiring.

2. Toshqin to'g'risidagi xabarni olgach, gaz, elektr tarmoqlarini o'chiring va qimmatbaho buyumlaringizni xavfsiz joylarga olib chiqing.

3. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmonlarni va qutqaruv vositalarini tayyorlab qo'ying.

4. Avvaldan belgilab qo'yilgan yo'nalish bo'yicha tezlikda xavfsiz joyga (tepalik, yuqori qavat, bolxona, tom)ga chiqing.

5. Ob-havo va xabar berish signallarini kuzatib boring.

Toshqin vaqtidagi harakat:

- Evakuatsiya to'g'risidagi xabarni olishingiz bilan avvaldan tayyorlab qo'yilgan eng zarur buyumlaringizni olib binodan chiqib keting.

- Suv oqimini kesib o'tishga harakat qilmang. Yordam yetib kelgunga qadar xavfsiz joyni tark etmang.

- Gulxan yoqib, fonar yoki oq mato yordamida halokat signalini bering.

- Suv ichida qolsangiz, ustki kiyim boshlaringiz va poyafzalingizni yechib tashlang, atrofingizdagi suzuvchi vositalardan foydalaning.

- Bolalar va keksalarga yordam bering

Toshqindan so'nggi harakat:

- Uyga qaytgach, binoning mustahkamligini tekshirib ko'ring;

- Uzilib va osilib yotgan elektr simlaridan ehtiyot bo'ling. Suv ostida qolgan elektr ta'minotini tezda o'chiring;

- Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini tekshirib ko'ring (Nam tortgan mahsulotlarni va ichimlik suvini tegishli sanitar ishlovidan o'tkazmay turib iste'mol qilish qat'iyan ma'n etiladi!);

- Ochiq olovdan foydalanmang.

Dovul, to'fon va quyun vaqtida aholi harakati:

- Yaqinlashib kelayotgan falokat haqidagi ogohlantirish signallariga befarq bo'lmang;

- Insonlar himoyalash vositalari va bino, inshootlarning shamolga yaroqliligini oshirishga e'tibor bering;

- Dovul, to'fon va quyun vaqtida aholining harakatlanish qoidalarini chuqur o'zlashtirib oling;

- Dovul, to'fon va quyundan so'ng shikastlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidalarini yaxshi o'zlashtirib oling;

- Yashirinish uchun yaqin, qulay bo'lgan yerto'lalar, mustahkam binolarni bilib oling va oila a'zolaringiz, yaqinlaringiz, qo'shnilariga ular haqida ma'lumot bering;

- Xavf yuqori bo'lgan zonalardan evakuatsiya qilishda chiqish yo'llarini bilib oling;

- O'zingiz yashash joyingizdagi favqulodda vaziyatlar boshqarmasi telefoni va manzilini bilib oling.

Sel havfi bor hududlarda xavfsizlik tadbirlari:

1. Ommaviy axborot vositalari orqali tog'li hududardagi ob-havo sharoiti bilan bog'liq xabarlarini doimo kuzatib borish.

2. Tinimsiz yomg'ir yoki jala yog'ishi davom etsa, sel xavfi yuqori hududlarda bo'lsangiz, tezda havfsiz joy tomon harakat qilish.

3. Harakatdagi sel oqimi tomon yaqinlashmaslik, undan 50-70 m masofada turish.

4. Ko'chki xavfi bor joylar yaqinida to'xtamaslik kerak, sel oqimi harakati natijasida ko'chki yoki o'pirilish sodir bo'lishi mumkin.

5. Sel xavfi bor hududlarda dam olish uchun to'xtash va ko'l dambalari bo'yiga palatkalar o'rnatish mumkin emas.

6. Sel xavfi belgilarini sezsangiz tog' yonbag'ir bo'ylab yanada yuqoriroqqa ko'tarilish lozim

7. Sel xavfi o'tgandan so'ng, sel oqimi o'yib ketgan joylardan juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish kerak.

8. Sel xavfi o'tgandan so'ng qor ko'chkisi yoki muz ko'chishi yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun xavf mavjud joylardan uzoqroq yurishga harakat qilish kerak.

Epidemiyalarni oldini olish uchun turli tadbirlar rejasi tuzib chiqiladi va shu reja asosida quyidagi ishlar olib boriladi:

1. Tug'ilgan paytidan boshlab reja asosida turli kasalliklarga qarshi taqvimiy emlanish o'tkaziladi.

2. Kasalliklar tarqalgan vaqtida sanitariya-gigienik holatlarga e'tibor berib boriladi, (yuqori nafas yo'llarini yuqumli kasalliklardan himoya qiluvchi niqoblar taqish, xonalarni o'z vaqtida tozalab, shamollatib turish).

3. Dezinfektsiya, deratizatsiya va dezinfektsiya chora-tadbirlari olib boriladi.

Epifitotiya va epizootiyalarni oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish zarur:

- Hayvonlarni ma'lum reja bo'yicha tibbiy ko'rikdan o'tkazish va emlash, o'simliklarni kasallanishiga qarshi dorilardan foydalanish, o'simlik zararkunandalarining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik kerak, shuningdek meva bog'larida olma qurti, shira, qalqandorlarga qarshi kurashish uchun kuzda va erta bahorda daraxtlarning qurigan po'stloqlari, shohlari qirqilib, shakl beriladi. Qator oralarga ishlov berish, begona o'tlar va o'simlik qoldiqlaridan tozalanadi va boshqa chora-tadbirlar o'tkaziladi.

Nazorat savollari

1. Tabiiy tUSDagi FVlar nima?
2. Geologik FVlar, ularning kelib chiqish sabablarini bilasizmi?.
3. Gidrometeorologik Fvlarnima sababdan kelib chiqadi?
4. Favqulodda epidemik, epizootik, epifitotik vaziyatlar nima?
5. Tabiiy tUSDagi FVlar ro'y berganda aholi va hududni himoya qilish chora-tadbirlari va harakatlanish qoidalarina sanab bering.

Mavzu: TEXNOGEN TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR VA ULARDAN XIMOYALANISH CHORA TADBIRLARI

Raja:

1. Umumiy ma'lumot.
2. Transport avariylari va halokatlari.
3. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar.
4. Yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariylar.
5. Enyergetika va kommunal tizimlardagi avariylar.
6. Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariylar.
7. Gidrotexnik halokatlar va avariylar.
8. Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarda ximoyalanish va harakatlanish qoidalari.

Umumiy ma'lumot

Ma'lumki, favqulodda vaziyat – bu muayyan hududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'lig'i yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishiga olib keladigan halokat, falokat va ofatlardir.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra FVlar tabiiy, texnogen va ekologik tUSlarga ajratiladi.

Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen tUSDagi FVlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida, 1998 yil 27 oktyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 455-sonli "Tabiiy, texnogen va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar tasnifi to'grisida"gi qaroriga ilova tasdiqlandi. Mazkur ilovaga ko'ra, texnogen FVlar, ularning vujudga kelish sabablariga ko'ra tasnif qilinadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab *lokal, mahalliy, respublika va transchegara* turlarga bo'linadi.

Texnogen tUSDagi FVlar – bu odamning ishlab chiqarish yoki xo'jalik faoliyati bilan bogliq bo'lgan halokat (avariya)lar.

Rivojlanish davrida inson o'zi uchun yaratgan qulayliklar, ya'ni g'ildirakning kashf etilishi, mashinalarni yaratilishi, atomni bo'ysundirilishi, elektromagnit to'lqinlarni aniqlanishi va boshqalar, odamga g'am va zahmat keltiruvchi sabablar bo'lmish texnogen tUSDagi halo-katlarni kelib chiqishiga imkoniyat yaratib beradi. Shunday qilib jamiyatning texnik progressi uchun odamzod juda katta haq to'lashga majbur bo'lmoqda. Chernobol AESdagi halokat, yadroviy sinovlar oqibatlari, sanog'i yo'q transport FVlari va ishlab chiqarishdagi avariylar, ommaviy

zaharlanishlar, radiatsion zararlanishlar va boshqalar texnogen tUSDagi havflar sifatida misol qilib keltirishimiz mumkin.

Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi va tavsifi.

Yuqorida qayd etilgan Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qarorining ilovasiga ko'ra, texnogen tUSDagi FVlar vujudga kelish sabablariga qarab quyidagilarga tasnif qilinadi:

- transport halokatlari (avariyalari);
- kimyoviy havfli ob'yektlardagi halokatlar;
- yong'in-portlash havfi mavjud bo'lgan ob'yektlardagi halokatlar;
- energetika va kommunal tizimlardagi halokatlar;
- ijtimoiy yo'nalishdagi ob'yektlardagi hodisa va halokatlar;
- gidrotexnik halokatlar;
- radioaktiv va boshqa xavfli va ekologik jihatdan zarar bo'lgan moddalarni ishlatilishi yoki saqlanishi bilan bog'liq bo'lgan halokatlar.

Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar

1. Transport avariylari va halokatlari:

ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan **aviahalokatlar**;

yong'inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibning buzilishiga sabab bo'lgan va temiryo'l xodimlarining, halokat hududidagi temiryo'l platformalarida, vokzallar binolarida va shahar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli modda (KTKZM)lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan **temiryo'l transportidagi halokatlar va avariylar (ag'darilishlar)**;

portlashlarga, yong'inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTKZMlarning zaharli xossalari namoyon bo'lishiga va odamlar o'limi (jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo'ladigan **avtomobil transportining halokati va avariylari**, shu jumladan, **yo'l-transport hodisalari**;

odamlarning o'limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poyezdlari parchalanishiga olib kelgan **metropoliten bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlar, avariylar, yong'inlar**;

gaz, neft va neft mahsulotlarining (avariya holatida) otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo'ladigan **magistral quvurlardagi avariylar**.

2. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar:

atrof-tabiiy muhitga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) otilib chiqishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, hayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan darajada, yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentratsiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya-himoya hududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan **kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar, yong'in va portlashlar**.

3. Yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariylar:

texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va matyeriallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ob'ektlardagi, odamlarning mexanik va tyermik shikastlanishlariga, zaharlanishiga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish fondlarining nobud bo'lishiga, Favqulodda vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish siklining va odamlar hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan **avariylar, yong'inlar va portlashlar**;

odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o'limiga olib kelgan hamda qidirish-qutqarish ishlarini o'tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va

vositalarini qo'llanishni talab qiluvchi **ko'mir shaxtlaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog'liq avariya, yong'inlar va jinslar qo'porilishi.**

4. Enyergetika va kommunal tizimlardagi avariya:

sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul iste'molchilarining avariya tufayli enyergiya ta'minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan **GES, GRES, TESlardagi, tuman issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi, bug'qozon qurilmalaridagi, kompressor va gaz taqsimlash shoxobchalaridagi va boshqa enyergiya ta'minoti obyektlaridagi avariya va yong'inlar;**

aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug'ilishiga olib kelgan **gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal ob'ektlardagi avariya;**

atmosfera, tuproq, yer osti va yer usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug'diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo'lgan **gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariya.**

5. Odamlar o'limi bilan bog'liq bo'lgan va zudlik bilan avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini hamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yo'nalishdagi ob'ektlar, shuningdek uy-joy sektori **binolari konstruksiyalarining to'satdan buzilishi, yong'inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.**

6. **Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariya:**

sanitariya-himoya hududi tashqarisiga **chiqarib tashlanishi** natijasida paydo bo'lgan yuqori darajadagi radioaktivlik odamlarning yo'l qo'yiladigandan ko'p miqdorda nurlanishini keltirib chiqargan **texnologik jarayonda radioaktiv moddalardan foydalanadigan ob'ektlardagi avariya;** radioaktiv matyeriallarni tashish vaqtidagi avariya;

atrof-muhit va odamlar salomatligi uchun xavf tug'diruvchi radioaktiv chiqindilar **to'plagichlardagi, chiqindixonalaridagi, ishlab to'plagichlardagi va zaharli moddalar ko'miladigan joylardagi avariya (o'pirilishlar);**

radioizotop buyumlarning yo'qotilishi;

biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarda **biologik vositalarning** atrof-muhitga **chiqib ketishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq vaziyatlar.**

7. Hidrotexnik halokatlar va avariya:

suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi ko'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hududlarda odamlar o'limiga, sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlarini talab qiladigan **halokatli suv bosishlari.**

Shu bilan bir qatorda, yuqorida qayd etilganidek (455-sonli qarorning ilovasiga ko'ra) texnogen FVlar (FV paydo bo'lgan kunda) zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga (hududlar chegaralariga) qarab **lokal, mahalliy, respublika va transchegara** turlariga bo'linadi.

Lokal – bu texnogen FVlar natijasida 10dan ortiq bo'lmagan odam jabrlanadi, moddiy zarar eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo'lmaganni tashkil etadi hamda FV zonasi ishlab chiqarish yoki ijtimoiy maqsadli ob'yekt hududi tashqarisiga chiqmaydi.

Mahalliy – bu texnogen FVlar natijasida 10dan 500gacha odam jabrlanadi, moddiy zarar eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 mingdan to 0,5 mln baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorni tashkil etadi hamda FV zonasi aholi punkti, shahar, tuman yoki viloyat tashqarisiga chiqmaydi.

Respublika – bu texnogen FVlar natijasida 500dan ortiq odam jabrlanadi, moddiy zarar eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 mln baravaridan ortiqni tashkil etadi hamda FV zonasi viloyat tashqarisiga chiqadi.

Transchegara – bu texnogen FVlar oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadi, chet elda yuz byyergan va O'zbekiston hududiga daxl qiladi.

3. Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari.

Texnogen tUSDagi halokatlarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- inshootlarni loyihalashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar;
- texnika xavfsizligiga rioya qilmaslik;
- ishlab chiqarishda doimiy nazoratning susayishi va ayniqsa, yengil alanga oluvchi, yong'inga xavfli moddalardan foydalanishda e'tiborsizlik;
- ishlab chiqarish texnologiyasida yo'l qo'yilgan xatolik, jihozlarni, mashina va mexanizmlarni o'z vaqtida ta'mirlamaslik;
- mehnat va ishlab chiqarish intizomining pastligi;
- qo'shni ishlab chiqarish korxonalarida yoki energetika, gaz tarmoqlarida yuz bergan halokat;
- halokatlarni keltirib chiqaruvchi tabiiy favqulodda hodisalar.

Texnogen FVlar natijasida insonlar qurbon bo'lishi, turli darajada shikastlanishi, atrof-tabiiy muhitning, atmosfera havosining turli zaharli moddalar bilan ifloslanishi, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami nobud bo'lishi, juda katta moddiy zarar ko'rishga olib kelishi kabi oqibatlari kuzatiladi.

Aholi va hududni texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish.

Respublikamizda aholi va hududni texnogen FVlardan muhofaza qilish uchun bir qator ishlar qilinmoqda. Shu jumladan, 1995 yil 20 avgustda *«Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»*gi qonun qabul qilinganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Bundan tashqari, respublikamiz miqyosida o'tkazilayotgan «Yong'in xavfsizligi oyligi», «Yo'l harakati xavfsizligi oyligi» kabi tadbirlar ham texnogen FVning oldini olish, aholi va hududlar xavfsizligini ta'minlash, FV yuz berganda harakatlanishga oid tayyorgarlik darajalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan har bir ishchi halokatlar yuz berganda harakatlanish qoidalarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Misol uchun, elektr energiyasini tarmoqdan uzishning ham o'ziga xos talablari, gaz, bug' apparatlarini o'chirishning ham o'ziga xos qonun qoidalari mavjud bo'lib, agar texnologik jarayonlar va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinmasa, inson hayotiga juda katta xavf solishi yoki juda katta moddiy talofatlar keltirishi mumkin.

Har bir ishlab chiqarish sohasi xodimi halokatlar yuz berganda jamoa muhofaza inshootlari joylashgan yerlarni, xavfsizlik joylarga chiqish yo'llarini, yakka himoyalash vositalari bilan ta'minlashni tashkil etishni va ulardan foydalanish tartibini bilishi lozim¹. Texnologik uskunalarni germetizatsiyalash va ishlash tizimini doimiy nazorat qilish, shu bilan yong'in va portlash xavflarini oldini olish zarur. Elektr asboblarning holatini, sig'imi, qism va tarmoqlarini, bosim ostida ishlashini, nazorat-o'lchov asboblari, himoyalash va bloklash apparatlarining ish faoliyatini doimiy nazorat qilish hamda aniqlash kerak.

Har bir tashkilotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokatlarning bartaraf etish rejasini ishlab chiqiladi. Ishchi va xizmatchilarni halokat yuzaga kelgan vaziyatlarda o'zini tutish va

harakatlanishga tayyorlash tadbirlari tashkil etiladi, ularni bartaraf etish kuch va vositalarining zaruriy zahiralari ko'rib chiqiladi. FV yuzaga kelganda ogohlantirish tizimi va vositalari doimiy shay holatda saqlash, ishchi o'rinlari uchun kerakli shahsiy himoyalaniish vositalari sonini ta'minlash zarur.

Halokatlar sodir bo'lganda muhim vazifalardan biri ishlab chiqarish korxonasi va aholi yashash punktlariga xavf haqidagi xabarni yetkazish hisoblanadi. Shuningdek, ob'yektning har bir ishchi, xodimi halokat sodir bo'lganda ogohlantirish vositalaridan foydalanish va tegishli tashkilotlarga xabar berishni bilishi zarur.

Nazorat savollari

1. Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar to'g'risida tushuncha bering.
2. Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi va tavsifi qanday?
3. Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari nimada?
4. Aholi va hududni texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlardan qanday muhofaza qilish mumkin?

Mavzu: EKOLOGIK TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR VA ULARDAN HIMOYALANISH CHORA TADBIRLARI

Reja;

1. Umumiy ma'lumot.
2. Quruqlik (tuproq, yerosti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar
3. Atmosfyera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar
4. Gidrosfyera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar
5. Ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarda ximoyalaniish va harakatlanish qoidalari.

Umumiy ma'lumot

«Ekologiya» – yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadi.

Ekologik tUSDagi FVlar – bu insoniyatning hayot faoliyatiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga, gidrosfera va atmosferaga beqiyos ta'sirini ko'rsatadigan halokatli vaziyatlar.

Ularning tasnifi hilma-hildir. Kelib chiqish xususiyatiga ko'ra ekologik FVlar quyidagilarga bo'linadi:

1. Quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar.
2. Atmosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar.
3. Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar.

Quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar:

- Yer osti qazilma boyliklarini qazib olishda, yer ko'chkisi natijasida va insonni xo'jalik faoliyatidagi ta'siri ostida;
- Tuproq tarkibida og'ir metallarning ruhsat etilgan kontsentrasiyadan yuqori bo'lishi natijasida;
- Yerning degradatsiyasi-sho'r yerlarning paydo bo'lishi bilan kuzatiluvchi eroziya jarayonini o'z ichiga oladi.

Atmosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar:

- Antropogen ta'sir natijasida iqlim va ob-havoning keskin o'zgarishi;
- Atmosferada zararli moddalarning ruhsat etilgan miqdoridan ko'payib ketishi;
- Shaharlarda haroratni ko'tarilishi;
- Shaharlarda "kislород" tanqisligi;
- Shaharlarda shovqinni PFKdan yuqori bo'lishi;
- Kislotali yoginlar zonasini hosil bo'lishi;
- Atmosferaning ozon qavatini emirilishi;

- Atmosfera tiniqligining o'zgarishi.

Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar:

- Suv manbalarining ifloslanishi natijasida ichimlik suvini kamayishi;
- Texnologik jarayonlar va insonni maishiy-xo'jalik ishlariga suvni sarflashi (ishlatishi) natijasida suv resurslarining kamayishi;
- Inson faoliyati ta'sirida dunyo okeani va dengizni ifloslanishi natijasida ekologik muvozanatning buzilishi.

Ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tavsifi.

Quruqlik holatining buzilishi. Tabiiy sabablarni yoki insonni xo'jalik faoliyatidagi ta'siri ostida tuproqning hususiyati asta-sekin yomonlashib bormoqda, ya'ni yerning degradatsiyasi yuz bermoqda. Buning sababi esa o'g'it va pestitsidlardan noto'g'ri foydalanishdan kelib chiqmoqda.

Masalan, tarkibida og'ir metallar tuzlari bo'lgan pestitsidlar miqdorini oshirish tuproq unumdorligini pasaytirishi va undagi mikroorganizmlar va chuvalchaglarni halok bo'lishiga olib kelishi mumkin. O'ylamasdan o'tkazilgan meliorativ ishlar chirindi qatlamini pasaytiradi. Unumdor tuproqni kam mahsulli tuproq bilan to'ldiradi. Daraxtlar kesilganida ularning ostidagi o'tli qatlam shikastlanadi. Traktor bosib o'tgan yo'llar ham yerga katta zarar keltiradi. Ayniqsa o'rmon yong'inlari katta zarar yetkazadi. Daraxtlar bilan birga butun hayvonot, mikroorganizm va o'simlik olami yo'q bo'lib ketadi. Yerning degradatsiyasi yer, flora va faunasining o'zgarishi va hosildorligining pasayishi, sho'r yerlarning paydo bo'lishi bilan kuzatiluvchi eroziya jarayonini o'z ichiga oladi.

Tuproqning eroziyasi - bu tuproq va unga tutash qatlamlarning turli tabiiy va antropogen omillar bilan turli-tuman buzilish jarayonlaridir. Sabablariga ko'ra tuproq eroziyasining quyidagi turlari farqlanadi: **suv, shamol, muz, ko'chki, daryo, biologik** eroziyalar. Ekinzor maydonlari kamayishi natijasida yer holatining buzilishi, ifloslanishi va sho'rlanish jarayonlari kuchayadi. Tuproq qatlamining og'ir metallar tuzlari bilan ifloslanishi asosan sanoat va transportlardan chiqayotgan chiqindi va gazlar, shuningdek tuproqqa zaharli chiqindilarni tartibsiz ko'mish hisobiga yuz bermoqda.

Biologik hilma - xillikni kamayishi yoki yo'q qilinishi yerlarni cho'lga aylanishiga olib keladi. Bu suv resurslarining kamayishi, yoppa o'simlik qatlamining yo'qolishi, faunaning kambag'allashuvi va qayta qurilishi bilan kechadi. Inson tomonidan kam suvli yerlardan noratsional foydalanish (hayvonlarni bu yerlarda ko'plab boqish, o'simlik qatlamining yo'q qilinishi, geologorazvedka ishlari bilan tuproq ishlari va chorvachilik orsidagi ratsional munosabatlarning buzilishi) ularni cho'lga aylanishiga olib keladi.

Atmosfera holatining o'zgarishi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni asrab qolish bugungi kunda dunyo hamjamiyatining e'tiboridagi masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Atmosferani ifloslanishi tabiiy va antropogen manba'lar hisobiga bo'ladi.

A). Tabiiy omillarga – tog' jinslarining yemirilishi, zilzila oqibati, vulqonlar faoliyati (vulqonlarning otilishi), tuproqning yemirilishi, o'rmonlarga o't ketishi kabi hodisalar kiradi;

B). Antropogen omillarga – sanoat korxonolari faoliyatidan hosil bo'ladigan gaz chiqindilari va shuningdek avtomobil, temir yo'l, suv transportlari tomonidan turli yoqilg'ilarning ishlatilishi, zararli moddalarning havoga ko'tarilishi va boshqa shu kabi hodisalar kiradi.

O'zbekistonda atmosfera havosining sifat va miqdoriy tarkibida ham tabiiy va antropogen manba'lar katta ro'l o'ynaydi.

Sanoatda yoqilg'i-energetika, kimyo va neft-kimyo sanoati azot oksidlari chiqindilarining tashlanishida asosiy sababchi bo'lib hisoblanadi.

Yoq'ildan foydalanishning past samaradorligi atmosferaga ortiqcha chiqindi-tashlamalar tashlanishiga olib keladi. Bu mazkur ob'yektlar joylashgan aholi yashash punktlari va shaharlarda (Toshkent, Angren, Navoiy) atmosfera havosining ifloslanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirishga yo'naltirilgan tadbirlardan biri avtomobillar dvigatellarining ishlatilgan gazlari toksikligi va tutun miqdorini davlat nazoratidan o'tkazish hisoblanadi. Respublikalarda avtotransport texnikalarini muqobil yoqilg'i turlariga o'tkazish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda. Hozirgi vaqtda avtotransport vositalarini siqilgan tabiiy gaz va suyultirilgan neft gaziga o'tkazish muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

“Uzavtosanoat” tizimida gaz ballonli uskunalar bilan jihozlangan “Damas” avtobillarini chiqarish rejalashtirilmoqda. Ayni paytda avtomobillarda gaz ballonli uskunalarini o'rnatish bo'yicha bir qator yirik korxonalar bilan hamkorlikdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Atmosferaning gaz va issiqlik aylanishiga o'rmon yonishi va kesilishi, yerning haydalishi, yangi suv omborlarini qurilishi, suv oqimining o'zgarishi, botqoqlikning qurishi jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat muassasalari, TETS, avtotransportlar katta miqdorda organik yonilg'ini yoqadilar, bu esa quyidagi holatlarga olib keladi:

- atmosferada dioksid uglerodi tarkibini oshishiga. Bu jarayon **issiqlik effekti** natijasida havoning isishini keltirib chiqaradi;

- yer sharining issiqlik holatiga ta'sir qiluvchi va atmosferaga tushayotgan freonlar, ftorli, bromli va xlorli birikmalar **azon qatlami**ning buzilishiga.

Iqlimning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi boshqa omillarga quyidagilar kiradi:

- atmosfera va okean orasidagi namlik va issiqlik almashinuvining buzilishiga olib keluvchi okeanning neft mahsulotlari bilan ifloslanishi;

- yog'ingarchilik keltirib chiqarish maqsadida bulutlarga ta'sir ko'rsatishi;

- atmosferaga suv bug'larining chiqishi;

- sug'orish tizimining ta'siri, bug'lanishning ortishi.

Sanoat markazlari yoki yirik shaharlar ustida «**smog**» deb ataluvchi ifloslangan havo qatlami yuzaga keladi. Uni shartli ravishda uch qatlamga bo'lish mumkin:

quyi – bu uylar orasidagi qatlam,

o'rta - 20-30 m balandlikdagi qatlam,

yuqori – asosan sanoat korxonalaridan chiqayotgan tutun va chiqindilardan oziqlanayotgan 50-100 m balandlikdagi qatlam.

Atmosferaga transportlardan chiqayotgan uglevodород gazlari va azot oksidi aralashmalariga quyosh radiatsiyasining ta'siri insonlar salomatligi uchun katta havf tug'diradigan fotosmog (fotooksidantlar)ni yuzaga keltiradi.

Hozirgi paytda ko'p sanoat zonalarida kislorod yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Bunday hollarda fotosintez natijasida o'simliklar, sanoat, transport, odamlar, hayvonlar iste'mol qilayotgan kisloroddan kam miqdorda kislorod ajralib chiqadi, bu esa shu hollarda fotosintez oqibatida kislorodni odamlar, hayvonlar o'simliklar sanoat iste'mol qilish miqdoridan kam chiqarib berayapti. Bu holat aholi orasida o'pka va yurak tomir kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Yer usti, havo, suv transportida quvvatli vositalarning paydo bo'lishi insonlarning doimo yuqori darajadagi shovqinlar ostida bo'lishiga olib keladi. Shaharning umumiy shovqin darajasida transportning solishtirma og'irligi 60-80 % ni tashkil qiladi.

Yuqori darajadagi harorat, shovqin, chang, radiatsiya, elektromagnit maydon bularning hammasi atmosfera havosining ifloslanishiga olib keladi.

Kislotali yomg'irlar - bu havoning sanoatdan ifloslanishi, avtomobillardan va aviatsion dvigatellardan chiqayotgan gazdan havoni ifloslanishi va shuningdek turli yoqilg'ilarning yoqilishi natijasidir.

Azotning hamma oksidlarini taxminan 40%ini issiqlik elektro stantsiyalari keltirib chiqaradi. Bu oksidlar azot va nitratlarga aylanadi, oxirgilari esa suv bilan o'zaro ta'sir qilib azot kislotasini hosil qiladi.

Shuningdek keng tarqalgan havoning ifloslantiruvchilaridan biri ko'mir, neft, mazutni yoqish natijasida hosil bo'ladigan oltingugurt anhidrididir. Kislotali yog'inlar faqat o'simliklar dunyosi uchungina havfli bo'lmasdan, balki odamlar sog'lig'i uchun ham havflidir.

Ozon qatlamining kichrayishi. Stratosfera quyoshning ultra binafsha nurlarini yutadi va yerdagi tirik mavjudotlarni shu nurlarning halokatli ta'siridan saqlaydi. Ozonning atmosferadagi soni katta emas. U vodorod, azot, xlor birikmalari ta'sirida tez buziladi. Iqlim isishining oqibatlari ozon qavatining buzilishini, unda "tuynuk" hosil bo'lishini va ultrabinafsha nurlari oqimini yer sathiga kelishini tezlashtiradi. So'nggi yillar davomida inson faoliyati natijasida tarkibida bu birikmalar bo'lgan moddalarning tushishi keskin ortmoqda.

Chang - bu keng tarqalgan atmosferada ifloslovchilaridan biridir. Chang yer jinslariga shamolning ta'siri, o'rmon yong'inlari, vulqon otilib chiqishi, sanoatdan chiqindilar chiqish jarayonida paydo bo'ladi. Chang odam organizimiga, o'simlik va hayvonot olamiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Binolar, qurilishlar buzilishini tezlashtiradi va bir qator boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Gidrosfera holatining o'zgarishi. Sanoat va uy - joylari qurilishining keskin o'sishi suv yetishmovchiligiga sabab bo'lmoqda, uning sifati pasaymoqda. Suv resurslari kamayishining asosiy sabablari quyidagilardir:

- insonni biosferaga ta'sir qilishi oqibatida suv resurslarining kamayishi;
- suvga bo'lgan talabni keskin o'sishi;
- suv manbalarini katta miqdorda ifloslanishi.

Inson faoliyati ta'sirida suv havzalarining sayozlashuvi, kichik daryolarning yo'q bo'lib ketishi, ko'llarning qurishi, o'rmonlarni kesib tashlash, hayvonlarni rejasiz boqish, cho'llarni to'xtovsiz haydash, melioratsiya tizimlarini o'ylamasdan rivojlantirish natijasida yuz beradi. Suvga bo'lgan extiyoj har yili 6-8% ga ortib bormoqda, bu sanoat korxonalarining o'sib borishi bilan bog'liq. Xo'jalik ishlari uchun suv sarfi ortib bormoqda. Yaqin yillar ichida esa u har bir kishi uchun 400 metr/sutkani tashkil etadi.

Ifloslantiruvchilar biologik, mexanik va kimyoviy bo'lishi mumkin.

Suv shunchalik ifloslanganki, daryo va hovuzlarda ko'p tirik jonzorlar qirilib ketmoqda, ayniqsa baliqlar. Bunday suvlarni tozalamasdan va zararsizlantirmasdan iste'mol qilish mumkin emas. Daryo va ko'llarga, suv havzalariga ishlab chiqarish chiqindilari, maishiy axlatlar, neft maxsulotlari, og'ir temir chiqindilari tashlanmoqda.

Asosiy ifloslantiruvchi-bu kimyoviy korxonalari, neftni qayta ishlash va neft-kimyokorxonalari, qog'oz ishlab chiqarish tarmoqlari, o'simliklarni oziqlantirish maqsadida qo'llanadigan o'g'itlar, qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalarga qarshi kurashda ishlatiladigan kimyoviy moddalardir.

Tankerlarning halokatga uchrashi natijasida dengizlarning keng ko'lamda yonilg'i bilan ifloslanishiga olib kelmoqda.

O'zbekistonda aholini ekologik favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari.

Har bir inson ekologik tarbiyaviy ishlar jarayonida quyidagilarni bilishi zarur:

- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;

- atrof – muhitni iflaslanishdan saqlash;
- tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish.

Mehnat jamoalarida kishilarning ekologik madaniyatini avvaldan sinalgan qadriyatlarimiz asosida rivojlantirib berish maqsadga muvofiq. Bunda tabiat resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish kerak:

- bog' va hiyobondagi daraxt, buta va gullarni ilmiy texnologiyalar asoslarida parvarishlash;
- aholi gavjun bo'lgan joylarda o'rmon maydonlarini tashkil qilish va obodonlashtirilgan istirohat bog'lariga aylantirish.

Nazorat savollari

1. Ekalogit tusdagi favqulodda vaziyatlar to'g'risida tushuncha bering.
2. Ekalogit tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi va tavsifi qanday?
3. Ekalogit tusdagi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari nimada?
4. Aholi va hududni Ekalogit tusdagi favqulodda vaziyatlardan qanday muhofaza qilish mumkin?

5-Mavzu: FAVQULODDA VAZIYATLARDA FUQARO MUHOFAZASI TADBIRLARINI REJALASHTIRISH. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLARDA ULARNING OLDINI OLISH VA HARAKAT QILISH DAVLAT TIZIMI

Reja;

1. Umumiy ma'lumot.
2. Tashkiliy tadbirlar.
3. Texnik tadbirlar.
4. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi.

Umumiy ma'lumot

Xavfsizlik choralari

Elektr xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy va texnik choralar ularning nomidan quyidagi ikki asosiy guruhga bo'linadi:

- Tashkiliy faoliyat. Ularning yordami bilan o'qitish va ish jarayonini tashkil etish;
- Texnik faoliyat. Ular to'g'ridan-to'g'ri ishlarni bajarish paytida xavfsizlikni ta'minlaydi.

Ma'lumki, fuqarolar muhofazasining eng muhim vazifalaridan biri, aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi va «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 7-noyabrdagi 427-sonli «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida»gi qarori asosida respublikamiz aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilgan. Bu huquqiy-me'yoriy hujjatlarning bandlarida va Vazirlar Mahkamasining 427-sonli qarorida ta'kidlanganidek: «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash (shu jumladan, ta'lim muassasalaridagi fuqarolarni harn) majburiydir. Fuqarolarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda, yashash joylarida, ularning yoshlari va ijtimoiy guruhlarga qarab olib boriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi 754-son qarori

Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom aholining barcha qatlamlarini tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarda (keyingi o‘rinlarda favqulodda vaziyatlar deb ataladi) harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

kompleks o‘quv mashqlari — obyektlar rahbarlarini, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari a‘zolarini, ular tarkibiga kirmagan ishchi va xizmatchilarini, ishlab chiqarish faoliyatini to‘xtatmagan holda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi bo‘yicha kompleks tadbirlarni bajarishga tayyorlashning asosiy shakli;

qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlari — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining (keyingi o‘rinlarda FVDT deb ataladi) barcha darajalardagi rahbarlarini va boshqaruv organlarini favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo‘lganda bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilishga hamda fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashning oliy shakli;

maxsus-taktik o‘quv mashqlari — qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalarini qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni bajarishga hamda fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashning asosiy va samarali shakli;

obyekt o‘quv mashg‘ulotlari — obyektlar rahbarlari, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari, shuningdek, tuzilmalar tarkibiga kirmagan ishchi va xizmatchilarga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasi bo‘yicha nazariy tayyorlashning asosiy shakli.

3. Quyidagilar aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari, ishchi va xizmatchilarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi bo‘yicha bilimlarini izchil oshirib borish va ko‘nikmalarini hosil qilish;

qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga tayyorlash;

aholini, shu jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lmaganlarni, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari, o‘rta maxsus, professional va oliy ta‘lim muassasalari talabalarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o‘rgatish.

4. Barcha aholi qatlamlari quyidagi toifalarga bo‘lingan holda favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorgarlikdan o‘tkaziladi:

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lgan aholi, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari, xodimlari, ishchi va xizmatchilari hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari (keyingi o‘rinlarda harbiy xizmatchilar deb ataladi);

maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilari hamda oliy ta‘lim muassasalari talabalari;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar hamda O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar.

5. Aholining barcha toifalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash (keyingi o‘rinlarda aholini tayyorlash deb ataladi) ushbu Nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Aholini tayyorlash tartibi

6. Aholini tayyorlash, toifalar doirasida tashkil etiladigan guruhlar tarkibida, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lgan aholi, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari, xodimlari, ishchi va xizmatchilari hamda harbiy xizmatchilar:

davlat boshqaruvi organlari rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari — FVDTning aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha yillik asosiy tadbirlar rejasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig‘i tomonidan o‘tkaziladigan yig‘inlar va o‘quv mashqlarida;

respublika va viloyat miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va mas‘ul mutaxassislari, shuningdek, tumanlar va shaharlar hokimlari hamda ularning o‘rinbosarlari — 3 yilda bir marta jamlash rejasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutining (keyingi o‘rinlarda Fuqaro muhofazasi instituti deb ataladi) malaka oshirish va qayta tayyorlash o‘quv kurslarida;

tumanlar va shaharlar miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va mas‘ul mutaxassislari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshliqlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rahbarlari — 3 yilda bir marta jamlash rejasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi Boshlang‘ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi), shuningdek, hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalari hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazlarining (keyingi o‘rinlarda hududiy markazlar deb ataladi) malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida;

tashkilotlarning xodimlari, ishchi va xizmatchilari hamda harbiy xizmatchilar — doimiy ravishda tayyorlash dasturlariga muvofiq, xizmat va ishdan ajralmagan holda, xizmat va ish joylarida tashkil etiladigan obyekt o‘quv mashg‘ulotlarida tayyorgarlikdan o‘tkaziladi;

b) maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilari hamda oliy ta‘lim muassasalari talabalari:

maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyalanuvchilari — doimiy ravishda maktabgacha ta‘limning maktabgacha ta‘lim va tarbiya davlat standarti va o‘quv dasturlariga muvofiq ta‘lim-tarbiya jarayonida muammoli-vaziyatli o‘yinlar va mashg‘ulotlarda

umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari — o‘quv yili davomida, umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlariga muvofiq o‘qish jarayonida darslarda, sport o‘yinlari va musobaqalarida, shuningdek, maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari va hududiy markazlarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash majmualaridagi mashg‘ulotlarda;

o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilari va oliy ta‘lim muassasalari talabalari — o‘quv yili davomida, o‘rta maxsus, professional ta‘lim va oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlariga muvofiq o‘qish jarayonida darslarda, sport o‘yinlari va musobaqalarida, shuningdek, hududiy markazlarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash majmualaridagi mashg‘ulotlarda tayyorgarlikdan o‘tkaziladi;

v) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar hamda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar:

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar — fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida o'quv-maslahat punktlarida suhbatlar o'tkazish, ma'ruzalar o'qish, o'quv filmlarini namoyish etish, o'quv mashqlari va mashg'ulotlarga jalb etish, shuningdek, qo'llanmalar va eslatmalarni tarqatish, radio va teledasturlarni efirga uzatish hamda Internet jahon axborot tarmog'ida sohaga oid ma'lumotlarni joylashtirish orqali;

O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlartashrif davomida, ularga xizmat ko'rsatuvchi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha suhbatlar o'tkazish, yo'riqnoma, buklet va eslatmalarni tarqatish orqali tayyorgarlikdan o'tkaziladi.

7. Aholini tayyorlash innovatsion texnologiyalarni, uyg'unlashtirilgan hamda masofadan o'qitish uslublarini, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda, shuningdek, mustaqil o'rganish orqali amalga oshiriladi.

3-bob. Aholini tayyorlash shakllari va davriyligi

8. Aholini tayyorlash, ularning nazariy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash, FVDT kuch va vositalarining hamkorlikda harakat qilishini takomillashtirish, shuningdek, tayyorgarlik darajasini baholash quyidagi shakllardagi tadbirlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi:

Qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida — 5 yilda bir marta uch kecha-kunduzgacha;

tumanlar va shaharlarda — 3 yilda bir marta uch kecha-kunduzgacha;

davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlarda — 1 yilda bir marta bir kecha-kunduzgacha;

qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlarini o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga (keyingi o'rinlarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi deb ataladi) to'g'ridan to'g'ri hamda tezkor bo'ysunadigan kuch va vositalar jalb etilishi mumkin;

Maxsus-taktik o'quv mashqlari:

tashkilotlarda — 3 yilda bir marta olti soatgacha;

o'ta muhim va toifalangan obyektlarda — 1 yilda bir marta olti soatgacha.

Kompleks o'quv mashqlari:

xodimlar soni 200 dan ortiq bo'lgan tashkilotlarda hamda 400 dan ortiq o'ringa ega bo'lgan davolash-profilaktika muassasalarida — 2 yilda bir marta bir kecha-kunduzgacha;

qolgan tashkilotlarda — 2 yilda bir marta olti soatgacha.

O'ta muhim va toifalangan obyektlarda o'tkaziladigan o'quv mashqlariga ushbu obyektlarning xavfi doirasiga tushuvchi hududda yashayotgan aholi jalb etiladi.

“Yosh qutqaruvchi” musobaqalari umumiy o'rta, o'rta-maxsus va professional ta'lim muassasalarida 1 yilda bir marta o'tkaziladi.

O'quv mashqlari, mashg'ulotlar va musobaqalar, shuningdek, boshqa amaliy tadbirlarga jalb qilinayotgan tashkilotlar rahbarlari, mutaxassislari, qutqaruv tuzilmalari shaxsiy tarkibi va aholi xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirilishi zarur.

4-bob. Aholining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'inlar profilaktikasi bo'yicha tayyorgarligini oshirish hamda faol ishtirokini ta'minlash

9. Har haftaning chorshanba kunlari tashkilotlarda va mahallalarda aholining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'inlar profilaktikasi bo'yicha tayyorgarligini oshirish hamda faol ishtirokini ta'minlash tadbirlari o'tkaziladi.

FVDT tarkibidagi vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan ushbu kun davomida quyidagi asosiy tadbirlar keng qamrovda amalga oshiriladi:

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan aholi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari bilan seminarlar va mavzuli o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladi, ularga targ'ibot-tashviqot materiallari tarqatiladi va zarur tadbirlar yuzasidan tavsiyalar beriladi;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholi bilan suhbatlar o'tkaziladi, ma'ruzalar o'qiladi, ularga eslatmalar, bukletlar va lifletlar tarqatiladi, shuningdek, favqulodda vaziyatlar, shu jumladan, yong'inlarga olib keladigan omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish, ular sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish usullari o'rgatiladi;

aholi ko'p to'planadigan joylarda va jamoat transportida favqulodda vaziyatlar, shu jumladan, yong'inlarning oldini olishga qaratilgan plakatlar, shuningdek, ulardagi mavjud tablolar va monitorlarga, Internet saytlariga ijtimoiy roliklar joylashtiriladi;

ommaviy axborot vositalari orqali axborot-tahliliy va mavzuli teleko'rsatuvlar efirga uzatiladi, sohaga oid dolzarb masalalar bo'yicha davra suhbatlari o'tkaziladi, radioeshittirishlar uzatiladi va maqolalar chop etiladi.

5-bob. Favqulodda vaziyatlar vazirligi va mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining aholini tayyorlash sohasidagi vakolatlari

10. Favqulodda vaziyatlar vazirligi aholini tayyorlash sohasida maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi aholini tayyorlash sohasida:

tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshiradi, tadbirlarni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

tashkiliy ko'rsatmalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqadi va kelishadi;

o'quv mashqlari, mashg'ulotlari va boshqa tadbirlarni tashkil etadi va o'tkazadi;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qiladi va keng foydalanilishini tashkil etadi;

tizimidagi aholini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan muassasalarning tinglovchilar bilan jamlash rejalarini tegishli davr uchun shakllantiradi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'iga kiritadi.

11. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari aholini tayyorlash sohasida:

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholini, shu jumladan jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni, shuningdek, tizimidagi tashkilotlarning rahbarlari ishchi va xizmatchilarini tayyorlash tadbirlarini tashkil etadi va nazorat qiladi;

o'quv-amaliy tadbirlarni tashkil etadi va o'tkazadi, ularga mahalliy aholi jalb etilishini ta'minlaydi;

o'quv-metodik va targ'ibot materiallari chop etilishini hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholiga tarqatilishini tashkil etadi;

mahalliy aholini favqulodda vaziyatlar xavfi to'g'risidagi tegishli axborot va ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

6-bob. Davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlarning aholini tayyorlash sohasida majburiyatlari

12. Davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar aholini tayyorlash sohasida: rahbarlar, mas'ul mutaxassislar, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshliqlari belgilangan tartibda tayyorgarlikdan o'tishini ta'minlaydi;

o'quv mashqlari va mashg'ulotlarga jalb etilgan rahbarlar, mas'ul mutaxassislar, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari a'zolari, xodimlar, ishchi va xizmatchilarning o'rtacha ish haqi saqlanishini ta'minlaydi;

belgilangan dasturlar asosida qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari a'zolari, xodimlari, ishchi va xizmatchilarini o'qitadi hamda favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga shay bo'lish darajasidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi;

o'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy o'quv-moddiy baza (o'quv xonasi, zarur ko'rgazmali o'quv qurollari va darsliklar) bilan ta'minlaydi;

qayta tayyorgarlik va malaka oshirish o'quv kurslarida tayyorgarlikdan o'tishi lozim bo'lgan rahbarlar, mas'ul mutaxassislar, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshliqlari ro'yxatini Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etadi.

7-bob. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining aholini tayyorlash sohasidagi ishtiroki

13. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aholini tayyorlash sohasida:

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar bilan suhbatlar, ma'ruzalar va uchrashuvlarni tashkil etadi va o'tkazadi;

FVDT xizmatlari tomonidan tayyorlangan eslatmalar, metodik qo'llanmalar va boshqa targ'ibot materiallarini tarqatadi;

o'quv mashqlari va mashg'ulotlarga mahalliy aholini jalb qiladi.

8-bob. Fuqarolarning aholini tayyorlash sohasida huquq va majburiyatlari

14. Fuqarolar aholini tayyorlash sohasida quyidagi huquqlarga ega:

jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan, tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish uchun mo'ljallangan boshqa mol-mulkidan foydalanishni o'rganish;

fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarishda ishtirok etish va tegishli tayyorgarlikdan o'tish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, fuqaro muhofazasi sohasida bilim olish hamda o'quv mashqlarida ishtirok etish;

o'quv mashqlari va mashg'ulotlar davomida o'zlari duch kelishi mumkin bo'lgan xavf to'g'risida xabardor qilinish hamda texnika, yong'in va yo'l harakati xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomalar olish;

o'quv mashqlari va mashg'ulotlarda ishtiroki jarayonida sog'lig'iga yetkazilgan zararni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplatish.

15. Fuqarolar aholini tayyorlash sohasida:

muhofazalanishning asosiy usullarini bilish, favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsata olish hamda o'z bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirib borishga;

favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda ogohlantirish signallarini, harakat qilish tartibini, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari bilishga majbur.

Fuqarolar aholini tayyorlash sohasida qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9-bob. Aholini tayyorlash tadbirlarini moliyalashtirish

16. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlarining rahbarlari, mas'ul mutaxassislari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari, ular tarkibiga kirmagan xodim va xizmatchilarni hamda harbiy

xizmatchilarni tayyorlash, shuningdek, ular tomonidan o'tkaziladigan o'quv mashqlari va mashg'ulotlarni moliyalashtirish, ushbu tashkilotlarning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

17. Nodavlat tashkilotlar rahbarlari, mas'ul mutaxassislari, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari, ular tarkibiga kirmagan ishchi va xizmatchilarni tayyorlashni moliyalashtirish ularning o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

18. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni tayyorlashni moliyalashtirish mahalliy budjetlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

19. Fuqaro muhofazasi instituti, Markaz hamda hududiy markazlarda shartnoma asosida aholini tayyorlash narxlarini (preyskuranti) Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

10-bob. Yakunlovchi qoida

20. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradilar.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son qarori

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining (keyingi o'rinlarda — FVDT) tarkibini, asosiy maqsadi va vazifalarini, tashkiliy-funksional tuzilmasini hamda faoliyat ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2. FVDTning tarkibi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlarga ega bo'lgan yoki ushbu sohada majburiyatlar yuklangan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning tarkibiy bo'linmalari, kuchlari va vositalaridan iborat.

3. FVDT tarkibiga kiruvchi respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig'i, favqulodda vaziyatlar vazirining buyruqlari, ko'rsatmalari va ushbu Nizom asosida olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar (keyingi o'rinlarda — favqulodda vaziyatlar) — muayyan hududda odamlar qurbon bo'lishiga, odamlarning sog'lig'iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish — favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'ligini saqlashga, atrof tabiiy

muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar ta‘sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar majmui;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish — aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar majmui, vositalar hamda usullar tizimi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish — oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda esa — odamlarning hayotini asrab qolishga va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui;

FVDTning funksional quyi tizimi — aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlarni o‘z ichiga olgan quyi tizim;

FVDTning hududiy quyi tizimi — tegishli hududda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini o‘z ichiga olgan quyi tizim;

fuqaro muhofazasi — harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O‘zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlar davlat tizimi.

2-bob. FVDTning asosiy maqsadi va vazifalari

5. FVDTning asosiy maqsadi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlarga ega bo‘lgan yoki ushbu sohada majburiyatlar yuklangan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tinchlik va alohida davrda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlari samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta‘minlashdan iborat.

6. Quyidagilar FVDTning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tinchlik va alohida davrda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ijrosini ta‘minlash;

respublika hududida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish yuzasidan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni hamda tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, shuningdek, ushbu soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish;

FVDTning barcha darajadagi boshqaruv organlari va favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan kuchlar va vositalarning doimiy tayyorligini ta‘minlash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, almashish, axborot tayyorlash va berish;

aholini, FVDT boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;

xorijiy davlatlar hududida ro'y bergan favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko'rsatish, shuningdek ularni va halok bo'lganlarni evakuatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida fuqarolarning, shu jumladan, ularni bartaraf etishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini ta'minlash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish;

ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardan sug'urta qilishning maqbul tizimini ta'minlash.

3-bob. FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi

7. FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi mazkur Nizomga ilovaga muvofiq belgilanadi.

8. FVDT hududiy va funksional quyi tizimlari hamda axborot-boshqaruv tuzilmasidan iborat bo'lib, respublika, mahalliy va obyekt darajalariga ega.

9. FVDTning har bir darajasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

FVDT boshqaruv organlari;

FVDT tezkor-boshqaruv organlari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari;

favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari.

10. FVDTning hududiy quyi tizimlari o'z ma'muriy hududlari doirasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil etiladi hamda tegishli tumanlar va shaharlar miqyosidagi bo'g'inlardan iborat bo'ladi.

FVDT hududiy quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuchlari va vositalari tarkibi, faoliyat ko'rsatish tartibi mazkur Nizom, mahalliy geofizik va tabiiy-iqlim sharoitlarini, xavf darajasi yuqori obyektlarning mavjudligini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan ushbu quyi tizimlar to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanadi.

Hududiy quyi tizimlar to'g'risidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o'rinlarda — FVV) bilan kelishgan holda tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan, shuningdek, mos ravishda hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarma (bo'lim)lari bilan kelishgan holda tuman (shahar)lar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

11. FVDTning funksional quyi tizimlari respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajarish, shuningdek, idoraviy mansub obyektlarda ularning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun tashkil etiladi hamda FVDT xizmatlaridan, quyi tizimlarning davlat nazorati organlari, kuchlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

FVDT funksional quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuchlari va vositalari tarkibi, faoliyat ko'rsatish tartibi mazkur Nizom, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha funksiyalari, xavf darajasi yuqori bo'lgan idoraviy mansub obyektlardagi ishlab

chiqarish texnologiyalarining xususiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan ushbu quyi tizimlar to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanadi hamda FVV bilan kelishgan holda tegishli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tasdiqlanuvchi ixtisoslashgan xizmatlar va avariya-qutqaruv tuzilmalari to'g'risidagi nizomlar bundan mustasno.

12. FVDTning axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

FVVning Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi;

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining axborot-tahlil markazlari;

atrof tabiiy muhit va xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar holatini kuzatish va nazorat qilish organlarining axborot markazlari;

turg'un (statsionar) boshqaruv punktlari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalarini boshqarishning harakatdagi punktlari;

FVDTning hududiy va funksional quyi tizimlarining navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

aloqa va axborot uzatish vositalari, shu jumladan, boshqarish va axborot bilan ta'minlashning avtomatlashtirilgan tizimi.

Axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

FVDTning hududiy va funksional quyi tizimlarining ixtisoslashgan hamda laboratoriya nazorati va kuzatuv tizimidagi bo'linmalaridan olingan seysmologik, geologik, gidrometeorologik xavfli hodisalar, quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi, atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari hamda gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar, sanoat va transportdagi avariya va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, epifitotiyalar, radioaktiv, kimyoviy va biologik (bakteriologik) holat to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash (tahlil qilish va saqlash);

FVDTning boshqaruv organlari, kundalik boshqaruv organlari, kuchlari hamda aholini favqulodda vaziyatlar xavfi yoki ro'y berganligi, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi holatlari, xususiyatlari, rivojlanish ko'lamlari va kechishi, yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi to'g'risida xabardor qilish va ma'lumot (axborot) berish;

FVDT quyi tizimlari va bo'g'inlari, boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlar o'rtasida o'zaro axborot va ma'lumot almashinuvini ta'minlash.

Favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborotlarning mezonlari, mazmuni va turlari, ularni FVDT quyi tizimlari va bo'g'inlariga, shuningdek, aholiga yetkazish muddatlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan davlat boshqaruvi organlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xo'jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar o'rtasida favqulodda vaziyatlar masalalari bo'yicha kundalik hamkorlik qilish va xabar berish yo'riqnomasi asosida amalga oshiriladi.

13. FVDT boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

respublika darajasida — FVV markaziy apparati, FVDT tarkibiga kiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar markaziy (boshqaruv) apparatlarining vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni hal etish kiradigan bo'linmalaridan;

mahalliy darajada — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, tumanlar va shaharlar favqulodda vaziyatlar bo'limlari, tashkilotlarning vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni hal etish kiradigan bo'linmalaridan;

obyekt darajasida — obyektlar ma'muriyati hamda ularning vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni bajarish kiradigan tarkibiy bo'linmalari (xizmatlari, shubalari yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslari).

FVDT, uning quyi tizimlari va bo'g'inlarining faoliyatini tashkil etish, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha ularga belgilangan vazifalar o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash tegishli FVDT boshqaruv organlariga yuklanadi.

14. FVDT tezkor-boshqaruv organlari — FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari hamda ularning bo'g'inlaridagi tezkor boshqaruvni amalga oshiruvchi bo'linmalardir, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

respublika darajasida — FVVning Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi, FVDT tarkibiga kiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar markaziy (boshqaruv) apparatlarining navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

mahalliy darajada — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining tezkor-boshqaruv markazlari, shaharlar va tumanlar favqulodda vaziyatlar bo'limlarining tezkor-boshqaruv guruhlarini, tashkilotlarning navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

obyektlar darajasida — obyektlarning navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

tegishli ravishda har bir darajadagi FVDT boshqaruv organlarining favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuchlari hamda vositalarini boshqarish statsionar va harakatdagi punktlari.

FVDT tezkor-boshqaruv organlari tegishli boshqaruv organining doimiy joylashuv punktlarida, favqulodda vaziyatlar ro'y berganda esa — favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuchlari va vositalarini boshqarish statsionar va harakatdagi punktlarida tashkil etiladi. Ular oldindan tegishli xabar berish, aloqa, axborotni qayta ishlash va uzatishning tegishli texnik vositalari bilan jihozlanadi hamda o'zlariga yuklangan vazifalarni bajarishga doimiy tayyor holatda saqlanadi.

Tezkor-boshqaruv organlari favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida ogohlantirish ma'lumotlarini hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha tavsiyalarining FVDT boshqaruv organlariga tezkor taqdim etilishini ta'minlaydi.

15. Quyidagilar respublika darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlar sharoitlarida iqtisodiyot tarmoqlari hamda o'ta muhim va xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar faoliyati barqarorligini oshirishga qaratilgan va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini imkon qadar kamaytiruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga rahbarlik qilish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida respublika maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarini ishlab chiqishni tashkil etish va bajarilishini ta'minlash;

aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimini budjet mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan yaratish va uni doimiy tayyor holatda saqlash;

boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar, hududiy tarmoqlardan va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlaridan, radio, televideniye va boshqa texnik vositalardan markazlashtirilgan holda foydalanishni ta'minlash;

kimyoviy, yonish, portlash va boshqa xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlarda, shu jumladan, suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida ularning texnik holatini avtomatik kuzatish, yong'in va boshqa xavflardan darak beruvchi tizimlarni, shuningdek, ushbu obyektlarda va ularga

yondosh hududlarda aholiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimlarini loyihalashtirish va yaratishni nazorat qilish;

favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognoz qilish yagona tizimida tegishli vazifalarni bajarish;

FVDT boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, FVDT kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligini ta'minlash;

ro'y bergan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlari hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga oid qabul qilinayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlarning to'planishini va almashinishini hamda yetkazilishini ta'minlash va nazorat qilish;

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni, shu jumladan, zarar ko'rgan aholining hayot sharoitlarini ta'minlash ishlarini, evakuatsiya ishlarini amalga oshirishga oid tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilinadigan FVDT funksional quyi tizimlari kuchlari va vositalarining o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish va ishlarini tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun respublika (idoraviy) moliyaviy va moddiy resurslar zaxirasini, shuningdek, FVDTning maxsus sug'urta jamg'armasini tashkil etishga va undan foydalanishga rahbarlik qilish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etish;

idoraviy mansub obyektlarning rahbarlari tarkibi va kuchlari, shuningdek, xodimlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishini va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashni muvofiqlashtirish;

ishlab chiqarish va texnologiyalar xavfsizligi, shuningdek, xodimlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning tarmoq normalari va qoidalarini ishlab chiqishda qatnashish.

16. Quyidagilar mahalliy darajadagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlar sharoitlarida xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlarning barqaror ishlash imkoniyatini oshirishga doir tashkiliy va muhandislik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha hududiy (viloyat) maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimining mahalliy darajasini tashkil etish va doimiy tayyor holatda saqlash;

boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar hududiy tarmoqlaridan va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlaridan, radio, televideniye va boshqa texnik vositalardan markazlashtirilgan holda foydalanilishini ta'minlash;

FVDTning manfaatdor funksional quyi tizimlari bilan birgalikda kimyoviy, yonish, portlash va boshqa xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlarda, shu jumladan, suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida ularning texnik holatini avtomatik kuzatish, yong'in va boshqa xavflardan darak beruvchi tizimlarni, shuningdek, ushbu obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimining lokal darajasini yaratish va ularning doimiy shayligini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarga olib keluvchi xavfli tabiiy, texnogen va ekologik jarayonlarning rivojlanish ehtimolini, xususiyatlari hamda ko‘lamini, shuningdek, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish;

FVDT boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha harakatlarga kuchlar va vositalarning doimiy tayyorligini ta‘minlash;

ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini, ularni bartaraf etishga doir ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash, almashish va ular to‘g‘risida o‘z vaqtida xabar qilish;

FVDT hududiy quyi tizimlari kuchlari va vositalarining, shuningdek, ko‘ngilli tuzilmalar, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining favqulodda vaziyatlar chog‘ida qutqaruv ishlarini va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirishga rahbarlik qilish va harakatlarining uyg‘unligini ta‘minlash, volontyorlar hamda mehnatga layoqatli aholini ushbu ishlarga jalb qilishni tashkil etish;

aholini evakuatsiya qilish (vaqtincha olib chiqish)ni, evakuatsiya qilingan aholini joylashtirishni, yashash sharoitini ta‘minlashni va favqulodda vaziyatlar bartaraf etilgach ularning doimiy yashash joylariga qaytishini rejalashtirish va amalga oshirish;

xavfli zonalaridagi aholi punktlarida va xo‘jaliklarda yashovchilarni xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko‘chirish hamda ularning yashash sharoitini har tomonlama ta‘minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarni yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni qayta tiklashni ta‘minlash;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini moliyalashtirish;

FVDT xizmatlari va tuzilmalarini, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruv xizmatlarini belgilangan tartibda tashkil etish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

fuqarolarni, ularning uy-joyi va mol-mulkini maqsadli sug‘urta qilishni tashkil etish hamda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan sug‘urtalangan himoyasi samaradorligini ta‘minlash uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va sug‘urta tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

aholini, FVDT boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, kuchlar va vositalarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashga rahbarlik qilish.

17. Quyidagilar obyektlar darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, obyektlarning barqaror ishlashi imkoniyatini oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish;

texnogen avariya va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillarni barvaqt aniqlash, ular ro‘y berganda oqibatlarini prognoz qilish hamda ularni bartaraf etish tadbirlarini rejalashtirish maqsadida avtomatik kuzatish, yong‘in va boshqa xavflardan darak beruvchi va nazorat tizimlarini keng joriy etish, kunlik monitoring va kuzatuv ishlarini nazorat qilish;

obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholiga xabar berish va ma‘lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining lokal va obyekt darajalarini yaratish ishlarini tashkil etish;

FVDT boshqaruv organlarining, obyektlar kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligini ta‘minlash;

axborot to'plashni ta'minlash va nazorat qilish, yuzaga kelgan favqulodda vaziyat, uning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatni bartaraf etish uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar va zarur yordam to'g'risida yuqori organlarga ma'lumot berish;

qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalarini belgilangan tartibda tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlari bajarilishini, obyektning zarar ko'rgan xodimlarini va obyekt yaqinida yashaydigan aholini evakuatsiya qilish va hayot sharoitlarini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni qayta tiklashni ta'minlash;

xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar uchun texnik hujjatlar nusxalarini yaratish va saqlash ishlarini tashkil etish;

obyektlarning xavfsizligini pasportlashtirish va deklaratsiyalash, tabiiy va texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar chegaralarini belgilash.

18. FVDTning kuchlari va vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

fuqaro muhofazasi qo'shinlari;

FVVga to'g'ridan to'g'ri hamda tezkor bo'ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning professional ixtisoslashtirilgan bo'linmalari va tuzilmalari, respublika, mahalliy va obyektlar darajasida FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining xizmatlari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari.

FVDT kuchlari va vositalari belgilangan vazifalarni O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining ko'ngillilar otryadlari (komandalari, guruhlari), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi "Mahalla fuqaro muhofazasi" yig'ma guruhlari, "Vatanparvar" mudofaaga ko'maklashuvchi tashkiloti bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

19. Fuqaro muhofazasi qo'shinlari FVVga bo'ysunadi hamda o'z tezkor yo'nalishlariga muvofiq alohida davrda respublikaning muhim mudofaa va sanoat obyektlarida favqulodda vaziyatlarni tugatishga doir ishlarni olib boradi.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlari yirik ko'lamdagi ishlab chiqarish avariylari, halokatlar, tabiiy ofatlar sharoitida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish va maxsus priborlar, texnikalar, asbob-uskunalar va tayyorlangan mutaxassislarni talab etuvchi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondonining farmoyishiga asosan jalb etilishi mumkin.

20. FVVga to'g'ridan to'g'ri bo'ysunuvchi qutqaruv tuzilmalari malakali mutaxassislar bilan butlangan va maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqarish vositalari bilan jihozlangan, qutqaruv ishlarini avtonom rejimda kamida 72 soat ichida amalga oshirishga mo'ljallangan, doimiy shay holatdagi qutqaruv tuzilmalarini o'z ichiga oladi.

21. FVVga tezkor bo'ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Maxsus avariya-tiklash boshqarmasini, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazini va uning filiallarini, O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasining qidiruv-qutqaruv havo kemalarini, qidiruv va avariya-qutqaruv xizmatlari va tuzilmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda hududiy transport boshqarmalari tomonidan jalb qilinadigan

avtotransport vositalari va tashkil etiladigan avtosanitar kolonnalari, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni tugatishga, FVDT kuchlari harakati va tadbirlarini ta'minlashga mo'ljallangan FVDT funksional quyi tizimlarining boshqa tarkibiy bo'linmalarini o'z ichiga oladi.

Tezkor bo'ysunadigan tuzilmalarning vazifalari, tayyorlanish muddatlari, ularni jalb etish tartibi ushbu tuzilmalarning FVV bilan kelishilgan harakat rejalarida hamda FVDT tegishli funksional quyi tizimlari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilanadi.

22. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning harbiylashtirilgan va professional avariya-qutqaruv, avariya-tiklash va boshqa ixtisoslashtirilgan bo'linmalari idoraviy mansub obyektlarda ishlab chiqarish-texnologiya avariylari va halokatlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, shuningdek, epidemiyalar, epizootiyalar va epifitotiyalar yuzaga kelganda maxsus vazifalarni hal etish uchun mo'ljallangan.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning yong'in, kon, gaz-qutqaruv, qurilish, qurilish-montaj, tibbiyot va boshqa ixtisoslashtirilgan bo'linmalari va tashkilotlari negizida favqulodda vaziyatlarning tarqalishini cheklash hamda ularning oqibatlarini tugatish bo'yicha birinchi navbatdagi ishlar uchun doimiy tayyorgarlikdagi idoraviy tuzilmalar tuzilishi mumkin.

Doimiy tayyorgarlikdagi idoraviy tuzilmalar idoradan tashqari avariya obyektlaridagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga amaldagi xarajatlar qoplangan holda shartnoma asosida jalb etiladi.

23. Hududiy quyi tizimlar va ularning bo'g'inlarida aholini va hududlarni ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yirik texnogen avariylalar, halokatlar va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishga doir vazifalarni bajarish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, shaharlar va tumanlar hokimlarining qarorlari bilan geofizik, tabiiy-iqlim va boshqa mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, qurilish, qurilish-montaj, avtokorxonalar va boshqa tashkilotlar negizida mahalliy davlat organlarining umumiy va maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan hududiy tuzilmalari tashkil etiladi.

24. Xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlarda ushbu obyektlar rahbarlarining qarorlari bilan mavjud ixtisoslashtirilgan xizmatlar va bo'linmalar (qurilish, kimyo, tibbiy va boshqalar) negizida bevosita obyektlarda kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun shtatdan tashqari ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etiladi.

25. Yirik ko'lamli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, tezkor qutqaruv ishlarini bajarish hamda zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiyaning Radiatsion, kimyoviy, biologik muhofaza hamda maxsus avariya-tiklash boshqarmasi, muhandislik-sapyor va boshqa harbiy bo'linmalari, harbiy-transport aviatsiyasi hamda harbiy-tibbiy xizmat muassasalari jalb etilishi mumkin.

4-bob. FVDTning faoliyat ko'rsatishi tartibi

26. Prognoz qilingan yoki ro'y bergan favqulodda vaziyatning ko'lami va holatiga qarab FVDT muayyan hududda quyidagi rejimlardan birida faoliyat yuritadi:

kundalik rejim — muayyan hududda, obyektda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi mavjud bo'lmaganda;

yuqori tayyorgarlik rejimi — favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi mavjud bo'lganda;

favqulodda vaziyat rejimi — favqulodda vaziyatlar ro'y berganda va favqulodda vaziyatlar davrida.

FVDT faoliyatining yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlari ro'y bergan favqulodda vaziyatning turiga qarab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining, shuningdek tegishli obyektlar rahbarlarining qarorlari bilan joriy etiladi.

FVDT faoliyatining yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlarini joriy etish bo'yicha qarorda:

tegishli faoliyat rejimini joriy etish uchun asos bo'lgan holat;

favqulodda vaziyat ro'y berishi mumkin bo'lgan hudud chegaralari yoki favqulodda vaziyat hududining chegaralari;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish uchun jalb etiladigan kuchlar va vositalar;

favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni yoki ro'y bergan favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish hamda aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha choralar;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun mas'ul mansabdor shaxslar yoki favqulodda vaziyatni bartaraf etish tadbirlarining rahbari belgilanadi.

Favqulodda vaziyat rejimini joriy etishda favqulodda vaziyatlar turlari, shuningdek, aholining hayot faoliyati xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa omillar hamda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun qo'shimcha talab etiladigan chora-tadbirlardan kelib chiqib, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishning quyidagi darajalaridan biri amalga kiritiladi:

a) obyekt darajasida bartaraf etish;

b) mahalliy darajada bartaraf etish;

v) respublika va transchegaraviy darajada bartaraf etish.

27. Quyidagilar FVDT faoliyat ko'rsatish rejimlarida amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar hisoblanadi:

a) kundalik faoliyat rejimida:

atrof tabiiy muhitning holati, xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlardagi va ularga tutash hududlardagi vaziyat ustidan nazorat qilish hamda kuzatish, ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotni to'plash, tahlil qilish va almashish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha maqsadli va ilmiy-texnik dasturlar hamda tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga doir tadbirlarni rejalashtirish;

aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o'rgatish;

aholiga xabar berishning va uni xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimi shayligini ta'minlash hamda nazorat qilish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish hamda ularning o'rnini to'ldirib borish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

sug'urtaning maqsadli turlarini amalga oshirish;

b) yuqori tayyorgarlik rejimida:

favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi to'g'risida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarga xabar berish, shuningdek, aholini xabardor qilish;

atrof tabiiy muhitning holati, xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlardagi va ularga tutash hududlardagi vaziyat ustidan monitoringni kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarning ro'y berishi ehtimolini, ko'lamlari hamda oqibatlarini prognoz qilish;

favqulodda vaziyatlar ro'y berishi mumkin bo'lgan hududlarda ularning ro'y berishi xavfini baholash uchun tezkor guruhlarni tashkil etish, tahdid soluvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tezkor tadbirlarni va, zarur bo'lganda, aholini xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilishni amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlar sharoitlarida aholini va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, shuningdek, turar joy binolarining, hayot ta'minoti tizimlarining, obyektlar hamda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash choralarini ko'rish;

FVDT tarkibiga kiradigan davlat organlari va tashkilotlar rahbarlarining kecha-kunduz navbatchiligini tashkil etish;

FVDTga tarkibiga kiradigan davlat organlari va tashkilotlarning tezkor boshqaruv bo'linmalari o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish;

FVDT kuchlari va vositalarini shay holatga keltirish, faoliyatni yuqori tayyorgarlik rejimiga o'tkazish, ularning harakatlari rejalarini aniqlashtirish hamda zarur bo'lganda, ularni favqulodda vaziyatlar ro'y berishi mumkinligi taxmin qilinayotgan hududga yo'naltirish;

v) favqulodda vaziyat rejimida:

favqulodda vaziyatlar ro'y berganligi haqida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarga xabar berish, shuningdek, aholini xabardor qilish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir rejalarini amalga kiritish;

aholining, moddiy va madaniy qimmatliklarning xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilinishini tashkil etish;

favqulodda vaziyat zonasining chegaralarini belgilash, o'rab olish (to'sib qo'yish), unga kirish-chiqish rejimini va unda harakatlanish rejimini belgilash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlarni jalb etish, mazkur tuzilmalar tomonidan favqulodda vaziyatlarning kengayishiga yo'l qo'ymaslikka va ularning birlamchi sabablarini bartaraf etishga doir ishlarni, qutqaruv ishlarini hamda kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish;

iqtisodiyot obyektlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini, shuningdek, jabrlangan aholining hayot faoliyati sharoitlarini ta'minlash ishlarini tashkil etish;

favqulodda vaziyatlar zonalarida atrof tabiiy muhitning holati, avariya obyektlaridagi va ularga tutash hududlardagi vaziyat yuzasidan monitoring olib borish;

evakuatsiya qilingan aholini vaqtinchalik joylashtirish va uning hayot faoliyatini ta'minlash, tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish hamda aholining vaqtincha bandligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish;

favqulodda vaziyatlar zonalarida epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyena tadbirlarini bajarish;

birinchi navbatda infratuzilma obyektlarini tiklash, ijtimoiy ahamiyatga molik obyektlarning faoliyatini yo'lga qo'yish;

jabrlangan aholiga moddiy yordam ko'rsatish, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

28. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun quyidagi mablag'lardan foydalaniladi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi va davlat zaxirasining moddiy resurslari zaxirasi — O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan;

idoraviy moliyaviy va moddiy resurslarning zaxirasi — FVDT funksional quyi tizimlarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi — Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag'lari hisobidan;

obyektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi — tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy donorlarning muruvvat yordami.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish uchun birinchi navbatda zarur bo'lgan tovarlar omborlari va zaxiralari tizimlaridan uning roziligi bilan foydalanish mumkin.

29. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari FVVning harbiy, ixtisoslashtirilgan yong'in-qutqaruv bo'linmalari, FVDT tarkibiga kiruvchi davlat organlari va tashkilotlarning tegishli tuzilmalari hamda bo'linmalarining kuchlari va vositalari bilan amalga oshiriladi.

30. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga doir ishlarga rahbarlik qilish:

lokal favqulodda vaziyatlarda — hududida favqulodda vaziyat ro'y bergan tashkilotning rahbari belgilagan mas'ul xodim tomonidan;

mahalliy miqyosdagi favqulodda vaziyatlarda — maxsus vakolatli davlat organi hududiy bo'linmasining rahbari yoki ro'y bergan favqulodda vaziyatning xususiyatiga qarab, tegishli sohadagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hududiy bo'linmasi rahbari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar, Toshkent shahar, shuningdek, tumanlar, shaharlar hokimlarining qaroriga asosan;

republika miqyosidagi va transchegaraviy favqulodda vaziyatlarda — maxsus vakolatli davlat organining rahbari yoki ro'y bergan favqulodda vaziyatning xususiyatiga qarab, tegishli sohadagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

31. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun resurslar yetarli bo'lmagan taqdirda, ular obyekt ma'muriyati, FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari rahbarlarining iltimosnomasiga binoan FVDTning respublika darajasidagi boshqaruv organlari zaxiralaridan ajratilishi mumkin.

32. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha dasturlarni moliyalashtirish, tarmoqlar va obyektlarning barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash har bir darajada tegishli budjetlar, FVDTning funksional va hududiy quyi tizimlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash favqulodda vaziyatlar zonalarida joylashgan obyektlarning mablag'lari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) mahalliy budjetlari hamda FVDTning funksional va hududiy quyi tizimlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan mablag'lar mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasidan mablag'lar ajratiladi.

33. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular yuzaga kelganda ziyon va zararlar miqdorini kamaytirish bo'yicha oldindan choralar ko'rish maqsadida respublika va idoraviy harakat qilish rejalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va obyektlarning harakat qilish rejalari, shuningdek, FVDTning barcha darajalarida o'zaro hamkorlikda harakat qilish rejalari ishga solinadi.

34. FVDT harakatlarini rejalashtirishga tashkiliy-metodik rahbarlik qilishni FVV amalga oshiradi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

35. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining funksional quyi tizimi doirasidagi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha

FUNKSIYALARI

1-bob. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining funksiyalari

1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o'rinlarda — FVDT) faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirish va davlat nazoratini amalga oshirish.

2. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilishga doir ishlarni muvofiqlashtirish va FVDT tarkibidagi tashkilotlarning samarali hamkorligini tashkil etish.

3. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognoz qilishning yagona tizimini boshqarish va nazoratini olib borish.

4. Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tashkil etish va amalga oshirish.

5. FVDT boshqaruv organlari va aholini seysmik jarayonlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash.

6. Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning rahbarlarini, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun jalb etiladigan kuchlarni favqulodda vaziyatlar sharoitlarida harakat qilishga tayyorlashni tashkil etish.

7. FVDT funksional quyi tizimining:

Yong'in xavfsizligini ta'minlash xizmatini;

Seysmik xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

2-bob. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining funksiyalari

8. Tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda qatnashish.

9. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish chog'ida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish.

10. Favqulodda vaziyatlar zonalarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, obyektlar, hududlar, moddiy va madaniy qimmatliklarning qo'riqlanishini hamda muhofaza qilinishini ta'minlash.

11. FVDT funksional quyi tizimining Qo'riqlash xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

3-bob. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining funksiyalari

12. Favqulodda vaziyat zonasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibi va yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish.

13. Aholini xabardor qilish, hududdagi zarur uchastkalarini o‘rab olish (to‘sib qo‘yish) bo‘yicha choralar ko‘rish, qarovsiz qolgan mol-mulkni qo‘riqlashni ta‘minlash.

14. Sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda favqulodda vaziyatlarda halok bo‘lgan odamlarning hisobini yuritish.

15. FVDT funksional quyi tizimining:

Jamoat tartibini saqlash xizmatini;

Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

4-bob. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining funksiyalari

16. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi obyektlari joylashgan mintaqalardagi radiatsiyaviy, kimyoviy va bakteriologik vaziyatning nazorat qilinishini ta‘minlash.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti — Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining avariya-qutqaruv xizmati kuchlari va vositalarini, muhandislik-sapyor bo‘linmalarini, radiatsion, kimyoviy, biologik muhofaza hamda maxsus avariya-tiklash boshqarmasi maxsus texnika va moddiy resurslarini favqulodda vaziyatlar mintaqalariga yetkazishda harbiy-transport aviatsiyasining qatnashishini ta‘minlash.

18. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o‘rinlarda — FVV) bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun idoraviy mansub obyektlarda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfi to‘g‘risida axborot almashinuvini amalga oshirish.

5-bob. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligining funksiyasi

19. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va FVVning buyurtmalariga muvofiq xorijiy tovar ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilardan buyurtmachining mablag‘lari hisobiga favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni tugatish uchun maxsus texnika, asbob-uskuna va materiallar xarid qilishni amalga oshirish.

6-bob. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining funksiyalari

20. Favqulodda vaziyatlarning xususiyatini hisobga olib zarar ko‘rgan aholiga tezkor tibbiy xizmat ko‘rsatish usullarini ishlab chiqish, joriy etish va takomillashtirish, zarar ko‘rganlarga tezkor tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash.

21. Favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, shuningdek, favqulodda vaziyat zonasiga dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika tezkor yetkazib berilishini ta‘minlash.

22. Zarar ko‘rgan va transportda tashish mumkin bo‘lmagan kasallarni hisobga olish va ularning favqulodda vaziyatlar zonalaridan evakuatsiya qilinishiga doir ishlarni muvofiqlashtirish.

23. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi vositalar zaxiralarini yaratish hamda ularni zarur darajada saqlashni ta‘minlash.

24. Aholini favqulodda vaziyatlar sharoitida dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatishga o‘qitish va tayyorlashning metodik asoslarini ishlab chiqish.

25. Xorijiy davlatlar hududida ro‘y bergan yoki transchegaraviy favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlanganlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga evakuatsiya qilish tadbirlarining tibbiy ta‘minotini amalga oshirish.

26. Tashish mumkin bo'lgan jabrlanganlarga chet elda tibbiy yordam berish tadbirlarini amalga oshirishda xorijiy davlatning tegishli tibbiyot muassasalariga ko'maklashish.

27. Xorijiy davlatlar hududida favqulodda vaziyatlarda halok bo'lganlar va jabrlanganlarning ro'yxatini yuritish.

28. Xorijiy davlatlar hududida yoki transchegaraviy favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga malakali va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni, shuningdek, ularning tibbiy reabilitatsiyasini ta'minlash.

29. Respublika hududida favqulodda vaziyatlarda jarohatlangan va halok bo'lgan chet el fuqarolari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar berish.

30. Obyektlarning sandrujina (postlari) soni, tarkibi va moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlanish me'yorlarini O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati bilan hamkorlikda ishlab chiqish.

31. O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati bilan birgalikda sanitariya drujinalari va postlarini dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishga tayyorlash.

32. Respublika hududidagi sanitariya-epidemiya oid ahvolni kuzatish, nazorat qilish va prognoz qilishni ta'minlash.

33. Sanitariya-epidemiologiya sohasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, respublika hududidagi yuqumli kasalliklar tabiiy o'choqlari ustidan epidemiologik monitoring va epidemiyaga qarshi profilaktik tadbirlar majmuini amalga oshirish.

34. Epidemiyalar va pandemiyalar sharoitlarida karantin tadbirlarini tashkil etish, tibbiy, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish.

35. Favqulodda vaziyat zonalarida sanitariya-gigiyena, radiatsion gigiyena, fizik omillar, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar tashxisi bo'yicha laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish.

36. Favqulodda vaziyatlar zonasidagi atrof-muhitning radioaktiv, kimyoviy, zaharlovchi moddalar va bakterial (biologik) vositalar bilan ifloslanishini nazorat qilish.

37. Inson salomatligiga ta'sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

38. Tibbiy profilaktika bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlash.

39. FVDT boshqaruv organlari va aholini favqulodda vaziyatlar mintaqalaridagi sanitariya-epidemiologik ahvol to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

40. FVDT funksional quyi tizimining:

Tibbiy yordam xizmatini;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

7-bob. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining funksiyalari

41. Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida moddiy resurslar zaxirasini yaratish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash.

42. FVV bilan birgalikda zaxira jamg'armasidan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun ajratilgan mablag'larning hisobi yuritilishini tashkil etish hamda ulardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

43. Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari asosida xorijiy davlatlar hududida ro'y bergan favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko'rsatish hamda ularni va halok bo'lganlarni evakuatsiya qilish tadbirlarini, mutaxassislarning xorijiy davlatga voqea joyiga yetib borishini va O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelishini moliyalashtirish.

44. FVV bilan birgalikda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi obyektlarini qurish yuzasidan o'rt va uzoq muddatli strategiyalar va dasturlarni ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga kiritish uchun takliflar tayyorlash.

8-bob. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining funksiyalari

45. Aholi va atrof tabiiy muhit uchun radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik), yong'in xavfini tug'diradigan tovarlarning O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi va uning hududidan olib chiqib ketilishini nazorat qilish va hisobini yuritish.

46. FVDT funksional quyi tizimining Yong'in chiqishi, portlovchi-radiatsiyaviy xavfli yuklar (tovarlar), zaharli va kimyoviy moddalar, shuningdek, kuchli ta'sir ko'rsatadigan zaharli moddalar olib kirilishi va olib chiqilishi ustidan kuzatish hamda nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

9-bob. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining funksiyalari

47. Favqulodda vaziyat ro'y bergan joylar hamda favqulodda vaziyat ta'siriga tushuvchi hududlar relyefining kompyuter modullarini ishlab chiqish.

48. FVVni hamda favqulodda vaziyatni bartaraf etishga rahbarlik qiluvchi shaxsni favqulodda vaziyat ro'y bergan hudud to'g'risidagi geodezik va kartografik axborot, shuningdek, yer-kadastr xaritalari bilan ta'minlash.

10-bob. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining funksiyalari

49. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan shartnoma asosida chet davlatlarga ishga yuborilayotgan fuqarolar bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda to'g'ri harakat qilish bo'yicha FVV bilan hamkorlikda o'quv mashg'ulotlari o'tkazish.

50. Favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish chog'ida hayot faoliyatini tiklashga doir ishlarni bajarishga band bo'lmagan aholini jalb etish.

51. Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya qilingan aholi bandligini ta'minlash maqsadida ularni vaqtinchalik ish bilan ta'minlash.

52. Mahalla fuqarolar yig'inlari darajasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi vazifalarni hal etishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga ko'maklashish.

53. Mahalla fuqarolar yig'inlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmagan aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash.

54. "Mahalla fuqaro muhofazasi" yig'ma guruhlarini tuzish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

55. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga aholini ixtiyoriy ravishda jalb etish.

56. Aholining favqulodda vaziyat zonasidan xavfsiz joylarga evakuatsiyasini tashkil etishda ishtirok etish.

57. Evakuatsiya qilingan aholini hisobga olishda va vaqtinchalik joylashtirishda ishtirok etish.

58. Tizim obyektlarida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish.

59. Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish.

11-bob. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining funksiyalari

60. O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlarini xorijiy davlatda ro‘y bergan favqulodda vaziyat hududidagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, ushbu hududdagi vaziyatning rivoji to‘g‘risida xabardor qilish.

61. Xorijiy davlatlar hududida va transchegaraviy hududlarda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi bo‘lganda yoki favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda, shu jumladan, epidemiyalar va pandemiyalarda O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari bilan birgalikda xorijiy (chegaradosh) davlat hududida turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta‘minlash choralari ko‘rish.

62. Favqulodda vaziyat ro‘y bergan xorijiy davlatlarning mas‘ul davlat organlari bilan birgalikda jabrlanganlarga tibbiy va boshqa ijtimoiy yordam ko‘rsatilishini ta‘minlash.

63. Xorijiy davlatlar hududida va transchegaraviy hududlarda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi bo‘lganda yoki favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari bilan birgalikda chegaradosh davlat hududida turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsiz joylarga evakuatsiya qilinishini tashkil etish yoki ularni O‘zbekiston Respublikasiga qaytarish, shuningdek, halok bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining jasadlarini O‘zbekiston Respublikasiga jo‘natish choralari ko‘rish.

64. O‘zbekiston Respublikasi hududida favqulodda vaziyatlarda jarohatlangan yoki halok bo‘lgan chet el fuqarolari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasidagi xorijiy davlatlarning tegishli diplomatik vakolatxonalarini yoki konsullik muassasalariga yuborish.

65. Konsullik ustavi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va fuqaro muhofazasi sohasidagi qonunchilik hujjatlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish.

12-bob. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining funksiyalari

66. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlashda ishtirok etish.

67. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta‘lim tashkilotlarida o‘quvchilarni “Hayot faoliyati xavfsizligi” mavzulari bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish.

68. Ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya jarayonlarida hayot xavfsizligi asoslarini o‘rgatishni tashkil etish choralari ko‘rish.

69. O‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va nashr etish.

13-bob. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining funksiyalari

70. FVDT tarkibiga kiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining asoslangan takliflariga muvofiq tanlovlar asosida FVDT faoliyatidagi mavjud muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini shakllantirish.

71. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan samarali muhofaza qilish uchun ilmiy va loyiha-konstruktorlik tashkilotlarining ilmiy-texnik salohiyatidan foydalangan holda FVDTning innovatsion faolligini oshirishga ko‘maklashish.

14-bob. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta‘lim agentligining funksiyalari

72. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya jarayonida favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatishni tashkil etish choralari ko‘rish.

73. Tizim tashkilotlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

15-bob. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining funksiyalari

74. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotning tezkorlik bilan olinishi, qayta ishlanishi va taqdim etilishini ta‘minlash.

75. Favqulodda vaziyat zonasidagi aholini va evakuatsiya qilingan aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat bilan ta‘minlashni tashkil etish.

76. Tarmoq tarkibiga kiruvchi obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish hamda amalga oshirish.

77. FVVni, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini oziq-ovqat xavfsizligi, idoraviy mansub obyektlardagi avariya hamda halokatlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda aholining harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlash.

78. Favqulodda vaziyatlar zonasidagi qishloq xo‘jaligi o‘simliklarini himoya qilish, o‘simliklar orasida yuqumli kasalliklar (epifitotiyalar) tarqalishining oldini olish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

16-bob. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining funksiyalari

79. Epizootik vaziyatni prognoz qilish, hayvonlarning yuqumli kasalliklari va ushbu kasalliklarni qo‘zg‘atuvchilar tarqalishini cheklash bo‘yicha tadbirlar majmuini ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

80. Favqulodda vaziyatlar sharoitlarida hayvonlar orasida yuqumli kasalliklar (epizootiyalar) ommaviy ravishda tarqalishining oldini olishga doir tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish, epizootiyalarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.

81. FVV, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini hamda aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi epizootik vaziyat to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlash.

82. FVDT funksional quyi tizimining Epizootiyani bartaraf etish bo‘yicha veterinariya xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

17-bob. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining funksiyalari

83. Iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan o‘simliklar karantini obyektlari (karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizm) va boshqa zararli organizmlarning respublika hududiga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish hamda ularni yo‘q qilish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

84. O‘simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o‘tlarga qarshi kurashish, agrokimyoviy xizmat ko‘rsatish hamda tuproqni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

85. O‘simliklar kasalliklari keng tarqalishi (epifitotiyalar) bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish.

86. FVV, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini hamda aholini o‘simliklar karantini va agrokimyoviy vaziyat to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlash.

87. FVDT funksional quyi tizimining O‘simliklarni himoya qilish va agrokimyoviy nazorat xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

18-bob. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining funksiyalari

88. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holati ishonchli va xavfsiz ishlashini ta‘minlash.

89. Suv omborlari, daryolar va kanallarning gidrologik rejimi, toshqinlar, halokatli suv bosishlar, gidrotexnika inshootlari holatiga tabiiy va texnogen ta'sirlar monitoringini tashkil etish va olib borish.

90. Suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish xavfsizligini, ularda avariylar va halokatlarning yuzaga kelishi xavfi ehtimolini prognoz qilish.

91. Suv xo'jaligi obyektlarining ish rejimini o'zgartirish yoki keyinchalik ulardan foydalanish zaruratini belgilash, suv omborlaridan suvni avariyaning oldini olish maqsadida chiqarib yuborish.

92. FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birgalikda suv bosishi, toshqinlar, sellarning oldini olish va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish hamda toshqin suvlari va sellarning avariya-siz o'tkazilishini ta'minlashga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar kompleksini tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish.

93. Xavf-xatar darajasi yuqori suv xo'jaligi obyektlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish.

94. Aholini hamda tegishli tashkilotlarni suv omborlarida va boshqa gidrotexnika inshootlarida favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyatlar ro'y berganligi haqida xabardor qilish.

95. Favqulodda vaziyatlar zonalaridagi gidrotexnika inshootlarini, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini tiklashni, toshqin suvlarining xavfsiz o'tkazib yuborilishini ta'minlash.

96. FVDT funksional quyi tizimining:

Suv xo'jaligi xizmatini;

I, II va III sinfga mansub xavf darajasi yuqori bo'lgan, shuningdek, respublika va mintaqa suv xo'jaligi hamda energetika tizimiga kiruvchi gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi holatini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

19-bob. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasining funksiyalari

97. Suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo'lgan boshqa suv xo'jaligi obyektlarining (keyingi o'rinlarda — xavf darajasi yuqori bo'lgan suv xo'jaligi obyektlari) xavfsizligini, ishonchli ishlashini hamda qo'riqlanishini nazorat qilish.

98. Xavf darajasi yuqori bo'lgan suv xo'jaligi obyektlarini joylashtirish va loyihalash bo'yicha topshiriqlarni hamda ulardan foydalanish bo'yicha qoidalarni kelishish, shuningdek, ularning xavfsizligi qoidalari va mezonlarini ishlab chiqish.

99. Xavf darajasi yuqori bo'lgan suv xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ularni foydalanishga qabul qilish, konservatsiyalash va tugatish ishlarida ishtirok etish hamda tegishli xulosalar berish.

100. Favqulodda vaziyatlarda xavf darajasi yuqori bo'lgan suv xo'jaligi obyektlarining aholiga va iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish.

20-bob. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining funksiyalari

101. Avtomobil, temir yo'l, havo, daryo transportlari, metropolitendan xavfsiz foydalanish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

102. Yo'l va yo'l inshootlarining texnik holati bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni FVDT kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlar mintaqalariga tashish uchun tayyorlash.

103. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qutqaruv tuzilmalarining, kuchlar va vositalarning, harbiy bo'linmalarining,

maxsus texnika resurslarining hamda moddiy resurslarning birinchi navbatda tashilishini ta'minlash.

104. Yong'in va avariya-tiklash poyezdlari, ixtisoslashgan va qutqaruv tuzilmalari shaxsiy tarkibining temir yo'l transportida favqulodda vaziyatlarni tugatishda qatnashishini ta'minlash.

105. Qidiruv-qutqaruv havo kemalari va ekipajlari hamda qidiruv va avariya-qutqaruv tuzilmalarining qutqaruv ishlarini olib borishda ishtirokini ta'minlash.

106. O'zbekiston Respublikasining fuqaro va eksperimental aviatsiyasida qidiruv va avariya-qutqaruv ishlarini olib boruvchi xizmatlar ustidan nazorat olib borish.

107. Favqulodda vaziyatlardagi evakuatsiya tadbirlari davrida tashishlarni amalga oshirish uchun evakuatsiya poyezdlari, avtotransport vositalari ajratilishini tashkil etish, buzilgan avtomobil yo'llarini, shuningdek, transport infratuzilmasi obyektlarini tiklash.

108. Portlovchi, yong'in xavfi bo'lgan yuklar va kuchli ta'sir ko'rsatadigan zaharli moddalarni tashishda xavfsizlikni ta'minlash.

109. FVDT boshqaruv organlarini, yo'lovchilar hamda aholini avtomobil, temir yo'l, havo, daryo transportlari va metropolitenda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi mavjudligi yoki yuzaga kelganligi to'g'risida xabardor qilish, shuningdek, ularning kutilayotgan oqibatlari, ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash.

110. O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlash ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

111. FVVga zarur axborotlarni taqdim etish.

112. FVDT funksional quyi tizimining:

Avtotransport xizmatini;

Avtoyo'l xizmatini;

Qidiruv va parvozlarni avariya-qutqaruv jihatdan ta'minlash xizmatini;

Temir yo'l va temir yo'l transportida yong'in, portlash xavfi bo'lgan yuklar, kimyoviy moddalar va kuchli ta'sir ko'rsatadigan zaharli moddalar tashilishini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

21-bob. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi,

"O'zsuvtat'minot" aksiyadorlik jamiyatining funksiyalari

113. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning ta'siriga uchragan joylarda va aholi punktlarida shaharsozlik faoliyatini alohida tartibga solishni ta'minlash.

114. Shaharsozlik, loyihalash va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirishda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini tashkil etish.

115. Shaharsozlik hujjatlarini belgilangan tartibda ekspertiza qilishni, shuningdek, xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar, texnik jihatdan murakkab va noyob obyektlarning loyiha hujjatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish talablariga rioya etilishi nuqtai nazaridan maxsus vakolatli davlat organi tomonidan davlat ekspertizasidan o'tkazilishini ta'minlash.

116. Shaharsozlik vositalari orqali O'zbekiston Respublikasi, viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar ta'siridan muhofaza qilish choralarini ko'rish.

117. Favqulodda vaziyatlar natijasida obyektlarga hamda fuqarolarning turar joylariga yetkazilgan zararni hamda qutqaruv ishlarini va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy resurslarga ehtiyojlarni hisob-kitob qilishda ishtirok etish.

118. Favqulodda vaziyatlar oqibatida binolar va inshootlarga yetkazilgan zararni baholash, shuningdek, ularning mustahkamlik holatini tekshirish tadbirlarini amalga oshirish.

119. Uy-joy kommunal xo'jaligi faoliyatining barqarorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

120. Favqulodda vaziyatlarda shikastlangan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini tiklash, shuningdek, ularning favqulodda vaziyatlar sharoitlarida barqaror ishlashini ta'minlash.

121. Favqulodda vaziyatlar oqibatida shikastlangan uy-joy kommunal xo'jaligi obyektlarini tiklash va ularning to'laqonli faoliyatini ta'minlash, jabrlangan aholini belgilangan me'yorlar miqdorida ichimlik suvi bilan ta'minlash.

122. FVDT funksional quyi tizimining:

Shaharlar, aholi punktlari va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhandislikka doir muhofaza qilish xizmatini;

Ichimlik suvi ta'minoti xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

22-bob. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining funksiyalari

123. Respublika aholisini, ishlab chiqarishga oid hamda ijtimoiy obyektlarni kundalik rejimda va favqulodda vaziyatlar sharoitlarida yoqilg'i-energetika resurslari bilan uzluksiz ta'minlash ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish.

124. Atom energetikasini rivojlantirish agentligiga (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tegishli bo'lgan atom energetik reaktorlari, yadro-fizik qurilmalar, yadroviy materiallar va radiatsiyaviy manbalarni hamda radiofaol chiqindilarni saqlash punktlarining xavfsizligini ta'minlash.

125. Atom energiyasidan foydalanish obyektlarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlikni ta'minlash, ularda radiatsiyaviy avariylarning oldini olish, ixtisoslashgan kuchlarning harakat qilishga shayligini ta'minlash, shuningdek, ta'sir ko'rsatish sohalari mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish.

126. Tarmoq obyektlarida ishlab chiqarish va texnologik jarayonning yuqori darajada xavfli o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan avariylar va halokatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

127. Tarmoq obyektlarida avariylar kelib chiqishi ehtimolini va oqibatlarini prognoz qilish, tarmoqning birlashmalari va obyektlarida ularning favqulodda vaziyatlar sharoitida ishlarning barqarorligini oshirish.

128. Idoraviy mansub yirik gidrotexnik inshootlardan chiqarib yuborilayotgan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni FVDT boshqaruv va tezkor-boshqaruv organlariga hamda mutasaddi xizmatlarga taqdim etib borish.

129. Xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar, shu jumladan, yoqilg'i-energetika tarmog'ining yirik gidrotexnik inshootlari, neft va gazni qayta ishlash va boshqa xavfli obyektlarda hamda ularga yondosh hududlarda aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning lokal darajadagi avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish.

130. Ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalarini doimiy tayyorlik holatida saqlashni hamda tarmoq obyektlaridagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda ishtirok etishini ta'minlash.

131. FVDT boshqaruv organlari va aholini tarmoq obyektlarida avariylar va halokatlar yuzaga kelishi xavfi mavjudligi yoki ro'y berganligi, ko'rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlar sharoitida aholining harakat qilish tartibi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

132. Favqulodda vaziyatlar natijasida shikastlangan energetika tizimlarini tiklash va ularni ta'mirlashni amalga oshirish.

133. Qutqaruv va avariya-tiklash ishlari uchun yetarli miqdorda yoqilg‘i-energetika resurslarini ajratish.

134. Issiqlik va gidravlik elektr stansiyalari, elektr va issiqlik tarmoqlari asbob-uskunalaridan ishonchli va xavfsiz foydalanishga oid, shuningdek, iqtisodiyot obyektlari va respublika aholisini elektr energiyasi hamda issiqlik bilan uzluksiz ta‘minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

135. FVDT funksional quyi tizimining:

Energetika xizmatini;

Atom energiyasidan foydalanish obyektlarining xavfsizligini ta‘minlash xizmatini;

Yoqilg‘i-energetika tarmog‘i obyektlarida ishlarni olib borishning holati va xavfsizligini nazorat qilish idoraviy xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

23-bob. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining funksiyalari

136. FVDTning barcha rejimlarida respublika va mahalliy darajalardagi kommunikatsiyalar va markazlashtirilgan xabar berish tizimlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta‘minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

137. Aholini favqulodda vaziyat ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratishga ko‘maklashish.

138. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga doir ishlarga rahbarlikni amalga oshiruvchi FVDT boshqaruv organlarini umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlari bilan ustun darajada ta‘minlash.

139. Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash va FVDT boshqaruv organlariga uzatishni texnik ta‘minlash.

140. Xabar berish, aloqa va axborot bilan ta‘minlashning statsionar vositalariga foydalanish-texnik xizmat ko‘rsatishni shartnomaviy shartlarda amalga oshirish.

141. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni amalga oshirish chog‘ida kommunikatsiyani va axborot almashishni ta‘minlash.

142. Aholiga favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyatlar ro‘y berganligi haqida o‘z vaqtida xabar berish uchun mobil aloqa operatorlari orqali axborot (ma‘lumot) yetkazilishini tashkil etish.

143. FVDTning funksional quyi tizimining Aloqa va xabar berish xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

24-bob. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining funksiyasi

144. Keng ko‘lamli favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda yoki ro‘y berganda ularni bartaraf etish bo‘yicha tezkor qarorlar qabul qilish uchun FVV so‘roviga asosan hududlarning kosmik suratlarini Agentlikka davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida bepul taqdim etish.

25-bob. O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining funksiyalari

145. Xavfli tabiiy geologik jarayonlar (ko‘chish, qulash, suffoziol, karst)ning rivojlanish mintaqalari (zonalari)ni aniqlash, ularning faollashishini o‘rganish va ogohlantirish, tog‘ yonbag‘irlarining tabiiy barqarorligini saqlash bo‘yicha ko‘chkiga qarshi va boshqa oldini oluvchi tadbirlar birinchi navbatda o‘tkaziladigan zonalarni belgilash.

146. Aholi punktlarida, tog‘li va tog‘oldi mintaqalarda sog‘lomlashtirish obyektlari va boshqa jamoat obyektlari joylashgan hududlarda xavfli geologik jarayonlar monitoringini tashkil etish va olib borish (iqtisodiyot obyektlari, shu jumladan, liniyali inshootlar (yo‘llar, kanallar, elektr uzatish liniyalari, quvurlar va shu kabilar), kon-ruda korxonalari xo‘jalik faoliyati hududi bundan mustasno).

147. FVVni, FVDtning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini xavfli geologik jarayonlarning rivojlanishi ehtimollari to'g'risidagi geologik axborot bilan ta'minlash, ko'chki xavfi bo'lgan mintaqalardagi hududlardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish.

148. Yer osti suvlarining radioaktiv, kimyoviy va boshqa zaharli moddalar bilan ifloslanishini kuzatish va nazorat qilib borish.

149. Transchegaraviy hududlarda radioaktiv va zaharli elementlar bilan ifloslanish o'choqlarini aniqlash va o'rganishni amalga oshirish.

150. O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi hamda Suv xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda xavfli zonalarda joylashgan aholini vaqtincha evakuatsiya qilish yoki bosqichma-bosqich xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko'chirish shart bo'lgan xo'jaliklar ro'yxatini belgilash hamda FVVga va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga taqdim etish.

151. Yangidan qurilayotgan aholi punktlari va obyektlar uchun yer ajratishni tegishli tartibda kelishish.

152. Xavfli geologik jarayonlar bo'yicha ma'lumotlar elektron bazasini shakllantirish va ularning ta'siridan ko'rilgan zararlarni fizik baholash.

153. FVDt funksional quyi tizimining Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

26-bob. O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasining funksiyalari

154. Kimyoviy, portlovchi hamda boshqa yuqori darajada xavfli obyektlarning holatini nazorat qilishni tashkil etish va amalga oshirish, ularda avariya va halokatlar yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilish.

155. Texnogen avariya va halokatlarning oldini olish, radioizotop priborlarini saqlash hamda ulardan foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazorat qilish.

156. FVV, FVDtning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini sanoat obyektlarida yuzaga kelgan avariya va halokatlar, ularning ko'lamlari, rivojlanishi, yetkazishi mumkin bo'lgan zarari hamda favqulodda vaziyatlarni tugatish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash.

157. Harbiylashtirilgan kon-qutqarish qismlari bo'linmalarining kon qazish ishlaridagi nafas olish organlarini muhofaza qilish vositalarini qo'llashni hamda maxsus jihozlarni talab etuvchi gaz portlashlari, otilib chiqishlar va to'lib qolishlar bilan bog'liq avariya va halokatlarini tugatishda qatnashishini ta'minlash.

158. FVDt funksional quyi tizimining kon-ruda, kimyo, neft va gazni qayta ishlash hamda qayta ishlash sanoatida va "Toshmetroqurilish" obyektlarini qurishda yer osti o'tish ishlarini bajarishda ishlarning holati hamda xavfsiz olib borilishini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

27-bob. O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining funksiyalari

159. Xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar hamda intensiv sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyati obyektlari joylashgan mintaqalarda ekologik vaziyat ustidan davlat nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish, uni yaxshilash tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish.

160. Sanoat chiqindilari to'plagichlari, chiqindi omborlari, zaharli moddalar ko'miladigan joylar va boshqalarning joylashtirilishi hamda ulardan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

161. Suvdan foydalaniladigan joylarda ochiq suv havzalaridagi suvning ifloslanishi, sanoat, baliqchilik xo'jaliklari va boshqa tarmoqlarning chiqaradigan oqovalar, shuningdek, zararli

moddalarning atrof tabiiy muhitga tashlamalari hamda chiqindilarning joylashtirilishi ustidan monitoring olib borish.

162. Favqulodda vaziyatlar zonasida ochiq suv havzalaridagi suvning ifloslanishi, sanoat obyektlari hamda boshqa obyektlar tomonidan zararli moddalarning atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlanishi va chiqindilarning joylashtirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish.

163. FVVni, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini ekologik vaziyat, atrof tabiiy muhitga zaharli moddalarning tashlanishi va chiqarib yuborilishi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

164. FVDT funksional quyi tizimining Atrof tabiiy muhit muhofazasi hamda ekologik xavfsizligi bo'yicha nazorat-inspeksiya xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

28-bob. O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligining funksiyalari

165. Geologik va gidrometeorologik xavfli uchastkalarda o'rmonzorlar barpo etilishining oldi olinishini nazorat qilish.

166. O'rmonlarni yong'inlardan muhofaza qilish va epifitotiyaga qarshi kurashish.

167. O'rmon xo'jaligi sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborotlarni va prognoz ma'lumotlarni FVVga taqdim etib borish.

29-bob. O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligining funksiyalari

168. Xavfli gidrometeorologik hodisalar prognozini tayyorlash va ularni kuzatib borish.

169. Sel va qor ko'chkilariga qarshi tadbirlarni o'tkazish zarurati bo'lgan mintaqalar va hududlarni aniqlash.

170. Atrof tabiiy muhit (atmosfera, tuproq va yer usti suvlari)ning ifloslanishi, gidrologik rejim va daryolar qayirlari hamda o'zanlaridagi toshqinlar xavfi monitoringini tashkil etish va o'tkazish.

171. FVVga, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlariga gidrometeorologik axborot taqdim etish, ularni atrof tabiiy muhit ifloslanishining ekstremal yuqori darajalari to'g'risida xabardor qilish.

172. Favqulodda vaziyatni bartaraf etishga rahbarlik qiluvchi shaxsni favqulodda vaziyat ro'y bergan joyga eng yaqin bo'lgan meteorologik kuzatuv punkti ma'lumotlariga asosan mavjud gidrometeorologik sharoitlar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

173. FVDT funksional quyi tizimining Tabiiy gidrometeorologik hodisalar yuzaga kelishi va rivojlanishi, atmosfera havosi, tuproq va yuza suvlari ifloslanishi ustidan gidrometeorologik kuzatishlar olib borish xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

30-bob. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining funksiyalari

174. Turizm xizmatlarini tashkil etishda, turistik obyektlarda, turistlar vaqtincha joylashtiriladigan, ovqatlanadigan va harakatlanadigan joylarda, respublika hududi bo'ylab harakatlanishda va turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda ro'y berishi mumkin bo'lgan noxush holat (favqulodda vaziyat)larning oldini olish tadbirlarini muvofiqlashtirish va nazoratini amalga oshirish.

175. Turizm obyektlari va yo'nalishlari, shuningdek, sohada ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborotlar va prognoz ma'lumotlarni FVVga taqdim etib borish.

31-bob. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining funksiyalari

176. Seysmik xavf-xatarni turli ko'lamlarda baholash, hududlarning seysmik xavfi va seysmik xatariga doir har xil masshtabli xaritalarni tuzish, zilzilalarni vaqt kesimida prognoz qilish, binolar va inshootlarning zilzilabardoshliligini ta'minlash bo'yicha metodikalarni ishlab chiqish.

177. Kuchli zilzila ro'y bergan taqdirda, zilzila kuchini va uning hududlar bo'yicha o'zgarishini aniqlash, binolar va inshootlarning shikastlanish darajasini baholash uchun zilzila epitsentri hududida makroseysmik hamda boshqa tadqiqotlar o'tkazish.

178. Kuchli zilzilalarda aholi va hududlardagi talafotlarni kamaytirish hamda ularning oqibatlarini yumshatish, seysmik xavfsizlikni ta'minlashda seysmik xatarni baholashning ilmiy uslublarini ishlab chiqish.

32-bob. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining funksiyalari

179. Favqulodda vaziyatlar natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash hamda baholash ishlarini tashkil etish.

180. FVVga zarur ma'lumotlarni taqdim etish.

33-bob. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining funksiyalari

181. FVV, FVDTning hududiy quyi tizimlari rahbarlari buyurtmanomalari bo'yicha aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalariga oid teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etish.

182. Aholining ommaviy axborot vositalari orqali favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilinishini FVV bilan birgalikda tashkil etish.

183. FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birgalikda aholi o'rtasida favqulodda vaziyat zonasida qolgan odamlarning birinchi navbatdagi harakatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.

184. Inqirozli va favqulodda vaziyatlar ro'y berganda FVV tashabbusi bilan aholiga tezkor va xolis axborot yetkazish maqsadida maxsus axborot tadbirlarini tashkil etishga ko'maklashadi.

185. Yuqori darajadagi xavfga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va favqulodda vaziyatlarning axborot monitoringini ta'minlash (tabiiy, texnogen, antropogen ofatlar, halokatlar va h.k.) va bunday voqealarga mas'ul tashkilotlar tomonidan tezkorlik bilan munosabat bildirilishi yuzasidan zarur choralar ko'radi.

186. Aholining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida muntazam ravishda xabardor qilinishini ta'minlash.

187. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati bilan birgalikda aholini dastlabki tibbiy o'zaro va o'ziga o'zi yordam ko'rsatishga o'qitish bo'yicha maxsus eshittirishlarni tashkil etish.

34-bob. "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatining funksiyalari

188. Jamiyat tizimidagi gidroelektrostansiyalar, gidrotexnik va boshqa gidroenergetika obyektlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, ularda avariya hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

189. Jamiyat tizimidagi gidrotexnik inshootlarda va ularga yondosh hududlarda lokal darajadagi aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish.

190. Favqulodda vaziyatlar sharoitida gidrotexnik inshootlardan xavfsiz va samarali foydalanishni ta'minlash, gidroenergetika obyektlarini markazlashtirilgan tarzda texnologik boshqarishni amalga oshirish.

191. FVDT boshqaruv organlarini gidroelektrostansiyalar, gidrotexnik va boshqa gidroenergetika obyektlarida yuzaga kelgan avariya va halokatlar, ularning oqibatlari, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash.

35-bob. “O‘z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining funksiyalari

192. Tarmoq korxonalarida ishlab chiqarish va texnologik jarayonning yuqori darajada xavfli xos xususiyatlari bilan izohlanadigan avariya va halokatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

193. Kimyoviy xavfli obyektlardagi avariya va halokatlarning yuzaga kelishi ehtimoli va oqibatlarini prognoz qilishni, favqulodda vaziyatlar sharoitida ularning barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash.

194. Kimyoviy xavfli obyektlar va ularga yondosh hududlardagi aholini lokal darajadagi favqulodda vaziyat ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish.

195. Kimyoviy xavfli obyektlardan kimyoviy zararlanishi ehtimoli bo‘lgan zonalarini aniqlash.

196. FVDT boshqaruv organlari va aholini avariya va halokatlardan, ularning oqibatlari, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar hamda aholining favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishi tartibi to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta‘minlash.

197. Idoraviy ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalarining tarmoq obyektlaridagi favqulodda vaziyatlar sharoitida qutqaruv hamda boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirishda qatnashishini ta‘minlash.

198. FVDT funksional quyi tizimining Tarmoq obyektlarida ishlarni olib borishning ahvoli va xavfsizligini nazorat qilish idoraviy xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

36-bob. “O‘z maxsus montaj qurilish” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘z sanoat qurilish materiallari” uyushmasining funksiyalari

199. Qurilish va qurilish-montaj tashkilotlari negizida ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etish hamda ularning favqulodda vaziyatlar zonalarida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni bajarishda qatnashishini ta‘minlash.

200. Favqulodda vaziyatlar zonalariga qurilish materiallari yetkazib berilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

37-bob. Sug‘urta tashkilotlarining funksiyasi

201. Suv toshqini, ko‘chkilar, sel xavfi mavjud bo‘lgan va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlar xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda yashaydigan fuqarolarni, ushbu hududlardagi binolar va inshootlarni, qishloq xo‘jaligi ekinlari va hayvonlarini hamda boshqa mol-mulkini sug‘urtalashni ta‘minlash.

38-bob. O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining funksiyalari

202. FVV, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, FVDTning boshqa funksional quyi tizimlari bilan birgalikda aholini favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish masalalari bo‘yicha tayyorlash.

203. FVDTning funksional va hududiy quyi tizimlarida sanitariya drujinalarini tuzish, ularni jihozlash va yuklangan vazifalarni bajarishga tayyorlash, tayyorgarlik holatini nazorat qilishda ko‘maklashish.

204. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalarida sanitariya postlarini tuzish va o‘qitishni tashkil etish.

205. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, birinchi navbatda, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi xodimlarini, kursantlar, haydovchilar va yo‘l-transport xizmatlari xodimlarini birinchi yordam ko‘rsatish amaliyotiga shartnoma asosida o‘qitishni tashkil etish.

206. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda aholini birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, o‘ziga o‘zi va o‘zaro yordam berish hamda zarar ko‘rganlarga g‘amxo‘rlik qilishga o‘qitish bo‘yicha maxsus teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etish.

207. O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining otryadlari va boshqa ko‘ngillilar bo‘linmalarini tashkil etish, o‘qitish, jihozlash hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etish.

208. Favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining eng zarur tovarlar omborlari va zaxiralari tizimini tashkil etish.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son qaroriga

3-ILOVA

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining hududiy quyi tizimi doirasidagi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish

bo‘yicha

FUNKSIYALARI

1. Tegishli hududda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga rahbarlik qilish.
2. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qarorlar qabul qilish.
3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o‘rinlarda — FVDT) hududiy quyi tizimlarini tashkil etish, faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.
4. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lmagan aholini, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni, shuningdek, tizimidagi tashkilotlarning rahbarlari, ishchi va xizmatchilarini tayyorlash tadbirlarini tashkil etish va nazorat qilish.
5. Favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqishni tashkil etish hamda tegishli hudud bo‘yicha rejani tasdiqlash.
6. Aholini va hududlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi axborotni to‘plash hamda almashish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyatlar ro‘y berganligi haqida aholiga o‘z vaqtida xabar berish va axborot uzatish.
7. Xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan favqulodda vaziyatlar monitoringini yuritish.
8. FVDT xizmatlarining umumiy va maxsus vazifalari hududiy tuzilmalarini, yig‘ma mexanizatsiyalashgan otryadlarni, yig‘ma qutqaruv komandalarini, avtosanitariya otryadlarini tashkil etish va boshqarishga rahbarlik qilish.
9. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlarning shayligi ustidan nazoratni amalga oshirish.
10. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga doir tadbirlarni moliyalashtirish.
11. Tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy mansubligidan qat‘i nazar, barcha tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda ishlash barqarorligini oshirishga ko‘maklashish.
12. Aholini xabardor qilish va aholiga axborot uzatishning maxsus texnik vositalarini o‘rnatish uchun joylar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida efir vaqti ajratilishini tashkil etish va nazorat qilish.
13. Mahalliy miqyosdagi favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda, FVDTning hududiy quyi tizimi uchun yuqori tayyorgarlik rejimini yoki favqulodda vaziyat rejimini joriy etish haqida,

shuningdek, aholini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish.

14. Qutqaruv ishlarini va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni tashkil etish hamda amalga oshirish, shuningdek, bunday ishlar o'tkazilishi davomida jamoat tartibi saqlanishini tashkil etishga ko'maklashish.

15. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish hamda aholini muhofaza qilish uchun barcha hududiy kuchlar va vositalarni jalb etish.

16. Favqulodda vaziyat zonasida qutqaruv ishlarini va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv kuchlarining (shu jumladan, tezkor harakat bo'linmalarining) va maxsus tuzilmalarning doimiy shayligini tashkil etish.

17. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga volontyorlarni jalb etish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

18. Favqulodda vaziyat zonalaridagi zarar ko'rgan aholi hamda ular joylashtirilgan tumanlarda evakuatsiya qilingan aholini ta'minlash uchun tegishli hududning mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan oziq-ovqat va eng zarur tovarlar yetkazib berilishini tashkil etish.

19. Favqulodda vaziyatlar zonalaridagi obyektlar va aholini elektr energiyasi, gaz, yoqilg'i va ichimlik suv bilan uzluksiz ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

20. Aholi punktlari va iqtisodiyot obyektlari faoliyatini tiklash ishlarini tashkil etish.

21. Favqulodda vaziyatlar oqibatida zarar ko'rgan aholi hayot faoliyatini tiklash, yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha choralar ko'rish.

22. Quyidagi FVDT hududiy quyi tizimlari faoliyatiga rahbarlik qilish:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat FVDT xizmatlari va tuzilmalari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman (shahar)lar hamda iqtisodiyot obyektlarining umumiy va maxsus vazifalar yuklangan hududiy tuzilmalari.

23. Mahalliy sharoitlarga, favqulodda vaziyatlarning xususiyatiga va viloyatlar (shaharlar va tumanlar)ning moddiy-texnik bazasiga qarab fuqaro muhofazasi boshlig'i o'z vakolatlari doirasida FVDTning tegishli hudud va obyektlar bo'yicha quyidagi xizmatlarini tashkil etishi hamda vazifalarini belgilashi mumkin:

avtoyo'l xizmati — favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yo'l-ko'priklar ta'minotini tashkil etish va amalga oshirish, yo'llar va ko'priklarni ta'mirlash va tiklash;

avtotransport xizmati — temir yo'l va havo transporti organlari bilan birgalikda aholini joylashtirish va favqulodda vaziyatlar zonalaridan evakuatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlar va vositalarni yetkazib berish, ishchi smenalarini olib kelish (olib ketish), moddiy va tarixiy-madaniy boyliklar, noyob asbob-uskunalar, oziq-ovqat, qurilish materiallarini va boshqa moddiy vositalarni evakuatsiya hududiga olib chiqib ketish;

gaz ta'minoti xizmati — gaz ta'minoti inshootlari va tarmoqlarining barqaror ishlashini va ulardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash, ularda avariya-tiklash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

suv ta'minoti xizmati — suv ta'minoti inshootlari va tarmoqlarida avariya-tiklash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, suv manbalarining radioaktiv, kimyoviy va zaharli moddalar hamda bakteriyali vositalar va og'ir metallar bilan ifloslanish (zararlanish)dan muhofaza qilinishini ta'minlash. Ichimlik suvi sifati va oqova suvlarni tozalash ustidan nazoratni ta'minlash;

veterinariya nazorati va hayvonlarni muhofaza qilish xizmati — hayvonlarda yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi (epizootiyalar)ning oldini olish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarida sanitariya-veterinariya va

epizootiyalarga qarshi tadbirlarni amalga oshirish. Epizootiyalarni tugatish. Rahbariyatga favqulodda vaziyatlar zonasidagi sanitariya-veterinariya holati to'g'risida axborot taqdim etish;

o'simliklarni himoya qilish va agrokimyo nazorati xizmati — epifitotiyalarning oldini olish, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish. O'simliklarni himoya qilish tadbirlarini amalga oshirish yo'li bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror ishlashini ta'minlash. Fitopatologik qidiruv ishlarini, qishloq xo'jaligi yerlarining radioaktiv va zaharli moddalar bilan ifloslanishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish. Ekinzorlar, yaylovlar hamda chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini zararsizlantirish. Epifitotiyalarni tugatish;

suv xo'jaligi xizmati — suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlarining barqaror ishlashini va ulardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash, ularda avariya va halokatlar yuz berishi mumkinligini prognoz qilish. Suv xo'jaligi obyektlarining ish rejimini yoki ulardan bundan keyin foydalanish rejimini o'zgartirish zarurligini belgilash, suv omborlaridan suvni avariya yuzasidan chiqarib tashlash. Xavf darajasi yuqori bo'lgan suv omborlari va ularga yondosh hududlarda lokal darajadagi aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish. Toshqinlar, suv bosishlari, sel oqimlaridan himoya qilish va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan kompleks chora-tadbirlarni tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish hamda toshqin suvlari va sel oqimlarini avariya-siz o'tkazib yuborishni ta'minlash;

muhandislik xizmati — tinchlik davrida himoya inshootlari fondi to'planishi va mavjud bo'lishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish, boshlang'ich hududlarda zararlangan joylar tomonga harakat qilinganda, halokatli suv bosishi zonalarida va ishlar olib boriladigan obyektlarda, yirik yong'inlarni o'chirishda, tabiiy ofatlar, yirik avariya va halokatlar oqibatlarini tugatishda FVDTning kuchlari harakatlarini muhandislik jihatdan ta'minlash uchun favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga jalb etiladigan tegishli tuzilmalarni tayyorlash va ularning harakat qilishini tashkil etish;

kommunal-texnika xizmatlari — kommunal xo'jaligi inshootlari va tarmoqlari ishlarining barqarorligini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, ulardagi avariyalarni bartaraf etish, halok bo'lganlarga maxsus ishlov berish, tashish va ommaviy ko'mish shoxobchalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish;

moddiy-texnika ta'minoti xizmati — evakuatsiya qilinadigan aholini eng zarur buyumlar va anjomlar (kiyim-bosh, poyabzal va shu kabilar) bilan ta'minlashni tashkil etish, tuzilmalarning shaxsiy tarkibini anjomlar va maxsus kiyim-bosh, shuningdek, iqtisodiyot obyektlarini ularning barqaror faoliyat ko'rsatishi va buzilgan ishlab chiqarishni tiklash uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika vositalari va qurilish materiallari bilan ta'minlash;

tibbiy xizmat — aholi va tegishli tuzilmalarning shaxsiy tarkibi sog'lig'ini saqlashga, jabrlanganlar va bemorlarga o'z vaqtida tibbiy yordam berishga yo'naltirilgan davolash-evakuatsiya, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

sanitariya ishlovini berish va zararsizlantirish xizmati — zararlanish joylaridan chiqqan odamlarga sanitariya jihatidan ishlov berish, ularning kiyim-boshlari va yakka tartibdagi himoyalani vositalarini zararsizlantirishni tashkil etish va amalga oshirish;

aloqa, xabar berish va axborotlashtirish xizmati — boshqaruv organlarini barqaror va uzluksiz aloqa bilan ta'minlash, aloqa va xabar berishning turg'un vositalariga foydalanish-texnik jihatdan xizmat ko'rsatishni tashkil etish va ularni nazorat qilish, shuningdek, ularni doimiy tayyor

holatda saqlash, hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining ko'rsatmalariga binoan xabar berish signallarini uzatish va qabul qilishni texnik jihatdan ta'minlash;

jamoat tartibini saqlash xizmati — favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazishda jamoat tartibini saqlash;

qo'riqlash xizmati — favqulodda vaziyatlar zonalarida obyektlar, hududlar, moddiy va madaniy qimmatliklarni, shuningdek, aholi evakuatsiya qilingan joylarni qo'riqlash;

yong'in xavfsizligini ta'minlash xizmati — yong'inlar profilaktikasini o'tkazish va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish, yong'inlarni o'chirish, yong'in zonasida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish;

yonilg'i-moylash materiallari ta'minoti xizmati — favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etiladigan avtotransport vositalari va boshqa texnik vositalarni yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlashni tashkil etish, ushbu maqsadlar uchun turg'un va ko'chma avtomobil yonilg'isi quyish shoxobchalaridan foydalanish;

texnik xizmatlar — texnikani texnik jihatdan soz holatda saqlash va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun jalb etiladigan avtotransport vositalarini texnik ta'mirlash, shikastlangan va nosoz texnikani qutqarish ishlari yo'nalishlari va uchastkalaridan shikastlangan mashinalarni yig'ma punktlarga va ta'mirlash korxonalariga evakuatsiya qilish, ta'mirlash korxonolari va tuzilmalarini ehtiyot qismlar va anjomlar bilan ta'minlash hamda ularning zaxirasini shakllantirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat bilan ta'minlashni tashkil etish xizmati — qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat zaxirasi g'amlanishini va muhofaza qilinishini tashkil etish, favqulodda vaziyat zonasidagi aholini hamda jalb etilgan tuzilmalarni oziq-ovqat, issiq ovqat bilan ta'minlash;

boshpanalar va bekinish joylari xizmati — tashkilotlarning muhofaza inshootlari fondini hisobga olish, muhofaza inshootlarining bekinadigan odamlarni qabul qilishga doimiy tayyorligini nazorat qilish, muhofaza inshootlari imoratlarining to'g'ri saqlanishi, muhofaza konstruksiyalari, qurilmalari va muhandislik-texnik asbob-uskunalari saqlanishi, ulardan iqtisodiyot ehtiyojlari va aholiga xizmat ko'rsatish uchun foydalanilishini tizimli nazorat qilish. Qurilishi tugallangan muhofaza inshootlarini qabul qilishda qatnashish. Muhofaza inshootlari fondini jamlash rejalarini ishlab chiqish va ularga tuzatish kiritish, boshpana va bekinish joylariga xizmat ko'rsatish bo'linmalarini tashkil etish va tayyorlash;

energetika xizmati — favqulodda vaziyatlar sharoitlarida energiya obyektlarining barqaror ishlashini ta'minlash va ulardagi avariyalarni bartaraf etish. Favqulodda vaziyat zonalarida qutqaruv ishlarini olib borishda ishtirok etish.

24. Favqulodda vaziyatlarda nobud bo'lgan uy hayvonlari jasadlarini yig'ib olish va utilizatsiya qilish xizmati (tumanlar obodonlashtirish boshqarmalari hamda "Toza hudud" DUKlari negizida) tashkil etiladi.

25. Zaruratga ko'ra va tegishli kuchlar mavjud bo'lganda FVDTning boshqa xizmatlari, shu jumladan, avariya-texnik, radiatsiyaviy va kimyoviy himoya, niqoblanish, axborot bilan ta'minlash xizmatlari ham tashkil etilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Favqulodda vaziyatlarda Fuqaro muxofazasi tadbirlari xaqida nimani bilasiz?
2. Tashkiliy tadbirlar haqida ma'lumot bering?
3. Texnik tadbirlar haqida nimani bilasiz?
4. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi 754-son qarori haqida nimalarni bilasiz?

6-Mavzu: OMMAVIY QIRG'IN QUROLLARI, ULARNING TA'SIR XUSUSIYATLARI VA TALOFATLARI. ZARARLI NURLANISHLAR VA KIMYOVIY MODDALAR, ULARNING XUSUSIYATLARI VA INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI

Reja;

1. Yadroviy qurollar qo'llanilganda aholini harakati.
2. Kimyoviy qurollar qo'llanilganda aholini harakati.
3. Biologik qurollar qo'llanilganda aholini harakati.
4. Ishlab chiqarishda zararli nurlanishlar, ularning xususiyatlari va inson organizmiga ta'siri.
5. Nurlanishlar va ularning xossalari.
6. Nurlarning organizmga ta'siri.
7. Nurlardan saqlanish va himoyalaniish tadbirlari.

Kimyoviy qurollarning qisqacha tasnifi

Kimyoviy qurollar - zaxarli kimyoviy birikmalar bo'lib, ular asosan zaxarli moddalar hisoblanadi. Kimyoviy qurollarning kuchi ularning zaxarli xususiyatiga qarab belgilanadi. Kimyoviy qurollar himoyalaniishmagan odamlarni, hayvonlarni, o'simlik, er, suv, havo, inshoot, texnika va jamiki ko'rinadigan narsalarni zaxarlaydi. Bunday qurollar asosan nafas yo'li bilan ta'sir qilishi mumkin. Zaxarlovchi moddalarning kuchi uning zaxarliligi, tez ta'sir etuvchanlig va chidamliligi bilan ulchanadi. Bulardan tashqari, bunday qurolning ta'sir etish diapazoni (ko'lami) juda katta hisoblanadi.

Kimyoviy qurollar - nishonga tez va uylangan maqsadga to'la erishish darajasi bo'yicha ta'sir etishiga qarab eng xavfli va qudratli qirg'in qurol hisoblanadi. Chunki uning juda kichik dozasi ham juda qisqa vaqtda ta'sir etib hamma narsani zaxarlaydi. Yana uning zaxarlilik kuchi ma'lum vaqt mobaynida havoda, suvda, erda hamda o'simlik dunyosida saqlanib turadi.

Dastlab kimyoviy qurollar unitar tarzda ishlatilgan, ya'ni bitta zaxarli modda kimyoviy qurol sifatida qo'llanilgan. Keyinchalik binar - kimyoviy qurol yaratildiki, buning oldini olish va qurol asoratidan qutilish juda ham muammo hisoblanadi. Binar - ikki va undan ortiq zaxarli moddasi bo'lgan qurol demakdir. Kimyoviy qurollarni ta'sir darajasini oshirish uchun ular ishlatilganda par, aerazol yoki tomchi holatiga o'tkaziladi.

Kimyoviy qurollar shikastlanish xususiyatiga ko'ra: **asabni pallajlovchi**, (zoman, zarin, Vi-iks), **terini zaxarlovchi** (iprit, azotli iprit), **umumiy zaxarlovchi** (sinil kislotasi, xlortsian), **buguvchi** (fozgen, difozgen), **qaltirativchi** (xloratsetofenon, adamsit), **ruhiyatga ta'sir etuvchi** (LSD-dietilamidlizirin kislotasi va Bi - zet).

Zaxarlovchi moddalar zaxarlanish xususiyatiga hamda taktik qo'llanishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- **O'ldiruvchi** - Vi-iks, zarin, zoman, iprit, azotliiprit, sinil kislotasi, xlortsian, fozgen.
- **Vaqtinchalik faoliyatini yo'qotuvchi** - Bi-zet;
- **Qaltirativchi** - Xloratsetofenon, adamsit, Si-es, Si-er.

O'ldiruvchi zaxarli moddalar ta'sir doirasining uzunligiga qarab turg'un va noturg'un xillarga bo'linadi. Ba'zi turg'un zaxarlovchi moddalarning ta'sir vaqti bir necha kundan, xaftalargacha chuzilishi mumkin. Mana shundaylar qatoriga Vi-iks, zoman, iprit kiradi.

Turg'un bo'lmagan zaharli moddalar tezda parchalanib ketadi va ularning ta'sir etish vaqti ham qisqa bo'ladi. Masalan, sinil kislotasi, xlortsian, fozgen.

Yana ximiyaviy qurollar organizmga ta'sir etish vaqtiga qarab tez hamda sust ta'sir etuvchi xillarga bo'linadi. Tez ta'sir etuvchi moddalarga - zarin, zomin, sinil kislotasi, xlortsian, Si-er kirib, ularning ta'siri bir necha daqiqa kuzatiladi. Sekin ta'sir etuvchi zaxarli moddalarga Vi-iks, iprit, fozgen, Bi-zet kirib, ularning ta'siri bir necha vaqtdan keyin kuzatiladi.

Asabni pallajlovchi zaxarli moddalar. Bu guruxga fosfor-organik zaxarli moddalar kiradi: zarin, zoman, Vi-iks. Ularning hammasi rangsiz, xidsiz suyuqliklar bo'lib, bir-biridan uchuvchanligi, turg'unligi va zaxarliligi bilan farqlanadi. Bu xususiyatlar uning tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari turlicha bo'lishligidir. Lekin bu guruxga kiruvchi qurollarning hammasi bir umumiy ta'siri xususiyatiga ega. Ya'ni ular organizmga kirganda fermentlarni o'ldirib, hamma asab impulslarini ingibirlaydi, ya'ni sekinlatib to'xtatiladi va natijada zaxarlanish yuz berib, organizm pallajlaydi.

Zarin - uchuvchan, zaxarli modda hisoblanib, zichligi 1,1 qaynash harorati 1580 °S, muzlash harorati esa -560 °S. u suvda va organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Zarin kuchli zaxarlovchi moddda bo'lib, uning o'rtacha o'ldirish dozasi 0,10 mg/l (1 daqiqa ichida). Uning par holdagisi kuchli ta'sir etadi, ayniqsa, ko'z qorachigini tez kichiraytirib yuboradi.

Zarrindan zaxarlanishning belgilari: nafas olishning og'irlashuvi, ko'krak qafasining og'rishi.

Vi-iks - yomon uchuvchan, suvda yomon, ammo organik erituvchilarda yaxshi eriydigan, zaxarli modda hisoblanadi. Uning zichligi 1,1 qaynash harorati esa 3000 °S, muzlash harorati 500 °S. Vi-iks tarqalgan joylarda turg'unligi: yozda - bir haftagacha, qishda esa bir oy va undan ko'p. Uning kuchli ta'siri aerazolholda kuzatiladi.

Vi-iks nafas yo'llari, teri, kiyim-kechaklar orqali ham ta'sir etib, odamlarni kuchli zaxarlaydi. Vi-iksning o'ldirish dozasi 1 daqiqa 0,01 mg, teri orqali ta'sir etganda 7 mg/l ni tashkil etadi.

Zoman - xossalari jihatidan zarin bilan Vi-iksni oralig'ida o'rinni egallab, suvda yomon eriydigan zaxarli modda. Zaxarliligi zarindan 5 marta kuchli, lekin Vi-iks kuchsiz hisoblanadi.

Terini zaxarlovchi xususiyatli qurollar guruxiga kiruvchi moddalar par va aerazol holda ishlatilib, ular asosan teri va nafas yo'llari orqali ta'sir etadi. Bu guruxning tipik vakili iprit rangsiz, moysimon suyuqlik bo'lib, organik erituvchilarda yaxshi, ammo suvda yomon eriydi. Iprit har xil govak materiallarga, lak, moy koplamlariga, rezina maxsulotlariga yaxshi yutilib, ulardan chiqib ketishi juda qiyin. Ipritning zichligi 1,3 qaynash harorati 2170 °Sga teng. Iprit bilan zaxarlangan uchastkalardan uning uchib ketishi sekinlik bilan boradi. Shu sababdan u turg'un zaxarli modda hisoblanadi: ya'ni yozda 7-14 kungacha, qishda bir oy va undan yuqori muddatlarda saqlanib turadi. Uning kuchli ta'siri tomchi holda kuzatiladi. Iprit - teri, kuz, nafas organlari hamda oshqozon-ichak yo'llarini zaxarlaydi. Uning o'rtacha o'ldirish dozasi nafas yo'li orqali ta'sir etganda 1,3 mg/l, teri orqali ta'sir etganda 5mg ga teng. Iprit ta'sirining belgilari: ikki - olti soat ichida terilar qiziradi, 24 soatdan keyin puffakchalar hosil bo'ladi, 2-3 sutkadan keyin esa ular yoriladi ipritning antidoti yo'q.

Umumiy zaxarlovchi moddalar. Bu gurux moddalari nafas organlarini ishdan chiqaradi. Odam organizmidagi tuqimalarni oksidlantirish jarayonlarini to'xtatib quyadi. Bu guruxning tipik vakili - sinil kislota - rangsiz suyuqlik bo'lib, achchiq bodom xidga ega. Uning zichligi 0,7 qaynash harorati 260 °S, muzlash harorati esa -140 °S. Sinil kislotasining zaxarli darajasi asabni pallajlovchi moddalardan kuchsiz hisoblanadi. Uning o'rtacha o'ldirish dozasi 1 daqiqada 2mg/l. Zaxarlash belgilari: ogizda metall mazasining hosil bo'lishi, tinka qurishi, bosh og'rigi, organizm a'zolari harakatining yuqolishi. Sinil kislotasining antidoti amilnitrit va prpil nitrit hisoblanadi.

Xlortsian – o'ziga xos xidli, rangsiz suyuqlik bo'lib, qaynash harorati 12,60 °S. Muzlash harorati -6,50 °S, zichligi 1,22. Uning kuchli ta'siri par holda ro'y beradi.

Bo'g'uvchi zaxarli moddalar. Bu birikmalar nafas organlarini ishdan chiqarib, o'pkani zararlaydi.

Fozgen - havodan 3,5 marta og'ir bo'lib, gazsimon modda. U asosan o'pka to'qimalarini ishdanchiqaradi. Uning uchtacha o'ldirish dozasi 1daqiqada 3,2 mg/l. Zaxarlanish belgilari: ko'zdan yosh oqizadi, bosh aylanadi, holsizlanish kuzatiladi. Fozgenning antidoti yoq.

Ruhiyatga ta'sir etuvchi zaxarli moddalar. Bu gurux moddalari asab tizimiga muayyan ta'sir etib, inson faoliyatini vaqtinchalik ishdan chiqaradi.

Bi-zet - oq kristall kukun bo'lib, uning zichligi 1,8, qaynash haroarti 4120 °S, suyulish harorati 1900 °S. Uning kuchli ta'siri aerazol ko'rinishda bo'lib, nafas yo'llari va oshqozon-ichak orqali ta'sir etadi. Zaxarlash belgilari: qusish, gapira olmaslik, so'ngra gallyutsinatsiya va hayajonlanish.

Qaltirativchi zaxarli modalar. Bundan xususiyatli moddalar ko'zning harakatchan qismini hamda nafas yo'llarining yuqori qismini ishdan chiqaradi. Bu guruxga kiruvchi moddalardan Si-es va Si-er muhim ahamiyatga ega.

Si-es - oq kristall kukun bo'lib, suvda yomon, atseton, benzollarda yaxshi eriydi. Uning qaynash harorati 3150 S, suyulish haroarati 950 S, solishtirma og'irligi 1,0 ga teng.

Si-er - qattiq kristall modda bo'lib, zaxariligi Bi-zetdan yuqori. Si-er ham inson terisini qattiq shikastlantiradi. Buning ham kuchli ta'siri aerazol ko'rinishida bo'ladi.

Toksinlar. Bakterial toksinlar, hozirgi davrda yuqori zaxarli moddalar hisoblanadi. Bunday moddalarga btulin toksini va staffilokkok enterotoksinlar kiradi.

Botulin toksini – o'ldiruvchi zaxarli moddalar ichida eng zaxarlisi hisoblanadi. Toza botulin toksini kristall modda ko'rinishida bo'ladi. Zararlanish belgilari: bosh og'rig'i, holsizlanish, ko'z xiralashishi, qusish, pallajlanish. Yuqori miya pallajlanib, natijadi odam o'ladi.

Biologik qurollar va ularning xususiyatlari.

Biologik qurollar asosan keng miqyosda odamlarni, qishloq xo'jaligi hayvonlarini, ekinlarini, o'simlik va ba'zi bir harbiy materiallarni zararlash uchun mo'ljallangan. Biologik qurollar asosini biologik vositalar tashkil etib, unga kasallik tarqatuvchi viruslar, bakteriyalar, zamburuglar va rikketsinlar kiradi. Biologik aslaxalarga aviatsiya bombasi, kassetalar, konteynerlar, changlantiruvchi jihozlar, raketalarining jangovor qismi, chayqatuvchi jihozlar va boshqalar kiradi. Biologik vositalar qo'llanishi oqibatida favqulodda epidemologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar yuzaga keladi. Bular quyidagi ko'rinishlarda kuzatiladi:

- alohida yuqumli kasalliklar tarqalganda;
- epidemiya;
- gurux kasallanishi oqibatida;
- kasallanishning va ulimning o'sishi natijasida;
- odamlarning zaxarlanishida;
- epizootik vaziyat, ya'ni hayvonot dunyosida o'tkir kasalliklarning tarqalishi;
- epifitotik vaziyat, ya'ni o'simliklarning kasallanishi.

Biologik (bakteriologik) qurollarni, odamlarga va hayvonlarga ta'siri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ya'ni ular tirik organizmga juda kichik dozada tushsa ham yuqumli kasalliklar epidemiyasini boshlaydi. Ularning tarqalish tezligi juda yuqori, ta'sir vaqti ham uzoq, ular germetik bo'lmagan saqlagichlarga oson kiradi, ularning mikroini, toksinini aniqlash juda qiyin.

Biologik qurollar quyidagi turlarga bo'linadi:

a) bakteriyalar asosida tarqaladigan kasalliklarga: o'lat, sibir yarasi (kuydirigi), vabo, tulyaremiya, sapa va boshqalar.

b) viruslar orqali kasallik tarqalishi: suvchechak, entsifalitning turli ko'rinishlari va boshqalar.

v) rikketsinlar orqali kasallik tarqalishi: chuchqa tifi.

g) zamburug`lar orqali kasalliklar tarqalishi: blastomikoza, koktsidiondomikoza, gistoplazmoza va boshqalar.

Yuqumli kasalliklarning asosiy tasniflari

Kasallik turi	Kasallikning tarqalishi	Yashirin kasallik vaqti, kun	Ish faoliyatini yo'qotish muddati, kun
O`lat	Kasallangan bemorlardan havo orqali o`tib, qurt-qumursqalardan yuqishi orqali	3	7-14
Sibir yarasi	Kasallangan hayvon yungi, terisi ushlanganda, zararlangan go`shtidan	2-3	7-14
Sapa	Yuqoridagiga o`xshash	3	20-30
Tulyaremiya	Zararlangan suvdan foydalanganda, kasallangan kemiruvchi bilan munosabatdan	3	40-60
Vabo	Zararlangan suv, ovqatdan	3	5-30
Sariq bezgagi	Chivin chaqqanda, kasallangan odam, hayvondan	4-6	10-14
Suvchechak	Zararlangan narsa-buyumdan, kasallangan odam bilan muloqotda	12	12-24
Botulizm	Zaxarlangan oziq-ovqatlarni iste'mol qilinganda	0,5-1,5	40-60

Shularning eng xavflisi va bizning o`lkamizda quproq tarqalishi mumkin bo`lgan kasalliklardan o`lat - odam va qishloq xo`jaligi hayvonlarining eng xavfli yuqumli kasalligi hisoblanib, uning tarqaruvchisi odam organizmidan tashqarida yashash davri qisqa hisoblanadi. Lekin odam so`lagi bilan chiqqan mikroba 10 kungacha yashashi mumkin.

O`lat bilan kasallangan bemorning quvvati ketib, boshi ogriydi, harorati ko`tariladi va xo`l yutalish paydo bo`ladi. Vabo - bu ham juda xavfli kasallik hisoblanib, uning tarqatuvchisi vabo vibroni mikrobidir. Vabo bilan kasallangan bemorning ichi ketib, qusadi, qaltiraydi va juda ozib-to`zib ketadi. Agar kasal davolanmasa tezda o`ladi.

Sibir yarasi - buning tarqatuvchisi Sibir yarasi mikrobi hisoblanadi. U teri, nafas yo`li, oshqozon-ichak yo`li bilan kirib, o`zining ta'sirini ko`rsatadi. Agar u teriga tushsa avval dog` hosil bo`ladi, so`ngra u shishib ichiga qon to`ladi va yorilib yara hosil qiladi. Sibir yarasi bo`lgan tananing sezuvchanligi ancha pasayib ketadi.

Botulizm - bu kasallikni botulizm toksini tarqatadi. Bu toksin juda zaxarli hisoblanadi. Masalan, uning 0,00000012 gr kristall holdagi toksini odamni zaxarlash mumkin botulizm kasalligi oshqozon-ichak yo`li bilan tarqalib, asosan markaziy asab tizimining, yurak asablarini izdan chiqaradi. Botulizm bilan kasallangan bemor holsizlanadi, bosh og`rigb, kurish qobiliyati pasayadi. Til muskullari pallajlanadi. Kasalning haroarti sog`lom odam haroratidan ancha past bo`ladi va bu bemor o`z vaqtida davolanmasa o`lim bilan tugaydi. Respublikamizning ko`pgina xududlarida ba'zi bir kasalliklarni tarqalish ehtimolligi yuqoridir.

Epidemiya jihatidan noqulay viloyatlar

Viloyatlar	Zararlanish turlari
Buxoro	Qrim gemoragik bezgagi
Qashqadaryo	Kuydirgi, qrim gemoragik bezgagi
Andijon	Kuydirgi
Namangan	Kuydirgi
Sirdaryo	Kuydirgi
Surxondaryo	Kuydirgi
Toshkent	Kuydirgi
Farg`ona	Kuydirgi
Xorazm	Kuydirgi
Qoraqalpog`iston Respublikasi	Kuydirg, kana entsefaliti

Bakteriologik qurollar ishlatilganda suyuq yoki kukun holda erga, o`simliklarga va suvga tarqaladi. Ularni esa qurt-qumurskalar tezlikda atrofga tarqatib, biologik qurolning zararlash miqyosi kengayishiga sabab bo`ladi. Biologik qurollardan saqlanish va uni tarqatmaslik choralaridan biri - bu zararlangan mintaqani karantin yoki observatsiya qilish hisoblanadi.

Radioaktiv nurlanishlar va ularning xossalari

Radioaktivlik- uning atom tartibi o`zgarishiga olib keluvchi kimyoviy element yadrosining o`z-o`zidan sodir bo`ladigan aylanishi (bir kimyoviy elementning boshqalariga aylanishi) yoki massa sonining o`zgarishiga olib keladi. Yadrolarning bu aylanishi radioaktiv nurlanishlarning chiqishi bilan sodir bo`ladi. Ular korpuskulyar va elektromagnit nurlanishlarga bo`linadi.

Yadro aylanishlarining ikki turi ma`lum-radioaktiv parchalanish va yadro reaksiyalari.

Radioaktiv parchalanishning quyidagi ko`rinishlari mavjud:

Alfa-nurlanish. Alfa zarrachalarning havodagi harakat tezligi 20000km/sek, to`lqin uzunligi 3 dan 11 sm.gacha, biologik to`qimalarga 0,1 mm. gacha kiradi. Qog`oz varag`i alfa-zarrachalarini butunlay ushlab qoladi.

Betta-nurlanish.Massasi va ionlash qobiliyati bo`yicha betta-zarrachalar alfa-zarrachalarga qaraganda kamdir. Betta zarrachalarning havodagi harakat tezligi 270000 km/sek, ya`ni yorug`lik tezligiga yaqindir.

Zarrachalarning energiyasiga bog`liq holda ularning havodan o`tish uzunligi 20 m gacha , biologik to`qimalarda 1 sm gacha bo`ladi. Deraza oynasi va bir necha millimetr qalinlikdagi metall to`siq organizmni betta-zarrachalardan himoya qila oladi. Kiyim ularni 50 % gacha ushlab qoladi.

Gamma nurlanish. Bu elektromagnit nurlanish bo`lib, radioaktiv aylanishlarda atomlarning yadrolar chiqarishidan hosil bo`ladi. O`z tabiati bilan gamma-nurlanish rentgen nurlariga yaqin, ammo ancha ko`p energiyaga (to`lqin uzunligi kam bo`lganda) ega bo`ladi. Gamma-nurlari zaryadga ega emas, tovush tezligida tarqaladi. Gamma nurlari ionlash qobiliyatiga qarab beta-zarrachalardan yuz marta, alfa-zarrachalardan bir necha o`n ming marta kamdir. Gamma nurlari eng yuqori o`tkazuvchanlik qobiliyatiga ega. Bu nurlar havoda 3 km gacha tarqala oladi.

O`tuvchi radiatsiya-gamma nurlar va neytronlar oqimidan tashkil topadi. Uning ta`sir vaqti 15-25s. Asosiy shikastlantiruvchi omili nurlantirishdir.

Nurlanish kasaliga uchragan odamlarda infekiyaga qarshilik ko`rsatish (immunitet) pasayib ketadi, to`qimalarning kislorodga to`yinmaganligi hamda qonni ivimaslik xssiyatlari paydo bo`ladi.

Radiatsiya nurlaridan ishonchli saqlaydigan vosita-b himoya inshootlari hisoblanadi. Ular gamma nurlarini trli darajada susaytiradi. Eng ishonchli himoya inshooti-bu qo'rg'oshindan, temirdan, temir-betondan qurilgan boshponalardir.

Radiaktivlik-atom yadrolarining ion nurlanishlari chiqarishi natijasida boshqa bir atom yadrolarining hosil qilishidir.

Radiktiv nurlanishlar ionlovchi nurlanishlar deb ataladi, chunki bu nurlar ta'sir etgan moddalar atom va molekularida ionlar hosil bo'ladi. Bunday ionlovchi nurlanishlarga rentgen nurlari, radio va gamma nurlari, alfa va beta nurlari, shuningdek neytron oqimlari kiradi

Alfa nurlari katta ionlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan, harakat doirasi katta bo'lmagan geliy atom yadrosining musbat zaryadlangan zarrachalari hisoblanadi. Harakat doirasi katta bo'lmaganligi sababli inson teri qavatigagina ta'sir qilib, terini yorib kira olmaydi, shuning uchun ham uncha zararli emas.

Beta nurlari radiaktiv moddalarning atom yadrolari tarqaladigan elektron yoki pozitron oqimidir. Bu nurlarning harakat doirasi ancha keng va yorib kirish qobiliyatiga ega. Shuning uchun ham inson uchun xavflidir.

Gamma nurlarining ionlash qobiliyati katta bo'lmasada katta yorib kirish kuchiga ega bo'lib, yadro reaksialari va radioaktiv parchalanish natijasida vujudga keladigan yuqori chastotadagi elektromagnit nurlari hisoblanadi.

Rentgen nurlari moddalarni elektron oqimlari bilan bombardimon qilganda ajralib chiqadigan eletromagnit nurlaridir.

Ularni har qanday elektrovakuum qurilmalarida hosil qilish mumkin. Bu nurlarning ionlanish xususiyatlari oz bo'lsa-da, yorib kirish xususiyati nihoyatda katta.

Radioaktiv nurlarning organizmiga ta'siri

Radioaktiv moddalar ma'lum xususiy xossalarga ega bo'lib, inson organizmiga ta'sir qilishi natijasida xavfli vaziyat vujudga kelishi mumkin.

Radioaktiv moddalarning eng xavfli tomoni shundaki, uning ta'siri inson organizmidagi sezish organlari orqali sezilmaydi. Ya'ni inson radioaktiv nurlar ta'sirida uzoq vaqt ishlashiga qaramasdan ularning zararli ta'sirlarini mutlaqo sezmasligi mumkin. Buning natijasi esa ayanchli tugaydi. Shuning uchun ham radioaktiv moddalar bilan ishlaganda, ayniqsa, o'ta ehtiyotkor bo'lishi kerak.

Inson organizmining radioaktiv nurlanishi ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Tashqi tomondan nurlanish ma'lum tashqi nurlanuvchi manba ta'sirida kechganligi sababli, tarqalayotgan nurlarning kirib borish kuchi katta ahamiyatga ega. Kirib borish kuchi yuqori bo'lgan nurlarning organizmga zarari ham kuchliroq bo'ladi.

Ichki nurlanish nur tarqatuvchi moddalar inson organizmining ichki tizimlariga, masalan, yemirilgan teri qatlamlari orqali qonga, nafas olish a'zolari, o'pkaga va shilimshiq moddalarga, ovqat hazm qilish a'zolariga tushib qolgan taqdirda ro'y beradi.

Bunda nurlanish nur tarqatuvchi modda qancha vaqt nurlansa yoki qancha vaqt davomida organizmga saqlansa, shuncha vaqt davom etadi. Shuning uchun ham radioaktiv moddalarning katta parchalanish davriga va kuchli nurlanishga ega bo'lganda, ayniqsa, xavfli hisoblanadi.

Radioaktiv nurlanishlarning biologik ta'siri organizmdagi atom va molekularning ionlanishi sifatida tavsiflanadi va bu o'z navbatida har xil kimyoviy birikmalar tarkiblarining o'zgarishiga va normal molekulyar birikmalarda uzilishlar bo'lishiga olib keladi. Bu o'z navbatida tirik hujayralardagi modda almashinuvining buzilishiga va organizmda biokimyoviy jarayonlarning ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Katta kuchdagi nurlanish ta'siri uzoq vaqt davom etsa, ba'zi bir

hujayralarning halokati kuzatiladi va bu ayrim a'zolarining, hattoki butun organizmning halokati bilan tugaydi.

Radioaktiv nurlanishlar ta'sirida organizmning umumiy qon aylanish tizimining buzilishi kuzatiladi. Bunda qon aylanish ritmi susayadi, qonning qo'yilish xususiyati yo'qola boradi, qon tomirlari, ayniqsa, kapillyar qon tomirlari mo'rt bo'lib qoladi, ovqat hazm qilish a'zolarining faoliyati buziladi, odam ozib ketadi va organizmning tashqi yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati kamayadi.

Radioaktiv moddalarning qo'lga ta'sir qilishi oldin sezilmaydi. Vaqt o'tishi bilan qo'l qurushqoq bo'lib qoladi, unda yorilishlar kuzatiladi, tirnoqlar tushib ketadi.

Radioaktiv nurlarning alfa va beta nurlari tashqaridan ta'sir ko'rsatganda organizmning teri qavati yetarlicha qarshilik ko'rsata oladi. Ammo bu radioaktiv nurlar ovqat hazm qilish a'zolariga tushib qolganda ularning zararli ta'siri kuchayib ketadi.

Ko'pchilik radioaktiv moddalar organizmning ba'zi bir qismlarida yig'ilish xususiyatiga ega. Masalan jigar, buyrak va suyaklarda yig'ilishi butun organizmni tezda ishdan chiqaradi.

Ba'zi bir radioaktiv moddalar zararli bo'lib, ularning zaharlilik darajasi eng xavfli zararli moddalarnikidan ham yuqori bo'ladi.

Organizmning nurlanish dozasini hisobga olib radioaktiv moddaning inson organizmidagi miqdorini baholash mumkin.

Radioaktiv nurlarni normalash

Radioaktiv izotoplar bilan ish bajariladigan sanoat korxonalarida, bu korxonalarda to'g'ridan-to'g'ri shu izotoplar bilan ishlayotganlardan tashqari, qo'shni xonalarda boshqa ishlar bilan shug'ullanayotganlar, shuningdek sanoat korxonasi joylashgan zonada yashovchilar ham birmuncha radioaktiv nurlanishlar ta'siriga tushib qolishlarini hisobga olish kerak. Ishchilarni va boshqa ishlar bilan radioaktiv zonalarda shug'ullanayotgan va yashayotgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositalari: xavfsiz oraliq masofalari bilan ta'minlash, nurlanish vaqtini kamaytirish, umumiy muhofaza vositalari va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishdir. Bunda radioaktiv nurlanishlar miqdorini o'lchash asboblaridan foydalanib nurlanish dozasini bilish muhim ahamiyatga ega.

Ionlashtirilgan nurlanishlardan ishchilarni saqlash qoida va normalari hamda qo'llaniladigan himoya vositalari juda xilma-xildir.

Asosiy normalovchi hujjat sifatida quyidagilardan foydalaniladi: «Radioaktiv xavfsizlik normalari (NRB-76)». «Radioaktiv moddalar va boshqa ionlashgan nurlanish manbalari bilan ishlovchilar uchun asosiy sanitariya qoidalari» (OSP-72); GOST 12.2.018-76 «SSBT. Rentgen qurilmalari. Xavfsizlikning umumiy talablari»; GOST 17.4.001-75 «SSBT. Ishchilarni muhofaza qilish vositalari sinflari». Joriy qilingan normalar bo'yicha nurlanishning yo'l qo'yiladigan dozasi (YQB), shuningdek ishlovchi uchun bir yillik nurlanish darajasi 50 yil davomida organizmda yig'ilgan taqdirda uning sog'ligiga va avlodlari sog'ligiga zarar etmaydigan miqdorlari belgilangan.

Radioaktiv nurlanishlar kishi organizmining hammasiga birdan ta'sir ko'rsatmasdan, ba'zi bir a'zo va hujayralarini ko'proq zararlanishi aniqlangan. Shuning uchun ham nurlanishning umumiy dozasi emas, balki organizmning qaysi qismida radioaktiv nurlanuvchi moddalar yig'ilganligi hisobga olinadi. Chunki bu yig'ilgan qismlardagi radioaktiv moddalar butun organizm falokatini ta'minlashi mumkin.

Shuning uchun radioaktiv nurlanishlarni xavfsizlik normalari NRB-76 bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan dozalari ichki va tashqi nurlanishlar bo'yicha belgilanganda, nurlanuvchilar toifasi va xavfli a'zolar hisobga olinadi.

A-toifasi: ionli nurlanishlar manbalarida mehnat qilganliklari sababli, nurlanish ta'siriga duchor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar.

B-toifasi: nurlanishlar bilan ish olib boriladigan sanoat korxonasi joylashgan joyda, yoki unga yaqin zonalarda yashovchi shaxslar.

V-toifasi: mamlakatning hamma aholi yashash punktlari.

Ichki va tashqi nurlanishlar uchun yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza inson organizmining muhim qismlarini 3 guruhga bo'lish bilan belgilanadi:

1- butun tana, qizil suyak iligi;

2- muskullar, qalqonsimon bez, yog' to'plovchi hujayralar, jigar, buyrak, taloq, ovqat hazm qilish a'zolari, o'pka, ko'z qorachig'i va boshqalar;

3- suyak to'qimalari, qo'l terisi, elka, boldir va tovonlar.

A toifasiga kiradigan ishchilarning muhim xavfli a'zolarining ichki va tashqi nurlanishda yo'l qo'yiladigan dozasi quyidagicha:

1.-jadval

Xavfli organlar va hujayralar guruhi	Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza, (ber)	
	1 kvartalda	1 yilda
1	3	5
2	8	15
3	15	30

Har qanday holatda ham 30 yil davomida yig'ilgan doza yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan dozadan 12 martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

2.-jadval

Nurlanish ta'siridagi kishilar toifalari	Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza (yiliga ber hisobida, xavfli organlar guruhlar uchun)		
	1	2	3
A	5	15	50
B	0,5	1,5	3

Ishchilarning ichki nurlanishlarini kamaytirish uchun radioaktiv moddalarni ochiq holatda ishlatishga yo'l qo'ymaslik, odam ichki a'zolariga, xonadagi havo muhitiga tushib qolmasligini ta'minlash, shuningdek radioaktiv moddalar bilan qo'l, kiyim va xonadagi jihozlar yuzasini zararlantirishdan saqlash kerak. Ochiq holda ishlatilganda ichdan nurlantirish xavfi bo'lgan radioaktiv moddalar besh guruhga bo'linadi.

A-nihoyatda yuqori nurlanish faolligiga ega bo'lgan izotoplar;

B-yuqori nurlanish faolligiga ega bo'lgan izotoplar;

G-kichik nurlanish faolligiga ega bo'lgan izotoplar;

D-nurlanish faolligi juda kam bo'lgan izotoplar.

Radioaktiv moddalar bilan ochiq holda ishlaganda ularning zararli nurlanish aktivligiga qarab uch sinfga bo'linadi. Zararli nurlanish aktivligi bo'yicha 3 sinfga mansub moddalar kimyo laboratoriyalarida ishlash mumkin. 1 va 2 sinf moddalar bilan esa, maxsus jihozlangan va ma'lum sanitariya-gigiyena va texnik talabga javob beradigan xonalarda ish olib borish tavsiya etiladi. 3 sinf moddalarni ishlatganda ba'zi bir yengil operatsiyalarni ish stolida, asosan esa, maxsus shamollatiladigan shkaflarda bajariladi. 1 va 2 sinf radioaktiv moddalar bilan ishlash asosan shamollatiladigan shkaflarda yoki maxsus bokslarda amalga oshiriladi.

Radioaktiv moddalar bilan ishlaganda, radioaktiv modda zarralari ish joylarini, odamning qo'llari va boshqa ochiq tana qismlariga o'tirib qolishi, havo muhitiga o'tib qolishi va u yerda radioaktiv nurlanish manbalari hosil qilishi mumkin. Shuningdek bu radioaktiv changsimon moddalar nafas yo'llari yoki teri orqali organizm ichki a'zolariga kirib qolishi mumkin.

Terining nurlanish dozasini katta aniqlik bilan hisoblash imkoniyatlari bor. Buning uchun ish bajarilayotgan zonaning zararlanish darajasi aniqlanadi. Bunda ishlatilayotgan moddaning aktivligi va zararlangan yuzaning kattaligi hisobga olinadi.

Ichdan nurlanish dozasini hisoblash ancha qiyin, chunki u bir qancha omillarga bog'liq. Teri shaxsiy muhofaza aslahalari va xonalar ishchi yuzalarining yo'l qo'yiladigan zararlanish darajasi aniqlanmaydi. Bular radioaktiv moddalar bilan ishlashda orttirilgan tajribalarga asoslangan sanitariya qoidalarida belgilanadi.

Radioktiv nurlardan saqlanish va radioaktiv nurlardan himoyalanish tadbirlari

Bir qancha ilmiy tekshirish muassasalarida va sanoat korxonalarida har xil maqsadlar uchun radioktiv moddalardan foydalaniladi.

Masalan, mashinasozlik sanoatida radioktiv moddalardan quyma detallardagi kamchiliklarni va payvand qilingan joylarning va detallarning sifatini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Kristallsimon moddalarning tarkibini tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va avtomatlashtirishda ham radioktiv nurlar yaxshi natija beradi.

Ionlashgan nurlar inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatib, og'ir kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo'lishi mumkin. Uning ta'sirida inson og'ir kasallik hisoblanadigan nur, oq qon kasalligi va har xil xavfli shishlar, teri kasalliklariga duchor bo'lishi mumkin. Shuningdek ionlashgan nurlar ta'sirida genetik ta'sirlanish, ya'ni keyingi avlodlarga ham ta'sir ko'rsatuvchi nasliy kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

Radioktiv nurlarning eng xavfli joyi shundaki, inson organizmida bu kasallik yaqqol namoyon bo'lguncha hech qanday belgiga ega bo'lmaydi. Aniqlangandan keyingi holat esa nihoyatda og'ir bo'lishi va ko'pincha o'lim bilan tugashi mumkin.

Radioktiv moddalar bilan ishlaganda ishni to'g'ri tashkil qilish va muhofaza chora-tadbirlar qo'llash xavfsizlikni ta'minlaydi.

Radioaktiv moddalar bilan ishlayotgan ishchilarni nurlanishdan muhofaza qilishning turli xil usullaridan foydalaniladi. Bunda nurlanish tashqi va ichki bo'lishini hisobga olish zarur. Tashqi nurlanishlardan saqlanishda asosan nurlanish vaqtini belgilash nurlanayotgan modda bilan ishchi orasidagi masofani saqlash va ekranlar yordamida to'siq vositalaridan foydalaniladi. Ishchining radioaktiv nurlanish zonasida bo'lish vaqti, uning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan dozada nurlanish olish vaqtidan oshmasligi kerak.

Nurlanish intensivligi nurlanayotgan modda bilan ishchi orasidagi masofa kvadratiga teskari proportsional ekanligini hisobga olganda, ma'lum masofada turib ishlaganda ekranlardan foydalanmasa ham bo'ladi.

Muhofaza ekranlari konstruktsiyalari har xil bo'lib, ularning bir joyga o'rnatilgan, harakatlantiradigan, qismlarga bo'linadigan va stol ustida ishlatiladigan turlari bo'ladi. Muhofaza ekranlari har xil moddalarning nurlanish zararlarini o'tkazmaslik xususiyatiga asoslangan. Ekran qalinligini uni muhofaza qilishi zarur bo'lgan nurlanuvchi modda intensivligini hisobga olgan holda ma'lumotnomalarda keltirilgan jadval va nomogrammalar asosida qabul qilinadi.

Alfa nurlanishlardan saqlanishda ekran qarshiligini hisoblashning ehtiyoji yo'q. Chunki bu nurlanishlar harakat doirasi eng kuchli radioaktiv moddalarda ham 55 mm dan oshmaydi. Alfa nurlarining oyna, pleksiglaz, folyaning eng yupqa xili ham ushlab qolish imkoniyatiga ega.

Beta nurlanishlardan muhofaza qilishda beta nurlarining harakat masofalarini hisobga olgan holda ekran moddasi va qalinligi tanlanadi.

Gamma nurlanishlardan muhofaza qilishda og'ir metallardan foydalanish kerak. Masalan, qo'rg'oshin, volfram va boshqalar yaxshi natija beradi.

O'zlarining muhofazalanish xususiyatiga ko'ra o'rtacha og'irlikdagi metallar ekran sifatida yaxshi natija beradi (po'lat, chuyan, mis birikmalari va boshqalar).

Ekranlar yordamida ish joylaridagi nurlanishni hohlagan miqdorda kamaytirish imkoniyatlari bor.

Rentgen qurilmalarini ishlatganda ikki xil nurlanish hosil bo'ladi. Bular to'g'ri tushayotgan nurlar va har xil yuzalarga tushib qaytgan nurlardir. Ish bajarilayotgan vaqtda bu nurlarning ikkalasidan ham muhofazalanish chora-tadbirlarini ko'rish kerak.

Muhofaza ekranlarining puxta ishlayotganligi o'lchash asboblari yordamida tekshirilib turiladi. Yopiq holdagi nurlanuvchi moddalar bilan ishlaganda asosan tashqi nurlanishlarga qarshi muhofaza aslahalaridan foydalaniladi.

Sanoat korxonalarida ishchilar metall va kristallarning tarkibi tahlilini o'tkazayotgan vaqtda rentgen nurlanishlariga yoki lampa genyeratorlar ta'siriga tushib qolishlari mumkin. Ishchilarning rentgen nurlari ta'sirida kasallikka chalilib qolmasliklarini ta'minlash uchun ish bajariladigan xonalarni rentgen nurlarini o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlangan ekranlar bilan to'sish lozim. Qo'rg'oshin plastinkalari, qo'rg'oshinlashtirilgan rezina materiallari bunday nurlarni yutish qobiliyatiga ega.

Rentgen qurilmalarini quruq, yog'och polli xonalarga o'rnatish kerak. Bu xonalarning shamollatish darajasi 3-5 dan kam bo'lmasligi kerak.

Ochiq holatdagi radioaktiv moddalar bilan faqat bosimi kamaytirilgan, mustahkam yopiladigan shkaf, boks va kamyeralarda ish bajarish kerak. Qurilmaning mustahkam byerkitilganligi tekshirib turiladi.

Ish bajarish joylariga qo'lqoplar o'rnatib qo'yilgan bo'ladi. Bunday qurilmalar uchun bosim kamaytirilishi 200 Pa dan kam bo'lmasligi va bu tekshirib turilishi kerak.

Izotoplar bilan bajariladigan har xil operatsiyalarni bokslarda bajarish tavsiya etiladi. Bokslar pleksiglas, allyuminiy, zanglamaydigan po'lat bilan qoplangan byerk kamyeralardan iborat bo'lib, unga rezina qo'lqop yoki manipulyatorlar o'rnatilgan bo'ladi. Boks ichidagi bosim ma'lum miqdorda kamaytirilgan bo'lib, bosim o'lchash asboblari bilan tekshirib turiladi.

Bu qurilmalar radioaktiv moddalar yordamida turli vazifalarni bajarish imkoniyatini beradigan qurilmalar bilan jihozlanadi.

Radioaktiv moddalar bilan ish bajariladigan binolarning devorlari, pol, shift va eshiklari tekis va silliq bo'lishi kerak. Hamma burchaklar, radioaktiv moddalardan tozalanishi oson bo'lishi uchun yarim aylana shakliga keltirildi. Xonalarda shaxsiy muhofaza vositalari uchun havo berish tizimlari tashkil qilinadi.

Bino maxsus sanitariya-gigiyena jihozlariga ega bo'lishi kerak. Bular yuvinish qurilmalari, dush xonalari, suv ichish favvorolari va boshqalardir. Bu qurilmalar tuzilishiga ko'ra shunga o'xshash sanitariya-texnik qurilmalaridan bir muncha farq qiladi. Masalan, qo'l yuvish qurilmalarida kran o'rniga pedal o'rnatiladi. Shuningdek, bu xonalarda albatta issiq suv ta'minoti bo'lishi shart. Kanalizatsiya tizimlari zararsizlantirish qurilmasiga ega bo'ladi.

Radioaktiv moddalar maxsus zich yopiladigan idishlarda saqlanadi. Radioaktiv moddalar bilan ish bajariladigan va ular saqlanadigan binolarni eshiklariga radioaktiv xavf belgisi qo'yiladi.

Radioaktiv nurlarni o'lchash asboblari

Nurlanishlar bilan ish olib borayotganda inson organizmiga ta'sir ko'rsatayotgan nurlanish dozasini va ish joylaridagi nurlanish miqdorini bilib turish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham o'lchov asboblari katta ahamiyat beriladi.

O'lchash asboblarning ishlash tizimi ionlanish, stsintilyatsiya va fotografiya usullariga asoslangan. Ba'zi bir gazlar radioaktiv nurlar ta'sirida elektr o'tkazuvchan bo'lib qolish qobiliyatiga ega. Ionizatsiya usuli shunga asoslangan.

Stsintilyatsiya usuli esa gaz, kristall va eritmalarining ionlashtirilgan nurlanishlarni yutishi natijasida ko'rinadigan nurlar tarqatish xossasiga asoslangan. Fotografiya usuli ionlovchi nurlanishlar fotoemulsiyaga ta'sir ko'rsatishiga qarab belgilanadi.

O'lchash asboblari radioaktivlikni yoki zararlanish dozasini o'lchaydigan turlarga bo'linadi. Radiometrik asboblari radioaktiv moddalar qancha zarrachalar va kvantlar ajratayotganini o'lchaydi.

Dozimetrik asboblari esa ionlashtirilgan nurlanishlar qancha enyergiyani uzatayotgani yoki ob'yektga tushayotganini o'lchaydi.

Radiometrik va dozimetrik asboblari umuman sanoat korxonalarini holatini o'lchash uchun hamda shaxsiy nazorat vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. Shaxsiy nazorat har bir ishchi uchun ishlatgan davridagi ma'lum vaqtlarda (masalan, kun yoki hafta davomida) nurlanishlar darajasini aniqlash imkoniyatini beradi. Dozimetrlar ishchi tanasining eng ko'p nurlanish olishi mumkin bo'lgan qismiga o'rnatiladi.

Radiatsiyaga qarshi panajoylar, ularning ichki jihozlanishi.

Radiatsiyaga qarshi panajoylar radioaktiv (ifloslanish) zaharlanishiga odamlarni ion hosil qiluvchi nurlanishdan muhofaza qiladi. Bundan tashqari to'liq zarbasi, yoriqlik nurlari, oqib kiruvchi radiatsiya, neytron oqimi, teri va kiyimga radioaktiv moddalar tushishi, zaharli modda, bakterial vositalardan muhofaza qiladi. Ko'p qavatli binolarning yerto'lalarida radiatsiyadan saqlanish uchun maxsus joy tayyorlash mumkin. Muhofazalovchi panajoylarni tayyorlashda yig'ma temir-beton vositalaridan, g'isht, yog'och materiallar hamda toshdan foydalansa bo'ladi.

Radiatsiyadan saqlashda devorlari muhofazalash xususiyatiga ega bo'lgan yerto'lalar, poliz mahsulotlari saqlanadigan omborlar va yer ustidagi binolardan foydalanish mumkin. Barcha eshik, derazalar va boshqa radiatsiya kirishi mumkin bo'lgan teshik (mo'ri)lar kigiz yoki yumshoq gazlama bilan zichlab yopiladi. Rana joy (30 nafar odamga mo'ljallangan bo'lsa) tabiiy havo oqimi bilan shamollatish va so'ruvchi quti qo'yiladi. So'ruvchi quti shamollatgichdan 1,5-2 m. yuqorida qo'yiladi. Sirtqi havo chiqaruvchi qutichaga qopqoq ishlanadi. Kirish joyiga yaxshilab qopqoqcha qilinadi.

Pana joyda suv va kanalizatsiya bo'lmasa, bir kecha-kunduzga har bir odam uchun 3-4 litr suv, hojatxona, axlat to'kiladigan o'ra, oziq-ovqat uchun javon imkoniyatlari yaratiladi.

Yog'ochdan tiklangan uylar radiatsiya koeffitsientini taxminan 100, toshdan ishlangan uylar 800, jihozlanmagan yerto'la 7-12 marta, jihozlangan yerto'lalar 350-400 marta kamaytiradi.

Nurlanishga qarshi panajoylar, ularning ichki jihozlanishi.

Kollektiv himoya vositalariga radioaktiv zaharlovchi moddalar va bakterial vositalardan himoyalovchi maxsus jihozlangan muhandislik inshootlari va obyektlari kiradi. Ushbu inshootlar odamlarni yadro quroli, zaharlovchi moddalar va bakterial vositalar hamda oddiy qurollar ta'siridan himoya qilishga mo'ljallangan.

Kollektiv himoya qilish vositalari fuqarolarni ommaviy zarar yetkazuvchi qurollar ta'siridan to'liq saqlaydi va ularning ikkinchi xiliga radiatsiyaga qarshi panajoylar kiradi. Ushbu inshootlar

radioaktiv zararlanish paydo bo'lgan joylarda odamlarni radiatsion zararlanishdan va yorug'lik nurlanishdan himoya qiladi.

Bundan tashqari panajoylar o'tuvchi radiatsiyadan (shu jumladan neytron oqimlaridan), qisman yadro portlashining zarb to'liqidan, zaharlovchi moddalarning suyuq tomchisidan va bakterial vositalar aerosollarning bevosita odamlar terisiga va kiyim-kechaklariga tushishidan saqlaydi.

Radiatsiyaga qarshi panajoylarning radioaktiv nurlanishlaridan himoya qilish xususiyatlari, uning himoya koeffitsiyenti bilan baholanadi. Himoya koeffitsiyenti radiatsiyaga qarshi panajoyning radiatsiya ta'sirini necha marta kamaytirishini, fuqarolarning nurlanish dozasini qancha kam olishini ko'rsatadi. Radiatsiyaga qarshi panajoylarning himoya koeffitsiyenti juda yuqori bo'ladigan qilib quriladi. Masalan, yog'och uylaridagi yerto'lalar radiatsiya nurlanishini 7-12 marta kamaytiradi, g'ishtli binolar esa 200-300 marta kamaytiradi.

Nurlanishga qarshi panajoylar mahalliy uskunalaridan quriladi. Panajoylar qurilishi uchun avvalambor o'ra (kotlovan) qaziladi va unga ustunlar o'rnatiladi. Ustunlarni o'rnatish uchun turli konstruksiyadagi: yalpi rom, rom-blok, sinch devor, temir beton va boshqa materiallardan foydalaniladi. O'ralar va ustunlar orasidagi barcha teshik va yoriqlar tuproq bilan to'ldiriladi. Panajoylarning qarama-qarshi tomonlariga qalin eshik quyiladi va bu yerdan tambur uchun joy ajratiladi. Kirish joylarning o'lchami 80-180 sm. bo'lishi kerak. Panajoy ichining balandligi 2 metrdan kam bo'lmasligi kerak, polning yuzi bir odamga 0,5 metr, sig'imi 5 tadan 50 ta odamgacha va undan ko'proq bo'lishi mumkin. Panajoy ichiga suv yig'iladigan kanal qaziladi, chiqish tomoniga qiyalab to'g'rilab qo'yiladi.

Panajoy atrofida ham kanal qaziladi. Odamlar dam olishi uchun ikki qavatli so'ri va kursilar o'rnatiladi. Panajoyda havo beradigan qurilma bo'lishi zarur. Havo haydaydigan yo'llar yerdan 3 metr balandlikka joylashgan bo'lishi kerak, shuning bilan birga panajoyni to'satdan yuz beradigan portlashdan himoya qilishga moslab qurish kerak. Havo berish meyorlari panajoyda o'tirgan bir kishiga soatiga 2-3 kub metr bo'lishi kerak. Panajoyda ishlayotgan bir kishiga uchun havo berish meyorlari esa soatiga 5 kub metrni tashkil etish kerak. Panajoyga umumiy isitish tizimi tarmog'i o'tkaziladi. Suv bilan ta'minlash vodoprovod orqali amalga oshiriladi va albatta suv zahirasi tayyorlanib qo'yiladi. Har bir kishi uchun suv zahirasi bir kunga 6 litrni tashkil qilishi kerak. Chiroq elektr tarmog'idan olinadi, avariya holatlarida esa akkumulyatordan va kichkina elektrofonarlardan foydalanish mumkin.

Texnogen turdagi favqulodda vaziyatlar (kuchli ta'sir etuvchi moddalarning oqishi, tarqalishi) sodir bo'lganda panajoylarda ishchi va xizmatchilar hamda aholini hayot faoliyatini ta'minlashni tashkil etish va o'z vaqtida bu borada kerakli tadbirlarni olib borish usullari qonunda ko'rsatilganidan obyekt rahbari- fuqaro muhofazasi boshlig'ining zimmasiga yuklatiladi.

Nazorat savollari

1. Bakteriologik qurol, biologik qurol — qanday qurol?
2. Biologik qurollar va ularning xususiyatlari.
3. Favqulodda epidemologik, epizootic va epifitotik vaziyatlar qanday ko'rinishlarda kuzatiladi?
4. Biologik qurollar qanday turlarga bo'linadi?
5. Yuqumli kasalliklarning asosiy tasniflari?
6. O'lat qanday kasallik?
7. Vabo qanday kasallik?
8. Sibir yarasi — qanday kasallik?
9. Botulizm — kasalligi qanday tarqaladi?

10. Epidemiya jihatidan noqulay viloyatlar?
11. Radioaktiv nurlar va uning parametrlari nima?
12. Nurlanishlarning yutilgan dozasi, ekspozitsion doza va ekvivalent dozalar haqida ma'lumotlar keltiring?
13. Radioaktiv nurlarning o'lchov birliklari haqida tushunchangiz?
14. Radioaktiv nurlarning inson organizmiga ta'siri qanday bo'ladi?
15. Nurlanish me'yorlari, Nurlanuvchilar kategoriyalari va insonning nurlanishga xavfli organlari qaysilar?
16. Radioaktiv nurlanishlardan saqlanish chora-tadbirlarini nima?

7-Mavzu: FAVQULODDA VAZIYATLAR XAVFI TUG'ILGANDA VA SODIR BO'LGANDA AHOLIGA XABAR BERISH VA ULARNI XAVFLI HUDUDLARDAN XAVFSIZ HUDUDLARGA KO'CHIRISHNI (EVAKUATSIYA QILISHNI) TASHKILLASHTIRISH

Reja;

1. Favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilishning asosiy usullari.
2. Aholini ko'chirishni tashkil etish va o'tkazish.
3. Fuqaro muhofazasi himoya inshootlarining turlari va ulardan foydalanish.
4. Yer osti qurilmalaridan boshpana sifatida foydalanish.

Favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilishning asosiy usullari.

Tinchlik va urush vaqtlarida favqulotdagi vaziyatlarda aholini muhofaza qilish fuqaro muhofazasining asosiy vazifalaridan biridir.

Tinchlik vaqtida favqulotdagi vaziyatlarda aholini muhofaza qilishning asosiy yunalishlari quyidagicha:

1. Aholini favqulotdagi vaziyat boshlanishi yoki boshlanganligi haqida xabardor qilish.
2. Aholini favqulotda vaziyat sodir bo'lgan joylardan boshqa xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish.
3. Aholini fuqaro muhofazasini muhofaza qilish joylariga ko'chirish (berkitish).

Urush vaqtida aholini favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy yunalishlari quyidagicha:

1. Aholini fuqaro muhofazasining muhofaza qilish joylariga berkitish.
2. Aholini evakuatsiya qilish, ishchi va xizmatchilarni va ularning oilalarini birinchi kategoriya obektlaridan, shahardan tashqarida joylashgan, xavfsiz zonalarga va shahar tashqarisidagi hududlarga ko'chirish.
3. Aholi tomonidan shaxsiy individual himoya vositalarini nafas olish va terini himoya qilish uchun ishlatiladigan anjomlardan, medik vositalardan foydalanish.

Radioaktiv zararlanish va kimyoviy zaharlanish paytidagi chora tadbirlar.

1. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.
2. Fuqaro muhofazasining muhofaza qurilmalarida berkinish va eng oddiy joylarda berkinish.
3. Zaharlangan joylarda bo'lganda belgilangan rejimlarga rioya qilish.
4. Zaharlangan joylardan zaharlanmagan joylarga evakuatsiya qilish.
5. Tibbiyot vositalarni ishlatishni qo'llash.
6. To'la va qisman sanitar tadbirlarini olib borish.

Suv bosgan joylarda aholini muhofaza qilish.

1. Aholini asosan xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish;

2. Suv bosishi mumkin bo'lgan hududlarda yashovchi aholini oldindan ogohlantirish, sodir bo'lgan taqdirda qanday choralarni ko'rishni oldindan tushintirish;

3. Tezkor evakuatsiya zarur bo'lmagan vaqtda balandroq joylarga chiqib olish, keyinchalik esa xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish.

Aholini muhofaza qilishda fuqaro muhofazasi muhandislik xizmati, ishchilar, korxonalar ishchilari quyidagi ishlarni o'tkazishlari kerak:

1. Fuqaro muhofazasi muhofaza qilish joylarini qurish, shuningdeq yer osti qurilmalarini ta'mirlash (yer to'ralarni, yer osti o'tish joylarini).

2. Qutqarish ishlarida ishtirok etish va boshqa ishlarni bajarish, imoratlarni tiklash, fuqaro muhofazasi qurilmalarini va muhandislik qurilmalarini tiklash.

Yong'inlar bilan kurashish.

Yong'in, bu- kuchli issiqlik natijasida moddiy va ma'naviy boyliklarni bir necha daqiqada yo'q qiluvchi, atrof-muhitni izdan chiqaruvchi favqulodda vaziyatdir. Yong'in uy sharoitida nazorat qilinishi mumkin bo'lgan dastlabki daqiqadan uch daqiqagacha bo'lgan vaqt oralig'ida nazorat qilib bo'lmaydigan darajada kuchayadi.

Yong'inlarga qarshi kurash asosan yong'iniga qarshi kurashadigan xizmatchilarga zimmasiga yuklatilgan, ular zamonaviy texnika bilan ta'minlangandirlar. Yong'inlarga qarshi kurashishni takomillashtirish uchun yong'iniga qarshi muhofazani rejalashtirib borish va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazib turish zarur. Fuqaro muhofazasida butun aholini yong'iniga qarshi kurashishgi o'rgatish kerak, kerakli moslamalarni saqlash lozim. Elektr asbob-uskunalar, apparatlar, isitgichlar va isitish anjomlarini yong'iniga qarshi moslanganligi maqsadga muvofiqdir.

Aholini ko'chirishni tashkil etish va o'tkazish.

Aholini ko'chirish - bu tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar zonalarida va ular yuzaga kelish ehtimoli bor zonalaridan aholini transportda (piyoda) tashkiliy olib chiqish hamda uni oldindan (FV manbalarining shikastlovchi omillarining ta'sir zonalaridan tashqarida) tayyorlab quyilgan xavfsiz joylarga qisqa muddatli joylashtirish tadbirlari majmuidir.

Ko'chirish tadbirlarini o'tkazish xususiyatlari quyidagilarga qarab belgilanadi:

- Favqulodda vaziyatlar manbaining tavsifi (tusi);

- Favqulodda vaziyatlar manbai ta'sir ko'rsatishining makon-vaqt (tavsiflari);

- Transportda (piyoda) olib chiqiladigan aholining soni va qamrab olinishi;

• - Aholini ko'chirish tadbirlarining o'tkazilish vaqti va qanchaliq shoshilinchligi.

• Qachonki ko'chirilishi kerak bo'lgan aholining hammasi favqulodda vaziyatlar manbaining shikastlovchi omillari ta'sir zonasi chegarasidan tashqariga transportda (piyoda) olib chiqib bo'linsa, shundagina aholini ko'chirish tugallangan hisoblanadi. O'tkazilish vaqti va muddatiga qarab, aholini ko'chirishning 2 turi (varianti) mavjud:

1. Oldindan o'tkaziladigan ko'chirishlar.

2. Shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) ko'chirishlar.

Oldindan o'tkaziladigan ko'chirishlar favqulodda vaziyatlar (potensial xavfli obyektlardagi falokatlar yoki tabiiy ofatlar) yuzaga kelish ehtimoli yuqori darajada ekanligi haqida ishonchli ma'lumot olinganda o'tkaziladi. Bunga bir necha o'n daqiqadan bir necha sutkagacha davr ichida favqulodda vaziyat sodir bo'lishi mumkinligi haqidagi qisqa muddatli ishonchli oldindan taxminlash asos hisoblanadi. Bu taxminga shu muddat mobaynida aniqlik kiritilishi mumkin.

Shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) ko'chirishlar odamlarning hayoti va salomatligiga xavf tug'iladigan darajada texnogen yoki tabiiy tushdagi favqulodda vaziyat yuzaga kelgan, aholining risoladdagidek kun kechirishi buzilgan taqdirda o'tkaziladi.

Favqulodda vaziyat rivojlana borishi va favqulodda vaziyat zonasidan olib chiqiladigan aholi soniga qarab, ko'chirishning 3 xil (variant) bo'ladi:

1. Cheklangan ko'chirishlar.
2. Mahalliy ko'chirishlar.
3. Mintaqaviy ko'chirishlar.

Cheklangan ko'chirishlar. Favqulodda vaziyat manbai shikast omillarining ehtimol bo'lgan ta'sir zonasi shahar, kichik tuman yoki qishloq aholi punkti chegarasi ichidan chiqmay, ko'chiriladigan aholi soni bir necha ming kishidan oshmagan taqdirda o'tkaziladi. Bunday holda ko'chirilgan aholi, odatda, favqulodda vaziyat zonasiga tutash aholi punktlariga yoki shaharning shikastlanmagan tumanlariga (FV manbaining shikastlovchi omillari ta'sir zonasidan tashqarida) joylashtiriladi.

Mahalliy ko'chirishlar o'rtacha kattalikdagi shaharlar, yirik shaharlarning alohida tumanlari, qishloq tumanlari favqulodda vaziyat zonasiga tushib qolgan hollarda o'tkaziladi. Bunda ko'chiriladigan aholining soni bir necha mingdan o'nlab ming kishigacha yetishi mumkin bo'lib, ular, odatda, favqulodda vaziyatlar zonasi bilan yondosh xavfsiz joylarga joylashtiriladi.

Mintaqaviy ko'chirishlar shikastlovchi omillar anchagina keng moydonga yoyilib, yirik shaharlarni ham o'z ichiga olgan, aholisi juda zich joylashgan bitta yoki bir necha mintaqa hududini qamrab olganda amalga oshiriladi. Mintaqaviy evakuatsiyada favqulodda vaziyat zonasidan transportda (piyoda) olib chiqiladigan aholi domiy yashab turgan joylaridan anchagina uzoqqa ko'chirilishi mumkin.

Favqulodda vaziyat zonasiga tushib qolgan aholining qanchasi ko'chirish tadbirlari bilan qamrab olinganiga qarab, ko'chirishning ikki turi (varianti) bo'lishi mumkin:

1. Yalpi ko'chirish.
2. Qisman ko'chirish,

Yalpi ko'chirish favqulodda vaziyat zonasidan hamma toifa aholi olib chiqilishini nazarda tutadi.

Qisman ko'chirish favqulodda vaziyat zonasidan mehnatga layoqati bo'lmagan aholi, maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab, hunar-texnika bilim yurtlari o'qituvchilari olib chiqilishi zarur bo'lganda o'tkaziladi.

Aholini ko'chirishning ko'rsatilgan variantlari xavfning yoyilish ko'lamiga va tavsifiga, uning amalga oshirishining oldindan taxmini qanchalik ishonchliligiga, shuningdek favqulodda vaziyatlar manbai shikastlovchi omillarining ta'sir zonasidagi ishlab chiqarish obyektlaridan xo'jalikda foydalanish istiqboliga qarab tanlanadi. Odamlar hayoti va salomatligiga xavf borligi aholini ko'chirish haqida qarorga kelish uchun asos hisoblanadi.

Aholini ko'chirish haqida qarorga kelish huquqi O'zbekiston Respublikasi subyektlarining hududida favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan yoki favqulodda vaziyatlar xavfi oldindan taxmin qilinayotgan ijroiya hokimiyat idoralarining mahalliy o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarining rahbarlarida (fuqaro muhofazasi boshliqlarida) bo'ladi. Favqulodda vaziyatlarlarning tarqalish chegarasiga, ko'lamiga va ko'chirishning qanchalik shoshilinchligi talablariga qarab mahalliy yoki mintaqaviy xarakterga ega bo'ladi. Shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) yoki oldindan o'tkaziladigan ko'chirish tegishli fuqaro muhofazasi boshliqlarining ko'rsatmalari (farmoyishlari)ga binoan amalga oshiriladi.

Kechiktirmay qarorga kelish talab qilinadigan hollarda cheklangan xarakterdagi shoshilinch ko'chirish potensial xavfli obyektning navbatchi yuriqchilik xizmati boshlig'ining ko'rsatmasi (farmoyishi)ga binoan o'tkazilishi mumkin. Boshqaruvning hududiy, idoraviy, obyekt idoralari

fuqaro muhofazasi boshliqlari (favqulodda vaziyatlar hay'atlari) ko'chirishga umumiy rahbarlik qiladi.

Aholini ko'chirish tadbirlarini bevosita tashkil etish va o'tkazishga esa viloyat, shahar, tumanlar ma'muriyati va iqtisodiyot obyekti boshqaruv organlari tashkil etadigan aholini ko'chirish tashkilotlari rahbarlik qiladi.

Aholini ko'chirish tadbirlarini yaxshilab o'ylab rejalashtirishni hamda transportni, yo'llarni, ko'chirish tashkilotlarining ko'chiriladigan aholi boradigan xavfsiz joylarni oldindan tayyerlab qo'yishini, shuningdek aholining fuqaro muhofazasi sohasida har tomonlama tayyergarlik ko'rishini talab qiladi. Bunday tayyorgarlikni ijroiya hokimiyati idoralarining va iqtisodiyot obyektlari boshqaruv tashkilotlarining fuqaro muhofazasi boshlig'i bo'lgan rahbarlari tashkil etadi va o'tkazadi.

Aholini evakuatsiya qilish ishlab chiqarish-hududiy va hududiy tamoyillari asosida rejalashtiriladi, tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish-hududiy tamoyili favqulodda vaziyatlar zonalaridan ishchilar, xizmatchilar, studentlar, o'quvchilarni, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, o'quv yurtlari bo'yicha, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soxasida ishlamaydigan boshqa aholini esa turar joydan foydalanish organlari orqali turar joylari bo'yicha transportda (piyoda) olib chiqishni nazarda tutadi.

Muayyan hollarda evakuatsiya hududiy tamoyilda, ya'ni aholini ko'chirish e'lon qilingan paytda bevosita aholi yashab turgan joyidan amalga oshirilishi mumkin.

Aholini ko'chirish usullariga qarab, 3 taga bo'linadi:

1. Transportda;
2. Piyoda tartibda;
3. Aralash usul.

Aralash usul eng samarali va eng maqbul usul hisoblanadi. U mavjud transport yordamida iloji boricha eng ko'p ishlovchilar bilan bir vaqtda aholini qolgan qismini birga qo'shib olib chiqishga asoslanadi. Bunda, asosan piyoda tartibda yura olmaydigan aholini transportda olib chiqish rejalashtiriladi.

Aralash usul favqulodda vaziyat zonalaridan aholini ko'chirish tadbirlarini eng qisqa muddatda o'tkazish talablariga juda mos keladi.

Ko'chirilgan aholi xavfsiz joylarda maxsus buyruq bo'lguncha joylashtirib turiladi. Aholini ko'chirish tadbirlarining hajmi kunligi, tashkil etish va o'tkazishdagi murakkabliklari ko'chirish tashkilotlarini tuzishga hamda ularning aholini ko'chirishga sifatli tayyorgarlik ko'rishlariga oshirilgan talablar qo'yadi.

Aholini ko'chirishni tashkil qilishni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish bevosta shahar, tuman va viloyatlarning ko'chirish tashkilotlariga, hokimiyat idoralariga, favqulodda vaziyatlar favqulodda vaziyat boshqarmalari va bo'limlariga yuklatiladi. Quyidagilar ko'chirish tashkilotlari tarkibiga kiradi:

- aholini ko'chirish hay'atlari (AKH);
- ko'chirilganlarni qabul qilish hay'atlari (KQQH);
- ko'chiriladiganlarning intilish punktlari (KIP);
- ko'chirilganlarni qabul qilish punktlari (KQQP);
- ko'chirishning oraliq punktlari (KOP);
- piyoda ko'chirilganlarning yo'llaridagi boshqarish guruhleri;
- ko'chiriladigan aholini transportda (piyoda) olib chiqish tezkor guruhleri
- aholini ko'chirish hay'atlari (AKH)

FVDTning ishchilar, xizmatchilar va aholini ko'chirish rejalashtirilayotgan hamma hududlarda ko'chirish hay'at (KH) tashkil etiladi.

Hududiy - ko'chirish hay'atlari tarkibiga tegishli ma'muriyat rahbarlari qarori bilan o'sha ma'muriy-hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari tayinlanadi. Ko'chirish hay'atining raisi etib, odatda, ma'muriy - hududiy bo'linma rahbarining o'rinbosari tayinlanadi. Ko'chirish hayati tarkibiga a'zo etib, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot idoralarining, transport tashkilotlarining, ichki ishlar boshqarmalarining (bo'limlarining) rahbarlari (ularning o'rinbosarlari), garnizon yoki harbiy komissarlik boshliqlarining vakillari tayinlanadi. Ko'chirish hay'atlarida ish yuritish va texnik ishlarni bajarish uchun hududiy boshqaruv idoralarining ma'muriyat xodimlaridan ishchi apparat tayinlanadi. Ko'chiruv hay'atlarining ishchi apparati ish yunalishlari bo'yicha bo'linadi hamda mahalliy sharoitni hisobga olib, bir necha tashkiliy guruhlardan iborat bo'lishi mumkin. Bular, masalan, transportda va piyoda olib chiqiladigan aholini hisobga olish guruhi, ko'chirish transporti guruhi, ko'chirilgan aholini hisobga olish, qabul qilish va xavfsiz joylarga joylashtirish guruhi, ko'chirish tadbirlarini ta'minlash guruhi va h.k.

Obyekt aholini ko'chirish haytatiga, odatda, korxonada, yaqinida bittadan hisobida sutkasiga 5-6 ta poyezd jo'natishni yoki soatiga ikkita (har biri 500 kishidan) piyodalar kolonnasini butlash va tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etiladi.

KAIP bir vaqtda baravariga kamida bitta poyezdga (kemaga) odamlar chiqishini yoki baravariga bir kolonna odam yig'ilishini ta'minlaydigan bo'lishi kerak. Har qaysi KAIP ga tartib nomeri beriladi. Unga iqtisodiyot obyektlari, turar joydan foydalanish tashkilotlari, shuningdek aholini transportda olib chiqish va piyoda ko'chiriladiganlarning yo'llari, tashkil etiladigan transportga chiqish punktlari birkiritib qo'yiladi. KAIPning shahar, tuman, obyekt ko'chirish hay'atlari bilan transportga chiqish punktlari va transport tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi ta'minlangan bo'lishi kerak. KAIP ishini ta'minlash uchun negizida KAIP yo'lga qo'yiladigan hududiy ijroya idoralari, tashkilotlari va muassasalari xodimlari hisobidan ishchi apparat tayinlanadi.

Ko'chirilgan aholini qabul qilish punktlari (KAQQP).

Qo'chirilganlarni qabul qilish punktlari ko'chirilgan aholini transportdan tushadigan punktlarda yo'lga qo'yiladi hamda shu aholini kutib olish va keyingi joylashtiriladigan joylarga jo'natishga mo'ljallangan bo'ladi.

Odamlarni har qanday ob-havoda vaqtincha joylashtirishni, qish vaqtlarida esa isitish imkoniyatini ta'minlaydigan maktablar, klublar va boshqa jamoat va ma'muriy binolarda KAQQP yo'lga qo'yilishi mumkin. KAQQP ga qancha va qachon odam kelishiga qarab, ovqat va ichimlik suv bilan ta'minlash nazarda tutiladi. Buning uchun umumiy ovqatlanish punktlaridan-oshxonada, kafe va h.k. lardan, ular bo'lmaganda esa ovqatlanish ko'chma punktlaridan foydalanish mumkin.

KIP xodimlarining soni ko'chirilib keltiriladigan aholi sonini hamda uni ta'minlash tadbirlarining hajmini hisobga olib belgilanadi.

Aholini favqulodda vaziyat zonalaridan shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) ko'chirish, odatda, KIPni yo'lga qo'ymasdan o'tkaziladi. Ularning vazifalari bunday hollarda tegishli ma'muriy-hududiy birliklar birkiritib tezkor guruhlarga yuklatiladi.

Tezkor guruhlarning quyidagi vazifalarni hal qiladi:

-odamlar yashab turgan joyida (yashash joyida yoki ish joyida) aholini xabardor qilish, yig'ish, hisobga olish va uning transportga chiqishini tashkil etish;

-aholini transport vositalariga taqsimlash, ko'chirish kolonnalarni tuzish va ularga ko'chirish yo'llari bo'ylab hamrohlik qilish;

-aholini ko'chirish va ko'chirish yuqori idoralariga xabar berish qanday o'tayotganini nazorat qilish;

-mas'uliyatidagi zonada jamoat tartibini tashkil qilish va saqlash.

Ko'chish oraliq punktlari (KOP).

Favqulodda vaziyatlar zonasining tashqi chegarasida ko'chish oraliq punktlari tashkil etiladi. KOP quyidagilarni ta'minlashi kerak:

-aholini hisobga olish, qayta ruyxatdan o'tkazish, dozimetrik va kimyoviy nazorat qilish, sanitariya ishlovidan o'tkazish va borib turiladigan xavfsiz joylarga jo'natish. Zarurat bo'lsa, ifloslangan (zaharlangan) kiyim-bosh va poyafzalni KOP da almashtiriladi va maxsus ishlovdan o'tkaziladi. KOP da aholini favqulodda vaziyat zonasida ishlagan transportdagi ifloslanmagan (zaharlanmagan) hududda ishlaydigan "toza" transport vositalariga o'tkaziladi. KOP temir va shosse yo'llar, suv yo'llari yaqinida bo'ladi. Aholini favqulodda vaziyat yuz bergan zonadan ko'chirish har bir alohida holda shu vaziyatning yuzaga kelish sharoitiga, favqulodda vaziyat manbai, ta'sir omillarining ta'sir etish xarakteri va makon va vaqt parametrlariga qarab belgilanadi. Favqulodda vaziyat yuzaga kelishi haqidagi ishonchli taxmin haqida malumot olinganda odamlarni favqulodda vaziyat yuz bergan zonadan transportda va piyoda uyushqoqliq bilan olib chiqish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat bo'lgan tayyorgarlik tadbirlari o'tkaziladi. Ba'zi hollarda aholini ko'chirish cheklangan yoki mahalliy xarakterda bo'ladi.

Xabar berish oldindan (taxminga binoan) yoki selning boshi signal darvozasidan o'tganda (shoshilinch ko'chirishlarda) amalga oshiriladi.

Sel xavfi bor joylardan aholini ko'chirish:

Bunday ko'chirish sel oqimi yuzaga kelish xavfi tutilganda, sel oqimi yuzaga kelayotgan davrda, alohida hollarda esa sel oqimining ta'siri tugaganda ham o'tkazilishi mumkin. Aholini ko'chirish oldindan o'tkazilgani ma'qul. Sel oqimi yuzaga kelayotganda esa shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) aholini ko'chirish tadbirlari o'tkaziladi.

Ko'chirishning shoshilinchligi sel to'liqining muhofaza obyektiga kelishi taxmin qilinayotgan vaqt, odatda 4 soatgacha yetadigan vaqt bilan belgilanadn. Shundan keyin esa real xavf tug'ilishiga qarab belgilanadi. Aholini ko'chirish cheklangan yoki mahalliy xarakterda bo'ladi va ular 2 bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich KIP ni yulga qo'ymasdan, sel oqimi joyining o'zida.

2-bosqichda esa KIP orqali rejadagi joylarga yetkazib qo'yguncha (tashlab ketilgan uylar va aholi punktlarini sel buzib ketganda) davom etadi.

Ko'chki xavfi bor joylardan aholini ko'chirish:

Bunday ko'chirishlar qor ko'chish xavfi tug'ilganda, shuningdek qor ko'chkisi tushib bo'lgandan keyin (turmush kechirishni ta'minlash obyektlari buzilganda) o'tkaziladi. Ko'chki hududiy tamoyilda bir bosqichda o'kazilib, cheklangan xarakterda bo'ladi hamda oldindan o'tkaziladigan, buning iloji bo'lmaganda esa shoshilinch o'tkaziladi.

Halokatli suv bosish va toshqin vaqtida:

Ko'chirish gidrotexnika inshootlari buzilish xavfi tug'ilgan yoki buzilgan hollarda yoxud suv havzalaridagi suv sathi ko'tarilib ketganda (toshqinda), shuningdek obyektlarni va turmush kechirishni ta'minlash tizimlarini suv buzib ketganda o'tkaziladi. Ko'chirishlar cheklangan yoki mahalliy xarakterda bo'ladi. Oldindan o'tkaziladigan ko'chirishlarda KIP yo'lga qo'yiladi (ishlab chiqarish xududiy tamoyilida). Oldindan o'tkazish davri qisqa bo'lganda aholini ko'chirish hududiy tamoyilda 1 yoki 2 bosqichda o'tkaziladi.

Ko'chirish ishlari bo'yicha farmoyish olingandan so'ng tadbirlar to'rt soat ichida bajarilishi kerak. Farmoyish berilgandan so'ng FMB, qarorgohi, ko'chirish komissiyasi, ko'chirish

boshlanganligi haqida ko'chirish punktlarini, qabul qilish punktlarini, oraliq punktlarini ogohlantiradi. Aholi transport turlarida kolonna bo'lib kuzatuv asosida, yo'l harakatiga rioya qilgan holda ko'chiriladi.

- ko'chiriladigan aholi, jumladan piyoda tartibda va transportda ko'chirilganlar sonini aniqlash, transport vositalarini transportga chiqish bekatlari (punktlari) bo'yicha taqsimlash, marshrut kolonnalari hisoblanganiga aniqlik kiritish na ularni piyoda yunalishlarga biriktirib qo'yish;

- ko'chirish yo'llarini tayyorlash, yo'l belgilari va ko'rsatgichlar qo'yish, qo'nib o'tish joylarini jihozlash;

- KIPni, transportga chiqish-tutish punktlarini yo'lga qo'yishga tayyorlash;

- xabarlash va aloqa tizimlari shayligini tekshirish;

- mavjud muhofaza inshootlarini shay holatga keltirish.

Aholini ko'chirishda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- ko'chirish boshlangani va tartibi haqida ko'chirish tashkilotlari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlariga, shuningdeq aholiga xabar berish;

- ko'chirish tashkilotlarini yo'lga qo'yish va shay holatga keltirish;

- ko'chiriladigan aholini yig'ish va xavfsiz joylarga jo'natishga tayyorlash;

- piyoda kolonnalarni tuzish va yo'nalishlardagi boshlang'ich punktlarga olib chiqish;

- transport vositalarini aholining transportga chiqish va undan tushish punktlariga keltirish hamda aholini transportga chiqarish.

- ko'chirilgan aholini oldindan tayyorlab qo'yilgan, turmush kechirish mumkin bo'lgan sharoitlar ta'minlangan xavfsiz joylarga qabul qilish va joylashtirish.

Har bir alohida favqulodda vaziyatlarda aholini ko'chirishining o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

Yer qimirlaganda (zilzilada):

Aholini ko'chirish mahalliy, yoxud mintaqaviy tusda bo'lishi mumkin. Ko'chirishni o'tkazish odatda yul-transport imkoniyatlariga qarab belgalanadi. Ko'chirish shikastlangan joylarda KIP yo'lga qo'yilib, bir bosqichda ishlab chiqarish va hududiy tamoyillarda amalga oshiriladi.

Radioaktiv zaharlanishda:

Ko'chirish mahalliy, yoxud mintaqaviy tusda bo'lib, alohida (bolalar uyi, tibbiyot muassasalari, internatlar va x.q. dan tashqari) obyektlarda hududiy tamoyilda amalga oshiriladi. Aholini ko'chirish 2 bosqichda o'tkaziladi:

1-transportga chiqarish joyidan KOP gacha.

2 - KOPdan rejadagi joylashtirish joylargacha.

Kimyoviy zaharlanishda:

Hozirgi kunda mutaxassislar tahlil qilib aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, kimyoviy xavfli inshootlarda bo'ladigan halokatlar tufayli tez ta'sir etuvchi zaharli moddalarning atrof muhitga tarqalishiga bir qator sabablar mavjud.

Asosiy sabablar quyidagicha:

-korxonadagi texnologik jihozlarning nosozligi;

-uzoq muddat ishlatilgan uskuna-jihozlarning eskirishi;

-moddalarning ishlab chiqarishda, saqlashda, tashib oborishda yo'l qo'yilgan xatoliklar tufayli;

-portlash, yong'in sodir bo'lishi, halokatlar tufayli;

-moddalar bilan ishlashda, ularning saqlashdagi texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik;

- chetdan olib kelingan texnologik jarayon xavfsizlik talablariga to'liq javob bermasligi;
- korxonada mehnat intizomi past, mutaxassis va ishchilarning malakasi yetarli emasligi;
- mahsulot ishlab chiqarishda murakkab texnologik jarayoni qo'llanishi.

Kimyoviy va radiatsiyaviy muhofazaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

1. Favqulodda vaziyatning vujudga kelishini oldindan taxmin qilish va sharoitga baho berish. Buning uchun shu kimyoviy radiatsiyaviy xavfli obyekt joylashgan hudud to'g'risida aniq ma'lumotlarga, moddalarning miqdori, turi, saqlash sharoiti, saqlash joyi aholi yashaydigan joydan qanday oraliqda joylashganligi to'g'risidan aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak.

2. Kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda (KTZM) va radioaktiv moddalarni maxsus saqlash joylariga chiqarib tashlash, moddalarning ta'sirini oldini olishga, ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish.

3. Fuqarolarni kerakli miqdorda shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashni tashkil etish.

4. Kimyoviy va radiatsiyaviy nazorat va tekshirish ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish.

5. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va unga barham berish uchun kerakli kuch va vositalarni doimo shay turishini ta'minlash.

6. Kimyoviy va radiatsiyaviy xavf vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni qanday vazifalarni bajarishlari lozimligiga tayyorlab borish.

Kimyoviy va radiatsiyaviy vaziyatni oldindan taxminlash va baholab borish.

Vaziyatni oldindan taxminlashga quyidagilar kiradi:

-favqulodda vaziyatning aniq turini bilish;

-vaziyat tafsiloti va ko'lamini aniqlashning ishonchli usullarini, uskuna –jihazlarini topish;

-fuqaro muhofazasi kuchlarini va aholini o'z vaqtida ogohlantirish;

-talofatlar va moddiy zararlarning oldini olish yoki ularning ta'sir kuchini mumkin bo'lgan darajada kamaytirish yuzasidan kerakli choralarni ko'rish.

Aholini evakuatsiyasi fuqaro muhofazasi organlarining ko'rsatmasi bilan amalga oshiriladi. Ko'rsatmalarin olgach odamlar eng kerakli narsalarni yig'ishlari lozim, SIZ 2-3 kunga yetadigan oziq-ovqat, ichimlik suvini, aptechkani, pullarni, hujjatlarni va bog'chaga boradigan bolalarni evakuatsiyaga tayyorlash va aytilgan vaqtda KIPda bo'lishi kerak. KIPda aholi registraturasidan o'tadilar. KIP ishchilari boshchiligida vagonlarga taqsimlanadilar, avtomobillarga, yayov kolonnalarga va avtomobillarga taqsimlanadilaro va belgilangan vaqtda jo'naydilar va jo'nash punktlariga olib chiqadilar.

Yayov evakuatsiya qilinadigan aholini kolonnalarga 500-1000 odam bo'lib bo'linadi, kolonnalar esa 50-100 kishilik gruppalariga bo'linadi. Obyekt boshliqlari kolonna bolliqlarini tayyorlashadi harakat tezligi 3-4 km.soat mo'ljallangan.

Kolonnalar o'rtasida masofa 500 metr deb belgilanadi. Har bir 4-1,5 soat yurgandan keyin 15 minut dam olinadi, sutkanint ikkinchi yarimida 1-2 soat dam olinadi. Evakuatsiya qilinganlarni joylashtirish ishlarini mahalliy oblast, rayon boshliqlari amalga oshiriladilar.

3. Fuqora muhofazasi himoya inshootlarining turlari va ulardan foydalanish.

Boshpanalar, ularning tasnifi, ichki jihazlanishi va tinchlik davrida ulardan foydalanish

Aholini radiatsiyadan muhofaza qilish maqsadida turli xildagi inshootlar mavjud. Muhofaza inshootlari aholini muhafazalovchi ishonchli vositadir. Bu inshootlar aholini turli tusdagi favqulodda vaziyatlardan hamda ommaviy qirg'in qurollarning ta'sir etish omillaridan saqlaydigan boshpana hisoblanadi. Muhafazalovchi inshootlar muhofazalash xususiyatiga ko'ra, pana va radiatsiyaga qarshi pana joylarga bo'linadi. Bunday inshootlar quyidagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda:

-yo‘nalishga ko‘ra: fuqarolarni saqlashga, boshqaruv tizimlarini joylashtirishga mo‘ljallangan;
-joylashgan o‘rniga ko‘ra: alohida joylashgan (metropolitanlar va tog‘-kon qurilishlari, shaxtalari);

Qurilish muddatiga ko‘ra: boshpana RSB (radiatsiyadan saqlovchi boshpana) va oddiy boshpanalar quriladi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda aholini fuqaro muhofazasi himoya inshootlarida yashirish kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ko‘plab yo‘qotishlarni olidini oluvchi eng samarali usulidir. Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganida fuqaro muhofazasining “Havo trevogasi”, “Radiatsiyaviy xavf” va “Kimyoviy trevoga” komandalari beriladi.

“Kimyoviy trevoga” komandasi berilganida panajoylarga yashiruvchilarga obyektning fuqaro muhofazasi xodimlari, fuqaro muhofazasi shtabi xodimlari tomonidan shaxsiy himoya vositalarini tarqatishni tashkil etishlari kerak. Panajoylarga kirish to‘g‘risida buyruqni obyekt rahbari-fuqaro muhofazasi boshlig‘i berishi kerak. Agarda favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan vaqtda aholining panajoylarga o‘z vaqtida yetib kela olmagan qismi panajoylarga kirishdan oldin ularga panajoyning maxsus joyida qisman dezinfeksiya qilinadi. Panajoylarda aholi joylashishi uchun strelkalar o‘rnatilgan bo‘ladi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan hududlardan jabrlanganlarni yoki jabrlanish ehtimoli tug‘ilganda aholini panajoylarga joylashtirish tadbirlarini qoniqarli va samarali olib borish maqsadida obyekt fuqaro muhofazasi va fuqaro muhofazasi shtabi xodimlaridan iborat bo‘lgan zvenolar tuziladi. Panajoylarga aholini tartib bilan, kolonnalarga ajratgan holda olib kiriladi. Kolonna boshlig‘ida hududning va panajoylarning chizmasi (sxema) bo‘lishi kerak. Ko‘chirilayotganlar tarkibida agarda bemorlar bo‘lsa, ularga birinchi tibbiy yordami ko‘rsatilib, ularga sog‘lom kishilar birkiritib qo‘yiladi.

Favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan hududda komandasiz shaxsiy himoya vositalarini yechish, yakka holda yurish, osmonda osilib turgan xavfli uskunalar ostida turish, yerda yotgan elektr simlariga yaqinlashish yoki tegish, tutun chiqqan joylarga komandasiz bormaslik lozim.

Panajoylarga yashiringan aholining majburiyatlari:

- tez va chaqqonlik bilan ko‘rsatilgan joylarni tartibni saqlagan holada egallashlari;
- ichki tartib-qoidalariga qat‘iy rioya etishlari;
- vahimaga tushmaslik, o‘zlarini erkin his qilishlari;
- qariyalarga, ayollarga va yosh bolalarga yordam ko‘rsatishlari;
- shaxsiy himoya vositalarini tayyor holatda saqlashlari;
- panajoylarda bo‘lgan vaqtlarida texnika xavfsizligi qoidalariga (elektr tarmoqlaridan o‘zboshimcha foydalanish, kislorod solingan balonlarga va boshqa asbob-uskunalariga yaqinlashmaslik) qat‘iyan rioya qilishlari;

-xavf tugaganidan keyin faqat fuqaro muhofazasi yoki fuqaro muhofazasi shtabi xodimlarining komandasi bilan tashqariga tartibni saqlagan holda chiqishlari.

Panajoylardan aholini majburiy chiqishlarini taqozo etadigan sabablar:

-panajoylardagi asbob uskunalar yashiringanlarning hayotiga xavf tug‘diradigan darajada buzilishi;

-panajoylarni suv bosganda;

-panajoylarda yong‘in chiqqanda;

-panajoylardagi havo miqdorida xavfli gazlarning tarqalishida, kislorod miqdorining keskin kamayib ketishida.

Yuqorida ko'rsatilgan salbiy holatlar sodir bo'lganida, yashiringan aholi panajoydan uzoq bo'lmagan boshqa himoya inshootlariga o'tkaziladi. Bu tadbirlarni amalga oshirish paytida yashiringanlar albatta shaxsiy himoya vositalari bilan to'liq ta'minlangan bo'lishlari zarur.

Fuqaro muhofazasi himoya inshootlarida radiaktiv zaharlovchi moddalar va bakterial vositalar hamda oddiy qurollar ta'siridan himoya qilishga, ommaviy zarar yetkazuvchi qurollar ta'siridan to'liq saqlaydi.

Himoya inshootlari uch xil turga bo'linadi:

1. Boshpanalar. Ular germetik holda qurilgan bo'lib, ommaviy zarar yetkazuvchi qurol-yadro zaryadi portlashidan hosil bo'lgan shikastlovchi omillardan hamda zaharlovchi moddalar va bakterial vosita aerozollaridan to'liq himoya qiladi.

2. Radatsiyaga qarshi pana joylar radiaktiv zararlanish paydo bo'lgan joylarda aholini radatsion zararlanishdan himoya qiladi.

Z. Eng oddiy pana joylar - urush vaqtida jang maydonlarida ushbu inshootlar hamisha yo'l ostidagi vositalar yordamida quriladi. Fuqaro muhofazasi boshpanalari, yashirin joylar ishlash yoki yashash joylari yaqinida joylashadi.

Boshpanalar, ularning tasnifi, ichki jihozlanishi va tinchlik davrida ulardan foydalanish:

Aholini yadro portlashining hamma omillaridan, shuningdek kiyoviy va bakterial qurollaridan saqlash uchun mo'ljallangan germetik turdagi himoyalangan binolar boshpanalar deyiladi. Boshpanalar betondan yoki temir betondan yer ostiga quriladi. Boshpanalarning himoya qilish xususiyati 100% gacha bo'ladi.

Zarba to'liqini ta'siridan himoya qilish xususiyatiga qarab boshpanalar quyidagi sinflarga bo'linadi:

1-sinf - 5kg/kv sm gacha.

2-sinf - Z kg/kv sm gacha.

3-sinf - 2kg/kv sm gacha.

4-sinf - 1kg/kv sm gacha.

Boshpanalar sig'imiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

a) kichik boshpana-150 nafar kishilarga mo'ljallangan;

b) o'rtacha boshpana-150-450 nafar kishilarga mo'ljallangan;

v) katta boshpana-450 va undan ortiq miqdordagi kishilarga mo'ljallangan..

Boshpanalar joylashishiga qarab 2 xil ko'rinishda bo'ladi:

a) qurilmalar tarkibida (yer to'lada);

b) ayrim qurilmalar (mustaqil qurilgan).

Boshpanalar qurilish muddatiga ko'ra 2 turga bo'ladi:

a) tinchlik davrida qurilgan boshpanalar;

b) dushman hujumi xavfi tug'ilganda qurilgan boshpanalar.

Jihozlanishi jihatidan boshpanalar:

-filtr-ventilyatsion qurilmasi bor boshpanalar;

-filtr-ventilyatsion qurilmasiz boshpanalarga bo'linadi.

Boshpana binolarining tagida yoki yer ostiga alohida quriladi. Boshpanalarning tepasi juda pishiq va mustaxkam, devorlari zarb to'liqiniga va singuvchi radiatsiyaga chidamli bo'lishi kerak. Tashqaridan zaharlangan havo kirmasligi uchun germetik ravishda ishlangan bo'lishi zarur. Boshpanaga kirish uchun Z ta eshik quriladi. Birinchi eshik metaldan pishiq ishlanadi, qolgan 2 tasi gaz o'tkazmaydigan materiallardan ishlangan bo'lishi kerak. Eshiklar zich yopilishi uchun chetiga rezina yopishtiriladi. Bu eshiklar orasida 2 ta dahliz hosil qilinadi. Kirish eshiklaridan tashqari, kirish joylari imoratlar qulashi natijasida bekilib qolgan hollarda foydalanish uchun yer tagidan

g'isht, temir-beton teshik quvurlar qurilishi kerak. Boshpanada havo yetarli bo'lishi uchun filtr-ventilyatsiya qurilma o'rnatiladi (FVA-49, FVK-1, FVK-2). Bu qurilmalar ikki rejimda ishlashi mumkin: sof va filtr-ventilyatsiya.

1-rejimda havo changga qarshi to'rsimon filtr bilan tozalanadi. To'rlar maxsus moy bilan moylanadi. Havo filtrdan o'tayotgan chang va radiaktiv moddalar to'rining moy qatlamiga yopishib qoladi. Moy filtrning bitta yacheikasining unumdorligi soatiga 1000-1300 m.kub.

2-rejimda havo zaharli moddalar va bakterologik zaharli moddalar o'tkazmaydigan niqoblar (protivogaz) bo'yicha ishlaydigan filtr bilan tozalanadi. Havo miqdori sof ventilyatsiya rejimi bo'yicha boshqaruv punktida ishlayotgan bir odam uchun 5m Fsoat bo'lishi kerak. Kuchli yong'in ehtimoli bo'lgan hududda joylashgan panajoy atmosferasida kislorodning miqdori pastligi, SO₂ miqdori yuqoriligi yoki kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda (KTZM) ning miqdorining oshganligi pana joylarning to'la izolyatsiyasi va ulardan havoni rengeratsiya rejimidan foydalanishni ko'zda tutiladi. (RP-100 rengerativ moslamalardan foydalanish) RP-100 rengerativ patronning ishlash tamoyili havo patronidan o'tayotgan tarkibida kalsiy oksidi bor kimyoviy yutgich bilan reaksiyaga kiruvchi SO₂ gazidan tozalanadi. Reaksiya suv va issiqlik ajralishi bilan kechadi. Rengerativ patronlardan foydalanishda kislorod yetishmasligini oldini olish uchun pana joyga reduktor orqali uzatiladigan kislorod balonlardan to'ldiriladi.

Boshpana xonalari bir nechtaga bo'ladi. Asosiy xona - odamlarni joylashtirish xonasi, yordamchi xona - filtr-ventilyatsion kamera xonasi. Bundan tashqari oziq-ovqat, suv zahirasi xonasi, kislorodli balonlar uchun mo'ljallangan xona, bufet, dizel elektro-stansiyalar uchun mo'ljallangan xonalar kiradi.

Boshpanalarda ichimlik suvi quvurlari, kanalizatsiya, telefon, radio, elektr toki, ayrim asboblardan va yong'inga qarshi asboblardan bo'lishi shart. Bundan tashqari DP-5 turidagi dozimetr asbobi va kimyoviy razvetka asboblari ham bo'lishi kerak. Boshpanaga yashirinuvchilar uchun 0,5-1,8 m. o'lchamdagi 2 yoki 3 qavatli so'rilar va o'tirish uchun 45-55 sm o'lchamdagi o'rindiqlar o'rnatilishi lozim. Bir nafar yashirinuvchi uchun joy meyorini 0,5m.kv. ni tashkil qiladi.

Aholi boshpanaga fuqaro muhofazasi signallari berilganidan so'ng kirishlari lozim. Boshpanada chekish, shovqin ko'tarish, hamda lampa yoqish, uy hayvonlarini, qo'pol buyumlarni olib kirish ma'n etiladi. Shaxsiy himoya vositalarini tayyor holda tutish kerak. Panajoylardan tashqariga radiatsiya darajasi pasayib, hudud to'la zararsizlantirilgandan keyin signal bo'yicha chiqishga ruxsat etiladi. Panajoylarda jabrlanganlarga tibbiyot xonasida tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Boshpananing sanitar holatini ana shu post uchun mas'ul shaxslar nazorat qiladi. Boshpanada quyidagi sanitariya gigiyena talablari qo'yiladi:

-panajoylar toza va yaxshi sanitariya holatida bo'lishi shart.

-panajoylarni har kuni 1% xloramin eritmasi bilan tozalash, vaqti-vaqtida to'la dezinfeksiya qilish zarur.

Boshpanalarda havo tarkibidagi karbonat angdirid miqdori 1% (35 gacha) -havo harorati – 23 gradus (maksimum 31), nisbiy namlik-70% (maksimum 80%) bo'lishi kerak. Suv meyorini: 1 kishi uchun 1 sutkaga 10 l., shundan ichish uchun 6 l., sanuzel uchun 4l. Panajoylarda xizmat ko'rsatish himoya qurilmalarining mas'ul xodimlari zimmasiga tushadi. Har bir pana joyga yetti kishidan iborat xizmat ko'rsatish zonasi ajratiladi. Zveno boshlig'i pana joy komendanti hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatning oqibatlarini barham topgandan so'ng, aholi panajoylarni tark etishadi. Panajoy xonalari shamollatilib, u yerda yig'ishtirish ishlari olib boriladi.

Tinchlik davrida panajoylarni madaniy-maishiy inshootlar (kichik ustaxonalar, ishchilar aholi bilan shug'illanadigan sinflar, fuqaro muhofazasi o'quv punktlari, har xil to'garaklar ishlashi uchun joy, yengil avtomashinalar uchun garaj, savdo va ovqatlanish punktlari omborlari) sifatida

foydalanish mumkin. Tinchlik davrida panajoylardan ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanish, ularni himoya xususiyatlari va yashirinuvchilarni qabul qilishga tayyorgarligini buzmaslik kerak.

Yer osti qurilmalaridan boshpana sifatida foydalanish.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda panajoy sifatida metropolitenlardan foydalanish mumkin. Bu alohida uchastkalarda joylashgan chuqurlashtirilgan temir-beton germetik qurilmalardir. Metropoliten ham yer osti muhofaza inshootlariga kirishi mumkin. Bulardan tashqari yer to'lalar, alohida turdagi chuqurliklar, binolarning pastki ratlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun mo'ljallangan omborlar va boshqa qurilmalarni yer osti muhofaza qurilmalari sifatida ishlatish mumkin.

Oddiy turdagi boshpana yoki pana joylarga yerto'lalar, alohida turdagi chuqurliklar, binolarning pastki ratlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash uchun qurilgan omborlar va boshqa qurilmalar moslashtiriladi. Ular qurilish konstruksiyasiga ko'ra, oddiy himoya inshootlariga kiradi. Chunki, uni qurish uchun qisqa vaqt sarf etiladi.

Oddiy pana joylar ochiq va yopiq ko'rinishda bo'ladi. Tirqishlar (teshiklar)ni aholi qo'lda bor vositalar bilan mahalliy materiallardan tayyorlaydi. Ochiq tirqish to'lqin zarbasini 1,5-2 marotaba, yorug'lik nurlari va oqib kiruvchi radiatsiyani 1,5-2 marta, radioaktiv zaharlanish hududida nurlanish darajasini 2-3 marta kamaytiradi.

Yopiq tirqish yorug'lik nurlaridan to'la, to'lqin zarbasidan 2,5-3 marta, oqib kiruvchi radiatsiya va radioaktiv nurlanishdan 200-300 marta muhofazalaydi. U teri va kiyimga radioaktiv, zaharlovchi modda va bakteriyali vositalar tushishidan saqlaydi. U ochiq joyda ustiga hech narsa qulamaydigan, yomg'ir suvi, suv bosmaydigan joyga quriladi. Oldin ochiq holda tayyorlanadi. U ilon izi kabi to'g'ri chiziqli 15 metrdan ortiq bo'lmagan bir nechta qismlardan (bo'lak) iborat. Chuqirligi 1,8-2 metr, yuqori qismining kengligi 1,1-1,2 metr, tubi 0,8 metr. Tirqish uzunligi har birodamga 0,5-0,6 metr hisobida aniqlanadi.

Tirqishlarining sig'im miqdori 10-15 odamdan ko'pi bilan 50 odamgacha. Tirqishlar ochiq yerto'laday qaziladi, taxta, yog'och bilan mahkamlanadi, ostidan uzunasiga kichik ariqcha qaziladi. O'tirishga so'ri tayyorlanadi. Ustini yog'och bo'laklari, taxta yoki boshqa materiallar bilan yopib, qalinligi 20 sm. Qilib suvab, ustidan yana chetlarining qalinligi 20 sm., o'rtasi 40 sm. qilib tuproq tortib mahkamlanadi. Chetlariga ikki tarafdin ariqchalar qaziladi. Yomg'ir suvi oqib ketishi uchun tomining umumiy qalinligi 50-60 sm. bo'ladi.

Kichik-kichik eshiklar zich yopilgan dahlizdan ichkariga kiriladigan eshikka qalin matodan parda yopiladi.

Panajoy tarkibiga kiruvchi joylarni (germetizatsiya), ya'ni havo o'tmaydigan qilish uchun sinchkovlik bilan hamma teshiklarini, tirqishlar, yoriqlar, tepadagi ochiq oynalarni, deraza teshiklarini, isitadigan va suv o'tkazadigan quvurlarda hosil bo'lgan teshik joylar yopib chiqiladi. Eshiklarni ruberoid, linoleum va boshqa qalin materiallar bilan, ularning chetlarini esa rezina bilan o'rab (yopishtirib) chiqiladi. Maxsus joylarning himoya xususiyatini oshirish uchun devorlar, eshiklarning qalinligini oshirish, panajoylarning himoya qilish xususiyatini oshirish uchun yog'och yoki temir tirgaklar, balonlar o'rnatishni kuchaytirish kerak. Yerning ustki qatlamidan yuqorida joylashgan devorlarning tashqi tomonidan chiqish uchun deraza va qo'shimcha eshiklar quriladi. Zaruriyatga qarab, uni pana qilish kuchaytiriladi, so'ngra uning ustiga 60-70 sm qalinlikda tuproq sepiladi, havo tortib oluvchi moslama qo'yiladi, eshikdan gamma nurlarining kirishidan himoyalash uchun kirish qarshisida 1,5 metr masofada 40-50 sm qalinlikda g'ishtdan devor quriladi. Panajoy ostidagi binolarning birinchi qavatlarini maxsuslashtirishda himoya xususiyatini

oshirish, hamma joylarni berkitish ishlari olib boriladi, ochiq joylarni g'isht, qum solingan, qop bilan berkitib chegaralanadi va h.k.

Sabzavot saqlanadigan ichki kurilmalarning devorlaridagi barcha teshik va yoriq joylar sinchkovlik bilan berkitilib chiqilishi kerak. Panajoyning tuproq katlami 60-70 sm gacha oshirib boriladi va devorni yer ustidan baland qilish uchun tuproq sepiladi. Sabzavot saqlanadigan panajoy ichiga faqat bitta kiradigan eshik qoldiriladi, qolganlari esa ko'rinmaydiga qilib tuproq bilan yopib tashlanadi.

Tog'-kon sanoati va ko'mir sanoati bor rayonlardagi aholi panajoy sifatida shaxtalardan ham foydalanishlari mumkin, qora va rangli metallurgiya zavodi ishchilari, qurilish materiallari ishlab chiqaradigan zavoddagilar va boshqalar yer osti yullaridai foydalanishi mumkin. Kirish joylarning qurilishi va avariya holatlarida chiqib ketish joylari, avariya holatlarda odamlarni tepaga ko'tarilishi uchun vertikal zinapoyalar tayyer holatda turishi, panajoylarni toza havo bilan ta'minlash, ichimlik suvi yetkazib beradigan quvurlar tayyor holda turishi va boshqalar kiradi.

Jihozlanishning asosiy shartlari:

-kimyoviy va germetik to'siqlarni o'rnatish;

-kirish yo'llarini odamlarni tez o'tkazish uchun ta'minlash;

-odam ko'tarish uchun mexanizmlarni tayyorgarlik holatiga keltirish;

-yashirinuvchilarni hayot faoliyati uchun kerakli hamma narsalar bilan ta'minlash;

-yashirinuvchilarni shaxta suvlaridan foydalangan holda suv manbaalarini tashkil qilish;

-boshqaruv va sanitar punktlarini, oziq-ovqat omborlarini, aloqa uzatishni va qabul qilishni ta'minlash;

-iloji boricha ikki qavatli so'rilar va o'rindiqlarni o'rnatish;

-yong'inga qarshi vositalar bilan kerakli miqdorda ta'minlash kerak.

Yer osti qurilmalarida havo oqib keladigan kanalning ichiga changni ushlab qoladigan ramka ko'rinishidagi filtr, ustiga doka tortilgan teshikli material o'rnatiladi.

Turli xil ratsiatsiya va boshqa shu kabi ofatlardan aholini himoya qilish uchun yer osti qurilmalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

-uch sutkadan kam bo'lmagan muddatda saqlash;

-suv bosmaydigan joylarga qurish;

-oqar suvlardan, kanalizatsiya kommunikatsiyalardan hamda qurilish kommunikatsiyalardan uzoqroq joylarda qurish;

-chiqish va kirish eshiklari bo'lishi.

Yer osti qurilmalari asosiy va yordamchi binolardan iborat bo'ladi. Asosiy binoda yashirinuvchilarni joylashtirish joyi ikki yoki uch qavatli so'ri mavjud bo'lishi mumkin. Ikkinchi yordamchi binoda sanitariya tarmog'i, havoni tozalab almashtirib beruvchi kamera va sig'imi katta inshootlarda tibbiyot xonasi, oziq-ovqat saqlanadigan ombor, artezan quduq va dizelli elektrostansiya uchun joy mavjud bo'ladi. Saqlanish joyida qoidaga muvofiq kamida ikkita kirib-chiqish eshiklari bo'ladi.

Radioatsiya changi va xavfli aerozollardan uylarni himoya qilish.

Urush va tinchlik paytidagi favqulodda vaziyatlar havo bo'shlig'ining radioaktiv chang va zaharlovchi modda, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar va xavfli aerozollar bilan zaharlanishi mumkin.

Radiatsiyaviy avariya- uskuna nosozligi, xodimlar (personal)ning hatti-harakatlari (harakatsizligi), tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan normalardan ko'proq nurlanish olishiga yoki atrof muhitning radioaktiv

ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoxud olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruvning izdan chiqishi.

Uy sharoitida radiatsiyadan, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalardan va boshqa zaharli moddalardan muhofazalanish yo'l-yo'riqlarini yaxshi bilish zarur. Buning uchun radiatsiyaviy va boshqa zaharlovchi moddalarlarning xususiyatlari, ular ishtirokida avariya sodir etilgan vaqtda ularning ta'sir doirasi, zaharlash darajasi (va h.k.)ni hamda taxminiy oqibatlari haqida tushinchaga ega bo'lish lozim. Radiatsiya tarqalishi bilan bog'lik favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan vaqtda obyekt fuqaro muhofazasi boshlig'i favqulodda vaziyatni oldini olish, ishchi-xizmatchilarning va aholining meyordar ortiq zaharlanishlariga yo'l qo'ymaslik uchun tegishli tadbirlarni Favqulodda vaziyatlar vazirligi va FVDTning tizimlari xodimlari bilan hamkorlikda olib boradi.

Radioaktiv chang eshik, fortochka, tirqishlar orqali yashash va ishlab chiqarish binolariga, omborxonalariga kirishi mumkin. Asosan, binoga turli zararli gazlar, zaharlovchi moddalar va bakteriologik vositalar aerozollarining kirishidan saqlanish va uni himoya qilishga tayyorlanish uchun binolarni germetiklashtirish kerak hamda barcha tirqishlar berkitishi lozim bo'ladi.

Bundan tashqari uyning nurlanish ta'siridan saqlash uchun hiomya vositalarini kuchaytirish kerak. Buning uchun deraza bo'shlig'ini tuproq to'ldirilgan qoplar bilan yopiladi, bir qavatli bino devorlarining qalinligini oshirish uchun 1,0 dan 1,8 metr balandlikda tuproq bilan to'ldiriladi. Sepilgan tuproqni qattiq qilish uchun taxtadan foydalanish mumkin. Qishloq joylarda uylarni germetizatsiya qilishda tashqaridagi shaxta quduqlarining atrofini 1-1,5 metrga sement, loy va shu kabilar bilan yopish va germetizatsiya qilish zarur. Uylarni germetizatsiya qilish tadbirlarini o'tkazish ma'lum miqdorda nurlanish, zaharlovchi moddalar va bakteriologik vositalar aerozollarining kirishini va odamlarning zaharlanishini kamaytiradi.

Radioaktiv moddalar yoki boshqa zaharli moddalar bilan bog'lik favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aholining har bir harakati fuqaro muhofazasi xodimlarining nazoratlari ostida bo'lishi lozim.

Yashash joylarda, obyektlar hududidagi suvlarning radioaktiv moddalar va boshqa turdagi zaharli moddalar bilan zaharlanish darajasini aniqlash uchun suvdan 1,5 yoki 10 (bir chelak) hajmda na'muna olinadi. Asbob suv betiga parallel vaziyatda 0,5-1,0 sm. balandlikda qilib tutiladi va mikroampermetrning ko'rsatishlari yordamida aniqlanadi. Shuning uchun radiatsiyaviy moddalar bilan zaharlangan hududda fuqaro muhofazasi organlari xodimlari ruxsatisiz ichimlik suvlaridan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Yer osti qurilmalaridan boshpana sifatida foydalanish.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda panajoy sifatida metropolitenlardan foydalanish mumkin. Bu alohida uchastkalarda joylashgan chuqurlashtirilgan temir-beton germetik qurilmalardir. Metropoliten ham yer osti muhofaza inshootlariga kirishi mumkin. Bulardan tashqari yer to'lalar, alohida turdagi chuqurliklar, binolarning pastki ratlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun mo'ljallangan omborlar va boshqa qurilmalarni yer osti muhofaza qurilmalari sifatida ishlatish mumkin.

Oddiy turdagi boshpana yoki pana joylarga yerto'lalar, alohida turdagi chuqurliklar, binolarning pastki ratlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash uchun qurilgan omborlar va boshqa qurilmalar moslashtiriladi. Ular qurilish konstruksiyasiga ko'ra, oddiy himoya inshootlariga kiradi. Chunki, uni qurish uchun qisqa vaqt sarf etiladi.

Oddiy pana joylar ochiq va yopiq ko'rinishda bo'ladi. Tirqishlar (teshiklar)ni aholi qo'lda bor vositalar bilan mahalliy materiallardan tayyorlaydi. Ochiq tirqish to'lqin zarbasini 1,5-2 marotaba, yorug'lik nurlari va oqib kiruvchi radiatsiyani 1,5-2 marta, radioaktiv zaharlanish hududida nurlanish darajasini 2-3 marta kamaytiradi.

Yopiq tirqish yorug'lik nurlaridan to'la, to'lqin zarbasidan 2,5-3 marta, oqib kiruvchi radiatsiya va radioaktiv nurlanishdan 200-300 marta muhofazalaydi. U teri va kiyimga radioaktiv, zaharlovchi modda va bakteriyali vositalar tushishidan saqlaydi. U ochiq joyda ustiga hech narsa qulamaydigan, yomg'ir suvi, suv bosmaydigan joyga quriladi. Oldin ochiq holda tayyorlanadi. U ilon izi kabi to'g'ri chiziqli 15 metrdan ortiq bo'lmagan bir nechta qismlardan (bo'lak) iborat. Chuqirligi 1,8-2 metr, yuqori qismining kengligi 1,1-1,2 metr, tubi 0,8 metr. Tirqish uzunligi har birodamga 0,5-0,6 metr hisobida aniqlanadi.

Tirqishlarining sig'im miqdori 10-15 odamdan ko'pi bilan 50 odamgacha. Tirqishlar ochiq yerto'laday qaziladi, taxta, yog'och bilan mahkamlanadi, ostidan uzunasiga kichik ariqcha qaziladi. O'tirishga so'ri tayyorlanadi. Ustini yog'och bo'laklari, taxta yoki boshqa materiallar bilan yopib, qalinligi 20 sm. Qilib suvab, ustidan yana chetlarining qalinligi 20 sm., o'rtasi 40 sm. qilib tuproq tortib mahkamlanadi. Chetlariga ikki tarafdan ariqchalar qaziladi. Yomg'ir suvi oqib ketishi uchun tomining umumiy qalinligi 50-60 sm. bo'ladi.

Kichik-kichik eshiklar zich yopilgan dahlizdan ichkariga kiriladigan eshikka qalin matodan parda yopiladi.

Panajoy tarkibiga kiruvchi joylarni (germetizatsiya), ya'ni havo o'tmaydigai qilish uchun sinchkovlik bilan hamma teshiklarini, tirqishlar, yoriqlar, tepadagi ochiq oynalarni, deraza teshiklarini, isitadigan va suv o'tkazadigan quvurlarda hosil bo'lgan teshik joylar yopib chiqiladi. Eshiklarni ruberoid, linoleum va boshqa qalin materiallar bilan, ularning chetlarini esa rezina bilan o'rab (yopishtirib) chiqiladi. Maxsus joylarning himoya xususiyatini oshirish uchun devorlar, eshiklarning qalinligini oshirish, panajoylarning himoya qilish xususiyatini oshirish uchun yog'och yoki temir tirgaklar, balonlar o'rnatishni kuchaytirish kerak. Yerning ustki qatlamidan yuqorida joylashgan devorlarning tashqi tomonidan chiqish uchun deraza va qo'shimcha eshiklar quriladi. Zaruriyatga qarab, uni pana qilish kuchaytiriladi, so'ngra uning ustiga 60-70 sm qalinlikda tuproq sepiladi, havo tortib oluvchi moslama qo'yiladi, eshikdan gamma nurlarining kirishidan himoyalani uchun kirish qarshisida 1,5 metr masofada 40-50 sm qalinlikda g'ishtdan devor quriladi. Panajoy ostidagi binolarning birinchi qavatlarini maxsuslashtirishda himoya xususiyatini oshirish, hamma joylarni berkitish ishlari olib boriladi, ochiq joylarni g'isht, qum solingan, qop bilan berkitib chegaralanadi va h.k.

Sabzavot saqlanadigan ichki kurilmalarning devorlaridagi barcha teshik va yoriq joylar sinchkovlik bilan berkitilib chiqilishi kerak. Panajoyning tuproq katlami 60-70 sm gacha oshirib boriladi va devorni yer ustidan baland qilish uchun tuproq sepiladi. Sabzavot saqlanadigan panajoy ichiga faqat bitta kiradigan eshik qoldiriladi, qolganlari esa ko'rinmaydiga qilib tuproq bilan yopib tashlanadi.

Tog'-kon sanoati va ko'mir sanoati bor rayonlardagi aholi panajoy sifatida shaxtalardan ham foydalanishlari mumkin, qora va rangli metallurgiya zavodi ishchilari, qurilish materiallari ishlab chiqaradigan zavoddagilar va boshqalar yer osti yullaridai foydalanishi mumkin. Kirish joylarning qurilishi va avariya holatlarida chiqib ketish joylari, avariya holatlarda odamlarni tepaga ko'tarilishi uchun vertikal zinapoyalar tayyer holatda turishi, panajoylarni toza havo bilan ta'minlash, ichimlik suvi yetkazib beradigan quvurlar tayyor holda turishi va boshqalar kiradi.

Jihozlanishning asosiy shartlari:

- kimyoviy va germetik to'siqlarni o'rnatish;
- kirish yo'llarini odamlarni tez o'tkazish uchun ta'minlash;
- odam ko'tarish uchun mexanizmlarni tayyorgarlik holatiga keltirish;
- yashirinuvchilarni hayot faoliyati uchun kerakli hamma narsalar bilan ta'minlash;

-yashirinuvchilarni shaxta suvlaridan foydalangan holda suv manbaalarini tashkil qilish;

-boshqaruv va sanitar punktlarini, oziq-ovqat omborlarini, aloqa uzatishni va qabul qilishni ta'minlash;

-iloji boricha ikki qavatli so'rilar va o'rindiqlarni o'rnatish;

-yong'inga qarshi vositalar bilan kerakli miqdorda ta'minlash kerak.

Yer osti qurilmalarida havo oqib keladigan kanalning ichiga changni ushlab qoladigan ramka ko'rinishidagi filtr, ustiga doka tortilgan teshikli material o'rnatiladi.

Turli xil ratsiatsiya va boshqa shu kabi ofatlardan aholini himoya qilish uchun yer osti qurilmalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

-uch sutkadan kam bo'lmagan muddatda saqlash;

-suv bosmaydigan joylarga qurish;

-oqar suvlardan, kanalizatsiya kommunikatsiyalardan hamda qurilish kommunikatsiyalardan uzoqroq joylarda qurish;

-chiqish va kirish eshiklari bo'lishi.

Yer osti qurilmalari asosiy va yordamchi binolardan iborat bo'ladi. Asosiy binoda yashirinuvchilarni joylashtirish joyi ikki yoki uch qavatli so'ri mavjud bo'lishi mumkin. Ikkinchi yordamchi binoda sanitariya tarmog'i, havoni tozalab almashtirib beruvchi kamera va sig'imi katta inshootlarda tibbiyot xonasi, oziq-ovqat saqlanadigan ombor, artezan quduq va dizelli elektrostansiya uchun joy mavjud bo'ladi. Saqlanish joyida qoidaga muvofiq kamida ikkita kirib-chiqish eshiklari bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Aholiga habar berish qanday amalga oshiriladi?
2. Evakuatsiya nima?
3. Oldindan o'tkaziladigan ko'chirishlar qachon o'tkaziladi?
4. Shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) ko'chirishlar qachon o'tkaziladi?
5. Fuqora muhofazasi himoya inshootlarining qanaqa turlari bor?
6. Fuqora muhofazasi himoya inshootlaridan foydalanish?
7. Yer osti qurilmalaridan boshpana sifatida foydalanish deganda nimani tushunasz.

Mavzu: HIMOYA VOSITALARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Reja;

1. Umumiy ma'lumot.
2. Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari va ularning turlari.
3. Shaxsiy tibbiy va zararsizlantirish vositalari.

Umumiy ma'lumot

O'zbekiston Respublikasining mehnat haqidagi qonunchilik asoslariga binoan, korxonada ma'muriyati ishchi va xizmatchilarni bepul shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashi, ularni saqlash, yuvish, quritish, dezinfektsiyalash va ta'mirlashishlarini bajarishi kerak.

Barcha himoya vositalari ishlatilishiga qarab jamoa himoya vositalariga va shaxsiy himoya vositalariga bo'linadi. Agar ishning xavfsizligini, mashinalarning konstruksiyasi, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish, arxitektura-rejalashtirish yechimlari va jamoa himoya vositalarini qo'llash bilan ta'minlashning iloji bo'lmagan takdirda shaxsiy himoya vositalari qo'llaniladi.

Himoya vositalari texnik, yestetika, yergonomika talablariga javob berishi, himoya samaradorligi yuqori bo'lishi, ishlatilishda qo'lay bo'lishi kerak. Ular texnologik jarayonda bajarilayotgan ish turiga mos kelishi kerak. Shu ish uchun mo'ljallangan va qabul qilingan tartibda

tasdiqlangan texnik hujjatlari bo‘lmagan shaxsiy himoya vositalarini qo‘llash ta‘qiqlanadi. Ular vazifasi, ishlash muddati ko‘rsatilgan yo‘riqnomaga hamda saqlash va ishlatish qoidalari bilan ta‘minlanadi.

Shaxsiy himoya vositalari (SV) vazifalariga qarab qo‘yidagi 11 turlarga bo‘linadi:

Boshni himoya qilish vositalari - kaskalar, shlemlar, shapkalar, berertkalar, shlyapalar, ro‘mollar.

Ko‘zni himoya qilish vositalari – himoya ko‘zoynaklari.

Eshitish a‘zolarini himoya qilish vositalari - quloqchinlar.

Yuzni himoya qilish vositalari –himoya niqoblari.

Nafas a‘zolarini himoya qilish vositalari - gazniqoblar, respiratorlar, havoshlemlari, havomaskalari.

Ixotalovchi kostyumlar - pnevmokostyumlar, namdan ixotalovchi kostyumlar va skafandrlar.

Korjomalar - kombinezonlar, yarim kombinezonlar, ko‘rtkalar, shimlar, kostyumlar, xalatlar, plashlar, pustinlar, fartuklar, nimchalar.

Qo‘llarni himoya qilish vositalari - qo‘lkoplar.

Maxsus poyabzallar - yetiklar, kaltayetiklar, botinkalar, kunjli botinkalar, tuflilar, kalish, botilar.

Extiyot moslamalari – extiyot kamarlari, diyelektrik gilamchalar, qo‘l changaklari, manipulyatorlar, tizzani, tirsakni va yelkani yextiyot qilish moslamalari.

Himoyalovchi dermatologik vositalar – yuviladigan pastalar, kremlar, moylar.

Shaxsiy himoya vositalari bilan ta‘minlash, ularni o‘z vaqtida almashtirish, ta‘mirlash va ularni vazifalari bo‘yicha ishlatilishi yuzasidan korxonaga ma‘muriyatiga, mehnatni muhofaza qilish muhandisiga qo‘yidagicha vazifalar yuklanadi:

Ishchi va xizmatchilarga SHVlarni berish bo‘yicha nazorat va hisobot ishlarini tashkil qilish, ulardan ish paytida to‘ri foydalanishni, buzilgan, ifloslangan hollarda esa ularni qo‘llashni ta‘qiqlashni nazorat qilish.

SHVlarini belgilangan muddatlarda muntazam ravishda sinovdan o‘tkazish, ularning sozligini tekshirib turish hamda ularning himoya xossalari pasaygan filtrlari, oynalari va bosha qismlarini o‘z vaqtida almashtirish va tekshirilgan vositalarga kelgusi sinov muddati haqida tamg‘a qo‘yish.

Tozalash, yuvish, ta‘mirlash, zararsizlantirish va changsizlantirishlarini o‘z vaqtida amalga oshirishchi va xizmatchilarni SHVlar bilan o‘z vaqtida ta‘minlash korxonaga ma‘muriyatiga, nazorat qilish esa kasaba uyushmasi qumitasiga yuklatiladi.

Maxsus korjoma ishchilarni tashqi muhitning salbiy ta‘siridan saqlash uchun muljallangan. Bunda kishi tanasining havo almashish funksiyasi buzilmasligi kerak. U juda qulay, havoni o‘tkazuvchan, ish sharoitida xavfsiz, osilib yoki chiqib turuvchi qismlari bo‘lmasligi kerak. Ular pishiq, yengil tozalanadigan badanni qichitmaydigan matodan tikiladi.

Harakatlanib turuvchi mexanizmlar yaqinida ishlovchilarga paxta ipidan to‘qilgan, belbog‘siz, ichki cho‘ntakli kombinezonlar beriladi.

Qo‘llarni jarohatlanishdan saqlash uchun esa qo‘lkoplar beriladi. Boshga uchburchak rumol, erkaklarga biretkalar beriladi.

Kislota bilan ishlaydigan ishchilarga dag‘al jundan yoki paxta ipidan to‘qilgan, kislota ta‘siriga qarshi moda shimdirilgan matolardan to‘qilgan shim va kurtkalar beriladi.

Hozirgi paytda kislota va ishorlar ta‘siriga chidamli sintetik tolalar (lavsan, nitron) va jun tolalari bilan aralashtirilgan yoki faqat sintetik tolalardan to‘qilgan matolar keng qo‘llanilmoqda.

Kislota bilan bevosita ishlovchilarga rezina shimdirilgan fartuklar, qo'llariga kiyish uchun dag'al jun qo'lkoplar beriladi.

Gazniqoblar

Respiratorlar

Havo shlemlari

Havo niqoblari.

Shaxsiy himoya vositalari ikki guruhga bo'linadi:

1. Nafas a'zolarini himoya qiluvchi vositalar.

2. Terini himoya qiluvchi vositalar.

Bular nafas a'zolarini, ko'z va teri qavatlarini radioaktiv moddalar (RM), zaharli moddalar (ZM), bakteriologik vositalar (BV), va kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar (KTZM) ta'siridan saqlaydi.

Ularning o'zining himoya xususiyatiga ko'ra filtrlovchi va ajratuvchilarga bo'linadi. Filtrlovchi vositalarning himoyalash xususiyati havoni himoyalovchi materiallar orqali o'tkazishga asoslangan bo'lib, unda havo RM, ZM, BV va KTZMdan tozalanadi. Ajratuvchi vositalarning himoyalash xususiyati odam organizmini tashqi muhitdan to'liq ajratishga qaratilgan bo'ladi. Foydalanilishiga ko'ra hamma himoyalovchi vositalar quyidagilarga: umumharbiy, maxsus, fuqarolar uchun mo'ljallangan va sanoatda qo'llaniladigan vositalarga bo'linadi.

Umumharbiy himoya vositalari bilan harbiy qismlarning harbiy xizmatchilari ta'minlanadi.

Maxsus himoya vositalari bilan tankli, aviatsion, kimyoviy qismlar, turli xil qo'shinlarning bo'linmalari, hamda tibbiy xizmat bo'limlari yaradorlarga yordam ko'rsatishda ishlatilish uchun ta'minlanadilar.

Fuqarolar uchun ishlab chiqilgan himoya vositalari fuqaro muhofazasi qismlarining harbiy xizmatchilari va butun aholini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Sanoatda ishlatiladigan himoya vositalari maxsus korxonalarda, qishloq-xo'jaligida va boshqa sohalarda kimyoviy moddalar bilan bog'liq bo'lgan joylarda qo'llaniladi.

Nafas a'zolarining himoyalovchi vositalari filtrlovchi va ayruvchi vositalardan iborat.

Filtrlovchi vositalarga quydagilar kiradi: protivogazlar G11-5, GP-5M, GP-7, GP-7V, DP-6, DP-6M, PDF-7, PDF-D, PDF-SH; respiratorlar R-2, R - 2D, RU-60M; kameralar— KZD -4, KZD-7.

Ayruvchi vositalarga IP- 4, IP - 6, IP-46, KIP-5, KIP- 7, KIP -8 kiradi. Sanoatda tayyorlangan vositalardan tashqari nafas a'zolarini himoyalash uchun oddiy vositalardan foydalanish mumkin. Ularga paxta -doka bog'lami va changga qarshi matoli maska PTM -I kiradi. Protivogazlar nafas a'zolarini, yuz va ko'zni RM, ZM, BV va KTZMdan saqlashga mo'ljallangan.

GP-5 protivogaz yuz qismi, protivogaz qutichasi va sumkadan iborat. Sumkada maxsus sovun "Q&\am" bor. Yuz qismi shlem maska oynasi bilan, I nafas olish, 2ta nafas chiqarish klapanli qutichadan iborat.

Protivogaz komplektiga oynaning ichki tomoniga qo'yiladigan, (terlatmaydigan plyonkali metall quticha kiradi. Protivogaz qutichasi metaldan ishlangan bo'lib ichida ikkita tur shaklida kilindi bo'ladi. Silindirning tashki tomonida tutunga qarshi filtr urnatilgan. Silindrlar orasida maxsus kimyoviy moddalar bilan ishlov berilgan aktivlashtirilgan ko'mir qatlami bor va kichik silindr ichki yuzasida changga qarshi filtr o'rnatilgan.

Tutunga qarshi filtr havoni aerozollardan tozalash uchun xizmat qiladi, aktivlashtirilgan ko'mir adsorbsiya va kimyoviy neytrallashtirish usuli bilan ZMning bulutlarini yutish uchun mo'ljallangan. Tutunga qarshi filtr aktivlashtirilgan ko'mir changining bir qismini tutib qolish uchun xizmat qiladi.

GP-5ning shlem-maskasn bot razmerda chiqariladi. Kerakli razmeri aniqlash uchun santimetr lentasi bilan bosh o'lchanadi: aylanisiga engak orqali o'tib, boshning tepa qismida yana engakka qaytiladi. Shu o'lchov natijasida shlem - maskaning razmeri aniqlanadi:

o'lchash natijasi (sm)	Shlem-maskaning kerakli razmeri
63 гача	0
63,5-65,6	1
66-68	2
68,5-70,5	3
71 дан юкори	4

Protivogaz sumkada olib yuriladi, lekin sharoitga ko'ra 3 holatda olib yurilishi mumkin "safar", "tayyorgarlik", "jangovor".

Ayiruvchi protivgazlar. Suv bosgan boshlana va binolarda, toza havo yetishmasligi aniqlangan joylarda qutqarish ishlari olib borilganda foydalaniladi. IP-46 (yoki IP-46M) ajratuvchi protivogazlar quyidagi asosiy qismlardan iborat:

- qat -qat buklanuvchi naychalari yuz qism;
- natriy peroksid to'ldirilgan regenerativ patron;
- regenerativ patronnish u neonga o'rnatilgan briket va kislotali ampuladan iborat ishga soluvchi moslama;

- nafas olish uchun rezina xalta;
- dyuralyuminiydan ishlangan korkas (g'ilof);
- sumka.

Natriy peroksidi kimyoviy bog'langan kislorodni ajratib, ajralib chiqarayotgan havodagi karbonat angidridni va suv bug'larni yutadi. Regenerativ patronning harakat vaqti undagi kislorod zahirasiga qarab belgalanadi: oshrish bajrilganda bir soatga, o'rtacha -2 soatga, tinch holatda 4 - 5 soatga yetadi: suv ostida 30 minutdan ortiq qolishga ruxsat etilmaydi. Atmosferada bug'uvchi gazlar (masalan, is gazi) bo'lsa, gopkalipt patronidan foydalanish kerak. Unda is gazi karbonat angidridga aylanadi.

Respiratorlar. Respiratorlar nafas a'zolarini radioaktiv va tuproq changlaridan va bakterial aerozollardan himoya qiladi, hozirgi vaqtda respiratorlardan R-2 va 1PB-1 "lepestok" keng qo'llanilmoqda.

R -2 respiratori nafas olish, nafas chiqarish klapanlari, burun qisqichi va tasmalari bo'lgan yarim maska yuzga keladi, engak va burun uning ichida qolishi kerak, tasmalar boshga tortiladi.

SHB-1 resshfatori "Lepestok"-sintetik filtrlovchi materialdan tayyorlangan bo'lib, bir marta foydalanish uchun mo'ljalangan, kiyish uchun respirator paketdan olinib, rezina shnurishgacha uch taxminan kerak bo'lgan uzunlikdacho'zib borlanadi, engakdan boshlab yuzga kiyiladi, alyuminiy plastinka qisiladi va tasmalar ensaga bog'lanadi.

Nafas a'zolarini himoya qilishini oddiy vositalari.

Paxta doka bog'lami. Buning uchun 100x60 sm li doka olinib, ertasiga eni va bo'yi 20x30 sm va qalinligi 1 - 2sm kilib paxta solinadi, so'ng u doka bilan o'raladi. Dokaning uchlarini 35 sm dan kesib bog'ich ulinadi, bog'lam engak, og'iz va burun berkiladigan qilib tug'iladi. Borich uchlari boshning tepa suyagi va ensa ustidan bog'lanadi. Changga qarshi matoli maska PTM-1 oynali korpusdan va bog'ichdan iborat. Maskaning korpusi matodan 4 -5 kanat qilib tikiladi, kiradigan teshiklarga o'lchovi 5,5x4,5 sm li oyna qo'yiladi, bog'ich 35x70 sm qilib polotnodan tikiladi. Maska

boshga yopishib turishi uchun yuqoridagi chokka rezina qo'yilib tikiladi, ko'ndalangiga ham rezina qo'yiladi.

Pastda bog'ach bo'ladi. PTM-1ni tayyorlashda 7ta o'lchov ko'zda tutiladi. Maskaning cheti peshanaga, chakkaga, yonokka va engakka zich yonishib turishi kerak.

Nafas a'zolarini himoyalash uchun biror bir vosita topilmaganda dastro'mol, sharf, sochiq va shunga o'xshashlar bilan og'iz va burunni berkitish kerak.

Terini ximoya kilish vositalari, qo'l osti vositalaridan terini himoya qilish vositalariii tayyorlash.

Terini himoyalovchi shaxsiy vositalar himoyalash xususiyatiga qarab filtrlovchi va ajratuvchilarga bo'linadi. Terini ajratuvchi himoya vositalari havo o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlanadi. Ular zich yopiladigan (germetik) va zich yopilmaydngan (nogermetik) bo'lishi mumkin. Zich yopiladigan vositalar kishi tanasini berkitadi va zaharlovchi moddalarning bug'i va tomchilaridan to'liq himoya kiladi. Zich yopilmaydigan vositalar esa faqat tomchi holiday zaharlovchi moddalardan himoya qiladi. Bundan tashqari, bu vositalar kishi terisini bevosita radioaktiv na bakterial vositalar ta'siridan ham himoya qiladi.

Terini himoya qiladigan filtrlovchi vositalar ip - gazlamadan tayyorlangan bo'lib, unga maxsus kimyoviy modda shimdiriladi. Bunda matoning havo o'tkazuvchanligi saqlanib koladi, zaxarlovchi moddalar iplar orasidan o'tayotgan vaqtda yutiladi va neytrallanadi. Terini himoya qiladigan ajratuvchi individual vositalarga umumxarbiy himoya to'plami (OZK), plyonkali himoya kostyumi (KZP) va terini himoyalovchi maxsus vositaga L—1 yengil himoya kostyumi kiradi. OZK, KZP va L —I kostyumi himoya ta'siri qoidasiga ko'ra teri qavatlarini, formali kiyim kechaklarni va oyoq kiyimlarini zaharlovchi moddalar,radioaktiv moddalar va bakterial vositalar ta'siridan ajratishga asoslangan bo'ladi.

Umumxarbiy himoya to'plami himoya plashchi, himoya paypog'iga hamda himoya qo'lqoplaridan iborat bo'ladi.

OP- 1M plashchi rezina qo'shib to'kilgan bo'lib, yengi va qalpoqchasi bo'ladi. Ishlashga qulay bo'lishn hamda qo'lga zich yopishib turshi uchun yengining uchiga rezina tasma tikilgan bo'ladi. Qalpoqchani katta kichik qilish uchun cho'ziladigan tasma o'rnatiladi. Plashchlar quyidagi o'lhovlarda bo'ladi, bo'yi 166 sm gacha bo'lgan kishilar uchun-birinchi bo'y, 166 sm dan 172 sm gacha- ikkinchi, 172 sm dan 178 sm gacha- uchinchi, 178 sm dan 184 sm gacha na undan yuqorisi to'rtinchi bo'y bo'ladi.

Himoya paypoqlari ham rezina qo'shilgan matodan tayyorlanadi, asosi qalin rezinadan iborat. Ular orqali oyoq kiyim ustidan kiyiladi va oyoqqa maxsus tasma hamda takiladi yordamida mahkamlanadi. Belga taqiladigan kamarga esa tasmalar yordamida birlashtiriladi. Himoya paypoqlari quyidagi o'lhovlarda ishlab chiqiladi: 40-poyabzal uchun birinchi bo'y, 41-42 poyabzal uchun ikkinchi buy, 43 va undan katta poyabzalga uchinchi bo'i to'g'ri keladi.

Himoya qo'lkoplari ikki xilda tayyorlaigan bo'lib, kishda kiyish uchun ikki panjali va yozda besh panjali bo'ladi. Qishki qo'lqoplar ichiga issiq saqlash uchun astar kiygiziladi va tugma qadaladi.

L-1 yengil himoya kostyumi teri qavatlaripi va formali kiyimlarni sharlovchi moddalar, radioktiv moddalar hamda bakterial vositalardan zararlanishdan himoya qilishga mo'ljallangan.

U rezina matodan tayyorlangan bo'lib, kapyushonli ko'ylak, paypoqli shim, podshlemnik va ikki barmoqli himoya qo'lkoplaridan iborat.

Paypoqli shimning yuqori qismiga ikkita yelka tasmasi va paypoqni oyoqqa zich qilib bog'lash uchun bog'ichlar tikilgan. Kapyushonli ko'ylakning orqa qismiga chok orqasidan o'tadngan belband tikilgan bo'lib, ko'ylakning oldi tanasidagi tugmaga o'tkaziladi. L-1 yengil

himoya kostyumi 3 o'lchovda, bo'yi 165 sm gacha bo'lgan har xil xizmatchilarga birinchi, 165 sm dan 172 gacha bulganlarga ikkinchi, 172 sm dan yukorp bulganlarga uchinchi o'lchovda tayyorlangan bo'ladi.

L-1 yengil himoya kostyumi zararlangan joylarda ishlash uchun, zararlanmagan joyda esa formal kiyim-kechaklar ustidan kiyiladi. Ish qobiliyatini yaxshiroq saqlash uchun 10°S day yuqori haroratda himoya kiyimi ishchi kiyim ustidan, 0°S dan Q10°S gacha haroratda yozgi kiyim ustidan, 0°S dan past haroratda esa qishki kiyim ustidan kiyiladi.

Plyonkali himoya kostyumi (KZP) - harbiy xizmatchilarning teri qavatlarini zaharlovchi moddalar, radioaktiv moddalar, bakterial takomillashtirish ustida doimiy ishlar olib borilmoqda. Shuning uchun, dushman tomonidan ommaviy zarar yetkazuvchi qurollar ishlatilishi ehtimoli borligi sababli, harbiy qismlar shaxsiy tarkibini jangovarlik xususiyatlarini saqlash niyatida jang maydonida umumharbiy va tibbiyot rioya vositalarini o'z vaqtida qullash katta ahamiyatga egadir. Harbiy qismlardagi shaxsiy tarkib ommaviy zarar yetkazuvchi qurollarning shikastlovchi omillarini va jarohatlangan, zararlangan kishilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini bilishi kerak.

Tibbiy vositalarni o'z vaqtida qo'llash kishilarni ommaviy zarar yetkazuvchi qurollar ta'siridan butunlay muhofaza qilishga imkon yaratadi.

Tibbiy muhofaza vositalariga AI -2 shaxsiy aptechkalar, ximiyaga qarshi shaxsiy paketlar, shaxsiy bog'lov paketlari.

DI - 2 shaxsiy aptechkasi atom, kimyoviy va bakterial hamda boshqa guruhdagi qurollarning shikastlovchi ta'sirini kamaytirish yoki ularning ta'sirini oldini olish maqsadida o'ziga va o'zaro yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Aptechka plasmassadan tayyorlangan bo'lib, dorilar uning ichidagi maxsus uyachalarga joylashtiriladi.

Plastmassa quti qopqog'i ichkarisiga dori vositalarining qo'llanish sxemasi joylangan. Aptechka shunday konstruksiyaga egaki, undagi har bir dori vositasi osonlik bilan olinadi va tezlik bilan qo'llanadi. Aptechka harbiy xizmatchilar kiteli yoki gimnast yorqasining tashqi cho'ntagida olib yuriladi. Saqlanadigan dori vositalari boshqa (komandir) ko'rsatmasi asosida qo'llaniladi. AI - 2 aptechkasiga kuyidagi dorilar joylanadi:

- fosfororganik moddalardan zararlangan paytda qo'llaniladigan afin yoki budaksim aptechkaning 1-uyasiga joylashtirilgan. Afin yoki budaksim preparatlari dala sharoitida tezlik bilan qo'llash uchun steril holatda shprints -tyubikda chiqariladi, qopqohg'i qizil bo'ladi. Ushbu ziddi-zahar zararlanishning birinchi alomatlari yuzaga chiqishi zahoti (ko'z qorachig'i qisqarishi, ko'rish xiralashishi, ko'z sohasida kuchli og'riq paydo bo'lishi, ko'p so'lak oqishi, kukrakda og'riq turishida, muskullar orasiga yuboriladi. Ziddi - zaxarni zararlangan kishi o'ziga yuborishi yoki bir-biriga yordam ko'rsatishda muskullar orasiga yuborishi mumkin. Shuni esda tutish kerakki, preparat qancha tez yuborilsa, zararlanishning oqibatlarini oldi shuncha tez olinadi. Zarur bo'lganda preparat qaytadai muskullar orasiga yuborilishi mumkin. Shprints -tyubikdan foydalanish usuli 2 - bobda ko'rsatilgan. Ishlatilgan shprints -tyubik zararlangan kishining cho'ntagiga solib qo'yiladi.

- aptechkaning 2-uyasi bo'sh qoldirilgan, keyingi vaqtlarda ushbu uyaga fosfororganik zaharlovchi moddalardan zararlanishning oldini dimetpramid na 0,002 g sidnokarb bor. Bu preparat xam bitga tabletkadan qo'llaniladi, zarur bo'lgan hollarda 4-5 soat oralatib sutkasiga 3-4 martadan ko'p bo'lmagan holda ichiladi. Ushbu preparatlar boshliq (komandir) buyrug'i asosida qo'llanadi.

Ximiyaga qarshi shaxsiy paketlar (IPP-8, IPP-9, IMI 10). Terining ochiq joylariga tushgan zaharlonchi moddalarni degazatsiya qilish va terining ochiq joyiga tegib turadigav (bo'yni, yuz, qo'llar) formal kiyim-kechak yengini, yoqasini hamda protivogazning yuz qismini degazatsiya qilish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, ushbu pakstlardan jangovor holatlarda zarur bo'lib

qolgan vaqtda shaxsiy qurol va harbiy texnikaning ayrim qismlari, kishilar tegadigan joylarni degazatsiya qilish uchun ishlatiladi.

Ximiyaga qarshi IPP-8 shaxsiy paket kavsharlangan polietilen xaltadan iborat bo'lib, uning ichiga degazatsiya qiluvchi suyuqli solingan shisha flakon va turtta paxta- dokali tampon solingan.

Ximiyaga qarshi shaxsiy paketlar IPP-9 IPP-10, IPP-12 metall ballondan iborat bo'lib, ichiga degazatsiya qiluvchi suyuqlik solingan.

Zaharlovchi moddalar teriga tushgan vaqtda tezlik bilan shaxsiy paketlar chap qo'lga olinadi; IPP-8 paketining shisha idishi qopqog'i ochiladi; IPP-9, IPP-10 metall ballonlarining yuqori qismi maxsus teshuvchi moslama yordamida teshiladi; teridagi suyuq-tomchi holdagi zaharlovchi moddalar asta-sekinlik bilan quruq paxta-dokali tampoiga shimdirib olinadi; paxta-dokali tomponning ikkinchisi olingan va degazatsiya qiluvchi suyuqlikka xo'llanib zaharlovchi modda tushgan joylar va protivogazning yuz qismi sinchiklab artib chiqiladi (odamning yuz qismi artilayotgan vaqtda ko'zga suyuqlik tushmasligiga harakat qilish kerak) ishlov o'tkazib bo'lingandan so'ng shisha flakon qopqog'i yoki metall ballonlar qopqog'i mahkam qilib yopiladi va protivogaz sumkasiga solinadi.

Shaxsiy bog'lov paketa (PPI). Ommaviy shikastlanishlarda dala sharoitida birlamchi bog'lam sifatida shaxsiy bog'lov paketi keng qo'llaniladp. Paket ik-kita 17-32 sm li steril paxta-dokali yostiqchalardan iborat bo'lib, eni 10 sm, uzunligi 7 metr bo'lgan bintga bog'langan. Yostiqchalarning biri qattiq mahkamlangan, ikkinchisi esa ko'zg'aluvchan bo'lib, uni kerak bo'lgan joyga mumkin. Yostiqchaning bir tarafi rangli ip bilan tikilgan, bog'lov qo'yadigan vaqtda shu tarafidan ushlansa bo'ladi. Bog'lov materiali oq qog'ozga o'rab qo'yilgan va u ustidan rezinali materialdan tayyorlangan qobiq bilan germetik qilib berkitilgan. Oq qog'oz ichiga bint oxirini mahkamlash uchun tutnog'ich solib qo'yilgan. Maket steril holatda ishlab chiqariladi.

Shaxsiy bog'lov paketidan foydalanish qoidalari: rezinalangan qobiq yirtib ochiladi.

Vositalardan himoyalash va formal kiyim- kechaklar, aslaha-anjomlar, qurolning zararlanishini kamaytirish uchun mo'ljallangan.

Plyonkali himoya kostyumi vaqti-vaqti balan qo'llaniladigan vosita hisoblanadi. Zaharlovchi moddalar va bakterial vositalardan zararlanganda maxsus sanitariya ishlovchi o'tkazmasdan yo'qotiladi, radioaktiv moddalardan zararlanganda dezaktivatsiya o'tkaziladi va qayta ishlatiladi.

Plyonkali himoya kostyumi himoya plashchi va himoya paypoqdan iborat bo'lib, polimer plyonkali materialdan tayyorlangan.

Himoya kombinezoni rezina qo'shilgan materialdan tayyorlangan bo'ladi. Kombinezon yaxlit qilib tikilgan kurtka, shim va kapishondan iborat. Kombinezon rezina etik, himoya qo'l qopi bilan birga komplekt holida qo'llaniladi.

Himoya fartugi rezina qo'shilgan materialdan tayyorlanadi, undan himoyalovchi paypoq, himoya qo'lqopi bilan birgalikda foydalaniladi. Transport, qurol-yaroqlarni dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya qilishda undan foydalaniladi. Fartukning og'irligi 400 g.

FM tizimida filtrlovchi vosita sifatida ZFO -58 kostyum qo'llaniladi. Ushbu kostyum ip gazlamadan tayyorlangan kombinezon, ichki kiyim, podshlemnik va ikki juft paytavadan iborat. ZFO - 58 kostyumini shimdirish uchun sintetik yuvish vositalari asosida tayyorlangan OP-7 yoki OP- 10, sovun -yog' emulsiyasi ishlatiladi. Bir komplekt kostyumni shimdirish uchun ikki xil suyuqlik tayyorlash kerak bo'ladi: birinchi suyuqlik 2,5 l miqdorida tayyorlanadi, buning uchun 40-50°S gacha istilgan 2 litr suvda OP - 7 yoki OP -10 moddalari eritiladi. So'ngra ikkinchi shoklik tayyorlanadi. Buning uchun 60-70°S gacha isitilgan 2 litr issiq, suvda 200-300 g maydalangan kir sovun eritiladi va unga 0,5 g o'simlik yog'i yoki mineral yog' qo'shiladi. Tayyor bo'lgan suyuqliklarga kostyum navbati bilan shimdiriladi va quritiladi.

Terini himoya qilishda zaharli har qanday vositalardan keng foydalanishi mumkin. Bunda suv o'tmaydigan gazmoldan tikilgan nakidka, plash, paxtali kurtka va shim, sport kostyumlari, ishkambinzonlari, charmdan tikilgan kurtka va plashlar, qattiq gazmoldan tikilgan kapyushonkalardan foydalanish mumkin.

Oyoqda rezina charm etik, kalish kiyish kerak. Qo'lga charm yoki rezina Shkol kiyiladi. Bo'in va boshni himoya qilish uchun qalin gazmoldan kapyushon tikib olinadi. Sport kastyumiga, kombinizonga yoki boshqa kostyumlarga sovun yog' emulsiyasini yoki yuvuvchi moddalar eritmasini shimdirish mumkin.

Tibbiy muhofaza vositalari. Yetakchi NATO davlatlari tomonidan ko'pdan ko'p ommaviy zarar yetkazuvchi qurollar yaratilganligiga qaramasdan yaratilgan qurollarining samaradorligini oshirish va ularni olish uchun qo'llaniladigan II-6 preparati sariq penalga solingan holda quyilmokda. Ushbu ziddi-zahar boshliq buyrug'i asosida, fosfororganik zaharlovchi moddalar bilan zararlangan joyga kirishdan 30 daqiqa oldin 2 tadan ichiladi yoki dushman tomonidan fosfororganik zaharlovchi moddani qo'llash ehtimoli paydo bo'lganda shu preparatdan foydalapiladi.

Kerak bo'lganda ushbu preparat qayta 5-6 soat o'tgandan so'ng ichilishi mumkin.

-aptechkaning 3-uyasiga shprints-tyubik holatida chiqarilgav og'riqni qoldiradigan vosita promedol yoki morfin preparata joylanadi.

Shikastlangan kishiga kuchli og'rikning oldini olish yoki shunday og'riq boshlangan vaqtda uni to'xtatish maqsadida qo'llanadn. Shprints tyubik oq qopqoq bilan berkitilgan.

Radiatsiyadan himoyalalanish vositasi aptechkaning 4-uyasiga solib quyiladi. Ushbu himoya vositasi kistamin (RS-1) ning 0,2 g li 12 ta tabletkasi ikkita pushti rang penalga solingan. Ayrim hollarda bu preparat o'rinda dietilstilbestrol (DES) 25 mg dan tabletka holida chiqarilishi mumkin.

Sistamin preparati zararlangan joylarda harakat qilish kerak bo'lgan vaqtda yoki himoya vositalaridan (yashirinish joylari, jangovor texnika va boshqalar) foydalanilganda ularni himoya qilish xususiyati o'tib kiruvchi nurlanishdan himoya qila olmasligiga shubha qilinganda shu joyga kirishdan oldin (20-30 da sikl oldin) 6 ta tabletkasi birdaniga ichiladi. Sistamin preparati o'z ta'sirini organizmda 4-5 soat mobaynida saqlaydi. Kerak bo'lganda preparat 6 soat o'tgach yana qabul qilinishi mumkin.

Dietilstilbestrol (DES) preparati pgu zararlanish joyiga kirishdan oldin (1-2 sutka oldin) I tabletkadan (25mg) ichiladi, preparat o'z ta'sirini organizmda 10 kun mobaynida saqlashi mumkin. Agar shu vaqt ichida kistamin preparati qo'shimcha qilib ichilsa, unda DES preparatining ta'siri yanada kuchayadi:

- aptechkaning 5- uyasiga dushman tomonidan qo'llanilgan bakterial usitalarga qarshi ikkita oq penalga solingan xlorteratsiklining 100000 TB li 10 ta tabletkasi joylanadi. Yarador bo'lgan vaqtda, kuyish vaqtida yoki ipfeksiyaning oldini olish uchun preparat 5 tabletkadan ichiladi, kerak bo'lsa preparatning kolgann 6-8 soat o'tgandan so'ng qabulq kilinadi.

- aptechkaning 6- uyasi zahira holda qoldirilgan.

Kuyishga qarshi vosita hisoblangan etaperazip aptechkaning 7- uyasiga havo rang penalga solib quyilgan. Penalda etaperaziping 0,006 g li tabletkasi 5 tadan joylangan. Nurlanishning dastlabki reaksiyasi paydo bo'lgan paytida, shuningdek boshni qattiq olgan hollarda, ko'ngil ainiy boshlangan paytda bir tabletkadan ichiladi. Keynngi vaqtlarda bu preparat o'rniga dimetkarb preparati ishlatilmokda.

Shaxsiy universal bog'lov paketi (PPU)-shaxsiy tarkibga PPI tomoniga berilishi mumkin. PPI bog'lovidan farqli ularoq yostiqchanning bir tomoniga metallangan material qo'yilgan, bu material yarada chiqayotgan suyuqliklarni o'ziga shimib olish xususiyatiga ega va yaraga yopishib qolmaydi. Paketdan foydalanish qoidalarn xuddi PPI gao'xshaydi.

Tibbiy yoping'ich (NM)-kishilarni sovuq vaqtlarda sovqotishdan, issiq vaqtlarda esa qizib ketishdan himoya qilishga mo'ljallangan. Yoping'ichdan foydalanish koidasi:

- sovuq vaqtlarda tibbiy yoping'ichning metallangan qavati ichkariga qilib solinadi va unga jarohatlangan kishi qo'yiladi;

- yoping'ichning chekka qismlari qaytarilib oyoqlari va tanasi o'rab chiqiladi;

- havo buzuq vaqtlarda (namgarchilik, yog'ingarchilik) kishining boshi ham yopib qo'yilishi mumkin;

- yopqich ochilib ketmasligi uchun bir mecha joyidan bint yordamida mahkamlanadi.

Issiq vaqtlarda o'ta qizib ketmaslik uchun yopqichning metallangan qavati yuqoriga qaratilib, jarohatlangan kishi uning tagiga yotqiziladi, bunda kishi yoping'ichga o'ralmaydi.

Bolalarni himoyalashni tashkil etish.

Favqulodda vaziyatlarda bolalarni himoya qilish katta sonli aholining burchidir. Birinchi navbatda ota-onalar, maktabgacha bo'lgan muassasalar va maktab xodimlari zimmasiga tushadi. FVlarning boshlanganligi yoki boshlanishi haqida signal olishganda bolalar kattalarning uzluksiz nazoratida bo'lishlari kerak.

Bolalar himoyasini ishonchli ravishda tashkil etish uchun katta yoshdagi aholi quyidagi tadbirlarni bajarishini bilishlari kerak:

-nafas olish a'zolarinpng himoya qilish vositalar tuzilishini qo'llash qoidasini, PTM- I va paxta- doka bog'lashini tayyorlash qoidalarni bilish;

-nafas olish a'zolari va terini himoya qilish vositalarini bolalarga kiydira bilish;

-KZD- 4 ga bolalarni yetkazilishini bilish;

-bolalarni boshpanalar va tana joylarda joylashtirish qoidalarni bilish va ularning xulqni nazorat qilish;

-bolalar dam olishini, ovqatlanishini, tibbiy ko'rikdan o'tishini tashkil etish;

-yosh bolalari bo'lgan ayollarni joylashtirish uchun alohida joylar ajratish;

-ko'chirish hakidagi buyruq olingandan keyin bolalar hujjatlar, kiyim, oziq- ovqatlar bilan ta'minlangan bo'lishlari kerak;

-bolalar cho'ntagiga ismi sharifi, turar joyi, tug'ilgan yili va ko'chirishning yakunlovchi punkti yozilgan qog'oz solib qo'yish kerak;

Bolalarning transport vositalariga o'tkazilishi birinchi navbatda tashkil etilishi shart. Bolalar himoyasi katta yoshli aholi oldida turgan eng dolzarb masaladir. Bu ma'suliyatni bajarish uchun butun katta yoshli aholi FV larda o'tkaziladigan chora tadbirlarni yaxshi bilishlari kerak.

Himoya vositalaridan foydalanishga doir qonun hujjatlari ishlan chiqilgan va bugungi kunda amalda qo'llanilmoqda. Bundan bittasi "O'zdavenergonazorat" agentligining 2001-yil 29-noyabrdagi 374-sonli buyrug'i bilan "Tasdiqlangan" "O'zbekenergo" Davlat aksiyadorlik kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi bilan "Kelishilgan" "Elektr uskunalaridan foydalaniladigan himoya vositalarini qo'llash va sinash **qoidalari**" **nomli hujjat ishlab chiqilgan va bugungi kunda amalda qo'llaniladi va unda quyidagilar keltirilgan.**

1. UMUMIY NIZOMLAR

1.1. Qoidalarning maqsadi va qo'llanilishi

1.1.1. Ushbu Qoidalar "O'zbekenergo" Davlat aksionerlik kompaniyasi qaramog'idagi barcha qurilish-montaj tashkilotlari, trestlar, zavodlar, mexanizatsiyalashgan kolonnalar va boshqa korxonalar hamda tashkilotlar uchun taalluqlidir.

Ushbu Qoidalarni elektr uskunalari ta'mirlovchi, foydalanuvchi, quruvchi va montaj qiluvchi muhandis-texnik xodimlar va ishchilar egallab turgan lavozimi yoki kasbi hajmida bilishlari shart.

1.1.2. Qoidalarda himoya vositalarining tasniflari, ularga qo'yiladigan talablar bayon qilingan, foydalanish usullari va sinov me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan.

Mazkur Qoidalar talablariga javob bermaydigan himoya vositalarini ishlatish man qilinadi.

1.1.3. Himoya vositalari, ularni amalga tatbiq qilish xarakteriga qarab ikki turga bo'linadi: kollektiv himoya vositalari va shaxsiy himoya vositalari (GOST 12. 4. 011-75).

Elektr uskunalari konstruksiyalarining himoya vositasi funksiyasini bajaruvchi (muntazam to'siqlar, statsionar yerga ulagich pichoqlar va hokazolar) qismlari himoya vositalari tushunchasiga kirmaydi.

1.1.4. Elektr himoya vositalariga quyidagilar kiradi:

izolatsiyalovchi shtangalar (operativ, o'lchov, yerga ulagichni o'rnatish uchun), izolatsiyalovchi va elektr o'lchovchi qisqichlar (saqlagichlar bilan ishlash operatsiyalari uchun), kuchlanish ko'rsatgichi, fazalarni sozlash uchun kuchlanish ko'rsatgichi va hokazolar;

1000 V dan yuqori kuchlanish ostida ta'mirlash ishlarini olib borish uchun ishlatiladigan izolatsiyalovchi vositalar va moslamalar, 1000 V gacha kuchlanish ostidagi elektr uskunalarda ish olib borish uchun ishlatiladigan izolatsiyalovchi dastakli chilangarlik-yig'uv asboblari;

dielektrik qo'lqoplar, etiklar, kalishlar, gilamchalar, izolatsiyalovchi qoplamalar va izolatsiyalovchi tagliklar;

shaxsiy ekranlovchi komplektlar;

ko'chma yerga ulagichlar;

to'siq qurilmalari va dielektrik qalpoqlar;

xavfsizlik plakatlari va belgilari.

Yuqorida keltirilgan elektr himoya vositalaridan tashqari, elektr uskunalarda ish olib borilganda himoya ko'zoynagi va kaskalar, protivogazlar, qo'lqoplar, montyorning himoya belbog'lari va xavfsizlik arqonlari kabi shaxsiy himoya vositalarini qo'llash mumkin.

1.1.5. 1000 V kuchlanishdan yuqori elektr uskunalarda ish bajarish mobaynida ishlatiladigan asosiy himoya vositalariga quyidagilar kiradi:

izolatsiyalovchi shtangalar, izolatsiyalovchi va elektr o'lchovchi qisqichlar, kuchlanish ko'rsatgichlari, fazalarni sozlash uchun aniqlovchi kuchlanish ko'rsatgichlari;

elektr montyorlar havo elektr uzatish tarmoqlarida bevosita tok o'tkazuvchi qismlarga tegib turib ta'mirlash ishlarini olib borishda ko'llaniladigan izolatsiyalovchi qurilma va asbob-uskunalar (izolatsiyalovchi narvonlar, havozalar, bevosita simlarga tegib turadigan izolatsiyalovchi tortqilar, arqonlar, teleskopik minoralar savatchasi, simlarda ishlash uchun mo'ljallangan ko'chma minoralar va hokazolar).

1.1.6. Asosiy himoya vositalarining izolatsiyalovchi qismi dielektrik xususiyati chidamli bo'lgan materiallardan (chinni, qog'ozbaklet quvurlari, ebanit, getinaks, yog'och qatlamli plastiklar, plastik va shisha epoksid materiallar va hokazolardan) tayyorlanishi zarur.

O'ziga nam tortuvchi materiallar (qog'ozbakelit quvurlar, yog'och va boshqalar) namga chidamli lok bilan qoplangan va bu materiallar yorilmagan, darz ketmagan, tekis yuzali va tirnalmagan bo'lishi kerak.

1.1.7. 1000 V kuchlanishdan yuqori elektr uskunalarda qo'llaniladigan qo'shimcha elektr himoya vositalariga quyidagilar kiradi:

dielektrik qo'lqoplar;

dielektrik etiklar;

dielektrik gilamchalar;
shaxsiy ekranlovchi komplektlar;
izolatsiyalovchi tagliklar va qoplamalar;
dielektrik qalpoqlar;
ko'chma yerga ulagichlar;
to'siq qurilmalari;
xavfsizlik plakatlar va belgilari.

1.1.8. 1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalari qo'llaniladigan asosiy elektr himoya vositalariga quyidagilar kiradi:

izolatsiyalovchi shtangalar;
izolatsiyalovchi va elektr o'lchovchi qisqichlar;
kuchlanish ko'rsatgichlari;
dielektrik qo'lqoplar;
izolatsiyalovchi dastakli chilangarlik-yig'uv asboblari.

1.1.9. 1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalari uchun qo'shimcha elektr himoya vositalariga quyidagilar kiradi:

dielektrik kalishlar;
dielektrik gilamchalar;
ko'chma yerga ulagichlar;
izolatsiyalovchi tagliklar va qoplamalar;
to'siq qurilmalari;
xavfsizlik plakatlar va belgilari.

1.1.10. Elektr uskunalari operativ holda almashlab ulashlarda va boshqa ishlarni bajarish uchun zarur himoya vositalarini tanlab olish mazkur Qoidalar asosida, "Elektr uskunalari ishlatishda xavfsizlik texnikasi qoidalar", "Sanoat chastotasida ishlayotgan o'zgaruvchan tokli 500 kV kuchlanishli elektr uzatish havo tarmoqlari va podstansiyalarida ish bajarish jarayonida mehnatni muhofaza qilish me'yorlari va qoidalar" hamda boshqa tegishli me'yoriy texnik hujjatlar bilan, shuningdek, mazkur hujjatlarda talab etilganidek mahalliy sharoitga qarab aniqlanadi.

1.1.11. Asosiy himoya vositalaridan foydalanilganda qo'shimcha himoya vositalarining birini ishlatish kifoyadir, bundan faqat elektr uskunalari tokidan shikastlangan odamlarni qutqarish holati mustasnodir. Bunday hollarda qadam kuchlanishdan saqlanish uchun shuningdek, dielektrik etik yoki kalish ham ishlatiladi.

1.1.12. Himoya vositalari elektr uskunalari ishchi kuchlanishning¹ eng yuqori qiymatida ishlatishga mo'ljallangan bo'lishi zarur (GOST 1516.1-76 va 20690-75).

1.2. Himoya vositalaridan foydalanish tartibi

Umumiy nizomlar

1.2.1. Elektr uskunalari xizmat ko'rsatuvchi xodim xavfsiz ish bajarilishini ta'minlovchi barcha zarur himoya vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

Himoya vositalari inventar sifatida taqsimlovchi uskunalari, elektrostansiya sexlari, elektr tarmoqlarini taqsimlovchi punktlari va transformator podstansiyalarida saqlanishi yoki tezkor harakatdagi brigada, markazlashgan ta'mirlash brigadasi, ko'chma laboratoriya va hokozolarning inventar mulkiga kiritilishi hamda shaxsiy foydalanish uchun berilishi mumkin.

1.2.2. Inventar himoya vositalari ishlatishni tashkil qilish sistemasi, mahalliy sharoitlar va keltirilgan komplektlash me'yorlari (6-ilova) asosida obyektlar, tezkor chiqadigan brigadalar va boshqalar o'rtasida taqsimlanadi. Himoya vositalarining saqlanish joyini ko'rsatgan holda ushbu

taqsimlanish ro'yxatlarda qayd etilgan bo'lishi va u korxonada bosh muhandisi yoki tuman elektr tarmoqlari boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi kerak.

1.2.3. Xodimlarni o'z vaqtida himoya vositalari bilan ta'minlash va elektr uskunalari me'yorlariga muvofiq sinovdan o'tkazilgan himoya vositalari bilan komplektlash, ularni to'g'ri saqlashni tashkil qilgan va zarur zaxirani hosil qilish, muntazam kuzatuv va sinovlarni o'z vaqtida olib borish, yaroqsiz himoya vositalarini chiqarib tashlash hamda himoya vositalarini hisobga olishni tashkil qilish javobgarligi sex, xizmat joyi, podstansiya, elektr uzatish tarmoqlari uchastkasi boshlig'i va uchastka ustasi zimmasida bo'ladi, umumiy korxonada bo'yicha esa mas'uliyat bosh muhandisga yuklatiladi.

1.2.4. Alohida elektr uskunalari uchun berilgan himoya vositalari yaroqsiz bo'lib qolganligi aniqlangan taqdirda, ushbu uskunani ishlatuvchi xodim himoya vositasini ishlatishdan darhol chiqarib tashlashi, 1.2.3-bandda ko'rsatilgan shaxslardan biriga ma'lum qilishi va himoya vositalari qayd etiladigan jurnalga yoki operativ hujjatlarga yozib qo'yishi zarur.

1.2.5. Himoya vositalarini yakka o'zi ishlatish uchun olgan shaxslar ushbu himoya vositalarini to'g'ri ishlatishga va o'z vaqtida yaroqli-yaroqsizligini aniqlashga javob beradilar.

Himoya vositalarini saqlash tartibi

1.2.6. Himoya vositalarining sozligi va ishlatishga yaroqliligi ta'minlanadigan sharoitda saqlash va tashish zarur. Shuning uchun ular namlikdan, ifloslanishdan va mexanik buzilishlardan himoyalangan bo'lishi kerak.

1.2.7. Himoya vositalari berk xonalarda saqlanishi zarur.

Rezinadan qilingan himoya vositalari maxsus shkaf, tokcha, quti va hokazolarda alohida saqlanishi kerak. Ular yog', benzin va rezinani emiradigan boshqa moddalardan hamda to'g'ridan to'g'ritushadigan quyosh nuri va isitkich asboblari ta'sirini himoyalangan bo'lishi lozim. Ombordagi zaxiraga olib qo'yilgan rezinadan tayyorlangan himoya vositalarining harorati 0 — 25° S bo'lgan quruq xonalarda saqlanishi kerak.

1.2.8. Izolatsiyalovchi shtanga va qisqichlar xona devorlariga tegmaslik hamda egilmaslik choralari ko'rilgan holatda saqlanishi zarur. Kuchlanish ko'rsatgichi va elektr o'lchovchi qisqichlar jild yoki g'iloflarda saqlanishi lozim. Ko'chma yerga ulagichlarni saqlashga mo'ljallangan maxsus joylarga tartib raqami qo'yiladi, ularning raqamlari ko'chma yerga ulagichlardagi raqamlarga mos kelishi kerak.

1.2.9. Protivogazlar maxsus sumkalarga joylangan bo'lib, quruq xonalarda saqlanishi shart.

1.2.10. Ishlatilayotgan himoya vositalari maxsus ajratilgan joylarda, odatda, xonalarning kirish joylarida va elektr uskunalari boshqaruv shitlarida joylashtiriladi. Ushbu joylarda himoya vositalarining ro'yxati bo'lishi kerak. Saqlanish joylarida shtangalar, qisqichlar, ko'chma yerga ulagichlar, xavfsizlik plakatlari va belgilari uchun kronshteyn yoki ilgaklar bo'lishi, shuningdek, dielektrik qo'lqop, dielektrik kalish, dielektrik etik, dielektrik gilamcha, dielektrik qalpoq, izolatsiyalovchi taglik va qoplama, qo'lqop, himoya belbog'i va arqonlari, himoya ko'zoynagi, protivogaz va kuchlanish ko'rsatgichlar va boshqalar uchun shkaflar hamda tokchalar bilan jihozlangan bo'lishi zarur.

1.2.11. Tezkor chiqadigan va ta'mirlash brigadalari, laboratoriyadagi yoki shaxsiy foydalanishda bo'lgan elektr himoya vositalari quti, sumka yoki jildlarda saqlanishi lozim.

1.2.12. Kuchlanish ostida ta'mirlash ishlarini olib borishda ishlatiladigan izolatsiyalovchi vositalar quruq va havosi shamollatiladigan xonalarda saqlanishi, ularni tashqarida va ochiq havoda vaqtinchalik saqlaganda jildlarga solingan bo'lishi zarur. Izolatsiyalovchi qurilmalar va moslamalarni ishlatishdan oldin quruq latta bilan artish, ishlatish mobaynida namlanishiga yo'l

qo‘ymaslik talab qilinadi. Izolatsiyalovchi vositalar namiqqan bo‘lsa, ularni quritish va navbatdan tashqari elektr sinovidan o‘tkazish darkor.

Himoya vositalari holatini nazorat qilish va ularning hisobini olib borish

1.2.13. Raqamlanishi zarur bo‘lmagan gilamchalar, tagliklar hamda xavfsizlik plakatlar va belgilaridan tashqari, ishlatilayotgan barcha izolatsiyalovchi himoya vositalari, himoya belbog‘lari ham raqamlangan bo‘lishi zarur. Elektrostansiya, elektr tarmoqlari va podstansiyalarda har bir himoya vositasi uchun alohida raqamlanadi. Inventar raqamlar bevosita himoya vositasiga yozib qo‘yiladi.

Agar himoya vositalari bir necha bo‘laklardan iborat bo‘lsa (kuchlanish ko‘rsatgichlari, izolatsiyalovchi shtangalar va hokazolar), ushbu vosita uchun umumiy bo‘lgan raqam jami bo‘laklarga alohida yozilishi zarur. Himoya vositalarining raqami barcha bo‘laklarda bir xilda bo‘lsa, zavod raqamini ko‘llash mumkin.

1.2.14. Elektrostansiya sexlari, podstansiya (markazlashtirilgan xizmat ko‘rsatilganda bo‘lim va uchastkada), laboratoriya, qurilish-montaj tashkilotlari uchastkalari va boshqa joylarda himoya vositalarini hisobga oluvchi va holatini nazorat qiluvchi, ularning nomi va raqami qayd qilingan, saqlanish joyi ko‘rsatilgan, vaqti-vaqti bilan sinash va ko‘rikdan o‘tkazish muddati ko‘rsatilgan qayd etish jurnali olib borilishi zarur. Jurnal tavsiya qilingan shaklda (1-ilovaga qaralsin) to‘ldirilib borilishi va har 6 oyda bir marta himoya vositalari holatiga javobgar ma‘muriy texnik xodim tomonidan nazorat qilib turilishi zarur. Shaxsiy foydalanishda bo‘lgan himoya vositalari ham, himoya vositalarini hisobga olish va saqlash jurnalida qayd qilinishi, ularning berilgan vaqti va xodimning vositani olganligi to‘g‘risidagi imzosi bo‘lishi zarur.

1.2.15. Himoya vositalari tayyorlangandan so‘ng har bir himoya vositasi namunasini qabul qilish va topshirish, davriy (vaqti-vaqti bilan) va namunaviy sinovlardan o‘tkazish talab qilinadi (GOST 16504-81). Ishlatilayotgan himoya vositalari davriy va navbatdan tashqari (ta‘mirlashdan keyin o‘tkaziladigan) sinovlardan o‘tkazilishi lozim.

1.2.16. Izolatsiyalovchi tagliklar, dielektrik gilamchalar, ko‘chma yerga ulagichlar, to‘siqlar, plakat va belgilardan tashqari, zavodlardan yoki omborlardan ishlatish uchun olingan hamma himoya vositalari ishlatish sinovlari me‘yorlari bo‘yicha sinovdan tekshirilishi shart.

1.2.17. Izolatsiyalovchi dastakli uskuna va 1000 V gacha bo‘lgan kuchlanish ko‘rsatgichlaridan tashqari, sinovga bardosh bergan barcha himoya vositalariga quyidagi shakllarda keltirilgan shtamlardan biri qo‘yilishi zarur.

Elektr himoya vositalari uchun shtamp namunasi:

№ _____

_____ kV kuchlanishgacha yaroqli.

Keyingi sinov muddati 200 ____ y “ _____ ” _____

(laboratoriya nomi)

Elektr uskunalarini kuchlanishidan qat‘iy nazar ishlatiladigan himoya vositalari va saqlagich moslamalari (dielektrik qo‘lqoplar, protivogazlar, montyorning himoya belbog‘lari, xavfsizlikni ta‘minlovchi xavfsizlik arqonlari va h.k.lar) uchun shtamp namunasi:

№ _____

Keyingi sinov muddati 200 ____ y “ _____ ” _____

(laboratoriya nomi)

Shtamp rezina mahsulotlari chetiga, saqlagich moslamalari va elektr himoya vositalarining izolatsiya qismidagi chegaralovchi halqa yoniga chidamli hamda yuvilib ketmaydigan bo'yoq bilan bosilgan bo'lishi yoki yelimda yopishtirilishi kerak. Bir necha bo'lakdan iborat bo'lgan himoya vositasiga shtamp himoya vositasining faqat bir bo'lagiga bosilishi lozim. Ishga yaroqsiz deb topilgan himoya vositasining eski shtampi qizil bo'yoq bilan o'chirib tashlanishi zarur.

1.2.18. Himoya vositalarini sinovdan o'tkazuvchi laboratoriya elektr va mexanik sinov natijalarini ixtiyoriy shakldagi jurnalda qayd qiladi. Dielektrik rezinadan qilingan ko'p miqdordagi himoya vositalarining sinov natijalarini alohida jurnalda qayd qilish mumkin (2-ilova). Begona tashkilotlarga tegishli himoya vositalariga ham shtamp bosiladi va bundan tashqari, buyurtmachiga sinov bayonnomasi beriladi (3-ilova).

Himoya vositalaridan foydalanishning umumiy qoidalari

1.2.19. Ma'lum kuchlanishga mo'ljallangan elektr himoya vositalaridan kuchlanishi ushbu miqdordan katta bo'lmagan elektr uskunalaridagina belgilangan maqsadda foydalanish lozim.

1.2.20. Asosiy elektr himoya vositalari yopiq xonalarda o'rnatilgan elektr uskunalarda qo'llash uchun mo'ljallangan, ochiq elektr uskunalari va havo elektr uzatish tarmoqlarida esa faqat quruq havo sharoitlarida ishlatishga mo'ljallangan. Ochiq havodagi namgarchilik paytlarida ushbu sharoitlarga mo'ljallangan himoya vositalaridan foydalanish lozim.

Himoya vositalarini tayyorlash, sinash va ishlatish, faqat belgilangan davlat standartlari, texnik shartlar va yo'riqnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

1.2.21. Himoya vositalarini ishlatishdan oldin, ishchi ushbu himoya vositalarini ishga yaroqliligi, tashqi tomonida shikastlangan joyi yo'qligi, changdan tozalab artilgan holda, unga bosilgan shtampga asosan, yaroqlilik muddatini tekshirishi lozim. Dielektrik qo'lqoplar ishlatishdan oldin ularni barmoqlari tomon burab, teshigi bor-yo'qligini tekshirib olish zarur. Ishga yaroqlilik muddati o'tib ketgan himoya vositalaridan foydalanish man qilinadi.

2. AYRIM TURDAGI HIMOYA VOSITALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA ULARDAN FOYDALANISH QOIDALARI

2.1. Elektr himoya vositalari

Umumiy nizomlar

2.1.1. 1000 V dan yuqori kuchlanishli elektr uskunalarda ishlatiladigan himoya vositalarining izolatsiyalovchi qismi dastak tomonidan elektr izolatsiyalovchi materialdan qilingan ajratgich halqa yoki tirgovich bilan ajratiladi. Ajratgich halqaning tashqi diametri dastakning tashqi diametridan kamida 10 mm ga ortiq bo'lishi kerak. Izolatsiyalovchi qism bilan dastak chegarasini faqat bo'yoq bilan ajratib qo'yish man qilinadi. Ajratgich halqa esa izolatsiyalovchi qismning bir bo'lagi hisoblanadi. 1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalarda ishlatiladigan himoya vositalaridagi tirgovichning balandligi texnik shartlarda keltirilgan talablarga mos kelishi lozim.

Himoya vositalarini ishlatish jarayonida ularning ajratgich halqa yoki tirgovichni tashqarisidagi izolatsiyalovchi qismiga tegish man qilinadi.

2.1.2. Elektroizolatsiyalovchi trubkadan qilingan himoya vositalari konstruksiyasida trubka ichiga chang va suv kirishiga qarshi chora ko'rilgan bo'lishi zarur. Ushbu talab izolatsiyalovchi chang tortuvchi shtangalarga taalluqli emas.

2.1.3. Shtanga va kuchlanish ko'rsatgichlarning konstruksiyasi va ishchi qismining o'lchamlari uskunalarning (qutblari) fazalari orasida va ularni yerga ulangan qismiga nisbatan tutashuviga imkon bermasligi darkor.

2.1.4. Izolatsiyalovchi himoya vositalarining loklangan yuzasi buzilgan yoki boshqa nosozliklar aniqlangan taqdirda ularni ishlatish man qilinadi.

2.1.5. 1000 V dan yuqori kuchlanishli elektr uskunalarda izolatsiyalovchi shtangalar (o'lov shtangalaridan tashqari) yerga ulash uchun, izolatsiyalarni changdan tozalash uchun izolatsiyalovchi qisqichlar, elektr o'lovchi va kuchlanish ko'rsatgichlaridan dielektrik qo'lqop kiyib foydalanish zarur. O'lov shtangalari bilan ishlaganda dielektrik qo'lqopdan foydalanish zarur emas.

Izolatsiyalovchi operativ shtangalar va yerga ulagich shtangalari

2.1.6. Izolatsiyalovchi operativ shtangalar va yerga ulagich shtangalariga qo'yilgan umumiy texnik talablar GOST 20494-75 da qayd etilgan.

2.1.7. Izolatsiyalovchi shtangalar operativ ishlarni, o'lov ishlarini (izolatsiya holatini va elektr uzatish tarmoqlari va podstantsiyalardagi ulagichlarni tekshirish uchun), razryadnik detallarini o'rnatish va boshqa ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan. Izolatsiyalovchi shtangalar, har xil vazifalarni bajarish uchun almashtirib olib qo'yishga mo'ljallangan kallakli (ishchi qismli) universal bo'lishi mumkin.

2.1.8. Izolatsiyalovchi shtangalar ishchi, izolatsiyalovchi qismlardan va dastakdan iborat. Ishchi qismining konstruksiyasi ushbu shtanga bilan bajariladigan ishlarga muvofiq aniqlanadi. O'lov shtangasining ishchi qismi o'lov qurilmasidir.

Shtanganing izolatsiyalovchi qismi 1.1.6-bandda ko'rsatilgan materiallardan yasalishi zarur. Dastak esa shtanga bilan yaxlit yoki alohida bo'lak holda yasalishi mumkin.

2.1.9. Elektr yoyini o'chirish qurilmasi bilan jihozlangan shtangalar 110 kV va undan yuqori kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlarining fazalarini alohida ta'mirlashda o'chirilgan fazani yerga ulash uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, shtanga ushbu fazani yerga ulash jarayonida hosil bo'ladigan elektr yoyini o'chirish vazifasini ham bajaradi. Hamma shtangalar yerga ulagich shtangalariga qo'yilgan talablarni qondirishi zarur.

Elektr yoyini o'chiruvchi qurilmalar bilan jihozlangan shtangalar izolatsiyalovchi qismdan, dastak, elektr yoyini o'chiruvchi qurilmali ishchi qism va ilgak (pantografik va boshqa konstruksiyadagi), hamda strubsinali yerga ulovchi simdan tashkil topgan. Izolatsiyalovchi qism va dastakning uzunligi 2.1-jadvalda keltirilgan.

Yerga ulovchi simning ko'ndalang kesimi mexanik mustahkamligi bo'yicha 25 mm² dan kam bo'lmasligi lozim. Elektr yoyini o'chiruvchi qurilmali shtangada ishlatilishi mo'ljallangan elektr uzatish tarmog'ini kuchlanishi va elektr yoyini o'chiruvchi qurilmaning nominal toki ko'rsatilgan bo'lishi zarur.

2.1.10. Izolatsiyalovchi shtangalar o'lchami 2.2-jadvalda keltirilgan uzunlikdan kam bo'lmasligi, yerga ulagich shtangalar o'lchami esa 2.1-jadvalda keltirilgan uzunlikdan kam bo'lmasligi shart. 15 kV kuchlanishgacha mo'ljallangan chinni izolyatorli va elektroizolatsiyalovchi materialdan qilingan uzaytirgichlar shtangalarning minimal izolatsiyalovchi qism uzunligiga (2.2-jadval) izolyator uzunligi va uzaytirgichning izolyatoridan dastakkacha bo'lgan qismi kiradi.

2.1-jadval. Yerga ulagich shtangalarning minimal o'lchamlari

Shtangalar	Uzunligi, mm	
	izolatsiyalovchi qismi	dastagi
1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalarda yerga ulagichni o'rnatish uchun	Cheklanmaydi, ko'llashga qulay holda belgilanadi	
2 — 500 kV kuchlanishli taqsimlovchi uskunalari va 35 kV kuchlanishgacha bo'lgan havo elektr uzatish tarmoqlari simlariga yerga ulash uchun	2.2-jadval bo'yicha	

110 — 220 kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlari simlariga butunlay elektr izolatsiyalovchi materialdan yasalgan hamda elektr yoyini o‘chiruvchi qurilmali yerga ulashni o‘rnatuvchi shtangalar	1400	2.2-jadval bo‘yicha
500 kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlari simlariga yerga ulagach o‘rnatuvchi metall zvenolardan iborat yig‘ma shtangalar	1000	2.2-jadval bo‘yicha
110 — 500 kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlari ustunlaridan izolatsiya qilingan yashindan himoya qiluvchi trosslarga yerga ulagichni o‘rnatuvchi	700	300
Laboratoriya va sinov uskunalari yerga ulagich o‘rnatuvchi	kamida 700	300

2.2-jadval. Izolatsiyalovchi shtangalarning minimal o‘lchamlari

Elektr uskunalarining nominal kuchlanishi, kV	Uzunligi, mm	
	izolatsiyalovchi qismi	dastagi
1 gacha	Cheklanmaydi, qo‘llashga qulay holda belgilanadi	
2 dan 15 gacha	700	300
15 dan 35 gacha	1100	400
35 dan yuqori, to 110 gacha	1400	600
150 gacha	2000	800
220 gacha	2500	800
500 gacha	4000	1000

2.1.11. Shtangalar ishchi qismining konstruksiyasi ajratgichlar bilan ishlash jarayonida sirg‘anib ketishdan holi bo‘lishi lozim. Izolatsiyalovchi shtanga va yerga ulagich shtangalarning umumiy uzulishi yerdan, poldan, havo elektr uzatish tarmoqlarida esa tayanchdan turib, erkin ishlatishni ta‘minlashi zarur.

2.1.12. Izolatsiyalovchi shtangalarning umumiy uzunligi uning ishlatish sharoitlariga qarab belgilanadi. Bu shtangalar elektroizolatsiyalovchi material yoki metall bilan ulangan bir necha zvenolardan iborat bo‘lishi mumkin. Teleskopik konstruksiyalarni qo‘llashga ruxsat etiladi. Biriktiruvchi metall qismlari, ularning uzunligi izolatsiyalovchi qism uzunligining 5 foizidan ortiq bo‘lmagan taqdirda shtanganing uzunligini 2.2-jadvalga asosan aniqlashda olib tashlanmaydi.

2.1.13. Shtanganing massasi, agar u bilan bir odam ishlasa, bir qo‘lga (chegaralovchi halqa yonida ushlab turuvchi) tushadigan eng katta kuch o‘lchov shtangalari uchun 80 N (8 kgs) dan, qolganlari uchun esa (erga ulagich shtangasi uchun ham) 160 N (16 kgs) dan oshmasligi zarur. Kuch bundan ortiq bo‘lgan taqdirda ikkinchi odamning qatnashishi va ko‘tarib turadigan uskuna ishlatilishi talab qilinadi.

2.1.14. Izolatsiyalarni kuchlanish ostida tozalash uchun qo‘llaniladigan izolatsiyalovchi kovak shtangalar ishdan oldin va vaqti-vaqti bilan changtortgich yordamida puflab, tozalab turilishi lozim.

2.1.15. O‘lchov shtangalari tuzilish prinsipi yerga ulashni taqozo etuvchi hollardan tashqari, boshqa barcha holatlarda yerga ulanmaydi.

110 kV va undan yuqori kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlarida elektromontyorni bevosita tok o‘tkazuvchi qismlarga tegib ishlashi uchun mo‘ljallangan izolatsiyalovchi qurilma va moslamalar

2.1.16. Izolatsiyalovchi qurilma va moslamalar 110 kV va undan yuqori kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlarida bevosita tok o'tkazuvchi qismlarga (simga, armaturaga) tegib ishlashda odamni uskunalarning yerga ulangan qismidan va boshqa kuchlanishga ega bo'lgan qismlardan izolatsiya qilish uchun mo'ljallangandir.

Izolatsiyalovchi qurilmalarga elektr izolatsiyalovchi (bakelit, shishaplastik va boshqa) materiallardan tayyorlangan shtangalardir, narvonlar, tortqilar, arqonlar kiradi.

Moslamalarga ko'taradigan savatlar, sim oldida ishlash uchun maxsus xonalar, simda harakat qiluvchi aravachalar, tortuvchi qurilmalarning qo'shimcha qismlari. domkratlar, bloklar va hokazolar kiradi. Moslamalar elektroizolatsiyalovchi materiallardan yoki metallardan yasalishi mumkin.

2.1.17. Tok o'tkazuvchi qismlarga odam tegishidan oldin uning shaxsiy ekranlovchi komplekti tok o'tkazuvchan qismlarga maxsus shtanga yordamida (potensiallarni tenglashtirish uchun) ulanishi zarur. Ulovchi o'tkazgichning ko'ndalang kesimi 4 mmgdan kam bo'lmasligi lozim.

2.1.18. Simga yaqinlashish va unga keyinchalik tegish izolatsiyalovchi narvon yoki izolatsiyalovchi shtanga yoki arqonlarga osilgan kabina yordamida amalga oshirilishi mumkin. Izolatsiyalovchi narvonga alohida bo'laklardan yig'ish mumkin. Narvonning yuqori qismi ustunni traversiga mahkamlash uchun qisqich va sharnir bilan jihozlanadi. Bu o'z navbatida narvonni o'zaro perpendikulyar bir yoki ikki tekislikda (maydonda) erkin harakatlanishini ta'minlaydi.

2.1.19. Izolatsiyalovchi tortqi simlar va osilgan ilgaklar og'irligini o'ziga olish uchun xizmat qiladi. Simga yaqinlashish uchun kabina ishlatilgan taqdirda izolatsiyalovchi tortqilarni ushbu kabina hamda undagi elektromontyor og'irligini o'ziga olish uchun ishlatish mumkin.

2.1.20. Izolatsiyalovchi arqonlar asboblarni yuqoriga olib chiqish, narvon va ko'chma minoralarni joyidan qo'zg'atish hamda ishchi holatiga keltirish, montyorning simda, narvonda hamda kabinada turgan vaqtda xavfsizligini ta'minlashga mo'ljallangandir. Izolatsiyalovchi arqonlar sintetik toladan (masalan polipropilendan) tayyorlangan bo'lib, uning tarkibiga tabiiy tola aralashmagan bo'lishi kerak.

2.1.21. Izolatsiyalovchi arqonlardan tashqari barcha izolatsiyalovchi qurilma va moslamalarda kuchlanish sinfi, ruxsat etilgan yuk ko'tarish qobiliyati va keyingi sinov muddati aniq ko'rinishi zarur. Agar narvon alohida bo'laklardan yig'ilgan bo'lsa, belga har bir bo'lagiga bosiladi.

Izolatsiyalovchi arqonlarda yoki ularga bog'langan sinov muddati to'g'risidagi belgilarda aniq ko'rinadigan "Faqat kuchlanish ostida ishlatish uchun" yozuvi bo'lishi lozim.

Izolatsiyalovchi qisqichlar

2.1.22. Izolatsiyalovchi qisqichlar saqlagichlar bilan ishlash uchun, izolatsiyalovchi qoplamalar va to'siqlarni o'rnatish hamda olish va shunga o'xshash ishlarni bajarishda qo'llaniladi¹.

2.1.23. Qisqichlar ishchi (qisqich tishlari), izolatsiyalovchi qismdan va dastakdan tashkil topgan. Izolatsiyalovchi qisqichning gabarit o'lchamlari 2.3-jadvalda keltirilgan.

2.3-jadval. Izolatsiyalovchi qisqichlarning minimal o'lchamlari

Elektr uskunalarning nominal kuchlanishi, kV	Uzunligi, mm	
	izolatsiyalovchi qismi	dastak
1 gacha	Cheklanmaydi, qo'llashga qulay holda belgilanadi	
6 dan 10 gacha	450	150
10 dan yuqori, to 35 gacha	750	200

Elektr o'lchovchi qisqichlar

2.1.24. Elektr o'lovchi qisqichlarga qo'yilgan umumiy texnik talablar GOST 9071-79 da keltirilgan.

2.1.25. Elektr o'lovchi qisqichlar elektr uzatish tarmoqlarida ularning yaxlitligini buzmasdan tarmoqdagi tok, kuchlanish va quvvatni o'lash uchun ishlatiladi.

2.1.26. 10 kV kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalarda ishlatiladigan elektr o'lovchi qisqichlar ishchi, izolatsiyalovchi qismlar va dastakdan tashkil topgan. Qisqichning ishchi qismi ochilib-yopiladigan magnit o'tkazgichdan, cho'lg'andan va olib qo'yiladigan yoki ichiga o'rnatilgan o'lov asbobidan tashkil topgan. Izolatsiyalovchi qismi va dastagi esa elektroizolatsiyalovchi materialdan tayyorlanishi va minimal uzunligi 380 mm, dastagi 130 mm bo'lishi lozim.

2.1.27. 1000 V kuchlanishdan yuqori elektr uskunalari zanjirlarida o'lovchi qisqichlar bilan foydalanilganda chiqariladigan asboblarni ishlatish, shuningdek, o'lov chegarasini tok o'tkazuvchi qismlardan qisqichlarni olmay turib almashlab ulash man qilinadi. O'lov ishlari olib borilayotganda qisqichni osilib turgan holda ushlab lozim.

2.1.28. 1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalari uchun qo'llaniladigan qisqichlar ishchi qismdan (ajratgichli magnit o'tkazgich, cho'lg'am va o'lov asbobidan) hamda bir vaqtning o'zida izolatsiyalovchi qisimli tayanch va dastak vazifalarini bajaruvchi korpusdan iborat.

1000 V dan yuqori kuchlanishni ko'rsatuvchi gazorazryadli indikator lampali asboblari

2.1.29. 1000 V gacha va undan yuqori kuchlanish ko'rsatgichlariga qo'yilgan umumiy texnik talablar GOST 20493-75* da keltirilgan.

2.1.30. Elektr uskunalarda kuchlanish bor yoki yo'qligini aniqlashga mo'ljallangan ko'rsatkichlar qo'lda olib yuriladigan kuchlanish ko'rsatgichlaridir. Kuchlanish ko'rsatgichlarining ishlashi gazorazryadli indikator lampadan sig'im toki o'tganda yonish prinsipiga asoslangan.

2.1.31. Kuchlanish ko'rsatgichi ishchi, izolatsiyalovchi qismlar va dastakdan tashkil topgan. Ishchi qismga uchlik - kontakt, gazorazryadli lampa va kondensatorlar kiradi. Izolatsiyalovchi qism ishchi qism bilan dastak oralig'ida joylashgan bo'lib, bir necha elementdan yasalgan bo'lishi mumkin. Teleskopik konstruksiyalarni ishlatishga ham ruxsat beriladi.

2.1.32. Kuchlanish ko'rsatgichining o'lchamlari 2.4-jadvalda keltirilgan o'lchamlardan kam bo'lishi mumkin emas.

2.1.33. Kuchlanishi 10 kV dan yuqori bo'lgan elektr uskunalarida 2.2-jadvaldan uzunlikka mos bo'lgan izolatsiyalovchi shtangalarga mahkamlangan. 2 — 10 kV kuchlanish uchun mo'ljallangan kuchlanish ko'rsatgichidan foydalanish mumkin.

2.1.34. Kuchlanish ko'rsatgichining sezgirligi uning lampasi minimal kuchlanishida yonishi bilan, ya'ni signal lampasining barqaror nurlanishi bilan xarakterlanadi.

1000 V dan yuqori kuchlanishda qo'llaniladigan ko'rsatgichning yonish kuchlanishi ushbu elektr uskunalarining nominal kuchlanishining 25 foizini tashkil qilishi zarur.

2.1.35. Kuchlanish ko'rsatgichini ishlatishdan oldin uning ishga yaroqliligi maxsus asboblari bilan yoki yaqin yerda joylashgan va oldindan kuchlanish ostidagi tok o'tkazuvchi qismlarga yaqinlashtirish bilan tekshiriladi.

2.4-jadval. Kuchlanish ko'rsatgichining minimal o'lovchlari

Elektr uskunalarining nominal kuchlanishi, kV	Uzunligi, mm	
	izolatsiyalovchi qism	dastak
1 gacha birgalikda	Cheklanmaydi	
1 dan yuqori, to 10 gacha birgalikda	230	110
10 dan yuqori, to 20 gacha birgalikda	320	110

35	510	120
110	1400	600
110 dan yuqori, to 220 gacha birgalikda	2500	800

2.1.36. Kuchlanish ko'rsatgichini ishlatish jarayonida, uni tok o'tkazuvchi qismlarga lampasida nurlanish paydo bo'ladigan masofaga qadar yaqinlashtirish kerak. Yaqinlashtirilgan vaqtda lampada nurlanish paydo bo'lmagan hollardagina asbobni tok o'tkazuvchi qismga bevosita tegizish mumkin. Kunduzgi yorug' vaqtda ochiq, taqsimlovchi uskunalarda, havo elektr uzatish tarmoqlarida va hokazolarda ishlash jarayonida lampa nurlanishini yaxshi kuzatish uchun ular oftobdan to'suvchi moslamalar bilan ta'minlanishi lozim.

2.1.37. Qoida bo'yicha havo elektr uzatish tarmoqlarida kuchlanish yo'qligi UVNB tipidagi kontaktsiz kuchlanish ko'rsatgichi bilan tekshirilishi lozim. Kuchlanish yo'qligi havo elektr uzatish tarmoqlarining tayanchlaridan yoki teleskopik minora (gidroko'targach)dan UVN-10 va shunga o'xshash kuchlanish ko'rsatgichlari bilan tekshirilganda, ularning ishchi qismi tayanchdagi tushirilgan yerga ulagichning bo'lishidan va teleskopik minora (gidroko'targich) shassisiga yerga ulanganligidan qat'i nazar, yerga ulanishi kerak (metall tayanchlarda ishlashdan tashqari). Kuchlanish ko'rsatgichining ishchi qismi uning ishchi ko'ndalang kesimi 4 mm^2 bo'lgan yumshoq misli sim bilan tunukadan tayyorlangan maxsus halqasimon uchlikka ega bo'lgan mis sim yordamida yerga ulanadi. Kuchlanish ko'rsatgichining yerga ulagich simini havo elektr uzatish tarmog'i simlarini yerga ulashda foydalanilgan, avvaldan yerga ulangan ko'chma yerga ulagichga va havo elektr uzatish kuchlanishi indekatsiyasi uchun ustundan tushirilgan yerga ulagichga ulash uchun ruxsat beriladi. Kuchlanish yo'qligini tekshirish va himoya yerga ulagichni o'rnatishda yerdagi ulagich simiga (tushirilgan yerga ulagichga) tegish mumkin emas.

1000 V dan yuqori kontaktsiz kuchlanish ko'rsatgichlari

2.1.38. Kontaktsiz kuchlanish ko'rsatgichlarining ish prinsipi elektrostatik induksiya prinsipiga asoslangan. Asbobning cho'g'lanish lampasi uning signal elementi hisoblanadi. Ushbu asbob 6 — 35 kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlarida, 6 — 35 kV kuchlanishli ochiq va yopiq taqsimlovchi elektr uskunalarda kuchlanish bor-yo'qligini tekshirish uchun mo'ljallangan.

2.1.39. Ushbu kuchlanish ko'rsatgichi ishchi qism, zaryadlovchi uskuna va 110 kV kuchlanishli izolatsiyalovchi teleskopik shtangadan tashkil topgan. Kuchlanish ko'rsatgichi kuchlanish ostida bo'lgan tok o'tkazuvchi qismi a yaqinlashtirilgan sari chastotasi ko'payib boruvchi uzuq-uzuq yorug'lik signali bera boshlaydi. Kuchlanish ko'rsatgichi uning sozligini tekshiruvchi biriktirilgan qurilma va tok manbaiga ega hamda zaryadlovchi uskuna bilan jihozlangan bo'ladi.

2.1.40. Kontaktsiz kuchlanish ko'rsatgichi hamda gazorazryadli lampali kuchlanish ko'rsatgichi bilan kuchlanish bor-yo'qligini tekshirish tartibi bir xildir. Ushbu asbobni yerga ulash talab qilinmaydi.

Fazalarni sozlash uchun kuchlanish ko'rsatgichlari

2.1.41. Ushbu asboblarda havo va kabel elektr uzatish tarmoqlari hamda 3 — 110 kV kuchlanishli transformatorlarning ishchi kuchlanish ostida fazalarini sozlash uchun mo'ljallangan.

2.1.42. Asbob konstruktiv jihatdan izolatsiyasi kuchli egiluvchan sim bilan bir-biriga ulangan elektr izolatsiyalovchi trubkada ikki korpusni tashkil qiladi. Uning elektr sxemasi gazorazryadli indikator lampa, kondensator va rezistrlardan iborat. Asbobning izolatsiyalovchi qismi minimal uzunligi 2.4-jadvalga mos kelishi zarur.

2.1.43. Ushbu asboblarni ishlatish tartibi ishlatish yo'riqnomasi asosida aniqlanadi.

1000 V gacha bo'lgan kuchlanish ko'rsatgichlari

2.1.44. 1000 V gacha bo'lgan elektr uskunalarda kuchlanish bor-yo'qligini tekshirish uchun nazorat lampasi (cho'g'lanuvchi lampali va ikki o'tkazuvchi simli patron)dan foydalanish man etiladi. Chunki nazorat lampasidan foydalanilganda fazalararo kuchlanishga ulanish natijasida uning portlashi va buning natijasida ishchilarning elektr yoyi va shisha bo'laklaridan jarohat olish xavfi bor.

2.1.45. 1000 V gacha bo'lgan elektr uskunalarda kuchlanish bor-yo'qligini tekshirish uchun 2 tipdagi asbobdan: o'zgarimas va o'zgaruvchan tokli elektr uskunalari uchun - aktiv tok ta'sirida ishlaydigan ikki qutbli kuchlanish ko'rsatgichidan, o'zgaruvchan tokli elektr uskunalari uchun sig'im toki ta'sirida ishlaydigan bir qutbli kuchlanish ko'rsatgichidan foydalaniladi.

2.1.46. Ikki qutbli kuchlanish ko'rsatgichi elektr sxemasi elementlari joylashgan ikki korpusdan tashkil topgan. Korpuslar bir-biri bilan havo elektr uzatish tarmoqlarida ishlatish uchun uzunligi 1 m dan kam bo'lmagan, qolgan elektr uskunalari uchun uzunligi 0.6 m dan kam bo'lmagan mustahkam izolatsiyali egiluvchan mis sim bilan ulangan. Bir qutbli kuchlanish ko'rsatgichi bir korpusga joylashgan. Ikki qutbli kuchlanish ko'rsatgichi esa stryelkali asbob turida ham bajarilishi mumkin (masalan, cho'ntakda olib yuriladigan IN-92 turidagi voltmetr).

2.1.47. Ikki qutbli kuchlanish ko'rsatgichining elektr sxemasi gazorazryadli indikator lampadan, lampaga parallel ulangan rezistor, qo'shimcha rezistorlar va kontakt-uchliklardan tashkil topgan.

Bir qutbli kuchlanish ko'rsatgichining elektr sxemasi qo'shimcha rezistorli gazorazryadli indikator lampadan, kontakt-uchlikdan va operatorning qo'li tegib turuvchi korpusning yon tomoniga joylashgan kontaktdan iborat.

2.1.48. 1000 V gacha bo'lgan kuchlanish ko'rsatgichida indikator lampasining yonish vaqtidagi kuchlanishi 90 V dan oshmasligi lozim.

2.1.49. 1000 V gacha bo'lgan kuchlanish ko'rsatgichining konstruksiyasi kontakt-uchlikning o'qi bo'ylab harakatlanishiga yo'l qo'ymasligi zarur. Kontakt-uchlikning izolatsiya qilinmagan qismi uzunligi 20 mm dan oshmasligi lozim. Ikkilamchi zanjirlarda ish bajarish jarayonida uchlikning izolatsiya qilinmagan qismidan 5 mm gacha qoldirib, qolgan qismiga elektr izolatsiyalovchi materialdan qilingan trubka kiygizib qo'yish tavsiya qilinadi.

2.1.50. Bir qutbli kuchlanish ko'rsatgichini ikkilamchi zanjir sxemalarini tekshirganda, elektr schyotchiklarni ulaganda faza simini aniqlashda, elektr lampa patronlarini, o'chirgichlar, saqlagichlar va boshqalarni ulash uchun ishlatish tavsiya qilinadi. Bunda, kuchlanish bor-yo'qligini tekshirish jarayonida indikator lampasi tashqi kuchlanish ta'siri doirasida ham yonishi mumkinligini e'tiborga olish zarur.

Rezinali dielektrik qo'lqoplar

2.1.51. Elektr uskunalarda ishlash mobaynida texnik shartlar talabi bilan tayyorlangan maxsus dielektrik qo'lqoplardan foydalanishga ruxsat etiladi. Kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan elektr uskunalarda dielektrik qo'lqoplar asosiy himoya vositasi sifatida, 1000 V dan yuqori bo'lgan elektr uskunalarda esa qo'shimcha himoya vositasi sifatida ishlatiladi.

2.1.52. Qo'lqopning uzunligi 350 mm dan kam bo'lmasligi lozim. Ish jarayonida dielektrik qo'lqopni shimarib qo'yish man qilinadi. Qo'lqopga yeng ustidan kiyish zarur. Ishlatishda bo'lgan qo'lqoplar (mahalliy sharoit bo'yicha) sovunli yoki sodali suyuqlik bilan davriy dizenfeksiyadan o'tkazib turilishi lozim. Sovuq ob-havo sharoitlarida binodan tashqarida dielektrik qo'lqoplar ishlatilganda yupqa jun yoki ip-gazlama qo'lqop ustidan kiyishga ruxsat etiladi.

Dielektrik etik va kalishlar

2.1.53. Dielektrik etik va kalishlar yopiq joylarda hamda yog'ingarchilik bo'lmaganda ochiqda joylashgan elektr uskunalarida qo'shimcha himoya vositasi sifatida ishlatiladi. Dielektrik etik va kalishlar ishlayotganlarni qadamlar orasidagi (odim) kuchlanishdan saqlaydi.

2.1.54. Elektr uskunalarida faqat GOST 13385-78 talablariga asosan tayyorlangan dielektrik etik va kalishlarni ishlatishga ruxsat etiladi. Dielektrik etik va kalishlar tashqi ko'rinishiga (rangi, maxsus belgi yoki loklanmaganligiga) qarab boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan etik va kalishlardan farq qilishi zarur. Elektr uskunalari har xil razmerli dielektrik oyoq kiyimlari bilan jihozlanishi lozim.

Dielektrik rezinali gilamlar va izolatsiyalovchi tagliklar

2.1.55. Dielektrik rezinali gilamlar o'ta zax xonalardan tashqari boshqa barcha yopiq joylarda joylashgan 1000 V gacha va undan yuqori kuchlanishli elektr uskunalarida qo'shimcha himoya vositasi sifatida ishlatiladi. Gilamlar vazifasi va ishlatish sharoitiga qarab, GOST 4997-75 talablariga asosan quyidagi 2 guruhda tayyorlanishi zarur:

1-guruh — oddiy tayyorlangani — - 15° S, + 40° S haroratda ishlatish uchun;

2-guruh — moy va benzinga chidamli — - 50° S, + 80° S haroratda ishlatish uchun.

Gilamni ishlatishda uning markirovkasiga ahamiyat berish lozim. Ko'zga tashlanadigan, mexanik ravishda yirtilgan joylari bo'lsa, uni albatta, chiqitga chiqarish zarur.

2.1.56. Zax va tez ifloslanuvchi xonalarda izolatsiyalovchi tagliklarni qo'llash zarur. Izolatsion taglik balandligi 70 mm dan kam bo'lmagan izolyatorlarga o'rnatilgan to'shamadan tashkil topgan. Tagliklar uchun maxsus ishlab chiqarilgan SN-6 turidagi izolyatorlarni ishlatish tavsiya qilinadi. To'shama o'lchami 50 x 50 sm bo'lgan, qalinligi 30 mm dan kam bo'lmagan quruq, ko'zsiz, buralmagan yog'och taxtachalardan yasalishi zarur. Qoqilgan taxtachalar oralig'i 3 sm dan oshib ketmasligi lozim. Yaxlit to'shamalarni ishlatish tavsiya qilinmaydi, chunki ular izolyatorlarda tasodifiy shuntlanishni yo'qligini tekshirishni qiyinlashtiradi. To'shama hamma tomonidan bo'yalgan bo'lishi lozim.

2.1.57. Izolatsiyalovchi tagliklar mustahkam va barqaror bo'lishi zarur. Olib qo'yiladigan izolyatorlar ishlatilganda, to'shamani izolyator bilan ulaganda uning sirg'anib ketishini bartaraf etish kerak. Taglik ag'darilib ketmasligi uchun to'shama chetlari izolyatorning tayanch yuzasidan tashqariga turtib chiqmasligi zarur.

Izolatsiyalovchi qoplamalar

2.1.58. Izolatsiyalovchi qoplamalarni 20 kV kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalarida tok o'tkazuvchi qismlarga bexosdan tegib ketishining oldini olish uchun ish joyini to'siqlar bilan ajratish imkoni bo'lmagan hollarda qo'llash ruxsat etiladi. 1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalarida izolatsiyalovchi qoplamalar uzgichlarni yangilash uchun ulab yuborishga yo'l qo'yilmaydigan vosita sifatida ham qo'llaniladi.

2.1.59. Kuchlanish ostida bo'lgan va kuchlanishi olingan tok o'tkazuvchi qismlar orasidagi (masalan, qo'zg'almas kontaktlar va ajratgich pichoqlari o'rtasidagi) izolatsiyalovchi qoplamalar mexanik mustahkam, konstruksiyasi va o'lchami tok o'tkazuvchi qismlarni to'liq yopadigan bo'lishi zarur. Qoplamalarni bevosita tok o'tkazuvchi qismlar ustiga o'rnatish mumkin.

2.1.60. Kuchlanishi 20 kV gacha bo'lgan elektr uskunalarida qattiq elektr izolatsiyalovchi materiallardan (getinaks, shishatekstolit va boshq.) yasalgan qoplamalar ishlatiladi. Kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan elektr uskunalarida dielektrik rezinadan yasalgan qalinligi 5 mm dan kam bo'lmagan elastik qoplamalarni ishlatish mumkin. Ular bilan kuchlanishni olmasdan ishlashda tok o'tkazuvchi qismlar yopiladi.

2.1.61. Konstruksiyasida izolatsiyalovchi dastak yoki tutqich ko'zda tutilmagan tok o'tkazuvchi qismlar ustiga qoplamalarni asosiy himoya vositalaridan foydalangan holda o'rnatish zarur.

2.1.62. Izolatsiyalovchi qoplamalarni ishlatishdan avval ularning changini artish, yuzasida yoriq va darz ketgan joylari yo'qligini, lok qoplamasi buzilmaganligi va boshqa kamchiliklar yo'qligini tekshirish zarur. Izolatsiyalovchi qoplamalarni namlanish va ifloslanishdan saqlash lozim.

Izolatsiyalovchi dastakli chilangarlik-yig'uv asboblari

2.1.63. Izolatsiyalovchi dastakli asboblar 1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalarda kuchlanish ostida ishlash uchun asosiy himoya vositasi sifatida qo'llaniladi.

2.1.64. Faqat GOST 11516-79* talablari asosida tayyorlangan izolatsiyalovchi dastakli asboblarni ishlatishga ruxsat etiladi. Izolatsiyalovchi dastaklar g'illoflar shaklida yoki tayanch bilan mahkamlangan nam o'tkazmaydigan, moy va benzin ta'siriga chidamli, mo'rt bo'lmagan, elektr izolatsiyalovchi materialdan yasalgan echilmaydigan qoplama shaklida tayyorlanadi. Izolatsiya dastakni batamom qoplashi va uning halqa-tayanch o'rtasigacha bo'lgan uzunligi 100 mm dan kam bo'lmashligi kerak. Otvoyortka o'zagining izolatsiyasi uning uchiga 10 mm qolgunga qadar davom etishi lozim. Izolatsiyalovchi dastaklar yuzasi va qalinligi nuqsonsiz bo'lishi hamda g'ovaklar, singan va shishgan joylari bo'lmashligi shart.

Shaxsiy ekranlovchi komplektlar

2.1.65. Shaxsiy ekranlovchi komplektlar xodimlarni 50 Gts chastotali kuchlanishi 500 kV bo'lgan elektr uskunalari yuzaga keltiradigan, kuchlanganligi 500 kV/m gacha bo'lgan elektr maydoni ta'siridan shaxsiy himoya qilish uchun mo'ljallangandir.

2.1.66. Kuchlanish ostida bo'lgan tok o'tkazuvchi qismlarga tegish mumkin bo'lgan hollarda, chunonchi panellarda, elektr yuritmalarda, ishlab turgan yig'malarda va 1000 V kuchlanishgacha bo'lgan zanjirlarda ishlashda, elektr asbob-uskunalarini profilaktik sinashda (bevosita sinov o'tkazayotgan shaxslar uchun), elektr payvandlash ishlarida shaxsiy ekranlovchi komplektlardan foydalanish man qilinadi. Havo harorati 42° S dan yuqori bo'lganda ekranlovchi komplektlarni ishlatish tavsiya qilinmaydi. Bunday hollarda statsionar yoki ko'chma ekranlovchi uskunalarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

2.1.67. Ekranlovchi komplektga maxsus ish kiyimi, maxsus poyabzal, qo'l va boshni himoya qiluvchi vositalar, yuzni himoya qiluvchi ekran (kerak bo'lgan taqdirda), strubsinali yerga ulagich simlari kiradi.

2.1.68. Ekranlovchi komplektlar 3 xilda tayyorlanadi:

EPR podstansiya va havo elektr uzatish tarmoqlarini ta'mirlash ishchilari uchun (yozgi);

EPX podstansiyaning navbatchi ishchilari uchun (yozgi);

EPZ havo elektr uzatish tarmoqlarini ta'mirlovchi ishchilar uchun (qishgi).

2.1.69. EPR ekranlovchi komplektga kapyushonli kurtka va yarimkombinezon, elektr o'tkazuvchi qoplamali kaska yoki uning ustidan kiyiladigan elektr o'tkazuvchi toladan to'qilgan jild, elektr o'tkazuvchi tagi charm poyabzal, elektr o'tkazuvchi rezinadan qilingan rezina etik, elektr o'tkazuvchi qo'lqop (2 juft), strubsinali yerga ulagich simlari kiradi.

2.1.70. EPX ekran komplekti EPR komplektiga o'xshash bo'lib, ekranlovchi ish kiyimi bilan farq qiladi (kurtka, yarimkombinezon o'rniga elektr o'tkazuvchi toladan qilingan kapyushonli xalat ishlatiladi).

2.1.71. EPZ ekranlovchi komplekt tarkibiga kapyushonli kurtka va issiq astarli shim, elektr o'tkazuvchi qoplamali yoki jildli kaska, kigiz etik ustidan kiyish uchun elektr o'tkazuvchi rezinali

kalish; elektr o'tkazuvchi rezinadan qilingan rezinali etiklar, elektr o'tkazuvchi qo'lqoplar yoki yengli qo'lqoplar, strubsinali yerga ulagich simlari kiradi.

2.1.72. Yilning sovuq vaqtlarida EPR va EPX yozgi ekranlovchi komplektlarni qishgi umumiy foydalaniladigan ishchi kiyim ustidan kiyib ishlatish mumkin.

2.1.73. Ekranlovchi komplektlarning barcha elementlari o'zaro ishonchli ulanishi hamda oyoq kiyim yoki strubsinali sim orqali ekranlovchi ishchi kiyimlar yerga ulanganda elektr zanjiri hosil qilishi uchun kontaktli chiqish tugmalari bilan ta'minlanadi.

2.1.74. Har bir ekranlovchi komplekt inventar raqami bilan belgilangan bo'lishi zarur. Ekranlovchi komplektlarni ishlatish "Shaxsiy ekranlovchi komplektlarni ishlatish yo'riqnomasi" talablari asosida olib borilishi lozim.

2.1.75. EPR va EPZ ekranlovchi komplektlari shaxsiy foydalanish uchun berilishi va aniq ishchilarga birlashtirilishi lozim. EPX ekranlovchi komplektlari umumiy foydalanishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin, lekin komplektga kiruvchi maxsus oyoq kiyimlar esa alohida har bir ishchiga birlashtirilgan bo'lishi zarur.

2.1.76. Ekranlovchi komplektlar havo harorati $2^{\circ}\text{S} - 30^{\circ}\text{S}$, namligi 80 foizdan oshmagan, quruq isitiladigan xonalardagi maxsus javonlarda saqlanishi kerak. Ekranlovchi kiyimlar ilgaklarda, oyoq kiyimlar va kaskalar esa taxta tokchalarda saqlanishi zarur.

2.1.77. Komplektlarni kontaktlar chiqishlari orqali ko'tarib yurish va osib qo'yish man qilinadi.

2.1.78. Maxsus kiyim va poyabzallarni muntazam ravishda tozalab, o'z vaqtida ta'mirlab turish lozim.

2.1.79. Ekranlovchi komplektdagi maxsus kiyim elementlarini, elektr o'tkazuvchanligini tiklash va tashqi ko'rinishini yaxshilash uchun (kurtka, shim, xalat, cho'ntaklardagi so'kilgan choklarni hamda yirtilgan joylarini yo'qotish va kontaktli chiqarishlarni tiklash), shuningdek, kaska jildi va ekranlovchi qo'lqoplarni ta'mirlashga ijozat beriladi. Ta'mirlash jarayonida elektr o'tkazuvchi gazlamani elektr o'tkazmaydigan gazlama bilan almashtirish man qilinadi. Ekranlovchi poyabzalni elektr o'tkazuvchanligini tiklash maqsadida ta'mirlash man qilinadi. Faqat uning tashqi ko'rinishini yaxshilash uchun ta'mirlash ishlariga (tagcharmni qoqish, so'kilgan choklarni tikish va boshq.) ruxsat etiladi.

2.1.80. Ekranlovchi komplekt bilan yomg'ir paytida plashsiz yoki ivib ketishga qarshi boshqa himoya vositasiz ishlash man etiladi. Ivigan maxsus ishchi kiyimni siqib quritish man qilinadi, ularni ilgakga osib quritish zarur.

Ko'chma yerga ulagichlar

2.1.81. Ko'chma yerga ulagichlar odamlarni o'chirilgan tok o'tkazuvchi qismlarda ishlayotganda xatolik bilan berilgan yoki tashqi elektr kuchlanish ta'sirida paydo bo'lgan kuchlanishdan himoya qilish uchun ishlatiladi.

2.1.82. Ko'chma yerga ulagichlar yerga ulovchi simlarga ulash uchun xizmat qiluvchi qisqich (qisma)dan, yerga ulovchi va uskunaning barcha fazalari tok o'tkazuvchi qismlarini o'zaro tutashtiruvchi simdan hamda yerga ulashga yoki yerga ulangan konstruksiyaga ulashga mo'ljallangan uchlik yoki strubsinadan tashkil topgan. Har bir fazaga alohida ko'chma yerga ulagichni qo'llashga ruxsat beriladi.

2.1.83. Ko'chma yerga ulagichlar quyidagi talablarni qondirishi shart:

1) Ular yalang'och egiluvchan ko'p tolali mis simdan tayyorlanishi va kesimi bir fazali yoki fazalararo qisqa tutashuv jarayonida termik bardoshlik talablarini qoniqtirishi kerak, lekin kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo'lgan elektr uskunolari uchun 25 mm^2 dan, kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan elektr uskunolari uchun esa 16 mm^2 dan kam bo'lmasligi zarur. Mis simlar kesimini

termik bardoshligi bo'yicha tanlab olishda boshlang'ich haroratni 30° S, yakuniy haroratni 850° S qabul qilishga ijozat beriladi. Ko'chma himoya yerga ulagichlarni qisqa tutashuv tokidan qizishini hisoblashda quyidagi sodda formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$S_{\min} = I_{\text{yct}} \sqrt{t_f} / 272$$

Bunda: S_{\min} — simning minimal ko'ndalang kesimi; I_{ust} — qisqa tutashuv tokining eng yuqori miqdori, t_f — fiktiv vaqt.

Amaliyotda t_f uchun ushbu elektr uskunasi asosiy releli himoyasining eng katta o'rnatilgan ishlash vaqti olinishi kerak. Qisqa tutashuv tokining qiymati yuqori bo'lgan holda bitta yerga ulashning termik mustahkamligi yetarli bo'lmasa, bir nechta parallel yerga ulash o'rnatishga ruxsat beriladi.

2) Bir-biri bilan tutashtiruvchi simlarni shinalarga ulovchi qisqich (qisma)ning konstruksiyasi shunday bo'lishi kerakki, ko'chma yerga ulagich qisqa tutashuv toki o'tganda dinamik kuch ta'sirida o'rnatilgan joyidan chiqib ketmasligi kerak. Qisqich (qisma)lar yerga ulagichlarni tok o'tkazuvchi qismlarga shtanga yordamida o'rnatish va olishga mo'ljallangan moslama bilan jihozlangan bo'lishi zarur. Egiluvchan mis sim qisqich (qisma)ga bevosita yoki mustahkam presslangan mis uchlik yordamida ulangan bo'lishi zarur. Sim ulangan joylaridan sinmasligi uchun uni egiluvchan po'lat simli prujina shaklidagi qobiqqa joylashtirish tavsiya qilinadi. Egiluvchan mis sim tolalarini mexanik shikastlanishlardan saqlash maqsadida simni aniq ko'rinadigan qobiqqa solib qo'yish ham tavsiya qilinadi.

3) Simdagi yerga ulash uchun mo'ljallangan uchlik, strubsina ko'rinishida yoki yerga ulangan konstruksiya yoxud yerga ulagich simiga mahkamlanuvchi qisqich konstruksiyasiga (barashkasiga) mos holda bajarilishi zarur.

4) Ko'chma yerga ulagich elementlarining kontakt yuzalari qalaylab oqartirilgandan so'ng presslash, payvandlash yoki bolt bilan mustahkam va qattiq ulanishi shart. Buning uchun kavsharlash man qilinadi.

2.1.84. Havo elektr uzatish tarmoqlari simlarini yerga ulash uchun ishlatiladigan ko'chma yerga ulagich uskunalarini metall ustunlar konstruksiyasiga, yog'och ustunlarni yerga ulash qurilmasiga yoki maxsus vaqtinchalik yerga ulagichga ulashga ruxsat etiladi.

2.1.85. Sinash sxemalarida ishlatiladigan ko'chma yerga ulagich simining ko'ndalang kesimi kamida 4 mm², elektr uzatish tarmoqlaridagi ustundan izolatsiyalangan yashin qaytargich troslari hamda ko'chma uskunalarini (laboratoriya va h. k) yerga ulashda esa mexanik mustahkamligiga qarab kamida 10 mm² bo'lishi shart.

2.1.86. Har bir ko'chma yerga ulagichda uning raqami va yerga ulovchi simlarning ko'ndalang kesimi ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Bu ma'lumotlar yerga ulagichga mahkamlangan birkaga yoki strubsinaga (uchlikka) o'yib yozilgan bo'lishi lozim.

2.1.87. Har bir ko'chma yerga ulagich har 3 oyda bir marta hamda ishlatishdan oldin va qisqa tutashuv toki ta'sirida bo'lgan hollarda ko'zdan kechirilishi shart. Simlarning ulangan kontaktlari emirilganda, mexanik mustahkamligi pasayganda, ular erib tushganda, 5 foizdan ko'p sim tolalari uzilganda va shunga o'xshash holatlarda ko'chma yerga ulagichlar ishlatishdan olib tashlanishi kerak.

To'siq qurilmalari va dielektrik qalpoqlar

2.1.88. To'siq qurilmalari ishchilarning bexosdan kuchlanish ostidagi tok o'tkazuvchi qismlarga xavfli masofagacha yaqinlashishdan saqlash hamda taqsimlovchi uskunalar uchastkalariga kirish yo'llarini to'sish uchun qo'llaniladi. To'siq qurilmalariga shchitlar kiradi.

2.1.89. Shchitlar alif shimdirilgan va rangsiz lok surtilgan quruq taxtadan yoki tiniq elektr izolatsiyalovchi materialdan qilinishi lozim. Ularga xavfsizlik texnikasi plakatlari mahkamlanishi yoki “Elektr uskunalari ishlatishda xavfsizlik texnikasi qoidalari”ga muvofiq yozuvlar yozib qo‘yilishi lozim. Shchit konstruksiyasi mahkam, qulay, qiyshayishi va ag‘anashiga imkon bermaydigan choralar ko‘rilgan, og‘irligi esa bir kishi ko‘tarib o‘rnatadigan bo‘lishi darkor. Shchit balandligi kamida 1,7 m, pol bilan pastki qismi oralig‘i ko‘pi bilan 10 sm bo‘lishi kerak.

2.1.90. Shchitlarni shunday o‘rnatish kerakki, ular xavf paydo bo‘lganda xodimlarning xonadan chiqib ketishiga xalaqit bermasligi zarur.

2.1.91. Shchitlarning kuchlanish ostidagi tok o‘tkazuvchi qismlarga tegib turishiga ruxsat berilmaydi. Ish joyini to‘sovchi shchitdan kuchlanish ostidagi tok o‘tkazuvchi qismlargacha bo‘lgan masofa “Elektr uskunalari ishlatishda xavfsizlik texnikasi qoidalari”da qayd etilgan masofaga mos kelmog‘i shart. (“Elektr uskunalari ishlatishda xavfsizlik texnikasi qoidalari”, “Sharq”, 1995-yil, 14-bet).

2.1.92. To‘siqlarni mustahkam o‘rnatish yoki mahkamlash uchun mo‘ljallangan shchitlarni ishlatishdan oldin ularning ulangan qismlari mustahkamligini, barqarorligini va detallarning chidamliligini tekshirish lozim.

2.1.93. Elektr tokiga ulab yuborishning oldini olish uchun qalpoqlarni bir qutbli ajratgich pichoqlariga kiygiziladi. Qalpoqlar elektr xavfsizligi shartlari bo‘yicha ko‘chma yerga ulagichni o‘rnatishning iloji bo‘lmagan elektr uskunalari ulangan joylarida qo‘llaniladi. Qalpoqlar ajratgich pichoqlariga bemalol kiygizilishi va unda mustahkam turishi zarur. Qalpoqlar rezinadan yoki plastmassadan tayyorlanadi. Ularni o‘rnatish va echib olgan asosiy himoya vositalarini qo‘llagan holda amalga oshirilishi zarur. Qalpoqlarda yoriqlar, darz ketgan joylar, begona jismlar mavjudligi va boshqa buzilishlarning yo‘qligi har 12 oyda bir marta tekshirilishi lozim.

Xavfsizlik plakatlari va belgilari

2.1.94. Xavfsizlik plakatlari va belgilari (bundan keyin plakatlar va belgilar) xatolik bilan ish joyiga kuchlanish berish mumkin bo‘lgan kommutatsion apparatlar harakatini taqiqlash, kuchlanish ostida bo‘lgan tok o‘tkazuvchi qismlarga yaqinlashish xavfli ekanligini ogohlantirish, mehnat xavfsizligining muayyan talablari bajarilgandan keyingina ma‘lum harakatlarni amalga oshirishga ruxsat berish, turli obyektlar, qurilmalar va ularning joylashgan o‘rnini ko‘rsatish uchun qo‘llanilishi zarur. Plakatlar va belgilar ogohlantiruvchi, taqiqlovchi, ko‘rsatmali va ko‘rsatuvchi guruhlarga bo‘linadi.

2.1.95. Plakat va belgilar qo‘llash xarakteriga qarab muntazam hamda ko‘chma bo‘lishi mumkin. Muntazam plakat va belgilarni elektr izolatsiyalovchi materiallardan (tekstolit, getinaks, polistirol va h.k.) tayyorlash tavsiya qilinadi, beton va metall yuzalariga (havo elektr uzatish tarmog‘i ustunlari, kamera eshiklari va h.k.) esa, trafaretlar yordamida bo‘yoqlar bilan tushiriladi. Metall plakat va belgilar o‘rnatishga ham ijozat beriladi. Ko‘chma plakatlar elektroizolatsiyalovchi materiallardan (plastmassadan, kartondan) tayyorlanishi lozim. Ochiq elektr uskunalari metallan qilingan ko‘chma plakat va belgilarni qo‘llashga ijozat beriladi.

Xavfsizlik plakatlari va belgilarining ro‘yxati, o‘lchami, shakli, ishlatish joyi va sharti 7-ildovada keltirilgan.

2.2. Shaxsiy himoya vositalari

Himoya ko‘zoynagi

2.2.1. Himoya ko‘zoynagi metall va boshqa materiallarni qayta ishlash mobaynida mayda zarrachalar, eritilgan mastika tomchilari, kislotalar, ishqorlar, elektrolitlar va bo‘yoqlarning ko‘zga tushishidan, saqlagichlarning kuyishi natijasida sachrovchi metall zarrachalari hamda uchqunlari,

kavsharlash vaqtidagi gaz goryelkalarining alangasi, yoyi va hokazolardan ko'zni himoya qilish uchun ishlatiladi.

2.2.2. Himoya ko'zoynaklari belgilangan vazifasiga qarab, standart va texnik shartlar (GOST 12.4.003-80, 12.4.013-85 va boshq.) talablariga javob berishi kerak. Uzoq muddatli ishlarda oynasi terlaydigan ko'zoynaklarning ichki yuzasi terlashdan saqlovchi maxsus tarkib bilan moylanishi lozim.

Qo'lqoplar

2.2.3. Qo'lqoplar qo'lni uchqunlardan, erigan metall zarrachalarining sachrashidan, to'ponidan, yuqori haroratdan, neftdan, ishqordan, kislotadan, suvdan, mexanik ta'sirlanishdan saqlash uchun mo'ljallangan.

2.2.4. Ergan metallar, kabel mastikalari bilan ishlaganda qiyin yonuvchi asbest, spilka va boshqa gazlamalardan tikilgan qo'lqoplardan foydalanish shart.

2.2.5. Qo'lqoplar GOST 12.4.010-75 talablari asosida tayyorlanishi zarur. Qo'lqoplar 6 tipda ishlab chiqariladi: baxyalab tikilgan, barmog'i choklab ulangan; barmoqli, qo'lqopning pastki qismi to'la Qo'lqoplar kuchbichilgan; barmog'i qo'lqop bukilishining yon tomonida joylashgan; 2 ta barmoqli; elastik lenta bilan bilaklarga bog'langan, qo'njlari uzaytirilgan — 4 ta o'lchamli.aytiruvchi va himoya qoplamalariga ega. Qo'njlari uzaytirilgan qo'lqoplar 420 mm dan kam bo'lmasligiga kerak. Ergan metall, mastika va boshqa moddalar oqib ketishining oldini olishda qo'lqoplar kiyim yenglarini zich qoplab olgan bo'lishi kerak.

Protivogazlar, respiratorlar

2.2.6. Protivogazlar (masalan, PSh-1, PSh-2) nafas olish a'zolarini kislorod etishmaslikdan yoki yopiq taqsimlovchi qurilmalarda avariya holati tufayli metallarning erishi va elektr izolatsiyalovchi materiallarning yonishi natijasida paydo bo'ladigan o'ta xavfli gazlar bilan ifloslangan havo bilan zaharlanishdan himoya qilish uchun ishlatiladi.

2.2.7. Kavsharlash ishlarida kavsharlash aerazolardan himoya qilish uchun aerazolga qarshi filtrlovchi respiratorlar (U-2 k, F-62 sh va h.k.) ishlatiladi.

2.2.8. Havoni filtrlovchi fuqaro protivogazlarini (masalan, GP-5) faqat uglerod oksididan saqlovchi gopkalit patron bilan ishlatishga ruxsat etiladi. Gopkalit patroni havo harorati 6° S va undan yuqori bo'lganda ishlatishga ijozat beriladi, bundan past havo haroratida uning himoya xususiyati yo'qoladi.

2.2.9. Protivogaz va respiratorlar GOST va texnik shartlar talablari asosida tayyorlanishi va ishlatilishi lozim.

2.2.10. Xodimlar protivogaz va respiratorlardan foydalanishga o'qitilib, o'rgatilgan bo'lishi zarur. Shlangli protivogazlar bilan ishlash jarayonida ishchilar, xavfsiz zonada bo'lgan, kerak bo'lganda yordam berishga qurbi etadigan va tayyor turgan, yordamchi xodimlar nazoratida bo'lishi lozim. Respiratorlar faqat shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, boshqa kishilarga dizenfeksiya qilingandan keyin ishlatishga ruxsat etiladi.

Kaskalar

2.2.11. Kaskalar boshni mexanik shikastlanishdan, yog'ingarchilikdan, elektr toki urishidan saqlash uchun xizmat qiladi. Elektrostansiya va podstansiyalardagi ishlab turgan elektr uskunalarida (boshqaruv, releli va shunga o'xshash shchitlardagi ishlardan tashqari), yopiq va ochiq taqsimlovchi elektr uskunalarida, tunellar va quduqlarda hamda havo elektr uzatish tarmoqlarida ta'mirlash ishlarini bajarish jarayonida hamma ishchilar kaskadan foydalanishlari majburiydir.

2.2.12. Kaskalar 12.4.091-80; 12.4.087-84-sonli GOSTlar va texnik shart talablari asosida tayyorlanishi zarur. Kaskalar belgilangan maqsadiga qarab bir necha turda ishlab chiqariladi: cheti soyabonli, fara ushlagichli, olib qo'yiladigan pelerinali tomchi o'tadigan joylarda ishlash uchun

qo'llaniladigan, qish mavsumida kiyish uchun mo'ljallangan issiq shlemlil. Kaskaning barcha detallari o'tkir qirralar va tomonlardan hamda bo'rtiqlardan holi bo'lishi zarur. Kaska engakdan o'tkazib bog'lash uchun kamar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Kaska materiali metall buyumlar bilan urilganda uchqun chiqarmasligi kerak. Kaska korpusi ikki tomoni ochiq tok o'tkazuvchi detallardan holi bo'lib, 1000 V gacha bo'lgan elektr uskunalarida elektr toki urishidan himoya qilishi shart. Kaskaning tashqi yuzasi tekis, silliq, darz ketmagan va pufaksiz bo'lishi zarur.

Montyorning saqlagich kamari va xavfsizlik arqonlari


2.2.13. Montyorning saqlagich kamari havo elektr uzatish tarmoqlarida, elektrostansiya va podstansiyalarda, taqsimlovchi uskunalarda balandlikda ishlovchi ishchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Kamarlar GOST 14185-77, 5718-77 talablariga mos kelmog'i lozim.

2.2.14. Ishlab turgan elektr uskunalarida ish bajarishda (kavsharlash ishlaridan tashqari) texnik kapronli lentadan yoki shunga o'xshash materialdan qilingan osma arqonli moityorning saqlagach kamarini ishlatish lozim. Elektr uskunalarining tok o'tkazuvchi qismlaridan kuchlanishni olib yoki tok o'tkazmaydigan qismlaridan kuchlanishni olmasdan kavsharlash ishlarini bajarish jarayonida osma zanjirli saqlagich kamarini ishlatish lozim.

2.2.15. Kamar karabini qulflab berkitilishi va qimirlamaydigan moslama bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

2.2.16. Dinamik siltanishga duchor bo'lgan kamar ishlatishdan olib qo'yilishi zarur.

2.2.17. Xavfsizlik arqoni qo'shimcha himoya vositasi sifatida ishlatiladi. Ish joyi montyorning saqlagich kamarini osma arqoni bilan uskunalar konstruksiyasiga mustahkam o'rnatib olish imkonini ta'minlay olmaydigan masofalarda xavfsizlik arqonidan foydalanish shart. Buning uchun uzunligi kamida 10 m va diametri 15 mm dan kam bo'lmagan paxtadan qilingan arqondan yoki maxsus to'qilgan kapron arqondan foydalanish zarur. Arqonning statik uzilish yuklamasi 10000 N (1000 kgs)¹ dan kam bo'lmasligi shart. Xavfsizlik arqonining saqlagich kamari aylanasiga mahkamlash uchun bog'lagich tuguni 2.1-chizmada ko'rsatilgan. Xavfsizlik arqonlari karabinlar (prujinali qisqichlar) bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.



2.1-chizma. Xavfsizlik arqonining saqlagich kamari.

Nazorat savollari

1. Himoya vositalarining qanaqa turlari mavjud?
2. Shaxsiy himoya vositalarining turlari?
3. Shaxsiy himoya vositalarining maqsadi va vazifalari?
4. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish?

8 - Mavzu: TERRORIZM VA XALQARO TERRORISTIK TASHKILOTLAR. TERRORIZM VA UNDA AHOLINI MUHOFAZA QILISH

Reja:

1. Umumiy ma'lumot.
2. Terrorizm va terrorchilik harakatlari haqida tushuncha.
3. Xalqaro terrorizm va uning salbiy illatlari.
4. Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O'zbekistonning ishtiroki.
5. Terrorizmga qarshi kurash.

Umumiy ma'lumot

Ijtimoiy favqulodda vaziyatlarga ocharchilik, ish tashlash, ochlik e'lon qilish, davlatga qarshi da'vatlar va namoyishlar, shuningdek davlat to'ntarishlari, terroristik harakatlar va boshqa shu kabi hodisalar kiradi.

Terrorizm zo'rlik, zo'ravonlik degan ma'noni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunida terrorizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Terrorizm – mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob'yektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoyiy qilmishlar.

Terrorizmning maqsadlari:

- davlat siyosati va davlat qurilishini zo'rlik yo'li bilan o'zgartirish;
- davlatning jamoatchilikka qarshi kurashdagi urinishlarini beqarorlashtirish va buzish;
- ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal etish, dunyo hamjamiyatiga integratsiya qilinish qudratiga ega bo'lgan demokratik siyosiy tuzimni yaratish va mustahkamlash bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlarni barqarorlashtirish va buzish;
- shaxsga, jamiyatga, davlatga siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy zarar keltirish.

2. Terrorizmning tasnifi va tavsifi.

Terrorizmning quyidagi turlari mavjud:

1. Milliy.
2. Diniy.
3. Siyosiy.
4. An'anaviy (bombali).
5. Telefon.
6. Yadroviy.

7. Kimyoviy.
8. Biologik.
9. Kiberterrorizm.

Terrorchilik harakatlarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan vositalar:

- sovuq qurollar;
- o'q otar qurollar;
- portlovchi moddalar;
- zaharlovchi moddalar;
- biologik agentlar;
- radioaktiv moddalar;
- yadro zaryadlari;
- elektromagnit impulsi tarqatuvchilar.

Terrorizmning ko'lamlari:

- shaxsga qaratilgan jinoyatlar;
- guruhviy qotilliklar;
- odamlarning ommaviy qirilishi;
- butun mamlakat bo'ylab terrorchilik harakatlarini amalga oshirish;
- dunyo jamiyatiga qarshi qaratilgan yirik ko'lamli harakatlar.

3. O'zbekistonda aholi va ob'ektlarni bosqinchi-terrorchilikdan muhofaza qilish.

O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'risida"gi qonuniga muvofiq respublikamizda terrorizmga qarshi kurash qonuniylik, shaxs xuquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi, terrorizmga qarshi kurash oshkora va nooshkora choralari uyg'unligi, jalb qilinadigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o'tkaziladigan rahbarlik qilishda yakkaboshchilik tamoyillari asosida olib boriladi. Terrorizmga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari ishtirok etadi.

Terrorchilik harakatlari bilan bog'liq vaziyatga tushib qolganda qanday harakat qilish kerak?

Garovga tushib qolganda:

- aslo vahimaga berilmang;
- "hamma qatori" bo'lishga harakat qiling. Ko'zga tashlangan kiyimlardan halos bo'ling, bo'yingiz baland bo'lsa engashing, keskin harakatlar qilmang, terrorchining ko'ziga tik qaramang;
- atrofingizdagilarni tinchlantirishga harakat qiling, bunda har qanday usuldan, hattoki musht tushirishdan ham foydalanishingiz mumkin;
- imkon darajasida binoda xavfsizroq joyni aniqlang (oyna, derazalardan uzoqroq va h.k.);
- iloji boricha yong'in vaqtida hayot uchun havfli bo'lgan sun'iy toladan tayyorlangan kiyimlardan halos bo'ling;
- ozod bo'lishingizga bo'lgan umidni yo'qotmang.

Telefon orqali tahdid qilinganda:

- iloji boricha "suhbat"ni yozib olishga harakat qiling;
- yozib olish yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, suhbatni eslab qolish lozim;
- qo'ng'iroq qiluvchi bilan ko'proq muloqotda bo'lishga harakat qiling, uning yoshi, millati, jinsini taxminan aniqlashga harakat qiling, ovozi, gapirish ohangi, nutqiga e'tibor qarating;
- qo'ng'iroq to'g'risida tegishli organlar (MXX, ichki ishlar bo'limi)ga xabar bering, zarur bo'lsa odamlarni evakuatsiya qilishni tashkil eting.

Portlovchi qurilma ishga tushganda:

- sodir bo'lgan voqea to'g'risida tegishli joylar (ichki ishlar bo'limi, qutqaruv xizmati, hokimiyatning tezkor navbatchisi)ga xabar bering;
- imkon qadar yuzaga kelgan vaziyatga baho berishga harakat qiling: portlash joyi, jarohatlanganlar soni, yong'in chiqqan-chiqmaganligi va h.k;
- voqea joyiga begonalar va qiziquvchilar yaqinlashishini oldini oling;
- jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil eting.

Shubhali buyum topib olganda:

- zudlik bilan topilgan buyum to'g'risida xabar bering;
- odamlarni xavfsiz joyga olib chiqing;
- odamlarning shubhali buyumga yaqinlashishlariga, radio-aloqa vositalari, uyali telefon va radioportlatgichning ishlab ketishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan vositalardan foydalanishga yo'l qo'ymang;
- huquqni muxofaza qilish organlari vakillari yetib kelishini kuting.

Favqulodda vaziyatlarning ruhiy omillari.

Fuqaro muhofazasi faoliyatining barcha tomonlari, jumladan FVDT tizimlarning shaxsiy tarkibi va aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligi takomillashgan taqdirdagina samarali bo'ladi. Ushbu tayyorgarlikning muhim yo'nalishlaridan biri ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik hisoblanadi.

Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga ma'naviy tayyorlash – bilim oluvchilarda fuqaro muhofazasiga oid vazifalarni bajarish mamlakat, halq oldidagi burch ekanligiga ishonchni tarbiyalash, o'z vazifalarini vijdonan bajarishga, shunday vaziyatlardagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'zini tayyorlash zarurligini tushinish, ruhiy qiyinchiliklarga chidash ruhida tarbiyalashdir.

Ruhiy tayyorgarlik – bu odamlarda ruhan chidamlilikni shakllantirish yoki qo'yilgan vazifalarni bajarish, havfli vaziyatlarda fidokorona harakat qilish qobiliyatini kuchaytirishdagi hislatlarini hosil qilish demakdir. Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik bir-biri bilan uzviy bog'langan². Bu odamlarda yuqori ma'naviy-ruhiy sifatlarini shakllantirishning yagona jarayonidir.

Shaxsiy tarkibning tayyorgarligi tarbiya va o'qitish jarayonida, uning barcha shakl va usullarini qo'llagan holda amalga oshiriladi. Uning muhim vazifalaridan biri shaxsiy tarkibga va tizimlar sardorlariga ruhiy chiniqish, irodasini mustaxkamlashga bo'lgan intilishni singdirishdan iborat. Shaxsiy tarkib bunday chiniqish fuqaro muhofazasi bo'yicha vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ko'makdosh bo'lishni tushinib etishi zarur.

Ruhiy tayyorgarlik, ayniqsa xavfli vaziyatda harakat qilish uchun insonning ruhiyatini bevosita chiniqtirish fuqaro muhofazasi vazifalarini amalda bajarish chog'ida, o'qitish jarayonida asosan ikki shaklda olib boriladi:

1. Maxsus jihozlangan o'quv shaharchalarida, ruhiy chiniqish maydonchalarida mashg'ulotlar, trenirovkalar olib borish.

2. Barcha mashg'ulotlarda, ayniqsa, fuqaro muhofazasi o'quv mashqlarida. Ularda real sharoitga maksimal yaqinlashtirilgan sharoit yaratiladi.

Buning uchun fuqaro muhofazasining o'quv moddiy-texnik bazasini yaratish, uni doimo foydalanishga tayyor holda saqlash, o'tkazilayotgan o'quv mashg'ulotlari va mashqlarida samarali qo'llash lozim.

Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikning shakl va usullarini mahalliy sharoitni hisobga olgan holda doimo takomillashtirib borish zarur. Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikda ketma-ketlik tamoyili juda muhim o'rin tutadi: oddiydan murakkabga, biroz murakkabdan - ko'proq murakkabga.

Xavf-xatar, halokat, inqiroz so'zlari bizni har qadamda ta'qib etadi. Gazeta jurnallar sahifalari, televizor ekрани orqali yangi va daxshatli voqealar, hodisalar, jinoyat va favqulodda vaziyatlar haqidagi axborotlar olinadi. Beixtiyor har birimizda savol tug'iladi: men bilan shunday bo'lib qolsachi? Odam o'zini yordamga muhtoj, himoyasiz his qila boshlaydi. Xavf-xatar har qadamda: uyda, ko'chada, teatrda, jamoat transportida poylab turgandek tuyulaveradi. Bundan tinchlik yo'qoladi, natijada qon bosimining ko'tarilishi, uyqu va ishtaha yo'qolishi hollari kuzatiladi, bu esa o'z navbatida, oshqozon yarasi va boshqa kasalliklarni paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Qo'rquv turli ko'rinishda: zararli va foydali bo'lishi ham mumkin. Foydali qo'rquv bizni xavf-xatar va o'ylanmay qilinajak harakatlardan saqlaydi. Masalan, mashinalar tinmay o'tib turgan ko'chani mumkin bo'lmagan joyda kesib o'tishga yo'l qo'ymaydi. **Zararli** qo'rquv yashashga va oddiy harakatlarni amalga oshirishga: liftda yurish, kinoga borish va boshqa amallarni qilishga halaqit beradi. Bunday qo'rquv, fikrlash va harakatlanish qobiliyatini qotirib qo'yadi, tasavvurdagi voqea-hodisalarni boshdan kechirishga majbur qiladi, ularga yanada dahshatliroq tus beradi. Agar odam nimadandir juda ham qo'rqa, hali yuz bermagan vaziyatni bir necha bor boshdan o'tkazgandek bo'ladi. Bunday qo'rquv bilan odamning o'zi yoki mutaxassis yordamida kurasha olishi mumkin, buni har kim o'zi hal qiladi. Bu xavfsizlik psixologiyasiga qo'yilgan birinchi qadam bo'ladi.

Ikkinchi qadam – xavf-xatar bilan uchrashuvga tayyorlanishni o'rganish. Potentsial xavfni ko'ra bilish (avtomobilda keta turib, himoya kamarini taqmaslik; mashinalar oqimi aro bekatga kelib to'xtagan avtobus tomon yugurish), uni chetlab o'tishni o'rganish va haqiqatdan ham ushbu xavf-xatarga to'qnash kelib qolganda, nima qilish kerakligini bilish muhimdir.

Maxsus o'quv mashg'ulotlarini va mashqlarni o'tkazib turish ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikni oshirib boradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

TERRORIZMGA QARSHI KURASH TO'G'RSIDA UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va asosiy vazifalari

Ushbu Qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmdan xavfsizligini ta'minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

2-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

garovga ushlab turilgan shaxs — qo'lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlarni, shuningdek ayrim shaxslarni biron-bir harakat sodir etishga yoki bunday harakat sodir etishdan tiyilishga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo'lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs;

terrorizm — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini

buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar;

terrorizmni moliyalashtirish — terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta'minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalarni, resurslarni berishga yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat;

terrorchi — terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan, shuningdek terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni amalga oshirgan shaxs;

terrorchilik guruhi — oldindan til biriktirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko'rgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilgan shaxslar guruhi;

terrorchilik tashkiloti — ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi;

terrorchilikka qarshi operatsiya — terrorchilik harakatiga chek qo'yish va uning oqibatlarini minimallashtirish, shuningdek jismoniy shaxslarning xavfsizligini ta'minlash hamda terrorchilarni zararsizlantirishga qaratilgan, kelishilgan va o'zaro bog'liq maxsus tadbirlar majmui;

terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan zona — joyning yoki akvatoriyaning alohida uchastkalari, havo bo'shlig'i, transport vositalari, binolar, imoratlar, inshootlar, xonalar hamda terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan doiradagi ularga tutash hududlar;

terrorchilik faoliyati — terrorchilik harakatini uyushtirish, rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirishdan, terrorchilik harakatiga undashdan, terrorchilik tashkilotini tuzishdan, terrorchilarni yollash, tayyorlash va qurollantirishdan, ularni moliyalashtirish va moddiy-texnika jihatidan ta'minlashdan iborat bo'lgan faoliyat;

terrorchilik harakati — garovda ushlab turish uchun shaxslarni qo'lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamoat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy, boshqa guruhleri, chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik obyektlarni shu jumladan kontinental shelfda joylashgan statsionar platformalarni bosib olish, shikastlantirish, yo'q qilish, portlatishlar, o't qo'yishlar, portlatish qurilmalarini, radioaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy, boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish bilan qo'rqitish, yer usti, suv va havo transporti vositalarini qo'lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo'q qilish, aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda vahima ko'tarish va tartibsizliklar keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog'lig'iga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga avariya, texnogen xususiyatli halokatlar sodir etish yo'li bilan zarar yetkazish yoki xavf tug'dirish, tahdidni har qanday vositalar va usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish;

xalqaro terrorizm — bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizm.

3-modda. Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

4-modda. Terrorizmga qarshi kurashning asosiy prinsiplari

Terrorizmga qarshi kurashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:
qonuniylik;

shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi;

jazoning muqarrarligi;

terrorizmga qarshi kurash oshkora va nooshkora usullarining uyg‘unligi;

jalb etiladigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o‘tkaziladigan operatsiyaga rahbarlik qilishda yakkaboshchilik.

5-modda. Terrorchilik faoliyatining oldini olish

Terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Quyidagilar taqiqlanadi:

terrorizmni targ‘ib qilish;

terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi;

terrorchilik faoliyatiga daxldor yuridik shaxslarni, ularning bo‘linmalari (filiallari) va vakolatxonalarini (shu jumladan chet el va xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini) akkreditatsiya qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning faoliyat ko‘rsatishi;

terrorchilik faoliyatiga daxldor chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kirishi;

tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma‘lumotlar va faktlarni yashirish.

6-modda. Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashish

Davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashadilar va zarur yordam beradilar.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi

Terrorizmga qarshi kurash sohasida O‘zbekiston Respublikasining chet el davlatlari bilan, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlari, maxsus xizmatlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

II. DAVLAT ORGANLARINING TERRORIZMGA QARSHI KURASH SOHASIDAGI VAKOLATLARI

8-modda. Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha davlat organlari

Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;

Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati:

terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yish yo‘li bilan terrorizmga, shu jumladan xalqaro terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiradi;

terrorchilar, terrorchilik guruhlar va terrorchilik tashkilotlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni to‘playdi hamda tahlil qiladi, ulardan kelib chiqayotgan tahdidning milliy xavfsizlikka qay darajada xavfli ekanligini baholaydi, tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarga zarur axborotlar taqdim etadi;

terrorchilarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishidan Davlat chegarasining himoya qilinishi va qo‘riqlanishini ta‘minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali qurol, o‘q-dorilar, portlovchi, radioaktiv, biologik, shuningdek kimyoviy yoki boshqa zaharlovchi moddalarning, terrorchilik harakatini sodir etish maqsadida ishlatilishi mumkin bo‘lgan predmet yoki materiallarning noqonuniy olib o‘tilishi oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yish choralarini ko‘radi;

chegara oldi mintaqasida va chegara oldi zonasida terrorchilarni, terrorchilik guruhlarini aniqlaydi, zararsizlantiradi, qarshilik ko‘rsatilgan taqdirda esa ularni yo‘q qilish choralarini ko‘radi;

O‘zbekiston Respublikasining alohida muhim va kategoriyalangan obyektlarini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan davlat muassasalarini, ushbu muassasalarning xodimlari hamda ularning oila a‘zolarini himoya qilishni ta‘minlaydi;

xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasida chet el davlatlarining tegishli organlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

terrorchilikka qarshi kurashuvchi bo‘linmalarning terrorchilarni, terrorchilik guruhlarini aniqlash, zararsizlantirish va yo‘q qilish hamda terrorchilik tashkilotlarini tugatish ishlari tashkil etilishini ta‘minlaydi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

9¹-modda. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi:

terrorizmga qarshi kurashishda, huquq tartibotni, shuningdek jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashda ishtirok etadi;

terrorchilik harakatlarining oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etadi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

9²-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, uning oila a‘zolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan davrda qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan chet davlatlar va hukumatlar boshliqlarining, xalqaro tashkilotlar rahbarlarining va boshqa shaxslarning xavfsizligini hamda shaxsiy daxlsizligini ta‘minlaydi;

qo‘riqlanuvchi shaxslarning doimiy va vaqtinchalik tashrif buyuradigan joylari, shuningdek harakatlanish yo‘nalishlari xavfsizligini ta‘minlaydi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yish hamda uning oqibatlarini minimallashtirish yo‘li bilan terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiradi;

alohida muhim, kategoriyalangan va boshqa obyektlarning qo‘riqlanishini va xavfsizligini ta‘minlaydi;

davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli organlariga terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslar, guruhlar va tashkilotlar to‘g‘risida axborot taqdim etadi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

12-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog‘lar, qurollar va o‘q-dorilar, yadroviy, biologik, kimyoviy yoki boshqa turdagi yalpi qirg‘in qurollari, terrorchilik harakatlarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan materiallar va asbob-uskunalarni noqonuniy olib o‘tishga urinishlarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo‘yish choralari ko‘radi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

13-modda. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘i xavfsizligini, mamlakat ma‘muriy, sanoat-iqtisodiy markazlari va hududlari, muhim harbiy va boshqa obyektlarning havodan beriladigan zarbadan himoya qilinishi va qo‘riqlanishini ta‘minlaydi;

o‘z tasarrufidagi harbiy obyektlarning qo‘riqlanishi va mudofaa qilinishini amalga oshiradi;

terrorchilikka qarshi operatsiyalarda ishtirok etadi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

14-modda. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, terrorchilar harakat qilayotgan zonada joylashgan alohida muhim, kategoriyalangan va boshqa obyektlar barqaror ishlashini, shuningdek terrorchilik harakatlari oqibatlarini tugatish yuzasidan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tadbirlar o‘tkazadi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

14¹-modda. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti:

terrorizmni moliyalashtirish holatlarini aniqlash va bartaraf etish maqsadida pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarning monitoringini amalga oshiradi; qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror qabul qiladi; qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

III. TERRORCHILIKKA QARSHI OPERATSIYANING O‘TKAZILISHI

15-modda. Terrorchilik harakatiga chek qo‘yish

Terrorchilik harakatiga chek qo‘yish uchun qonunchilikka muvofiq zarur choralar qo‘llaniladi, shu jumladan terrorchilikka qarshi operatsiyalar o‘tkaziladi.

16-modda. Terrorchilikka qarshi operatsiyaga rahbarlik qilish va uni boshqarish

Terrorchilikka qarshi operatsiyaga rahbarlik qilish va uni boshqarish har bir muayyan holatda terrorchilik harakati tahdidi va xavfining ko‘lamlarini inobatga olgan holda belgilanadi hamda mudofaa va xavfsizlikni ta‘minlovchi tegishli tuzilmalar zimmasiga yuklanadi.

Terrorizm tahdidini zararsizlantirish va tugatish uchun jalb etiladigan tuzilmalar va bo‘linmalarning sa‘y-harakatlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha zaruratga qarab shtablar tuziladi.

17-modda. Terrorchilar bilan muzokaralar olib borish

Terrorchilik harakatining xususiyatiga qarab jismoniy shaxslar hayoti va sog‘lig‘ini, moddiy boyliklarni saqlash, garovda ushlab turilgan shaxslarni ozod etish, shuningdek kuch ishlatmasdan terrorchilik harakatiga chek qo‘yish imkoniyatini o‘rganish maqsadida terrorchilar bilan muzokaralar o‘tkazilishi mumkin.

Terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazish rahbari tomonidan maxsus vakolat berilgan shaxslar terrorchilar bilan muzokaralar olib borishiga ruxsat etiladi.

Terrorchilar bilan muzokaralar olib borilishi ularni sodir etgan jinoiy qilmishlari uchun javobgarlikdan ozod etishning asosi yoki sharti bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas.

Agar terrorchilar bilan muzokaralar o‘tkazish natijasida ular terrorchilik harakatini to‘xtatishga rozi emasligi sababli muzokaralardan ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin bo‘lmasa hamda jismoniy shaxslar hayoti va sog‘lig‘iga aniq tahdid saqlanib turgan bo‘lsa, terrorchilarni zararsizlantirish va yo‘q qilish yuzasidan zarur choralar ko‘riladi.

18-modda. Terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkaziladigan zonaning chegaralari

Terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkaziladigan zonaning chegaralari terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazish rahbarlari tomonidan joyning xususiyati va sharoitlarini, shuningdek terrorchilik harakatining ko‘lamlari hamda ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olgan holda belgilanadi.

19-modda. Terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazayotgan shaxslarning operatsiya o‘tkaziladigan zonadagi huquqlari

Terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkaziladigan zonada mazkur operatsiyani o‘tkazayotgan shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

zarurat bo‘lganda transport vositalari va yo‘lovchilarning ko‘cha va yo‘llarda harakatlanishini vaqtinchalik cheklash yoki taqiqlash, transport vositalarini, shu jumladan diplomatiya vakolatxonalarining, konsullik muassasalarining va fuqarolarning transport vositalarini joyning ayrim uchastkalariga va obyektlarga kiritmaslik, fuqarolarni joyning ayrim uchastkalaridan

va obyektlardan chiqarib yuborish, shuningdek maxsus ruxsatnomasi bo'lmagan transport vositalarini shatakka olib chiqarib tashlash choralarini ko'rish;

jismoniy shaxslarning shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish, bunday hujjatlar bo'lmagan taqdirda esa ularning shaxsini aniqlash uchun ushlab turish;

huquqbuzarliklar sodir etgan yoki terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazuvchi shaxslarning qonuniy talablariga to'sqinlik qilishga qaratilgan, shuningdek terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan zonaga ruxsatsiz kirish yoki kirishga urinish bilan bog'liq harakatlar sodir etgan shaxslarni ushlab va tegishli organlarga olib borish;

agar kechiktirish jismoniy shaxslar hayoti va sog'lig'ini, jamiyat va davlat xavfsizligini tahdid ostiga qo'yishi mumkin bo'lsa, terrorchilik harakatiga chek qo'yish, uni sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni ta'qib etish uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hududiga hamda xonalariga, turar joy va boshqa joylarga, yer uchastkalariga, transport vositalariga sutkaning istalgan vaqtida moneliksiz kirish (oshib tushish);

terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilayotgan zonaga kirayotgan (transport bilan kirishda) hamda mazkur zonadan chiqayotgan (transport bilan chiqishda) jismoniy shaxslarni shaxsan ko'rikdan o'tkazish, ulardagi ashyolarni, transport vositalarini hamda bu vositalarda olib o'tilayotgan yuklarni, shu jumladan nazorat qilishning texnik va boshqa vositalaridan foydalangan holda ko'rikdan o'tkazish;

jismoniy yoki yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan aloqa vositalaridan, shu jumladan maxsus aloqa vositalaridan, shuningdek transport vositalaridan (chet el davlatlari diplomatiya vakolatxonalarini hamda boshqa muassasalarining, xalqaro tashkilotlarning aloqa va transport vositalaridan tashqari) terrorchilik harakatining oldini olish, terrorchilik harakatini sodir etgan yoki sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ta'qib qilish va ushlab, hodisa ro'y bergan joyga yetib borish, tez tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan shaxslarni davolash muassasalariga olib borish uchun xizmat maqsadlarida foydalanish;

terrorchilarga nisbatan qurol va jangovar texnikaning mavjud turlarini hamda maxsus vositalarini qo'llash.

20-modda. Ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik

Terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilayotgan zonada ommaviy axborot vositalari vakillarining faoliyati joylardagi terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazish rahbarlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Quyidagi axborotlar tarqatilishiga yo'l qo'yilmaydi:

terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazishning maxsus texnikaviy usullarini hamda taktikasini ochib beradigan;

terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilishini qiyinlashtirib qo'yadigan, jismoniy shaxslar hayoti va sog'lig'iga xavfni keltirib chiqaradigan;

terrorchilikni targ'ib qilishga yoki oqlashga ko'maklashadigan;

terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilayotganda bo'linmalarning xodimlari to'g'risidagi, shuningdek uni o'tkazishga ko'maklashayotgan shaxslar to'g'risidagi.

21-modda. Terrorchilikka qarshi operatsiyaning tugatilishi

Terrorchilik harakatiga chek qo'yilgan (tugatilgan) hamda terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan zonadagi jismoniy shaxslar hayoti va sog'lig'iga bo'lgan xavf bartaraf etilgan taqdirda terrorchilikka qarshi operatsiya tugallangan hisoblanadi.

IV. TERRORCHILIK HAKRATI OQIBATIDA YETKAZILGAN ZARARNI QOPLASH VA JABRLANGAN SHAXSLARNING IJTIMOY REABILITATSIYASI

22-modda. Terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash

Terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23-modda. Terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazish natijasida yetkazilgan zararni qoplash

Terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazish natijasida shaxsga yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zarar qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan qoplanadi.

Shaxsga uning terrorchilik harakatidagi ishtirokiga chek qo'yilishi munosabati bilan yetkazilgan zarar qoplanmaydi.

24-modda. Terrorchilik harakati oqibatida jabrlangan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi

Terrorchilik harakati oqibatida jabrlangan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi ularni normal hayotiy faoliyatga qaytarish maqsadida o'tkaziladi hamda mazkur shaxslarga huquqiy yordam berishdan, ularning ruhiy, tibbiy, kasbiy rehabilitatsiyasidan, ularni ishga joylashtirishdan, zarur hollarda ularga obod turar joy va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa yordam berishdan iborat bo'ladi.

Terrorchilik harakati oqibatida jabrlangan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

V. TERRORIZMGA QARSHI KURASHDA ISHTIROK ETAYOTGAN SHAXSLARNING HUQUQIY VA IJTIMOY HIMOYASI

25-modda. Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan, huquqiy va ijtimoiy himoyalaniishi zarur bo'lgan shaxslar

Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan shaxslar davlat himoyasidadir.

Quyidagilar huquqiy va ijtimoiy himoyalaniishi lozim:

terrorizmga qarshi kurashda bevosita ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilar, davlat organlarining xodimlari va mutaxassislari;

terrorchilik faoliyatining oldini olishda, uni aniqlashda, unga chek qo'yishda, uni tergov qilishda hamda uning oqibatlarini minimallashtirishda terrorizmga qarshi kurashni amalga oshirayotgan davlat organlariga doimiy yoki vaqtincha ko'maklashayotgan shaxslar;

ushbu qismning ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko'rsatib o'tilgan shaxslarning oila a'zolari, agar ularning himoyalaniishini ta'minlash zarurati mazkur shaxslarning terrorizmga qarshi kurashdagi ishtirokiga bog'liq bo'lsa.

Terrorizmga qarshi kurashda bevosita ishtirok etayotgan, terrorizmga qarshi kurashga ko'maklashayotgan shaxslarga, shuningdek ularning oila a'zolariga, basharti ularning hayoti va sog'lig'iga tahdid yuzaga kelgan taqdirda, iltimoslariga ko'ra ularning tashqi qiyofasi, familiyasi, ismi va otasining ismi, shuningdek ish va yashash joylari terrorizmga qarshi kurash organlari ta'minotiga ajratiladigan mablag'lar hisobidan o'zgartirilishi mumkin.

26-modda. Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etgan shaxslar hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash

Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etgan shaxs terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazishda halok bo'lgan taqdirda halok bo'lgan shaxsning oila a'zolariga hamda uning qaramog'idagi shaxslarga qonunchilikka muvofiq bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanadi.

Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etgan shaxs terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazishda mayib bo'lgan va bu uning mehnat layoqatini yo'qotishiga hamda nogironlikka olib

kelgan taqdirda unga bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘lanadi hamda qonunchilikka muvofiq nogironlik pensiyasi tayinlanadi.

Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etgan shaxs terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazishda yarador bo‘lgan taqdirda bu uning mehnat layoqatini yo‘qotishiga olib kelmasa, unga qonunchilikka muvofiq bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘lanadi.

27-modda. Ko‘p yil ishlaganlikni imtiyozli hisoblash

Terrorizmga qarshi kurashni bevosita amalga oshirayotgan bo‘linmalarda xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga hamda davlat organlarining xodimlariga pensiya tayinlashda xizmatning bir kuni ikki kunga, terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazishda ishtirok etgan davrda xizmatning bir kuni uch kunga hisoblanadi.

Terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazishda ishtirok etishga jalb qilingan mutaxassislar va boshqa shaxslarga pensiya tayinlashda mazkur operatsiyada ishtirok etishning har bir kuni uch kunga hisoblanadi.

Ko‘p yil ishlaganlikni imtiyozli hisoblash tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

VI. TERRORCHILIK FAOLIYATIDA ISHTIROK ETGANLIK HAMDA TERRORIZMGA QARSHI KURASH TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

28-modda. Terrorchilik faoliyatida ishtirok etganlik uchun javobgarlik

Terrorchilik faoliyatida ishtirok etayotgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladi.

Shaxs terrorchilik faoliyatida ishtirok etishdan o‘z ixtiyori bilan qaytgan, bu haqda tegishli davlat organlariga xabar bergan hamda og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining va terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko‘maklashgan taqdirda, qonunchilikka muvofiq javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

29-modda. Terrorchilik faoliyati uchun tashkilotning javobgarligi

Tashkilot sudning qarori asosida terrorchilik tashkiloti deb topiladi va tugatiladi.

Terrorchilik tashkiloti deb topilgan tashkilot tugatilganda unga tegishli mol-mulk musodara etiladi hamda davlat mulkiga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ro‘yxatga olingan xalqaro tashkilot (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasi) O‘zbekiston Respublikasining sudi tomonidan terrorchilik tashkiloti deb topilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi hududida mazkur tashkilot (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasi) faoliyati taqiqlanadi va bu tashkilot (uning bo‘linmasi, filiali, vakolatxonasi) tugatiladi, unga (uning bo‘linmasiga, filialiga, vakolatxonasiga) tegishli, O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan mol-mulk musodara etiladi va davlat mulkiga o‘tkaziladi.

30-modda. Etkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod etish

Terrorchilikka qarshi operatsiyada ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilar, mutaxassislar va boshqa shaxslar bunday operatsiya o‘tkazilayotganda majburan zarar yetkazganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

31-modda. Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Nazorat savollari:

1. Terrorizm nima?
2. Terrorchi – kim ?

3. Terrorizm tushunchasi, mohiyati, uning salbiy illatlari haqida tushuncha bering?
4. Terrorizimni va uning aholi uchun xavfli hususiyatlari nimada?
5. Xalqaro terrorizm va uning salbiy illatlari?
6. Terrorizm nima?
7. Terrorizmning qanday turlari mavjud?
8. Terrjrizmdan aholini muhofaza qilish ?
9. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi" qonunning asosiy printsiplari nima?

9-Mavzu: YONISH, YONG'IN VA PORTLASH HAQIDA UMUMIY MALUMOTLAR

Reja;

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Yong'in, yonish va portlash haqida malumot.
3. Yong'inning kelib chiqish sabablari.
4. Ishlab chiqarishni portlash va yong'in xavfiligi bo'yicha kategoriyalari. Yong'in xavfli zonalar.

Umumiy ma'lumotlar

Yong'inlar xalq xo'jaligiga katta moddiy zarar keltiradilar. Yong'in bir necha minut yoki soat ichida juda katta miqdordagi xalq boyliklarini yondirib, kulga aylantiradi. Yong'in vaqtida ajralib chiqadigan tutun, karbonat angidrid va boshqa zararli hid va gazlar ko'p miqdorda atmosferaga ko'tarilib, nafas olish uchun zarur bo'lgan havoning tarkibini buzadi. Bundan tashqari, yong'indan tufayli ko'plab kishilar jarohatlanadi va hatto o'lishlari ham mumkin. Bularning hammasi, yong'inga qarshi kurash tadbirlarini, bu vaqtda paydo bo'ladigan ishlarni xavfsiz bajarish usullari va mehnat muhofazasi bilan birgalikda o'rganishga majbur qiladi.

Hozirgi paytda sanoat korxonalarida yonish xavfining kamayishi borasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan, yong'in chiqish xavfi kamaytirilgan va butunlay xavfsiz ishlaydigan elektr uskunalari qo'llanilmoqda. Sanoat korxonalarida bino va inshootlari tarkibidan yonuvchi qurilish materiallarini siqib chiqarilmokda. O't o'chirishning mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan sistemalari tobora kengroq qo'llanilmoqda.

Lekin, yong'in chiqishining oldini olishda, o't o'chirishda asosiy mas'uliyat kishilar zimmasiga tushishini va ularning yong'inni o'chirish texnikasining barcha talablarini to'liq bajarilishiga bog'liq ekanligini unutmasligimiz kerak. Sanoat korxonalarida bu tadbirlar tartibli ravishda, yong'in texnikasi haqidagi nizom, yong'in xavfsizligi qoidalari, yo'riqnoma va boshqa xujjatlar asosida olib borilishi kerak.

Respublikamizning xar bir fuqarosi jamoat va davlat mulkini ko'z qorachig'iday saqlashi va asrab avaylashi, uni boyitishi haqida qayg'urishi kerak. SHuning uchun sanoat korxonalarida yong'inning oldini olish va o't o'chirish tadbirlari keng jamoatchilikka suyangan holda, tsexlardagi har bu ishchining ishtirokida olib boriladi.

Yong'in muhofazasini tashkil qilish kasbiy va ixtiyoriy turlarga bo'linadi. Kasbiy yong'in muhofazasi o'z navbatida, harbiylashtirilgan (yirik shahar va muhim obektlarga xizmat ko'rsatadi), harbiylashtirilmagan (tuman markazlari va yirik sanoat obektlariga xizmat ko'rsatadi) va tarmoq (ayrim birlashma va korxonalariga xizmat ko'rsatadi) turlariga bo'linadi. Yirik sanoat korxonalarida kasbiy yong'in qismlari tashkil qilinadi. SNiP 11-8980 "Sanoat korxonalarining bosh rejalari" ga asosan ishlab chiqarishning yong'in xavfi bo'yicha A, B va V toifalari uchun kasbiy yong'in qismlarining xizmat ko'rsatish radiusi 2 km dan oshmasligi kerak. Bu qismlar odatda korxonalar hududidan tashqariga joylashtiriladi. Yong'in xavfi kam bo'lgan hamda kichikroq korxonalar va

muassasalarda yong'in muhofazasi va obektni qo'riqlash xizmati birgalikda qo'shib olib boriladi.

Sanoat korxonalarida yong'in muhofazasini tashkil qilish va yong'in chiqishini ogohlantirish: o't o'chirish texnikasi va qurollarini aloqa va o'chirish vositalarini jangovar holatda saqlash, yong'in chiqqan taqdirda ularda faol qatnashish, xalq mulkini asrab-avaylab saqlash borasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi. Korxonalarda yong'in muhofazasining qanday strukturasi mavjud bo'lishidan qat'iy nazar, ko'ngilli o't o'chirish drujinalari tuzilishi kerak.

Yong'in va portlashlar hamon xalq xo'jaligiga katta ziyon etkazmoqda, kishilarning mayib bo'lishiga hatto halok bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli yong'in xavfsizligi tadbirlari ikki asosiy vazifani hal qilishga - kishilar hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishga hamda moddiy boyliklarni o'tdan himoyalashga qaratilmog'i zarur.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilinishini Davyong'innazorat kuzatib turadi, tsexlar, laboratoriyalar, bo'limlar, omborxonalar, ustaxonalar va boshqa bo'limlardagi yong'in xavfsizligi uchun javobgarlik esa ularning rahbarlari yoki shu rahbarlar vazifasini bajarib turgan kishilar zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasida shaharlarimizning, qishloqlardagi aholi zich yashaydigan joylar va xalq xo'jaligi obektlarining yong'in muhofazasini mustahkamlash uchun yong'inga qarshi kurash reja asosida olib boriladi va shu to'g'risida doim g'amxo'rlik qilib kelinadi. Ana shu yong'in muhofazasi ishining ikki asosiy yo'nalishi bor: Birinchidan, bu - yong'inning oldini olishga qaratilgan ilmiy-texnik va tashkiliy tadbirlarning rejali majmui; Ikkinchidan, bu - obektlar, shaharlarda va qishloqlardagi aholi zich yashaydigan joylarda yong'inni o'chirishni tashkil qilish.

O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi yong'in muhofazasi Bosh boshqarmasining vazifasi davlat mulkini, fuqarolarning shaxsiy mulkini yong'indan saqlashdan iborat. SHu bilan birga yong'in nazorati tashkilotlari tashkiliy, nazorat va ma'muriy ishlarni amalga oshiradi. Ularning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- hamma idoralar, korxonalar va alohida shaxslar uchun majburiy bo'lgan yong'in muhofazasiga doir qoidalar, me'yorlar, yo'riqnomalar ishlab chiqish va ularni chop etish;

- sanoat, fuqaro binolari va inshootlarini, aholi punktlarini loyihalash, qurishda yong'in xavfsizligi qoidalar va me'yorlarining bajarilishini tekshirish;

- hamma tashkilotlar, muassasalar, korxonalaridagi o't o'chirish bo'linmalarining shayligini va o't o'chirish vositalarining sozligini qattiq nazorat qilish hamda tekshirish.

O'zbekiston Respublikasi yong'in nazorati tashkilotlari o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun ularga quyidagi huquqlar berilgan:

- yong'in xavfsizligi jihatidan qay ahvoldaligini aniqlash maqsadida barcha sanoat binolari hamda inshootlari, omborxonalar va ularni tekshirish;

- korxonalar ma'muriyati va alohida shaxslardan obektlarning yong'in xavfsizligi nuqtayi nazaridan qay ahvoldaligini aniqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumot hamda hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;

- yong'in xavfsizligi qoidalarini buzilganligi aniqlaganda korxonalar rahbarlariga ana shu buzilishlarni bartaraf etish yuzasidan majburiy farmoyishlar berish va buning uchun zarur muddatlarni belgilash;

- yong'in va portlash xavfini yuzaga keltiruvchi qoida buzilishlari aniqlaganda ana shu buzilishlar bartaraf etilgunga qadar korxonaning ishini butunlay yoki qisman to'xtatib qo'yish;

- yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi yoki bajarilmasligida aybdor bo'lgan kishilarni ma'muriy yohud jinoiy javobgarlikka tortish.

Ishchi-xizmatchilar o'z ish o'rnidagi yoki ular o'zi ishlaydigan bo'linmadagi yong'in xavfsizligi talablarini yaxshi bilishlari va ularga qat'iy amal qilishlari, o't o'chirish vositalaridan foydalana

olishlari, mehnat hamda texnologiya intizomiga qat'iy rioya qilishlari, yong'in hamda portlash jihatidan xavfli modda va ashyolarni ishlatishni bilishlari zarur.

Korxonalar, muassasa va tashkilotlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash ishini tashkil qilish. Ishchilar, xizmatchilar va muhandis-texnik xodimlarning ko'pchiligi jalb etilgandagina korxonalar, muassasa, hamda tashkilotlarda yong'inga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish mumkin. Buning uchun har bir obektda yong'in- texnik komissiyasi tuziladi. Komissiyaga bosh muhandis, texnik rahbar yoki rahbarning birinchi o'rinbosari boshchilik qiladi, ularning vazifasi quyidagilardan iborat:

- yong'inning oldini olish qoidalarining buzilishlarini va yong'in chiqishiga olib keluvchi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqish;

- obektiv yong'inning oldini olish tartibini ishlab chiqish va ularni o'tkazishda qatnashish;

- ishchi-xizmatchilar va muhandis-texnik xodimlar o'rtasida yong'inning oldini olish tartibi hamda qoidalari bo'yicha ommaviy tushuntirish ishini olib borish.

Bu vazifalarni bajarish uchun yong'in texnik-komissiyasi ishlab chiqarish xonalari, elektr jihozlari, shamollatish, isitish sistemalari va shu kabilarni ko'zdan kechirib, qoida buzilishlarini aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish muddatlarini belgilaydi; ishlovchilar o'rtasida yong'inning oldini olish mavzularida suhbatlar, lektsiyalar o'tkazadi; ratsionalizatorlar hamda ixtirochilar uchun mavzular ishlab chiqishda qatnashadi; tsexlar, bo'limlar, omborxonalar, laboratoriyalar va hokazolarning yong'inga qarshi ahvolini tekshirishga keng jamoatchilikni jalb etadi.

Sanoat korxonalaridagi yong'in muhofazasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- har kuni yong'inning oldini olishni amalga oshirishi;

- yong'in chiqishiga yo'l qo'ymaydigan tadbirlarni ishlab chiqish;

- ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlarga yong'inga qarshi kurash yuzasidan yo'l-yo'riqlar berish va ular bilan mashg'ulotlar o'tkazish;

- hamma o't o'chirish sistemalari va qurilmalari hamda yong'in, aloqa va signalizatsiya vositalarining ahvolini nazorat qilish;

- qo'riqlanayotgan obektdagi yonayotgan narsalar va yong'inni o'chirish.

Yonishning fizik-kimyoviy asoslari

Yonish deb, yonuvchi modda bilan havodagi kislorodning o'zaro ta'siri natijasida juda tez kechuvchi va ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiquvchi kimyoviy reaksiyaga aytiladi. Ko'p hollarda yonish yonuvchi modda zarrachalarining nurlanishi bilan birga kechadi. Yonish hosil bo'lishi va u davom etishi uchun yonuvchi modda (qattiq, suyuq yoki gazsimon), oksidlovchi modda (oddiy sharoitda oksidlovchi modda vazifasini havoda kislorod o'tashi mumkin) va yondiruvchi manba (uchqun, ochiq alanga va cho'g'langan narsa) mavjud bo'lishi kerak. Shuni aytish kerakki, havodagi kislorod miqdori 15% dan yuqori bo'lgandagina oksidlovchi vazifasini bajara oladi. Undan past konsentratsiyada esa yonish mavjud bo'la olmaydi. Bundan tashqari oksidlovchi modda vazifasini tegishli sharoitlarda xlor, brom, kaliy va boshqa moddalar ham o'tashi mumkin.

Xavfliligi bo'yicha barcha modda va ashyolarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: yonmaydigan moddalar, yonish xavfi mavjud moddalar. yonish va portlash xavfi mavjud hamda portlash xavfi mavjud moddalar.

Yonmaydigan modda va ashyolar - yonish yoki yong'inni uzatish xususiyatlari yo'q narsalardir. Masalan, g'isht, metall, beton va boshqalar.

Yonish xavfi mavjud modda va ashyolar havoda yonish va yong'inni uzata olish xususiyatiga egadirlar. Masalan, yog'och, qog'oz, paxta tolasi, mazut, portlash xossasiga ega bo'lmagan changlar.

Yonish va portlash xavfi mavjud modda va ashyolar, qattiq yoki suyuq yonuvchi moddalar bilan birikkanda bir zumda alanganlanib ketish xossasiga ega. Bunday moddalarga vodorod

angidridi, azot kislotasi va boshqalar, hamda yonuvchi moddalar bilan aralashganda o'zidan kislorod ajratib chiqaruvchi, kislotaga ta'sirida, qizdirilganda yoki mexanik ta'sir ostida portlovchi birikmalar kiradi. Masalan, paxta changi bilan selitra aralashganda shu hol ro'y berishi mumkin. Shu bilan birga bunday narsalarga havoda tarqalgan holda portlovchi aralashmalar hosil qiluvchi changlar ham mansubdir. Masalan, lub va kenaf tolalari changlari. Yonish va portlash xavfi mavjud moddalarga o'zlari yonmaydigan, lekin suv bilan aralashganda parchalanib, gaz ajralib chiqaruvchi va bi gaz havo bilan birikkanda portlovchi birikma hosil qiluvchi moddalar ham kiradi (kaltsiy karbid).

Portlovchi narsa va moddalar havo bilan aralashib, portlovchi birikmalar (yonuvchi gaz, vodorod, atsetilen) hosil qiladilar. Portlash xavfi mavjud moddalarga yonuvchi gazlar bilan aralashganda portlash xavfini vujudga keltiradigan yonmaydigan gazlar ham kiradi (kislorod yonuvchi gaz bilan aralashganda portlashga olib keladi). Ayrim holda yonmaydigan va yonishni ta'minlay olmaydigan portlovchi gazlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, balonlarda siqilgan holda saqlanuvchi karbonat angidrid gazi. Portlovchi moddalarga, shuningdek havo bilan aralashgan holdagi neorganik moddalar ham (alyuminiy, magniy va boshqa moddalar kukunlari) kiradi.

Yonish fazalari va portlash chegaralari

Yonish faqat ma'lum harorat sharoitidagina mavjud bo'lishi mumkin. Barcha yonuvchi moddalarning tarkibida uglerod va vodorod mavjuddir. Issiqlik ta'siri ostida yonuvchi moddalar parchalanib yuqoridagi gazlar ajralib chiqib, havodagi kislorod bilan birikib, alanga hosil qiladi.

Yonish fazalarining quyidagi xillari aniqlangan:

1. **Chaqnash.** Agar sekin-asta qizdirilayotgan yonuvchi suyuqlikka vaqti- vaqti bilan tashqaridan alanga ta' sir qildirsak, ma'lum bir haroratga etganda, undan ajralib chiqayotgan gazzimon mahsulot chaqnaydi va shu zahotiy oq o'chib qoladi. Suyuqlikning ana shu paytdagi harorati chaqnash harorati deyiladi. Chaqnagan gazlarning tez o'chib qolishining sababi, bu haroratda suyuqlikdan ajralib chiqayotgan gazlar alangani davom ettirish uchun etarli emasligidir.

Chaqnash harorati moddalarning yong'in jihatidan xavfliligini aniqlashda katta ahamiyatga molikdir. Ayrim moddalardan ajralib chiquvchi bug' va gazlar ko'p miqdorda yig'ilishi natijasida ochiq alanga bilan birikib kuchli portlash paydo qilishi mumkin.

2. **Alanganlanish.** Suyuq, yonuvchi moddalarni qizdirish chaqnash haroratidan yuqorida ham davom ettirilsa, uning bug'lanishi jadallashadi va shunday bir vaqt keladiki, unga alanga yaqinlashtirilsa chiqayotgan bug'lar chaqnaydi va yonishda davom etadi. Suyuqlikning shu holatdagi harorati alanganlanish harorati deb ataladi.

3. **O'z-o'zidan alanganlanish.** Agar yonuvchi suyuqlikni alanganlanish haroratidan yuqori bo'lgan holatda ham qizdirish davom ettirilsa-yu, lekin ochiq alanga yaqinlashtirilmasa, ma'lum bir vaqtda, ajralib chiqayotgan bug'lar o'zidan- o'zi alanganlanib ketadi. Yonuvchi suyuqlikning ana shu holatdagi harorati o'z- o'zidan alanganlanish harorati deyiladi.

4. **O'z-o'zidan yonib ketish.** Ayrim yonuvchi qattiq moddalarni saqlash noto'g'ri tashkil etilgan hollarda o'z-o'zidan yonib ketishi mumkin. Masalan, nam holda g'aramlangan pohl, paxta, toshko'mir, moy artilgan latta va boshqalar. Bu jarayon o'z-o'zidan yonish harorati ma'lum haroratdagina bo'lishi mumkin.

Qattiq moddalar yonayotganda, yonayotgan qismlariga yondosh qismlarning qizishi va ulardan o'z navbatida yonuvchi gazlar ajralib chiqishi va ularning ham yona boshlashi natijasida uzluksiz zanjir reaksiyasi kechadi. Bu biror bir to'suvchi omilga uchramasa yonuvchi modda yonib tamom bo'lguncha davom etadi.

Yonuvchi suyuq moddalarning yonishi faqat yuzalari ochiq bo'lgan holatdagina, ya'ni havo bilan tutash bo'lgan yuzalardagina yuz berishi mumkin. Bunda suyuqlik yuzasidagi alanga pastki

qatlamlarni qizdiradi va yonuvchi bug'larning yangi-yangilarini chiqaradi va ular ham yona boshlaydi. Shunday qilib bu erda ham zanjir reaksiyasi kechadi.

Yonuvchi suyuq moddalarning chaqnash harorati 450°S ga teng yoki undan kichik bo'lsa, bunday moddalar engil yonuvchi suyuqliklar deyiladi. Bularga benzin, serouglerod, spirtlar va boshqalar misol bo'la oladi. Chaqnash harorati 450°S dan yuqori bo'lganlari esa yonuvchi suyuqliklar deyiladi. Qurilish me'yorlr keltirilishi bo'yicha yong'indan muhofaza qilish ilmiy tekshirish institutining tavsitiyasiga binoan engil yonuvchi suyuqliklarga chaqnash harorati 610°C ga teng va undan past bo'lganlari, yonuvchi suyuqliklarga esa 610°C dan yuqorilarini kiritish belgilangan.

Gazlarda esa, gazning har bir molekulasi kislorodning molekulari bilan bevosita kontaktda bo'lishi munimligi va ular bir vaqtning o'zida oksidlanish jarayoniga tayyor bo'lganligi uchun, yonish jarayoni katta tezlikda kechadi. Yonuvchi modda bo'ylab alanganing tarqalish tezligi sekundiga bir necha metrni tashkil etsa yonish, bir necha yuz metrni tashkil etsa portlash, bir necha kilometrni tashkil etsa detonatsiya deb ataladi.

Gaz va bug'larning havo bilan aralashmasining yonish va portlash xavfi, alanganing tarqalish haroratidan tashqari ularning havodagi konsentratsiya chegarasi (bug'lar uchun) bilan xarakterlanadi. Portlashning konsentratsiya chegarasi deb yopiq tigel ichida yonuvchi gaz va bug'larning havodagi miqdori tashqi alanga ta'siri ostida alanganib keta oladigan miqdorga aytiladi.

Havo bilan to'ldirilgan berk idish olib, unga ma'lum miqdorda yonuvchi gaz yoki bug' qo'shib boramiz va har gal uni yoqib qo'ramiz. Bu gazning miqdori (foizlarda yoki og'irlik konsentratsiyasida) kam bo'lganda alanganmaydi, ya'ni idish ichidagi bosim atmosfera bosimiga tengligicha qolaveradi.

Yonuvchi moddaning konsentratsiyasi oshirib borilishi natijasida shunday holat yuzaga keladiki, bunda aralashma kuchsiz portlaydi. Yopiq idish ichida yonuvchi gaz yoki bug'ning havo bilan aralashmasining yondirilganda portlash paydo qiladigan minimal qiymati portlashning pastki chegarasi deb alaladi. Idish ichiga berilayotgan gaz yoki bug'ning konsentratsiyasi yana oshira borilsa, portlash kuchi orta beradi va biror maksimal qiymatga erishadi. Konsentratsiyaning yanada oshib borishi endi portlash kuchini oshirmay, balki pasaytiradi va sekin asta so'na boshlaydi va ma'lum konsentratsiyada esa butunlay to'xtaydi. Yopiq idish ichida yonuvchi gaz yoki bug'ning havo bilan aralashmasining, yondirilganda portlaydigan maksimal qiymati portlashning yuqori chegarasi deb ataladi. Portlashning pastki va yuqori chegaralari orasidagi farq qancha katta bo'lsa, moddaning portlash xavfi shuncha yuqori bo'ladi.

Xar bir yonuvchi moddaning bug'lari va gazlari, hamda changlari o'zlarining pastki va yuqorigi portlash chegaralari qiymatlariga ega.

Yonuvchi changlar va tolalar, ularning pastki portlash chegarasi 65 g/m^3 dan past bo'lsa, portlash xavfi mavjud hisoblanadi. Agar ularning pastki portlash chegarasi 65 g/m^3 dan yuqori bo'lsa, ular yong'in xavfi bo'lgan changlar hisoblanadi.

Suyuqliklar bug'lari uchun ham portlashning harorat chegaralari pastki va yuqorigi qiymatlarga egadir. Portlashning pastki harorat chegarasi deb, yopiq idish ichidagi suyuqlikning to'yingan bug'larining tashqi manba ta'sirida alanga olishi mumkin bo'lgan eng pastki harorati tushuniladi.

Portlashning yuqorigi harorat chegarasi deb, yopiq idish ichidagi suyuqlikning to'yingan bug'larining tashqi manba ta'sirida alanga olishi mumkin bo'lgan eng yuqorigi harorati tushuniladi. Yonuvchi suyuqliklarning gaz va bug'larning havo bilan aralashmasini yuqorida ko'rsatilgan chegaralaridan tashqari qiymatlarida hech qandiy manba bilan alangalatib bo'lmaydi. Masalan,

atseton to'yingan bug'lari uchun portlashning pastki harorat chegarasi - 20°C. yuqorigisi 7°C, serouglarod uchun tegishli - 14°C va - 7°C.

Gazlar va changning yonishi. Yonuvchi gazlar havo bilan birikib portlash jihatidan xavfli aralashmalar hosil qilishi mumkin. Shu sababli ular portlash jihatidan xavfli moddalar toifasiga kiradi. Gaz-havo aralashmalarining xavflilik

darajasi ularning alanga olish haroratiga va portlashning miqdoriy chegaralariga qarab baholanadi.

Gazlar barqaror yonayotganda harorati 1400°C gacha, portlaganda esa 2000°C gacha ko'tarilishi mumkin. Yonuvchi gazlarning, shuningdek, suyuqlik bug'larning portlashiga qarshi kurash tadbirlarini to'g'ri tashkil qilish uchun ularning havo bo'yicha zichligini bilish zarur, chunki havo bo'yicha zichligi birdan kichik bo'lgan gazlar xonaning yuqori qismida, zichligi birdan katta bo'lgan gazlar esa xonaning pastki qismida, quduqlar, o'ralar, handaqlarda to'planadi.

Ishlab chiqarishdagi alanga olish manbalari. Yonuvchi ashyolarning alanga olishiga va yonuvchi aralashmalarining portlashiga sabab bo'luvchi issiqlik manbalari o'zlarining issiqlik jamg'armalari va ularning yuzaga kelish sabablariga ko'ra turli tuman bo'lsa-da ammo ularning barchasi qandaydir energiya yoki kimyoviy reaksiyalarda issiqlik chiqishi yoki ortishi yutilishining natijasidir.

Kimyoviy reaksiyalarda issiqlik chiqishi yoki yutilishi. Ochiq alanga, cho'g'langan yonish mahsulotlari, uchqunlar, issiqlik chiqaradigan kimyoviy reaksiyalar alanga olish manbai bo'lishi mumkin.

Turli xil gorelklar, kavsharlash lampalari, elektr yoylari, isitish pechlari, elektr tokida va gaz alangasida payvandlash jarayonlari, chekish uchun yoqilgan gugurt yoki zanjigalka ochiq alanga olish manbai bo'lishi mumkin. Ochiq alanga manbaining va issiqlik energiyasi jamg'armasining harorati deyarli hamma yonuvchi moddalar va har qanday gaz-havo hamda bug'-havo aralashmalarining alanga olishi uchun etarlidir.

Yong'in-maxsus joydan boshqa joyda yonuvchi, moddiy zarar keltiruvchi va nazorat qilib bo'lmaydigan yonish jarayonidir.

Yong'inning odam va hayvonlarga ta'sir qiluvchi xavfli va zararli omillari: ochiq yong'in, atrof-muhit va narsalarning yuqori harorati, toksik moddalarni yonishi, tutun, havo tarkibida kislorod konsentratsiyasining kamayishi, qurilish konstruksiyalarining qo'layotgan qismlari; portlashdagi to'lqin zarbi, otilayotgan qismlar va zararli moddalar hisoblanadi.

Yong'in xavfsizligi sistemasiga talablar

Yong'inni oldini olish sistemasi - yong'in sodir bo'lish sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar va texnik vositalar majmuidir.

Ushbu tadbirlar ishlab chiqarishda iloji boricha yonmaydigan va qiyin yonadigan materiallardan foydalanish texnologik jarayonlarni maksimal darajada mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, yong'in xavfi bo'lgan qurilmalar o'rnatilgan xonalarni yonmaydigan moddiyalar bilan boshqa xonalardan ajratish yoki bunday qurilmalarni mumkin qadar tashqarida o'rnatish, yonuvchi moddalar uchun germetik idishlar va jihozlardan foydalanish, bino havosining tarkibidagi yonuvchi gaz, bug' va changlar miqdorini ruxsat etilgan darajada saqlash, isitish jihozlaridan to'g'ri foydalanish va boshqalar orqali amalga oshiriladi.

Har qanday ishlab chiqarishda yong'inga olib keluvchi manbaning hosil bo'lishini oldini olish esa, ishlab chiqarishda yong'in manbasini hosil qilmaydigan mashinalar, mexanizmlar va jihozlardan foydalanish, mashina va mexanizmlardan foydalanish qoidalari va rejimlariga to'liq rioya etish, elektr statik zaryadlari va yashinga qarshi himoya vositalaridan foydalanish, moddiyalar va moddalarning issiqlik ta'sirida, ximiyaviy va mikrobiologik usulda o'z-o'zidan alanganlanish

sharoitlarini bartaraf etish, belgilangan yong'inga qarshi gadbirlarni to'lik amalga oshirish, bino chegarasini davriy ravishda tozalab turish kabi tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Yong'in va portlashning sabablari.

Yong'in kelib chiqishini asosiy sabablariga quyidagilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: taqiqlangan joylarda chekish, ochiq alangalardan foydalanish, yong'in xavfsizligi bo'yicha texnologik jarayonlarni buzish yoki ularga amal qilmaslik, moddiylarni saqlash qoidalariga rioya qilmaslik, statik elektr zaryadlariga qarshi texnik qurilmalardan foydalanmaslik, atmosferaning kuchli zaryadlaridan himoyalovchi qurilmalardan foydalanmaslik (yashin vaqtida 2 V dan 8 mln V kuchlanish, 200000 A tok kuchi miqdorida elektr zaryadlari hosil bo'lishi mumkin), ichki yonuv dvigatellarini sinash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilmaslik, elektr jihozlari va qurilmalarini noto'g'ri o'rnatish yoki ularni zo'riktirish, isitish sistemalaridan noto'g'ri foydalanish, bug' qozonlari va issiqlik genyeratorlaridagi avtomatik qurilmalarning nosozligi yoki ularning noto'g'ri o'rnatilishi, ishlab chiqarish binolari havosi tarkibidagi gaz, bug' va changlarni me'yorlashtirilmaganligi va hakoza.

Yong'inni oldini olish, moddalarning yonish va portlash bo'yicha tavsifi. Ishlab chiqarishdagi barcha materiallar yonish xususiyati bo'yicha uch turga bo'linadi:

-yonmaydigan moddalar - tashqi yong'in manbasi ta'sirida yonmaydi;

-qiyin yonuvchi moddalar - tashqi yong'in manbasi ta'sirida yonib, manbaning ta'siri to'xtatilgach mustaqil yonmaydi;

-yonuvchi moddalar - tashqi yong'in manbasining ta'siri to'xtatilgandan so'ng ham mustaqil yonish xususiyatiga ega bo'ladi.

Tez yonuvchi va yonuvchi suyuqliklar bug'lanish natijasida portlovchi aralashma muhit hosil qiladi. Bunday tashqari ayrim changlarning havo bilan aralashmasi ham portlashga xavfli hisoblanadi. Ular yonish va portlash xavfliligi bo'yicha portlashga xavfli (aerozol holatida) hamda yonishga xavfli (aerogel) turlarga bo'linadi va quyidagi to'rt sinfga ajratiladi:

I-sinf – portlashga o'ta xavfli changlar, alangalanishining pastki chegarasi-15 g/m³gacha bo'lgan muhit;

II-sinf – alangalanishining eng pastki chegarasi 16 dan 65 g/m³ gacha bo'lgan portlashga xavfli muhit.

III va IV-sinf - alangalanishning pastki chegarasi 65 g/m³ dan yuqori bo'lgan yonishga xavfli muhit. SH-sinfidagi changlarning alangalanish harorati-250 °S, IV-sinfga taalluqli changlarniki esa - 250°S dan yuqori.

Ishlab chiqarishni portlash va yong'in xavfliligi bo'yicha kategoriyalari.

Ishlab chiqarish unda ishlatiladigan yoki saqlanadigan moddiylarning yonish xususiyati bo'yicha 6 ta kategoriyaga ajratiladi va ular - A, B, V, G, D, E ko'rinishlarida shartli belgilanadi.

A-kategoriyadagi ishlab chiqarish, portlash-yonishga xavfli ishlab chiqarish bo'lib, unga bug'larining alangalanish harorati 28°S dan kam bo'lgan va havo tarkibida 10 % gacha portlashga xavfli havo yoki moddiylar bo'lgan hamda suv, kislorod, havo yoki o'zaro ta'sirda alangalanuvchi moddiylar ishlatiladigan ishlab chiqarish kiradi.

B-kategoriya - portlash-yonishga xavfli ishlab chiqarish. Bunga bug'larining alangalanish harorati 28 dan 61°S gacha bo'lgan suyuqliklar. Havo tarkibida 10 % gacha portlashga xavfli siqilgan gaz, changlar bo'lgan, shuningdek 5 % gacha pastki portlash miqdori $N_{pv}>65$ g/m³ bo'lgan changlar mavjud ishlab chiqarishlar kiradi.

V-kategoriya – yonishga xavfli ishlab chiqarish, alangalanish harorati 61°S dan yuqori bo'lgan suyuqliklar ishlatiladigan va $N_{pe}>65$ g/m³ miqdordagi yonuvchi chang, gazlar mavjud havo muhiti bo'lgan, shuningdek qattiq yonuvchi moddiylar ishlatiladigan ishlab chiqarishlardir.

G-kategoriya - yong'inga xavfli ishlab chiqarish. Yonmaydigan moddiylarga issiqlik yoki alanga ta'sirida ishlov berish ko'llaniladigan ishlab chiqarish.

D-kategoriya - yong'inga va portlashga xavfsiz ishlab chiqarish. Bunda yonmaydigan moddiylarga sovuq holatda ishlov beriladi (yig'ish, ajratish, yuvish tsexlari).

E-kategoriya – portlashga xavfli ishlab chiqarish. Yonuvchi gaz va bino hajmining 5 % miqdorida portlashga moyil changlar bo'lgan ishlab chiqarish. Bunday muhitda yong'insiz portlash sodir bo'ladi.

Hosilni yigishtirib olishda yong'in xavfsizligi tadbirlarini ta'minlash uchun javobgarlik ish boshqaruvchilariga, hosilni yigishtirish agregatlaridagi o't o'chirish vositalari va yong'inga qarshi qurilmalarning texnik holati uchun javobgarlik esa ishlab chiqarish uchastkalarining rahbarlariga yuklatiladi.

Korxonaning rahbari har yili buyruq bilan (fermer xo'jalik boshqaruvi qarori bilan) o'rim-yig'im texnikalarini yong'inga qarshi tayyorlashda, yong'in-texnik bilimlarni mustahkamlash uchun o'qishni tashkil etish va sinov qabul qilish, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha instruktajlar o'tkazish uchun javobgar shaxsni tayinlaydi.

Hamma xodimlar yong'in - texnik minimumi dasturi bo'yicha o'kitilgan va bu bo'yicha sinov topshirgan bo'lishlari kerak. Yong'in-texnik minimumi sinov natijasi bo'yicha baholash jadvali to'lgaziladi.

Hosilni yigishtirish va oziqalarni tayyorlashga jalb qilingan barcha ishchi, xizmatchilarga yong'in xavfsizligi tadbirlari haqida instruktaj o'tkaziladi. O'qish va instruktajdan o'tmagan shaxslar bu ishlarga ko'yilmaydi.

Agar urilgan donni bir yo'la maxsus saqlanadigan joyga tashib ketish imkoniyati bo'lmasa vaqtinchalik don xirmonlari g'alla maydonidan 100 m, bino va inshootlardan 50 m dan kam bo'lmagan masofada joylashtirilishi zarur. Dala shiyponlari g'alla maydonlaridan, g'aram maydonlaridan 100 m uzoqlikda joylashishi va atrofi 4 m dan kam bo'lmagan kenglikda shudgorlanishi kerak. Davlat yong'in nazorati inspektori fermer xo'jaligi bo'yicha ushbu masaladagi mas'ul bilan hosilni o'rib-yigib olishda ishlatiladigan texnikalarni qarovdan o'tkazadi. Qarov vaqtida texnikaning sozligi va har bir kombaynni ikkita o't o'chirgich bilan, 2x2 m o'lchamdagi kigiz, ikkita shvabra va ikkita belkurak bilan, traktorni o't o'chirgich va belkurak bilan, avtomobillarni o't o'chirgichlar va bel kuraklar bilan ta'minlanganligi tekshiriladi.

Galla maydonida yong'in chiqqanda keng maydon bo'ylab tarqalishini oldini olish maqsadida galla maydoni 50 ga dan ortiq bo'lmagan uchastkalarga bo'linib atroflaridan 8 m kenglikda galla o'rib olinadi va gallasi o'rigan joy 4 m kenglikda shudgorlab chiqiladi. G'alla maydonini temir yo'lga, o'rmonga, yo'llarga, yaqin uchastkalari esa 2 m kenglikda shudgor qilinadi.

O'rim-yig'im agregatlari yaqinida shudgorlovchi agregat bo'lishi zarur. Dalada ish vaqtida ochiq olovdan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Texnikalardan yonilg'i oqishini o'z vaqtida to'xtatish chaqmoq va o'chirgichning sozligini doimiy kuzatish lozim. Har uch kunda dvigatelning chiqarish quvurlari va chaqmoq o'chirgichlari qasmoqdan tozalanadi.

O'rim-yig'im vaqtida agregatda, galla maydonida va somon garamlari yaqinida chekish taqiqlanadi. Chekish joyi garam va kombaynlardan 30 m uzoqlikda jihozlanadi. Bu joy atrofi haydaladi va suvli bochka bilan ta'minlanadi.

Traktorlar va kombaynlar uchun vaqtinchalik to'xtash joyi qurilishdan, xirmondan va g'alla maydonlaridan kamida 100 m uzoqlikda ajratiladi. Kombaynlarni tungi to'xtash joyida ular orasidagi masofa 20 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Somonni g'aramlash joylarida to'rtta o't o'chirgich, ikkita suvli bochka, ikkita satil, to'rtta belkurak, to'rtta shvabra suyanchiqsiz turadigan va narvon bo'lishi kerak. Somon garamlari

qurilishdan 50 m, temir yo'ldan 150 m, o'tish yo'llaridan 20 m va elektr uzatish tarmoqlari sim yog'ochlardan 15 m dan kam bo'lmagan masofada joylashtiriladi. Bitta g'aramning asosini maydoni 150 m² dan, presslangan somon yoki pichan bostirmalariniki esa 500 m² dan oshmasligi kerak. G'aramlar yashindan himoyalagichlar bilan jihozlanadi. O'rimdan so'ng g'alla don xirmoniga, don omborxonalariga tozalash uchun, namligi 16 % dan ortiq bo'lganlari esa don kuritkichlarga keltiriladi. Don omborlariga yong'inga qarshi devor va yong'inga qarshi eshiklar o'rnatiladi.

Donni tozalovchi komplekslarda va don quritkichlarga xizmat ko'rsatishga 18 yoshdan kichik bo'lmagan, engin texnik minimumi dasturi bo'yicha o'qitilgan va maxsus tayyorgarlikni o'tagan va bunday agregatlarda ishlash huquqini beruvchi guvohnomaga ega bo'lgan shaxslarga ruxsat beriladi.

Don ombori va harakatlanuvchi quritish agregati orasidagi masofa 10 m dan kam bo'lmasligi kerak. Donni harorati har ikki soatda nazorat qilinib turiladi.

Yong'in xavfli zonalar.

Yong'in xavfli zonalar - bu binoning yoki ochiq maydonning yonuvchi moddalar saqlanadigan qismidir. Ular 4 sinfga bo'linadi, ya'ni P-I, P-II, P-IIava P- III.

P-I sinfdagi zonaga gaz va bug'larning 61 °C dan yuqori haroratda portlash ehtimoli bor suyuqlik saqlanadigan binolar kiradi.

P-II sinfdagi zonalarga - yonishga moyil chang va gazlar ajralib chiqadigan ishlab chiqarish binolari kiradi;

P-IIa sinfidagi zona esa - qattiq va tolasimon yonuvchi moddiylar ishlatiladigan ishlab chiqarish binolaridir;

P-III zonaga-qattiq yonuvchi moddiylar ishlatiladigan yoki saqlanadigan hamda bug'larining portlash harorati 61°S dan yuqori bo'lgan suyuqlik ishlatiladigan yoki saqlanadigan ishlab chiqarish binolari va maydonlari kiradi.

Bino va inshootlarning yong'inga chidamliligi va uni oshirish yo'llari.

Yong'inga chidamlilik deganda moddiylar va konstruktsiyalarning yong'in sharoitida o'z mustahkamligini saqlash xususiyati tushuniladi. Qurilish konstruktsiyalarining yong'in ta'sirida o'z xususiyatini va mustahkamligini yo'qotish vaqti yong'inga chidamlilik chegarasi deyiladi. Barcha bino va inshootlar yong'inga chidamliligi bo'yicha 5 darajaga bo'linadi: I darajali yong'inga chidamli binolarga barcha konstruktsiyalari yonmaydigan, yuqori yong'inga chidamlilik chegarasiga (0,5-2,5 soat) ega bo'lgan binolar kiradi; II darajali yong'inga chidamli binolarga konstruktiv elementlari yonmaydigan, yuqori chidamlilik chegarasiga (0,25-2,0 soat) ega binolar kiradi; III darajali yong'inga chidamli bino va inshootlar yonmaydigan va qiyin yonuvchi materiallardan tayyorlanadi; IV darajali yong'inga chidamli binolarga barcha konstruktsiyalari qiyin yonuvchi materiallardan tayyorlangan binolar kiradi; V darajadagi binolarga esa barcha konstruktsiyalari yonuvchi materiallardan tashkil topgan binolar kiradi.

Talab etilgan yong'inga chidamlilik darajasi bino va inshootlarning konstruktsiyasi, vazifasi, necha kavatligi, texnologik jarayonlarni yong'inga xavfliligi va yong'inni avtomatik o'chirish vositalarini mavjudligiga bog'liq holda belgilanadi.

Yog'och va boshqa yonuvchi konstruktsiyalarning yong'inga chidamlilik darajasi bir necha yo'llar orqali oshirilishi mumkin, jumladan: 1 m² yuzadagi yog'och konstruktsiyaga 75 kg quruq tuzning suvdagi aralashmasini singdirish yoki 1 m²yog'ochga 50 kg quruq tuzni issiq-sovuq vannalarda singdirish orqali; yong'indan himoyalovchi tuzlarning suvdagi aralashmasi bilan (100 gr quruq tuz 1 m² yuzaga) moddiylarga yuza ishlov berish; yong'indan himoyalovchi bo'yoqlar, suyuq shisha, tuproqli aralashma va boshqa shu kabilar bilan yuza ishlov berish; tuproqli gips bilan shuvash, gips plitalar o'rnatish, asbest, tsement

moddiylar qoplash. Koridorlar, yo'laklar, zinalar va II hamda IV yong'inga chidamlilik darajasidagi yordamchi binolar sirtiga yong'indan himoyalovchi qoplamalar bilan ishlov berish taqiqlanadi. Yong'indan himoyalovchi qoplamalar atmosferaga chidamli, namlikga chidamli va nam bo'lmagan muhitga chidamli bo'lishi mumkin. Atmosferaga chidamli qoplamalarga pyerxlorvinil bo'yoqlar PXVO, ISX, XL; namlikka chidamli qoplamalarga XD-SJ markali bo'yoqlar; nam emas muhitga chidamli qoplamalarga XL-K tipidagi, SK-L markali silikat bo'yoqlar, supyerfosfat va sho'rtuproqli surkamalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 2022-yil 4-noyabrdagi 194-son buyrug'i

ShNQ 2.01.19-22 “Portlab-yonish va yong'in xavfi bo'lgan xonalar, bino va inshootlar hamda tashqi qurilmalar toifalarini aniqlash” shaharsozlik normalari va qoidalari

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari (bundan buyon matnda ShNQ deb yuritiladi) ishlab chiqarish va omborxonalar uchun mo'ljallangan xonalar, bino va inshootlarning (bundan buyon matnda xonalar, bino va inshootlar deb yuritiladi) ularda saqlanayotgan (qo'llanilayotgan) modda va materiallarning miqdori va portlab-yonish xavfi xususiyatlari hamda ushbu xona, bino va inshootlarda mavjud bo'lgan texnologik jarayonning xususiyatlarini inobatga olgan holda portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha toifalarini, shuningdek ishlab chiqarish va omborxonalar uchun mo'ljallangan tashqi qurilmalarning (bundan buyon matnda tashqi qurilmalar deb yuritiladi) yong'in xavfi bo'yicha toifalarini aniqlash uslubini belgilaydi.

1-bob. Atamalar va ta'riflar

1. Ushbu ShNQda quyidagi atama va ta'riflardan foydalanilgan:

avariya — xavfli ishlab chiqarish obyektida inshootlarni va (yoki) texnik qurilmalarni vayron bo'lishi, nazoratsiz portlash va (yoki) xavfli moddalarni chiqarish;

avariya ssenariysi — odamlarga, xonalar, bino va inshootlarga hamda texnologik uskunalarga xavfli yong'in omillari ta'sir qiluvchi muayyan zonaga ega bo'lgan hodisalar ketma-ketligining modeli;

apparatlar — kimyoviy, fizik yoki fizik-kimyoviy jarayonlarni amalga oshirish, shuningdek ulardagi turli moddalarni saqlash yoki ko'chirish uchun mo'ljallangan texnik qurilmalar;

bug'-havo aralashmasining yonishi — hajmdagi bosimning oshishi bilan cheklangan hajmda hosil bo'lgan yonuvchi bug' havo aralashmasining yonish jarayoni;

yong'inga qarshi bo'lma — binolarning yong'inga qarshi devorlar oralig'idagi qismi;

yong'in xavfsizligi — jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkinging, shuningdek atrof tabiiy muhitning yong'inlardan himoyalanganligi holati;

yong'in yuklamasi — yong'in sodir bo'lganda, xonada joylashgan yonuvchan va qiyin yonuvchan modda va materiallarning xona maydoniga nisbatan chiqishi mumkin bo'lgan issiqlik miqdori;

ijtimoiy xavf — yong'in va portlashning zararli ta'siriga uchragan ma'lum miqdordagi odamlarning (ijtimoiy xavf kamida o'n kishining jarohatlanishi bilan baholanadi) jarohatlanishidan iborat voqealar sodir bo'lish ehtimoli (chastotasi);

individual xavf-xatar — fazoning muayyan nuqtasida avariya paytida sodir bo'lgan yong'in va portlash omillari yuzaga kelishi ehtimoli (chastotasi);

“olovli shar” — bosim ostidagi yonuvchi gaz yoki suyuqlikli rezervuarining shikastlanishida (rezervuar ichidagi mahsulotning alanganishi bilan) yuzaga keladigan keng qamrovli diffuziyali yonish;

portlash xavfi bo'lgan aralashma — havo yoki oksidlovchining yonuvchi gazlari, alanganuvchi suyuqliklarning bug'lari, yonuvchan chang yoki tolalar bilan aralashmasi, ma'lum

bir konsentratsiyada portlash manbai paydo bo'lganda portlashga qodir bo'lgan portlovchi aralashma;

tashqi qurilma — bino va inshootlardan tashqarida joylashgan, yuk ko'taruvchi va xizmat ko'rsatuvchi konstruksiyalar joylashtirilgan apparatlar va texnologik uskunalari majmuasi;

texnologik jarayon — modda va mahsulotlarning xususiyatini va (yoki) holatini o'zgartirishga qaratilgan harakatlar bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonining bir qismi;

o'chirish vaqti (ishlab ketish vaqti) — quvur o'tkazgichdan yonuvchi moddaning xonaga kelgan oqimi boshlanishidan (perforatsiya, uzilish, nominal bosimning o'zgarishi va b.) gaz yoki suyuqlik oqimining to'liq to'xtashigacha bo'lgan vaqt davri;

xavfni baholash — ko'rib chiqilayotgan korxonaga uchun individual va ijtimoiy xavf qiymatlarini hisoblash va uning normativ qiymatlari bilan taqqoslash.

2-bob. Umumiy qoidalar

2. Xonalar, bino va inshootlarni portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha tasniflash yong'in sodir bo'lishining oldini olishga va yong'in sodir bo'lganda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini yong'indan himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan yong'in xavfsizligi talablarini belgilash uchun ishlatiladi.

Yong'in xavfi bo'yicha tashqi qurilmalarni tasniflash yong'in sodir bo'lishining oldini olishga va tashqi qurilmalarda yong'in sodir bo'lganda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini yong'indan himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan yong'in xavfsizligi talablarini belgilash uchun ishlatiladi.

3. Ushbu ShNQ talablari portlovchi moddalarni ishlab chiqarish va saqlash uchun mo'ljallangan xonalarga, bino va inshootlarga, shuningdek portlovchi modalarni ishga tushirish vositalariga hamda ularning toifalarini aniqlashga nisbatan tatbiq etilmaydi.

4. Xonalar, bino va inshootlarning portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha toifalari mazkur ShNQga muvofiq loyihalashtirish bosqichida aniqlanadi, shuningdek mazkur toifalar loyiha-smeta va ekspluatatsion hujjatlarda nazarda tutilishi kerak.

Xonalar, bino va inshootlarning yong'in (portlash) xavfi bo'yicha toifasi binoni (yong'inga qarshi bo'lmani), inshootni, xonani hamda tashqi qurilmani yong'in (portlash) xavfini tasniflash orqali aniqlanadi.

5. Tashqi qurilmalarga qo'yiladigan talablar qurilish, kengaytirish, qayta ta'mirlash va texnik yangilash loyihalarida, texnologik jarayonlarni o'zgartirishda va tashqi qurilmalarni ekspluatatsiya qilishda inobatga olinishi zarur.

Ushbu ShNQ orqali portlash xavfini baholash yo'nalishida xonalar, bino va inshootlarning portlab-yonish xavfi toifalari ajratiladi.

6. Ushbu ShNQ talablari xonalar, bino va inshootlar hamda tashqi qurilmalarni loyihalashtirish uchun maxsus texnik shartlarni ishlab chiqishda qo'llaniladi.

7. Portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha xonalar "A", "B", "V1 — V4", "G" va "D" toifalariga, binolar va inshootlar esa "A", "B", "V", "G" va "D" toifalariga bo'linadi.

Tashqi qurilmalar yong'in xavfi bo'yicha "A_T", "B_T", "V_T", "G_T" va "D_T" toifalariga bo'linadi.

8. Xonalar, bino va inshootlarni portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha toifalari xona va apparatlarda bo'lgan modda va materiallarning turi, ularning miqdori va yong'in xavfi xususiyatlari, shuningdek texnologik jarayonning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib yong'in yoki portlashdagi eng noqulay davri uchun aniqlanadi.

9. Tashqi qurilmalarning yong‘in xavfi bo‘yicha toifalari tashqi qurilmalarda bo‘lgan yonuvchi modda va materiallarning turi, ularning miqdori va yong‘in xavfi xususiyatlari, shuningdek texnologik jarayonning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib aniqlanadi.

10. Modda va materiallarning yong‘in xavfi xususiyatlarini aniqlash tajriba natijalari yoki ularning holatlaridagi omillarini (bosim, harorat va h.z.) inobatga oluvchi standart uslublar asosidagi hisobi orqali amalga oshiriladi.

Yong‘in xavfi ko‘rsatkichlarini eng xavfli komponenti bo‘yicha modda va materiallar aralashmasi uchun qo‘llash mumkin.

3-bob. Xonalarning portlab-yonish va yong‘in xavfi bo‘yicha toifalari

11. Xonalarning portlab-yonish va yong‘in xavfi bo‘yicha toifalari quyidagi 1-jadval asosida qabul qilinadi.

Bunda, xonalarning portlab-yonish va yong‘in xavfi bo‘yicha toifalarini aniqlash 1-jadvalda ko‘rsatilganidek eng xavfli toifadan (A) eng kam xavfli (D) toifalarga tegishliligi ketma-ketligida amalga oshiriladi.

1-jadval

Xonalarning portlab-yonish va yong‘in xavfi bo‘yicha toifalari

Xona toifasi	Xonadagi modda va materiallarning tavsifi
A (portlab-yonish yuqori xavfi)	Yonuvchi gazlar (YoG) va chaqnash harorati 28°S gacha bo‘lgan yengil alanganuvchi suyuqliklar (EAS) shunday miqdorda bo‘ladiki, xonadagi havo bilan portlash xavfi bo‘lgan aralashma hosil qilib, shu hosil bo‘lgan aralashma alangananda sodir bo‘ladigan portlashning hisobiy ortiqcha bosimi 5 kPa dan oshadi. Suv va havodagi kislorod bilan yoki o‘zaro ta’sir qilib yonishi va portlashi natijasida ortiqcha bosim 5 kPa dan yuqori bo‘ladigan material va moddalar ishlatiladigan xonalar.
B (portlab-yonish xavfi)	Yonuvchan chang, tolalar va chaqnash harorati 28°S dan yuqori bo‘lgan yengil alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklar (YoS) shunday miqdorda bo‘ladiki, xonadagi havo bilan portlash xavfi bo‘lgan aralashma hosil qilib, shu hosil bo‘lgan aralashma alangananda sodir bo‘ladigan portlashning hisobiy ortiqcha bosimi 5 kPa dan oshadi.
V1 — V4 (yong‘in xavfi)	Yonuvchi va qiyin yonuvchi suyuqliklar, qattiq yonuvchi va qiyin yonuvchi modda va materiallar (shu jumladan chang va tolalar), suv, havodagi kislorod bilan yoki o‘zaro ta’sir qilishi natijasida faqat yonishi mumkin bo‘lgan modda va materiallar ishlatiladigan xonalar (shu modda va materiallar mavjud bo‘lgan yoki ishlatiladigan xonalar A va B toifasiga kirmasligi sharti bilan).
G (o‘rtacha yonuvchan)	Yonmaydigan modda va materiallar issiq, qizigan yoki erigan holatda bo‘lishi va ularga ishlov berish jarayonida nur issiqligi, uchqun va alanga ajralib chiqishi kuzatiladigan, shuningdek yonuvchi gaz, suyuqlik va qattiq moddalar faqat yoqilg‘i sifatida ishlatiladigan xonalar.
D (kam yonuvchan)	Yonmaydigan modda va materiallar sovuq holatda bo‘ladigan xonalar.
<p><i>Izoh: xonalarning “A” va “B” toifalarini aniqlash usullari mazkur ShNQ ning 1-ilovasiga muvofiq belgilanadi. Xonalarning “V1”, “V2”, “V3” yoki “V4” toifalarga ajratilishi ushbu xonadagi yong‘in yuklamasi miqdori va ularning joylashuvi hamda hajmiy-rejaviy, shuningdek yong‘in yuklamasini tashkil etuvchi moddalar va materiallarning yong‘inga xavfli xususiyatlaridan</i></p>	

kelib chiqib amalga oshiriladi.

Xonalarning "V1 — V4" toifalarga ajratilishi mazkur ShNQ ning 2-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

4-bob. Bino va/yoki inshootlarning portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha toifalari

12. Bino va/yoki inshootlarning portlab-yonish va yong'in xavfi bo'yicha toifalarini aniqlashda quyidagilarni hisobga olish zarur:

tegishli toifalardagi xonalar maydonining foizini;

tegishli toifalardagi xonalarning maksimal maydonini;

xonalar avtomatik yong'in o'chirish qurilmalari bilan jihozlanganligini.

13. Agar "A" toifaga kiruvchi xonalar maydoni bino va/yoki inshootlardagi barcha xonalar maydoni yig'indisining 5% idan yoki 200 m² dan ortiq bo'lsa, bino "A" toifaga kiritiladi.

Agar "A" toifaga kiruvchi xonalarning maydoni barcha xonalar maydoni yig'indisining 25% dan ortiq bo'lmasa (lekin 1000 m² dan ortiq emas) va bu xonalar avtomatik yong'in o'chirish qurilmasi bilan jihozlangan bo'lsa, bino va/yoki inshootlarni "A" toifaga kiritilmaydi.

14. Agar bir vaqtning o'zida quyidagi ikkita shart bajarilgan bo'lsa, bino va/yoki inshootlar "B" toifaga kiritiladi:

bino va/yoki inshootlar "A" toifaga kiritilmagan bo'lsa;

agar "A" va "B" toifali xonalar maydoni, barcha xonalar maydoni yig'indisining 5% dan ortiq yoki 200 m² dan ortiq bo'lsa.

Agar "A" va "B" toifaga kiruvchi xonalar maydoni bino va/yoki inshootlardagi barcha xonalar maydoni yig'indisining 25% idan ortiq bo'lmasa (lekin 1000 m² dan ortiq emas) va bu xonalar avtomatik yong'inni o'chirish qurilmasi bilan jihozlangan bo'lsa, bino va/yoki inshootlarni "B" toifaga kiritilmaydi.

15. Agar bir vaqtning o'zida quyidagi ikkita talab bajarilgan bo'lsa, bino va/yoki inshootlar "V" toifaga kiritiladi:

bino va/yoki inshootlarlar "A" va "B" toifalariga kiritilmagan bo'lsa;

agar "A", "B" hamda "V1", "V2" va "V3" toifaga kiruvchi xonalar maydoni, barcha xonalar maydoni yig'indisining 5% idan ortiq bo'lsa (agar binoda "A" va "B" toifali xonalar joylashmagan bo'lsa, 10% idan ortiq bo'lsa).

Agar "A", "B" va "V1", "V2", "V3" toifaga kiruvchi xonalar maydoni yig'indisi, bino va/yoki inshootlardagi barcha xonalar maydoni yig'indisining 25% idan ortiq bo'lmasa (lekin 3500 m² dan ortiq emas) va bu xonalar avtomatik yong'in o'chirish qurilmasi bilan jihozlangan bo'lsa, bino va/yoki inshootlarni "V" toifaga kiritilmaydi.

16. Agar bir vaqtning o'zida quyidagi ikkita talab bajarilgan bo'lsa, bino va/yoki inshootlar "G" toifasiga kiritiladi:

bino va/yoki inshootlar "A", "B" va "V" toifalariga kiritilmagan bo'lsa;

agar "A", "B", "V1", "V2", "V3" va "G" toifaga kiruvchi xonalar maydoni, bino va/yoki inshootlardagi barcha xonalar maydoni yig'indisining 5% idan ortiq bo'lmasa.

Agar "A", "B", "V1", "V2", "V3" va "G" toifaga kiruvchi xonalar maydoni yig'indisi, bino va/yoki inshootlardagi barcha xonalar maydoni yig'indisining 25% idan ortiq bo'lmasa (lekin 5000 m² dan ortiq emas) hamda "A", "B" va "V1", "V2", "V3" xonalar avtomatik yong'in o'chirish qurilmasi bilan jihozlangan bo'lsa, bino va/yoki inshootlar "G" toifaga kiritilmaydi.

17. Agar "A", "B", "V" va "G" toifalariga kiritilgan xonalar joylashmagan bo'lsa, bino va/yoki inshootlar "D" toifasiga kiritiladi.

5-bob. Tashqi qurilmalarning yong'in xavfi bo'yicha toifalari

18. Tashqi qurilmalarning yong‘in xavfi bo‘yicha toifalari quyidagi 2-jadvalga asosan qabul qilinadi.

2-jadval

Tashqi qurilmalarning yong‘in xavfi bo‘yicha toifalari

Tashqi qurilmaning toifasi	Tashqi qurilmani ma‘lum bir yong‘in xavfi toifasiga kiritish mezonlari
A _T (portlash va yong‘indan xavfliligi yuqori)	Agar tashqi qurilma ichida yonuvchi gazlar; chaqnash harorati 28°S gacha bo‘lgan yengil alanganuvchi suyuqliklar; suv, havodagi kislorod va/yoki o‘zaro ta’sir qilib yonish xususiyatiga ega modda va/yoki materiallar bo‘lsa (saqlansa, qayta ishlov berilsa, transportirovka qilinsa), shuningdek yuqorida qayd etilgan moddalarning bosim to‘lqinlarini hosil qilib yonish ehtimoli bo‘lgandagi yong‘in xavf-xatar kattaligi tashqi qurilmadan 30 m masofada yiliga bir milliondan ortiq bo‘lishi sharti bajarilsa, tashqi qurilma “A _T ” toifasiga tegishli bo‘ladi.
B _T (portlash va yong‘indan xavfli)	Agar tashqi qurilma ichida yonuvchi chang va/yoki tolalar; chaqnash harorati 28°S dan yuqori bo‘lgan yengil alanganuvchi suyuqliklar yonuvchi suyuqliklar bo‘lsa (saqlansa, qayta ishlov berilsa, transportirovka qilinsa), shuningdek, chang va/yoki bug‘-havo aralashmasining bosim to‘lqinlarini hosil qilib yonish ehtimoli bo‘lgandagi yong‘in xavf-xatar kattaligi tashqi qurilmadan 30 m masofada yiliga bir milliondan ortiq bo‘lishi sharti bajarilsa, tashqi qurilma “B _T ” toifasiga tegishli bo‘ladi.
V _T (yong‘indan xavfli)	Agar tashqi qurilma ichida yonuvchi va/yoki qiyin yonuvchi suyuqliklar, qattiq yonuvchi va/yoki qiyin yonuvchi modda va/yoki materiallar (shu jumladan chang va/yoki tolalar), suv va havodagi kislorod va/yoki o‘zaro ta’sir qilib yonish xususiyatiga ega modda va/yoki materiallar bo‘lsa (saqlansa, qayta ishlov berilsa, transportirovka qilinsa), shuningdek qurilma “A _T ” yoki “B _T ” toifalariga kirmasa, shu bilan birga yuqorida qayd etilgan moddalarning yonish ehtimoli bo‘lgandagi yong‘in xavf-xatar kattaligi tashqi qurilmadan 30 m masofada yiliga bir milliondan ortiq bo‘lishi sharti bajarilsa, qurilma “V _T ” toifasiga tegishli bo‘ladi.
G _T (o‘rtacha yong‘indan xavfli)	Agar tashqi qurilma ichida yonmaydigan modda va/yoki materiallar issiq, qizigan yoki erigan holda bo‘lsa (saqlanadigan, qayta ishlov beriladigan, transportirovka qilinadigan), ularga ishlov berish jarayoni nur issiqligi, uchqun va/yoki alanga ajralib chiqishi bilan kuzatiladigan hamda yonuvchi gazlar, suyuqliklar va/yoki qattiq moddalar yondiriladigan yoki yoqilg‘i sifatida ishlatiladigan qurilmalar “G _T ” toifasiga tegishli bo‘ladi.
D _T (kam yong‘indan xavfli)	Agar tashqi qurilma ichida asosan sovuq holdagi yonmaydigan modda va/yoki materiallar bo‘lsa (saqlansa, qayta ishlov berilsa, transportirovka qilinsa) va yuqorida keltirilgan mezonlar bo‘yicha “A _T ”, “B _T ”, “V _T ” “G _T ” toifalariga taalluqli bo‘lmasa, tashqi qurilma “D _T ” toifasiga tegishli bo‘ladi.

19. Tashqi qurilmalarning toifasini aniqlashda, ularning yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan toifalarga tegishliligi eng xavfli (A_T) dan eng kam xavfli (D_T) gacha qarab amalga oshiriladi.

20. Agar ma’lumotlar yo‘q bo‘lganligi sababli individual xavf kattaligini baholash imkoniyati bo‘lmasa, uning o‘rniga quyidagi mezonlarni qo‘llash mumkin:

“A_T” va “B_T” toifalar uchun:

quyi alanga tarqalish konsentratsion chegarasidan yuqori bo‘lgan gaz-bug‘-havo aralashmalarini chegaralovchi zonaning gorizontol o‘lchami 30 m dan ortiq bo‘lsa va/yoki gaz, bug‘ yoki chang havoli aralashmalarining yonishidagi hisobiy ortiqcha bosim tashqi qurilmadan 30 m masofada 5 kPa dan ortiqni tashkil etsa;

“V_T” toifasi uchun:

“V_T” toifasida ko‘rsatilgan modda va/yoki materiallar tashqi qurilmadan 30 m masofada yong‘in o‘chog‘idan issiqlik tarqalish jadalligi 4 kW•m⁻² dan oshiqni tashkil qilsa.

Tashqi qurilmalarni o‘rnatish uchun yong‘in xavfi mezonlarini hisoblash usullari mazkur ShNQ ning 3-ilovasida keltirilgan.

Yoqilg‘i konsentratsiyasi alanga tarqalishining quyi konsentratsion chegarasidan (ATQKCh) yuqori bo‘lgan gaz-bug‘ havo aralashmalarini cheklovchi zonalarning gorizontol o‘lchamlari hamda yong‘in o‘chog‘idan issiqlik nurlanishining jadalligi mazkur ShNQ ning 3-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni YONG‘IN XAVFSIZLIGI TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2009-yil 24-iyunda qabul qilingan

Senat tomonidan 2009-yil 28-avgustda ma‘qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi yong‘in xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilik

Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

yong‘in — odamlarning hayoti va (yoki) sog‘lig‘iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga zarar yetkazadigan, nazorat qilib bo‘lmaydigan yonish;

yong‘in nazorati — yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyat;

yong‘inlar profilaktikasi — yong‘inlar kelib chiqishi ehtimolini istisno etishga va ularning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan ogohlantirish chora-tadbirlari majmui;

yong‘indan saqlash xizmati — odamlarning hayoti va sog‘lig‘ini, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni yong‘inlardan himoya qilish, shuningdek obyektlarda, aholi punktlarida hamda boshqa hududlarda yong‘in xavfsizligini talab darajasida saqlab turish maqsadida belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui;

yong‘in xavfsizligi — odamlarning, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulking, shuningdek atrof tabiiy muhitning yong‘inlardan himoyalanganligi holati;

yong‘in xavfsizligi talablari — yong‘in xavfsizligini ta‘minlash maqsadida qonunchilikda belgilangan ijtimoiy va (yoki) texnik xususiyatga ega maxsus shartlar;

yong‘in xavfsizligi talablarining buzilishi — yong‘in xavfsizligi talablarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik;

yong‘in-texnik mahsuloti — yong‘in xavfsizligini ta‘minlashga mo‘ljallangan maxsus texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulotlar, shu jumladan yong‘inni o‘chirish texnikasi va asbob-uskunalari, yong‘inni o‘chirish aslaha-anjomlari, olovni o‘chirish va olovdan himoya qilish moddalari hamda materiallari, maxsus aloqa va boshqarish vositalari, elektron hujjatlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar va ma‘lumotlar bazalari, shuningdek yong‘inlarning oldini olish hamda ularni o‘chirishning boshqa vositalari;

yong‘inga qarshi rejim — yong‘in xavfsizligi talablari buzilishining oldi olinishini va yong‘inlar o‘chirilishini ta‘minlash yuzasidan odamlarning xatti-harakat qoidalari, ishlab chiqarishni tashkil etish va (yoki) binolarni (hududlarni) saqlash tartibi;

yong‘inga qarshi alohida rejim — yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan davrda muayyan hududlarda qonunchilikka muvofiq yong‘in xavfsizligining qo‘shimcha talablarini belgilash.

yong‘in-qutqaruv bo‘linmasi — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining favqulodda vaziyatlar va yong‘inlarni profilaktika qilish hamda bartaraf etish, shuningdek qutqaruv ishlarini bajarish maqsadida tashkil etilgan bo‘linmasi;

(3-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrda O‘RQ-597-sonli Qonuniga asosan o‘n ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son — 2020-yil 26-martdan kuchga kiradi)

4-modda. Yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tizimi

Yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tizimi yong‘inlarning oldini olish hamda ularni o‘chirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik chora-tadbirlar, shuningdek kuchlar va vositalar majmuidan iboratdir.

Yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tizimi subyektlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) va fuqarolardir.

2-bob. Davlat organlari va boshqa organlarning yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yong‘in xavfsizligini ta‘minlashdagi ishtiroki. Tashkilotlar hamda fuqarolarning yong‘in xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatlari

5-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

yong‘in xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosati o‘tkazilishini ta‘minlaydi;

yong‘in xavfsizligi sohasida davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yong‘in xavfsizligi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

yong‘in xavfsizligi sohasida moliyaviy, moddiy-texnika ta‘minotini va resurslar bilan ta‘minlashni amalga oshiradi;

davlat ehtiyojlari uchun yong‘in-texnik mahsulotining nomenklaturasini, uni yetkazib berish hajmlarini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonun.

6-modda. Yong‘in xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli organning vakolatlari

Yong‘in xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligidir (bundan buyon matnda Favqulodda vaziyatlar vazirligi deb yuritiladi).

Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilikning ijrosini ta‘minlaydi;

yong‘in xavfsizligi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini tashkil etadi;

yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini yong‘inni o‘chirish texnikasi va boshqa texnika vositalari bilan jihozlash sohasida yagona texnika siyosatini amalga oshiradi;

yong‘inlarni o‘chirishni, yong‘in zonasida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarishni amalga oshiradi;

barcha turdagi yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarining yong‘inlarni o‘chirishga shayligi holati va yong‘inlar profilaktikasiga doir ishlarning bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

yong‘in xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini ishlab chiqadi;

yong‘in xavfsizligi sohasidagi texnik reglamentlar, standartlar, normalar, qoidalarni va boshqa normativ hujjatlarni ishlab chiqadi;

davlat yong‘in nazoratini amalga oshiradi;

yong‘in xavfsizligi talablaridan asosli ravishda chetga chiqilgan yoki bunday talablar mavjud bo‘lmagan taqdirda binolar, inshootlarni va boshqa obyektlarni qurish, kapital ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga doir loyiha hujjatlarining yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishiga taalluqli qismini ko‘rib chiqadi;

qurilish uchun maydonlar (trassalar) tanlash (ajratish) komissiyasining, shuningdek qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilib olish komissiyalarining ishida ishtirok etadi;

yong‘in xavfsizligi sohasida yong‘inga qarshi targ‘ibotni, o‘qitishni va axborot bilan ta‘minlashni amalga oshiradi;

yong‘in xavfsizligining ilmiy-texnik jihatdan ta‘minlanishini muvofiqlashtiradi;

yong‘in xavfsizligi sohasidagi sertifikatlashtirishni belgilangan tartibda amalga oshiradi, yong‘in xavfsizligi sohasidagi qonunchilikda nazarda tutilgan faoliyat (harakatlar) turlarini boshlaganlik to‘g‘risidagi xabarnomalarni qabul qiladi va ularning reyestrini yuritadi;

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-son qarori bilan tasdiqlangan “Yong‘inni avtomatik tarzda o‘chirish va yong‘in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish faoliyatining pasporti”.

yong‘inlar va ularning oqibatlari hisobini yuritadi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar va fuqarolarga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish hamda yong‘inlarning oldini olishga doir tadbirlar o‘tkazish to‘g‘risida yozma ko‘rsatmalar beradi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari (bundan buyon matnda vakolatli organlar deb yuritiladi) o‘z vakolatlari doirasida:

yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilikning ijrosini ta‘minlaydi;

yong‘in xavfsizligi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ularning amalga oshirilishini tashkil etadi;

yong‘in xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

yong‘in xavfsizligi sohasidagi texnik reglamentlar, standartlar, normalar, qoidalar va boshqa normativ hujjatlar ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

yong‘in nazoratini tashkil etadi;

yong‘in xavfsizligi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni muvofiqlashtiradi;

davlat ehtiyojlari uchun yong‘in-texnik mahsulotining nomenklaturasini ishlab chiqadi va hajmlarini belgilaydi;

yong‘inlarni va ularning oqibatlarini hisobga olish tizimini yaratadi;

aholi punktlarida, o‘ta muhim davlat ahamiyatiga molik yoki yong‘in va portlash xavfi yuqori bo‘lgan obyektlarda, ijtimoiy-madaniy, sanoat obyektlarida hamda boshqa obyektlarda, hududlar va kommunikatsiyalarda yong‘inlar o‘chirilishini tashkil etadi.

Vakolatli organlar qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

yong‘in xavfsizligi sohasidagi davlat dasturlari amalga oshirilishida ishtirok etadi;

yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarining bajarilishini tashkil etadi;

mahalliy budjetlarning yong‘in xavfsizligiga, shu jumladan yong‘indan saqlash xizmatining ta‘minoti xarajatlariga doir qismining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va ijro etilishini ta‘minlaydi;

yong‘in o‘chiruvchilar depolari qurilishini amalga oshiradi, yong‘indan saqlash xizmatining mahalliy budjetlar mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalarini belgilangan tartibda saqlaydi va moddiy-texnika bazasi bilan ta‘minlaydi;

yong‘in xavfsizligini ta‘minlashning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirilishini amalga oshiradi;

tegishli hududda yong‘inga qarshi alohida rejim o‘rnatadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yong‘in xavfsizligini ta‘minlashdagi ishtiroki

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari:

ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmatining tashkil etilishiga va faoliyatiga ko‘maklashadi;

yong‘in nazoratining amalga oshirilishiga ko‘maklashadi;

yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan jamoat nazoratini amalga oshiradi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

10-modda. Tashkilotlarning yong‘in xavfsizligi sohasidagi huquqlari va majburiyatlari

Tashkilotlar:

yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini belgilangan tartibda o‘z mablag‘lari hisobidan tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish;

tegishli organlarga yong‘in xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha takliflar kiritish;

belgilangan tartibda yong‘in-texnik komissiyalarini tashkil etish;

o‘z hududida sodir bo‘lgan yong‘inlarning kelib chiqish va kuchayish (tarqalish) sabablari hamda sharoitlarini aniqlashga doir ishlarni bajarish;

yong'in xavfsizligini ta'minlashni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish chora-tadbirlarini belgilash;

belgilangan tartibda yong'in xavfsizligi masalalari bo'yicha axborot olish, shu jumladan yong'indan saqlash xizmatining boshqaruv organlari va bo'linmalaridan axborot olish huquqiga ega.

Tashkilotlar:

yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilishi;

yong'indan saqlash xizmati mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi;

yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi, shuningdek ularning bajarilishi ustidan doimiy nazoratni ta'minlashi;

yong'inga qarshi targ'ibot o'tkazishi va o'z xodimlariga yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini qo'llashni o'rgatishi;

o'ziga qarashli yong'inga qarshi himoya tizimi va vositalarini, yong'inga qarshi suv ta'minoti manbalarini, shu jumladan yong'inni o'chirishning birlamchi vositalarini ishga yaroqli holda saqlashi, ulardan belgilanganidan boshqa maqsadda foydalanilishiga yo'l qo'ymasligi;

yong'indan saqlash xizmati bo'linmalariga yong'inlarni o'chirishda, shuningdek yong'in nazorati organlariga yong'inlarning kelib chiqish va kuchayish (tarqalish) sabablari hamda sharoitlarini aniqlashda, yong'in xavfsizligi talablarining buzilishida va yong'inlar kelib chiqishida aybdor shaxslarni topishda belgilangan tartibda ko'maklashishi;

o'z hududidagi yong'inlarni o'chirish chog'ida zarur kuchlar va vositalarni belgilangan tartibda berishi;

yong'indan saqlash xizmatining mansabdor shaxslari o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda ularning o'z hududiga, binolar, inshootlarga va boshqa obyektlarga erkin kirishini ta'minlashi;

o'ziga qarashli obyektlarning yong'in xavfsizligi holati to'g'risidagi, shu jumladan o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotning yong'in xavfliligi haqidagi, shuningdek o'z hududida sodir bo'lgan yong'inlar va ularning oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda hujjatlarni yong'in nazorati organlari mansabdor shaxslarining talabiga ko'ra taqdim etishi;

kelib chiqqan yong'inlar, mavjud yong'inga qarshi himoya tizimlari va vositalaridagi nosozliklar to'g'risida, yo'llar va tor ko'chalarning holati o'zgarganligi haqida yong'indan saqlash xizmatiga darhol xabar qilishi;

ko'ngilli yong'indan saqlash xizmatining faoliyatiga belgilangan tartibda ko'maklashishi shart.

Tashkilotlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar bo'lishi mumkin.

11-modda. Fuqarolarning yong'in xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatlari

Fuqarolar:

yong'in kelib chiqqan taqdirda o'z sog'lig'i va mol-mulkingining himoya qilinishi;

yong'in tufayli o'ziga yetkazilgan zararining o'rni belgilangan tartibda qoplanishi;

o'z sog'lig'iga va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazgan yong'inning kelib chiqish sabablari hamda sharoitlarini aniqlashda ishtirok etish;

yong'in xavfsizligi masalalari bo'yicha belgilangan tartibda axborot olish;

yong'indan saqlash xizmati yetib kelguniga qadar odamlarni, mol-mulkni qutqarish va yong'inlarni o'chirish yuzasidan choralar ko'rish;

yong'inlarni o'chirishda yong'indan saqlash xizmatiga ko'maklashish;

yong'in xavfsizligini ta'minlashda, shu jumladan ko'ngilli yong'indan saqlash xizmati faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega.

Fuqarolar:

yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilishi;

yong'inni sezib qolganda bu haqda yong'indan saqlash xizmatiga darhol xabar qilishi;

yong'indan saqlash xizmati mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi;

o'ziga qarashli ishlab chiqarish, xo'jalik binolarini, turarjoylarni va boshqa binolar hamda imoratlarni belgilangan tartibda yong'in nazoratini amalga oshirish maqsadida ko'zdan kechirishi va tekshirishi uchun yong'in nazorati organlarining mansabdor shaxslariga imkoniyat berishi shart.

Fuqarolar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar bo'lishi mumkin.

3-bob. Yong'in xavfsizligini ta'minlash

12-modda. Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish

Yong'in xavfsizligini ta'minlash tashkilotlarning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining tarkibiy qismidir. Yong'in xavfsizligini ta'minlashga doir talablar mansab yo'riqnomalarida va boshqa yo'riqnomalarda, zarur hollarda esa tegishli shartnomalarda aks ettirilishi kerak.

Tashkilotlarning yong'in xavfsizligini ta'minlash, agar tegishli shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mazkur tashkilotlarning rahbarlari va ular vakolat bergan shaxslar zimmasiga yuklatiladi. Yong'in xavfsizligini ta'minlashga doir vazifalarning vakolatli shaxslar zimmasiga yuklatilishi rahbarlarning zimmasidan mas'uliyatni soqit qilmaydi.

Xususiy va davlat uy-joy fondlarining turarjoylari va boshqa binolarida yong'in xavfsizligini ta'minlash, agar bu mulkiy ijara (arenda) shartnomasida ko'rsatilgan bo'lsa, mulkdorlar yoki ijaraga (arendaga) oluvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Aholi punktlarini rivojlantirish va ularda imorat qurishni rejalashtirish, binolar va inshootlarni loyihalashtirish, qurish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish hamda texnik jihatdan qayta jihozlash chog'ida yong'in xavfsizligini ta'minlash tegishincha shaharsozlik faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, buyurtmachilar, imorat quruvchilar, loyiha va qurilish tashkilotlari zimmasiga yuklatiladi.

13-modda. Yong'in xavfsizligi sohasida normativ jihatdan tartibga solish

Yong'in xavfsizligi sohasida normativ jihatdan tartibga solish ijro etilishi shart bo'lgan yong'in xavfsizligi talablarining vakolatli organlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek normativ hujjatlarda belgilanishidir.

Vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadigan yong'in xavfsizligi talablarini o'z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek normativ hujjatlar Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishib olinishi kerak.

14-modda. Yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish

Yong'in xavfsizligi chora-tadbirlari yong'in xavfsizligini ta'minlashga, shu jumladan yong'in xavfsizligi talablarini bajarishga doir harakatlardir.

Yong'in xavfsizligi chora-tadbirlari yong'in xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilikka, yong'in xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq, shuningdek yong'inlarga qarshi kurashish tajribasi, moddalar, materiallar, texnologik jarayonlar, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar, binolar va inshootlarning yong'in xavfliligiga baho berish asosida ishlab chiqiladi.

Moddalar, materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchilar (yetkazib beruvchilar) mazkur moddalar, materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarning yong'in xavfliligi ko'rsatkichlarini, shuningdek ulardan foydalanishda qo'llaniladigan yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini tegishli texnik hujjatlarda ko'rsatishi kerak.

Tashkilotlar, binolar, inshootlar va boshqa obyektlar uchun yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda, shu jumladan ular loyihalashtirilayotganda yong'inlar chog'ida odamlarning evakuatsiya qilinishini hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki saqlab qolinishini ta'minlovchi yechimlar nazarda tutilishi kerak.

Aholi punktlari va boshqa hududlar uchun yong'in xavfsizligi chora-tadbirlari tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

15-modda. Yong'inlarni o'chirish

Yong'inlarni o'chirish odamlarning hayotini asrab qolish hamda sog'lig'ini saqlash, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni asrash hamda yong'inlarni bartaraf etish harakatlaridan iboratdir.

Yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari tomonidan yong'inlarning o'chirilishini tashkil etish tartibini Favqulodda vaziyatlar vazirligi belgilaydi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqaruv organlari va yong'in-qutqaruv bo'linmalarining yong'indan saqlash xizmatining boshqa turlari, vakolatli organlar, avariya-ta'mirlash xizmatlari va o'zga xizmatlar bilan yong'inlarning o'chirilishini tashkil etishni ta'minlashga doir hamkorligi kelishuvlar bilan tartibga solinadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi yong'in-qutqaruv bo'linmalarining kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalb qilish tartibi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik bilan belgilanadi.

Yong'inlarni o'chirish uchun yong'indan saqlash xizmati bo'linmalarining kuchlari va vositalarini jalb qilishning mintaqalararo hamda mahalliy darajalardagi rejaları mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Yong'inlar to'g'risidagi xabarlarini qabul qilish uchun aholi punktlarining telefon tarmoqlarida yagona raqam — 101 o'rnatiladi.

Yong'in kelib chiqqanligi to'g'risidagi xabarni olgach, Favqulodda vaziyatlar vazirligining yong'in-qutqaruv bo'linmalari yong'in joyiga darhol jo'nab ketishi shart.

Zarur hollarda, yong'inlarni o'chirish chog'ida yong'in kuchayishining (tarqalishining) hamda yong'in bilan bog'liq bo'lgan, odamlarga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, atrof tabiiy muhitga tahdid soluvchi xavfli omillarning oldini olish uchun:

yong'inlar tarqalgan (tarqalish ehtimoli bo'lgan) va xavf keltirib chiqaradigan joylarga kirib borishga doir;

yong'inlarning kuchayishiga (tarqalishiga) to'sqinlik qiladigan va ularni bartaraf etishni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratishga doir;

tashkilotlar va fuqarolarda mavjud bo'lgan aloqa, transport vositalaridan, asbob-uskunalardan, yong'inni o'chirish vositalari va olovni o'chirish moddalaridan keyinchalik o'rni belgilangan tartibda qoplanishi sharti bilan foydalanishga doir;

tegishli xizmatlarni jalb etgan holda jamoat tartibini ta'minlash, yong'inlar o'chirilayotgan joylarni qo'riqlash (shu jumladan yong'inlarning kelib chiqish va kuchayish (tarqalish) sabablarini, sharoitlarini tekshirish chog'ida), yo'l harakatini tartibga solish, evakuatsiya qilish va (yoki) yong'in kelib chiqqan joyda boshqa tadbirlarni amalga oshirishga doir harakatlar bajariladi.

Yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari yong'inlarni o'chirish, yong'inlar va avariylarning kelib chiqishi hamda kuchayishining (tarqalishining) oldini olish bilan bog'liq zarur ishlarni amalga oshirishda yong'inni o'chirish maqsadi uchun tabiiy va sun'iy suv manbalaridan suv bilan bepul ta'minlanadi.

Asosli tavakkalchilik doirasida harakat qilgan Favqulodda vaziyatlar vazirligining shaxsiy tarkibi va yong'inni o'chirishda qatnashgan boshqa ishtirokchilar yetkazilgan zararining o'rnini qoplashdan ozod qilinadi.

Yong'inni o'chirishga rahbarlik qilish yong'in joyiga yetib kelgan yong'indan saqlash xizmatining katta tezkor mansabdor shaxsi (bundan buyon matnda yong'inni o'chirish rahbari deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi, u yong'inni o'chirish harakatlarini bajarishda ishtirok etayotgan yong'indan saqlash xizmatining shaxsiy tarkibini, shuningdek yong'inni o'chirishga jalb etilgan kuchlar va vositalarni yakkaboshchilik prinsipi asosida boshqaradi.

Yong'inni o'chirish rahbari vazifalarning bajarilishi, yong'inni o'chirish harakatlarini bajarishda ishtirok etayotgan yong'indan saqlash xizmati shaxsiy tarkibining hamda yong'inni o'chirishga jalb etilgan kuchlar va vositalarning xavfsizligi uchun javob beradi.

Yong'inni o'chirish rahbari yong'inni o'chirish harakatlari amalga oshirilayotgan hudud chegaralarini, mazkur harakatlarni bajarishning tartibini va o'ziga xos jihatlarini belgilaydi, shuningdek yong'in chog'ida odamlarni, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Zarur hollarda, yong'inni o'chirish rahbari boshqa qarorlar, shu jumladan yong'inni o'chirish harakatlari amalga oshirilayotgan hududdagi yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini cheklaydigan qarorlar qabul qilishga haqli.

Yong'inni o'chirish rahbarining ko'rsatmalari yong'inni o'chirish harakatlari amalga oshirilayotgan hududdagi barcha tashkilotlar va fuqarolarning ijro etishi uchun majburiydir.

Yong'in o'chirilayotganda yong'inni o'chirish rahbarining harakatlariga aralashishga yoki uning farmoyishlarini bekor qilishga hech kim haqli emas.

17-modda. Yong'in xavfsizligi sohasida ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish

Yong'in xavfsizligi sohasidagi ishlar va xizmatlar yong'in xavfsizligi talablarini amalga oshirish, shuningdek yong'inlar profilaktikasini ta'minlash va yong'inlarni o'chirish maqsadida bajariladi hamda ko'rsatiladi. Yong'in xavfsizligi sohasidagi ishlar va xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

yong'in xavfsizligi sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish;

aholiga yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini qo'llashni o'rgatish;

yong'inga qarshi targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

ilmiy-texnik maslahatlar berish va ekspertizalar o'tkazish;

tashkilotlarni, aholi punktlari va boshqa hududlarni yong'inlardan muhofaza qilish;

yong'in-texnik mahsulotini ishlab chiqarish, sinovdan o'tkazish, xarid qilish va yetkazib berish;

moddalar, materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarini yong'in xavfsizligi jihatidan sinovdan o'tkazish;

loyiha, tadqiqot ishlarini bajarish;

olovdan himoya qilish va pech-mo'rikon ishlarini bajarish;

yong'inga qarshi himoya tizimlari va vositalarini montaj qilish, ularga texnik xizmat ko'rsatish hamda ularni ta'mirlash;

yong'inga qarshi aslaha-anjomlarni, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish, olovni o'chirish moddalarining sifatini tiklash.

Yong'in xavfsizligi sohasidagi ishlar va xizmatlar jumlasiga qonunchilikka muvofiq boshqa ishlar va xizmatlar ham kiritilishi mumkin.

18-modda. Yong'inga qarshi targ'ibot va yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini qo'llashni o'rgatish

Yong'inga qarshi targ'ibot aniq maqsadni ko'zlagan holda jamiyatni ommaviy axborot vositalari, maxsus adabiyotlar va reklama mahsulotlarini nashr etish hamda tarqatish, muayyan mavzuga bag'ishlangan ko'rgazmalar, ko'riklar, konferensiyalar o'tkazish va aholini xabardor qilishning qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa shakllaridan foydalanish orqali yong'in xavfsizligi muammolari va yong'in xavfsizligini ta'minlash yo'llari haqida xabardor qilishdir.

Yong'inga qarshi targ'ibotni yong'indan saqlash xizmati, shuningdek yong'indan saqlash xizmati ko'magida vakolatli organlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilotlar va fuqarolar o'tkazadi.

Tashkilotlarning xodimlariga yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini qo'llashni o'rgatish ish beruvchilar (ma'muriyat, mulkdorlar) tomonidan yong'in xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq, tegishli vakolatli organlar tasdiqlagan va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan maxsus dasturlar bo'yicha olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga va boshqa ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan shaxslarga yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini qo'llashni majburiy tarzda o'rgatish mazkur muassasalar tomonidan tegishli vakolatli organlar tasdiqlagan va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan maxsus dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bolalarga yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini qo'llashni o'rgatish, ularni kasbga yo'naltirish, yong'inga qarshi targ'ibot tizimini takomillashtirish hamda yong'inlarning oldini olishga va yong'in chog'ida to'g'ri harakat qila bilishga qaratilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish maqsadida qonunchilikka muvofiq yosh yong'in o'chiruvchilar drujinalari tashkil etilishi mumkin.

19-modda. Yong'in xavfsizligi sohasida axborot bilan ta'minlash

Vakolatli organlar yong'in xavfsizligi uchun noqulay sharoitlar to'g'risida o'z vakolatlari doirasida Favqulodda vaziyatlar vazirligini darhol va bepul asosda xabardor qilishi shart.

Faoliyati to'liq yoki qisman O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan ommaviy axborot vositalari yong'in xavfsizligi masalalariga doir tezkor axborotni bepul asosda e'lon qilishi shart.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yong'in xavfsizligini ta'minlash yuzasidan qabul qilgan qarorlari haqida aholini xabardor qilishi shart.

20-modda. Yong'inlarni va ularning oqibatlarini hisobga olish

Yong'inlarni va ularning oqibatlarini hisobga olish, shuningdek yong'inlarga doir axborotni to'plash hamda o'zaro almashish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

21-modda. Yong'inga qarshi alohida rejim

Yong'in xavfi yuqori bo'lganda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan tegishli hududlarda yong'inga qarshi alohida rejim o'rnatilishi mumkin.

Yong'inga qarshi alohida rejimning amal qilishi davrida tegishli hududlarda yong'in xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan yong'in xavfsizligiga oid qo'shimcha talablar belgilanadi.

22-modda. Yong'in xavfsizligini ilmiy-texnik jihatdan ta'minlash

Yong'in xavfsizligini ilmiy-texnik jihatdan ta'minlashni ilmiy- tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, loyiha tashkilotlari va boshqa ilmiy-texnik tashkilotlar, shuningdek tegishli ta'lim muassasalari amalga oshiradi.

Yong'in xavfsizligi sohasidagi ilmiy-texnik ishlanmalarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, tashkilotlarning mablag'lari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Yong'in xavfsizligini ilmiy-texnik jihatdan ta'minlashni muvofiqlashtirish Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Tashkilotlar yangi texnologiyalar va mahsulotlar yaratilishida yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida zarur ilmiy-texnik ishlanmalar amalga oshirilishini ta'minlaydi.

23-modda. Yong'in-texnik mahsulotini ishlab chiqarish

Yong'in-texnik mahsuloti davlat buyurtmasi asosida, shuningdek tadbirkorlik faoliyati tartibida ishlab chiqariladi.

Yong'in-texnik mahsulotini ishlab chiqarish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

24-modda. Yong'in xavfsizligi sohasidagi faoliyatni (harakatlarni) xabardor qilish tartibida amalga oshirish

Yong'in xavfsizligi sohasidagi faoliyat (harakatlar) turlarini xabardor qilish tartibida amalga oshirish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

25-modda. Yong'in xavfsizligi sohasidagi mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish

Yong'in xavfsizligi sohasidagi mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Yong'in xavfsizligi sohasidagi majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yong'in xavfsizligi sohasidagi mahsulotlar va xizmatlarning yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun ular tashkilotlar hamda fuqarolar tashabbusiga ko'ra ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

4-bob. Yong'indan saqlash xizmati

26-modda. Yong'indan saqlash xizmatining asosiy vazifalari

Yong'indan saqlash xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

yong'inlar profilaktikasini o'tkazish va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

yong'inlarni o'chirish, yong'in zonasida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish.

Yong'indan saqlash xizmati kuchlari va vositalarining yong'inlar profilaktikasi hamda yong'inlarni o'chirish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni bajarishga jalb qilinishiga, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yo'l qo'yilmaydi.

27-modda. Yong'indan saqlash xizmatining turlari

Yong'indan saqlash xizmati davlat, idoraviy va ko'ngilli yong'indan saqlash xizmatlariga bo'linadi.

28-modda. Davlat yong'indan saqlash xizmati

Davlat yong'indan saqlash xizmati yong'indan saqlash xizmatining asosiy turidir va u Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining boshqaruv organlari va yong'in-qutqaruv bo'linmalari tumanlar, shaharlar va boshqa aholi punktlarida, o'ta muhim davlat ahamiyatiga molik yoki yong'in va portlash xavfi yuqori bo'lgan obyektlarda belgilangan tartibda tashkil etiladi.

31-modda. Idoraviy yong'indan saqlash xizmati

Idoraviy yong'indan saqlash xizmati vakolatli organlarda va tashkilotlarda ularga qarashli obyektlarning yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun tashkil etiladi.

Idoraviy yong‘indan saqlash xizmati boshqaruv organlari va bo‘linmalarining faoliyatini tashkil etish, shuningdek shaxsiy tarkibning xizmatni o‘tash tartibi tegishli vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

32-modda. Ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati

Ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati fuqarolar va jamoat birlashmalarining tashkilotlarda, aholi punktlari va boshqa hududlarda yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarini ta‘minlashda, yong‘inlarni o‘chirishda ishtirok etishining shaklidir.

Ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalari drujinalar va (yoki) komandalar tarzida tashkil etiladi hamda tegishli ma‘muriy-hududiy birlikning yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tizimiga kiradi.

Ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

33-modda. Idoraviy va ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini hisobga olish ro‘yxatidan o‘tkazish

Idoraviy va ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalari hisobga olish ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak.

Idoraviy va ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini hisobga olish ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

5-bob. Yong‘in nazorati

34-modda. Davlat yong‘in nazorati

Davlat yong‘in nazorati vakolatli organlar, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar tomonidan yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida amalga oshiriladigan nazoratdir.

Davlat yong‘in nazorati Favqulodda vaziyatlar vazirligining davlat yong‘in nazorati organlari bo‘lgan bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining obyektlarida, o‘rmon xo‘jaliklari hududlarida, kon qazilmalari va shaxta inshootlarida, portlovchi materiallar ishlab chiqarilayotganda, tashilayotganda, saqlanayotganda, ulardan foydalanilayotganda va ular utilizatsiya qilinayotganda, sanoat uchun mo‘ljallangan portlovchi materiallardan foydalangan holda portlatish ishlarini olib boruvchi tashkilotlarda, havo, suv, temir yo‘l, avtomobil transportidan hamda elektr transportidan foydalanilayotganda davlat yong‘in nazoratini amalga oshirish tartibi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va tegishli vakolatli organlar o‘rtasidagi kelishuvlar bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalarida yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan davlat yong‘in nazorati O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik va boshqa chet el vakolatxonalari egallab turgan obyektlarda yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan davlat yong‘in nazorati ushbu muassasalar rasmiy vakilining O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali qilgan yozma murojaati asosida davlat yong‘in nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat yong‘in nazorati organlari va mansabdor shaxslarining ro‘yxati, vazifalari, huquq va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat yong‘in nazorati to‘g‘risidagi nizom bilan belgilanadi.

35-modda. Idoraviy yong‘in nazorati

Idoraviy yong‘in nazorati idoraviy yong‘indan saqlash xizmati, shuningdek qonunchilikda vakolat berilgan mansabdor shaxslar tomonidan idoralarga qarashli tashkilotlarning yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida amalga oshiriladigan nazoratdir.

Idoraviy yong‘in nazorati vakolatli organlar tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Idoralarga qarashli tashkilotlarda yong‘in xavfsizligi talablari yong‘in kelib chiqishiga va odamlarning xavfsizligiga tahdid soladigan tarzda buzilganligi aniqlangan taqdirda, idoraviy yong‘indan saqlash xizmati alohida ishlab chiqarishning, ishlab chiqarish uchastkasining, agregatning ishini, binodan, inshootdan, xonadan foydalanishni, ayrim turdagi ishlarni bajarishni to‘liq yoki qisman to‘xtatib qo‘yish huquqiga ega.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

36-modda. Yong‘indan saqlash xizmatining moliyaviy va moddiy-texnika ta‘minoti

Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqaruv organlari hamda yong‘in-qutqaruv bo‘linmalarining, bundan tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalar asosida tashkil etiladigan bo‘linmalar mustasno, moliyaviy va moddiy-texnika ta‘minoti O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida tashkil etilgan boshqaruv organlari va yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari mazkur tashkilotlarning mablag‘lari hisobidan ta‘minlanadi.

Idoraviy va ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmatining moliyaviy hamda moddiy-texnika ta‘minoti, shuningdek shaxsiy tarkibning ijtimoiy kafolatlari va kompensatsiyalarini moliyaviy ta‘minlash ularning muassislari tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

37-modda. Nizolarni hal etish

Oldingi tahrirga qarang.

Yong‘in xavfsizligi sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

38-modda. Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

39-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta‘minlasin.

40-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonun “Xalq so‘zi” gazetasining 2009-yil 1-oktabrdagi 191-192 (4854-4855)-sonida e‘lon qilingan.

Nazorat savollari:

1. Yong'inga tarif bering?
2. O'zbekiston Respublikasida o't o'chirish tizimi qanday tuzilgan?
3. Ishlab chiqarishning yong'in bo'yicha tasnifi?

4. O'z.R. yong'in nazorati tashkilotlarining vazifalari qanday?
5. Yonishning fizik-kimyoviy asoslarini tushintiring?
6. Yonish fazalari va portlash chegaralarini xarakterlang?
7. Yong'inga qarshi kurash choralarini gapirib bering?

Mavzu: YONG'INNI O'CHIRISH MODDALARI VA ULARNING XOSSALARI

Reja;

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Yong'inni o'chirish xizmati.
3. Yong'inni o'chirish moddalari va ularning xossalari.
4. Yong'in muhofazasini tashkil etish va yong'inni o'chirish.

Umumiy ma'lumotlar

Yong'inga qarshi himoya sistemasi - yong'in o'chirish jihozlari va texnikalaridan foydalanish, yong'inning xavfli omillaridan himoya qiluvchi shaxsiy va jamoa himoya vositalaridan foydalanish, yong'in xabarini beruvchi va yong'in o'chirish sistemasining avtomatik qurilmalaridan foydalanish, ob'ektning konstruksiyalari va materiallariga yong'indan himoyalovchi tarkibli bo'yoqlar bilan ishlov berish, tutunga qarshi himoya sistemalari, evakuatsiya yo'llari bo'lishini ta'minlash, binoning yong'in mustahkamliligi darajasini to'g'ri tanlash kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Yong'in tarqalishini oldini olish sistemalari esa, yong'inga qarshi to'siklarni o'rnatish, qurilmalar va inshootlarda avariya holatida o'chirish va ko'shish jihozlaridan va yong'indan to'suvchi vositalardan foydalanish, yong'in vaqtida yonuvchi suyuqliklarning to'qilishini oldini oluvchi vositalardan foydalanish kabi tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Tashkiliy - texnik tadbirlarga esa, yong'indan himoyalash xizmatini tashkil etish, uni texnik jihozlar bilan ta'minlash, yong'in xavfsizligi bo'yicha ob'ektdagi moddalar, moddiyalar, jihozlar, qurilmalar va texnologik jarayonlarni pasportlashtirish, yong'in muhofazasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash va ularni o'kitish, yong'in xavfsizligi bo'yicha instruktajlar va aholi o'rtasida turli xil tadbirlar o'tkazish, yong'inga qarshi ko'rsatmalar (instruksiyalar) ishlab chiqish va boshqa shu kabi tadbirlar kiradi.

Yong'inni o'chirish moddalari va ularning xossalari

Yong'inni o'chirishning keng tarqalgan moddalari: suv, suv bug'i, uglekislota, namlangan moddiyalar kimyoviy va havo-mexanik ko'pik, poroshokli tarkiblar, brom etil birikmalar, inyert gazlar va boshqalar hisoblanadi.

Yong'inni o'chiruvchi moddalar quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

-Yong'inni to'xtatish usuli bo'yicha-sovutuvchi (suv va qattiq uglekislota); -elektr o'tkazuvchanligi bo'yicha-elektr o'tkazuvchi (suv, suv bug'i va ko'pik), elektr o'tkazmaydigan (gazlar va poroshoklar);

-toksikligi bo'yicha - toksik bo'lmagan (suv, ko'pik va poroshoklar), kam toksik (uglekislota va azot), toksik bo'lgan brometil, freonlar;

Is gazi yoki uglerod ikki oksidi rangsiz gaz bo'lib havodan 1,5 marta og'ir. U yonish zonasiga kislorodni kirishini oldini oladi ya'ni yong'inni kisloroddan izolyatsiya qiladi. Kimyoviy ko'pik yonish zonasida kislorod miqdorini 14 % gacha kamaytiradi, yonayotgan material yuzini qoplaydi, sovutadi va yong'inni to'xtatadi.

Ko'pikning karraligi - ko'pik hajmini u olingan butun suyuqlik hajmiga nisbatidir 5 dan 100 karralikkacha ega bo'lgan ko'piklar kam va o'rtacha ko'pik karraligiga, 100 dan ortiqdari esa yuqori karralikka kiradi.

Inyert gazlar (azot, argon, geliy) gazli payvandlash ishlarida idishlarni, balonlarni to'lgazishda ko'llaniladi.

Yong'inga qarshi suv ta'minoti

Yong'inga qarshi suv zahirasi yilning istalgan vaqtida kerakli bosimda 3 soat yong'inni o'chirishga etadigan bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish korxonasida har biri 100 m³ va undan ortiq sig'imli suv havzasi bo'lishi kerak. Bitta suv hovzasining xizmat ko'rsatadigan radiusi yong'in vaqtida suv uzatish uchun avtonasos va avtooidishlardan foydalanganda 200 m, uzatma nasoslardan foydalanganda 100 m, bir o'qli pritsep motopompalaridan foydalanganda 150 m gateng qabul qilinadi. Bitta idishda 100 m³ sig'imgacha bo'lgan suv zahirasi dahlsiz saqlanadi. Tashqi va ichki yong'inlarni o'chirishda suv sarfi (m³/soat) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$Q_{yo}=3,6 \times g \times T_{yo} \times n_{yo},$$

bu yerda g-tashqi va ichki yong'inlarni o'chirishda solishtirma suv sarfi jadvaldan qabul qilinadi; T_{yo}-yong'in vaqti (3 soat qabul qilinadi yoki formula bo'yicha aniqlanadi).

n_{yo}-bir vaqtdagi yong'in soni (qurilish maydoni va mahalliy sharoitga bog'liq ravishda 1...3 qabul qilinadi).

Yong'in hovzasidagi daxlsiz suv zahirasi (m³)

$$W_c = Q_x \Sigma Q_m + 0,5 Q_x,$$

formula bo'yicha aniqlanadi:

Q_t-texnologik maqsaddagi suv sarfi, m³/soat; Q_x-xo'jalik maqsaddagi suv sarfi, m³/soat;

Suv hovzasidan suvni olish uchun nasosga so'ruvchi 160...200 mm diametrdagi quvur biriktiriladi. Suvni va suv-ko'pikli suyuqlikni uzatish uchun bosimga ishlashga mo'ljallangan quvurlar ko'llaniladi.

Butun oqimi yoki purkalgan suvli ko'pikli va poroshokli oqimni hosil bo'lishiga RS-50 va RS-70 yong'in stvollarini, SVP havoli-ko'pikli stvolini yoki olib yuriladigan (PLS-N-20) bosim quvuriga biriktirilgan lafet stvollarini ko'llanilishi bilan erishish mumkin.

Yong'in stvolidan suvni oqimi tezligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$v_c = \sqrt{2gH}$$

bu yerda N-stvoldagi suv bosimi, m; g=9,8 m/s².

Havoning qarshiligi hisobga olinganda suvli oqimni uzatishning nazariy uzoqligi

$$L = \frac{v_0^2}{q} \sin \alpha$$

tenglamadan aniqlanadi.

bu yerda α~30...35°-stvolni kiyalik burchagi. Bitta stvol orqali sarflangan suv miqdori quyidagiga aniqlanadi.

$$Q_{cn} = \mu S \sqrt{2qH}$$

bu yerda μ-purkash diametriga bog'liq suv sarfi koeffitsienti (0,5...0,9); S-stvol teshigining kesimi maydoni, m²,

O't o'chirgichlar, o't o'chirish qurilmalari va mashinalari. Yong'in muhofazasini tashkil etish va yong'inni o'chirish

O't o'chirgichlar yong'inni boshlang'ich fazasida o'chirish uchun ishlatiladi. Ular sig'imi, o't o'chirish moddasi, o't o'chiruvchi moddani chiqarish usuli bo'yicha turlicha bo'ladi.

Ximiyaviy ko'pikli o't o'chirgichlar qattiq va suyuq moddalar yong'inini o'chirish maqsadida foydalaniladi. Ularga OXP-10, OP-M va OP-9MM o't o'chirgichlari kiradi. Ularning ishlash vaqti ko'pik karraligi 5 ga teng bo'lganda 60 sek ni tashkil etadi. Ballonlar hajmi 8,7 va 9 l,

zaryadlari ishqorli va kislotali kismdan iborat. Ishqorli qismi 450...460 gr bikorbanatnatriy va qizilmiya ildizi ekstraktining suvdagi aralashmasida, kislotali qismi-15 gr oltingugurt va 120 gr dan ortiq oltingugurt kislotasining suvdagi aralashmasidan iborat. Bu o't o'chirgichlarning korpusi foydalanilgandan 1 yil o'tgach 2 MPa bosim ostida sinaladi (bir partiyadagi o't o'chirgichlarning 25 %). Ikki yildan keyin esa-50 %, uch yildan keyin esa 100 % o'to'chirgichlar sinovdan o'tkaziladi.

Sanoatda OVP-5, OVP-10 markali ko'lda olib yuriladigan o't o'chirgichlari. OVP-100, OVPU-25 markali yuqori karrali statsionar o't o'chirgichlar ishlab chiqariladi. Ularni zaryadlashda PO-1 ko'pik hosil qiluvchidan foydalaniladi.

Uglekislotali o't o'chirgichlar turli xil moddalar moddiylar, elektr qurilmalaridagi yong'inni o'chirishda ishlatiladi. Ularni zaryadlashda uglerod ikki oksididan (SO₂) foydalaniladi. Bunday o't o'chirgichlarga OU-5, OU-8, OU-25, OU-80 va OU-400 markali o't o'chirgichlar kiradi. Ular tortib ko'rib tekshiriladi. Agar ularning massasi 6,25; 13,35 va 19,7 kg dan kam bo'lsa (mos holda, OU-2, OU-5, OU-8 o't o'chirgichlari uchun) ular qayta zaryadlanadi.

Uglekislotali - brometilli o'to'chirgichlarga OUB-ZA va OUB-7A lar kiradi. Ularning hajmi 3,2 va 7,4 l bo'lib, brometil va kislota aralashmasi bilan zaryadlanadi. Bu markadagi qo'lda olib yuriladigan o't o'chirgichlarini ta'sir etish vaqti-35 sek, uzatish uzunligi 3,0-4,5 m ga tengdir.

Kukunli o't o'chirgichlar OP-1, „Moment“, OP-2A, OP-10A, OP-100, OP-250 va SI-120 markali bo'lib, ular uncha katta bo'lmagan yong'inlarni o'chirishda ishlatiladi. OP-1 va „Moment“ o't o'chirgichlaridan avtomobillar va kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan elektr qurilmalarida foydalaniladi.

OP-10A o't o'chirgichi ishqorli metallardagi (natriyli, kaliyli) hamda yog'och va plastmassalardagi yong'inlarda ishlatiladi.

SI-2 ko'chma o't o'chirgichi neft mahsulotlari, metalloorganik birikmalar va shu kabi boshqa moddalar yonishini o'chirishda, SJB-50 va SJB-150 o't o'chirgichlari tok ta'siridagi elektr qurilmalar Yong'inini o'chirishda hamda aerodrom xizmatidagi o't o'chirish mashinalarini jihozlashda ishlatiladi.

Ishlab chiqarish binolari uchun talab etiladigan o't o'chirgichlar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$N_0 = T_0 \times S,$$

bu yerda S-ishlab chiqarish xonasining yuzi, m²; T₀-1 m² maydonga norma bo'yicha belgilangan o't o'chirgichlar soni.

Bu ko'rsatkich moddiylar ombori, garajlar, chorvachilik binolari, bug'-xonalar, tegirmonlar, oshxona va magazinlar uchun 100 m² maydonga 1 ta, elektr payvandlash tsexlari, temirchilik tsexlari, laboratoriyalar uchun 50 m² maydonga 2 ta qilib qabul qilinadi.

O't o'chirish qurilmalari yong'inni boshlang'ich fazada to'lik bartaraf etish va yong'in bo'linmalari kelguncha yong'in tarqalishini cheklash maqsadida ishlatiladi. Ular statsionar, yarim statsionar va ko'chma bo'ladi. O't o'chirgichlarning turi va tarkibiga ko'ra suvli, bo'g'li, gazli (uglekislota), aerazol (galoiduglevodorod), suyuqlik va kukunli bo'ladi.

Bundan tashqari o't o'chirishda ATS-30(66), ATS-40(131), ATS-40(130 E) markali mashinalar va MP-600, MP-900, BMP-1600 markali motopompalardan ham keng foydalaniladi.

Yong'inni o'chirishda professional va kungi lli o't o'chirish jamiyatlari faoliyat ko'rsatadi. Professional yong'in muhofazasi harbiylashtirilgan va harbiylashtirilmagan turlarga bo'linadi.

Tashkilotlar, korxonalar va tashkilotlarda yong'in muhofazasini tashkillashtirish va ob'ektlarning yong'inga qarshi holatini ta'minlash ushbu tashkilotlarning rahbarlariga yuklatiladi. Ular har bir ishlab chiqarish bo'limi uchun buyruq bilan javobgar shaxsni belgilashlari va ularning ishini nazorat qilib borishlari zarur.

Korxonalar va tashkilotlarning ma'muriy-texnik xodimlari o'zlariga tegishli ob'ektlarni kurish va ulardan foydalanish davrida yong'inga qarshi barcha tadbirlarni to'liq amalga oshirishini ta'minlashlari, yuqori yong'in muhofazasi tashkilotlarining ko'rsatmalari hamda qarorlarini bajarilishini nazorat qilib borishlari, yong'in-qorovul muhofazasini, yong'in-texnik komissiyasini va kungilli o't o'chiruvchilar drujinalarini tashkil etishlari, ularning ish faoliyatlarini doimiy nazorat qilib borishlari zarur.

Yong'in-texnik komissiyasi tarkibiga bosh mutaxassislar, muhandis-quruvchilar, mehnat muhofazasi bo'yicha muhandis va kungilli o't o'chirish drujinasining boshlig'i kiradi. Komissiya bino va inshootlardan foydalanishda yong'in muhofazasi qoidalariga amal qilinishini, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni, texnikalardan foydalanishdagi yong'in muhofaza holatini tekshirib boradi hamda zarur holda tegishli choralar ko'radi.

Yong'inni aniqlash va o'chirishning avtomat vositalari.

Yong'inni aniqlashni avtomat vositalari (YOAAV) va yong'inni o'chirishni avtomat vositalari (YOO'AV), agar yong'in tashkilotning barcha ishlariga ta'sir etishi hamda katta moddiy zarar keltirishi mumkin bo'lgan hollarda ko'llaniladi. Bunday ob'ektlarga enyergetik «qurilmalar, markaziy gaz stantsiyalari, yengil yonuvchi va yonuvchi suyuqliklar stantsiyalari, xom-ashyo omborlari va yoqilg'i materiallarini solishtirma sarfi 100 kg/m² dan ortiq bo'lgan binolar kiradi.

YOO'AV lari yong'in joyini aniqlash va trevoga signalini berish hamda yong'inni o'chirish qurilmasini ishga tushirish moslamalaridan iborat bo'ladi. Bu qurilmaning ishlash printsiplari ko'riklanadigan ob'ekt muhitidagi noelektrik fizik miqdorlarni elektr signallarga aylantirib berishga asoslangan. Yong'in sodir bo'lgan taqdirda avtomat yong'in xabar beruvchi qurilmasida elektr signal hosil bo'ladi va bu signal sim orqali qabul qilish stantsiyasiga uzatiladi.

Yong'inni avtomat o'chirish qurilmalari foydalaniladigan o't o'chirish moddalarining turiga bog'liq holda suv bilan o'chiruvchi, suv-ko'pikli, havo-ko'pikli, gazli) uglerod ikki oksidi, azot va yonmaydigan gazlar), ku-kunli va kombinatsiyalashgan turlarga bo'linadi. Bu qurilmalar harakatga kelish vaqtiga qarab esa quyidagilarga bo'linadi: o'ta tez harakatga keluvchi (harakatga kelish vaqti 1 sekunddan ortiq emas), tez harakatga keluvchi (harakatga kelish vaqti 30 sekund), o'rta inyertsiyalari (harakatga kelish vaqti 31-50 sekund), inyertsiyalari (harakatga kelish vaqti 60 sekunddan yuqori). Ularning ish vaqtini davomiyligiga bog'liq holda qisqa va ta'sir etuvchi (15 minutgacha), o'rta davomiylikda (15-30 min) va uzoq vaqt ishlovchi (30 min dan ortiq) turlarga bo'linadi.

Yong'in aloqasi va signalizatsiyasi. Yong'in aloqasi va signalizatsiyasi yong'inni o'z vaqtida sezish, aniqlash va u to'g'risida yong'in o'chiruvchilarga xabar berish uchun ishlatiladi. Ularga tele va radio aloqa, yong'in signalizatsiyasi qurilmalari, elektr signallar, qo'ng'iroqlar va transport vositalarining signallari kiradi.

A, B va V kategoriyasidagi yong'inga xavfli ob'ektlarda yong'in haqida xabar beruvchi datchiklar o'rnatiladi. Ular yong'in bo'lgan taqdirda qabul qilish apparatiga signal yo'lboradi. Bunday sistemalar yong'in signalizatsiyasi deb ataladi. Yong'inni avtomatik signalizatsiya qurilmasi (YOASK) to'g'ri va aylanasimon sxemada o'rnatiladi. Ular ishlatiladigan datchiklar turiga bog'liq holda issiqlik, tutun muhofazalovchi va kombinatsiyalashgan turlarga bo'linadi. Bu qurilmalar Yong'in va muhofaza-Yong'in turlariga bo'linadi. Yong'indan muhofaza sistemalari qimmatbaho moddiyalar saqlanadigan omborlarda, turar joy kvartallarida ishlatiladi. Yong'in va uning muhofaza signalizatsiyasining asosiy elementlariga yong'in to'g'risida xabar beruvchi qurilma qabul qilish stantsiyasi, aloqa tarmog'i, kuchlanish manbai, tovushli yoki yorug'likli signal qurilmasi kiradi.

Yong'in avtomatik signalizatsiyasiga APST-1, signalizatsiyali issiqlik yong'in qurilmasiga-STPU-1 lar misol bo'la oladi. Ushbu qurilmalardagi yong'in to'g'risida avtomatik xabar beruvchi moslamalar muhitdagi issiqlik o'zgarishi, tu tun va issiqlik o'zgarishi hamda yorug'lik energiyasining o'zgarishini qayd etish asosida ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2010-yil 12-iyundagi 66-son buyrug'i
Yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari tomonidan yong'inlarning o'chirilishini tashkil etish tartibi to'g'risida

NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 40-son, 432-modda) muvofiq yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari tomonidan yong'inlarning o'chirilishini tashkil etish tartibini belgilaydi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

yong'in — odamlarning hayoti va (yoki) sog'lig'iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga zarar yetkazadigan, nazorat qilib bo'lmaydigan yonish;

yong'in o'chirish yenglari — bu egiluvchan quvur o'tkazgichi bo'lib, bir-biri bilan ulanib, yong'in joyiga o'chirish vositalarini yetkazib berish uchun xizmat qiladigan moslama (maxsus shlang);

yong'in o'chirish texnikasi — yong'inni o'chirish, tarqalishini to'xtatish, bartaraf qilish, odamlar va ularning mol-mulklarini yong'indan himoya qilish uchun ishlatiladigan texnik vositalar;

yong'in o'chirish uchastkasi — yong'in o'chirishni bajarish uchun kuch va vositalar yig'ilgan joy;

yong'in o'chirish ekipaji — odamlar va ularning mol-mulklarini yong'indan qutqarishda hamda yong'inni o'chirishda alohida topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish vazifasi yuklatilgan birlamchi taktik bo'linma;

yong'in holatini aniqlash — yong'indagi vaziyat haqida ma'lumot to'plash hamda hal qiluvchi yo'nalishni aniqlab, harakatni to'g'ri tashkil qilish;

yong'inni bartaraf qilish — yong'inni batamom o'chirib uning qayta yonish imkoniyatini tugatish;

tezkorlik shtabi — yong'inda kuch va vositalarni boshqarish uchun vaqtincha tuzilgan tuzilma.

2. Yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari yong'inni o'chirish, yong'inlar va avariylarning kelib chiqishi hamda kuchayishining (tarqalishining) oldini olish bilan bog'liq zarur ishlarni amalga oshirishda yong'inni o'chirish maqsadi uchun tabiiy va sun'iy suv manbalaridan suv bilan bepul ta'minlanadi.

3. Asosli tavakkalchilik doirasida harakat qilgan yong'indan saqlash xizmati bo'linmalarining shaxsiy tarkibi va yong'inni o'chirishda qatnashgan boshqa ishtirokchilar yetkazilgan zararining o'rni qoplashdan ozod qilinadi.

II bob. Yong'in o'chirilishini tashkil etish

1-§. Yong'inni o'chirishda foydalaniladigan kuchlar va vositalar

4. Yong'inlarni o'chirishda quyidagi kuchlar va vositalardan foydalaniladi:

Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va uning quyi tizimlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tasarrufidagi ta'lim va o'quv muassasalarining shaxsiy tarkiblari.

idoraviy va ko'ngilli yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari;

harbiy bo'linmalarning shaxsiy tarkiblari;

tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlarining farmoyishlariga asosan tashkilotlarning texnik vositalari;

yong'in o'chirish texnikasi;

suv sepish va yong'inni o'chirishga moslashtirilgan texnikalar;

aloqa, yoritish va transport vositalari.

5. Yong'in o'chirish avtomobillari asosiy, maxsus va yordamchi avtomobillarga bo'linadi.

6. Asosiy yong'in o'chirish avtomobillariga yong'in joyiga yong'in o'chiruvchi moddalarni (suv, ko'pik, kukun, gaz va boshqalar) uzatuvchi avtomobillar kiradi.

7. Asosiy yong'in o'chirish avtomobillari umumiy qo'llaniladigan (aholi punktlarida sodir bo'lgan yong'inlarni bartaraf etish uchun) va maqsadli qo'llaniladigan (neft omborlari, kimyo sanoati, aeroport va boshqa joylarda sodir bo'lgan yong'inlarni bartaraf etish uchun) avtomobil turlariga bo'linadi.

8. Maxsus yong'in o'chirish avtomobillariga yong'inda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, ya'ni shaxsiy tarkibni yuqoriga ko'tarish, aloqa va yoritishni ta'minlash, qurilmalarni ochish, ajratish, tutunga qarshi kurash, mol-mulklarni himoya qilish, kuchlar va vositalarni boshqarish hamda yong'inni o'chirish vaqtida foydalaniladigan boshqa texnikalar kiradi.

9. Yordamchi yong'in o'chirish avtomobillariga yonilg'i quyish, texnik xizmat ko'rsatish, suv tashish uchun mo'ljallangan avtomobillar, yuk tashish avtomobillari, avtobuslar, traktorlar hamda yong'in-qutqaruv qismlari hisobiga kiritilgan yordamchi ish bajaruvchi boshqa avtomobillar kiradi.

10. Yong'inni o'chirish vaqtida aloqa radiotarmoq, telefon, ovoz kuchaytirgich moslamasi, so'zlashish qurilmasi, karnay va boshqalar orqali ta'minlanadi.

11. Yong'inni o'chirishda yoritish ishlari yong'in o'chirish avtomobillarida olib borilgan moslama va qurilmalar yordamida ta'minlanadi.

2-§. Yong'inni o'chirishga yo'lga chiqish

12. Yong'in sodir bo'lganligi to'g'risida xabar olingach, Favqulodda vaziyatlar vazirligining yong'in-qutqaruv bo'linmalari darhol yong'in joyiga jo'nab ketishi shart.

13. Yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari chaqirilgan joyga qisqa vaqtda kelishlari kerak.

14. Yong'in joyiga borilayotganda yong'in o'chirish ekipaji komandiri Navbatchi dispetcherlar xizmati (bundan keyingi o'rinlarda NDX deb yuritiladi) yoki qism tezkor boshqaruv guruhi dispetcherlik xizmati (bundan keyingi o'rinlarda QTBG deb yuritiladi) bilan muntazam aloqada bo'lishi shart.

15. Yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari yong'in joyiga borayotganda yong'in bartaraf etilganligi yoki bartaraf etilmaganligi haqida ma'lumot olsalarda yong'in joyiga yetib kelgan yong'inni o'chirish rahbarining qaytish haqidagi ko'rsatmasi bo'lmasa, yong'in joyiga borishlari shart.

16. Yong'in sodir bo'lgan joyga borishda boshqa yong'in uchrasa, yong'in o'chirish ekipajining bir qismini shu yong'inni o'chirishga ajratib, darhol NDX yoki QTBGga xabar qilinishi lozim.

17. Agar yo'l davomida bosh (birinchi) yong'in o'chirish avtomobillari ayrim sabablarga ko'ra to'xtab qolsa, keyingi yong'in o'chirish avtomobillari ham to'xtab, ushbu avtomobillarga rahbarlik qiladigan boshliqning ko'rsatmasiga asosan harakat qiladilar.

18. Agar ikkinchi yoki keyingi yong'in o'chirish avtomobillari ayrim sabablarga ko'ra to'xtasa, boshqa avtomobillar yong'in sodir bo'lgan joyga borishni davom ettiradilar.

19. Agar yong'in o'chirish avtomobillari ayrim sabablarga ko'ra to'xtab qolsa, yong'in o'chirish ekipaji komandiri yong'in sodir bo'lgan joyga shaxsiy tarkib va yong'in o'chirish vositalarini belgilangan tartibda fuqarolarning transport vositalarida yoki piyoda olib boradi.

20. Yong'in o'chirish avtomobillari bilan yo'l transport hodisasi sodir bo'lgan hollarda yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda harakat qiladi.

21. Yong'in o'chirish avtomobillari ayrim sabablarga ko'ra to'xtab qolgan har qanday holatda ham NDX yoki QTBGga xabar berilishi shart.

3-§. Yong'in holatini aniqlash

22. Yong'in holatini aniqlash yong'in o'chirish ekipajlarining yong'inni o'chirishga chiqqan vaqtdan boshlab to uni bartaraf qilguncha o'tkaziladi.

23. Yong'inida quyidagilar aniqlanishi lozim:

odamlar uchun xavfning bor yoki yo'qligi, ularning turgan joylari, qutqarishning usullari;

yong'in sodir bo'lgan joy, yong'inning o'lchamlari, olovning tarqalish yo'llari;

yong'in joyiga kuch va vositalarni kiritish yo'llari va imkoniyatlari;

portlash xavfi, zaharlanish, binoning qulashi, tez alanganuvchi va portlovchi moddalar hamda kuchlanish ostidagi elektr qurilmalarning bor yoki yo'qligi;

mol-mulklarni xavfsiz joyga olib chiqish, ularni olovdan, tutundan va yong'in o'chirish vositalari ta'siridan saqlash zarurati;

bino qismlarini ochish va ajratish zarurati;

yong'in joyiga yaqin bo'lgan suv manbalari va ulardan foydalanish usullari;

joylarda o'rnatilgan yong'in o'chirish qurilmalarining borligi va ularning texnik holati, ulardan foydalanish tartibi.

Yong'in holatini aniqlash vaqtida vaziyatga qarab boshqa vazifalar ham bajarilishi mumkin.

24. Yong'in holatini aniqlash yong'inni o'chirish rahbari yoki uning topshirig'iga binoan boshqa shaxs tomonidan o'tkaziladi.

25. Yong'in holatini aniqlovchilar tarkibiga quyidagilar kiradi:

yong'inga bitta yong'in o'chirish ekipaji kelgan bo'lsa, yong'in o'chirish ekipaji komandiri va aloqachi;

yong'inga ikki va undan ortiq yong'in o'chirish ekipaji kelgan bo'lsa, birinchi yong'in o'chirish ekipaji komandiri va aloqachi.

26. Bir vaqtning o'zida har xil yo'nalishda yong'in holatini aniqlash zarurati tug'ilsa, yong'in holatini aniqlash bo'yicha guruhlar tuziladi.

Har bir guruh kamida ikki kishidan iborat bo'lib, uni yong'in o'chirish ekipaji komandiri boshqaradi.

Agar yong'in holatini aniqlash himoyalovchi gazniqobda o'tkazilsa, guruh kamida uch kishidan iborat bo'lishi lozim.

27. Yong'in joyida (ichida) odamlarning borligi haqida ma'lumot bo'lsa, yong'indan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish maqsadida yong'in holatini aniqlash guruhlarining soni ko'paytiriladi.

4-§. Yong'inida odamlarni qutqarish

28. Qutqaruv ishlari quyidagi holatlar yuzaga kelganda tashkil qilinadi va o'tkaziladi, agar: odamlarga olov, yuqori harorat, portlash xavfi yoki binoning qulashi xavfi bo'lganda, ular turgan xonalar tutun yoki zaharli gazlar bilan to'lgan bo'lsa;

odamlar o'zlari xavfli joydan chiqolmay qolsa.

29. Yong'inida odamlarni qutqarish yong'inni bartaraf etish bilan bir vaqtda o'tkaziladi.

Agar bir vaqtning o'zida odamlarni qutqarish va yong'inni bartaraf etishga kuch va vositalar kamlik qilsa, odamlarni qutqarish uchun Favqulodda vaziyatlar vazirligi yong'in-qutqaruv bo'linmalarining barcha shaxsiy tarkibidan foydalaniladi hamda qo'shimcha kuch va vositalar chaqiriladi.

30. Odamlarni qutqarish uchun:

binolarning asosiy kirish va chiqish hamda zaxira yo'llaridan;
derazalar, ayvonchalar, yong'in o'chirish narvonlari, avtonarvonlar, avtoko'targichlar va boshqa qutqarish qurilmalaridan;

yong'in o'chiruvchilar tomonidan ochilgan to'siq va devor tuynuklaridan foydalaniladi.

31. Odamlarni qutqarish va xavfsiz joyga olib chiqish quyidagilardan iborat:

odamlarni xavfsiz yo'nalish bo'ylab o'zlari yoki yong'in o'chiruvchilar kuzatuvda chiqarish;
harakat qilolmaydigan odamlarni olib chiqish;

qutqaruv yo'llarining olov yoki tutun bilan to'silib qolib, chiqib ketishning iloji bo'lmasa, odamlarni narvonlar, avtonarvonlar, avtoko'targichlar va texnik qutqaruv qurilmalari yordamida qutqarish.

32. Qutqaruv ishlari o'tkazilayotganda:

xabar berish va boshqa texnik vositalardan foydalangan holda sarosimaga tushmaslikning oldini olish chorasini ko'rish;

qutqaruv ishlariga tashkilotlarning xodimlarini va ko'ngilli yong'in o'chirish drujinalarini (bundan keyingi o'rinlarda KYoO'D deb yuritiladi) jalb etish;

tez tibbiy yordam chaqirish hamda yong'indan jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish zarur.

33. Yong'in sodir bo'lgan binoda odamlarning qolganligi haqida ma'lumot bo'lsa, binodagi barcha yonayotgan va tutunga to'lgan xonalar sinchiklab tekshiriladi.

34. Qutqarishga muhtojlarning yo'qligi aniqlangandan so'ng odamlarni qidirish ishlari to'xtatiladi.

5-§. Kuch va vositalarning yoyilishi

35. Kuch va vositalarning yoyilishi o'tkazilayotganda odamlarni qutqarish va ularni xavfsiz joyga olib chiqish ishlariga xalaqit bermasligi kerak.

36. Yong'in o'chirish yenglarini yoyishda yong'in o'chog'iga o'tish uchun binoning barcha kirish eshiklaridan va o'rnatilgan narvonlardan foydalanish lozim.

37. Kuch va vositalarning yoyilishi quyidagi bosqichlardan iborat:

yoyilishga tayyorgarlik;

dastlabki yoyilish;

mukammal yoyilish.

38. Yong'inga yetib kelgan yong'in o'chirish ekipajlarining kuch va vositalarning yoyilishiga tayyorgarlik ko'rish bilan yong'in holatini aniqlash ishlari birgalikda o'tkaziladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

yong'in o'chirish avtomobilini suv manbaiga o'rnatish, suv so'rish yenglarini ulab, nasosga suv olish;

yong'in joyining sharoitiga ko'ra boshqa tayyorgarlik choralarni o'tkazish.

39. Yong'in o'chirish avtomobilini yoyilishga tayyorlash (suv manbasiga o'rnatmasdan) nasosni ishchi holatiga keltirib, yong'in o'chirish yenglarni dastakka va nasosga ulashdan iborat.

40. Dastlabki yoyilishda yong'in o'chirish yenglarini o'tkazish va suv ayirgichni o'rnatish, suv ayirgich oldiga yong'in o'chirishga kerakli bo'lgan yenglar, dastaklar, narvonlar va boshqa yong'in o'chirish texnik qurollari keltiriladi.

41. Mukammal yoyilish yong'in o'chirish ekipajining yong'inga yetib kelishi bilan sharoitga qarab, darhol o'tkazilishi mumkin hamda yoyilishga tayyorgarlik va dastlabki yoyilishdan keyin o'tkaziladi.

42. Kuch va vositalarning yoyilishida yong'in o'chirish avtomobillari va yong'in o'chirish vositalarining joylashishi yetib kelgan kuch va vositalarning yoyilishiga xalaqit bermasligi, shuningdek yong'in o'chirish yenglari yong'in joyiga yaqin bo'lgan joylarda harakatni qiyinlashtirmasligi lozim.

43. Yong'inni bartaraf etishdagi harakatlarni ta'minlash uchun sharoitga qarab qo'l narvonlaridan, avtonarvonlardan, avtoko'targichlardan foydalaniladi.

Yong'in o'chirish narvonlarini alanga chiqib turgan derazalar qarshisiga o'rnatishga faqat suv sepib turilgan vaqtdagina ruxsat etiladi.

44. Narvonlarni boshqa joyga ko'chirish shu narvondan ko'tarilgan shaxsiy tarkibga ma'lum qilinib va ularga qaytish yoki boshqa joyga o'tish yo'lini ko'rsatilgandan so'ng bajariladi.

6-§. Yong'inni o'chirish

45. Yong'in vaqtida quyidagi holatlar bo'lishi mumkin:

odamlarning ko'pligi, yordamga muhtojligi;

binolar qurilishining murakkabligi;

tik va qiya yo'nalishlarda texnologik qurilmalar, yonuvchi materiallar, ayvonlar, tuynuklar, derazalar, bo'shliqlar va ventelatsiya tizmalari orqali olovning tarqalishi;

haroratning tez ko'tarilishi va issiq havo oqimlarining ochiq joylarga o'tishi;

modda va materiallarning issiqlik ta'sirida gaz-bug' havo aralashmasini hosil qilishi;

tutun, zaharli gazlarning ajralishi va ularning tez tarqalishi;

elektr kuchlanishi ostidagi asboblarning mavjudligi;

bosim ostida turgan idish va asbob sig'imlarining portlashi;

bino, qurilma va texnologik uskunalarning buzilishi hamda qulashi;

bino ichida ko'p miqdorda ilmiy, moddiy va boshqa qimmatbaho boylıklarning mavjudligi.

46. Yong'inni quyidagi usullar orqali o'chirish mumkin:

kuch va vositalarni hal qiluvchi yo'nalishga kiritish;

yong'in o'chirish vositalarini uzluksiz ta'minlash;

yonayotgan materiallar ustiga sovutuvchi yong'in o'chirish vositalarini uzatish;

yong'in maydonida yoki uning atrofida yonmaydigan gaz yoki bug' aralashmalarini hosil qilish va yong'in jarayonini kimyoviy to'xtatish;

yong'inni o'chirish vositalari yordamida yonayotgan material atrofida yoki yong'in maydonida va havo orasida himoya qatlamini hosil qilish.

47. Yong'inda odamlarga xavf solishini, portlash xavfini, olovning tez tarqalishini hamda yong'in o'chirishni ta'minlaydigan harakat hal qiluvchi yo'nalish hisoblanadi.

Kuch va vositalar hal qiluvchi yo'nalishga kiritilgandan so'ng boshqa yo'nalishlarga joylashtiriladi.

48. Yong'inda harakatlarning hal qiluvchi yo'nalishini ta'minlash uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

yong'in insonlar hayotiga xavf solsa va ularni qutqarishga dastaklarni berish zarurati bo'lsa, kuch va vositalar qutqaruv ishlarini bajarish uchun joylashtiriladi;

portlash xavfi tug'ilganda, yong'in o'chirish ekipajlarining harakati qayerda portlash xavfining oldini olishni ta'minlasa, kuch va vositalar o'sha yerga joylashtiriladi va kiritiladi;

binoning bir qismi alanga bilan qoplangan bo‘lib, olov uning boshqa qismlariga yoki qo‘shni binolarga tarqalayotgan bo‘lsa, kuch va vositalar shu tomonga joylashtiriladi hamda olovning tarqalishi ko‘p zarar keltiradigan tomonga kiritiladi;

yakka bino alanga bilan qoplanib, qo‘shni binolarga tarqalish xavfi bo‘lmasa, asosiy kuch va vositalar yong‘inning eng jadal sur‘atlar bilan yonayotgan joyiga kiritiladi;

bino alanga bilan o‘ralib yonayotgan joy muhim ahamiyatga ega bo‘lmasa va yaqin turgan binoga o‘tish ehtimoli bo‘lsa, kuch va vositalar ushbu bino tomonidan kiritiladi.

49. Yonayotgan xonada va uning yonidagi xonalarda tutun, gaz bo‘lgan taqdirda yong‘in o‘chirish bilan birgalikda ushbu xonalardan gaz va tutunni chiqarib yuborish choralari ham ko‘riladi. Bunda tutunlarni tortish uchun maxsus tutun tortuvchi va shamollatuvchi qurilmalar, ventilyator va brezent qopchiqlardan foydalaniladi.

50. Shaxsiy tarkib egallab turgan yong‘in o‘chirish uchastkasidan (bundan keyingi o‘rinlarda YoO‘U deb yuritiladi) faqat yong‘inni o‘chirish rahbari yoki YoO‘U boshlig‘ini ruxsati bilan YoO‘Udan ketishi mumkin.

Yong‘inni bartaraf etish uchun birinchi navbatda ichki yong‘in o‘chirish jo‘mraklari, o‘rnatilgan yong‘in o‘chirish qurilmalaridan foydalaniladi.

51. Nafas olishga yaroqsiz muhitda yong‘in o‘chirish ishlari himoyalovchi gazniqoblarda o‘tkaziladi, tutun tortgichlar va yoritish vositalaridan foydalaniladi hamda ko‘pik yoki sachratma suv berish yo‘li bilan yuqori haroratni pasaytirish choralari ko‘riladi.

52. Yer osti inshootlarida yong‘in o‘chirish vaqtida nasos-eng tarmoqlarini bir maromda ishlashi uchun nasos bosimi inshootning chuqurligiga mos ravishda pasaytiriladi.

Zaxira yong‘in o‘chirish yengllari birinchi navbatda hal qiluvchi yo‘nalishda ishlayotgan dastaklarga tortiladi.

53. Yong‘inni o‘chirish vaqtida qurilish inshootlari (ustunlar, tirgovuchlar, to‘siqlar) holati kuzatiladi va ular yuqori harorat ta‘siridan himoya qilinadi.

54. Yonayotgan tom va uning tagida shaxsiy tarkibning to‘planishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

55. Zaruriyat tug‘ilganda, elektr va gaz tarmoqlarini uzib qo‘yish choralari ko‘riladi.

56. Yong‘inni o‘chirish vaqtida binolarning bo‘shliqlari, shamollatish, axlat tashlash va boshqa tuynuklari tekshiriladi.

57. Kuchaygan yong‘inni o‘chirishga “A” dastagi orqali suv beriladi, so‘ngra uni lafet dastakka almashtiriladi, yong‘in bartaraf etish oxirida esa yanada kichikroq dastakka almashtiriladi.

58. Bino inshooti bo‘shliqlarida va shamollatish tuynuklaridagi yong‘inlarga “B” dastagi va ko‘pik dastaklari orqali suv va ko‘pik beriladi.

59. Birinchi yetib kelgan yong‘in o‘chirish avtomobili orqali yong‘in joyiga yaqin o‘rnatilib hal qiluvchi yo‘nalishga suv beradi, keyingi kelgan yong‘in o‘chirish avtomobili esa yaqindagi suv manbaiga o‘rnatilib undan asosiy yeng yo‘llari tortiladi.

Birinchi avtomobilda suv tugagach, suv berilayotgan dastak suv manbaiga o‘rnatilgan ikkinchi avtomobildan tortilgan asosiy yeng yo‘lidagi suv ayirgichga ulanadi.

60. Suvni bir-biriga oshirib berish holatida, kerakli yong‘in o‘chirish avtomobillarining soni, asosiy yeng yo‘llarini o‘tkazish usullari aniqlanadi. Quvvati kuchli nasosga ega bo‘lgan yong‘in o‘chirish avtomobillari suv manbaiga o‘rnatiladi va undan yong‘in joyiga asosiy yeng yo‘li tortiladi.

61. Yonayotgan xonani ko‘pik bilan to‘ldirishda yong‘inni o‘chirish rahbari quyidagilarni aniqlaydi:

ko‘pik to‘ldiriladigan xonaning hajmini;

ko‘pik oqishga xalaqit beruvchi to‘siqli qurilmalarni;

kerakli miqdordagi ko‘pik hosil qiluvchi modda, ko‘pik dastaklari va ularni o‘rnatish joyini;

ko'pikning belgilangan yo'nalishda harakatlanishiga sharoit yaratish uchun tutun tortish moslamalarini joylashish joyini.

62. Ortiqcha suv quymaslik uchun quyidagilar zarur:

ko'pik, kukun, aralashmali suvlar va jo'mrakli dastaklarning ishlatilishi;
suv berishni o'z vaqtida tugatish yoki dastaklarni tashqariga olib chiqish.

63. Yong'inda odamlarga xavf yo'q bo'lib hamda yong'in tarqalishi cheklangan bo'lib, kuch va vositalar bilan yong'in bartaraf qilinishi ta'minlangan bo'lsa, yong'in qurshab olingan hisoblanadi.

64. Yong'in o'chirilgan va qayta yong'in hosil bo'lishining oldini olish ehtiyot choralari ko'rilgan taqdirda yong'in bartaraf qilingan hisoblanadi.

65. Kuch va vositalarning qisqartirilishi yong'in bartaraf qilingandan keyin yoki yong'inda ishlar hajmi kamaygandan so'ng amalga oshiriladi.

66. Yong'in xavfsizligi qismiga qaytib kelingandan keyin qisqa vaqt ichida yong'in o'chirish texnikasi va vositalarini tayyor holga keltirish chora-tadbirlari ko'rilishi lozim.

7-§. Yong'inda maxsus ishlarni bajarish

67. Yong'inda maxsus ishlarga nafas olishga yaroqsiz muhitda ishlash, tutun tortish, binolarni buzish, elektr asboblarni uzish, yong'in joyini yoritish, ortiqcha suv berilishidan himoya qilish va boshqalar kiradi.

68. Nafas olishga yaroqsiz muhitda ishlayotganda quyidagilar zarur:

bir xil gazniqoblardagi 3 — 5 kishidan iborat gaz va tutundan himoya qilish xizmati guruhining (bundan keyingi o'rinlarda GTHX guruhi deb yuritiladi) tuzilishi (yong'inni o'chirish rahbari qarori bilan kechiktirib bo'lmaydigan qutqaruv ishlarini bajarishda 2 kishidan iborat bo'lishi mumkin);

GTHX guruhi boshlig'ining doimiy ravishda xavfsizlik posti bilan aloqada bo'lishi va u orqali yong'inni o'chirish rahbariga, YoO'U boshlig'iga yoki tekshirib o'tkazish joyi (bundan keyingi o'rinlarda TO'J deb yuritiladi) boshlig'iga vaziyat hamda o'zining harakati haqida axborot berib turishi;

metrolar, yer osti yo'llari, katta uzunlikdagi yer osti inshooti va to'qqiz qavatdan yuqori bo'lgan binolarga bir yo'la ikkitadan kam bo'lmagan GTHX guruhlarining yuborilishi. Bunda xavfsizlik postida bitta to'liq GTHX guruhi nafas olishga yaroqsiz sharoitda ishlayotgan yong'in o'chirish ekipajiga favqulodda yordam berish uchun qo'yiladi.

69. Katta, murakkab va uzoq davom etadigan yong'inlarda, agar bir nechta GTHX guruhlari ishlayotgan bo'lsa, yong'inni o'chirish rahbari TO'Jni tashkil qiladi.

70. TO'Jga rahbar etib tayyorgarlikdan o'tgan tajribali shaxs yong'inni o'chirish rahbari tomonidan tayinlanadi.

71. Yong'in vaqtida GTHX guruhi ishiga quyidagilar boshchilik qiladilar:

agar bitta ekipaj ishlayotgan bo'lsa, yong'in o'chirish ekipaji komandiri;

agar bir vaqtda bir necha yong'in o'chirish ekipajlari ishlayotgan bo'lsa, yong'inni o'chirish rahbari tayinlangan boshliqlar tarkibidan biri yoki YoO'U boshliqlari.

72. Binolarni ochish va buzish quyidagi maqsadda amalga oshiriladi:

odamlarni qutqarish va ularning mol-mulklarini xavfsiz joyga olib chiqish hamda yong'in o'chog'iga yoki bino ichiga kirib suv berish;

olov tarqalishini cheklash uchun yong'in xavfsizligi oraliqlari hosil qilish va tutunlarni chiqarib yuborish;

binolarning qulash xavfini bartaraf qilish.

73. Yashirin yong‘inlarni aniqlash tutun chiqarish va yong‘in o‘chirish vositalarini qo‘llash uchun binolardagi yong‘in o‘chirish vositalari tayyor holga keltirib qo‘yilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Yong‘in xavfsizligi oraliqlarini hosil qilish ishlari olov oraliqqa yetib kelgunga qadar tugallanishi lozim.

74. Binolarni ochish va buzish ishlari bajarilayotganda, bino qurilmasi asosiga, gaz va issiqlik qurilmalariga hamda elektr tarmog‘iga zarar yetkazmaslik choralari ko‘riladi.

75. Binolarni buzish vaqtida yuqoridan pastga tashlanayotgan bo‘laklar tushadigan joy o‘rab olinishi va bo‘laklarning tushishi nazorat qilinishi kerak.

76. Xonani yoritishda elektr yoritgichlardan yoki aloqa va yorituvchi avtomobildagi projektorlardan foydalaniladi. Bunda projektorlar xonaning kirish eshigi yaqiniga o‘rnatiladi.

77. Yoritish vositalari yong‘in vaqtida quyidagi qoidalarga rioya qilingan holda o‘rnatiladi:

odamlarni xavfsiz joyga olib chiqish yo‘llarining yoritishi;

portlash xavfi sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xonalarning tashqaridan yoritilishi, xonalarga yoritish vositalarining faqat yong‘in bo‘layotganda olib kirilishi;

quyuq tutunli, maydoni katta xonalarga kuchli quvvatga ega bo‘lgan projektorlarning o‘rnatilishi, ba‘zi hollarda yoritgichlar xonada ishlayotganlar uchun yo‘l ko‘rsatish vazifasini bajarishi;

projektorlar, o‘tkazgich qutichalari, kabelga ulanish tarmoqlari va boshqa ulovchi moslamalar suv tegmaydigan hamda binodan qulayotgan bo‘laklar tegib ketmaydigan joylarga o‘rnatilishi.

78. Yong‘in joyida kuchlanish ostida turgan elektr o‘tkazgichlar va qurilmalar quyidagi hollarda uzib qo‘yiladi:

shikastlangan va yong‘inda ishlayotganlar uchun xavfli bo‘lsa;

suv tegishi natijasida yangi yong‘in o‘chog‘ini hosil qilishi mumkin bo‘lsa;

yong‘in o‘chirishga va binolarni ochib buzishga xalaqit qilsa.

79. Yuqori kuchlanish ostida bo‘lgan elektr asboblari tegishli elektr tarmoqlari xizmati xodimlari tomonidan uziladi.

80. Kuchlanishi 220 Vdan oshmagan elektr asboblari yong‘inni o‘chirish rahbari, YoO‘U boshlig‘i va yong‘in o‘chirish ekipaji komandiri rahbarligida yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalari shaxsiy tarkibi tomonidan uzib qo‘yiladi.

Agar uzib qo‘yish uchun o‘chirish qurilmasi (rubilnik) bo‘lmagan holda, elektr o‘tkazgich simlari maxsus qaychida, belgilangan qoida asosida, ehtiyotkorlik bilan uzib qo‘yiladi.

8-§. Yong‘inda kuch va vositalarni boshqarish

81. Yong‘inda kuch va vositalarni boshqarish yong‘inni o‘chirish rahbarining asosiy vazifasi bo‘lib, vaziyatni to‘g‘ri baholab, yong‘inni bartaraf etishdagi harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishdan iboratdir.

82. Yong‘inni o‘chirish rahbari yong‘inni o‘chirish harakatlarini bajarishda ishtirok etayotgan yong‘indan saqlash xizmatining shaxsiy tarkibiga, shuningdek yong‘inni o‘chirishga jalb etilgan kuchlar va vositalarga yakkaboshchilik asosida rahbarlik qiladi.

83. Yong‘in o‘chirilayotganda yong‘in o‘chirish rahbarining harakatlariga aralashishga yoki uning farmoyishlarini bekor qilishga hech kim haqli emas.

84. Yong‘inni o‘chirish rahbari bo‘lib quyidagilar hisoblanadilar:

yong‘inni bartaraf qilishda bitta yong‘in o‘chirish ekipaji ishlayotgan bo‘lsa, ekipaj komandiri;

tegishli hududda sodir bo‘lgan yong‘inni bartaraf etishga bir nechta yong‘in o‘chirish ekipajlari jalb etilgan bo‘lsa, shu hududning rahbari yoki garnizonda belgilangan tartibda

ko'rsatilgan shaxs, agarda yong'in joyiga Tezkor boshqaruv xizmatining navbatchi guruhi yetib kelsa, ushbu guruhning katta rahbari.

85. Yong'in joyiga yetib kelgan yong'in o'chirish rahbari quyidagilarni bajaradi:

vaziyatni aniqlash va yong'in o'chirishni to'g'ri tashkil qilinganligini hamda qo'shimcha kuch va vositalarning chaqirilishi lozimligini aniqlash;

yong'in o'chirish rahbarligini o'z zimmasiga olish.

86. Yong'in joyiga kelgan yuqori turuvchi rahbar yong'inning o'chirilishiga javobgarlikni o'z zimmasiga olishi lozim. Bunda yuqori turuvchi rahbar yong'inni o'chirish boshqaruvini o'z zimmasiga olganligini e'lon qiladi.

87. Yong'inda kuch va vositalarni boshqarish uchun yong'inni o'chirish rahbari vaziyatga qarab tezkorlik shtabi va YoO'Ularini tashkil qilishi mumkin.

88. YoO'Ular ish turlari bo'yicha (o'chirish, himoyalash, qutqarish va boshqalar) binoning qavatlarida, zinapoyalarida, yong'inga qarshi to'siq va oraliqlarda yoki yonayotgan binoning chegarasida tashkil qilinishi mumkin.

89. Yong'inda ikki va undan ortiq yong'in o'chirish ekipajlari ishlayotgan bo'lsa, yong'in sodir bo'lgan tuman (shahar) yong'in xavfsizligi qismining kichik yoki o'rta boshliqlari tarkibidan biri ta'minot boshlig'i etib tayinlanadi.

90. Yong'inda vaziyat to'satdan o'zgarib qolsa va yong'inni o'chirish rahbaridan buyruq olishning imkoni bo'lmasa, yong'in joyidagi tegishli boshliqlar (rahbarlar) oqilona tashabbus ko'rsatib harakat qilishlari lozim. Yong'inni o'chirish rahbaridan tegishli buyruq olmaganlik harakat qilmaslikka sabab bo'lmaydi.

9-§. Tezkorlik shtabi

91. Yong'inni o'chirish vaqtida tezkorlik shtabi quyidagi hollarda tuziladi:

katta, murakkab va uzoq davom etadigan (5 soatdan ko'p) yong'inlarda;

uch va undan ortiq YoO'Ular tashkil qilinganda hamda kuch va vositalar yuqori chaqiriq bo'yicha jalb qilinganda;

tashkilotlarda yong'inlarni o'chirishda muhandis-texnik xodimlar va tashkilot ma'muriyati bilan kelishish zarur bo'lganda;

vaziyatga ko'ra yong'inni o'chirish rahbarining tegishli qarori qabul qilinganda.

92. Tezkorlik shtabi tarkibiga shtab boshlig'i, ta'minot boshlig'i va tashkilot ma'muriyati hamda boshqa xizmatlar vakillari kiradi.

93. Katta, murakkab va uzoq davom etadigan yong'inlarda tezkorlik shtabi boshlig'i o'rinbosarlari tayinlanishi mumkin.

94. Tezkorlik shtabi quyidagilarni tashkillashtiradi:

kelayotgan yong'in o'chirish ekipajlarini kutib olish, YoO'Ularga bo'lish va joylashtirishni;

yong'in holati va vaziyatini o'zgarishi haqida ma'lumot yig'ib, yong'inni o'chirish rahbariga axborot berishni;

yong'inda zaxira kuch va vositalarini tuzishni;

yong'in sodir bo'lishi sabablari va keltirilgan zarar haqida ma'lumot yig'ishni;

yong'inda aloqa ishlarini tashkil qilishni va zarurat tug'ilsa, yong'in sodir bo'lgan joyni yoritishni;

yong'inni o'chirish rahbari farmoyishlarini bajarishni;

jalb qilingan kuch va vositalarning o'zaro harakatlarini tashkil qilish va belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qilishni;

yong'inda vaziyat o'zgarishini uzluksiz kuzatish va tegishli qarorlar qabul qilishni;

NDX bilan uzluksiz aloqada bo‘lib, vaqti-vaqti bilan qabul qilingan tegishli qarorlar, qanday kuch va vositalarning ishlayotganligi, yong‘inning tarqalish xavfi bor yoki yo‘qligi, qo‘shimcha kuch va vositalarning zarurati va yong‘indagi vaziyat haqida axborot berib turishni;

yong‘inga yuqori turuvchi rahbar yetib kelganda, unga vaziyat haqida, yong‘inni o‘chirish uchun qabul qilingan tegishli qarorlar, qanday kuch va vositalarning mavjudligi, qo‘shimcha kuchlar va vositalarning chaqirilganligi haqida axborot berishni;

zaxira kuch va vositalarni tashkil qilish, ishlayotganlarni vaqtida almashtirib turish, ularga dam olish, isinish va quruq kiyim-boshlarni almashtirib olishga imkoniyat yaratib berishni;

boshliqlar tarkibidan texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishiga javobgar shaxsni tayinlashni, lozim bo‘lsa, tibbiy yordam tashkil qilishni;

yong‘inga jalb qilingan kuch va vositalar har xil yo‘nalishda kelgan bo‘lsa, ta‘minot boshlig‘iga aloqa vositasiga ega bo‘lgan yordamchi berishni;

yong‘in o‘chirishga jalb etilgan boshqa maxsus xizmat xodimlari bilan hamkorlikda ishlashni tashkil qilish, tashkilot muhandis-texnik xodimlari bilan uzviy aloqada bo‘lish va tashkilot yo‘riqnomalari ko‘rsatmalarini hisobga olgan holda yong‘in o‘chirish vositalari va usullarini qo‘llash haqida tegishli qaror qabul qilishni;

GTHX guruhining xavfsizlik postlarini va TO‘Jlarini tashkil qilishni;

uzoq davom etuvchi yong‘inlarda ovqatlanishni, havo harorati past bo‘lganda shaxsiy tarkibni isinishini va issiq bo‘lganda issiq urishidan saqlashni.

95. Tezkorlik shtabi kuch va vositalarni boshqarish uchun qulay bo‘lgan joyga joylashtirib, shtab stoli, texnik vosita va qurilmalar bilan ta‘minlanadi.

96. Tezkorlik shtabi joylashgan joy kunduzi “ShTAB” so‘zi yozilgan bayroqcha bilan, kechasi esa qizil fonus yoki boshqa qizil chiroqli ko‘rsatgich bilan belgilanadi.

97. Yong‘inda ishlayotgan yong‘inni o‘chirish rahbari, tezkorlik shtabi boshlig‘i, ta‘minot boshlig‘i, YoO‘U boshlig‘i va aloqachilarning chap qo‘lida tegishli bog‘ichlar bo‘lishi kerak.

10-§. Yong‘inda aloqani tashkil qilish

98. Aloqa yong‘inni o‘chirish rahbari, tezkorlik shtabi, NDX va QTBG orasida ratsiya yoki telefon orqali o‘rnatiladi.

Zarurat tug‘ilsa, aloqa ta‘minot va YoO‘U boshliqlari hamda yong‘in o‘chirish avtomobillari orasida ham o‘rnatiladi. Buning uchun ratsiya, dala aloqa tarmog‘i, so‘zlashuv, ovoz kuchaytirgich qurilmasi, karnay va boshqa texnik vositalardan, agar aloqa vositalarini ishlatishni iloji bo‘lmasa, boshqaruv belgilaridan foydalaniladi.

99. Tezkorlik shtabi telefon tarmog‘idan foydalanayotgan vaqtda ushbu tarmoqdan boshqa foydalanuvchilar uzib turiladi.

100. Radio aloqa vositalaridan foydalanilayotganda, radio aloqa qoidalariga rioya qilinishi ta‘minlanishi shart.

III bob. Yakuniy qoidalar

101. Mazkur Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

102. Ushbu Nizomda nazarda tutilgan yong‘in o‘chirishni to‘g‘ri tashkil etilishi ustidan nazorat Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Yong‘in deganda nima tushuniladi?
2. Yong‘inning davomiyligi nimalarga bog‘liq?
3. Yong‘inning xavfli va zararli omillari nima?
4. Yong‘inni o‘chirish moddalariga nimalar kiradi?

5. Yong'inni o'chiruvchi moddalarning klassifikatsiyasini ayting?
6. Yong'inni oldini olish tadbirlarini ayting?
7. Ishlab chiqarishda ishlatiladigan moddiyalar yonish xususiyati bo'yicha necha turga bo'linadi va ular qaysilar?
8. Yong'in xavfli zonalarga qanday zonalar kiradi?
9. O't o'chirgichlarning vazifasi nima?
10. Yong'inni aniqlashning avtomatik vositasi nima?

Mavzu: YONG'INNI O'CHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARI

Reja;

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Yong'indan xabar beruvchi avtomatik tizimlar.
3. Yong'inga qarshi himoya sistemasi.
4. O't o'chirgichlar, o't o'chirish qurilmalari va mashinalari.
5. Yong'inni o'chirishning avtomat vositalari.

Umumiy ma'lumotlar

Yong'inni o'chirish **uslublari** va o't o'chirgich moddalarning xususiyatlariga mos ravishda yong'inni o'chirish vositalari tanlab olinadi.

Uslub - tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda birbirilaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Ular asosiy, maxsus va yordamchi vositalarga bo'linadi. Asosiy vositalar - yong'inga o't o'chirgich moddalarni (suv, ko'pik, kukun, karbonat angidrid gazi va boshq.) sepish uchun belgilangan. Bularga avtomobil, avtosisterna, motopompa, o't o'chirgichlar va boshqalar kiradi.

Maxsus vositalar - yong'inni o'chirishda maxsus ishlarni bajarish uchun ishlatiladi. Ularga avtonarvonlar va tirsakli ko'targichlar, yoritish va aloqa avtomobillari, shuningdek operativ avtomobillar kiradi.

Yordamchi vositalar - yong'inni o'chirishdagi ishlarni bajarish uchun yetarli sharoit yaratadi. Bularga avtosuv quygichlar, yuk avtomobillari, avtobuslar, traktor va boshqa mashinalar kiradi.

Birlamchi o't o'chirish vositalari yong'in boshlanganda alangani keng tarqalib ketmasligini to'xtatish va o'chirish uchun qo'llaniladi.

Ishlab chiqarish korxonalariga va qishloq xo'jaligi mashinalari uchun zarur bo'lgan birlamchi o't o'chirish vositalariga talab O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi Vazirligining 1998 yil 12 iyundagi № 44 3-5-21 sonli qaroriga asosan aniqlanadi.

O't o'chirgichlar - yong'in boshlanish vaqtida o'chirish uchun qo'llaniladi. O't o'chiruvchi moddalarning tarkibiga qarab o't o'chirgichlar ko'pikli, suyuq, kukunsimon guruhlarga bo'linadi.

Ko'pikli o't o'chirgichlar - kimyoviy ko'pikli va mexanikaviy-havo turlarga bo'linadi. Kimyoviy ko'pikli o't o'chirgich OXP-10 yona boshlagan qattiq materiallarni, maydoni 1 m² dan oshiq bo'lmagan turli yonuvchi suyuqliklarni o'chirish uchun qo'llaniladi. OXP-10 o't o'chirgich payvandlangan po'lat idishdan 128 iborat. Uning usti cho'yan qopqoq berkitkich tuzilma bilan kavsharlangan. Shtok prujinasiga rezinali klapan qo'yilgan bo'lib, qo'l ushlagich berk vaziyatida kislotali stakan og'ziga klapani siqib turadi. qo'l ushlagich yordamida klapani ko'tarib tushiriladi. O't o'chirgichning purkagichi maxsus membrana bilan berkitilgan bo'lib, undan zaryad to'la aralashmasdan chiqmaydi. Zaryadning kislotasolingan stakani o't o'chirgichning og'ziga o'rnatilgan. O't o'chirgichni ishlatish qoidalari va uning asosiy ma'lumotlari korpusga

yopishtirilgan yorliqda bayon etilgan. Kimyoviy ko'pik o't o'chirgichlar bir yilda kamida bir marta qayta zaryadlanadi. O't o'chirgichning ishlash vaqti 50-70 sek, sochish uzunligi 6-8 m, ko'pik miqdori 40-55 l, kengayish darajasi 6 marta va turg'unligi 40 daqiqa.

OXP-10 ko'l o't o'chirgichi OVP-10 havo-ko'pikli Karbonat angidridli o't o'chirgich o't o'chirgich

OVP-5 va OVP-10 havo-ko'pikli qo'l o't o'chirgichlar turli moddalar va materiallar yona boshlaganda o'chirish uchun belgilangan. Uni ishqoriy metallar, moddalar, havosiz yonuvchi jismlar va tok ostida bo'lgan elektr qurilmalarni o'chirishda qo'llanilmaydi. Ularning o't o'chirish samaradorligi bir xil hajmdagi kimyoviy ko'pikli o't o'chirgichlarga nisbatan 2,5 marta ortiq. Neytral zaryadni amaliy qo'llanilishi yong'inni o'chirishdagi o't o'chirgichning atrofidagi jismlar uchun zararsizdir. Chunki yong'in o'chirilgandan so'ng havo-mexanikaviy ko'pik butunlay izsiz yo'qoladi. OVP-5 va OVP-10 bir-biridan faqat korpusning hajmi bilan farq qiladi.

Karbonat angidrid gazli o't o'chirgichlarda (OU-2, OU-5, OU-8 ko'l va OU-25, OU-80 aravachaga o'rnatilgan ko'chma) karbonat angidrid (SO₂) o't o'chirgich zaryadi hisoblanadi. Ularning tuzilishi bir-biriga o'xshash. Belgidagi son qiymati idishning hajmini litrda ifodalanishini ko'rsatadi. O't o'chirgichlar siqilgan gaz bilan to'ldirilgan bo'lib, tok o'tkazmaydi. Shuning uchun ular tok ostida bo'lgan elektr qurilmalarni va katta bo'lmagan yong'inni o'chirish uchun mo'ljallangan. O't o'chirgich po'lat idishning konusli rezbasiga sifon nay bilan latun ventil burab qotirilgan. O'tni o'chirishda uni ishlatish uchun ventil maxovikni o'ng tomonga oxirigacha buraladi. Uning trubkasidan chiqayotgan gaz yonuvchi jismga ventolni ochishdan oldin ro'para qilinadi. Kukunli o't o'chirgichlar. Sanoatda OP-1 "Sputnik", OP-1 "Turist", OP-2 va OP-10 kukunli o't o'chirgichlar ko'p ishlab chiqariladi. Ularda zaryad sifatida quruq kukunlar olinadi. Kukunlar yonish doirasida kislorodni siqib chiqarib alangani mexanik ravishda o'chiradi. Ular avtomobillar, ishqoriy tuproq, metallar, tok ostida bo'lgan elektr qurilmalar, birdaniga 129 tez alanganuvchi va yonuvchi suyuqlik va gazlarni o'chirishda qo'llaniladi. Kukunning kamchiligi-sovitish xususiyati past. Shuning uchun kukun bilan o'chirilganda qizigan jismlar yana alanganib yonishi mumkin.

To'siqlar imoratlar orasidagi masofadan 100 m o'tga xavfli materiallar saqlanadigan joydan 50 m oraliqda qo'yiladi. Yong'in o'chirish vositalari qizil rangga bo'yaladi, undagi yozuvlar esa oq rang bilan yoziladi. Har bir obektda albatga birlamchi o't o'chirish vositalari bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish binolarida va omborlarda yong'in inventarlari bilan ta'minlash tashkilotlarining raqbarlariga yoki boshqa javobgar shaxslarga topshiriladi. Yong'in inventari va qurilmalarining o't o'chirishga bog'liq bo'lmagan ishlarga qo'llash qat'iy man etiladi. Yong'in o'chirish vositalari ob'ektning maydoni va texnologik jarayonlarga qarab hisoblanadi.

Yong'inni o'chirishda qo'llaniladigan moddalar, ularning sinflanishi va xususiyatlari.

Qishloq xo'jaligi bino va inshootlarining yong'inni o'chirish uchun suv, suv bug'i, ko'pik, inert gazlar, poroshoklari (kukunlar), siqilgan havo va qattiq moddalar keng qo'llaniladi. O't o'chirish moddalari elektr o'tkazish (suv va boshq.) va elektr o'tkazmaslik (gazlar, kukunlar) xossalari ega bo'ladi. Shuningdek, zaharli (3,5-brom-etil, freon), kam zaharli (azot, ko'mir kislotasi) va zaharsiz (suv, ko'pik, kukunlar) turlarga bo'linadi. Shuning uchun ishlab chiqarish ob'ektlari va maydonlarini yong'in o'chirish moddalari bilan ta'minlashda va yong'inni o'chirishda biror uslubni qabul qilganda ularni hisobga olish kerak.

Suv - eng ko'p tarqalgan, oson topiladigan, qulay ishlatiladigan o't o'chiruvchi modda hisoblanadi. U yuqori issiqlik sig'imiga ega bo'lgani uchun olovni o'chirish jarayonida yonayotgan moddalardan juda ko'p issiqlikni oladi. Bir gramm suvni bug'ga aylantirish uchun 2,26 kJ issiqlik sarf qilinadi. Suvning kamchiliklari - issiqlik sig'imidan foydalanish koeffitsienti past, elektr

o'tkazuvchan, chang qatlamiga ta'sir etganda portlovchi xavfli 130 aralashma hosil qiladi. Shu sababli suv ko'p holatlarda ishlatilmaydi.

Ayniqsa kalsiy karbidga suv tushganda yong'in sodir bo'ladi va portlashga, so'ndirilmagan ohak esa - juda katta issiqlik chiqarib, yonidagi yonuvchi materiallarni yondiradi.

Ko'pincha yong'inni o'chirish uchun suv va 3-10% li brometil va boshqa aralashmalardan tayyorlangan eritmalar ishlatiladi. Eritmani namlaydi, sovitadi va yonuvchi materialni bug' bilan qoplaydi. Ko'pik sovutkich vazifasini bajarib, ma'lum vaqt ichida kislorodni issiq yuzaga kirishiga qarshi turish qobiliyati ega. Kimyoviy ko'pik ko'piksimon kukunlarni qo'llaganda generatorlar yordamida hosil qilinadi. Ko'pik kukun sariq-kul rang ko'rinishda bo'lib, kislota va ishqordan iborat. Kislota qismiga odatda mayin maydalangan **alyuminiy** sulfat, ishqorga esa - maydalangan natriy gidrokarbonat olinadi.

Alyuminiy (Aluminium), Al -Mendeleyev davriy sistemasining III guruhiga mansub kimyoviy element. Tartib raqami 13, atom massasi 26,9815; Aluminiy lot. alumen (achchiqgosh) so'zidan kelib chiqqan. Tabi-atda bitta barqaror izotop holida (AG' 100%) uchraydi, bir necha sun'iy radio-aktiv izotoplari bor, ular orasida eng ahamiyatlisi Al²⁷ (yarim yemirilish dav-ri 7,4-105 y.). Bu ko'pik neft maqsulotlari, spirt, aseton va boshqa moddalarni o'chirishda qo'llaniladi. Kimyoviy ko'pik hajmi bo'yicha 80% karbonat angidrid, 19,7% suv va 0,3% ko'pik hosil qiluvchi moddadan iborat. Ko'pikning turg'unligi (to'la parchalanguncha) 40 daqiqaga yaqin. Mexanikaviy-havo ko'pik neft mahsulotlarini o'chirishda qo'llaniladi. U suv, havo va ko'pik hosil qiluvchi moddalarni maxsus elektr generator stvollarida va o't o'chirgichlarda tez aralashishi natijasida olinadi. Mexanikaviy havo ko'pik amalda agressiv kimyoviy xossalarga ega emas, kimyoviy ko'pikka nisbatan elektr o'tkazuvchanligi kamroq bo'lgani uchun elektr qurilmalarni kuchlanishi bo'lganda ham (masofadan turib, tizillab chiquvchi ko'pik bilan) o'chirishda qo'llaniladi. Karbonat angidrid gazi - SO₂, - inert, havodan 1.5 marta og'ir, 0° da bosimi 3,6 MPa da suyuq holatga aylanadi. Ut o'chirgichdan purkalganda juda tez kengayadi (500 martagacha) va past (-72°) haroratli, qorsimon massaga aylanadi. Karbonat angidridning asosiy xosslaridan biri shundan iboratki, u erimasdan to'g'ridan-to'g'ri gaz holatiga aylanadi. Karbonat angidrid gazining elektr neytralligi kuchlanish ostida bo'lgan elektr qurilmalarni o'chirishda qo'llash imkoniyatini beradi. Yonayotgan xonadagi hajmga nisbatan SO₂ aralashmasi 30% dan kam bo'lmasa karbonat angidrid gazi ishlatilganda yong'in butunlay to'xtaydi. Bu gaz yordamida berk imoratlarni o'chirishda yaxshi natijalar olinadi.

Kukunlar suv bilan reaksiyaga kirishuvchi ishqoriy metallar, alyuminiy organik birikmalar, fosfor. yonuvchi suyuqliklar va boshqa moddalar. Ular suv va ko'pikdan buziluvchi qimmatli xujjatlar, suratlar va boshqa qimmatbaho materiallarni o'chirish uchun mo'ljallangan. Kukunli o't o'chirgichlar PS-1 va PS-2 tarkibi bilan ishlab chiqariladi. Kukun elektr o'tkazmaydi, odam uchun zararsiz, arzon, tashish va saqlash qulay. Past haroratda muzlamaydi. Juda ko'p yonuvchi suyuqliklarni o'chirishda qo'llaniladi.

Yong'inni o'chirishda suv ta'minoti.

Suv yong'inni o'chirishda eng ko'p ishlatiladigan vositadir. Hajmi 1000 m³ 131 dan katta bo'lmagan, o'tga chidamlilik darajasi I va II bo'lgan aloqida binolarda joylashgan D toifadagi korxonalar hamda 50 tagacha odam yashaydigan bir-ikki qavatli binolardan tashqari barcha aqoli yashaydigan joylar va ishlab chiqarish korxonalari yong'inga qarshi suv bilan ta'minlanishi zarur. 8000 tagacha aholi yashaydigan joylar yoki yong'inni tashqi tomondan o'chirishda 20 l/s gacha suv sarflanadigan V, G, D toifadagi korxonalarda yong'inni o'chirish uchun suv avtonasoslari mavjud bo'lganda bino va inshootlardan uzoqi bilan 200 m, motopompalar mavjud bo'lganda uzog'i bilan 150 m va dastaki nasoslar mavjud bo'lganda uzog'i bilan 100 m masofada joylashgan daryolar,

ko'lmak suvlardan olinishi mumkin. Aholi soni 500 tagacha bo'lgan qishloq joylarida yong'inni o'chirish uchun hisobiy suv sarfi 5 l/s, 500-5000 aholi yashaydigan joylarda 10 l/s, bundan ko'p aholi yashaydigan joylarda esa 15 l/s hisobida olinadi. O'tga chidamlshshk darajasi I va II bo'lgan, xajmi 3000 m³ gacha bo'lgan ishlab chiqarish hamda jamoat binolari uchun hisobiy suv sarfi - 5 l/s ni, III, IV va V darajalari uchun 10 l/ s ni tashkil etadi. Bitta yong'inni o'chirishga sarflanzdigan zaruriy suv miqdori uning sekund davomidagi sarfi miqdori va yong'inni davom etgan vaqti bilan hisoblanadi.

Ishlab chiqarishda yong'inga qarshi tizimlar.

Yong'inga qarshi tizimlar majmuasi MMXS dagi GOST 12.1.004-76 talablariga binoan yong'inni, yong'indan himoyalash va tashkiliy masalalardan iborat. Yong'inni oldini olish tizimiga tashkiliy tadbirlar va yong'in xavfi mavjud ish joylarda yong'inndan ogohlantiruvchi vositalar kabi texnik vositalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Yong'indan himoyalash tizimiga texnik vositalar va tashkiliy tadbirlarni birlashtirilgan holda, yong'inni kishilarga va moddiy boyliklarni himoyasini tashkillashtirish masalari kiradi. Ya'ni himoya sifatida yonmaydigan va yong'inni tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan materiallardan binolarni qurish, yonilg'idan foydalanishga qattiq tartib o'rnatish, yong'inni o'chirishda, o'chirish vositalarini ta'minlanishi, tutun tarqalishi va atmosferaga chiqaruvchi tizim, jamoa va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishlarni hamda aholini evauasiya qilish tadbirlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Yong'in xavfsizligini ta'minlashdagi tashkiliy masalalarga, yong'inga qarshi ishchilar hisobidan ko'ngillilar otryadini tuzish, yong'in xavfi yuqori bo'lgan ish joylarida profilaktik ishlarni belgilangan talab asosida o'tkazib turish, ishchilarni o'quv va malaka oshirish bilan bilimlarini oshirib borish, amaliy taktik o'quv ishlarini tashkillashtirish, yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish va joriy qilish kabi tadbirlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 iyun 243-son qarorining "Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, idoralar, korporasiyalar, konsernlar, uyushmalarning sanoat korxonalari va boshqa ob'ektlaridagi ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinalari to'g'risidagi Nizomga asosan ko'ngilli 132 o't o'chiruvchilar drujinasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

a) ob'ektda yong'inga qarshi tartib-qoidalarining qanday bajarilayotganini va unga qanday rioya etilayotganini nazorat qilishni amalga oshirish;

b) ishchilar va xizmatchilar o'rtasida ob'ektda yong'inga qarshi tartib-qoidalarga rioya qilish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish;

v) o't o'chirish texnikasining, o't o'chirish dastlabki vositalarining so'z va jangovar holatdiligini nazorat qilish;

g) yong'in chiqqan hollarda o't o'chirish komandasini chaqirish va odamlarni xavfli joydan ko'chirish hamda ob'ektdagi mavjud o't o'chirish vositalari bilan yong'inni o'chirishga oid shoshilinch choralar ko'rish;

d) zarur bo'lgan hollarda ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi a'zolarining o't o'chiruvchi mashinalarda, motopompalarda va ut o'chirishning boshqa ko'chma va turgan vositalarining jangovar guruhlaridagi ishlarda qatnashish, o'ta zarur hollarda, sexlar va boshqa ob'ekglarda navbatchilikda turish;

e) ob'ektning yong'in-texnika komissiyasi va yong'inlarni aniqlash, oldini olish hamda o't o'chirishning yangi usullarini joriy etuvchi davlat yong'in nazoratining mahalliy organlari bilan o'zaro birgalikda harakat qilish.


Davlat yong'inni nazorat qilish organi.

Davlat yong'inni nazorat qilish respublika Ichki ishlar Vazirligining yong'indan muhofaza qilish Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat yong'inni nazorat qilish organlari zimmasiga yong'indan muhofaza qilishga oid qoidalar, qo'llanmalar ishlab chiqish va nashr qilish, yong'inni oldini olishga oid qoida va me'yorlar, tadbirlarning hamma korxonalar, hamda alohida shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilish, loyihalash, qurish vaqtida yong'inni oldini olishga oid talablarning bajarilishini tekshirish (xulosalar berish), o't o'chiruvchi bo'linmalarining ishga shay turishini hamda o't o'chirish vositalarining benuqsonligini tekshirish vazifalari yuklanadi.

Davlat yong'inni nazorat qilish organlari yong'inni, me'yor va ko'rsatmalarining buzilishiga aybdor bo'lgan mas'ul shaxslarni ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish, yong'in xavfi tug'ilganda ob'ektdagi ishlarni qisman yoki butunlay to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Shaharlar va shahar tipidagi qishloq yong'in muhofazasi, shuningdek, o'zlarida o't o'chiruvchi qismlar bo'lmagan korxonalarda, yangi qurilishlarda, turar joy va jamoat binolarida yong'inni oldini olish nazoratini amalga oshiradi.

Yong'in haqida xabar berish texnik qurilma va asboblari.

Yong'indan xabar bergichlar yong'inga qarshi kurashishda eng muhim vositachi hisoblanadi. Xabar bergich tizimi quyidagi talablarni bajarishi kerak: mahalliy yong'in muhofazasiga tezlik va uzluksiz xabar berish, elektr xabar bergich qo'llanilganda elektr zanjirida uzilish ro'y berganda qabul apparatiga 133 avtomatik tarzda xabar berish va boshqalar. Xabar berishni eng ishonchli turi elektr tarmog'i (tizimli) hisoblanadi. Elektr yongan xabar bergichlar tizimi yong'inni aniqlash va uning joyini xabar berish uchun belgilanadi.



Kukunli yong'inga qarshi vositalar sxemalari:

a—OP-1 "Moment-2P": 1-tana; 2-sifon trubkasi; 3-CO2 qutisi; 4-banka uchun stakaning korpusi; 5-vana; 6-yoriqli nozul; 7-novda; 8-bosh qopqog'i; 9-tutqich; 10-bosh; 11-qo'ziqorin;

b—OP-1 "Sputnik": 7-tana; 2-to'rli atomizator; 3-qopqoq;

c—OP-5: 7-holat; 2-ishlaydigan gazni etkazib berish uchun quvur; 3-gaz qutisi; 4-tutqich; 5-qulflash tekshiruvi; 6-ishga tushirish dastagi; 7-bosh qopqog'i; 8-ignna; 9-shlang; 10-to'pponcha; 11-qurol tutqichi; 12-buzadigan amallar ko'krak

Elektr yong'in xabar bergichlar yangi qurilayotgan, qayta qurilayotgan va mavjud sanoat, ishloq xo'jaligi bino va inshootlariga o'rnatiladi. Ularning asosiy qismlari: xabar bergichlar yong'in xabar bergich stansiyasi, elektr toki bilan ta'minlash tuzilmasi va aloqa chizig'i bo'ladi. Yong'indan xabar bergichlar issiqlik (tashqi muhit haroratini ko'tarilishini sezuvchi); tutunli (yonayotgan mahsulotlarning tutunini sezuvchi); yorug'lik (alanganing yorug'lik nurini sezuvchi); kombinasiya

qilingan (issiqlik va tutunni sezuvchi); ultratovushli (yonishdagi ultratovush maydonining o'zgarishini sezuvchi) va boshqalar bo'ladi.

Elektr yong'in xabar bergichlar tizimini tanlashda xona va muhitning xususiyatlari, yonuvchi xavfli materiallarning borligi, ularni yonish xarakteri, texnologik jarayonlarni xisobga olib tanlanadi. Shuningdek, xabar bergichlarning texnikaviy ma'lumotlarini hisobga olib, ularni ishlatish sharoitlariga moslab tanlanadi. Nisbiy namligi 80% dan kam bo'lgan va yonish harorati ko'tarilishi mumkin bo'lgan joylarda ATIM-3, ATP-ZM, POST-1 va DTL tipidagi issiqlik xabar bergichlari qo'llaniladi. Nisbiy namligi katta bo'lgan xonalar uchun ATP-ZV, ATIM-3, TRV-2 va boshqa avtomatik xabar bergichlar qo'llaniladi. Portlash xavfi bo'lgan xonalarni muhofaza qilish uchun TRV-1 va TRV-2 portlash xavfsizlik xabar bergichlari qo'llaniladi.

O't o'chirishning Muhim va ko'chma vositalari.

O't o'chirishning ko'chma vositalari avval kurib chiqqan kul va o't o'chirish asboblari nisbatan kuvvatli qilib tayyorlanadi. Xozirgi vaqtda karbonat kislotali OU-25, OU-80, OU-400 (42-a rasm), havo-ko'pikli OVP-100, kukunli OP-100 (42b-rasm) ko'chma o't o'chirish vositalari ishlab chiqarilmokda. Shu bilan bir katorda kurama, ikki zaryad ko'pik xosil qiluvchi modda bilan suv qorishmasi va kukundan tashkil topgan OK-100 markali ko'chma o't o'chirish vositasi xam qo'llanadi. U yengil yonuvchi va yonuvchan Suyuqliklarni, gaz va chuglanuvchi moddalarni o'chirishda ishlatiladi. Ko'chma o't o'chirish asboblari ishlatilishida biroz nokulaydirlar. Ularni ishga tushirish uchun ko'pik generatrini, ko'pik chiqaruvchi klapinni yechib olish, ko'pik xosil qilish uchun ichkani chuvatib yechib olish, ballondagi qo'rg'oshin tamgani uzib tashlash va dastlabki strelka bo'yicha oxirigacha kayirish ishlarini bajarish kerak.

Bulardan farqli ravishda, Muhim o't o'chirish vositalari yong'inni o'chirishga doimo tayyor xolda bo'ladi. Bu ularning katta afzalliklaridan biridir. Xozirgi paytda karbonat kislotali OSU-5, OSU-5P, havo-ko'pikli OVPU-250, xladonli OS-8M, OS-8MD, OF-40, kukunli OP-250 Muhim o't o'chirish uskunalari ishlab chiqarilmokda. Muhim o't o'chirish uskunalari kulda va avtomatik ravigshda yong'in xaqiida xabar beruvchi asboblari yordamida xam ishga tushirib yuborilishi mumkin.

Yong'indan himoya qilinishi zarur bo'lgan xona 1 shiftiga avtomatik ravishda o't o'chirish uskunasi kuvurlari 2, ularga o'rnatilgan o't o'chiruvchi kallaklari 3 va yong'in xakida xabar beruvchi vosita 4 bilan xabar beruvchi tarmok ulangandir.

Xonaning biron yerida yong'in chiksa, usha yerdagi xabar beruvchi vositaga ta'sir qilib va elektr tarmog'i buylab buyruk beruvchi apparat 7 ga xabar keladi va bu xabar ijro etuvchi mexanizm orqali ishlatib yuboruvchi uskuna 8 ga beriladi. Uz navbatida bu uskuna o't o'chirish sistemasi 9 ni ishlatib yuboradi (sxemada azot tuldirilgan ballonlar ko'rsatilgan). Undagi o't o'chiruvchi modda 6 va 2 kuvurlaridan o'tib, o't o'chirish kallaklari 3 ga yetib boradi. Yong'in xakida xabar beruvchi vosita 4 ishlagach, buyruk beruvchi apparat 7 yong'in vaximasi xakida xabar beruvchi uskuna 11 ni ishlatib yuboradi. Muhim o't o'chirish sistemasini shlatib yuborish, yuqoridagidek avtomatik ravishda hamda 10-kulda yurgizib yuborish boshkarmasi orqali amalga oshirish mumkin.

To'qimachilik korxonalarida aksariyat yuqorida zikr kilingan o't o'chirish tizimi suv ta'minoti tarmoklari bilan ulangan bo'ladi. Avtomatik o't o'chirish tizimi bilan xom ashyo va tayyor maxsulot omborlari yigiruv fabrikalarining saralash, chiqindilarni kayta ishlash, changli havoni tozalash xonalari, tukuv va pardozlash fabrikalarining maxsulot sifatini nazorat qilish sexlari va yonuvchi moddalar kup mikdorda tuplanadigan sex yoki xonalarga o'rnatiladi.

Sprinkler uskunalari. Sprinkler uskunalari avtomatik o't o'chirish vositalariga mansub bulib, unda xonaning shipiga suv yoki ko'pik xarakatlanuvchi kuvurlar o'rnatiladi. Ularga ma'lum

masofalarda shtuserlar yordamida sprinkler kallaklari o'rnatilgan. Xar bir sprinkler kallagi 12 m² yerga mo'ljallanadi. Oddiy xolatda kallaklarning suv yo'llari qopqoq bilan berk xolda turadi. Qopqoqni yengil eruvchan metall dan yasalgan qulf ushlab turadi.

Sprinkler kallaklari shtuser 1 yordamida shirdan o'tgan suv kuvurlariga buralib kirgiziladi. Shtuserning teshigiga zanglamasligi uchun bronza xalka 2 burib kiritilgan. Xalka bilan shtuser orasiga urtasi teshik metall diafragma 3 o'rnatilgan. Diafragmaning bu teshigi shisha sharcha (kopko) 4 bilan berkitilgandir. U esa uchta uzaro yengil eruvchan metall bilan kavsharlab quyilgan mis plastinkalari yordamida ushlab turiladi.

Yong'in chiqqanda, havo kizib sprinkler kallagiga yetib borib, yengil eruvchan kavsharlagichga ta'sir qilib kulf 5 ni buzib yuboradi. Bosim ostidagi suvning 4 qopqoqqa ta'siri natijasida u diafragma 3 dan tushib ketadi va suvga yo'l ochiladi. Teshikdan urilib tushayotgan suv tarkatgich 6 ga urilib, 9-12 m² ga yoyilib tushib, yong'inni o'chira boshlaydi. Sprinkler kulflari 72, 93, 141, 182⁰S da erib ketishiga mo'ljallangan.

Drencher kallagi. Tashki ko'rinishi bo'yicha u sprnikler kallagidan kam farq qiladi. Fakat unda yengil eruvchan kulf va qopqoq yuk. Shuning uchun drencher sistemasi xnalarda emas, xonalar va binolar orasiga o'rnatiladi. Bularni yong'in bir sexdan ikkinchi sexga yoki bir binodan ikkinchi binoga o'tib ketmasligi uchun qo'llaniladi.

Ularni ishga tushirib yuborish kulda yoki avtomatik ravishda issiklik relelarini qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Sprinkler a drencher uskunalari uzluksiz takomillashtirib boriladi. Xozirgi paytda ularni fakatgina suv bilan emas, balki ko'pik bilan xam o'chira oladigan, boshkarishni esa avtomatlashtirilgan xillari mavjud.

Suv bilan ishlaydigan uskunalarining sprinkler kallaklari olidagi kuvurlarda suvning bosimi doimo 0,6 MPa ga, ko'pik bilan ishlaydigan kuvurlarda esa 0,3 MPa ga yakin bo'lishi kerak. Ko'pik bilan ishlaydigan xar bir kallak 17 m² ga mo'ljallanadi. Ko'pik xosil kiluvchi moddaning sarfi 3,5 l/s va o't o'chirish vaqti 10-15 min deb olinadi.

O't o'chirishning dastlabki vositalari.

O't o'chirishning dastlabki vositalari endi boshlanayotgan yong'inlarni o'chirish uchun ishlatiladi. Ular binoning ichida yoki kiraverishida, omborlar yonida, kizil rangga buyalgan maxsus taxta shitlariga osib quyiladi. Bu vositalarga o't o'chirish uchun ishlatiladigan asboblar (bolta, belkurak, misrang, changak, chelak), asbest matosi yoki texnik kigiz, boskada suv, yashikda kum va o't o'chiruvchi (ko'pikli, karbonat angidridli va kukunli) asboblar kiradi. Shu bilan birga o't o'chirishning ichki vodoprovod tizimi xam kiradi.

GOST 12.1.004-85(90) SSBT "Yong'in xavfsizligi. Umumiy talablar! Ga binoan barcha ishlab chiqarish xonalari va omborlar dastlabki o't o'chirish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Mexanizatsiyalashgan o't o'chirish vositalari.

Mexanizatsiyalashgan, ya'ni asosiy o't o'chirish vositalariga sv nasoslari va avtomashinalar kiradi.

Suvnasoslar (motopompalar) - umumiy asosga o'rnatilgan dvigatel va markazdan kochma nasosdan tarkib topgan agregatdir.

To'qimachilik sanoatida asosan MP-800 va MP-1400 markali va mo'tanosib ravishda 800 va 1400 l/min ish unumdorligiga ega bo'lgan suv nasoslari ishlatiladi. MP-800 sv nasosi payvandlangan yengil rama ustiga o'rnatilgan bulib, ko'tarish uchun dastaklar yoki yong'in chiqqan joyga gildiratib borish uchun ikki gildirakli aravacha ustiga o'rnatiladi.

Tirkamali suv nasos MP-1400 "Volga" avtomobilining turt taktli ichki yonish dvigatelidan, bosimi katta bo'lgan markazdan kochma nasos, yarim avtomat vakuum tizimi, ikki gildirakli

avtomobil tirkamasi, yong'inga qarshi uskunalar komplekti va dvigatelni yurgizib yuborish uchun akkumulyator batareyalaridan tashkil topgan.

Bulardan tashkari o't o'chiruvchi moddalarni (suv, havo-mexanik yoki ximiyaviy ko'pik) yetkazib berish maksadida yong'in avtomashinalari ishlatiladi. Ularga avtotsisternalar, shlang-nasosli avtomobillar, poyezdlar va boshkalar kiradi.

Nasosli avtotsisterna shaxsiy sostavni, o't o'chirish uskunalarini, suv zaxirasini va ko'pik xosil kiluvchi moddani yong'in chiqqan yerga yetkazish hamda ichaklarni vodoprovod tizimiga ulanguncha suv bilan ta'minlash, suv keltirish va suv yetkazib berishda oralik vazifasini xam o'taydi.

Avtotsisternalar asosan yengil, urta va ogir turlardan tashkil topgan bulib, ular GAZ-53a, GAZ-60, ZIL-130, ZIL-131 va Ural-375D avtomobillari shassilariga o'rnatiladi.

O't o'chiruvchi avtomobillarning (avtotsisterna va avtonasoslar) asosiy agregati, markazdan kochma yong'in nasosi bulib, u suv yoki boshka suyuk o't o'chiruvchi aralashmalarni yong'in chiqqan yerga yetkazib beradi.

O't o'chirish mashinalari uchun to'qimachilik korxonalarida maxsus depo quriladi. Ular magistral yo'llar yoniga, barcha obyektlariga mashinalar bemalol bora oladigan qilib quriladi. Zarur bulib kolsa, kushni korxonaga xam tez yordam bera olish uchun depolar korxonadan chiqish darvozalari yakinida kurilgani ma'kul. Ularning xizmat qilish radiusi A, B va V toifali korxonalar uchun 2 km olinadi. Xizmat radiusi bundan katta bo'lgan korxonlarda kushimcha ravishda yong'in postlari quriladi.

O't o'chirish moslamalarini saqlash va ulardan foydalanishga qo'yiladigan talablar

Barcha o't o'chirgichlar har yili tekshirilishi lozim. Agar qurilma standartlarga javob bermasa, uni almashtirish zarur.

Ballonda ko'rsatilgan o't o'chirgichning amal qilish muddati tugashi bilan qurilmani almashtirish kerak.

Oyiga bir marta o't o'chirgichlarni ko'zdan kechirish va jarayonni qayd qilish lozim.

O't o'chirgichlar evakuatsiya yo'llariga tutash chiqish joylaridagi devorga o'rnatilishi kerak.

Bitta binoda o'rnatilgan barcha o't o'chirgichlar bir xil ishlash printsipiga ega bo'lishi zarur.

Agar o't o'chirgichdan foydalanilgan bo'lsa, uni to'liq qayta zaryadlash darkor.

Agar o't o'chirgichning bosimi tushib ketsa, uni darhol to'ldirish kerak.

O't o'chirgichdan qanday foydalanish kerak?

Qo'lingizda qanday turdagi o't o'chirgich bo'lishidan qat'i nazar, uni qanday ishlatishni bilishingiz zarur. **Bunday ko'nikmalarni rivojlantirish uchun muntazam mashg'ulotlar talab etiladi.** Afsuski, mamlakatimizda aholi o'rtasida, jumladan, ta'lim muassasalarida bunday mashg'ulotlar o'tkazilmaydi.

Biroq, biz o't o'chirgichdan foydalanishning asosiy bosqichlarini tavsiflovchi qisqa video qo'llanmani tayyorladik.

O't o'chirgichdan foydalanishdan oldin, to'g'ri o't o'chirgichni tanlash uchun yong'in turini aniqlash kerak.

Nazorat savollari

1. Dastlabki o't o'chirish vositalari haqida ma'lumot bering?
2. Yong'inni o'chirishda ishlatiladigan vositalar?
3. Zamonaviy o't o'chirgichlarni bilasizmi?

10-Mavzu: BAXTSIZ HODISA VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. JAROXATLANISHLAR, KASB KASALLIKLARI VA UNING PROFILAKTIKASI

Reja;

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Tomirlardan qon ketishi (oqishi) ning turlari va uni vaqtincha to'xtatish.
3. Suyak sinishi va lat yeyishda birinchi yordam ko'rsatish.
4. Sovuq urishi, issiq urganida, odam suvga cho'kkanida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

Umumiy ma'lumotlar

Baxtsiz hodisalar, odatda, turli hil jarohatlar bilan birga kelishi kuzatiladi. Travma (grekcha Trauma) jarohatlar — tashqi omillar ta'sirida yuz beradigan inson organizmi yumshoq to'qimalarining shikastlanishi va ularning butunligi va funksiyalarini buzilishidir,

Shifokordan oldin darhol ko'rsatilgan yordam jabrlangan insonni og'ir oqibatlardan saqlab qolishi mumkin.

Shifokordan oldingi (bundan keyin — birinchi) yordam — bu baxtsiz hodisada jabrlangan kishining hayoti va sog'lig'ini saqlash yoki tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi. Bunday yordamni, tibbiy xodim yetib kelishiga qadar, jabrlangan kishining yonida bo'lganlar (o'zaro yordam) yoki jabrlangan kishining o'zi (o'ziga yordam) ko'rsatishi kerak.

Jabrlanganing hayoti va odatda keyingi davolanishining muvaffaqiyati birinchi yordamning qanchalik tez va mohirona ko'rsatilishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham har bir odam birinchi yordam ko'rsatishni bilishi va jabrlanganlarga hamda o'ziga birinchi yordam ko'rsata olishi kerak.

Jabrlangan kishida nafas olish yoki puls urishi singari tirikligini bildiruvchi alomatlar bo'lmasa uni o'lgan deb hisoblash va unga yordam ko'rsatishdan bosh tortib bo'lmaydi; jabrlangan kishini hushiga keltirish va unga yordam ko'rsatishning maqsadga muvofiqligi masalasini faqat shifokorgina hal qilish huquqiga egadir.

Elektr uskunalariga xizmat ko'rsatishda elektr tokidan jarohatlanganlarga o'z vaqtida birinchi yordam ko'rsatilishi ayniqsa muhimdir.

Elektr energetika uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi barcha xodimlar kasb bo'yicha o'qitilishi bilan bir qatorda jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tishlari hamda vaqti-vaqti bilan birinchi yordam ko'rsatish usullari bo'yicha yo'riqnomaviy mashg'ulotlar o'tishlari lozim. Mashg'ulotlarni korxonaning (tashkilotning) muhandis — texnik xodimlari bilan birgalikda tibbiy xodimlar jumlasidan bo'lgan puxta bilimlarga ega mutaxassislar o'tishlari kerak.

Korxonaning har bir xodimi o'zining kasbiy vazifalarini qanday mohirona bajarsa, birinchi yordamni ham shunday ko'rsata bilishi kerak, shuning uchun ham kasbiy mahoratga va shifokordan oldingi yordam ko'rsatishni bilishga qo'yiladigan talablar bir xil bo'lishi lozim.

Birinchi yordam o'z vaqtida ko'rsatilishi va samarali bo'lishi uchun doimiy navbatchilik joylarida qo'yidagilar bo'lishi kerak:

birinchi yordam ko'rsatish uchun kerakli dori-darmonlar va tibbiy buyumlar to'plami solingan tibbiy yordam qutichasi (yoki korxonalar hududidan tashqarida ishlanganda brigadirlarda turadigan birinchi yordam xaltasi);

ko'rinadigan joylarda osiladigan baxtsiz, hodisalarda jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, sun'iy nafas va yurakka tashqi massaj qilish usullari tasvirlangan plakatlar;

birinchi yordam qutichalarini va tibbiy yordam ko'rsatish punktlarini topishni osonlashtiruvchi ko'rsatkich taxtachalari va belgilari. Ishlar chet tashkilotlarning xodimlari tomonidan bajarilganda ushbu tashkilotlarning xodimlariga birinchi yordam qutichalari turgan va tibbiy yordam ko'rsatish punktlari o'rnatilgan joylari ma'lum qilinishi kerak.

Birinchi yordam ko'rsatishni to'g'ri tashkil etilishi uchun har bir korxonada, sex, tuman, tarmoq uchastkasida va h. quyidagi chora-tadbirlar bajarilishi lozim:

zimmasiga birinchi yordam qutichasi va xaltalarini muntazam to'ldirib turish va ulardagi dori-darmonlar va tibbiy buyumlarning tegishli holatda saqlanishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan xodimlarni ajratish;

birinchi yordamning to'g'ri ko'rsatilishi va jabrlangan kishini tibbiy yordam ko'rsatish punktiga o'z vaqtida va albatta yo'naltirilishi, hamda birinchi yordam qutichalari va xaltalarini quyida keltirilgan kerakli dori-darmonlar va tibbiy buyumlar bilan muntazam to'ldirib turilishi ustidan muntazam va qat'iy nazoratni tashkil etish.

Jadval
Birinchi yordam qutichalarining tarkibi

	Dori-darmonlar va tibbiy buyumlar	Maqsadi	Miqdori
1.	Bog'lash paketi	Bog'lamalarni qo'yish uchun	5 dona
2.	Steril bint	-“-	dona
3.	Gigroskopik, klinik, jarrohlik paxtasi	-“-	50 grammlik 5 o'ram
4.	Jgut	Qon oqishini to'xtatish uchun	1 dona
5.	Shinalar	Singan, chiqqanlarni mahkamlab qo'yish uchun	3-4 dona
6.	Yax uchun rezina xalta	Lat egan, singan chiqqan joylarni sovitish uchun	1 dona
7.	Stakan	Dorilarni ichish, ko'z va oshqozonni yuvish va eritmalarni tayyorlash uchun	1 dona
8.	Choy qoshig'i	Eritmalarni tayyorlash uchun	1 dona
9.	Yod (5 foizli spirtli eritmasi)	Yaralar va terining shilingan joylari atrofiga surish uchun	1 flakon (50 ml)
10.	Nashatir spirti (10 foizli ammiak eritmasi)	Hushdan ketgan vaqtda qo'llash uchun	1 flakon (30 ml)
11.	Bor kislotasi	Ishqordan kuyganda ko'z va terini yuvish, og'izni chayish, volt yoyidan kuyganda ko'zga ho'llab qo'yishga eritma tayyorlash uchun	1 paket (25 g.)
12.	Ichimlik sodasi (natriy gidrokarbonat yoki natriy ikki oksidi)	Kislotadan kuyganda ko'z va terini yuvish, og'izni chayishga eritma tayyorlash uchun	1 paket (25 g.)
13.	Vodorod peroksidi eritmasi (3 foizli)	Burundan, katta bo'lmagan yaralar va shilingan joylardan qon oqishini to'xtatish uchun	1 flakon (50 ml)
14.	Valeriana nastoykasi	Asab tizimini tinchlantirish uchun	1 flakon (30 ml)
15.	Achchiq tuz (ingliz)	Oziq-ovqatdan va boshqa zaharlanishlarda ichish uchun	50 g.
16.	Aktivlashtirilgan ko'mir (kukun)	Oziq-ovqatdan va boshqa zaharlanishlarda ichish uchun	50 g.
17.	Kali permanganat (kristallar)	Oziq-ovqatdan va boshqa zaharlanishlarda ichish	10 g.

		uchun	
18.	Validol yoki nitroglitserin	Yurak atrofida kuchli og‘riqlarda til ostiga olish uchun	1 tyubik
19.	Amidopirin, analgin (tabletkalar)	Issiqni tushiruvchi va og‘riqni kamaytiruvchi vosita sifatida ichish uchun	2 o‘ram

Izoh: 1. Ichimlik sodasi va bor kislotasining eritmalari faqat ishqor va kislotalar bilan ishlanadigan ish joylari uchun ko‘zda tutiladi.

2. Zaharli gazlar va moddalar bilan zaharlanish mumkin bo‘lgan sexlar va laboratoriyalarda birinchi yordam qutichasining tarkibi tegishlicha to‘ldirilishi kerak.

3. Birinchi yordam xaltalari uchun vositalar to‘plamiga shinalar, yax uchun rezina xaltasi, stakan, choy qoshig‘i, bor kislotasi va ichimlik sodasi kiritilmaydi. Qolgan vositalar ro‘yxatda ko‘rsatilgani bo‘yicha 50 foiz miqdorida kiritiladi.

4. Yoz davrida hashorat chiqishi mumkin bo‘lgan ishlash joylarda birinchi yordam qutichalarida (xaltalarida) dimedrol (1 o‘ram) va kordiamin (1 flakon) bo‘lishi kerak.

5. Birinchi yordam qutichasining ichki devorida qaysi dori vositalari qanday jarohatlarda qo‘llanishi (masalan, burundan qon oqishida — 3 foizli vodorod peroksidi va h.) ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Yordam ko‘rsatayotgan shaxs inson organizmini hayotiy muhim funksiyalari buzilishining asosiy alomatlarini bilishi, hamda jabrlanganni xavfli va zararli omillar ta‘siridan xalos etishi, jabrlanganning holatini baholay bilishi, ko‘rsatilayotgan birinchi yordamning ketma-ketligini belgilab olishi, zarur bo‘lganda jabrlanganga yordam ko‘rsatayotganda va transportirovka qilishda qo‘l keladigan mavjud vositalardan foydalanishi kerak.

Jabrlanganga birinchi yordamni ko‘rsatishda amalga oshiriladigan harakatlarning ketma-ketligi:

1) jabrlanganning organizmiga xavfli va zararli omillar ta‘sirini (elektr tokining ta‘siridan xalos etish, zararlangan muhitdan olib chiqish, yonayotgan kiyimlarini o‘chirish, suvdan chiqarib olish va h.) bartaraf qilish;

2) jabrlanganning holatini baholash;

3) jabrlanuvchini hayoti uchun eng ko‘p xavf solayotgan jarohatning xususiyatlarini va uni qutqarish bo‘yicha qilinadigan harakatlarning ketma-ketligini aniqlash;

4) jabrlanuvchini qutqarish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni eng kerakligi tartibida bajarish (nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini tiklash; sun‘iy nafas, yurakning tashqi massaji muolajalarini o‘tkazish; qon oqishini to‘xtatish; singan joylarni mahkamlab qo‘yish, bog‘lamalar qo‘yish va h.);

5) tibbiyot xodimlari yetib kelishiga qadar jabrlanuvchining asosiy hayotiy funksiyalarini saqlab turish;

6) tez tibbiy yordam yoki shifokorni chaqirish yoxud jabrlanuvchini eng yaqin tibbiyot muassasasiga yetkazish choralarini ko‘rish.

Hodisa ro‘y bergan joyga tibbiyot xodimlarini chaqirish imkoni bo‘lmasa, jabrlanuvchini eng yaqin tibbiyot muassasasiga yetkazish choralari ta‘minlanishi kerak. Jabrlanuvchini faqat nafasi va pulsi barqaror bo‘lganda joydan-joyga ko‘chirib o‘tkazish mumkin.

Agar jabrlanuvchining holatiga ko‘ra uni ko‘chirib bo‘lmasa, tibbiyot xodimlari yetib kelishiga qadar jabrlanuvchining asosiy hayotiy funksiyalarini saqlab turish lozim.

Jabrlanuvchini jarohatlovchi omillarning ta‘siridan xalos etish

Jabrlanuvchiga yordam ko‘rsatish uni jarohatlovchi omillarning ta‘siridan xalos etish vaqtdan boshlanadi: elektr uskunasi o‘chirish, tok o‘tkazuvchi qismlardan kuchlanishni uzish yoki

jabrlanuvchini undan ajratib olish; jabrlanuvchini qadam kuchlanishi maydonidan olib chiqish va boshqalar; suvdan tortib olish; xavfli (gazlangan, changlangan, havoning harorati oshgan yoki pasaygan va h.) zonadan olib chiqish; ishlab chiqarish uskunalari, harakatdagi mashinalar va mexanizmlarni to'xtatish; bug' yoki suvni o'chirish; yonayotgan kiyimlarni o'chirish va boshqalar. Bundan yordam ko'rsatayotgan shaxsning o'zi ham, tegishli himoya vositalaridan foydalangan holda, o'zini shu jarohatlovchi omillarning ta'siridan saqlashi lozim.

Jabrlanuvchi, faqat unga yoki yordam beruvchi shaxsga u yerda bo'lish xavfli bo'lganda yoki o'sha joyda yordam ko'rsatib bo'lmasa, masalan tayanchda, machtada, kajavada va h. yurakka massaj qilish imkoni bo'lmaganda boshqa joyga ko'chiriladi.

Elektr tokining ta'siridan ozod qilish.

Elektr toki urganda jabrlanuvchini imkoni boricha tezroq elektr toki ta'siridan xalos etish lozim. Chunki elektr tokining ta'siri qancha ko'p bo'lsa, organizmdagi elektr jarohati shunchalik og'irroq bo'ladi.

Kuchlanish ostidagi tok o'tkazuvchi qismlarga tegib ketish, ko'p hollarda mushaklarning ixtiyoriy bo'lmagan ravishda qisqarishiga va nafas olish va qon aylanish organlari faoliyatining buzilishi yoki umuman to'xtab qolishiga olib keluvchi holatga sabab bo'lishi mumkin. Agar jabrlanuvchi simni qo'lida ushlab turgan bo'lsa, uning barmoqlari shunday qattiq qisiladiki, simni uning qo'llaridan bo'shatib bo'lmaydi. Shuning uchun yordam beruvchining birinchi harakati elektr uskunasi jabrlanuvchi tegib turgan qismini tezroq o'chirishdan iborat bo'lishi kerak.

Elektr uskunasi uzgich, biriktirgich-ajratgich (rubilnik) yoki boshqa o'chiruvchi apparat yordamida, hamda saqlagichlarni olib qo'yish, shtepsel ulamasini ajratish, havo liniyasida sim tashlab sun'iy qisqa tutashuv hosil qilish yo'li bilan o'chirish mumkin.

Agar jabrlanuvchi tepada turgan bo'lsa, uning balandlikdan yiqilib tushishi uskunani o'chirilishi va shu tariqa jabrlanuvchini tok ta'siridan xalos etilishiga olib keladi. Bu holda qo'shimcha jarohatlarning oldini olish choralari ko'rish kerak. HLning tayanchlaridan jabrlanuvchini tushirish tartibi mazkur Yo'riqnomaning ilovasida tavsiya qilingan.

Uskunani o'chirish bilan bir vaqtda chiroq ham o'chib qolishi mumkin, shuning uchun kunduzgi yoritish bo'lmaganda, elektr uskunaning o'chirilishi va jabrlanuvchiga yordam ko'rsatilishini kechiktirmasdan, boshqa manbadan yoritish (xonaning portlash va yong'in xavfsizligini e'tiborga olib avariya yoritish, akkumulyatorli fonarlar va h.) ta'minlanishi kerak.

Agar elektr uskunasi tezlik bilan o'chirish imkoni bo'lmasa, bu holda jabrlanuvchini u tegib turgan tok o'tkazuvchi qismlardan ajratish choralari ko'rilishi kerak. Bunda yordam beruvchi shaxs, barcha hollarda, ehtiyot choralari ko'rmasdan jabrlanuvchiga tegib ketishi mumkin emas, chunki uning hayoti uchun xavflidir. Xuddi shuningdek, u tokning yerga tutashuv joyida o'tkazuvchi qismga o'zi tegib ketmaslik yoki qadam kuchlanishi ta'siriga tushmaslikni nazorat qilib turishi kerak.

1000 gacha V. kuchlanishda jabrlanuvchini tok o'tkazuvchi qismlardan yoki simdan ajratish uchun kanop, yog'och, taxta yoki elektr tokini o'tkazmaydigan boshqa quruq jismdan foydalanish kerak.

Jabrlanuvchini tok o'tkazuvchi qismlardan kiyimidan tortib (kiyimi quruq va badaniga yopishmagan bo'lsa), masalan kamzul yoki paltosining etagidan, yoqasidan tortib ajratish mumkin, bunda uning atrofidagi metall buyumlar yoki jabrlanuvchi badanining kiyimsiz joylariga tegib ketmasligi kerak (3-rasm). Jabrlanuvchini oyog'idan tortib ham chetga olib qo'yish mumkin, bundan yordam beruvchi shaxs o'z qo'llarini izolatsiya qilmasdan turib, jabrlanuvchining kiyimiga yoki poyafzaliga tegishi mumkin emas, chunki ular nam bo'lishi va elektr tokini o'tkazishi mumkin. Qo'llarini izolatsiya qilish uchun yordam beruvchi, ayniqsa u jabrlanuvchi badanining kiyim

tegmagan joylaridan ushlashi kerak bo'lganda, yordam beruvchi shaxs dielektrik qo'lqoplar kiyishi yoki qo'lga sharf o'rashi, qo'lga movut furajkani, kamzuli yoki

paltoning yengini kiyib olishi, jabrlanuvchining ustiga rezina gilamchani, rezinali mato (plash) yoki oddiy quruq matoni tashlashi kerak. Shuningdek, yordam ko'rsatuvchi shaxs rezina gilamcha, quruq taxta yoki elektr tokini o'tkazmaydigan har qanday taglik, quruq kiyimlar o'rami va h. ustiga turib o'zini izolatsiya qilishi mumkin. Jabrlanuvchini tok o'tkazuvchi qismlardan ajratishda bir qo'l bilan harakat qilish lozim.

Agar elektr toki jabrlanuvchi orqali yerga o'tib ketayotgan bo'lsa va u tok o'tkazuvchi element (masalan, simni) talvasada qo'lida mahkam ushlab olgan bo'lsa, eng osoni jabrlanuvchini yerdan ajratgan holda (uning tagiga quruq taxta tiqib yoki uning oyog'ini arqon yoki kiyimi yordamida yerdan uzib qo'yish) tokning ta'sirini to'xtatish mumkin, bunda yordam ko'rsatuvchi shaxs o'ziga nisbatan ham jabrlanuvchiga nisbatan ham yuqorida ko'rsatilgan ehtiyot choralarini ko'rishi kerak. Shuningdek simni yog'och dastagi quruq bo'lgan bolta bilan (5-rasm) yoki dastagi izolatsiyalangan asboblardan (ombir, yassi jag'li ombirdan) foydalangan holda uzish mumkin. Dastagi izolatsiyalanmagan asbobning dastagiga quruq mato o'rab ham foydalanish mumkin. Simlarni fazalar bo'yicha, ya'ni har bir fazani alohida uzish lozim, bunda odam o'zini yerdan izolatsiyalashi (quruq taxtalar, yog'och narvon va h. ustida turishi) kerak.

1000 V.dan yuqori kuchlanishda jabrlanuvchini tok o'tkazuvchi qismlardan ajratish uchun himoya vositalaridan: dielektrik qo'lqoplar va botiqlar

1000 V. gacha kuchlanishli elektr uskunalarda izolatsiyalaydigan shtanga yordamida simlarni chetga olish yo'li bilan jabrlanuvchini tok ta'siridan ozod qilish qiyish va tegishli kuchlanishga mo'ljallangan shtanga yoki izolatsiyalangan omburlardan foydalanish lozim.

6 — 20 kV. li elektr uzatish havo liniyalarida, ularni tezlik bilan ta'minlash manbai tomonidan uzish mumkin bo'lmasa, HLni o'chirish uchun sun'iy ravishda qisqa tutashuv hosil qilish kerak. Buning uchun HL simlariga izolatsiyalanmagan egiluvchan o'tkazgichni tashlash lozim. Tashlanayotgan o'tkazgich, u orqali qisqa tutashuv toki o'tayotganida, kuyib ketmasligi uchun yetarlicha kesimga ega bo'lishi shart. O'tkazgich tashlanishidan oldin, uning bir uchi zaminlanishi (metall tayanchga, zaminlovchi tushirgich yoki alohida zaminlagich va boshqalarga ulanishi) kerak, ikkinchi uchiga esa tashlaganda qulay bo'lishi uchun yuk osilsa yaxshi bo'ladi. O'tkazgichni shunday tashlash kerakki, u odamlarga, shu jumladan yordam ko'rsatuvchi shaxsga ham jabrlanuvchiga ham tegib ketmasligi kerak. O'tkazgichni tashlayotganda dielektrik qo'lqoplar va botiklar kiyib olish shart.

Yordam ko'rsatuvchi shaxs, agar o'tkazuvchi qism (sim va h.) yerda yotgan bo'lsa qadam kuchlanishi xavfini esda tutishi kerak. Bu zonada ayniqsa ehtiyotkorlik bilan, yerdan izolatsiya bo'lishi uchun himoya vositalari (dielektrik kalishlar, botiklar, gilamchalar, izolatsilovchi tagliklar) va elektr tokini yomon o'tkazadigan (quruq yog'ochlar, xodalar va h.) jismlardan foydalangan holda harakat qilish lozim. Tutashuv tokining yerga yoyilishi zonasida himoya vositalarisiz harakat qilganda, oyoqlarni bir-biridan uzmay yerda surib yurish kerak.

Jabrlanuvchi tok o'tkazuvchi qismlardan ajratilganda uni shu zonadan tok o'tkazuvchi qismdan (simdan) kamida 8 metr masofaga olib chiqish lozim.

Suvdan chiqarib olish. Cho'kayotgan odamning qutqarishda asosiy qoida — o'ylab, xotirjam va ehtiyotkorlik bilan harakat qilishdan iborat.

Agar cho'kayotgan odamning qutqarish to'g'risidagi chaqirig'i eshitilgan bo'lsa, uning holatidan boxabar bo'linganligi va unga yordam ko'rsatilishi haqida, albatta, javob qaytarilishi lozim. Bu cho'kayotgan odamning ruhini ko'taradi va unga kuch bag'ishlaydi.

Agar mumkin bo'lsa, cho'kayotgan yoki suzib charchagan odamga uni qirg'oqqa, qayiqqa tortib olish uchun langarcho'p yoki kiyimining uchini uzatishi yoki qo'l ostidagi qandaydir suzadigan jism yoki maxsus qutqaruvchi moslamalarni tashlashi kerak. Qutqaruvchi jismni shunday tashlash kerakki, u cho'kayotgan odamga urilib ketmasligi lozim. Agar bunday jismlar bo'lmasa yoki ulardan foydalanganda ham cho'kayotgan odamni qutqarib bo'lmasa, unda qutqarish uchun unga yordamga suzib borish kerak.

Yordam ko'rsatuvchi shaxs o'zi nafaqat yaxshi suzish va sho'ng'ishni bilishi, balki jabrlanuvchini tashish usullarini va uning osilib olishidan o'zini bo'shatishni bilishi kerak.

Ommaviy baxtsiz hodisalarda har bir cho'kayotgan odamga alohida yordam ko'rsatishga harakat qilish kerak. Suzib turib birdaniga bir nechta odamga yordam ko'rsatib bo'lmaydi.

Yordam ko'rsatish uchun tez suvga sakrash kerak bo'lsa, kiyimni va poyafzalni echib olish kerak. Suvning tubi va chuqurligi noma'lum bo'lgan joylarda suvga kalla tashlab sho'ng'ib bo'lmaydi. Suvga sakrash joyini shunday tanlash kerakki, oqimning tezligidan foydalanib hodisa ro'y bergan joyga tezroq yetib borish mumkin bo'lsin.

Suvning harorati past bo'lganda yoki suzayotgan odam charchaganida uning boldir, son mushaklarida yoki barmoqlarida tomir tortishib qolishi mumkin. Boldir mushaklarida tomir tortishganda chalqancha suzib tomir tortishib qolgan oyoqni oldinga cho'zish va uning barmoqlarini o'ziga qaratib tortish tavsiya etiladi. Son mushaklarida tomir tortishganda oyoqni tizada kuch bilan bukish yordam beradi, bunda oyoqning tagini qo'l bilan sonning ichki tomoniga bosib turish kerak. Qo'l barmoqlari ivishganda qo'lni mushtum qilgan holda suvdan chiqarib qattiq silkitish kerak.

Suzib charchagan odamga quyidagicha yordam ko'rsatish mumkin. Yordam ko'rsatuvchi odam charchagan odamning oldinga cho'zgan qo'llarining bilaklari tagiga o'z yelkalarini tutishi va "brass" usuli bilan suzib uni o'zi bilan olib ketishi lozim. Agar suzib charchagan odam yordam ko'rsatuvchi odam bilan bir maromda oyog'i bilan suza olsa, uni olib chiqish yanada osonroq bo'ladi. Suzib charchagan odamning qo'llari yordam ko'rsatayotgan odamning yelkalaridan sirpanib tushib ketmasligini kuzatib turish kerak.

Cho'kayotgan odamga orqasidan turib yordam ko'rsatish kerak, chunki umidsizlik va qo'rquv cho'kayotgan odamga kuch beradi va u yordam berayotgan odamga yopishib olib uni ham cho'ktirishi mumkin.

Agar cho'kayotgan odam yordam berayotgan odamni baribir ushlab olgan bo'lsa, chuqur nafas olgan xolda suvning tagiga sho'ng'ish kerak. Bunda cho'kayotgan odam suvning ustida qolish uchun yordam berayotgan odamni qo'yib yuboradi.

Cho'kayotgan odam ushlab olishidan qutulishning bir nechta usullari mavjud:

agar cho'kayotgan odam yordam berayotgan odamning old tomonidan tanasidan yoki bo'ynidan ushlab olgan bo'lsa, bir qo'l bilan uning belidan ushlab turib, boshqa qo'lning kafti bilan cho'kayotganning dahaniga tiralish, burnini qisish va kuch bilan dahaniga itarish kerak. Juda bo'lmaganda yordam ko'rsatuvchi shaxs cho'kayotgan odamning qornidan pasiga tizzasi bilan tiralishi va undan kuch bilan itarilishi lozim;

Cho'kayotgan odam qo'l bilaklaridan ushlab olganida qutilish

agar cho'kayotgan odam yordam beruvchining oyoqlaridan ushlab olgan bo'lsa, undan o'zini bo'shatish uchun bir qo'l bilan boshini o'ziga bosib turib, ikkinchi qo'lda uning dahanidan ushlab o'ziga teskari qilib burish kerak .

Agar cho'kayotgan odam suv ostiga kirib ketgan bo'lsa, uning ketidan sho'ng'ish kerak. Uni darhol topib bo'lmasa, bir necha marta parallel sho'ng'ish kerak.

Agar cho'kayotgan odamning orqa tomonidan suzib kelish mumkin bo'lmasa, unda eng yaxshisi undan bir necha metr berida sho'ng'ib, uning yon tomonidan suzib kelish kerak va bir qo'l

bilan uning tizzasidan itarib, ikkinchi qo‘l bilan boshqa oyog‘idan ushlash, siltab o‘ziga teskari qaratib olish va qirg‘oqqa olib chiqish kerak.

Agar jabrlanuvchi suvning ostida tepaga qarab yotgan bo‘lsa, yordam beruvchi odam sho‘ng‘ib uning boshi tomonidan suzib borishi kerak, agar jabrlanuvchi pastga qarab yotgan bo‘lsa — uning yoniga oyoq tomonidan suzib borishi kerak. Ikkala holatda ham yordam beruvchi odam jabrlanuvchini qo‘ltig‘ini tagidan ushlab olib, ko‘tarishi va suvning tubidan kuch bilan itarilib cho‘kkan odam bilan suvning ustiga chiqib olishi va qirg‘oqqa qarab suzishi kerak.

Cho‘kayotgan odamni bir necha usulda qirg‘oqqa olib chiqish mumkin:

boshidan ushlab. Buning uchun yordam berayotgan odam cho‘kayotgan odamni chalqancha holatga o‘tkazishi uni shu holatda ushlab turib, yuzini kafti bilan (kafti bilan quloqlarini berkitib, katta barmoqlari bilan lunjidan, kichkina barmoqlari bilan esa past jag‘idan) ushlashi va suvning ustidan ushlab qirg‘oqqa tomon olib borishi kerak. Yordam berayotgan odamning o‘zi ham chalqancha suzishi lozim;

Qo‘lidan ushlab. Buning uchun yordam berayotgan odam cho‘kayotgan odamning orqasidan suzib kelishi, uning tirsaklarini orqasiga o‘tkazishi va uni o‘zining bag‘riga bosib erkin usulda suzib qirg‘oqqa olib borishi kerak;

Cho‘kayotgan odamni qo‘lidan ushlab qutqarish

qo‘l ostidan ushlab. Buning uchun yordam berayotgan odam cho‘kayotgan odamning orqasidan suzib kelishi, o‘zining o‘ng (chap) qo‘lini tezlik bilan uning o‘ng (chap) qo‘li ostiga o‘tkazib olishi, cho‘kayotgan odamning ikkinchi qo‘lini tirsagidan teparog‘idan ushlashi uni o‘zining bag‘riga bosib yonboshlab suzib qirg‘oqqa olib borishi kerak.

Hushidan ketgan odamni qirg‘oqqa olib chiqish uchun yordam berayotgan odam yonboshlab suzishi va jabrlanuvchini sochidan yoki yoqasidan tortishi kerak.

Cho‘kayotgan odamni har qanday usullar bilan qirg‘oqqa olib chiqishda uning og‘zi va burni suvdan tepada bo‘lishi kerak.

Cho‘kayotgan odamni qayiq yordamida qutqarish. Cho‘kayotgan odamni qutqarish uchun maxsus buyumlarsiz qayiqda suzib borilganda, o‘zi bilan langar, cho‘p, yog‘och va h. olib borish, agar cho‘kayotgan hushini yo‘qotmagan bo‘lsa uni cho‘kayotgan odamga uzatish kerak. Agar qayiqda odam bitta o‘zi bo‘lsa, bu holda u suvga sakramagani ma‘qul, chunki boshqaraolmaydigan qayiqni suv oqimi olib ketishi mumkin. Qayikni cho‘kayotgan odamning oldiga faqat yon tarafi bilan emas, balki old yoki orqa uchi bilan olib borish kerak. Cho‘kayotgan odamni qayiqqa yo old yo orqa uchidan olish kerak, chunki uni qayiqning yon tomonidan olinadigan bo‘lsa qayiq ag‘darilib ketishi mumkin. Agar qayiqdagi yordam ko‘rsatuvchi ikkinchi odam, cho‘kayotgan odamni qayiqdan turib suvdan ushlab ketishi mumkin bo‘lsa, cho‘kayotgan odamni qayiqqa olmasa ham bo‘ladi.

Gaz bilan zaharlangan shaxslarni gazlangan zonadan olib chiqish. Zaharli gazlar chiqishi mumkin bo‘lgan xonadagi shaxs o‘zini noxush sezsa yoki unda zaharlanish alomatlari (asabiylashish, bo‘shashish holati, bosh aylanishi, ko‘ngil aynashi va boshqalar) paydo bo‘lsa, bu holda ushbu odamni tezlik bilan xonadan toza havoga olib chiqish kerak. Jabrlanuvchining holati xonadan o‘zi chiqa olmaydigan darajada og‘irlashsa, xonadan tashqarida uni kuzatib turgan shaxs uni zudlik bilan xonadan tashqariga yetaklab yoki ko‘tarib olib chiqishi kerak.

Kuzatib turgan shaxs jabrlangan odamga yordam ko‘rsatish uchun gaz bilan zaharlangan xonaga kirishidan oldin, o‘zining yonida bo‘lishi kerak bo‘lgan kislorodli (izolatsiyalaydigan) yoki shlangli protivogaz niqobini taqib olishi lozim. Bunday hollarda filtrlovchi protivogazlarni taqish man etiladi.

Kabel inshootlari yoki gaz quvurlari qudug'ida turgan shaxs o'zini noxush sezganda yoki unda zaharlanish alomatlari paydo bo'lganda, quduqni tepasida uni kuzatib turgan shaxslar, darhol saqlagich kamarining yelka tasmalariga biriktirilgan arqondan foydalanib uni quduqdan chiqishiga yordam berishi yoki quduqdan chiqarib olishi kerak.

Gaz bilan zaharlangan xonadan olib chiqilgan shaxsning holati yaxshilanmasa va unda zaharlanish alomatlari saqlanib qolsa, bu holda jabrlangan shaxs zudlik bilan davolash muassasasiga yuborilishi lozim.

Yonayotgan kiyimni o'chirish. Agar odamning ustidagi kiyimi yonayotgan bo'lsa, olovni imkoni boricha tezroq o'chirish kerak, ammo bunda olovni himoya qilinmagan qo'llar bilan o'chirish mumkin emas.

Kiyimi yonayotgan odam, odatda, o'zini u yoqdan bu yoqa uradi, yuguradi. Darhol uni to'xtatish choralari ko'rilishi kerak, uning harakatlari oqibatida olov yanada kuchayadi.

Yonayotgan kiyimni tezlik bilan echib tashlash yoki suv quyib, qishda esa qor bilan o'chirish kerak. Yonayotgan kiyimda yerda dumalab ham olovni o'chirish mumkin. Yonayotgan kiyimdagi odamning ustiga qalin mato, ko'rpa, brezent tashlash mumkin, olov o'chganidan keyin jabrlangan odamning terisiga issiqlik ta'sirini kamaytirish uchun uni olib qo'yish kerak. Yonayotgan kiyimdagi odamni boshi bilan o'rab bo'lmaydi, chunki bu uni nafas yo'llarining jarohatlanishi va olovdan chiquvchi zararli moddalar bilan zaharlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Qon ketganda yordam ko'rsatish

Qon ketishi tashqi (qon tanadan tashqariga oqadi) yoki ichki (qon bosh suyagining, ko'krak qafasining, qorin bo'shlig'ining ichida) bo'lishi mumkin. Qon tomirlarining shikastlanishiga qarab arterial, vena va kapillyar qon ketishi turlariga bo'linadi.

Arterial qon ketishi chuqur kesilgan yoki sanchilgan jarohatlarda paydo bo'ladi. Yorqin qizil (alvon) rang qon (yurak mushaklarining qisqarishiga mos) tirqirab oqadi, ba'zida esa kichkina favvoracha bo'lib uradi. Katta (uyqu, o'mrov osti, yelka, son, tizza osti) arteriyalar jarohatlanganda juda kuchli qon ketishi vujudga keladi, qon katta bosim bilan qon tomirlardan oqib chiqadi, agar qon ketishini o'z vaqtida to'xtatmasa, jarohatlangan kishi bir necha daqiqa ichida nobud bo'lishi mumkin.

Venadan qon ketishi venalar jarohatlanganda paydo bo'ladi. Qon sekin tekis oqib chiqadi, to'q qizil olcha rangiga ega bo'ladi.

Kapillyar qon ketishi katta shilingan joylarda va sirtqi jarohatlarda mayda qon tomirlar (kapillyarlar) shikastlanganda bo'ladi. Qon yara joyining butun sirti bo'ylab asta sekin tomchilab sizib chiqadi. Kapillyar qon ketishini dastlab yaraning atrofini yod bilan artib steril bog'lam yoki vodorod peroksidining 3 foizli eritmasiga ho'llangan bog'lam yordamida to'xtatish oson.

Tashqi qon ketishi turli usullar bilan to'xtatiladi.

Kuchli bo'lmagan (vena yoki arterial) qon ketishida yaraning ustiga qattiq siquvchi bog'lam qo'yiladi va tananing qonayotgan qismi tepaga ko'tariladi.

Siquvchi bog'lam quyidagicha qo'yiladi: yara atrofidagi teri yod bilan artiladi, yaraning ustiga bog'lam materiallari (bir nechta qavat steril doka, bint), paxta qo'yiladi va siqib bog'lanadi. Agar qon ketishi to'xtatmasa, qo'yilgan bog'lam materiallarini olmasdan turib, uning ustiga yana bir nechta qavat doka, paxta qo'yilib siqib bog'lanadi. Agar qo'l-oyoqlar bog'lanadigan bo'lsa, bint o'ramlari pastdan yuqoriga barmoqlardan tanaga qarab bog'lanishi kerak. Jarohatlangan qo'l yoki oyoq tepaga ko'tarib qo'yiladi.

Kuchli qon ketishini tez to'xtatish uchun qonayotgan tomirni yaradan teparoqda (qon oqimi bo'ylab) suyakka barmoqlar bilan bosib turish kerak. 32-rasmda arteriya qon tomirlarini bosib turganda eng samarali bo'lgan joylar nuqtalar bilan ko'rsatilgan. Quyidagi jarohatlarda qon

ketishini to'xtatish uchun bosiladigan nuqtalar: peshona yoki chakkada-chakka arteriya qon tomirini quloq suprasi oldida (1-nuqta);

Quyidagi jarohlarda qon ketishini to'xtatish uchun bosiladigan nuqtalar:

peshona yoki chakkada — chakka arteriya qon tomirini quloq suprasi oldida (1-nuqta);

gardanda — gardan arteriyasini bosish (2-nuqta);

boshda yoki bo'yinda — uyqu arteriyasi qon tomirlarini bo'yin umurtqa pog'onalariga bosish (3- va 4 - nuqtalar);

yelkada (yelka bo'g'imlari oldida) va qo'ltiq ostida — o'mrov osti arteriyani o'mrov osti chuqurchasidagi suyakka bosish (5-nuqta);

Qon tomirlaridan qon ketishini to'xtatish uchun arteriyalarni bosish kerak bo'lgan joylari

yelka oldida — qo'ltiq osti (6-nuqta) yoki yelka (7-nuqta) arteriyasini yelka o'rtasida ichki tomondan bosish;

qo'l panjasi yoki barmoqlarida — bilak va tirsak arteriyalarini yelka oldi suyagining pastdagi uchdan bir qismining panja oldida bosish (8- va 9-nuqtalar);

son qismida — son arteriyasini butida bosish (10-nuqta);

boldirda — son arteriyasini sonning o'rtasida (11-nuqta) yoki tizza osti arteriyani (12-nuqta) bosish;

oyoq yuzasi va panjalarida — oyoq yuzasidagi orqa arteriyasini (13-nuqta) yoki orqa katta boldir arteriyasini (14-nuqta) bosish.

Oyoq va qo'llardagi qon ketishini uni jarohat joyidan yuqoriroqda bo'g'imda bukish yo'li bilan to'xtatish mumkin, agar bu qo'l yoki oyoq sinmagan bo'lsa (33-rasm). Jabrlanuvchining tezlik bilan yengini yoki shimining pochasini shimarish va bo'g'imini bukishda hosil bo'lgan chuqurchaga bir siqim paxta, doka yoki istalgan mato bo'lagini solib qo'yish va bo'g'inni kuch bilan, oxirigacha bukish kerak. Bunda bukilgan joydagi o'tgan yaraga qon keltiruvchi arteriya siqiladi. Oyoq yoki qo'l shunday buklangan holatida jabrlanuvchining tanasiga ro'mol, sharf yoki kamar bilan bog'lab qo'yilishi kerak.

Jarohatlangan oyoq — qo'llardan qon kuchli ketganida uni chirmov (jgut) bilan qattiq : tortib bog'lash kerak.

Chirmov sifatida har qanday egiluvchan, cho'ziladigan mato, rezina naycha, podtyajkalar va h.dan foydalanish mumkin.

Chirmov jarohatdan yuqoriroq (tanaga yaqinroq) joyga, oldin qon ketayotgan tomirni tegishli suyakka barmoq bilan bosib turgan holda, og'riqni kamaytirish va terining qisilib qolmasligi uchun kiyimning ustidan yoki qandaydir yumshoq qistirma (oyoq-qo'lga o'ralgan bir nechta qavat qilib buklangan bint, doka yoki ro'mol) ustidan bog'lanadi.

Agar yordam bir kishi tomonidan ko'rsatilayotgan bo'lsa, qon tomirini bosib turishni jabrlanuvchiga topshirish mumkin.

Chirmovni ikkala qo'l bilan cho'zib turib, jarohatlangan qo'l-oyoq atrofida ikki-uch marta o'rash kerak, bunda chirmov o'ramlari o'rtasida terining ochiq qolgan joylari bo'lmasligi lozim.

Chirmovni qon ketishi to'xtamaguncha burash lozim. Agar chirmov to'g'ri qo'yilgan bo'lsa, chirmov qo'yilgan joydan pastdagi qon tomirda qonning pulsatsiyasi aniqlanmaydi, bog'langan joydan pastdagi oyoq-qo'lning uchi oqara boshlaydi. Biroq chirmovni juda qattiq bog'lab bo'lmaydi, chunki mushaklarni shikastlash, asab tomirlarini siqib qo'yish va oyoq-qo'l falajini paydo qilish mumkin.

Qo'l ostida bog'lash uchun ishlatsa bo'ladigan cho'ziladigan mato bo'lmasa, oyoq-qo'lni cho'zilmaydigan matodan: bo'yinbog', belbog', buralgan ro'mol yoki sochiqdan va h. yasalgan burama bilan bog'lash mumkin.

Burama yasalishi kerak bo'lgan mato ko'tarilgan oyoq-qo'l atrofida tegishli qistirma qo'yib o'raladi, va oyoq-qo'lning tashqi tomonidan tugun qilib bog'lanadi. Shu tugunning ichiga yoki uning tagiga tayoqchaga o'xshash qandaydir jism tiqilib, qon to'xtashiga qadar buraladi (36-rasm). Kerakli darajagacha buralganidan so'ng tayoqchani, o'zi ochilib ketmaydigan qilib (qo'shimcha halqa yoki bint bilan) mahkamlash kerak.

Yilning iliq davrida chirmov yoki buramani 2 soatdan ko'proq vaqtga, sovuq davrida esa — 1 soatdan ko'proq vaqtga qo'yib bo'lmaydi. Chirmov bundan ko'proq vaqtga qo'yilganda oyoq-qo'l to'qimalarini nobud bo'lishi xavfi bor. Shu boyisdan vaqtni nazorat qilish uchun chirmov yoki buramaning tagiga yoki jarohatlanganning kiyimida bog'lash joyining yoniga, ular qo'yilgan aniq vaqt ko'rsatilgan qog'ozni qistirib qo'yish kerak. Bir soatdan keyin chirmovni (buramani) qoldirish zarurati bo'lsa, jarohatlangan joyini teparoqdan barmoq bilan bosib turib, jarohatlangan joyga qon kelishi uchun chirmovni 10 — 15 daqiqaga echib turish, so'ngra chirmovni oldingi joyidan teparoq yoki pastroqqa qaytadan bog'lab qo'yish kerak. Chirmov bog'langan jabrlanuvchini imkon qadar tezroq davolash muassasasiga yetkazish zarur.

Hayot uchun juda xavfli bo'lgan ichki qon ketishida, qon tananing ichki organlari bo'shliqlariga oqadi va uni amalda to'xtatib bo'lmaydi. Uni jabrlanuvchining tashqi ko'rinishiga qarab aniqlash mumkin: uning rangi oqaradi, terida yopishqoq ter paydo bo'ladi, tez-tez yuzaki nafas oladi, pulsi tezlashib uning ovozi sekin eshitiladi. Jabrlanuvchini yotqizish yoki yarim o'tirgan holatga keltirish, unga tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, taxminin qon ketayotgan joyga "muz" (yax, sovuq suv solingan idish) qo'yish va tezlik bilan shifokorni chaqirish lozim. Agar qorin bo'shlig'i shikastlanganligiga taxmin qilinayotgan bo'lsa, unga ichishga suv berish mumkin emas.

Burundan qon ketganda, jabrlanuvchini o'tqazish, qon dimog'iga oqib tushmasligi uchun boshini oldinga engashtirish, yoqasini echib qo'yish, qanshariga sovuq suvga ho'llangan latta qo'yish, burnining ichiga 3 foizli vodorod peroksidiga ho'llangan paxta yoki doka tikib qo'yish, burun kataklarini 4-5 daqiqaga barmoqlar bilan qisib qo'yish kerak.

Og'izdan qon ketganda (qon qusish) jabrlanuvchining boshini yon tomonga burib yotqizib qo'yish lozim.

Singan, chiqqan, lat eganda va eti uzilganda yordam ko'rsatish

Suyak butunligining buzilishi singan deb ataladi. Jabrlanuvchi singan joyida kuchli og'riqni sezadi, bu og'riq, holatni o'zgartirmoqchi bo'lganda kuchayadi, suyak siniqlarining joyidan siljishi tufayli, qiyyashayish, shishganlikni ko'rish mumkin.

Sinish ochiq yoki yopiq bo'ladi; ochiq sinishda teri qatlamlari ham shikastlangan bo'ladi.

Sinishda, jabrlanuvchiga singan suyakning qimirlamasligini ta'minlash kerak. Bu og'riqni kamaytiradi va suyak siniqlarining keyingi siljini va qon tomirlari hamda yumshoq to'qimalarni ular tomonidan yana jarohatlanishining oldini oladi.

Ochiq sinishlarda oldin qon ketishi to'xtatiladi va steril bog'lam qo'yiladi.

Suyak qimirlamasligi uchun standart shinalar yoki qo'l ostidagi materiallardan (fanera, taxta, yog'ochdan va h.) tayyorlangan shinalardan foydalaniladi.

Yopiq sinishda jabrlanuvchining kiyimini echmaslik — shinalarni kiyimni ustidan qo'yish kerak.

Singan joyga og'riqni kamaytirish uchun "muz" (yax, sovuq suv solingan rezina xalta, suvga ho'llangan latta) qo'yilishi kerak.

Chiqish — bo'g'imdagi suyuqlarning joyidan siljishi, bunda bo'g'imlarning sirti qisman yoki to'liq bir-biriga tegmay qoladi. Qo'l yoki oyoq chiqqan vaqtdagi kuchli og'riq keyin ham

kamaymaydi. Qo‘l yoki oyoq chiqishining hususiyatlari quyidagicha: bo‘g‘imning harakatlantirib bo‘lmasligi, uning nog‘ayritabiiy holati, shishganligi.

Qo‘l-oyoq chiqqanda yoki singanda jarohatlangan qo‘l yoki oyoqni shina yordamida to‘liq harakatlanmasligini ta‘minlash va shikastlangan joyga “muz” qo‘yish kerak. O‘z holicha qo‘l yoki oyoqni kiritishga harakat qilmaslik kerak, buni faqat shifokor qilishi mumkin.

Jabrlanuvchini davolash muassasasiga yetkazish kerak, yo‘lda va tibbiyot xodimlariga topshirish vaqtida jarohatlangan qo‘l-oyoqni yoki tananing boshqa qismini qimirlamaydigan tinch holatda bo‘lishini ta‘minlash lozim.

Qo‘l-oyoq chiqqan yoki singanda shina qo‘yish yo‘li bilan kamida ikkita, singan joydan tepadagi va undan pastdagi bo‘g‘imlarning, katta suyaklar singanidan esa — uchta bo‘g‘imning qimirlamasligini ta‘minlash kerak. Shinaning markazi singan joy oldida bo‘lishi lozim. Shina bog‘lami yirik tomirlarni, asab tolalarni va suyaklarning turtib chiqqan joyini ezmasligi kerak.

Shinani, yaxshisi yumshoq latta va ustidan bint bilan o‘rash kerak. Shina bint, ro‘mol, kamar va h. bilan mahkamlab qo‘yiladi. Shina bo‘lmagan taqdirda, shikastlangan qo‘lni tanaga, shikastlangan oyoqni esa ikkinchi sog‘ oyoqqa bog‘lab qo‘yish kerak.

Elka suyagi singan yoki chiqqanda shinani qo‘lni tirsagida bukib qo‘yish kerak. Qo‘l suyagining yuqori qismi singanida shina ikki — yelka va tirsak bo‘g‘imlariga qo‘yilishi, qo‘l suyagining pastki qismi singanida esa — unga qo‘shimcha bilak bo‘g‘imiga ham qo‘yilishi kerak. Shinani qo‘lga bint bilan bog‘lash, qo‘lni esa ro‘mol yoki bint bilan bo‘yinga osib qo‘yish kerak.

Elka oldi suyagi singan yoki chiqqanda (kaft kengligidagi) shinani tirsak bo‘g‘imidan, jabrlanuvchining kaftiga, go‘yo u mushtumida ushlab turgandek, bir siqim paxta yoki bint solib barmoqlarning uchigacha qo‘yilishi kerak. Shinalar bo‘lmagan taqdirda, qo‘lni ro‘mol bilan bo‘yinga yoki kamzulga osib qo‘yilishi lozim. Agar qo‘l (chiqib ketganida) tanadan orqada qolayotgan bo‘lsa, qo‘l va tananing o‘rtasiga qandaydir yumshoq narsa (masalan buklangan kiyim) qo‘yish kerak.

Shinalarni, iloji boricha oyoqni ko‘tarmasdan, joyida ushlab turish va bir nechta joydan (tanaga, songa, boldirga) bint bilan bog‘lab qo‘yish lozim, ammo bu singan joyning yonida yoki ustida bo‘lishi kerak emas. Bintni bel, tizza yoki tovon ostiga tayoqcha bilan itarish lozim.

Boldir suyaklari singan yoki chiqqanda tizza va boldir bo‘g‘imlari mahkamlab qo‘yiladi.

Umrov suyagi singan yoki chiqqanda qo‘ltiq ostiga shikastlangan tomondan bir siqim paxta qo‘yish, qo‘lni tirsagidan to‘g‘ri burchak ostida bukib tanaga bint bilan o‘rab qo‘yish va bo‘yinga ro‘mol yoki bint bilan osib qo‘yish lozim. Bintni bog‘layotganda shikastlangan qo‘ldan tanaga qarab o‘rash kerak.

O‘mrov suyagi singan yoki chiqqanda bog‘lam qo‘yish

Umurtqa suyagi shikastlanganda unda kuchli og‘riq seziladi va engashib yoki qayirib bo‘lmaydi. Birinchi yordam quyidagicha ko‘rsatilishi kerak: ehtiyotkorlik bilan, jabrlanuvchini ko‘tarmasdan uning orqasiga tagidan keng taxta, oshiq-moshiqdan chiqarib olingan eshikni tiqish yoki jabrlanuvchini yuzini pastga qaratib o‘g‘irish lozim, o‘girayotgan vaqtda uning tanasi egilib ketmasligini (orqa miya shikastlanmasligi uchun) kuzatib turish kerak.

Qovurg‘alar singanda og‘riq nafas olganda, yo‘talganda va harakat qilganda seziladi. Yordam ko‘rsatishda ko‘krak qafasini bint bilan qattiq tortib o‘rash yoki nafas chiqarilganda uni sochiq bilan tortib bog‘lash lozim.

Toz suyaklari singanda toz qismini paypaslaganda, but qismida, dumg‘aza qismida og‘riq seziladi, oyoqni to‘g‘rilab ko‘tarib bo‘lmaydi. Yordam quyidagicha ko‘rsatiladi: jabrlanuvchining orqasiga tagidan keng taxta tiqiladi, uni “qurbaqa” holatiga yotqizish, ya‘ni uning oyoqlarini tizzasida bukib ikki tomonga ochish, to‘piqlarini esa birga qilish, tizzasi tagiga kiyimlarni bukib

qo'yish kerak. Jabrlanuvchini (ichki organlari shikastlanmasligi uchun) yon tomonga o'girish, o'tqazish va oyog'iga tippa-tik qilib qo'yish mumkin emas.

Bosh shikastlanganda bosh suyagi singan bo'lishi (alomatlari: og'iz va qo'loqdan qon oqishi, behushlik holati) yoki miya chayqalishi (alomatlari: bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, qayt qilish, hushini yo'qotish) mumkin. Bunda birinchi yordam quyidagicha ko'rsatiladi: jabrlanuvchini chalqancha yotqizish, boshni ikki tomondan qimirlamaydigan qilib buklangan kiyimlardan yasalgan yostiqchalar bilan mahkamlab qo'yish, qattiq siqib bog'lash lozim, agar ochiq jarohat bo'lsa steril bog'lam qo'yilishi, "muz" qo'yish va shifokor yetib kelguncha to'la tinchlik ta'minlanishi kerak.

Behush holatda bo'lgan jabrlanuvchi qayt qilishi mumkin. Bu holda uning boshini yon tomonga burib qo'yish kerak. Shuningdek uning tili orqaga ketishi natijasida nafasi siqib qolishi mumkin. Bunday holatda jabrlanuvchining pastki jag'ini oldinga tortish va uni, sun'iy nafas oldirishdagidek, shunday holatda ushlab turish kerak.

Lat yeyishda shish, lat egan joyga tekkanda og'riq paydo bo'ladi. Yordam ko'rsatish maqsadida og'riqni kamaytirish va qon talashib qolishining oldini olish uchun "muz" qo'yish, siqib bog'lab qo'yish kerak. Lat egan joyga tegmaslik lozim.

Lat egan joyga yod surtish, ishqalash va isituvchi kompress qo'yish kerak emas, chunki bu og'riqni kuchaytiradi.

Et uzilganda (bo'g'imlar shikastlanganda) kuchli og'riq seziladi, shish paydo bo'ladi va bo'g'imlarning harakati cheklanadi. Birinchi yordamni ko'rsatishda jarohatlangan qo'l-oyoqni bint bilan siqib bog'lash va uning tinch turishini ta'minlash lozim. Jarohatlangan joyga "muz" qo'yish kerak. Jarohatlangan oyoq ko'tarib qo'yilishi, jarohatlangan qo'l esa — ro'mol bilan osib qo'yilishi zarur.

Yuk bosib qolganda jabrlanuvchini yukning tagidan bo'shatib olish, jarohatlangan qo'l-oyoqni siqib bog'lash va uning tagiga buklangan kiyimlardan yasalgan yostiqchani tiqib ko'tarib qo'yish lozim. Jarohatlangan to'qimalar halok bo'lishi vaqtida paydo bo'ladigan zaharli moddalar so'rilishini kamaytirish uchun bintning ustidan "muz" qo'yiladi. Qo'l-oyoqlar singanda shina qo'yilishi kerak.

Agar jabrlanuvchi nafas olmasa va uning pulsi aniqlanmasa, darhol sun'iy nafas oldirish va yuragiga massaj qilish zarur.

Muzlab qolganda yordam ko'rsatish

Past haroratning ta'siri ostida to'qimalarning shikastlanishi muzlab qolish deb ataladi.

Past haroratning ta'siri ostida to'qimalar halok bo'lmay, ulardagi hayotiy jarayonlar sustlashadi. To'qimalarning harorati pastlashgan sari, ularning hayotiy faoliyatini belgilovchi, almashinuv jarayonlari shunchalik sustlashadi (19°S haroratda almashinuv jarayonlari deyarli butunlay to'xtab qoladi, 10°S haroratda esa qon oqimi to'xtaydi). Almashinuv jarayonlarining sustlashishi to'qimalarning hayotiy ehtiyojlarini kamaytiradi, lekin ularning shikastlanishiga olib kelmaydi.

Muzlab qolgan to'qimalar bir maromda isitilmasa, ular halok bo'ladi.

Muzlab qolishning sabablari turlicha bo'ladi, va tegishli sharoitlarda (uzoq vaqt davomida sovuqning ta'siri, shamol, oshgan namlik, siqadigan yoki ho'l poyafzal, harakatsiz holat, jabrlanuvchining yaxshi bo'lmagan umumiy holati — kasallik, darmonsizlik, mastlik, qon yo'qotish va h.) hatto $3 - 7^{\circ}\text{S}$ haroratda ham muzlab qolish mumkin. Dastavval barmoqlar, panjalar, oyoq yuzlari, quloqlar va burun muzlashga moyil bo'ladi.

Yordam ko'rsatayotganda eng muhimi — tananing muzlab qolgan joylarining birdaniga tez isishiga yo'l qo'ymaslik, chunki iliq havo, iliq suv, issiq jismlar va hatto qo'llarning tegishi to'qimalarni nobud qilishi mumkin. Jabrlanuvchini isitilgan xonaga olib kirishdan oldin tanasining

muzlagan joylarini (ko'pincha qo'llari yoki oyoqlari), ularning ustiga issiq o'tkazmaydigan (paxta-bintli, jun va boshqa) bog'lamlar qo'yib issiqning ta'siridan muhofaza qilish zarur. Bog'lam, terining rangi o'zgarmagan joylariga tegmay, faqat terisi aniq oqargan joylarni yopib turishi lozim. Aks holda tananing qon aylanish buzilmagan joylaridagi issiq bog'lam ostida muzlagan joylarga tarqala boshlaydi va ularni sirtidan boshlab isishiga olib keladi, bu esa sirtidagi to'qimalarning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi.

Issiqni o'tkazmaydigan bog'lam qo'yilganidan so'ng qo'l — oyoqlarning muzlagan barmoqlarini harakatlanmasligini ta'minlash zarur, chunki ulardagi tomirlar mo'rt bo'lib qoladi va qon oqimi yura boshlaganidan keyin qon talashib qolishi mumkin.

Buning uchun shinalardan, hamda qo'l ostidagi istalgan narsalardan: qalin karton, faner, taxtachacha bo'laklaridan foydalanish mumkin. Oyoq yuzasi uchun ikkita taxtachadan foydalanish lozim: bittasi boldirdan songacha bo'lgan uzunlikdagi, ikkinchisi — oyoq yuzasining uzunligi bo'yicha. Ular 90° burchak ostida mahkamlab qo'yilishi kerak.

Tananing muzlagan joylaridagi bog'lam u yerda qizish his etilmaguncha va ularning sezish qobiliyati tiklanmaguncha turishi lozim.

Organizmdagi issiqlikni o'rnini to'ldirish va qon aylanishini yaxshilash uchun jabrlanuvchiga issiq shirin choy ichirib turish zarur.

Organizm to'liq muzlashi oqibatida inson hushini yo'qotganida shifokordan oldin yordam ko'rsatishning asosiy qoidasi issiq xonaga olib kirishdan avval jabrlanuvchining qo'l va oyoqlariga issiq o'tkazmaydigan bog'lam qo'yishdan iboratdir. Agar jabrlanuvchining enidagi poyafzal yaxlab qolgan bo'lsa, uni echish emas, balki oyoqlarini po'stin, palto yoki qo'l ostidagi boshqa narsa bilan o'rab qo'yish kerak. Jabrlanuvchini, issiq o'tkazmaydigan bog'lamlarini echmasdan, zudlik bilan eng yaqin davolash muassasasiga yetkazish lozim.

Hushsizlikda, issiqlik va quyosh nuridan jarohatlanishda yordam ko'rsatish

Behushlik — bu to'satdan, miyadan qonning ketib qolishi sababli qisqa vaqtga (bir necha soniyadan bir necha daqiqagacha) hushni yo'qotishdir. Odatda, behush bo'lishdan oldin bosh aylanadi, ko'z-oldi qorong'ulashadi, qulog'i shang'illaydi, ayrim hollarda ko'ngil aynaidi va qayt etadi. Behushlik qattiq qo'rquv, kuchli og'riq, qon ketishi, tananing yotgan holatdan tikka holatga keskin o'tishi natijasida sodir bo'lishi mumkin.

Behushlikda jabrlanuvchi qattiq terlaydi, qo'l-oyoqlari muzlaydi, pulsi tez-tez uradi va uning ovozi sekin chiqadi, nafas olishi sirtqi bo'ladi, teri qatlamlari oqaradi.

Yordam ko'rsatganda jabrlanuvchini boshi tanasidan pastroq turadigan qilib chalqancha yotqizish, nafas olishda siquvchi kiyimining tugmalarini echish, toza havo kelishini ta'minlash, yuziga sovuq suv sepish, nashatir spirtiga ho'llangan paxtani hidlatish, yuziga shapatilab urish lozim. Behush holatdagi jabrlanuvchi qayt qilishi mumkin, shuning uchun uning boshini yon tomonga burib qo'yish kerak. Uning boshiga muz va ho'llangan latta qo'yish kerak emas. Jabrlanuvchi hushidan ketishidan oldingi holatida unga sovuq suv yoki issiq choy berish lozim.

Issiqlik va quyosh nuridan jarohatlanish organizmning qattiq isib ketishi va buning oqibatida miyaga qon quyilishi sababli sodir bo'ladi. Bu organizmdagi issiqlik balansi buzilib, tashqaridan keladigan issiqlik va organizmda hosil bo'ladigan issiqlikning chiqishi qandaydir sabablarga ko'ra qiyinlashganda yuz beradi. Atrof-muhitning ko'tarilgan harorati, uning o'ta namligi, suv o'tkazmaydigan (rezinalashtirilgan, brezent) kiyimlar organizmga issiqlikni salbiy ta'sir etishiga sabab bo'ladi. Og'ir jismoniy ish, mastlik, kam uxlashlik, suv ichish va ovqatlanish rejimining buzilishi ham issiqlikni ta'sirida organizmning qizib ketishiga sabab bo'ladi.

Issiqlik ta'sirida jarohatlanganda odamning ahvoli yomonlashadi, o'zi bo'shshadi, kuchli qizish seziladi, teri qizaradi, kuchli ter chiqishi (ter tomchi-tomchi bo'lib oqadi), yurakning urishi

tezlashadi, nafas siqadi, pulsi tezlashadi, chakada og'irlik seziladi, bosh aylanadi, bosh og'riydi, ko'ngil ayniydi, gohida qayt etishi mumkin. Tananing harorati 38 — 40°S gacha ko'tariladi. Pulsning tezligi bir daqiqada 100 — 120 urishgacha yetadi.

Issiq urishi issiqlikni organizmda o'ta to'planishi (tananing harorati 41-42°S va undan yuqori) hususiyatiga ega bo'lib, insonning ongi xiralashadi va hatto hushidan ketishi mumkin, turli guruh mushaklarining uvishib qolishi, nafas olish va qon aylanishining buzilishi ro'y beradi. Gallyutsinatsiyalar, alahsirash paydo bo'lishi mumkin. Teri qurib va qizib ketadi, til ham quruq bo'lib, pulsi ipsimon va notekis uradi.

Agar issiq urganda o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa, odam o'lib qolishi mumkin. Nafas olish va qon aylanish tizimlarining buzilishi o'limga olib kelishi mumkin.

Oftob urishi odam boshiga hech narsa kiymay uzoq vaqt davomida bevosita quyosh nurlari ostida bo'lganida sodir bo'ladi. Oftob urishining alomatlari xuddi issiq urishi alomatlari bilan bir xil bo'ladi.

Issiq yoki oftob urganida quyidagicha yordam ko'rsatiladi: jabrlanuvchini zudlik bilan salqin joyga olib o'tish; boshini tagiga buklangan kiyimdan yasalgan yastiqchani qo'yib chalqancha yotqizish; kiyimlarini tugmasini echib bo'shatish yoki kiyimlarini echish; boshi va ko'kragini sovuq suv bilan xo'llash; boshiga (peshonasi, boshini tepasi, gardaniga) hamda qon tomirlar ko'p o'tgan joylari: butiga, o'mrov suyagi ostiga, qo'ltig'ining tagiga, va tizza ostiga sovuq suvga ho'llangan latta yoki muz qo'yish lozim.

Agar odam hushini yo'qotmagan bo'lsa, unga achchiq sovuq choy yoki sovuq tuzli suv ichirish kerak. Jabrlanuvchining nafas olishi qiyinlashgan bo'lsa va pulsi aniqlanmasa, reanimatsion chora-tadbirlarning barchasini; sun'iy nafas oldirish va yurakka tashqi massaj o'tkazishni bajarish kerak.

Cho'kkanda yordam ko'rsatish

Cho'kkan odamga ko'rsatiladigan birinchi yordam uning qanday cho'kkanligiga bog'liq bo'ladi. Cho'kishning turlari ikki xil bo'ladi: ko'kimtir turi (ko'k asfiksiya), unda o'pkaga suv to'lib qoladi, va oqargan turi (oq asfiksiya) unda suv o'pkaga kirmaydi.

Cho'kishning ko'kimtir turi, ko'pincha cho'kayotgan odam, ko'p energiya sarflab, suvning sirtida suzishga harakat qilib darrov cho'kmaganida kuzatiladi. Bunda uning nafas olishi betartib bo'lib qoladi. Nafas olganida katta miqdorda suv yutib yuborib ichagi suvga to'lib qoladi. Bu nafas olishini qiyinlashtiradi va vaznini og'irlashtiradi. Kislorod yetishmovchiligi — gipoksiya boshlanadi. Suvga to'liq kirib ketganidan keyin odam refleks tariqasida nafas olishni to'xtatadi. O'sib boruvchi gipoksiya odamning hushidan ketib qolishiga olib keladi va terining ko'kimtir rang olishiga sabab bo'ladi. O'pka shishib borishi bilan odamning og'zi va burnidan ko'pik chiqq boshlaydi, yuragi urishdan to'xtaydi.

Cho'kishning oqargan turi o'z hayoti uchun kurashishga harakat qilmay tez cho'kib ketgan yoki behush holatda cho'kkan odamlarda bo'ladi. Sovuq suvga tushganda nafas olishi va yurak urishi birdaniga to'xtab qoladi. Halqumga tushgan suv ovoz tirqishining refleks tariqasida yopilib qolishiga sabab bo'ladi va nafas olish yo'llari havo o'tkazmaydigan bo'lib qoladi. Bunda suv va havo kirmaydi.

Cho'kishning ko'kimtir turida jabrlanuvchini suvdan olgandan keyin dastlab nafas yo'llaridagi suvni chiqarib tashlash kerak. Qutqaruvchi jabrlanuvchini qornini pastga, o'zining buklangan tizzasiga, uning ko'krak qafasining pastki qismi tiraladigan qilib, boshi va tanasining tepa qismi esa pastga osilib turadigan qilib yotqizishi kerak. Bir qo'l bilan jabrlanuvchining og'zi ochiq bo'lish uchun dahanini bosish yoki boshini ko'tarish lozim va so'ngra boshqa qo'l bilan uning orqasidan qattiq-qattiq (bir necha marta) bosib suvning chiqib ketishiga yordam berish kerak.

Suv oqib chiqishi to'xtaganidan keyin jabrlanuvchini chalqancha yotqizish, og'zining ichini tozalash va sun'iy nafas oldirishni boshlash zarur. Agar jabrlanuvchining uyqu arteriyalarida pulsi bo'lmasa va ko'z qorachig'lari kengaygan bo'lsa, darhol yurakka tashqi massajni boshlash kerak.

Cho'kishning oqargan turida jabrlanuvchini suvdan olgandan keyin darhol reanimatsion chora — tadbirlar (sun'iy nafas oldirish, yurakka tashqi massaj) o'tkazishni boshlash kerak.

Agar yordamchilar bo'lsa, ular shu vaqtda jabrlanuvchining badanini uqalashi va qizdirishi lozim.

Jabrlanuvchi nafas olishini boshlashi bilan unga nashatir spirti hidlatish kerak. Agar jabrlanuvchi hushiga kelsa, unga 20 tomchi valeriana nastoykasidan ichirish, quruq kiyimlar kiydirish, ustini issiqroq qilib o'rab qo'yish, achchiq choy ichirish va tibbiyot xodimlari yetib kelishiga qadar to'liq tinchlik ta'minlab berilishi kerak.

Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarish jarohatlarining tashkiliy xarakterdagi sabablarini sanang?
2. Ishlab chiqarish jarohatlarining texnik xarakterdagi sabablarini sanang?
3. Texnik xarakterdagi jarohatlarning profilaktikasiga nimalar kiradi?
4. Qon oqish jarohatlari qanday bo'ladi?
5. Arterial qon oqishda jgut jarohat joyining qayeridan bog'lanadi?
6. Jarohatlanganlarga birinchi yordamni kim ko'rsatishi lozim?
7. Yurak urishi to'xtaganda belgilangan tartibda ko'krak qafasi minutinga necha marta bosiladi?
8. Kuyish necha guruhga bo'linadi?
9. Quyosh urishi qanday sodir bo'ladi?
10. Ko'p qon oqish bilan bog'liq jarohatlangan kishiga birinchi yordam ko'rsatilgandan so'ng qancha vaqt davomida tibbiyot muassasasiga etkazish lozim?

Mavzu: ELEKTR TOKIDAN JAROXATLANGANDA VA ZAHARLANGANDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH

Reja;

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Elektr tokidan jaroxatlanganda birinchi yordam ko'rsatish.
3. Zaharlanganda birinchi yordam ko'rsatish.
4. Kuyganda va boshqa hil zarar yetganda birinchi yordam ko'rsatish.

Umumiy ma'lumotlar

Birinchi yordam ko'rsatish usullari jabrlangan odamning holatiga bog'liqdir.

Jabrlangan odam sog'lig'ining holatini quyidagi alomatlar bo'yicha aniqlash mumkin:

es-hushi: aniq, yo'q, shikastlangan (jabrlanganning harakatlari susaygan yoki hayajonlangan);
teri qatlamlarining va ko'rinadigan shilliq (lab, ko'z) pardalarining rangi: pushti, ko'kargan, oqarib ketgan;

nafas olishi: bir maromda, yo'q, buzilgan (noto'g'ri, sirtki, xirillagan);

uyqu arteriyalaridagi puls: yaxshi aniqlanmoqda (urishi tekis yoki notekis), yaxshi aniqlanmayapti yoki yo'q;

ko'z qorachig'lari: kengaygan, toraygan.

Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lganda yordam ko'rsatuvchi shaxs o'zini yo'qotib qo'ymasdan bir daqiqa ichida jabrlanganning holatini baholay bilishi va unga qanday tartibda va qaysi hajmda yordam ko'rsatilishini belgilab olishi lozim.

Jabrlanganning hushi o'zida yoki yo'qligiga qarab aniqlanadi. Bunga to'la ishonch hosil qilish uchun jabrlanganning holatini o'zidan so'rash kerak.

Teri qatlamlarining rangi va nafas olishi (ko'krak qafasining ko'tarilishi va tushirilishi) ham qarab aniqlanadi. Har daqiqasi qimmat bo'lgan vaqtni nafas olishini aniqlash uchun og'zi yoki burniga oyna va yaltiroq metall jismlarni qo'yish uchun ketkizib bo'lmaydi.

Uyqu arteriyasida pulsni aniqlash uchun qo'l barmoqlarini jabrlanuvchining tomog'iga (traxeyasiga) qo'yiladi va ularni ozgina chetga surib, bo'ynining yon tomonidan ushlab ko'riladi.

Ko'zlarning yumuq holatida ko'z qorachig'ining kengligi quyidagicha aniqlanadi: ko'rsatkich barmoqlarini ikkala ko'zning yuqori qovoqlariga qo'yiladi va ko'z olmasini asta bosib yuqoriga ko'tarish kerak. Bunda ko'z qiya ochiladi va ko'zning yoy pardasi, uning markazida esa dumaloq shakldagi ko'z qorachig'i ko'rinadi. Ularning (kengaygan yoki toraygan) holati yoy pardasining ular egallagan maydoniga qarab baholanadi.

Jabrlanganning es-hushi qay darajada buzilganligi, teri qatlamlarining rangi va nafas olishining holatini pulsni aniqlash bilan bir vaqtda baholash mumkin, buning uchun bir daqiqa vaqt yetadi. Ko'z qorachiqlarini bir necha soniya ichida ko'rib olish mumkin.

Elektr toki yoki boshqa xavfli omillar ta'siridan so'ng jarohatlangan odamning badanida ko'zga ko'rinadigan og'ir jarohatlar bo'lmasa, jarohatlangan odam harakatlanishiga va ayniqsa ishini davom ettirishiga ruxsat berib bo'lmaydi, chunki uning sog'lig'i keyinchalik birdaniga og'irlashib qolishi mumkin. Faqatgina shifokor jabrlangan odam sog'lig'ining holatini baholashi mumkin.

Yashin urganida jabrlangan odamni yerga ko'mish mumkin emas, bu faqat zarar keltiradi va uni saqlab qolishda qimmatli bo'lgan vaqtni yo'qotilishiga olib keladi.

Agar jabrlangan odamning es-hushi o'zida bo'lsa (bundan oldin esa hushidan ketgan bo'lib, lekin nafas olishi va pulsi bir maromda saqlanib qolgan bo'lsa) uni, masalan, kiyimlardan to'shalgan, taglikka yotqizish; muntazam nafas olishi va pulsini kuzatib turib nafas olishiga xalal beruvchi kiyimlarini echib bo'shatish; unga toza havo kelishi uchun sharoit yaratish; agar kun sovuq bo'lsa uning badanini isitish; kun issiq bo'lsa uni salqinroqqa joylashtirish; osoyishtalikni ta'minlash, ortiqcha odamlarni ketkizish; suvdagi valeriana eritmasini (20 tomchi) ichirish lozim.

Agar jabrlanuvchi behush bo'lsa, uning nafas olishini kuzatib turish lozim, agar tilining orqaga ketib qolishi oqibatida nafas olishi sekinlashsa, past jag'ini oldinga chiqarish kerak. Buning uchun ikkala qo'lning to'rtta barmog'i bilan past jag'ni orqa tomondan burchaklaridan ushlab tortiladi va yuqoridagi tishlar past tishlardan oldinda turadigan qilib suriladi. Tilning orqaga ketib qolishi to'xtamaguncha uni shunday ushlab turish lozim. Behush bo'lgan jabrlanuvchiga nashatir spirti hidlatib turish, yuziga sovuq suv sepib turish lozim.

Jabrlanuvchining ko'ngli aynisa va u qayt qilishni boshlasa, qusish moddalarini yo'qotish uchun uning boshi va yelkalarini yon tomonga (yaxshisi chapga) burish kerak.

Agar jabrlanuvchi entikib, juda sekin nafas olayotgan bo'lsa, lekin pulsi sezilayotgan bo'lsa unga darhol sun'iy nafas olish muolajasini boshlash lozim. Sun'iy nafas oldirish vaqtida jabrlanuvchi yotgan holatda bo'lishi shart emas. Sun'iy nafas oldirishni, jabrlanuvchi xavfli va zararli omillar ta'siridan xalos etilib, hamda u tayanchdan pastga tushirilib, xavfli zonadan olib chiqilganidan so'ng darhol boshlash kerak.

Agar jabrlanuvchi behush bo'lsa va u nafas olmasa, pulsi sezilmasa, teri qatlamlari ko'kargan va ko'z qorachig'i kengayib ketgan bo'lsa, darhol sun'iy nafas oldirish va yurakning tashqi massajini o'tkazish yo'li bilan organizmning hayotiy funksiyalarini tiklashga harakat qilish kerak.

Ushbu chora-tadbirlar majmuasi reanimatsiya (ya'ni jonlantirish) deb, chora-tadbirlar esa — reanimatsion chora-tadbirlar deb ataladi.

Qimmatli vaqtni yo‘qotib jabrlanuvchini echintirishning hojati yo‘q. Shuni esda tutish kerakki, yurak to‘xtatgan vaqtdan 4 daqiqa o‘tmagan bo‘lsa jonlantirish muolajalari samara berishi mumkin, shuning uchun ham birinchi yordamni tez va imkoni boricha hodisa ro‘y bergan joyda ko‘rsatish kerak.

Jabrlanuvchi nafas olmayotgan bo‘lsa yoki uning pulsi sezilmasa, uni o‘lgan deb hisoblab unga yordam ko‘rsatishdan bosh turtib bo‘lmaydi. Jabrlanuvchining o‘lgani haqidagi xulosani faqat tibbiyot xodimlari chiqarishi mumkin.

Jonlantirish harakatlarini boshlash bilan birga shifokor yoki tez yordamni chaqirish haqida ham o‘ylash kerak, faqat buni yordam ko‘rsatayotgan shaxs emas, balki boshqa shaxs qilishi lozim.

Jabrlanuvchi nafas olishining, qon aylanishining to‘xtash vaqti, sun‘iy nafas oldirishni va yurakka tashqi massaj o‘tkazishni boshlash vaqtini, hamda reanimatsion chora-tadbirlarning davomiyligini eslab qolish va ularni yetib kelgan tibbiyot xodimlariga ma‘lum qilib yetkazish kerak.

Sun‘iy nafas oldirish va yurakka tashqi massajni o‘tkazish usullari

Sun‘iy nafas oldirish. Sun‘iy nafas oldirish jabrlanuvchi nafas olmayotganda yoki og‘ir (sekin, entikib) nafas olayotganida, hamda qanday: elektr toki ta‘siri, zaharlanish, cho‘kish va boshqa sabab bo‘lishidan qat‘iy nazar nafas olishi muntazam og‘irlashib borayotganda o‘tkaziladi.

Sun‘iy nafas oldirishning eng samarali usuli bo‘lib “og‘izdan og‘izga” yoki “og‘izdan burunga” usuli hisoblanadi, bunda jabrlanuvchining o‘pkasiga yetarli hajmda havo yetkazib berilishi ta‘minlanadi. “Og‘izdan og‘izga” yoki “og‘izdan burunga” usuli yordam ko‘rsatuvchi shaxs chiqarayotgan havoni majburan jabrlanuvchining havo yo‘llariga yuborilishiga asoslanadi, bunda fiziologik jihatdan ushbu yuborilayotgan havodan jabrlanuvchining nafas olishi uchun foydalansa bo‘ladi. Havoni doka, ro‘molcha va h. orqali yuborsa bo‘ladi. Sun‘iy nafas oldirishning ushbu usuli jabrlanuvchining o‘pkasiga havo kelishini nazorat qilish imkonini beradi, chunki ko‘krak qafasi havo puflanayotganda ko‘tarilishi va havo chiqarilganda pastga tushishini ko‘rish mumkin.

Sun‘iy nafas oldirishni o‘tkazish uchun jabrlanuvchini chalqancha yotqizish, nafas olishni siqib turgan kiyimlarining tugmalarini echib bo‘shatish va behush chalqancha yotganda orqaga ketib qolgan til bilan yopilib qolgan yuqori nafas olish yo‘llari o‘tkazuvchanligini ta‘minlash lozim. Bundan tashqari, og‘iz bo‘shlig‘i ichida yot moddalar (qusuq moddalari, echilib tushgan protezlar, agar odam cho‘kkan bo‘lsa, qum, balchiq, o‘tlar va h.) bo‘lishi mumkin, ularni jabrlanuvchining boshini yon tomonga burib dastro‘mol (latta) yoki bint o‘ralgan ko‘rsatkich barmoq bilan olib tashlash kerak. Shundan so‘ng yordam ko‘rsatuvchi shaxs jabrlanuvchi boshining yon tomoniga joylashib, bir qo‘lini uning boshini tagidan o‘tkazadi, ikkinchi qo‘lining kafti bilan jabrlanuvchining boshini imkoni boricha orqaga ag‘darib peshonasini bosishi lozim.

Sun‘iy nafas oldirish vaqtida jabrlanuvchi boshining holati

Bunda tilning asosi ko‘tarilib halqumga kirish yo‘lini ochib beradi, jabrlanuvchining og‘zi esa ochiladi. Yordam ko‘rsatuvchi shaxs jabrlanuvchining yuziga engashib, og‘zini ochib chuqur nafas oladi so‘ngra lablari bilan jabrlanuvchining og‘zini to‘liq yopib jabrlanuvchining og‘ziga havo yuborib tez nafas chiqaradi; shu bilan bir vaqtda u jabrlanuvchining burnini yuzi bilan yoki peshonani ushlab turgan qo‘lning barmoqlari bilan yopishi kerak.

Sun‘iy nafas oldirishning “Og‘izdan-burunga” usuli

Bunda jabrlanuvchining ko‘tarilishi kerak bo‘lgan ko‘krak qafasini kuzatib turish lozim. Ko‘krak qafasi ko‘tarilishi bilan havo puflash to‘xtatiladi, yordam ko‘rsatuvchi shaxs boshini ko‘tarib, jabrlanuvchi asta-sekin nafas chiqaradi. Nafas chiqarish yanada chuqurroq bo‘lishi uchun

ko'krak qafasini sekin bosgan holda jabrlanuvchining o'pkasidan havo chiqishiga ko'maklashish mumkin.

Agar jabrlanuvchining pulsi yaxshi aniqlanayotgan va unga faqat sun'iy nafas oldirish kerak bo'lsa, sun'iy nafas oldirish o'rtasidagi vaqt oralig'i 5 soniyani tashkil etishi kerak, bu bir daqiqada 12-marta nafas oldirishdan iboratdir.

Ko'krak qafasi kengayishidan tashqari teri qatlamlarining va shilliq pardalarning pushti rangga kirishi, hamda jabrlanuvchining behushlik holatidan chiqib o'zi mustaqil nafas ola boshlashi, sun'iy nafas oldirish samaradorligini yaxshi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Sun'iy nafas oldirishni o'tkazishda yordam ko'rsatuvchi shaxs puflanayotgan havoning jabrlanuvchini oshqozoniga emas, balki o'pkasiga o'tishini kuzatib turishi kerak. Qorinning shishishi havoning oshqozonga o'tganidan dalolat beradi, bunda ko'krak va kindik o'rtasida qorin qo'lining kafti bilan ehtiyotkorlik bilan asta-sekin bosib eziladi. Bunda jabrlanuvchi qayt etishi mumkin, bunda uning og'zi va halqumini tozalash uchun jabrlanuvchining boshi va yelkasini yon tomonga (yaxshisi chapga) burish kerak.

Agar havo puflanganda ko'krak qafasi ko'tarilmasa, jabrlanuvchining past jag'ini oldinga tortib chiqarish lozim.

Agar jabrlanuvchining jag'lari bir-biriga mahkam bosilgan bo'lib uning og'zini ochib bo'lmasa, bu holda sun'iy nafas oldirishni "og'izdan burunga" usuli bilan o'tkazish kerak.

Jabrlanuvchi o'zi mustaqil nafas ololmasa va uning pulsi aniqlanayotgan bo'lsa, baxtsiz hodisa minoraning savatchasida, tayanchda yoki machtada ro'y bergan bo'lsa sun'iy nafas oldirishni o'tirgan yoki turgan holatda o'tkazish mumkin. Bunda jabrlanuvchining boshini imkoni boricha orqaga engashtiriladi yoki past jag'i oldinga suriladi. Qolgan usullar xuddi oldingidek o'tkaziladi.

Ish joyida jabrlanuvchining turgan holatida sun'iy nafas oldirish

Kichkina bolalarga havoni puflaganda bir vaqtda o'zining og'zi bilan bolaning burnini ham yopib, ham og'ziga ham burniga havo puflanadi. Bola qanchalik kichkina bo'lsa, nafas olganida unga puflanadigan havo shunchalik kam bo'lishi kerak va katta odamga nisbatan ko'proq marta havo puflanishi lozim (bir daqiqada 15 — 18-marta). Yangi tug'ilgan chaqaloqqa katta odamning og'iz bo'shlig'idagi havo yetarli bo'ladi. Shuning uchun bolaning nafas olish yo'llari shikastlanmasligi uchun unga havoni juda keskin emas va to'liq bo'lmagan hajmda puflash kerak.

Bolaga sun'iy nafas oldirish

Jabrlanuvchining o'zi dastlabki sust nafas ola boshlashi bilan sun'iy nafas oldirishdagi havoni, o'zi nafas olayotgan vaqtda puflash lozim.

Jabrlanuvchi yetarli darajada chuqur va bir maromda mustaqil nafas olganidan so'ng unga sun'iy nafas oldirish to'xtatiladi.

Jabrlanuvchi nafas olmasa va uning uyqu arteriyasida puls aniqlanmasa, bu holda sun'iy nafas oldirish uchun ikki marta havo puflanadi va yurakka tashqi massaj o'tkazishni boshlash kerak.

Yurakka tashqi massaj o'tkazish. Jabrlanuvchi nafas olmasa va uning uyqu arteriyasida puls aniqlanmasa unga yordam ko'rsatayotganda faqat sun'iy nafas oldirishning o'zi yetarli bo'lmaydi, chunki o'pkadagi kislorod qon bilan boshqa organlar va to'qimalarga o'ta olmaydi. Bu holda sun'iy ravishda qon aylanishini tiklash kerak, buning uchun yurakka tashqi massaj o'tkazish lozim.

Odamning yuragi ko'krak qafasida to'sh suyagi va umurtqa pog'onasi o'rtasida joylashgan bo'ladi. To'sh suyagi — harakatchan yassi suyakdir. Odam chalqancha (qattiq sirtida) yotganida umurtqa pog'onasi harakatsiz qattiq asos bo'lib qoladi. Agar to'sh suyagi bosilsa, yurak to'sh suyagi va umurtqa pog'onasi o'rtasida siqiladi va uning ichidagi qon tomirlarga siqib chiqariladi. Agar to'sh suyagiga ilqib-ilqib bosilsa, yurakdagi qonning siqib chiqarilishi xuddi yurak tabiiy

qisqarganida chiqqanidek bo'ladi. Bu yurakka tashqi (bilvosita, yopiq) massaj o'tkazish deb ataladi, bunda qon aylanishi sun'iy ravishda tiklanadi. Shunday qilib, sun'iy nafas oldirish yurakka tashqi massaj o'tkazish bilan birgalikda amalga oshirilsa, nafas olish va qon aylanish funksiyalari amalga oshiriladi.

Quyidagi: teri qatlamlarining oqarib yoki ko'karib ketishi, hushini yo'qotish, uyqu arteriyalarida pulsning aniqlanmasligi, nafas olishning to'xtab qolishi yoki entikib, to'xtab-to'xtab nafas olish alomatlarining birgalikdagi ko'rinishi yurak faoliyatining to'xtab qolganidan dalolat beradi va reanimatsion chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

Yurak to'xtab qolganda, vaqtni zoye kyetkazmasdan, jabrlanuvchini qattiq tekis joyga: kursiga, polga, hech narsa bo'lmaganda tagiga taxta qo'yib yotqizish lozim.

Agar bitta odam yordam ko'rsatayotgan bo'lsa, u jabrlanuvchining yon tomoniga o'rnatilib oladi va engashib ikki marta ("og'izdan-og'izga" yoki "og'izdan-burunga" usuli bilan) tez havo puflaydi, so'ngra qaddini rostlab, jabrlanuvchining shu tomonida qolib, bitta qo'lining kaftini to'sh suyagining pastki yarmiga, tagidagi uchidan ikki barmoq yuqoriroqqa qo'yadi, barmoqlarini esa sal ko'taradi. Ikkinchi qo'lining kaftini birinchi kaftining ustiga ko'ndalang yoki uzunasiga qilib qo'yib, engashgan gavdasi bilan yordam bergan holda bosadi. Bosganda qo'llar tirsak bo'g'imlarida to'g'ri bo'lishi kerak.

Yurakka tashqi massajni o'tkazishda yordam ko'rsatuvchi shaxs turishi kerak bo'lgan joy

Bosganda tez-tez shunday siltab bosish kerakki, to'sh suyagi 4-5 sm.ga surilishi, bosish davomiyligi 0,5 soniyadan oshmasligi, alohida bosishlar oralig'i ham 0,5 soniyadan oshmasligi kerak.

Bosishlar oralig'ida qo'llar to'sh suyagidan olinmaydi (agar ikki kishi yordam berayotgan bo'lsa) barmoqlar ko'tarilgan holatda bo'lishi, qo'llar tirsak bo'g'imlarida to'liq to'g'rilangan bo'lishi lozim.

Agar jonlantirishni bitta odam o'tkazayotgan bo'lsa, har ikki marta chuqur havo puflanganida to'sh suyagini 15-marta bosish kerak, so'ngra yana ikki marta havo puflanadi va yana 15-marta to'sh suyagini bosish kerak va h. Bir daqiqa ichida to'sh suyagini kamida 60-marta bosish va 12-marta havo puflash, ya'ni 72 muolajani bajarish lozim, shuning uchun reanimatsion chora-tadbirlarning sur'ati yuqori bo'lishi kerak. Tajribaning ko'rsatishicha, sun'iy nafas oldirishga ko'proq vaqt sarflanadi. Havoni puflashda jabrlanuvchining ko'krak qafasi kengayishi bilan havo puflashni to'xtatish lozim.

Sun'iy nafas oldirish va yurakka tashqi massajni bir kishi tomonidan o'tkazilishi

Reanimatsion chora-tadbirlar ikki kishi tomonidan o'tkazilayotgan bo'lsa, "nafas oldirish — massaj qilish" nisbati 1:5 ni tashkil qiladi, ya'ni bitta chuqur havo puflanganidan so'ng ko'krak qafasi besh marta bosilishi kerak. Jabrlanuvchiga sun'iy nafas oldirish vaqtida yurakka massaj qilayotgan kishi ko'krak qafasini bosmay turadi, chunki ko'krak qafasi bosilganidagi harakatlar havo puflanishidan kuchliroq bo'ladi (havo puflanishida ko'krak qafasining bosilishi sun'iy nafas oldirishni va dyemak reanimatsion chora-tadbirlarni samarasiz qilib qo'yadi). Reanimatsion chora-tadbirlar ikki kishi tomonidan o'tkazilayotganda yordam ko'rsatuvchi shaxslar har 10 — 15 daqiqada o'rin almashib turishi maqsadga muvofiqdir.

Sun'iy nafas oldirish va yurakka tashqi massajni ikki kishi tomonidan o'tkazilishi

Yurakka tashqi massaj to'g'ri bajarilganda to'sh suyagining har bosilishida arteriyalarda puls paydo bo'lishiga olib keladi.

Yordam ko'rsatuvchi shaxslar yurakka tashqi massajni to'g'ri va samarali o'tkazilayotganligini uyqu va son arteriyalarida pulsning paydo bo'lishi bo'yicha vaqti-vaqti bilan nazorat qilib turishlari lozim. Jonlantirish bir kishi tomonidan o'tkazilayotgan bo'lsa, u har 2

daqiqada uyqu arteriyasidagi pulsni aniqlash uchun yurakka massaj qilishni 2-3 soniyaga to'xtatib turishi lozim. Agar jonlantirish ikki kishi tomonidan o'tkazilayotgan bo'lsa, uyqu arteriyasidagi puls sun'iy nafas oldirishni o'tkazayotgan shaxs tomonidan nazorat qilinadi. Massaj qilish vaqtidagi tanaffusda pulsning paydo bo'lishi yurak faoliyatining (qon aylanishining) tiklanganligidan dalolat beradi. Bunda yurakka massaj qilishni darhol to'xtatish, ammo sun'iy nafas oldirishni, jabrlanuvchi o'zi barqaror mustaqil nafas olishiga qadar davom ettirish kerak. Puls paydo bo'lmagan taqdirda yurakka massaj qilishni davom ettirish lozim.

Sun'iy nafas oldirish va yurakka tashqi massaj o'tkazishni jabrlanuvchi o'zi mustaqil nafas olishi va yurak faoliyati tiklanishiga qadar yoki uni tibbiyot xodimlari qaramog'iga o'tkazilishiga qadar amalga oshirish lozim.

Agar reanimatsion chora-tadbirlar samarali o'tkazilsa (to'sh suyagi bosilganda yirik arteriyalarda puls aniqlansa, ko'z qorachig'lari toraysa, teri qatlamlarining va shilliq pardalarining ko'karganligi kamaysa), jabrlanuvchida nafas olish va yurak faoliyati tiklanadi.

Organizm jonlanishining (mustaqil nafas olishi, ko'z qorachig'larining torayishi, jabrlanuvchi qo'l-oyoqlarini qimirlatishga harakat qilishi va boshqa) alomatlari paydo bo'lib, uzoq vaqt davomida puls aniqlanmasa, bu yurak fibrillatsiyasidan dalolat beradi. Bu hollarda tibbiyot xodimlari qaramog'iga topshirilishiga qadar jabrlanuvchiga sun'iy nafas oldirish va yuragiga massaj qilish muolajalarini davom ettirish zarur.

12 yoshgacha bo'lgan bolalarga o'tkaziladigan reanimatsion chora — tadbirlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bir yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarga yurak massaji bir qo'lda o'tkaziladi va bolaning yoshiga qarab ko'krak qafasi bir daqiqada 70 dan 100-martagacha bosiladi, bir yoshgacha bo'lgan bolalarga ikkita (ko'rsatkich va bosh) barmoq yoki bolaning tanasini qolgan barmoqlar bilan quchoqlab olib ikkala qo'lning bosh barmoqlari bilan to'sh suyagining o'rtasiga bir daqiqada 100 dan 120-martagacha bosiladi.

Yangi tug'ilgan va bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarga yurak massajini o'tkazish

Yarador bo'lganda yordam ko'rsatish

Har qanday jarohat yarador qilgan jismdagi, jarohatlangan odamning terisidagi, changdagi, yerdagi, yordam ko'rsatuvchi shaxsning qo'llaridagi va toza bo'lmagan bog'lash matosidagi mikroblar bilan ifloslanishi mumkin.

Jarohatlanganga yordam ko'rsatishda quyidagi qoidalarga rioya etish zarur:

jarohat joyini suv yoki har qanday dori moddasi bilan yuvish, ustiga kukun sepish va surtmalar surish mumkin emas, chunki bu yaraning bitishiga to'sqinlik qiladi, uni yiringlatishi va teri sirtidagi ifloslarni kirib qolishiga sabab bo'ladi;

jarohat joyining ichidan qum, tuproqni va h. olib tashlash mumkin emas, chunki shu tariqa jarohat ichidagi hamma ifloslarni olib bo'lmaydi. Yaraning atrofidagi ifloslarni yaraning ichiga tushmasligi uchun undan tashqariga qilib ehtiyotkorlik bilan olish lozim;

terining tozalangan qismiga yod surish va bog'lab qo'yish zarur;

yaraning ichidagi qotib qolgan qonni, kiyim qoldiqlarini va h. olib bo'lmaydi, chunki bu qon oqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin;

yara joyini izolatsiya tasmasi bilan bog'lash yoki uning ustini o'rgimchakning ini bilan o'rab qo'yish mumkin emas, bu qoqshal kasalligiga olib kelishi mumkin.

Yarador bo'lganda birinchi yordam ko'rsatish uchun dori qutichasidagi bog'lash o'ramini uning ustida yozilgan ko'rsatmalarga muvofiq ochish kerak. Bog'lash vaqtida bevosita yaraga tegadigan qismiga qo'l tegizmaslik lozim.

Qandaydir sababga ko'ra bog'lash o'rami bo'lmagan taqdirda, jarohatni bog'lash uchun toza dastro'mol yoki matodan foydalanish mumkin. Yara joyiga bevosita paxta qo'yish mumkin emas.

Matoning bevosita yaraga qo'yiladigan qismiga yaradan kattaroq dog' hosil bo'lguncha bir nechta tomchi yod tomizish, so'ngra esa matoni yaraning ustiga qo'yish kerak.

Yordam ko'rsatuvchi shaxs qo'llarini yuvishi yoki barmoqlarini yod bilan artishi kerak. Biroq yuvilgan qo'llar bilan ham yaraga tegish mumkin emas.

Agar yaraning ustiga tuproq tushgan bo'lsa, qoqshal kasalligiga qarshi emlash uchun darhol shifokorga murojaat qilish kerak.

Kuyganda yordam ko'rsatish

Kuyishlar termik, kimyoviy va elektr kuyishlar bo'ladi, olov, bug', qaynoq jismlar va moddalar ta'sirida termik quyishlar; kislotalar va ishqorlar, hamda ayrim og'ir metallarning tuzlari ta'sirida — kimyoviy kuyishlar; elektr toki va elektr yoyi ta'sirida — elektr kuyishlar sodir bo'ladi.

Jarohatlar chuqurligi bo'yicha barcha kuyishlar to'rtta darajaga bo'linadi: birinchisi-qizarish va terining shishishi; ikkinchisi — suvli pufaklar; uchinchisi — terining sirtqi va chuqur qatlamlarining o'lishi; to'rtinchisi-terining ko'mirga aylanishi, mushaklar va muskul paylari, suyaklarning jarohatlanishi.

Birinchi darajali termik va elektr kuyishlarda inson tanasiga xavfli omil (olov, issiq sirt, qaynoq suyuqlik, gaz yoki bug' va h.) ta'siri bartaraf etilganidan so'ng tananing kuygan joylarini ustiga sovuq suv quyish yoki 15 — 20 daqiqaga qor qo'yish lozim. Bu og'riqni, hamda to'qimalarga issiqlikni ta'sir etish vaqtini va kuyish chuqurligini kamaytiradi va to'qimalarning shishib ketishining oldini oladi.

Kuyish maydoni katta bo'lmagan birinchi va ikkinchi darajali kuyishlarda bint yoki dokadan foydalanib, kuygan joyga steril bog'lam qo'yish kerak.

Jabrlanuvchiga yordam ko'rsatilayotganda, infeksiyalarni yuqtirmaslik uchun terining kuygan joylariga qo'l tegizish yoki unga surtmalar, yog'lar, moylar, vazelin surtish, ichimlik sodasi, kraxmal va h. sepish mumkin emas. Pufakchalarni yorish, kuygan joyga yopishib qolgan mum, kanifol va boshqa smolali moddalarni ko'chirib olish mumkin emas, chunki ular ko'chirilayotganda kuygan terini ham ko'chirib olishi mumkin va shu bilan jarohatlangan joyga infeksiyalar yuqishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Kuygan joydan kiyim va poyafzalni echib olish mumkin emas, ularni qaychi yoki pichoq bilan kesish va ehtiyotkorlik bilan echib olish lozim.

Agar kiyim kuyib teriga yopishib qolgan bo'lsa, uning ustidan steril bog'lam qo'yib, jabrlanuvchini davolash muassasasiga yuborish kerak.

Og'ir va katta maydonli kuyishlarda jabrlanuvchini echintirmasdan toza choyshab yoki matoga o'rab qo'yish, ustiga issiqroq narsa yopish, bitta yoki ikkita analgin yoki amidopirin tabletkasini berish, iliq choy ichirish va shifokor kelishiga qadar tinchlik yaratib berish lozim.

Yuz kuyganda uni steril doka bilan yopib qo'yish kerak.

Shokning dastlabki alomatlarida: jabrlanuvchining rangi keskin oqarib, tez-tez va sirtqi nafas olsa, pulsi yaxshi sezilmasa, unga tezlik bilan 20 tomchi valeriana nastoykasidan ichirib yuborish lozim.

Ko'zlar kuyganda, bor kislotasining (yarim choy qoshiq bor kislotasining bir stakan suvdagi) eritmasiga ho'llab sovuq latta qo'yish va jabrlanuvchini darhol shifokorga yuborish kerak.

Elektr yoyi va elektr toki ta'sirida kuyganda jabrlanuvchini (kuyish maydonining yuzasidan qat'iy nazar) davolash muassasasiga yetkazish kerak, chunki elektr tokining organizmga ta'sir etish xususiyatlarini e'tiborga olib, u doimiy ravishda shifokor kuzatuv ostida bo'lishi zarur. Uning yuragi, jarohatlangan vaqtdan bir necha soat yoki hatto bir sutka keyin to'xtab qolishi mumkin.

Kimyoviy kuyishda, to'qimalar jarohatlanishining chuqurligi ko'p jihatdan kimyoviy modda ta'sir etish vaqtiga bog'liqdir. Shuning uchun kimyoviy moddaning kuchi (konsentratsiyasi) va

ta'sir etish vaqtini imkoni boricha tezroq kamaytirish maqsadida jarohat joyini darhol krandan, rezina shlangdan yoki chelakdan oquvchi katta miqdordagi sovuq suv bilan 15 — 20 daqiqa davomida yuvish kerak.

Agar kislota yoki ishqor kiyim orqali teriga tushgan bo'lsa, oldin uni suv bilan kiyimdan yuvib tashlash, so'ngra esa ehtiyotkorlik bilan kiyimni kesib, ho'l kiyimni jabrlanuvchining ustidan echib olish va shundan keyin terini yuvish zarur.

Odam tanasiga qattiq modda ko'rinishidagi oltingugurt kislotasi yoki ishqori tushsa, uni quruq paxta yoki toza mato bo'lagi bilan olib tashlash, so'ngra jarohatlangan joyni suv bilan yaxshilab yuvish va ustiga quruq steril bog'lam qo'yish lozim.

Kimyoviy kuyishda kimyoviy moddani suv bilan to'liq ketkizib bo'lmaydi. Shuning uchun yuvgandan keyin jarohatlangan joyni tegishli neytrallovchi eritmalarga ho'llangan latta bilan artish kerak.

Kimyoviy kuyishlarda keyingi yordam xuddi termik kuyishlardagidek ko'rsatiladi.

Kislotadan kuyganda ichimlik sodasining (bir choy qoshig'i ichimlik sodasining bir stakan suvdagi) eritmasiga latta (bog'lam) ho'llab bosiladi.

Kislota suyuqlik, bug' yoki gaz ko'rinishida ko'zga yoki og'iz bo'shlig'iga tushgan bo'lsa, oldin ularni katta miqdordagi suv bilan chayish, so'ngra ichimlik sodasi (yarim choy qoshig'i ichimlik sodasining bir stakan suvdagi) eritmasi bilan yuvish lozim.

Teri ishqor ta'sirida kuyganda bor kislotasi (bir choy qoshig'i bor kislotasining bir stakan suvdagi) eritmasiga yoki sirka kislotasining kuchsiz (osh sirkasining teng miqdorda suvdagi) eritmasiga latta (bog'lam) ho'llab bosiladi.

Ishqor tomchilari sachrab yoki uning bug'lari ko'zga va og'iz bo'shlig'iga tushganda, jarohatlangan joylarni katta miqdordagi suv bilan chayish, so'ngra bor kislotasi (yarim choy qoshig'i bor kislotasining bir stakan suvdagi) eritmasi bilan yuvish lozim.

Agar ko'zga qattiq kimyoviy moddaning zarrachalari tushsa, oldin ularni nam tampon bilan olib tashlash lozim, chunki ko'zlarni yuvishda ular shilliq pardani shilib yuborishi va qo'shimcha jarohatga sabab bo'lishi mumkin.

Kislota yoki ishqor qizilo'ngachga tushganida zudlik bilan shifokorni chaqirish kerak. Shifokor kelguncha jabrlanuvchining og'zidan so'lagini va shilimshiq'larni chiqarib tashlash, o'zini yotqizib issiq qilib o'rash, qorniga esa og'riqni kamaytirish uchun "muz" qo'yib qo'yish lozim.

Agar jabrlanuvchida nafas siqish alomatlari paydo bo'lsa, unga og'zining shilliq pardalari kuyganligi sababli "og'izdan — burunga" usuli bilan sun'iy nafas oldirish zarur.

Qizilo'ngachga tushgan ishqorni neytrallash maqsadida jabrlanuvchi qayt qilishi uchun oshqozonni suv bilan yuvish mumkin emas, chunki kuydiruvchi suyuqlik qizilo'ngach bo'yicha orqaga qaytayotganida shilliq pardani yana jarohatlaydi va halqum shishib ketishi mumkin.

Jabrlanuvchiga uch stakandan ko'p bo'lmagan miqdorda suv ichirish mumkin, bunda qizilo'ngachga tushgan kislota yoki ishqor suyuladi va uning kuydiruvchi ta'siri kamayadi. Jabrlanuvchiga sut yoki suvga atalab aralashirilgan (1 litr suvga 12 dona) tuxumning oqini ichirish yaxshi samara beradi.

Teri katta hajmda kuyganida, hamda ko'zga kislota yoki ishqor tushganida birinchi yordam ko'rsatilganidan so'ng jabrlanuvchini davolash muassasasiga yuborish kerak.

Organlar va to'qimalarga begona jismlar tushganida yordam ko'rsatish

Begona jismlar tomoqqa, qizilo'ngachga, nafas yo'llariga, ko'zga, teri ostiga va h. tushishi mumkin.

Tomoqqa, qizilo'ngachga, nafas yo'llariga ko'pincha ovqat yeyish vaqtida baliq va go'sht suyaklari, hamda ish qilayotgan vaqtda og'izga solinadigan to'nog'ich, knopkalar, mayda mixlar va

boshqa jismlar tushishi mumkin. Bunda og'riq paydo bo'lishi, nafas olishning qiyinlashishi, yo'tal tutishi, nafas siqib qolishi mumkin.

Begona jismni qizilo'ngachdan oshqozonga o'tishi uchun non, bo'tqa yoki kartoshka yeyishga urinishlar ko'p hollarda yordam bermaydi, shuning uchun albatta davolash muassasasiga murojaat qilish kerak.

Mayda zarrachalar ko'rinishidagi (metall, tosh, yog'och zarrachalari, qum, hashoratlar va boshqa) begona jismlar ko'zga tushganida, og'riq paydo bo'ladi, ko'z yoshlanadi va ular ko'rish qobiliyatining buzilishi va sustlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Agar ko'zga narsa tushgan bo'lsa, uni ko'zni (stakandan, paxta yoki dokadan, suv ichiladigan favvorachadan) suv oqizib ko'zning tashqi burchagidan (chekadan) ichki burchagiga (burunga) qaratib yuvish yo'li bilan chiqarish mumkin. Xuddi shuningdek, ko'z qovog'ini tashqariga ag'darib toza nam paxta yoki toza dastro'mol bilan jismni olib tashlash mumkin. Ko'zni ishqalash mumkin emas.

Ko'z pardasiga tushgan narsani o'zicha olib tashlab bo'lmaydi. Buni faqat tibbiyot xodimlari, iloji boricha tezroq qilishlari kerak, zarracha ko'z pardasini qancha ko'p vaqt davomida jarohatlasa, shuncha asoratlari ko'proq bo'ladi, hatto yara paydo qilishi mumkin. Ko'zga quruq steril bog'lam qo'yilib, jabrlanuvchini iloji boricha tezroq davolash muassasasiga yuborish kerak.

Ko'z jarohatlanganda bog'lam qo'yish

Yumshoq to'qimalarga (teri, tirnoq ostiga va h.) tushgan begona jismlar, ular bilan birga to'qimalarga mikroblar kirishi bilan xavflidir, bu mikroblar begona jismning atrofida yallig'lanish jarayoni boshlanishiga sabab bo'ladi. Yumshoq to'qimalardagi begona jismlarni faqat ularni oson va to'liq olinishiga ishonch hosil bo'lganda o'zicha olish mumkin. Ozigina qiyinchilik paydo bo'lsa ham shifokorga murojaat qilish kerak. Begona jism olib tashlanganidan so'ng uning kirgan joyini yod bilan artish va ustiga steril bog'lam qo'yish kerak.

Zaharlanganda yordam ko'rsatish

Gazlar, shu jumladan atsetilen, is va tabiiy gaz bilan, benzin bug'lari va h. bilan zaharlanganda odamda bosh og'rig'i, "chakkada dukilash", "quloqda shang'illash", umumiy holsizlik paydo bo'ladi, bosh aylanishi, yurakning tez urib ketishi, ko'ngil aynishi va qayt qilishi mumkin. Kuchli zaharlanganda uyqu keladi, hamma narsaga befarq bo'lib qoladi, o'ta og'ir zaxarlanganda esa betartib harakatlar qilib kuchli hayajonlanish paydo bo'ladi, nafas olishi buziladi, ko'z korachig'lari kengayadi.

Barcha turdagi zaharlanishlarda jabrlanuvchini darhol gazlangan zonadan olib chiqish, nafas olishiga xalal beruvchi kiyimining tugmalarini echish, toza havo kelishini ta'minlash, jabrlanuvchini yotqizish, oyog'ini ko'tarib qo'yish, badanini ishqalash, ustiga issiq narsa yopib qo'yish, nashatir spirti hidlatib turish kerak.

Behush bo'lgan jabrlanuvchi qayt qilishi mumkin, shuning uchun uning boshini yon tomonga burib qo'yish kerak.

Nafas olishi to'xtab qolsa, sun'iy nafas oldirishni boshlash zarur.

Zaharli gazlar bilan barcha zaharlanish holatlarida jabrlanuvchiga katta miqdorda sut ichirish lozim.

Azot oksidlari bilan zaharlanishda jabrlanuvchiga ichimlik sodasi qo'shilgan issiq sut ichirish kerak.

Xlor bilan zaharlanishda ko'zlar, burun, og'izni (bir stakan suvga yarim choy qoshiq) ichimlik sodasi eritmasi bilan yuvish va jabrlanuvchiga ichimlik sodasi qo'shilgan iliq sutni mayda qultum bilan ichirish lozim. Tomog'i shishganda bo'yin atrofiga "issiq" narsa qo'yib turish kerak.

Ammiak bilan zaharlanganda nafas olish yo'llari orqali sirka yoki limon kislotasining kristallari qo'shilgan suvning bug'idan nafas oldirish, iliq sut ichirish kerak. Tomog'i shishganda bo'yin atrofiga "issiq" narsa qo'yib turish kerak.

Tasodifan ammiak eritmasi odamning ichiga ketib qolganida (bir stakan suvga bir choy qoshiq) sirka kislotasi qo'shilgan 8 — 10 stakan suv ichirib qayt qildirish, sut ichirish lozim.

Gidrazingidrat bilan og'zi orqali zaharlanganda jabrlanuvchining oshqazonini iliq suv bilan yuvish, qayt qildirish, tuzli ich surgich (bir stakan suvga 1-2 osh qoshiq achchiq tuz) eritmasi ichirish va zudlik bilan davolash muassasasiga yetkazish lozim.

Gidrozingidrat va uning suvdagi eritmasi teriga tushganida jarohatlangan joyni (oldin etil spirti bilan artish yaxshiroq) katta miqdordagi suv bilan yuvish, va quyida keltirilgan tarkibdagi surtmalardan: a) 20 foiz parafin, 20 foiz tserezin, 60 foiz vazelin moyi; b) 3 foiz rux oksidi, 14 foiz stearin, 83 foiz o'simlik yog'i surtish kerak.

Gidrozingidrat ko'zga tushganida ularni katta miqdordagi oqar suv bilan yuvish lozim.

Og'izdan "ivviol" sintetik yog'i bilan zaharlanganda jabrlanuvchiga qayt qilishi uchun bir necha stakan iliq suv ichiriladi va bu muolaja bir necha marta qaytariladi. Bundan keyin yarim stakan (yarim choy qoshiq) ichimlik sodasi eritmasi unga 2-3 osh qoshig'ida faollashgan ko'mirni qo'shib ichirish kerak. So'ngra jabrlanuvchini zudlik bilan davolash muassasasiga yetkazish zarur.

"Ivviol" teriga tushganida uni (ehtiyotkorlik bilan, ishqalamasdan) quruq latta bilan artib olish, so'ngra esa sovunli iliq suvda yaxshilab yuvib tashlash kerak.

"Ivviol" ko'zga tushganida ko'zni katta miqdordagi suv bilan yuvish lozim.

Oziq-ovqatdan (zaharli qo'ziqorinlar, o'simliklar, aynigan eskirgan oziq-ovqatlardan) zaharlanganda jabrlanuvchida bosh og'rig'i, qayt qilish, qorinda og'riq, umumiy holsizlik paydo bo'lishi mumkin. Gohida ich ketishi, tana harorati ko'tarilishi mumkin.

Jabrlanuvchiga yordam ko'rsatish — uning oshqozonini yuvishdan iborat bo'ladi. Unga 3-4 stakan suv yoki nim pushti kaliy permaganat eritmasini ichishga beriladi va qayt qilishi uchun harakat qilinadi. Oshqozonni yuvish bir necha marta qaytariladi. So'ngra (bir stakan suvda ikki-to'rt osh qoshiq) faollashgan ko'mir eritmasi ichiriladi. Shundan so'ng jabrlanuvchiga iliq choy ichirish, hamda tibbiyot xodimlari yetib kelguncha yotqizish va ustiga issiq narsa yopib qo'yish kerak. Nafas olish va qon aylanishi buzilganda zudlik bilan sun'iy nafas oldirish va yurakka tashqi massajni boshlash kerak.

Tishlanganda yordam ko'rsatish

Zaharli ilon va hasharotlarning chaqishi. Zaharli ilon va hasharotlar chaqqanda bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, qayt etish, og'izda quruqlik va achchiq maza seziladi, yurak urishi tezlashadi, qizish, nafas siqishi va uyquchilik alomatlar paydo bo'ladi. Alohida og'ir holatlarda jabrlanuvchida tomir tortishishi, hushini yo'qotishi, nafas olishning to'xtab qolishi mumkin. Chaqqan joyda kuchli og'riq paydo bo'ladi. teri qizaradi, shish paydo bo'ladi. Ilon chaqqanida yordam ko'rsatish uchun chaqqan joydagi zaharni (iloji boricha tezroq) so'rib tuflab tashlash, hamda zaharning tarqalishini sekinlashtirish uchun jabrlanuvchining harakatlarini cheklash lozim. Yordam ko'rsatayotgan odam uchun zaharni so'rib tuflab tashlash, hatto uning og'zida shilingan joylari bo'lsa ham, xavfli emas. Chaqilgan oyoqni sog'lom oyoqqa bint bilan bog'lab qo'yish va tagiga bir nima qo'yib ko'tarib qo'yish kerak. Chaqilgan qo'lni buklangan holatda mahkamlab qo'yish lozim. Jabrlanuvchiga ko'proq suyuqlik (yaxshisi issiq choy) ichirish kerak. Chaqilgan qo'l yoki oyoqqa chirmov bog'lash, chaqish joyini kuydirish, zaharni yaxshiroq chiqishi uchun terini kesish, jabrlanuvchiga alkogolli ichimliklar ichirish qat'iy man etiladi. Jabrlanuvchini davolash muassasasiga jo'natish kerak. Uni yotgan holatda olib borish lozim.

Hasharotlar (asalari, ari, tukli ari, qovog'ari) chaqganida terining ichiga kirib qolgan nishini olib tashlash, shishgan joyiga "yax" (muz, sovuq solingan idish, sovuq suvga ho'llangan latta) qo'yish, jabrlanuvchiga ko'proq suyuqlik ichirish kerak. Jabrlanuvchi alkogolli ichimliklar ichishi mumkin emas, chunki u tomirlarning o'tkazuvchanligini kuchaytiradi va to'qimalarda zaharni ushlab qoladi, bu esa shishlarning kattalashishiga olib keladi.

Hasharotlarning zahariga o'ta ta'sirchan bo'lgan (allergiyasi bor) odamlarda hasharotlar chaqanidan keyin tomog'i va tili shishishi, hamda anafilaktik shok bo'lishi (hushidan ketishi, yurak-tomir, asab tizimi va boshqa organlar faoliyatining buzilishi) mumkin. Bu holda jabrlanuvchiga 1-2 tabletka dimedrol va 20 — 25 tomchi kordiamin ichirish, yon atrofiga issiq suvli gryelkalar qo'yish va uni zudlik bilan davolash muassasasiga yetkazish lozim. Nafas olishi qiyinlashsa va yuragi to'xtab qolsa, sun'iy nafas oldirish va yurakka tashqi massaj qilish zarur.

Hayvonlarning tishlashi. Har qanday hayvon tishlaganida, u tashqi ko'rinishida sog'lom bo'lib ko'rinsa ham, hayvon shikastlagan yara joyi va shilingan joylarning atrofidagi terini yod bilan artish va steril bog'lam qo'yish lozim. Jabrlanuvchini quturishga qarshi emlanishi uchun davolash muassasasiga yuborish kerak.

Quturgan hayvonning so'lagi terisiga, burniga, ko'ziga yoki og'ziga tushgan odamni ham shifokorga yuborish kerak.

Jabrlanuvchini joydan-joyga ko'chirish

Baxtsiz hodisa yuz berganda jabrlanuvchiga zudlik bilan faqatgina birinchi yordam ko'rsatib qolmay, balki uni eng yaqin davolash muassasasiga tez va to'g'ri yetkazib borish kerak. Jabrlanuvchini joydan — joyga ko'chirish qoidalarining buzilishi unga tuzatib bo'lmas zarar keltirishi mumkin.

Jabrlanuvchini ko'tarishda, joydan-joyga ko'chirishda uni qulay holatda bo'lishini kuzatib turish va silkitmasdan olib yurish kerak. Jabrlanuvchi zambilsiz qo'lda joydan-joyga ko'chirilganda yordam ko'rsatayotganlar mayda qadam bilan, tizzalarini bir oz bukib bir xil qadam tashlab yurishlari kerak.

Jabrlanuvchini ko'tarib zambilga solayotganda, yaxshisi buyruq bo'yicha, bir xil harakat qilish lozim. Jabrlanuvchini sog' tomonidan ko'tariladi, bunda yordam ko'rsatayotgan odamlar bitta tizzada turib jabrlanuvchining boshi, orqasi, oyoqlari va dumbasi ostiga ko'llarini shunday tiqishlari kerakki, ularning barmoqlari tananing narigi tomonidan ko'rinsin. Jabrlanuvchini zambil oldiga olib kelmay, tizzadan turmasdan turib uni yerdan ozgina ko'tarish va kimdir uning tagiga zambil qo'yishga harakat qilishi kerak. Bu, ayniqsa, suyaklar singanida juda muhimdir, bunda kimdir singan joyini ushlab turishi zarur.

Boshi, bosh suyagi va miyasi, umurtqa suyagi va orqa miyasi shikastlangan, qorni jarohatlangan, toz suyaklari va oyoq suyaklari singan jabrlanuvchini joydan — joyga chalqancha yotqizib ko'chiriladi. Jabrlanuvchining nafas yo'llariga qayt qilish moddalari va qon tushmasligi uchun uning boshini yon tomonga burib qo'yish lozim.

Umurtqa suyagi shikastlangan jabrlanuvchini joydan — joyga ko'chirish uchun zambilning tagiga keng taxta, uning ustiga esa kiyimlarni solib qo'yish kerak; jabrlanuvchini chalqancha yotqizish lozim. Taxta bo'lmagan taqdirda jabrlanuvchini zambilga qornini pastga qilib yotqizish kerak.

Pastki jag' singanida jabrlanuvchiga havo yetishmayotgan bo'lsa, uni zambilga yuzini pastga qaratib yotqizish kerak.

Qorin shikastlanganda yoki toz suyaklari singanda jabrlanuvchini zambilga kuragini pastga qilib "qurbaqa" holatida yotqizish kerak.

Ko'krak qafasi shikastlangan jabrlanuvchini o'tirgan holatda, orqasiga kiyimlarni buklab qo'yib joydan-joyga ko'chirish lozim.

Tekis joyda jabrlanuvchini oyog'ini oldinga qilib ko'tarish kerak. Tepalikka yoki zinadan chiqayotganda, hamda jabrlanuvchi behush holatda bo'lsa, uning boshini oldinga qilib ko'tarish kerak. Zambil og'ib ketmasligi uchun pastdagi yordam ko'rsatuvchi zambilni teparoqqa ko'tarib yurishi kerak.

Zambilni silkitib yubormaslik uchun yordam ko'rsatuvchilar oyoqlarini bir xil tashlamay, kalta qadam bilan yurishlari lozim.

Zambilda ko'tarib ketayotganda jabrlanuvchini, uning bog'lamlari va shinalari holatini kuzatib borish kerak. Zambilda uzoq vaqt ko'tarib borish kerak bo'lganida, jabrlanuvchining holatini o'zgartirib turish, uning boshi ostiga qo'yilgan kiyimlarni to'g'rilab turish, chanqog'ini qondirish (faqat qorin shikastlanmaganda) sovuq va yog'ingarchilikdan himoya qilish lozim.

Jabrlanuvchini zambildan olayotganda uni zambilga yotqizish qanday tartibda amalga oshirilgan bo'lsa, xuddi shu tartibda olish lozim. Jabrlanuvchi yotqizilgan zambilni katta masofaga ko'tarib borish kerak bo'lsa, yordam ko'rsatuvchi zambilning dastasiga bog'langan tasmani bo'ynidan o'tkazib ko'tarishi lozim.

Og'ir jarohatlangan odamni olib ketayotganda, aravaga yoki mashinaga solishda uni zambildan olmasdan, uning ostiga xashak, o'tlar solib, zambili bilan solgan yaxshiroq. Jabrlanuvchini olib ketayotganda silkitmasdan, ehtiyotkorlik bilan olib ketish kerak.

Elektr energetika uskunalariga xizmat ko'rsatishda yuz bergan baxtsiz hodisalar oqibatida jabrlanganlarga shifokordan oldingi yordam ko'rsatish bo'yicha yo'riqnomaga ilova

Jabrlanuvchini HL tayanchidan tushirish

HL tayanchida ishlash vaqtida baxtsiz hodisa yuz berib, jabrlanuvchi behush holatga tushgan bo'lsa, uni tezda tayanchdan tushira bilish kerak. Buning uchun HL tayanchida ish olib borayotgan brigada quyidagi maxsus moslamalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak:

tayanchga mahkamlash uchun moslamasi bo'lgan bir rolikli blok;

diametri 10 mm.dan kam bo'lmagan va uzunligi tayanch balandligining ikki barobaridan (20 m. va undan ortiq) uzunroq bo'lgan ipli yoki kapronli arqon;

ish olib borilayotgan HLning kuchlanishiga muvofiq bo'lgan elektr himoya vositalari.

Jabrlanuvchini tayanchdan tushirishga mo'ljallangan blok, doimo ishga tayyor bo'lishi va undan arqon o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Jabrlanuvchini tayanchdan tushirishni boshlaganda, yordam ko'rsatuvchi odamni elektr toki urmasligi va uning tepadan tushib ketmasligining oldini olish choralari ko'rilishi kerak. Elektr toki urishining oldini olish uchun HL simlarigacha "Elektr uskunalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari"da belgilangan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan masofaga rioya qilinishi lozim. Agar mazkur masofaga rioya qilish imkoni bo'lmasa, HL kommutatsiya apparati yordamida o'chirilishi yoki kuchlanishi 20 kV.gacha bo'lgan HLga sim otish yo'li bilan qisqa tutashuv hosil qilib o'chirilishi mumkin. Jabrlanuvchining oldiga chiqishda maxsus mexanizmlar (mezana) yoki tayanchga chiqish uchun moslamalardan (ilgak, tirmoqlardan) foydalansa bo'ladi. Bunda monterlik kamari va himoya dubulg'asidan albatta foydalanish kerak.

Tayanchga chiqayotganda jabrlanuvchini tushirish uchun tayyorlab qo'yilgan (yig'ilgan) blokni birga olib chiqish kerak.

Blok jabrlanuvchining tepasidan tayanchning konstruktiv elementlariga (travers, ilgaklar, va h.) mustahkam qilib mahkamlanishi kerak. Keyin arqonning bir uchi jabrlanuvchining monterlik kamariga yoki uning qo'llari ostidan halqa qilib o'tkazish kerakki, bunda jabrlanuvchini tushirishda u doimo tik holatda bo'lishi va halqaning ichidan chiqib ketmasligi lozim. Arqonning ikkinchi uchi

yerga tushiriladi. Yerga tushirilgan arqonning uchi, tushirish vaqtida sekinlashtirish va jabrlanuvchini qo'shimcha shikastlanishining oldini olish maqsadida, tayanchning qandaydir silindrik bo'lagi (ustun, ilgak, travers va boshqalar) atrofida 1-2-marta aylantirilishi lozim.

Tayanchga ko'tarilgan zahoti jabrlanuvchining holatini aniqlash lozim va reanimatsion chora-tadbirlar o'tkazish zarur bo'lsa o'pkasiga ikki marta puflash, so'ngra zudlik bilan uni yerga tushirish kerak. Buning uchun yerda turgan odam arqonni tortib, jabrlanuvchini u osilib turgan tirnoqlardan (ilgaklardan) va monterlik kamaridan bo'shatib olish uchun uni bir oz ko'tarishi lozim. Jabrlanuvchi tayanchdan bo'shatib olinganidan so'ng uni tezlik va ehtiyotkorlik bilan yerga tushirish va birinchi yordam ko'rsatishni davom ettirish kerak.

Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarish jarohatlarining tashkiliy xaraktyerdagi sabablarini sanang?
2. Ishlab chiqarish jarohatlarining texnik xaraktyerdagi sabablarini sanang?
3. Texnik xaraktyerdagi jarohatlarning profilaktikasiga nimalar kiradi?
4. Qon oqish jarohatlari qanday bo'ladi?
5. Arterial qon oqishda jgut jarohat joyining qayeridan bog'lanadi?
6. Jarohatlanganlarga birinchi yordamni kim ko'rsatishi lozim?
7. Yurak urishi to'xtaganda belgilangan tartibda ko'krak qafasi minutiga necha marta bosiladi?
8. Kuyish necha guruhga bo'linadi?
9. Quyosh urishi qanday sodir bo'ladi?
10. Ko'p qon oqish bilan bog'liq jarohatlangan kishiga birinchi yordam ko'rsatilgandan so'ng qancha vaqt davomida tibbiyot muassasasiga etkazish lozim?

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI”

FANIDAN

Amaliy mashg'ulot mavzulari

TERMIZ

1-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Mehnat qonunlarida ayollar va yoshlar mehnati

Ishdan maqsad: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining batafsil o'rganib chiqish va uni tahlil qilishni o'rganish.

Kerakli hujjat va adabiyotlar.

- 1.O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. T. «O'zbekiston» 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. T. «Adolat» 2022 y.
- 3.U.Yo'ldoshev va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish. T.: «Mehnat». 2001 y
- 4.X.Rahimova va boshqalar «Mehnatni muhofaza qilish» T. O'zbekiston 2003 yil

1. Mehnat Kodeksi haqida umumiy ma'lumotlar.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi 2021 yil 14 oktyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2022 yil 17 martda Senat tomonidan ma'qullangan edi. Kodeks 7 bo'lim, 34 bob va 581 moddadan iborat.

Kodeksga ko'ra, yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy printsiplari etib quyidagilar belgilandi:

mexnat huquqlarining tengligi, mexnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni ta'qiqlash;

mexnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash;

mexnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;

mexnat huquqlari ta'minlanishining va mexnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;

xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmaslik.

Jumladan, mexnat erkinligi har kimning mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashg'ulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqini anglatadi.

Aholining ijtimoiy extiyojmand toifalari:

14 yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz ota-ona, shuningdek ko'p bolali oilalardagi ota-onalar;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablari va kollejlari hamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar;

“Me'ribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari;

Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati qo'shinlaridagi muddatli xarbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar;

nogironligi bo'lgan shaxslar;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar (Qonunda belgilangan pensiya yoshiga qadar ikki yil oldin);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar yoki sudning qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar;

odam savdosidan jabrlanganlar.

xujjatga ko'ra, davlat aholining ijtimoiy extiyojmand toifalarini ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlarni ta'minlaydi.

Mexnat shartnomasiga ayrim normalarni kiritish taqiqlanadi

Endi Mehnat kodeksiga ko'ra, mehnat shartnomasiga quyidagi shartlarning kiritilishi o'z o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi:

xodimning holatini mehnat qonunchiligiga va mehnat haqidagi boshqa xujjatlarga nisbatan yomonlashtiradigan;

mexnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash talablarini buzadigan;

majburiy mehnatni taqiqlash haqidagi talablarni buzadigan;

xodimni qonunga xilof harakatlarni, boshqalarning yoki xodim o'zining huquqlarini buzadigan, xayoti va sog'lig'iga tahdid soladigan, sha'niga, qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur etkazadigan harakatlarni amalga oshirishga majburlaydigan shartlar.

Mexnat shartnomasi ayrim shartlarining haqiqiy emasligi mexnat shartnomasining umuman haqiqiy emasligiga sabab bo'lmaydi.

Dam olish kuni

Yangi kodeksga muvofiq dam olish kuni bayram kuniga to'g'ri kelsa keyingi kunga ko'chiriladi. Masalan, yakshanba – dam olish kuni 1 sentyabrga to'g'ri kelsa, dam olish kuni dushanbaga ko'chiriladi.

Bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko'rsatish, navbatchilik asosida ishlash va boshqalar) tufayli ishlanmaydigan bayram kunlari to'xtatib qo'yish mumkin bo'lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko'chirilmaydi.

Dastlabki sinov

Yangi kodeks kuchga kirgach, quyidagilar ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi (129-modda):

homilador ayol, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayol yoki uch yoshga to'lmagan bolani yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan ota (vasiy);

zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish uchun yuborilgan a'zoning ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslar;

davlat grantlari asosida o'qigan va oliy ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran uch oy ichida yo'llanma bo'yicha olingan mutaxassisligiga doir ishga kirayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;

tegishli ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus,

professional va oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;

o'zi bilan olti oygacha muddatga mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar;

o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar;

ishga qaytadan qabul qilingan taqdirda ish beruvchi ilgari qaysi xodimlar bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bo'yicha bekor qilgan bo'lsa, o'sha shaxslar;

ishlab chiqarishda o'qitish shartnomasi bo'yicha ushbu ish beruvchida o'qishni o'tagan o'quvchilar;

jamoaga kelishuvlarida, shuningdek jamoaga shartnomasida va ish beruvchining ichki xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xodimlar.

Dastlabki sinov faqat xodimni ishga qabul qilish chog'ida belgilanishi mumkin. Xodim boshqa ishga o'tkazilayotganda va boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborilganda dastlabki sinov belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kodeksning 130-moddasiga ko'ra, dastlabki sinov muddati uch oydan, tashkilotlarning rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, bosh buxgalterlar hamda tashkilotlar alohida bo'linmalarining rahbarlari uchun esa olti oydan oshmasligi kerak.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri va xodim haqiqatda ishda bo'lmagan boshqa davrlar dastlabki sinov muddatiga qo'shilmaydi.

Ishdan bo'shatish nafaqasi

Yangi Mexnat kodeksining 173-moddasiga ko'ra, ishdan bo'shatish nafaqasining miqdori mazkur ish beruvchidagi ish stajiga bog'liq bo'ladi va u:

3 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 50 foizidan;

3 yildan 5 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 75 foizidan;

5 yildan 10 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 100 foizidan;

10 yildan 15 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 150 foizidan;

15 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining 200 foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

Amaldagi Mexnat kodeksida ishdan bo'shatish nafaqasining miqdori o'rtacha oylik ish haqidan kam bo'lishi mumkin emasligi belgilangan.

homilador ayollarga qo'shimcha bo'sh kunlar beriladi

Yangi kodeksda, shuningdek, ish beruvchi homilador ayollarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash (perinatal skrining va tashxis, majburiy tibbiy ko'riklar va boshqa majburiy tibbiy muolajalar) uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda qo'shimcha bo'sh kunlar berishi shartligi belgilandi (403-modda).

homilador ayollarni antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

qonuniylashgan masofadan ishlash tartibi

hujjatning 452-moddasiga muvofiq masofadan turib ishlash tartibi qonunlashtirildi. Yangi Mexnat kodeksi asosida axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shu jumladan, internet jaxon axborot tarmog'idan foydalanish sharti bilan ish beruvchi va xodim o'rtasida masofaviy mexnat munosabatlari joriy etilishi mumkin. Masofadan turib ishlash to'g'risidagi mexnat shartnomasi elektron hujjatlar almashinuvi orqali tuziladi.

Masofadan turib ishlash rejimi quyidagi hollarda belgilanishi mumkin:

xodimni ishga qabul qilishda;

xodim odatdagi ish rejimidan masofadan turib ishlash rejimiga o'tkazilgan tahdirda ish jarayonida.

Uy ishchilari

Uy ishchilarining mexnati huquqiy jihatdan tartibga solindi (514-modda). Kodeksda ish beruvchi bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun ishlarni bajaruvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi xodimlar (bog'bonlar, enagalar, qorovullar, oqsochlar, haydovchilar va boshqalar) uy ishchilari deb belgilandi.

Uy ishchilarini ishga qabul qilishga ular o'n olti yoshga to'lganida yo'l qo'yiladi.

Uzaytirilgan mexnat ta'tili

Kodeksdagi asosiy yangiliklardan yana biri yillik asosiy mexnat ta'tili davomiyligining eng kam muddati yigirma bir kalendar kuni etib belgilandi va xalqaro standartga muvofiqlashtirildi. Ilgari ta'til 15 ish kunidan davom etardi.

Ommaviy ishdan bo'shatish mezonlari

Ishchilarni ommaviy ishdan bo'shatish mezonlarini belgilandi. Ularga quyilagilar kiritildi:

a) xodimlarining soni yigirma nafar va undan ortiq bo'lgan har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi tashkilotni (uning alohida bo'linmasini) tugatish;

b) xodimlar sonining (shtatining) quyidagi miqdorda:

o'ttiz kalendar kun ichida ellik nafar va undan ortiq xodimning;
oltmish kalendar kun ichida ikki yuz nafar va undan ortiq xodimning;
to'qson kalendar kun ichida besh yuz nafar va undan ortiq xodimning qisqarishi.
Kodeksda xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish tartibi joriy etildi.

Bunda xodimining tug'ilgan vaqti, tugatgan ta'lim muassasasi, ishlagan tashkilotlari, telefon raqami, uylanganligi yoki turmushga chi??anligi, so?ligi holati, qarindosh-urug'lari va shu kabi boshqa faktlar ish beruvchi tomonidan uchinchi shaxslarga qonunga zid tarzda ta?dim etilishi mumkin emas. Soddaroq aytganda, "menga falon xodimingizning "ob'ektivka"sini tashlab yuboring" qabilidagi "iltimoslar" endi qonunan taqiqlanadi.

Ayollarga qo'shimcha huquqlar beriladi (25-bob, 1-paragraf)

Ayollarning va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarning mexnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari ham alohida belgilandi.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Mexnat kodeksida mexnat shartnomasini bekor qilish asoslari kengaytirildi, shuningdek, xodimning pensiya yoshiga etganligi munosabati bilan ish beruvchining tashabbusi bilan mexnat shartnomasini bekor qilishi taqiqlandi.

Ish vaqti turlari kengaytirilmo?da: smenali ish, moslashuvchan ish tartibi, ish kunini qismlarga bo'lish, xizmat safarlari va boshqalar kiritildi.

25-bob. Ijtimoiy va huquqiy jihatdan kuchli himoya qilinishga muhtoj shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

1-§. Ayollarning va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

392-modda. Homiladorligi yoki farzandlari borligi sababli ishga qabul qilishni rad etishni yoki ish haqi miqdorini kamaytirishni taqiqlash

Homiladorligi yoki farzandi borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ishga qabul qilishni rad etish yoki mehnatga haq to'lash miqdorini kamaytirish taqiqlanadi.

Ish beruvchi ishga qabul qilishni rad etgan taqdirda, rad etish sabablarining ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolangan yozma asosini homilador ayol yoki farzandlari bor shaxs talabiga ko'ra uch kun ichida taqdim etishi shart. Ishga qabul qilishni rad etish sabablarining yozma asosini taqdim etmaganlik ishga qabul qilishni rad etganlik ustidan shikoyat qilishga monelik qilmaydi.

393-modda. Ayollar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha qo'shimcha choralar

Ish beruvchi kasaba uyushma qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishuvga ko'ra tasdiqlanadigan tavsiyalarni inobatga olib, noqulay mehnat sharoitlariga ega bo'lgan, ayollarning mehnatidan foydalanish cheklanadigan ayrim ishlar ro'yxatini belgilashga haqli.

Ayollar tomonidan ular uchun yo'l qo'yiladigan eng ko'p normadan ortiq bo'lgan og'ir yuklarni ko'tarish va tashish taqiqlanadi.

Ayollarning og'ir yuklarni ko'tarishi va tashishi chog'ida ular uchun yo'l qo'yiladigan eng ko'p yuklamalar O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

394-modda. Homilador ayollarni yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazish

Tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish normalari, xizmat ko'rsatish normalari avvalgi ishlaridagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda kamaytiriladi yoki ular

yengilroq ishga yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkaziladi. Ishlab chiqarish normalarini kamaytirish, shuningdek vaqtincha boshqa ishga o'tkazish muddatlari tibbiy xulosaga muvofiq belgilanadi.

Homilador ayolga yengilroq ish yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan xoli bo'lgan ish berish masalasi hal etilguniga qadar, u buning oqibatida qoldirilgan barcha ish kunlari uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etilishi lozim.

395-modda. Ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan ota-onadan birini (vasiyi) boshqa ishga o'tkazish

Ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan ota-onadan biri (vasiy) avvalgi ishini bajarishi mumkin bo'lmagan taqdirda, o'z arizasiga ko'ra bajariladigan ishi uchun haq to'lanadigan, biroq avvalgi ishi bo'yicha o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda bola ikki yoshga to'lguniga qadar ish haqi to'lanadigan boshqa ishga o'tkaziladi.

Ish beruvchida boshqa ish mavjud bo'lmagan taqdirda, ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan xodimga qonunchilikda belgilangan tartibda bola parvarishi bo'yicha nafaqa to'lanadi.

Yakka tartibdagi mehnatga doir nizo yuzaga kelgan taqdirda, ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan xodimni boshqa ishga o'tkazish mumkin emasligini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

396-modda. Tungi ishlarda, ish vaqtdan tashqari ishlarda, dam olish kunlaridagi hamda ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarda homilador ayollar va bolalari bor shaxslar mehnati qo'llanilishining hamda ularni xizmat safariga yuborishning o'ziga xos xususiyatlari

Homilador ayollar, o'n to'rt yoshga to'lmagan bolaning (o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning) ota-onasidan biri (ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxs) faqat o'z yozma roziligi bilan tungi ishlarga, ish vaqtdan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilinishi, shuningdek xizmat safariga yuborilishi mumkin. Bunda ish beruvchi mazkur xodimlarni tungi ishlardan, ish vaqtdan tashqari ishlardan, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlardan yoki xizmat safaridan voz kechish borasidagi huquqi to'g'risida xabardor qilishi shart.

Homilador ayollarni va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga bunday ish homilador ayolning hamda bolaning hayotiga va sog'lig'iga xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa mavjud bo'lgan taqdiridagina yo'l qo'yiladi.

397-modda. Uch yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan birining (vasiysining) qisqartirilgan ish vaqti davomiyligiga bo'lgan huquqi

Uch yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ishlaydigan ota-onasidan biriga (vasiysiga) haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi.

Ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xodimlar mehnatiga haq to'lash har kungi to'liq ish davomiyligida ishlaydigan xodimlar uchun belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.

Uch yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtirilmaydigan ish beruvchilarda ishlaydigan ota-onasidan biriga, vasiysiga qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida yoki ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan ichki hujjatlarda belgilanishi mumkin.

398-modda. Homilador ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarga to'liqsiz ish vaqti belgilash

Ish beruvchi homilador ayolning, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolaning (o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolaning) ota-onasidan birining (ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxsning), shuningdek oilaning betob a‘zosini parvarishlashni amalga oshirayotgan shaxsning iltimosiga ko‘ra ularga tibbiy xulosaga muvofiq to‘liqsiz ish vaqti belgilashi shart.

399-modda. Qo‘shimcha dam olish kuni

O‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolani tarbiyalayotgan ota-onadan biriga (ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxsga) oyiga qo‘shimcha bir dam olish kuni berilib, davlat ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobidan shu vaqt uchun bir kunlik ish haqi miqdorida nafaqa to‘lanadi.

400-modda. Homilador ayollarga va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslarga yillik mehnat ta‘tillarini berish navbatini belgilashdagi imtiyozlar

Homilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik mehnat ta‘tili, ularning xohishiga ko‘ra, tegishincha homiladorlik va tug‘ish ta‘tilidan oldin yoki undan keyin beriladi.

Homilador ayollarni yillik mehnat ta‘tilidan chaqirib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bolani parvarishlash ta‘tilidan foydalanayotgan xodimga yillik mehnat ta‘tili, uning xohishiga ko‘ra, bola parvarishlash ta‘tilidan oldin yoxud undan keyin beriladi.

Ishlaydigan erkaklarga xotining homiladorlik va tug‘ish ta‘tili davrida o‘z xohishiga ko‘ra yillik mehnat ta‘tili:

birinchi ish yili uchun — ishlab berilgan vaqtdan qat‘i nazar;

keyingi yillarda — ta‘tillar berish jadvalidan qat‘i nazar beriladi.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bitta va undan ortiq bolani (o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolani) tarbiyalayotgan yolg‘iz otaga, yolg‘iz onaga (beva erkaklarga, beva ayollarga, nikohdan ajrashganlarga, yolg‘iz onalarga) va muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning xotinlariga yillik mehnat ta‘tillari, ularning xohishiga ko‘ra, ular uchun qulay bo‘lgan vaqtda beriladi.

401-modda. O‘n ikki yoshga to‘lmagan bolalarning yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxsga) beriladigan haq to‘lanadigan qo‘shimcha ta‘til

O‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolaning yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxsga) har yili davomiyligi kamida to‘rt kalendar kun bo‘lgan haq to‘lanadigan qo‘shimcha ta‘til beriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ta‘til yillik mehnat ta‘tiliga qo‘shib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgilanadigan davrda ushbu ta‘tildan alohida (to‘liq yoxud qismlarga bo‘lib), lekin faqat tegishli ish yili davomida foydalanilishi mumkin. Ushbu ta‘tilni keyingi ish yiliga ko‘chirishga yoki uni pulli kompensatsiya bilan almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

402-modda. O‘n ikki yoshga to‘lmagan bolalarning yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onasidan birining (ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxsning) ish haqi saqlanmagan holda ta‘til olish huquqi

O‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki nafar va undan ortiq bolaning yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxsga), ularning xohishiga ko‘ra, har yili ish haqi saqlanmagan holda davomiyligi kamida o‘n to‘rt kalendar kun bo‘lgan ta‘til beriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ta‘til yillik mehnat ta‘tiliga qo‘shib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgilanadigan davrda ushbu ta‘tildan alohida (to‘liq yoxud qismlarga bo‘lib), lekin faqat joriy ish yili davomida foydalanilishi mumkin. Ushbu ta‘tilni keyingi ish yiliga ko‘chirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

403-modda. Homilador ayollarga antenatal (tug‘ruqqacha) parvarishlash uchun qo‘shimcha bo‘sh kunlar berilishi

Ish beruvchi homilador ayollarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida antenatal (tug‘ruqqacha) parvarishlash (perinatal skrining va tashxis, majburiy tibbiy ko‘riklar va boshqa majburiy tibbiy muolajalar) uchun o‘rtacha ish haqi saqlangan holda qo‘shimcha bo‘sh kunlar berishi shart.

Homilador ayollarni antenatal (tug‘ruqqacha) parvarishlash tartibi va muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

404-modda. Homiladorlik va tug‘ish ta‘tili

Ayolga tug‘ruqqacha yetmish kalendar kun hamda tug‘ruqdan keyin ellik olti kalendar kun (tug‘ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug‘ilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tug‘ish ta‘tili berilib, qonunchilikda belgilangan, lekin o‘rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo‘lmagan miqdorda nafaqa to‘lanadi.

Homiladorlik va tug‘ish ta‘tili ayolga jamlangan holda hisoblab chiqarilib, tug‘ruqqacha haqiqatda foydalanilgan kunlar sonidan qat‘i nazar, to‘liq beriladi.

Homiladorlik va tug‘ish nafaqasini tayinlash hamda to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

405-modda. Bolani ikki va uch yoshga to‘lguniga qadar parvarishlash ta‘tillari

Homiladorlik va tug‘ish ta‘tili tugaganidan keyin, ayolning xohishiga ko‘ra, unga bolasi ikki yoshga to‘lguniga qadar bolani parvarishlash ta‘tili berilib, bu davr uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda nafaqa to‘lanadi.

Ayolga uning xohishiga ko‘ra, bolasi uch yoshga to‘lguniga qadar uni parvarishlash uchun ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha ta‘til ham beriladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan bolani parvarishlash ta‘tillaridan bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani haqiqatda parvarishlayotgan boshqa qarindoshlari ham, shuningdek vasiysi ham to‘liq yoki qismlarga bo‘lib foydalanishi mumkin.

Ayol yoki ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar xohishiga ko‘ra, bolani parvarishlash ta‘tili vaqtida to‘liqsiz ish vaqti shartlari asosida yoki ish beruvchi bilan kelishuv bo‘yicha uyda ishlashi mumkin. Bunda ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq ularning nafaqa olish huquqi saqlab qolinadi.

Bolani parvarishlash ta‘tillari davrida xodimning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Bu ta‘tillarning ko‘pi bilan olti yili mehnat stajiga qo‘shiladi, shu jumladan mutaxassisligi bo‘yicha ish stajiga ham qo‘shib hisoblanadi.

Kelgusidagi yillik mehnat ta‘tilini olish huquqini beruvchi ish stajiga, agar jamoa shartnomasida, shuningdek tashkilotning ichki hujjatida yoxud mehnat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, bolani parvarishlash ta‘tillari vaqti kiritilmaydi.

406-modda. Yangi tug‘ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga beriladigan ta‘tillar

Yangi tug‘ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga bola farzandlikka olingan yoki vasiylik belgilangan kundan boshlab va bola tug‘ilgan kundan e‘tiboran ellik olti kalendar kun (bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq bola farzandlikka olingan taqdirda esa yetmish kalendar kun) o‘tguniga qadar qonunchilikda belgilangan, lekin o‘rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo‘lmagan miqdorda nafaqa to‘langan xolda ta‘til beriladi.

Yangi tug‘ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimning yozma arizasiga ko‘ra, xodimga bola ikki yoshga to‘lguniga qadar bolani parvarishlash ta‘tili berilib, ushbu davr uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan

tartibda nafaqa to‘lanadi, shuningdek bola uch yoshga to‘lguniga qadar ish haqi saqlanmaydigan ta‘til ham beriladi.

407-modda. Bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar

Ikki yoshga to‘lmagan bolaning ota-onasidan biriga (vasiysiga) dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari bolani ovqatlantirish uchun qo‘shimcha tanaffuslar beriladi. Bu tanaffuslar kamida har uch soatda, har biri o‘ttiz minutdan kam bo‘lmagan davomiylikda beriladi. Ikki yoshga to‘lmagan ikki yoki undan ortiq nafar farzandi bo‘lgan taqdirda, tanaffusning davomiyligi kamida bir soat qilib belgilanadi. Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar ish vaqtiga kiritiladi va o‘rtacha ish haqi bo‘yicha haq to‘lanadi.

Ikki yoshga to‘lmagan bola otasining yoki onasining (vasiysining) xohishiga ko‘ra bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusga qo‘shib berilishi yoxud ish kunining (smenaning) tegishincha qisqartirilgan holda boshiga yoki oxiriga ko‘chirilishi, shu jumladan jamlangan holda ko‘chirilishi mumkin.

Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar faqat ota-onadan biri bolani parvarishlash ta‘tilida bo‘lmagan va bunday tanaffuslardan foydalanmayotgan taqdirda beriladi.

Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslarning aniq davomiyligi va ularni berish tartibi jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa, kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishuvga ko‘ra ish beruvchi tomonidan belgilanadi.

408-modda. Mehnat shartnomasini bekor qilish chog‘ida homilador ayollar uchun kafolatlar

Homilador ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan tashkilot (uning alohida bo‘linmasi) tugatilgan yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ish faoliyati tugatilgan hollar mustasno.

Ayolning homiladorligi davrida muddatli mehnat shartnomasining muddati tugagan taqdirda, ish beruvchi ayolning yozma arizasiga binoan va homiladorlik holatini tasdiqlovchi tibbiy ma‘lumotnoma taqdim etilgan taqdirda, mehnat shartnomasining amal qilish muddatini homiladorlik tugaguniga qadar, unga homiladorlik va tug‘ish ta‘tili berilgan taqdirda esa bunday ta‘tilning oxiriga qadar uzaytirishi shart. Mehnat shartnomasi homiladorlikning oxiriga qadar uzaytirilgan ayol, ish beruvchining so‘roviga binoan, lekin uch oyda ko‘pi bilan bir marta homiladorlik holatini tasdiqlovchi tibbiy ma‘lumotnoma taqdim etishi shart. Agar bunda ayol homiladorlik tugaganidan keyin haqiqatda ishlashni davom ettirsa, ish beruvchi homiladorlikning tugaganligi faktini bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan kundan e‘tiboran bir hafta ichida mehnat shartnomasini uning muddati tugaganligi sababli bekor qilishga haqli.

Ayol bilan tuzilgan mehnat shartnomasining muddati tugaganligi munosabati bilan ushbu shartnomani uning homiladorligi davrida bekor qilishga, agar mehnat shartnomasi yo‘q bo‘lgan xodimning majburiyatlarini bajarish vaqtiga tuzilgan bo‘lsa va homiladorlik tugaguniga qadar ayolni ish beruvchida uning sog‘lig‘i holati inobatga olingan holda bajara oladigan boshqa ishga ayolning yozma roziligi bilan o‘tkazish mumkin bo‘lmasa, yo‘l qo‘yiladi.

Homilador ayol bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ayolning ushbu Kodeks 404-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan davr uchun homiladorlik va tug‘ish nafaqasini olish huquqi saqlanib qoladi.

409-modda. Uch yoshgacha bo‘lgan bolasi bor xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishdagi kafolatlar

Uch yoshgacha bolasi bor ayol yoxud uch yoshgacha bo‘lgan bolani yolg‘iz tarbiyalayotgan ota (vasiy) bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilishga faqat

ushbu Kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 1, 4 va 5-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha yo'l qo'yiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xodimlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ularning bola parvarishlash nafaqasini olish huquqi saqlanib qoladi.

Bolasi uch yoshga to'lguniga qadar bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan xodim bilan mehnat shartnomasini xodimning malakasi yetarli emasligi oqibatida egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga loyiq emasligi munosabati bilan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra ushbu Kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 3-bandiga muvofiq bekor qilishga xodim ta'tildan chiqqan kundan e'tiboran bir yil ichida yo'l qo'yilmaydi.

410-modda. Oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslardan biriga kafolatlar berish sharti

Ushbu Kodeksda bolaning otasiga yoki oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul boshqa shaxslarga (onadan tashqari) mehnat sohasida qo'shimcha kafolatlar nazarda tutilgan hollarda, ular bolaning onasi yoki oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul boshqa shaxs bu kafolatlardan foydalanmayotganligini tasdiqlovchi hujjatni (ish joyidan ma'lumotnomani, o'lim to'g'risidagi guvohnomani, ona va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul boshqa shaxs muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi qonuniy kuchga kirgan sud qarorini va hokazolarni) ish beruvchiga ish joyi bo'yicha taqdim etishi kerak.

Agar bolaning onasi ishlamasa hamda bolaning parvarishi va tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lsa yoxud ishlasa hamda ushbu paragrafda nazarda tutilgan kafolatlardan foydalansa, otaga yoki oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul boshqa shaxslarga mazkur kafolatlar berilmaydi.

2-§. O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

411-modda. O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilanadigan eng kam ish o'rinlari hisobidan zaxiradagi ish o'rinlariga mahalliy mehnat organlarining yo'llanmasi bilan ishga joylashish kafolatlanadi.

412-modda. O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mehnatini qo'llash taqiqlanadigan ishlar

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mehnatini mehnat sharoiti zararli va (yoki) xavfli bo'lgan ishlarda, yer osti ishlarida, shuningdek bajarilishi ularning hayotiga va sog'lig'iga, xavfsizligiga va ma'naviy jihatdan kamol topishiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda (tungi kafe va klublarda, spirtli ichimliklarni, tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik va psixotrop moddalarni, toksik preparatlarni ishlab chiqarish, tashish hamda sotish va boshqalar) qo'llash taqiqlanadi.

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarning ular uchun belgilangan yo'l qo'yiladigan eng ko'p normalardan ortiq bo'lgan og'irlikdagi yuklarni ko'tarishi va tashishi taqiqlanadi.

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar mehnatining qo'llanilishi taqiqlanadigan va bajarilishi voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga va ma'naviy jihatdan kamol topishiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlar ro'yxati, shuningdek ularning og'ir yuklarni ko'tarishi va tashishi chog'ida yo'l qo'yiladigan eng ko'p normalar O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama respublika komissiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

413-modda. O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarning mehnat huquqlari

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar mehnatga oid yakka tartibdagi huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqlarga ega bo‘ladi, mehnatni muhofaza qilish, ish vaqti, ta‘tillar va boshqa mehnat shart-sharoitlari sohasida esa ular uchun mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda hamda mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan qo‘shimcha imtiyozlardan foydalanadi.

414-modda. O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarning majburiy tibbiy ko‘riklari

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar faqat dastlabki majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tganidan keyin ishga qabul qilinadi va keyinchalik ular o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar har yili majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim.

Ushbu Kodeksning 360-moddasida nazarda tutilgan majburiy tibbiy ko‘riklar ish beruvchining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

415-modda. O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi

Ish vaqtining davomiyligi o‘n oltidan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun haftasiga o‘ttiz olti soatdan oshmaydigan, o‘n beshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslar uchun esa haftasiga yigirma to‘rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

O‘quv yili davomida o‘qishdan bo‘sh vaqtida ishlayotgan o‘quvchilarning ish vaqti davomiyligi ushbu moddaning birinchi qismida tegishli yoshdagi shaxslar uchun nazarda tutilgan ish vaqti eng ko‘p davomiyligining yarmidan oshishi mumkin emas.

416-modda. O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun har kunlik ishning (smenaning) davomiyligi

Har kunlik ishning (smenaning) davomiyligi quyidagilardan oshishi mumkin emas:

o‘n beshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun — olti kunlik ish haftasida — to‘rt soatdan, besh kunlik ish haftasida — besh soatdan, o‘n oltidan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun esa olti kunlik ish haftasida — olti soatdan, besh kunlik ish haftasida — yetti soatu o‘ttiz daqiqadan;

o‘quv yili davomida ishni o‘qish bilan birga olib boruvchi umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tashkilotlarining o‘n beshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilari uchun — olti kunlik ish haftasida — ikki soatdan, besh kunlik ish haftasida — ikki soatu o‘ttiz daqiqadan, o‘n oltidan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilari uchun esa olti kunlik ish haftasida — uch soatdan, besh kunlik ish haftasida — to‘rt soatdan.

417-modda. O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarni xizmat safariga yuborishni, ish vaqtidan tashqari ishlarga, tungi ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilishni taqiqlash

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarni xizmat safariga yuborish, tungi ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilish taqiqlanadi.

Madaniy-tomosha tashkilotlarining, televideniye, radioeshittirish tashkilotlarining va boshqa ommaviy axborot vositalarining ijodiy xodimlari, professional sportchilar, shuningdek asarlar yaratishda va (yoki) ijro etishda (namoyish etishda) ishtirok etuvchi boshqa shaxslar Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ishlar, kasblar, lavozimlar ro‘yxatlariga muvofiq ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qoidadan mustasnodir.

418-modda. O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarga yillik uzaytirilgan mehnat ta‘tili berish

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarga davomiyligi kamida o‘ttiz kalendar kun bo‘lgan yillik mehnat ta‘tili beriladi va ular bu ta‘tildan yilning o‘zlari uchun qulay bo‘lgan istalgan vaqtda foydalanishi mumkin.

Agar yillik mehnat ta‘tili berilayotgan ish yili xodim o‘n sakkiz yoshga to‘ladigan va to‘lib bo‘lganidan keyingi davrlarni qamrab olsa, ta‘tilning davomiyligi xodim o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar va o‘n sakkiz yoshga to‘lganidan keyingi ishlangan vaqtga mutanosib ravishda hisoblab chiqariladi.

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarni yillik mehnat ta‘tilidan chaqirib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

419-modda. O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun ishlab chiqarish normalari

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun ishlab chiqarish normalari umumiy ishlab chiqarish normalaridan kelib chiqqan holda ushbu xodimlar uchun belgilangan qisqartirilgan ish vaqtiga mutanosib ravishda belgilanadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim yoki o‘rta maxsus, professional ta‘lim olganidan keyin ishga kirayotgan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun, shuningdek ishlab chiqarish ta‘limi shartnomasi bo‘yicha ta‘lim olgan xodimlar uchun mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomasiga muvofiq pasaytirilgan ishlab chiqarish normalari belgilanishi mumkin.

420-modda. O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarning ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida mehnatiga haq to‘lash

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarning mehnatiga ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida haq to‘lash, xuddi ish vaqti davomiyligi to‘liq bo‘lganda xodimlarning tegishli toifalari uchun to‘lanadigan miqdorda amalga oshiriladi.

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar mehnatiga vaqtbay haq to‘lashda har kungi ishning to‘liq davomiyligida tegishli toifadagi xodimlarning mehnatiga haq to‘lash darajasiga qadar qo‘shimcha haq to‘lanadi.

Ishbay ishlarga qo‘yilgan o‘n sakkiz yoshga to‘lgan xodimlar mehnatiga katta yoshdagi xodimlar uchun belgilangan ishbay narxlar bo‘yicha haq to‘lanib, bunda o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarning har kungi ish vaqti davomiyligi o‘n sakkiz yoshga to‘lgan xodimlarning har kungi ish vaqti davomiyligiga nisbatan qisqartirilgan vaqt uchun tarif stavkasi bo‘yicha qo‘shimcha haq to‘lanadi.

O‘quv yili davomida o‘qishdan bo‘sh vaqtda ishlayotgan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar mehnatiga ishlagan vaqtdan kelib chiqib yoki ishlab chiqarish natijasiga qarab haq to‘lanadi.

421-modda. Mehnat shartnomasini bekor qilishda o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun qo‘shimcha kafolatlar

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilishga, mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy tartibiga rioya etishdan tashqari, mahalliy mehnat organining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

422-modda. Mehnat shartnomasini ota-onadan birining (ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxsning) va vakolatli organlarning talabiga ko‘ra bekor qilish

Ota-onadan biri (ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxs), shuningdek mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlar hamda bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar, agar ishni davom ettirish o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning hayotiga va sog‘lig‘iga, xavfsizligiga hamda ma‘naviy jihatdan kamol topishiga tahdid

solayotgan bo'lsa yoki ularga boshqacha tarzda ziyon yetkazishi mumkin bo'lsa, bunday shaxslar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishni talab qilishga haqli.

3-§. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

423-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar

Nogironligi bo'lgan shaxslarga "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilangan ish o'rinlarining eng kam soni hisobidan zaxiradagi ish o'rinlariga mahalliy mehnat organlari yo'llanmasiga ko'ra ishga joylashish kafolatlanadi.

424-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan ularga sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'rsatma bo'lgan ishlarda foydalanishni taqiqlash

Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan ularga sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'rsatma bo'lgan ishlarda foydalanish taqiqlanadi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining nogironligi bo'lgan shaxslarning to'liqsiz ish vaqti rejimi to'g'risidagi, yuklamani kamaytirish haqidagi va mehnatning boshqa shart-sharoitlari to'g'risidagi tavsiyalari ish beruvchi tomonidan bajarilishi majburiydir.

425-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlari

Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatga oid yakka tartibdagi huquqiy munosabatlarda boshqa xodimlar kabi huquqlarga ega, mehnatni muhofaza qilish sohasida, ish vaqti, ta'tillar va boshqa mehnat shart-sharoitlari borasida esa ular o'zi uchun qonunchilikda, shuningdek mehnat to'g'risidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan qo'shimcha imtiyozlardan foydalanadi.

Jamoa shartnomasida yoki mehnat shartnomasida belgilanadigan mehnat shart-sharoitlari, shu jumladan ish haqi, ish vaqti va dam olish vaqti rejimi, yillik mehnat ta'tilining davomiyligi qonunchilikda belgilanganidan kam bo'lishi hamda boshqa xodimlarga nisbatan nogironligi bo'lgan shaxslarning holatini yomonlashtirishi yoki ularning huquqlarini cheklashi mumkin emas.

Nogironligi sababli nogironligi bo'lgan shaxs bilan mehnat shartnomasi tuzishni yoki ishda uning yuqori lavozimga ko'tarilishini rad etishga, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, bundan tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining xulosasiga ko'ra nogironligi bo'lgan shaxsning sog'lig'i holati kasbiy vazifalarini bajarishga monelik qiladigan yoxud uning yoki boshqa shaxslarning hayotiga yoki sog'lig'iga, mehnat xavfsizligiga tahdid soladigan hollar mustasno.

426-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning majburiy tibbiy ko'riklari

Nogironligi bo'lgan shaxslar faqat dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tganidan keyin ishga qabul qilinadi va keyinchalik har yili majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazib turilishi lozim.

Ushbu Kodeksning 360-moddasida nazarda tutilgan nogironligi bo'lgan shaxslarning majburiy tibbiy ko'riklari ish beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

427-modda. I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun kunlik ishning (smenaning) davomiyligi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalariga muvofiq belgilanadi, lekin olti kunlik ish haftasida — olti soatdan, besh kunlik ish haftasida — yetti soatu o'ttiz daqiqadan ortib ketmasligi kerak.

428-modda. Nogironligi bo'lgan xodimlarni xizmat safariga yuborishning, ish vaqtdan tashqari ishlarga, tungi ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilishning o'ziga xos xususiyatlari

Nogironligi bo'lgan xodimlarni xizmat safariga yuborishga, tungi ishlarga, ish vaqtdan tashqari ishlarga hamda dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilishga faqat ularning roziligi bilan, agar ushbu xodimlar uchun bunday ishlar tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tavsiyalarida taqiqlanmagan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

429-modda. I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga davomiyligi kamida o'ttiz kalendar kundan iborat yillik mehnat ta'tili beriladi va ular bu ta'tildan yilning o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtda foydalanishi mumkin.

Agar yillik mehnat ta'tili berilayotgan ish yili xodimga nogironlik belgilanganiga qadar va belgilanganidan keyingi davrlarni yoxud mazkur xodimning nogironligi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tomonidan olib tashlanguniga qadar bo'lgan davrni va olib tashlanganidan keyingi davrni qamrab olsa, yillik mehnat ta'tilining davomiyligi nogironlik belgilangan davrdagi va nogironlik yuzaga kelguniga qadar yoki nogironlik olib tashlanganidan keyingi ish davriga mutanosib ravishda hisoblanadi.

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimni yillik mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

430-modda. I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimning ish haqi saqlanmagan holda ta'til olish huquqi

Ish beruvchi I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimning xohishiga ko'ra uning yozma arizasi asosida unga ish haqi saqlanmagan holda har yili davomiyligi o'n to'rt kalendar kungacha bo'lgan ta'til berishi shart.

431-modda. Ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarning mehnatiga haq to'lash

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarning mehnatiga ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida haq to'lash tegishli kasb va lavozimlardagi xodimlarga to'liq ish vaqti davomiyligidagi miqdorda amalga oshiriladi.

2-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Mehnat havfsizligi to'g'risida instruktaj va ta'lim berish.

Ishdan maqsad: Ishlab chiqarish xodimlariga GOST-12.0.004-79 va OST 46.0.126-82 standartlariga muvofiq mehnat havfsizligi to'g'risida instruktaj o'tkazish va rasmiylashtirishni o'rgatishdir.

Umumiy ma'lumotlar.

Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishga yangidan-yangi texnologiya va mashina-uskunalarining joriy etilishi ishlab chiqarishda ishlayotgan har bir xodimdan yuqori malakani egallashni, texnika qonunlarini yaxshi tushunishni va unga amal qilishni talab qilmoqda.

Sanoat korxonalarining xilma-xilligini hisobga olib, o'zi uchun mos keladigan mehnatni muhofaza qilish va mehnat havfsizligini ta'minlashga qaratilgan instruksiyalar tizimi GOST 12.0.004-79 (MX.SS) tashkil qilingan.

Ushbu hujjat O'zbekistondagi hamma tashkilot va korxonalar rahbarlari uchun majburiydir. Korxonalar va tashkilotlarda texnika havfsizligi bo'yicha havfsiz ishlash usullari hamma ishchi va xizmatchilarga instruktajlar berish orqali o'rgatiladi.

Mehnat vazirligining mehnat havfsizligini o'qitish va bilimni tekshirish bo'yicha namunaviy 'Nizom'ga asosan instruktajlar kirish, ish joyida (birlamchi), rejali (takroriy), rejadan tashqari, qo'shimcha instruktajlar va oylik o'qish kurslarida o'qitishlarga bo'linadi. Hamma instruktajlar harakatdagi instruksiyalar bo'yicha qoida me'yoriga asoslanib kasbiga qarab beriladi.

1.Kirish instruktaji - hamma yangidan ishga, ishlab chiqarish o'qishiga, amaliyotga yoki mehnat safariga kelgan ishchilarga o'tkaziladi. Bu instruktajning asosiy maqsadi ishga kirayotgan yangi kishiga mehnatni muhofaza qilish, havfsizlik texnikasi va sanoat sanitariyasi to'g'risida ma'lumot berish, uni sanoat korxonasi maydonida va ssexlaridagi tartib-qoidalardan habardor qilishdan iborat. Kirish instruktaji havfsizlik texnikasi muxandisi tomonidan yaxshi jixozlangan va ko'rgazmali qurollar o'rnatilgan mehnatni muhofaza qilish xonasida o'tkaziladi. Unda asosan quyidagi ma'lumotlar beriladi: korxonada va tashkilotlarda o'rnatilgan ichki tartib koidalari, ishchining instruksiya bo'yicha vazifasi va xayot faoliyati havfsizligi hamda ishlab chiqarish sanitariyasi qonunlari va me'yorlari. Ayollar va yoshlar mehnati, mehnat muhofazasi koidalari va imtiyozlarini tushuntirish. Baxtsiz xodisalarning oldini olish usullarini tushuntirish. Ishlab chiqarishdagi elektr tarmoqlardan foydalanish. Avtotransportda yurganda havfsizlik qoidalari. Xavfsizlik texnikasining umumiy talablari. Ish joyini tashkil qilish tartibi. Xavfli moddalar bilan ishlash tartibi va individual ximoya vositalari. Jixoz uskunalarni to'xtatish usullari. YOng'inga karshi kurash tadbiri va zarur vaqtda birinchi yordam ko'rsatish qoidasi. Ana shu qoidalar bilan tanishgandan so'ng uning bilimi tekshirilganligi xaqida maxsus daftarga yozib qo'yiladi.

2. Ish joyida instruktaj. Har qanday ishchi yangi ishga kelgan joyida, bir ishdan boshqa ishga, bir mashinadan boshqa mashinaga, bir uchastkadan ikkinchi uchastkaga ko'chirilganda ishchilarga ish joyidagi instruktaj o'tkaziladi. Ish joyidagi instruktajda quyidagi ma'lumotlar beriladi: ishchining doimiy ish joyi va sexdagi texnologik jarayon bilan tanishtirish, havfli uchastkalar; ishlatiladigan uskuna va dastgoxlarning tuzilishi tushuntiriladi, muhofaza qurilmalari va vazifalari bilan tanishtiriladi, uskuna va moslamalarning sozlanganligi va erga ulanganligini tekshirish usullari, shaxsiy muhofaza vositalarining vazifalari va foydalanish qoidalari, kislotalar va zararli ximik moddalar bilan ishlaganda havfsizlik qoidalari, yuklarni taxlash va tashish, odam va hayvonlarni tashish qoidalari. Ish joyidagi instruktaj o'tkazilgandan so'ng ishchilar bilimi tekshirilib,

1-jadval bo'yicha jurnal to'ldiriladi va ular 2-5 kun davomida brigadir nazoratida ish bajaradilar.

1-jadval. Mehnat havfsizligi bo'yicha o'tkazilgan instruktajlarni qayd qilish jurnali.

Instruktaj o'tkazilgan sana	Familiyas, Ismi, Sharifi	Kasbi	Instruktaj turi	Instruktaj mavzusi	Instruktaj olgan kishi imzosi	Instruktaj o'tkazgan kishi imzosi	Eslatma
2	3	4	5	6	7	8	9

3.Rejali yoki takroriy instruktaj. Bu instruktajni o'tkazish vaqti korxonada kasaba uyushma qo'mitasi bilan kelishilgan holda 6 oyda bir martadan kam bo'lmagan holda belgilanadi. Instruktajning mazmuni ish joyidagi instruktaj mazmuni bilan bir xil bo'lib, hamma ishchilar bilan ish staji, kasbi, razryadidan qat'iy nazar o'tkaziladi. Instruktaj o'tkazilgandan so'ng

2-shakl to'ldirilib, jurnalga yozib qo'yiladi.

4.Rejadan tashqari instruktaj. Agar, mehnatni muhofaza qilish qoidalari, texnologik jarayonda, uskuna va moslamalar tuzilishida, xomashyo materiallarida o'zgarish bo'lsa, shuningdek

ba'zi bir ishchilar havfli ish usullaridan foydalanayotganligi sezilsa, mehnat intizomi va havfsizlik texnikasi qoidalarini buzilsa, ishchining ishlayotgan joyida biron bir sabab bilan (30-60 kun) uzilish ro'y bersa va boshqa xollarda rejadan tashqari instruktaj o'tkaziladi. Bu instruktaj ham ish joyida instruktaj dasturiga asosan o'tkaziladi va 2-shakl bo'yicha jurnal to'ldirilib, instruktaj o'tkazish sababi ko'rsatiladi.

5.qo'shimcha instruktaj. Bu instruktaj baxtsiz hodisadan keyin, agar u ayni korxonada yuz bergan bo'lsa, so'nggi instruktaj berilgan sanadan qat'iy nazar hamma ishlovchilar bilan qo'shimcha instruktaj o'tkaziladi. Instruktaj o'tkazilgandan keyin 2-shakl bo'yicha jurnal to'ldirilib, instruktaj o'tkazish sababi ko'rsatiladi.

Oylik o'qish kurslarida kuchlanishi 1000 V va undan yuqori bo'lgan elektroqurilmalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, balandlikda ishlovchi montajchilar, izolyasiyalovchilar, elektr-gaz payvandchilar va yuqori havf manbaida ishlaydigan ishchilar o'qiydi. Ular tashkilot bosh injeneri tasdiqlagan dastur asosida ishlarning havfsiz usullariga o'qitiladi. O'qitish tugagandan so'ng xodimning ishlab chiqarish sanitariyasi yuzasidan, havfsizlik texnikasi va yong'in havfsizligi bo'yicha bilimi tekshirilib, unga ishlash uchun guvohnoma beriladi.

Mehnat havfsizligi bo'yicha instruktaj o'z vaqtida berilmasa yoki sifatsiz o'tkazilsa tashkilot rahbarlari qonun – qoidalar bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT VAZIRLIGI
MEHNAT MUXOFAZASI BO'YICHA O'QITISHNI TASHKIL QILISH VA
BILIMLARNI TEKSHIRISH NAMUNAVIY NIZOM**

Toshkent-1996

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT VAZIRLIGI
Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish to'g'risida
NAMUNAVIY NIZOM**

Toshkent-1996

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TOMONIDAN
RO'YXATGA OLINGAN

№ 272

14. 08. 1996 yil

272- raqam bilan

1996 yil 14 avgustda

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan
RO'YXATGA OLINGAN

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT VAZIRLIGI
MEHNAT MUXOFAZASI BO'YICHA O'QITISHNI TASHKIL QILISH VA
BILIMLARNI TEKSHIRISH TO'G'RSIDA
NAMUNAVIY QOIDA**

Toshkent – 1996 yil

**MEHNAT MUHOFAZASI BO‘YICHA O‘QITISH VA BILIMLARNI TEKSHIRISH
TO‘G‘RISIDA
NAMUNAVIY NIZOM**

Korxonalarining barcha xodimlari, shu jumladan rahbarlar davlat nazorat organlari tomonidan ularning kasblari va ish turlari uchun belgilangan o‘qish, yo‘riqnomalar olish, bilimlarni tekshirish va qayta attestatsiyadan o‘tishga majburlar.

I. UMUMIY QISM

1. Mazkur Namunaviy qoida bevosita ishlab chiqarish ishlarini tashkil qilish va bajarish bilan bog‘liq ishchilar, rahbarlar, injener-texnik xodimlar va mutaxassislar, shuningdek muassasalarda, o‘quv yurtlarida, ilmiy-tekshirish institutlarida, xo‘jalik va korxonalar (bundan buyon – korxonalar) da, shuningdek mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar ishlab chiqarish birlashmalari, assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, xolding, idora, vazirliklarda ixtisos talablari hajmida lavozim majburiyatlari va bajarilayotgan ish xarakteri bilan belgilanadigan ishlarni xavfsiz olib borilishini nazorat qiluvchi va texnik nazoratni bajaruvchi (bundan keyin – rahbarlar va mutaxassislar) shaxslarning bilimlarini majburiy tartibda tekshirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Namunaviy qoida asosida boshqaruv organlari o‘zlarining mehnat muhofazasi bo‘yicha bilimlari tekshirilishga oid bo‘lgan xodimlar lavozimlari ro‘yxati ko‘rsatilgan tarmoq qoidalarini ishlab chiqib, tasdiqlaydilar va ularni O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligi va tegishli kasaba uyushmalari tashkilotlari bilan muvofiqlashtiradilar.

3. Korxonaga ishga kirgan xodimlar mustaqil ishga faqatgina ishlarni xavfsiz olib borish bo‘yicha yo‘riqnomalar olgach, tegishli stajirovka va bilimlar tekshiruvidan so‘ng qo‘yiladi.

4. Alohida xavfli ishlar va bug‘ va suv isitish qozonlari, ko‘tarma kranlar, bosim ostida ishlovchi hajmlar, elektr o‘rnatmalar, maxsus mexanizmlar va mashinalarga xizmat ko‘rsatish uchun tegishli maxsus egaligi to‘g‘risida hujjatga ega bo‘lgan shaxslar qabul qilinishi mumkin.

5. Xodimlarni xavfsiz ish metodlariga o‘qitishni to‘g‘ri tashkil qilish va o‘tkazish uchun umumiy rahbarlik va mas‘ullik korxonalarining rahbarlari va boshqaruv organlariga yuklatiladi. Ishchilar va ustalarni bo‘linma (sex)larda ishning xavfsiz metodlariga o‘qitish esa shu bo‘linmalarning zimmasida bo‘ladi.

6. Xodimlarni xavfsiz ish metodlariga o‘z vaqtida va sifatli o‘qitishni nazorat qilish mehnatni muhofaza qilish xizmatlari zimmasiga yuklanadi.

II. ISHCHILARNI O‘QITISH VA BILIMLARINI TEKSHIRISH

§ 1. ISHCHILARGA YO‘RIQNOMALAR BERISH

7. Ishchilarga yo‘riqnomalar berish kirish va ish joyidagi yo‘riqnomalarga bo‘linadi. Ish joyida yo‘riqnomalar berish o‘z navbatida dastlabki, davriy va navbatdan tashqari yo‘riqnomalarga ajratiladi.

8. Kirish yo‘riqnomasi.

Korxonaga ishga kiruvchi hamma ishchilar, boshqa tashkilotlarning xodimlari, mazkur korxonada ishlash uchun xizmat safariga yuborilganlar (malakasi, staji va ish tajribasidan qat‘iy nazar), shuningdek amaliyot o‘tayotganlar va o‘quvchilar kirish yo‘riqnomasidan o‘tadilar. Ishchilarning kirish yo‘riqnomasini mehnatni muhofaza qilish xodimi yoki boshqa zimmasiga mazkur vazifa yuklatilshgan xodim o‘tkazishi kerak. Agar ichilarni ishga qabul qilish bevosita sexlarda amalga oshirilsa, unda kirish yo‘riqnomasini sex rahbarlaridan biri o‘tkazishi lozim.

Jabrlanuvchiga dastlabki hakimgacha bo‘lgan yordamni ko‘rsatish, yong‘in xavfsizligi va boshqa maxsus masalalar bo‘yicha yo‘riqnomalar boshqa tegishli mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladi.

Kirish yo‘riqnomasi mehnatni muhofaza qilish xonasida o‘quv materialining konkret mazmuniga va ishlab chiqarish sharoitlariga mos ta‘limning zamonaviy texnik vositalari, ko‘rgazmali qo‘llanmalar va adabiyotlardan foydalangan holda o‘tkaziladi.

Kirish yo‘riqnomasi ishchilar guruhi bilan ham, alohida ishchilar bilan ham o‘tkazilishi mumkin. Qoida tariqasida guruhning soni o‘n kishidan oshmasligi kerak.

Kirish yo‘riqnomasi o‘tkazilganligi haqida kirish yo‘riqnomasini qayd qilish Jurnaliga yoziladi va ishchining ishga qabul qilinishi to‘g‘risidagi yozuvga tegishli belgilar qo‘yiladi. Jurnal shakli 1-ilovada berilgan.

9. Ish joyida yo‘riqnoma berish.

Barcha ishchilar kirish yo‘riqnomasidan tashqari yana ish joyida ham yo‘riqnoma olishlari kerak.

Ish joyida yo‘riqnoma berishning maqsadi – har bir ishchini ishning to‘g‘ri, xavfsiz usullari va metodlariga o‘rgatish. Yo‘riqnoma jarayonida ishchilarni jihozlar, mexanizmlar, moslamalar, ularning tavsifi va xususiyatlari, ehtiomli bor xavflar, ishning xavfsiz metodlari va usullari bilan tanishtiriladi va ish joyini ishga tayyorlashga o‘rgatiladi.

Ish joyida yo‘riqnoma o‘tkazish ishchi bevosita ixtiyoriga yuborilgan usta zimmasiga yuklanadi. Zarur hollarda yo‘riqnoma tegishli mutaxassislar (mexanik, energetik, texnolog, instruktorlik vaxtalari xodimlari va h.k.)lar ishtirokida o‘tkaziladi.

Noelektrik personalga elektr xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnoma va ixtisos guruhini berish bosh energetik xizmati xodimi tomonidan o‘tkaziladi.

Bevosita ish joyida yo‘riqnoma berish korx‘ona bosh muhandisi tomonidan tasdiqlangan sex boshliqlarining ishlarni xavfsiz olib borish qoidalari va yo‘riqnomalari asosida tuzilgan dasturlari asosida o‘tkaziladi. Bunday yo‘riqnomalar va ularning ro‘yxati korxonaga bosh muhandisi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan birgalikda tasdiqlanadi

Ishlarni xavfsiz olib borishg bo‘yicha yo‘riqnomalar va ular bilan ishlayotganlar va ish joylarini ta‘minlash sex boshliqlariga yuklanadi.

10. Amaliy ta‘lim (stajirovka) bilan dastlabki yo‘riqnoma bevosita ish joyida ishchilarni mustaqil ishga qo‘yishdan oldin, o‘zgacha xususiyatli (ishlab chiqarish sharoitlari o‘zgartirilganda) boshqa ishga yoki uchastkaga o‘tkazilganda berilishi lozim. Korxonaga ishga kirayotgan amaliy ta‘lim (stajirovka)ni tajribali yuqori malakali ishchida o‘tashi lozim. Ishchining stajirovka o‘tash uchun birlashtirilishi sex rahbarining bo‘yruq‘i bilan ta‘lim davomiyligi va ta‘limni doimiy nazorat qilib boruvchi mas‘ul shaxs (usta) ko‘rsatilgan holda rasmiylashtiriladi.

Dastlabki yo‘riqnomaning o‘tkazilganligi ish joyida yo‘riqnomalar berish Jurnaliga qayd etiladi. Jurnal shakli 2-ilovada berilgan.

11. Barcha ishchilarga har safar alohida xavfli ishlarni bajarish topshirig‘ini berishdan oldin ishlarning mas‘ul rahbari ishchilarga alohida yo‘riqnoma beradi va bu haqda yo‘riqnomalarni ro‘yxatga olish Jurnaliga ko‘rilgan xavfsizlik choralari ham qo‘shib, qayd etadi.

12. Mazkur kasb bo‘yicha malakasi va ish stajidan qat‘iy nazar ishchilar 6 oydan kam bo‘lmagan davrda ishlarni xavfsiz olib borish bo‘yicha (davriy) yo‘riqnoma oladilar.

Davriy yo‘riqnomaning maqsadi muayyan davr ichida ishchining asosiy va boshqa tez-tez bajarib turadigan ishlar bo‘yicha bilimlarini yangilash va to‘ldirish.

Davriy yo‘riqnoma (turdosh ishlar va ishning alohida turlari bo‘yicha) individual va guruhiy bo‘lishi mumkin va korxonaga yoki sex amaliyotidagi konkret misollarni batafsil tahlil qiluvchi suhbat shaklidagi dasturlar bo‘yicha olib borilishi lozim.

Ba‘zi sabablar (ta‘til, kasallik, xizmat safari va h.k.)lar bo‘yicha belgilangan vaqtda yo‘riqnoma ololmasalar, ishga chiqqan kuni yo‘riqnoma berilishi lozim.

Davriy yo‘riqnoma o‘tkazilganligi to‘g‘risida ish joyida yo‘riqnomalar berishni qayd qilish Jurnaliga yozib qo‘yilishi kerak.

13. Ishchilarning ishlarni xavfsiz olib borishlari uchun navbatdan tashqari yo‘riqnoma quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

- ishlab chiqarish jarayoni o‘zgarganda, bir turdagi jihoz boshqasi bilan almashtirilganda va h.k., kabi mehnat sharoiti o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi hollarda;
- sex, uchastka, brigadada baxtsiz hodisa yoki avariya yuz berganda;
- ishlarni xavfsiz olib borish bo‘yicha yangi qoidalar va yo‘riqnomalarning kiritilish bilan yuzaga keluvchi qo‘shimcha talablarni ishchilarga yetkazish zarurati tug‘ilganda;
- ko‘rilgan ta‘sir qiluvchi choralarga qaramayqoidalar va yo‘riqnomalar, ishlab chiqarish intizomi buzilgan holda.

Navbatdan tashqari yo‘riqnomada dastlabki yo‘riqnoma dasturining yo‘riqnoma sababi bilan bevosita bog‘liq qismigina ko‘rib chiqiladi.

Ishchilarning navbatdan tashqari yo‘riqnomasi xuddi dastlabki va davriy yo‘riqnomalar kabi ishlarning bevosita rahbar (usta)lari tomonidan o‘tkaziladi.

Navbatdan tashqari yo‘riqnomaning o‘tkazilishi dastlabki va davriy yo‘riqnomalar kabi yo‘riqnomalarni qayd qilish Jurnaliga yoziladi, faqat unda yo‘riqnoma sababi ko‘rsatib o‘tiladi.

§ 2. ISHCHILARNING BILIMLARINI TEKSHIRISH

14. Ishchilarning (mustaqil ishga qo‘yishdan oldin yoki bir ishdan boshqa ishga ko‘chirilayotganida) dastlabki yo‘riqnoma va stajirovkadan so‘ng ishlarni xavfsiz olib borish bo‘yicha bilimlari tekshirilishi zarur.

15. Bilimlarni tekshirish dastlabki, davriy va navbatdan tashqari kabi turlarga bo‘linadi.

16. Bilimlarni tekshirish korxonahabariyatitomonidan tayinlangan va sex rahbarlaridan biri bosh bo‘lgan komissiya tomonidan o‘tkaziladi. Zarurat bo‘lganda konkret sharoitdan kelib chiqib, komissiya tarkibiga mexanik, energetik va boshqa mutaxassislar kiritilishi mumkin.

Zarur hollarda asosiy ish bo‘yicha qoidalar va yo‘riqnomalar bilan bir qatorda ishchining boshqa qoidalar (masalan, yuk ko‘tarish krani bilan ishlaganda – kranlar bo‘yicha qoidalar va h.k.) bo‘yicha bilimlari ham tekshiriladi.

Ishchi bilimlarini dastlabki tekshirishdan o‘tkazgandan so‘ng unga tegishli rasmiylashtiruvdan so‘ng yagona shakldagi bilimlarni tekshirganlik to‘g‘risidagi Guvohnoma beriladi. Guvohnoma shakli 3-ildovada berilgan.

Bilimlarni tekshirish ish joyida yo‘riqnoma berish dasturi asosida sex boshliqlari, mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan so‘rovnomalar bo‘yicha o‘tkaziladi.

17. Barcha ishchilarning bilimlarni har 3 yilda bir marta (jadval bo‘yicha) davriy tekshiruvdan o‘tkazilishi lozim. Jadval har yili ustalar tomonidan tuziladi va sex boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi. Javdval shakli 4-ildovada berilgan.

18. Bilimlarning navbatdan tashqari tekshiruvi

- ishlab chiqarish jarayoni o‘zgarganda,
- jihozlar va mexanizmlarning yangi turlari tatbiq qilinganda, shuningdek yangi qoidalar va yo‘riqnomalar joriy etilganda;
- qoidalar va yo‘riqnomalar buzilganda;
- qoidalar va yo‘riqnomalarni yetarlicha bilmaslik hollari aniqlanganda korxonahabarlari, davlat nazorat organlari talabi bilan o‘tkaziladi.

19. Tekshirishlar natijalari presonal bilimlarini tekshirishlarini qayd qilish Jurnaliga rasmiylashtiriladi va ayni paytda Guvohnomada ham aks ettiriladi. Tekshiriluvchining bilimlarini

(yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz) baholashdan tashqari ishchini mustaqil ishga qo'yish imkoniyati haqida xulosa ham beriladi. Jurnal shakli 5-ilovada berilgan.

20. Agar ishchi tekshirishda qoniqarsiz baho olsa, u mustaqil ishlashga qo'yilmaydi, va ikki hafdan kech bo'lmagan muddat ichida takroriy tekshiruvdan o'tadi. Takroriy tekshiruvda hozir bo'lmaslik yoki unga besabab tayyorlanmaslikka mehnat intizomini buzish deb qaraladi. Bunday buzilishga yo'l qo'yan ishchilarga ichki mehnat tartibi qoidalarida nazarda tutilgan intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin

III. RAHBARLAR VA MUTAXASSISLARNI O'QITISH VA ULARNING BILIMLARINI TEKSHIRISH.

21. Rahbarlar va muta'xassislarning mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlari darajassini oshirish maksadida boshqaruv organlari va korxonalarda davlat nazorat organlari, mehnat muhofazasi ilmiy-tadqiqot institutlari va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari mutaxassislarini jalb qilgan holda kurslar, seminarlar, ma'ruzalar, konsultatsiyalar tashkil qilinadi.

22. Ishchilar lavozimga tayinlanganlarida yuqori turuvchi mansabdor shaxslar tomonidan quyidagilar bilan tanishtirilishi lozim:
- unga ishonib topshirilgan ishlab chiqarish (uchastka, ob'ekt, korxon, birlashma)da mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasining holati;
- xavfli va zararli ishlab chiqarish faktorlari ta'siridan saqlanish uchun ishchilar va xizmatchilar tomonidan qo'llanilayotgan himoya vositalari;
- ishlab chiqarish jarohatlanishi va kasb kasallanishlari tahlili bilan;
- mehnat sharoitlari va muhofazasini yaxshilash bo'yicha zarur tadbirlar, shuningdek mehnat muhofazasi bo'yicha materiallar va mansab maburiyatlari bilan.

23. Rahbarlar va mutaxassislarning mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarini tekshirish korxon boshqaruvi organlari va viloyat mehnat muhofazasi boshqarmalarining doimiy faoliyat ko'rsatuvchi komissiyalari tomonidan mehnat muhofazasi bo'yicha tekshiruvdan o'tishga majbur bo'lgan rahbarlar va mutaxassislar Ro'yxatiga asosan o'tkaziladi (6-ilova). Komissiyalar tarkiblari yuqorida tilga olingan tashkilotlar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

24. Boshqarma va korxon organlari imtihon komissiyalarini ularning rahbarlari boshqaradilar.

Bilimlari tekshirilishi lozim bo'lgan ko'plab xodimlar ishlaydigan korxonalarda bir necha imtihon komissiyalari bo'lishi mumkin. Bunday hollarda komissiya rahbarlari etib mehnat muhofazasi bo'yicha bosh rahbarlar va ularning muovnlari tayinlanadilar.

25. Imtihonlarni tashkil etish va o'tkazish boshqarma, korxon rahbarlari va imtihon komissiyalari raislari amalga oshiradi. Imtihonlarni qabul qilish tasdiqlangan jadval bo'yicha o'tkaziladi. Jadval barcha imtihon komissiyalari a'zolariga imtihon boshlanishidan bir oy oldin tarqatilishi lozim. Imtihonlar o'tkazilish sanasi va joyi haqida imtihon qilinuvchilar 15 kun oldin ogohlantirishlari zarur.

26. Imtihonlarni uch kishidan kam bo'lgan komissiya tomonidan o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

27. Imtihon komissiyalari tarkibiga kiritilgan korxon rahbarlari va mutaxassislari faqatgina boshqarma organlari yoki mintaqaviy mehnat muhofazasi organlari komissiyalarida imtihon topshirganlaridan so'ng imtihon olishda ishtirok etishlari mumkin.

28. Imtihon komissiyalari rahbarlar va mutaxassislarning:
- O'zbekiston Respublikasining «Mehnat muhofazasi to'g'risida»gi qonuni, «O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi» va boshqa qonunchilik va me'yoriy hujjatlari;

- mehnat xavfsizligi standartlari tizimi;
- avariylarning oldini olish va ularning oqibatlarini hajmini kamaytirish tizimlari;
- elektr jarohatlanishini oldini olish bo'yicha asosiy talablar;
- yong'in xavfsizligi. Yong'inlar, portlashlar va avariylarning oldini olish usullari. Stixiyali kulfatlar sodir bo'lganda personal harakatlari;
- ishlab chiqarish sanitariyasi va shaxsiy gigienaning asosiy talablari;
- mehnat muhofazasi holatining davlat, idoraviy kuzatuv va jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qoidalar;
- ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar va boshqa mehnatkashlarning sog'ligiga ziyon yetkazadigan hodisalarni tekshirish va hisobga olish qoidalari;
- texnologik rejim va ishlab chiqarish jarayonlarini xavfsiz olib borishni ta'minlaydigan mansab yo'riqnomalari, pasportlar, chizmalar va texnologik reglamentlar;
- IHVlari vazifalari va qo'llanilishi, IHVlarining berilish tartibi va me'yori, ulardan foydalanish muddatlari;
- mehnat shartnomasi, ish va dam olish vaqtlari rejimlari, ayollar va 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslarning mehnati muhofazasi. Imtiyozlar va qoplamalar;
- jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullari bilimlarini tekshiradilar.

29. Imtihon biletleri ishlab chiqarish xususiyatlari, rahbarlar va mutaxassislar qo'yiladigan malaka talablari, mahalliy sharoitlar hisobga olingan holda ishlab chiqiladi va muntazam faoliyat ko'rsatuvchi imtihon komissiyalari raislari tomonidan tasdiqlanadi.

30. Mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarni tekshirishning quyidagi turlari belgilanadi: dastlabki, davriy, navbatdan tashqari.

31. Mansab vazifalarini bajarishga kirishganlaridan so'ng bir oy ichida rahbarlar va mutaxassislar tegishli imtihon komissiyasida mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarning dastlabki tekshiruvidan o'tishga majburlar.

32. Bilimlarning davriy tekshiruvini uch yilda bir martadan kam bo'lmagan miqdorda o'tkaziladi.

33. 6-ilovaning 4-bandiga binoan mansablar ro'yxatiga kiritilgan rahbarlar va mutaxassislar quyidagi hollarda mehnat muhofazasi bo'yicha navbatdan tashqari bilimlar tekshiruvidan o'tishlari lozim:

- mehnat muhofazasi bo'yicha yangi yoki qayta ishlangan me'yoriy hujjatlar amalga kiritilganda;
- yangi jihozdan foydalan boshlanganda yoki yangi texnologik jarayonlar tatbiq qilinganda;
- xodim yangi ish joyiga o'tkazilganda yoki mehnat muhofazasi bo'yicha qo'shimcha bilimlar talab qiladigan yangi lavozimga tayinlanganda;
- guruh, o'lim yoki nogironlik bilan tugagan baxtsiz hodisalarning sodir bo'lishiga yo'l qo'yilganda, shuningdek avariya, portlash, yong'in yoki zaharlanish holatlari sodir bo'lganda;
- Davlat kuzatuv va nazorat organlarining talabi bilan;
- ishda bir yildan ortiq tanaffus bo'lganda.

Bilimlarni navbatdan tashqari tekshirish mazkur tekshirishni o'tkazishga farmoyish bergan instansiya tomonidan belgilangan alohida hujjatlar talablari doirasida o'tkazilishi mumkin.

34. Bilimlarni tekshirish natijalari alohida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi va u rais va imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan imzolandi (5-ilova).

Bilimlarni tekshirish bayonnomalar 6 yilgacha mehnat muhofazasi xizmati yoki kadrlar bo'limida saqlanadi.

Boshqaruv organlari va ishlab chiqarishda xavflilik darajasi yuqori bo'lgan korxonalarda mehnat muhofazasi qoidalari bo'yicha imtihon topqushirgan shaxslarga imtihon komissiyasi raisi(yoki

muovini) va imtihon komissiyasi a'zolari, davlat kuzatuv va nazorat organi inspektori imzolagan guvohnoma beriladi (3-ilova).

Mehnat muhofazasi bo'yicha imtihon topshirilganlik to'g'risidagi guvohnomaning mavjudligi rahbar va mutaxassisni mazkur Qoidaning 20-bandida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha bilimlarini saylanma tekshirishdan ozod qilmaydi.

35. Mehnat muhofazasi bo'yicha imtihonda qoniqsiz bilim namoyish qilgan shaxs o'zining korxonada egallab turgan rahbarlik yoki mutaxassislik lavozimida bir oy ichida imtihonni qayta topshirish sharti bilan qoldiriladi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha qayta imtihonni topshira olmagan shaxslarga nisbatan materiallar korxonaga attestatsiya komissiyasiga shaxsning egallab turgan lavozimiga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish uchun beriladi.

Imtihon komissiyalari qarorlari bilan bog'liq munozaralar mehnat muhofazasi bo'yicha davlat inspeksiyasi yoki sudlarda ko'rib chiqiladi.

36. Mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarni tekshirishni tashkil qilish ustidan nazorat qilish rahbarlar va boshqaruv organlari mehnat muhofazasi xizmatlariga yuklanadi. Mehnat muhofazasi bo'yicha davlat inspeksiyasi va davlat kuzatuv va nazorat organlari mazkur ishlarni nazorat qilish huquqiga ega.

37. Mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlar tekshiruvidan o'zini olib qochadigan rahbarlar va mutaxassislar ishdan chetlatiladilar va ularga nisbatan mazkur Qoidaning 35-bandida ko'zda tutilgan choralar ko'riladi.

IV. KIRISH YO'RIQNOMASINING NAMUNAVIY DASTURI

1. Korxonaga to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

2. Mehnat muhofazasi.

Mehnat xavfsizligi standartlari Tizimi (MXST)ning standartlari to'g'risida umumiy ma'lumot. Ish vaqti va dam olish vaqti. Ayollar va yoshlarning mehnatini muhofaza qilish. Davlat nazorati, ichki idorviy va jamoat nazorati. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish tartibi. Ichki mehnat tartibi qoidalari.

3. Texnika xavfsizligi.

Xavfli va zararli ishlab chiqarish faktorlari va ulardan himoyalash usullari. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasallanishlarning asosiy sabablari.

Ishlab chiqarish jarayonlari va ishlab chiqarish jihozlariga MXST standartlari bo'yicha talablar. Jihozlardan foydalanilganda ularga qo'yiladigan asosiy xavfsizlik qoidalari.

Saqlovchi, to'suvchi, signal beruvchi qurilmalar. Xavfsizlik ranglari va belgilari.

Elektr tokining inson organizmiga ta'siri. Tok urish turlari. Tok urish xavfini oshiruvchi omillar. Elektr jarohatlanishining oldini olish bo'yicha asosiy tadbirlar.

Ish joyini tashkil qilish va saqlashga qo'yiladigan xavfsizlik talablar.

Zavod va sex ichki transporti va yuk ko'taruvchi mexanizmlari harakatlari bilan bog'liq asosiy qoidalar.

4. Ishlab chiqarish sanitariyasi.

Ishlab chiqarish muhitining asosiy sanitariya-gigiena

Mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha asosiy tadbirlar (texnik, tashkiliy, sanitariya-gigiena, davolash-profilaktika) omillari. Ventilyatsiya vazifalari va tuzilishi. Mehnat muhofazasi bo'yicha tadbirlarning umumiy tizimida yoritishning roli.

Shovqinning zararli ta'sirini kamaytirish uchun davolash-profilaktik tadbirlar.

5. Ishlovchilarning IHVlari, ulardan foydalanish me'yorlari va qoidalari. Himoya vositalariga MXST standartlari bo'yicha talablar.

Maxsus kiyim. Maxsus poyafzal. Qo‘llar, bosh, ko‘zlar, yuz, nafas olish organlarini himoyalovchi vositalar. Shovqindan himoya qilish vositalari. Saqlovchi moslamalar.

6. Sanitaiya kiyi, sanitariya poyafzali va sanjihozlarga qo‘yiladigan talablar. Shaxsiy gigiena qoidalari.

7. Korxonada yong‘in xavfsizligiga qo‘yiladigan asosiy talablar.

8. Mexanik jarohatlanishlar, termik kuyishlar, sirkalar va va boshqa kuydiruvchi moddalar bilan kuyganda, zaharlanish, ko‘z jarohatlanishi, elektr jarohatlanishlarda jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish.

9. Xodimning texnika xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnomalar talablarini buzganligi uchun javobgarligi.

Nazorat savollari

1. Mehnat muhofazasining xuquqiy asoslarini qaysi hujjatlar belgilaydi?
2. Mehnat Kodeksida "Mehnat muhofazasi " bo‘limining mazmuni nimadan iborat ?
3. Ayollar va yoshlar mehnatiga qanday imtiyoz va kafolatlar berilgan?

3-4-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Ishlab chiqarishda baxtsiz va ishlovchilar sog‘lig‘iga zarar keltiruvchi boshqa hodisalarni taftish qilish va kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish.

Ishdan maqsad. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni aniqlash va analiz qilish hamda N- 1 shaklli dalolatnomani to‘lg‘azishni o‘rganish.

Foydalanadigan adabiyotlar.

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.
- 2.Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6-iyundagi 286- sonli qarori. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risida nizom
- 3.N-1 shaklli dalolatnoma nusxasi .

Ishni bajarish tartibi

- 1.Nizomning I-bandi Umumiy qoidalarni o‘rganib chiqish.
- 2.Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishni tekshirish va hisobga olish tartibi haqida ma‘lumot berish .
3. Baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirishni o‘rganish.
- 4.Baxtsiz hodisalar to‘g‘risida hisobot yozish va ularning kelib chiqish sabablarini taxlil etish.
- 5.N-1 shaklli dalolatnomani to‘lg‘azishni o‘rganish.

Umumiy ma‘lumotlar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**ISHLAB CHIQRISHDAGI BAXTSIZ HODISALARNI VA XODIMLAR
SALOMATLIGINING BOSHQA XIL ZARARLANISHINI TEKSHIRISH VA HISOBGA
OLISH TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

«Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini bajarish va respublika hududida mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek, mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan ayrim fuqarolarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq holda yuz bergan baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olishning yagona tartibini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizom tasdiqlansin.

2. Vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, uyushmalar, konsernlar ko'rsatib o'tilgan nizomni korxonalar va tashkilotlarga yetkazsinlar, uning o'rganib chiqilishini va so'zsiz bajarilishini ta'minlasinlar.

3. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizom 1997 yil 1 iyuldan boshlab amalga kiritilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bir oy muddatda Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomning III bo'limi 1-bandida nazarda tutilgan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar natijasida shikastlanishlarning og'irlik darajasini belgilash sxemasini ishlab chiqsin.

5. VSSPS va SSSR Davsanoatatomnazoratning 1989 yil 17 avgustdagi 8—12-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizom 1997 yil 1 iyuldan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri O'. SULTONOV

Toshkent sh.,
1997 yil 6 iyun,
286-son

Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi 286-son qarori bilan

TASDIQLANGAN

**Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida
NIZOM**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek, mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan ayrim fuqarolarda mehnat faoliyati bilan bog'liq holda yuz bergan hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olishning yagona tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom:

ishlab chiqarishda ishlayotgan davrida sud hukmi bo'yicha jazoni o'tayotgan fuqarolarga;
ish beruvchilarga;

puدرات va topshiriqlarga ko'ra fuqarolik-huquqiy kontraktlar bo'yicha ishlarni bajarayotgan shaxslarga;

tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda qatnashayotgan fuqarolarga;

agar maxsus davlatlararo bitimda o'zgacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, yollanib ishlayotgan chet el fuqarolariga;

qurilish, qishloq xo'jaligi va harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq bo'lmagan o'zga ishlarni bajarish uchun korxonaga yuborilgan harbiy xizmatchilarga, shu jumladan, muqobil xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga;

korxonada ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan talabalar va o'quvchilarga ham tatbiq etiladi.

2. Korxonada hududida va uning tashqarisida mehnat vazifalarini bajarayotganda (shuningdek xizmat safarlarida) yuz bergan jarohatlanish, zaharlanish, issiqlik ta'siri, portlash, falokatlar, imoratlar, inshootlar va konstruksiyalar buzilishi, kuyish, muzlash, qizish, elektr toki va yashin

urishi, hayvonlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar tomonidan, terroristik harakatlar natijasida shikastlanishlar, shuningdek tabiiy ofatlar (zilzilalar, o'pirilishlar, suv toshqinlari, to'fonlar va boshqalar) tufayli salomatlikning boshqa xil shikastlanishlari;

o'z funksional vazifalarini bajarish yuzasidan, shuningdek avariyaalarning, odamlar halok bo'lishining oldini olish va korxonaning mulkini saqlash maqsadida, ish beruvchi topshiriq bermagan bo'lsa ham, korxonaning manfaatlarini ko'zlab qandaydir xatti-harakatlarni amalga oshirayotgandagi;

xodim xizmat safarida bo'lgan yoki o'z funksional vazifalarini bajarish vaqtida — yo'l-transport hodisasidagi, temir yo'l, havo yo'llaridagi, dengiz va daryo transportidagi, elektr transportidagi hodisa natijasidagi;

ish beruvchi tomonidan buyruq bilan maxsus ajratilgan uydan ishga va/yoki ishdan uyga xodimlarni tashish uchun mo'ljallangan transportda, shuningdek ushbu maqsadlar uchun shartnoma (buyurtma)ga muvofiq o'zga tashkilot transportida ishga ketayotgan yoki ishdan qaytayotgandagi;

ish vaqtida shaxsiy transportda, uni xizmatga oid safarlar uchun ishlatishga ruxsat berilganlik haqida ish beruvchining yozma buyrug'i mavjud bo'lgandagi;

ish beruvchining topshirig'ini bajarish uchun transportda yoki piyoda harakatlanayotganda, shuningdek mehnat faoliyati xizmat ko'rsatish ob'ektlari orasida yurish bilan bog'liq xodimlar bilan ish vaqtida transportda yoki piyoda ketayotgandagi;

tadbirlarning o'tkazilishi yoki ishlar bajarilishi joyidan qat'i nazar, shanbalik (yakshanbalik), fuqaro mudofaasi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari, ko'ngilli yong'in muhofazasi musobaqalari o'tkazilayotgandagi, qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilgandagi, ish beruvchining yozma farmoyishi bo'yicha korxonaning tomonidan otaliq yordami ko'rsatilayotgandagi;

ichki ishlar organlarining ma'lumotlari asosida — ish vaqtida mehnat vazifalarini bajarayotganda boshqa shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilgandagi;

smenali dam olishda bo'lgan xodim bilan transport vositasidagi vaxta shaharchasi hududidagi yoki ijaraga olingan xonadagi (kuzatib boruvchi, refrijerator brigadasi xodimi, smenali haydovchi, dengiz va daryo kemalari xodimlari, shuningdek, vaxta-ekspeditsiya usulida ishlayotganlar va boshqalar) baxtsiz hodisalar tekshiriladi va hisobga olinadi.

3. Tabiiy o'lim, o'zini o'zi o'ldirish, jabrlanuvchining o'z salomatligiga qasddan shikast yetkazishi, shuningdek, jabrlanuvchining jinoyat sodir qilish chog'ida shikastlanishi holatlari (sud-tibbiy ekspertiza xulosasi yoki tergov organlarining ma'lumotlariga ko'ra) tekshirilmaydi va hisobga olinmaydi.

4. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa natijasida xodimning mehnat qobiliyati kamida bir kunga yo'qotilsa yoki tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq boshqa ishga o'tishi zarur bo'lsa, N-1 shaklidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi (1-ilova).

Ish beruvchi tekshirish tugaganidan so'ng 3 sutkadan kechiktirmay jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga davlat tilida yoki boshqa maqbul tilda rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisa to'g'risidagi N-1 shaklidagi dalolatnomani berishi kerak.

5. Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni to'g'ri va o'z vaqtida tekshirish hamda hisobga olish, N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish, baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgardir.

6. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni to'g'ri va o'z vaqtida tekshirish va hisobga olishni, shuningdek, baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini bartaraf etishga oid chora-tadbirlarning bajarilishini korxonaning yuqori turuvchi xo'jalik organi, kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi, davlat mehnat texnika nazoratchisi, O'zbekiston Respublikasi

«Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «O'zenergonazorat» agentliklari organlari nazoratdagi tegishli ob'ektlarda nazorat qiladi.

7. Ish beruvchi N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishdan bosh tortsa, jabrlanuvchi yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxs N-1 shaklidagi dalolatnoma mazmunidan norozi bo'lsa, jabrlanuvchi yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxs korxonaga kasaba uyushmasi qo'mitasiga yoki korxonaga xodimlarining boshqa vakillik organiga murojaat qiladi.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki korxonaga xodimlarining boshqa vakillik organi 10 kun muddat ichida baxtsiz hodisaning kelib chiqishi sabablarini o'rganib chiqadi, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlari, mehnat xavfsizligi andozalari buzilishini aniqlaydi, zarur deb hisoblasa, ish beruvchidan N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishni yoki qayta tuzishni talab qiladi. Ish beruvchi bu talablarni bajarmasa, korxonaga kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki boshqa vakillik organi, shuningdek jabrlanuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxs davlat mehnat texnika nazoratchisiga murojaat qiladi.

8. N-1 shaklidagi dalolatnoma tuzilmaganligi yoki noto'g'ri tuzilganligi aniqlangan hollarda davlat mehnat texnika nazoratchisi ish beruvchidan N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishni yoki boshqatdan tuzishni talab qilish huquqiga egadir. Ish beruvchi davlat mehnat texnika nazoratchisi xulosasini bajarishga majburdir.

9. Ish beruvchi bilan davlat mehnat texnika nazoratchisi o'rtasidagi anglashilmovchilikni bosh davlat mehnat texnika nazoratchisi hal qiladi.

II. ISHLAB CHIQRISHDAGI BAXTSIZ HODISANI VA XODIMLAR SALOMATLIGINING BOSHQA XIL ZARARLANISHLARINI TEKSHIRISH VA HISOBGA OLISH TARTIBI

1. Ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisa haqida jabrlanuvchi yoki guvoh darhol bo'linma (sex) rahbariga xabar berishi kerak, u esa:

jabrlanuvchiga zudlik bilan birinchi yordam ko'rsatishi va uni tibbiy-sanitariya qismiga yoki boshqa davolash muassasasiga yetkazishni tashkil etishi;

tekshirish komissiyasi ish boshlanishiga qadar ish joyidagi vaziyatni va jihozlar holatini hodisa yuz bergan daqiqada qanday bo'lsa, shundayligicha (agar bu atrofdagi xodimlar hayoti, salomatligiga tahlika solmayotgan bo'lsa va halokatga olib kelmasa) saqlab qolishi;

darhol hodisa to'g'risida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki korxonaga xodimlarining boshqa vakillik organiga xabar qilish.

2. Korxonaga tibbiy-sanitariya qismi (shifoxona, poliklinika) bir sutka ichida yordam so'rab murojaat qilgan xodimlar, shu jumladan, xizmat safaridagi va korxonaga ishlab chiqarish ob'ektlarida ish bajarayotgan xorijiy tashkilot xodimlari bilan yuz bergan har bir baxtsiz hodisa haqida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki xodimlarning boshqa vakillik organiga xabar beradi.

3. Ish beruvchining buyrug'iga ko'ra ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi vakillari yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tarkibida komissiya tuziladi.

Ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligiga bevosita javob beruvchi rahbar baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etmaydi.

Komissiya:

uch sutka ichida baxtsiz hodisani tekshirib chiqishi, guvohlar va mehnat muhofazasi qoidalari, mehnat xavfsizligi andozalarini buzishga yo'l qo'ygan shaxslarni aniqlab so'roq qilishi, imkoni bo'lsa, jabrlanuvchidan tushuntirish xati olishi;

baxtsiz hodisa sabablarini yo'qotish chora-tadbirlari ko'rsatilgan N-1 shaklidagi dalolatnomani uch nusxada tuzishi va imzo chekib, ularni tasdiqlash uchun ish beruvchiga berishi kerak.

4. Ish beruvchi ishlab chiqarishda baxtsiz hodisani keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish choralarini ko'radi va tekshirish tamom bo'lgandan so'ng uch sutka davomida tasdiqlangan N-1 shaklidagi dalolatnomalarni:

jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga, tekshirish materiallari bilan birga korxonada mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga, davlat mehnat texnika nazoratchisiga yuboradi.

N-1 shaklidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisalar korxonada tomonidan hisobga olinadi va daftarda qayd qilinadi (2-ilova).

Ish beruvchi N-1 shaklidagi dalolatnoma nusxalarini, kasaba uyushmasi qo'mitasiga yoki korxonada xodimlarining boshqa vakillik organlariga, O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontekstnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O'zenergonazorat» agentliklari organi vakiliga, agar baxtsiz hodisa nazoratdagi tegishli korxonalar (ob'ektlar)da yuz bergan bo'lsa, yuqori turuvchi xo'jalik organiga, tegishli vazirlik (xo'jalik boshqaruvi organlari)ga ham ularning talablariga muvofiq yuborishi shart.

Mazkur bo'limning 7, 10, 11, 12 va 13-bandlarida ko'rsatilgan hollarda N-1 shaklidagi dalolatnoma to'rt nusxada tuziladi va tasdiqlanadi. Mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga tekshirish materiallari bilan yuborilgan N-1 shaklidagi dalolatnoma 45 yil davomida saqlanishi lozim. Boshqa joylarga yuborilgan N-1 shaklidagi dalolatnomalar va uning nusxalari ehtiyoj yo'qolguncha saqlanadi.

5. Agar korxonada qayta tashkil etilsa N-1 shaklidagi dalolatnoma huquqiy vorisga korxonaning boshqa qimmatli qog'ozlarini topshirish tartibida beriladi. Agar korxonada tugatilsa N-1 shaklidagi dalolatnoma korxonaning yuqori turuvchi xo'jalik organiga beriladi. Agar korxonada yuqori turuvchi xo'jalik organi bo'lmasa, unda N-1 shaklidagi dalolatnoma, tuman (shahar) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limiga beriladi.

6. Jabrlanuvchi yoki guvohlar ish vaqti davomida ish beruvchiga xabar bermaganligi yoki ish qobiliyati darhol yo'qolmaganligi to'g'risidagi baxtsiz hodisalar jabrlanuvchining yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsning arizasiga, shuningdek, (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisining talabiga binoan ariza berilgan yoki ko'rsatma olingan kundan boshlab bir oy muddat ichida tekshiriladi. N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish masalasi baxtsiz hodisa to'g'risidagi ariza har tomonlama, barcha shart-sharoitlar, guvohlarning ko'rsatmalari va boshqa dalillar hisobga olingan holda tekshirilganidan so'ng hal etiladi.

7. Boshqa tashkilot tomonidan o'sha tashkilot topshirig'ini bajarish uchun yoki xizmat vazifasini ado etish uchun mazkur korxonaga jo'natilgan xodim bilan yuz bergan baxtsiz hodisa shu baxtsiz hodisa yuz bergan korxonada ish beruvchisi tomonidan tuzilgan komissiya tomonidan jabrlanuvchi ishlaydigan tashkilot vakili ishtirokida tekshiriladi.

N-1 shaklidagi dalolatnomaning 3-bandida xodimni yo'llagan tashkilot nomi ko'rsatiladi. Baxtsiz hodisa jabrlanuvchi qaysi tashkilot xodimi bo'lsa o'sha tashkilot tomonidan hisobga olinadi.

Baxtsiz hodisa yuz bergan korxonada N-1 shaklidagi dalolatnomaning bir nusxasini baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish uchun o'zida olib qoladi, qolgan 3 ta tasdiqlangan nusxasini jabrlanuvchi xodimi bo'lgan tashkilotga, hisobga olish, saqlash va 4-bandda ko'rsatib o'tilgan manzillarga jo'natish uchun yuboradi.

8. Ish beruvchining yozma farmoyishi bilan vaqtincha boshqa tashkilotga ishga o'tkazilgan yoxud o'rindoshlik bo'yicha ishlayotgan xodim bilan baxtsiz hodisa yuz bersa baxtsiz hodisa sodir bo'lgan tashkilot tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi.

9. Boshqa korxonaning ajratilgan uchastkasida ish olib borayotgan korxonada xodimi bilan baxtsiz hodisa yuz bersa, u ish olib borayotgan korxonadan tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi.

10. Harbiy qism bilan korxonada o'rtasidagi shartnoma, bitim bo'yicha xalq xo'jaligi ob'ektlariga ishga jalb qilingan va uning ma'muriy-texnik xodimi boshchiligida ish olib borayotgan harbiy qurilish otryadi (qismi) shaxsiy sostavi bilan yuz bergan baxtsiz hodisa ish beruvchi tomonidan harbiy qurilish otryadi (qismi) qo'mondonligi ishtirokida tekshiriladi. Baxtsiz hodisa korxonadan tomonidan hisobga olinadi.

Harbiylashtirilgan kon va gaz qutqaruvchilari qismlari shaxsiy sostavi bilan yuz bergan baxtsiz hodisa ish beruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontekst nazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O'zenergonazorat» agentliklari organi vakili ishtirokida tekshiriladi.

11. Korxonadagi mehnatga jalb qilinib, ishni uning ma'muriy-texnik xodimi boshchiligida bajarayotgan axloq tuzatish-mehnat muassasi (ATMM)da, davolash-mehnat va tarbiya-mehnat profilaktoriyalari (DMP va TMP)da saqlanayotgan shaxslar bilan baxtsiz hodisa yuz bersa, u ATMM, DMP va TMP vakili ishtirokida ish beruvchi tomonidan tekshiriladi. Baxtsiz hodisa korxonadan tomonidan hisobga olinadi.

ATMM, DMP va TMPlarda xo'jalik ishlarini bajarayotgan shaxs bilan, shuningdek, o'zining ishlab chiqarishida baxtsiz hodisa yuz bersa, u Ichki ishlar vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda tekshiriladi va hisobga olinadi.

12. Avtokorxonada yoki boshqa korxonadan tomonidan tuzilgan yig'ma avtokolonna tarkibida qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan avtomobil haydovchisi bilan yuz bergan baxtsiz hodisa shu korxonadan tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi. Tekshirishda xodimni yuborgan korxonada vakili qatnashadi.

13. Korxonada xodimi rahbarligida ishlab chiqarish amaliyoti o'tayotgan yoki ish bajarayotgan o'quvchilar, talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisa korxonadan tomonidan ta'lim muassasasi vakili bilan birgalikda tekshiriladi va korxonadan tomonidan hisobga olinadi.

Korxonadan tomonidan ishlab chiqarish amaliyoti uchun ajratilgan uchastkada o'qituvchilari rahbarligida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan yoki ish bajarayotgan o'quvchilar, talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalar ta'lim muassasalari tomonidan korxonada vakili bilan birgalikda tekshiriladi va ta'lim muassasasi tomonidan hisobga olinadi.

14. Mazkur bo'limning 10, 11, 12 va 13-bandlarida ko'rsatilgan hollarda, tasdiqlangan N-1 shaklidagi dalolatnomaning bir nusxasi jabrlanuvchining doimiy ish, xizmat yoki o'qish joyiga yuboriladi.

III. BAXTSIZ HODISALARNI MAXSUS TEKSHIRISH

1. Quyidagi baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi:

bir vaqtning o'zida ikki va undan ziyod xodimlar bilan salomatlikka yetkazilgan zararning og'irligi darajasidan qat'i nazar, yuz bergan guruhiy baxtsiz hodisalar;

o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar;

oqibati og'ir baxtsiz hodisalar.

2. Guruhiy o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisa to'g'risida ish beruvchi darhol sxemaga binoan (3-ilova) quyidagilarga xabar berishi kerak:

davlat mehnat texnika nazoratchisiga;

yuqori turuvchi xo'jalik organiga;

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasiga;

baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi hududiy ichki ishlar organiga;

baxtsiz hodisaga uchragan xodimni yuborgan tashkilotga;

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga;

O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasining mahalliy organiga va «O'zenergonazorat» agentligining hududiy organiga, agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi korxonada (ob'ekt)da yuz bergan bo'lsa;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga.

3. Guruhiy, o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisani viloyat Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi buyrug'iga asosan quyidagi tarkibdagi komissiya maxsus tekshiradi:

rais — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat (Toshkent shahar) (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi yoki O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi vakili yoxud «O'zenergonazorat» agentligi vakili nazorati ostidagi korxonada (ob'ekt) ;

a'zolar — yuqori turuvchi xo'jalik organi vakili, ish beruvchi, II bo'limning 7, 10, 11, 12 va 13-kichik bandlarida ko'zda tutilgan hollarda jabrlanuvchining asosiy ish joyi kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki korxonada xodimlarining boshqa vakillik organi raisi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining vakili.

O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O'zenergonazorat» agentliklari organi nazorati ostidagi korxonada (ob'ekt)larda yuz bergan guruhiy o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisani tegishli Davlat mehnat texnika nazorati bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O'zenergonazorat» agentliklari respublika yoki mahalliy organlari buyrug'i asosida tuzilgan komissiya, yuqori turuvchi xo'jalik organi vakili ishtirokida tekshiradi. Komissiya raisi qilib shu organ vakili tayinlanadi. Komissiya tarkibiga (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi kiradi.

Guruhiy, o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisalar yuz berganida ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillari tarkibida ish beruvchining buyrug'i bilan tashkil etilgan komissiya tomonidan N-1 shaklidagi dalolatnoma komissiya tomonidan maxsus tekshirish dalolatnomasi tuzilgandan so'ng bir sutka ichida komissiya xulosalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Ikki — to'rt kishining o'limi bilan tugagan baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi buyrug'iga asosan quyidagi tarkibdagi komissiya tomonidan olib boriladi:

rais — O'zbekiston Respublikasi (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi;

a'zolar — yuqori turuvchi xo'jalik organi rahbarlaridan biri, ish beruvchi, kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki korxonada xodimlarining boshqa vakillik organi raisi.

O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O'zenergonazorat» agentliklari organi nazorati ostida bo'lgan korxonada (ob'ekt)dagi shunga o'xshash baxtsiz hodisa O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O'zenergonazorat» agentliklari organining buyrug'i asosida tuzilgan komissiya tomonidan yuqori turuvchi xo'jalik organi rahbari ishtirokida tekshiriladi. Komissiya raisi qilib, O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O'zenergonazorat» agentliklari organining rahbarlaridan biri tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi komissiya tarkibiga kiradi.

Besh va undan ziyod kishi o'lgan baxtsiz hodisalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tuzilgan komissiya tomonidan tekshiriladi.

4. Maxsus tekshirish komissiyasi 15 kun mobaynida baxtsiz hodisani tekshirib chiqadi, korxonada (bo'linma, sex)dagi mehnatni muhofaza qilish ahvolini, agar zarur bo'lsa, tarmoqning boshqa korxonalarida ham tekshirishni tashkil etadi, maxsus tekshirish dalolatnomasini tuzadi (4-ilovalar) hamda III bo'limning 7-bandida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Komissiya a'zolari jabrlanuvchilar yoki ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar tashkil etadilar, zarur bo'lsa tegishli organlarga takliflar kiritadilar yoki ijtimoiy tuzilishdagi yordam masalalarini joyida hal qiladilar, jabrlanuvchiga yoki o'lganning oila a'zolariga ularning huquqlarini tushuntiradilar.

5. (Bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi maxsus tekshirish komissiyasi chiqargan xulosalardan norozi bo'lsa, shuningdek, u zarur deb hisoblagan boshqa hollarda o'z xulosasini chiqaradi (5-ilovalar).

Komissiya a'zosi maxsus tekshirish o'tkazayotgan komissiya xulosasidan norozi bo'lganda o'zining alohida fikrini bildirishi mumkin.

6. Maxsus tekshirish komissiyasi talabiga ko'ra ish beruvchi:

baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etish uchun o'zlarining oralaridan ekspert guruhi tuzish mumkin bo'lgan ekspert-mutaxassislarini taklif qilishi;

texnik hisoblashlar, laboratoriya tadqiqotlari, sinovdan o'tkazish va boshqa ishlarni amalga oshirishi;

baxtsiz hodisa yuz bergan joyni suratga olishi va boshqa zarur hujjatlarni taqdim etishi;

tekshirish uchun zarur bo'lgan transport va aloqa vositalari, maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashi;

komissiya a'zolari ishlashi uchun ularga jihozlangan alohida xona ajratib berishi;

baxtsiz hodisani maxsus tekshirish materiallarini mashinkada yozishni va yetarli miqdorda ko'paytirishni ta'minlashi shartdir.

Texnik hisoblashlar, laboratoriya tadqiqotlari sinovdan o'tkazish va taklif qilingan mutaxassislar amalga oshirayotgan boshqa ishlar, shuningdek, transport va aloqa vositalari xarajatlarini baxtsiz hodisa yuz bergan korxonada to'laydi.

Komissiya a'zolari tekshirish davomida ish beruvchidan, korxonada va uning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari, guvohlar va boshqa shaxslardan yozma va og'zaki tushuntirishlar olishga haqlidirlar.

Izoh: Ekspert guruhi tekshirish komissiyasi raisining farmoyishiga muvofiq tuziladi. Ekspert xulosasini talab qiluvchi masalalar va ekspert guruhi xulosasi bo'lgan materiallar yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

7. Maxsus tekshirish materiallariga quyidagilar kiradi:

maxsus tekshirish dalolatnomasi;

har bir jabrlanuvchiga alohida tuzilgan N-1 shaklidagi dalolatnoma;

rejalar, sxemalar, tekshirish protokoli va baxtsiz hodisa yuz bergan joyning fotosuratlari;

yo'l-transport hodisasi yuz bergan joy sxemasi;

so'roqlar protokoli, jabrlanuvchining va baxtsiz hodisani ko'rgan guvohlar va boshqa aloqador shaxslarning, shuningdek, GOST, SSBT standartlari, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlariga rioya qilinishiga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning tushuntirishlari, ekspert guruhi tuzish to'g'risidagi farmoyish va boshqalar;

jabrlanuvchilarning xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitilganligi va yo'riqnomalar olganligi haqidagi qayd daftarlaridan ko'chirmalar;

jabrlanuvchiga yetkazilgan jarohatning xususiyati va og'irligi, o'limi sabablari to'g'risidagi tibbiy xulosa;

ekspert guruhining (zarur bo'lganda) baxtsiz hodisa sabablari haqidagi xulosasi, laboratoriya va boshqa tadqiqotlar, tajribalar, tahlillar va hokazolarning natijalari;

avariya tufayli ko'rilgan moddiy zarar haqidagi ma'lumotnoma;

maxsus tekshirish komissiyasi tuzish haqidagi buyruq yoki qaror;

yo'riqnomalar, nizomlar, buyruqlardan va mehnat xavfsizligi me'yorlarini va unga mas'ul bo'lgan shaxslarni belgilovchi boshqa dalolatnomalardan ko'chirmalar;

korxonada (bo'linma, sex)da mehnatni muhofaza qilish holatini tekshirish to'g'risidagi maxsus tekshirish komissiyasining dalolatnomasi;

zarur bo'lgan hollarda (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisining xulosasi.

o'rtacha oylik ish haqi to'g'risida ma'lumotnoma — yetkazilgan zararni qoplash summasini hisoblab chiqish uchun;

boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi buyruq nusxasi — o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisa yuz berganda.

8. Maxsus tekshirish tugaganidan so'ng 15 kun mobaynida (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi organi yoki «O'zenergonazorat» organi nazoratchisi) tekshirish materiallarini:

guruhiy, o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi hududiy ichki ishlar organiga yuboradi;

maxsus tekshirishning barcha materiallari nusxalarini viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, shuningdek tegishli vazirlikka (xo'jalik boshqaruvi organiga), korxonaga va uning yuqori turuvchi xo'jalik organiga, jabrlangan xodimni yuborgan tashkilotga yuboradi;

Maxsus tekshirish materiallari nusxalari O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi organiga yoki «O'zenergonazorat» organiga, agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi korxonada (ob'ekt)da yuz bergan bo'lsa yuboriladi.

9. Baxtsiz hodisa yuz bergan korxonada ish beruvchisi (yuqori turuvchi xo'jalik organi rahbari) maxsus tekshirish materiallarini zudlik bilan ko'rib chiqishga, baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini bartaraf etish to'g'risida komissiya taklif qilgan chora-tadbirlarni bajarish haqida, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha lavozimi va kasbiga oid vazifalarning bajarilmasligi (buzilishi)ga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish haqida buyruq chiqarishga majburdir.

Ish beruvchi maxsus tekshirish komissiyasi taklif qilgan chora-tadbirlarning bajarilganligi haqida maxsus tekshirish o'tkazishni boshqargan (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» yoki «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasi davlat inspeksiyasining ob'ektlar nazorati ostida bo'lgan mahalliy organlariga yozma ravishda axborot beradi.

10. Agar jabrlanuvchi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotgan davrda shu baxtsiz hodisa sababli o'lib qolsa, ish beruvchi bu haqda darhol davlat mehnat texnika nazoratchisiga va ushbu Nizomning III bo'limi 2-bandida ko'rsatilgan tashkilotlarga xabar berishga majburdir.

Ushbu baxtsiz hodisa o'lim sodir bo'lgan vaqtdan boshlab o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisa sifatida hisobga olinishi kerak.

IV. BAXTSIZ HODISALAR TO'G'RISIDA HISOBOT VA ULARNING KELIB CHIQISHI SABABLARI TAHLILI

1. N-1 shaklidagi dalolatnoma bo'yicha rasmiylashtirilgan barcha baxtsiz hodisalar hisobotga kiritiladi.

2. N-1 shaklidagi dalolatnomalar asosida ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar chog'ida jabrlanuvchilar to'g'risida statistika organi tasdiqlagan shakllarda hisobot tayyorlaydi va uni tegishli tashkilotlarga belgilangan tartibda taqdim etadi.

3. Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar sabablarini tahlil qilishi, ularning mehnat jamoasida ko'rib chiqilishini ta'minlashi va ishlab chiqarishda jarohatlanishning oldini olishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirishi shartdir.

4. Vazirlik, korporatsiya, uyushma, konsern barcha baxtsiz hodisalarning hisobini va tahlilini olib boradi, uni o'ziga qarashli korxonalar va tashkilotlarga ma'lumot uchun yuboradi. Tegishli kasaba uyushmasi yoki boshqa vakillik organi bilan kelishilgan holda baxtsiz hodisalarning oldini olishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqadi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

5. O'lim bilan tugagan baxtsiz hodisa yuqori turuvchi kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan birgalikda yuqori turuvchi xo'jalik organlarida va O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «O'zenergonazorat» agentligi hay'atida (agar baxtsiz hodisa shu organ nazorati ostidagi ob'ektda yuz bergan bo'lsa) (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi ishtirokida muhokama qilinadi.

6. Ikki va undan ziyod kishi halok bo'lgan baxtsiz hodisa Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hay'atida, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi kengashida va O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «O'zenergonazorat» agentligi hay'atida, baxtsiz hodisa shu organ nazorati ostidagi korxonada (ob'ekt)da yuz bergan bo'lsa, (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi ishtirokida ko'rib chiqiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hay'ati, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi kengashi chiqargan qaror bajarilishi shartdir.

7. Baxtsiz hodisa yuzasidan maxsus tekshirish olib borayotgan (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi talabiga binoan hududiy ichki ishlar organlari, sog'liqni saqlash organlari (sud-tibbiy ekspertiza), yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmati, yong'in xavfsizligi davlat xizmati 3 sutkadan kechiktirmay, baxtsiz hodisaga taalluqli hujjatlar va materiallar nusxalarini taqdim etishlari shartdir.

8. Hududiy ichki ishlar organlari Mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi davlat inspeksiyasiga, O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «O'zenergonazorat» agentligi organiga ishning borishi to'g'risida axborot berib turadilar.

9. Ushbu Nizomni buzishda ayblanuvchilar mavjud qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

1-ILOVA

«TASDIQLAMAN»

N-1 shakli

Ish beruvchi

(imzo, imzo yoyilmasi)

19 _____ yil _____

korxonada muhri

Bir nusxadan yuboriladi:

— jabrlanuvchiga (o'lgan bo'lsa oilasiga);

— mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga;

— bosh davlat mehnat texnika nazoratchisiga

DALOLATNOMA №

**Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va salomatlikka boshqa xil zarar yetkazilishi
to'g'risida**

1. Korxonaning
nomi _____

1.1. Korxonaning manzili

(viloyat, shahar, tuman, ko'cha, uy)

1.2. Mulkchilik shakli

(davlat, aksiyadorlik, xususiy va hokazo)

1.3. Baxtsiz hodisa yuz bergan joy

(bo'linma, sex)

2. Vazirlik, xo'jalik boshqaruvi organi _____

3. Xodimni yo'llagan korxonona

(nomi, manzili, vazirlik

xo'jalik boshqaruvi organi)

4. Jabrlanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi _____

5. Jinsi: erkak, ayol (tagiga chizilsin)

6. Yoshi (to'liq yillar soni ko'rsatilsin) _____

7. Kasbi, lavozimi

7.1. Razryadi, klassi

8. Baxtsiz hodisa yuz berganda bajarilayotgan ish bo'yicha ish staji

9. Mehnat xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma, o'qitish:

9.1. Kirish yo'riqnomasi (sana)

9.2. Mehnat xavfsizligi bo'yicha o'qitish (sana)

9.3. Dastlabki (davriy) yo'riqnoma (sana)

9.4. O'ta xavfli ishlar uchun bilimlarni tekshirish (sana) _____

9.5. Ishga kirayotganida va davriy tibbiy ko'rikdan o'tganligi

10. Baxtsiz hodisa yuz bergan sana va vaqt _____

(*yil, kun, oy*)

—
(*ish boshlashdan to'liq soatlar soni*)

11. Baxtsiz hodisa holati

11.1. Baxtsiz hodisa sabablari _____

11.2. Jarohat yetkazilishga sabab bo'lgan asbob-uskuna

11.3. Jabrlanuvchining hushyorligi (alkogol yoki narkotiklar ta'siridaligi)

(*tibbiy xulosaga binoan*)

11.4. Tashxis

(*dastlabki, oxirgi*)

12. Baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish tadbirlari:

13. Mehnat to'g'risidagi qonunchilik, mehnatni muhofaza qilish qoidalar va me'yorlari buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslar _____

(*F.I.Sh., lavozimi, korxon nomi*)

(*ular tomonidan buzilgan qonunlar, qoidalar va*

me'yoriy hujjatlarning moddalari, bandlari)

14. Baxtsiz hodisa guvohlari

Dalolatnoma tuzildi _____

(yil, kun, oy)

Komissiya raisi _____

(F.I.Sh., imzo)

Komissiya
a'zolari _____

(F.I.Sh., imzo)

N-1 shakldagi dalolatnomani to'ldirish

7-band. Agar jabrlanuvchi bir necha kasb egasi bo'lsa, unda baxtsiz hodisa yuz berganda bajarayotgan kasbi ko'rsatiladi.

8-band. Ish stajining to'liq yillar soni ko'rsatiladi, agar ish staji bir yildan kam bo'lsa, unda oy va kunlar son ko'rsatiladi.

11.1-band. Baxtsiz hodisaning asosiy texnik va tashkiliy sabablari — asosiysi birinchi bo'lib, qolganlari ahamiyatiga yarasha tartibda ko'rsatiladi.

11.2-band. Jarohatga sabab bo'lgan asbob-uskunaning nomi, turi, rusumi, chiqarilgan yili, tayyorlangan korxonasi nomi.

11.3-band. Sud-tibbiy muassasa ma'lumotnomasi (xulosasi)ga asosan jabrlanuvchining hushyorligi (alkogol yoki narkotiklar ta'siridaligi) ko'rsatiladi.

2-ILOVA

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni qayd qilish

DAFTARI

(korxonasi, muassasa, tashkilot nomi)

3-ILOVA

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa to'g'risida xabar berish

SXEMASI

1. Korxonasi, yuqori turuvchi xo'jalik organi, vazirlik, xo'jalik boshqaruvi organi nomi.
2. Hodisa yuz bergan sana, vaqt, joy, bajarilayotgan ish va baxtsiz hodisa yuz bergandagi holatning qisqacha tavsifi.
3. Jabrlanuvchilar, shu jumladan, halok bo'lganlar soni.
4. Jabrlanuvchi (halok bo'lgan)ning familiyasi, ismi, otasining ismi, yoshi, kasbi, lavozimi.
5. Xabar yuborilgan sana, vaqt, xabarni imzolagan shaxsning familiyasi, lavozimi.

4-ILOVA

Baxtsiz hodisa (halokat)ni maxsus tekshirish

DALOLATNOMASI

20 ___ yil « ___ » _____ soat _____ minutda

(jabrlanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi)

bilan yuz bergan _____

(guruhiy, o'lim bilan tugagan, oqibati og'ir)

(kasbi, lavozimi, ish joyi,

korxonada, yuqori turuvchi xo'jalik organi, vazirlik,

xo'jalik boshqaruvi organi nomi)

(buyruq)

asosan quyidagi tarkibda tuzilgan komissiya:

rais _____

(F.I.Sh., lavozimi, ish joyi)

komissiya a'zolari: _____

(F.I.Sh., lavozimi, ish joyi)

taklif etilgan mutaxassislar ishtirokida _____

(F.I.Sh., lavozimi, ish joyi)

19 __ y. «__» _____ dan 19 __ y. «__» gacha mazkur baxtsiz hodisani maxsus tekshirdi va ushbu dalolatnomani tuzdi.

1. JABRLANUVCHI (JABRLANUVCHILAR) HAQIDA MA'LUMOTLAR

Familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, kasbi, lavozimi, umumiy va kasb bo'yicha (shu jumladan, ushbu korxonadagi) ish staji, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish, yo'riqnomalar berish, bilimlarni tekshirish vaqti, jabrlanuvchining oilaviy ahvoli, qaramog'idagi oila a'zolari haqidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi) tug'ilgan yili, jabrlanuvchi bilan qarindoshlik munosabatlari).

2. KORXONA, BO'LINMA, SEX, ISH JOYINING TAVSIFI

Baxtsiz hodisa yuz bergan joyni qisqacha tavsiflab, jabrlanuvchiga qaysi xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari ta'sir qilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatish kerak.

Agar baxtsiz hodisa ob'ektdagi halokat natijasida yuz bergan bo'lsa, dalolatnomaga quyidagilar qo'shimcha qilib kiritiladi:

ob'ekt tavsifi (qozonlar va ko'tarma inshootlar ob'ektlari uchun ob'ekt nomi va xili, uning asosiy o'lchovlari, zavod bergan tartib raqami, tayyorlovchi zavod, tayyorlangan va o'rnatilgan yili, so'nggi tekshiruvdan o'tgani, shuningdek, tayinlangan tekshiruvdan o'tish muddati);

halokat toifasi va tavsifi haqida ma'lumotlar;

nobud bo'lgan mahsulotlar (natura ifodasida va so'm hisobida), halokat natijasida yetkazilgan zarar (so'm hisobida).

3. BAXTSIZ HODISANING SHART-SHAROITLARI

Baxtsiz hodisa yuz berishigacha nimalar bo'lgani, mehnat jarayoni qanday kechgani, bu jarayonga kim boshchilik qilganini ko'rsatish, jabrlanuvchi (jabrlanuvchilar) va baxtsiz hodisaga aloqador bo'lgan boshqa shaxslarning xatti-harakatlarini tavsiflash, voqealar izchilligini bayon qilish, jarohatlanishga sabab bo'lgan xavfli (zararli) ishlab chiqarish omili, mashina, asbob yoki uskunani ko'rsatish zarur.

4. BAXTSIZ HODISA SABABLARI

Baxtsiz hodisaning asosiy texnik va tashkiliy sabablarini ko'rsatish, mehnat qonunchiligi, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yori, lavozim yo'riqnomalari, ishlarni bexatar olib borish bo'yicha me'yor va yo'riqnomalarning aniq qaysi talablari buzilganligini (tegishli moddalar, bandlarga havola qilingan holda), shuningdek, davlat andozalari buzilganini bayon qilish, qaysi xavfli va zararli ishlab chiqarish omili belgilangan me'yor va darajalardan oshib ketganligini ko'rsatish kerak.

5. BAXTSIZ HODISA SABABLARINI, ANIQLANGAN MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARI VA ME'YORLARI BUZILISHLARINI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI

Komissiya taklif etgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

baxtsiz hodisali halokat oqibatlarini yo'qotish choralari;

baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish va yana shunday hodisa yuz berishining oldini olish choralari;

ular ilova qilinayotgan shakldagi jadval yoki matnda chora-tadbirlar mazmuni, bajarish muddati va mas'ul shaxslar ko'rsatilgan holda bayon qilinishi mumkin.

Chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Bajarilishiga mas'ul
-----------------	------------------	----------------------

6. KOMISSIYANING MEHNAT QONUNCHILIGI VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARI VA ME'YORLARI BUZILISHIGA YO'L QO'YGAN SHAXSLAR TO'G'IRISIDAGI XULOSASI

Bu bo'limda xatti-harakatlari yoki harakatsizliklari baxtsiz hodisa (baxtsiz hodisali halokat)ga olib kelgan javobgar shaxslar nomini ko'rsatish, ular rioya qilmagan, belgilangan tartibda tasdiqlangan qonunchilik, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qoidalar va me'yoriy hujjatlar, lavozim yo'riqnomalari va boshqa me'yoriy hujjatlar moddalari, bandlari ko'rsatilishi kerak. Tekshirish komissiyasi tomonidan javobgar shaxslarga nisbatan jazo choralari yuzasidan takliflar qilinadi. Taklif etilgan jazo choralari jinoiy javobgarlikdan (vujudga kelgan taqdirda) ozod qilmaydi. Maxsus tekshirish dalolatnomasida komissiya a'zolari jabrlanuvchi(lar) yoki ularning oila a'zolari bilan uchrashganlari, moddiy yordam ko'rsatish va ijtimoiy tUSDagi masalalarni joyida ko'rib chiqqanlari, mavjud qonunchilikka muvofiq ularning qonuniy huquqlarini tushuntirib berganlari yozilishi kerak.

Maxsus tekshirish dalolatnomasining yakuniy qismida Nizomning III bo'limi 7-bandiga muvofiq ilova qilinayotgan materiallar ro'yxati beriladi.

Komissiya raisi

(F.I.Sh., sana, imzo)

Komissiya a'zolari

(F.I.Sh., sana, imzo)

5-ILOVA

(Bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisining

XULOSASI

20 ___ yil « ___ » ___ soat ___ minutdagi

(jabrlanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi)

(jabrlanuvchining lavozimi yoki kasbi, korxonada, yuqori turuvchi xo'jalik

organi, vazirlik, xo'jalik boshqaruvi organi nomi, jabrlanuvchining lavozimi
yoki kasbi)

Komissiya tomonidan _____ yildan _____ yilgacha o'tkazilgan
maxsus tekshirish materiallari asosida quyidagi xulosaga keldim, ya'ni

(5-ilova shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 5 iyuldagi 134-son
qarori tahririda — O'R QHT, 2010 y., 26-27-son, 213-modda)

Bundan keyin (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi maxsus tekshirish olib borgan
komissiyaning qanday xulosalari bilan kelisha olmasligini quyidagilarga muvofiq asoslab beradi:

komissiya so'roq qilmagan yoxud o'zining dastlabki ko'rsatmasiga o'zgartirish kiritmoqchi
bo'lgan baxtsiz hodisa guvohlaridan olingan qo'shimcha tushuntirishlar;

jabrlanuvchiga yetkazilgan jarohatlar tavsifi, o'limi sabablari to'g'risida tibbiy xulosa;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qoidalar va me'yoriy hujjatlarning qaysi talablariga amal
qilinmagani uchun baxtsiz hodisa yuz berishiga sharoit yaratilganligi;

boshqa ekspert guruhlarining xulosasi;

mazkur baxtsiz hodisaga aloqasi bo'lgan boshqa hujjatlar.

Asoslab berganidan so'ng (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi maxsus tekshirish
dalolatnomasining qaysi bo'limi (bo'limlari) ushbu baxtsiz hodisaga aloqasi bo'lgan qo'shimcha
axborot (hujjatlar) hisobga olinmagan holda bayon etilgan deb hisoblasa, shu bo'lim (bo'limlar)ni
ifodalab berishi kerak.

(Bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi xulosasi, zarur hollarda N-1 shaklidagi
dalolatnoma mazmunini baxtsiz hodisani qo'shimcha tekshirish natijasida belgilangan
ma'lumotlarga muvofiqlashtirib, qayta tuzish to'g'risida ish beruvchiga qo'yilgan talab bilan
tugatiladi.

Xulosa (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi blankasida tuziladi va ushbu Nizomning III
bo'limi 8-bandida ko'rsatilgan instansiyalarga yuboriladi.

N-1 shaklli dalolatnoma nusxasi .

"Tasdiqlayman"

Ish beruvchi

(Imzo quyuvchining ismi , sharfi)

20__yil_____

korxonada muxri

D A L O L A T N O M A № - _____

(Ishab chiqarishdagi baxtsiz xodisani va salomatlikka boshqa xil zarar etkazilishi to'g'risida)

Korxonaning nomi _____

1.1. Korxonaning manzili _____

(viloyat , shahar, tuman, ko'cha,uy)

1.2.Mulkchilik shakli _____

(Davlat , aksiyadorlik,xususiy va hokazo)

1.3. Baxtsiz hodisa yuz bergan joy _____

(Bo'linma,sex)

2.Xodimni yo'llagan korxonalar _____

(Nomi ,manzili)

3. Vazirlik, korporatsiya, uyushmakonser

4. Jabrlanuvchining ismi-sharfi _____

5. Jinsi; erkak, ayol

(tagiga chizilsin).

6. Yoshi. (to'liq yillar soni ko'rsatilsin.)

7.Kasbi,

lavozimi _____ 1.Razryadi,

klassi _____

8. Baxtsiz hodisa yuz berganda bajarilayotgan ishi bo'yicha ish

staji. _____

9. Mehnat havfsizligi bo'yicha yo'riqnoma o'qitish:

9.1. Kirish yo'riqnomasi

(sana) _____

9.2. Mehnat havfsizligi bo'yicha o'qitish (sana) _____

9.3. Dastlabki(davriy) yo'riqnoma (sana) _____

9.4. O'ta havfli ishlar uchun bilimlarni tekshirish (sana) _____

9.5. Ishga kirayotganda va davriy tibbiy ko'rikdan o'tganligi. (sana)

10. Baxtsiz hodisa yuz bergan sana va vaqt. _____

(kun,oy,yil)

11.Baxtsiz hodisa holati. _____

11.1.Baxtsiz hodisa sabablari _____

11.2 Jarohat etkazilishga sabab bo'lgan asbob-

uskuna _____

11.3 Jabrlanuvchining xushyorligi (alkogol va narkotiklar ta'siridagi) _____

(Tibbiy xulosaga binoan)

11,4. Tashxis _____

(dastlabki, oxirgi)

12. Baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish tadbirlari.

	Tadbir nomi	Bajarilish muddati	Bajaruvchi	Bajarilishi haqida belgi.

--	--	--	--	--

13. Mehnat to'g'risidagi qonunchilik mehnatni muhofaza qilish qoidalarini va me'yorlar buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslar.

(ismi-sharifi, lavozimi, korxonasi nomi)

(ular tomonidan buzilgan qonunlar, qoidalar va me'yoriy xujjatlarning moddalari, bandlari)

14. Baxtsiz hodisa guvohlari:

Dalolotnoma tuzildi. _____ Komissiya raisi.

(ismi-sharifi, imzo)

Komissiya a'zolari. _____

(ismi-sharifi, imzo)

Hisobot; Ishni bajarish tartibi bo'yicha talaba to'rtala bandni o'qib o'rganib H-1 shakldagi dalolotnomani to'ldiradi va o'qituvchiga taqdim etadi.

5-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Jarohatlanishlar va kasallanishlarni taxlil qilish usullari.

Ishdan maqsad. Jarohatlanishning sabablarini aniqlash va taxlil qilish.

Umumiy ma'lumotlar.

Ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va kasallanishlarning barcha sabablarini shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin:

Texnik sabablar – mashina va mexanizmlarning harakatlanuvchi qismlari, uzatmalari, to'siq qurilmalari bilan jixozlanmaganligi, uskuna va moslamalarning tormoz sistemasining ishlamasligi yoki nosozligi tufayli kelib chiqadi.

Tashkiliy sabablar - ish joylarining uskuna, moslama va yordamchi asboblari bilan yetarli ta'minlanmaganligi, yuk ko'tarish vositalari, bog'lab qo'yuvchi moslamalarning yo'qligi, yo'l-yo'riq(instruktaj)ning o'z vaqtida berilmaganligi va mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish ishlarining sust olib borilganligi, mehnat havfsizligi bo'yicha ko'rsatmalarning yo'qligi, ishchilarning o'z vaqtida maxsus kiyimlar bilan ta'minlanmaganligi, dam olish va mehnat qilish tartibining buzilishi tufayli kelib chiqadi.

Sanitariya-gigiyena sabablari - ish joyidagi noqulay mikroiklim (harorat, havoning namligi va harakat tezligi) parametrlarining ish sharoitlariga muvofiq kelmasligi, yoritilganlik darajasining sanitariya normalariga javob bermasligi, ish joylarining betartibli va iflosligi, maishiy xonalarning yo'qligi natijasida kelib chiqadi.

Iqtisodiy sabablar - mehnat muhofazasi masalalariga sovuqqonlik bilan qarash, shuningdek, oylik maoshlarni o'z vaqtida bermaslik va ishchilarning yuqori ish unumiga erishishga intilmasligi, ish sharoitlarini yaxshilash tadbirlariga etarli mablag' ajratilmasligi tufayli kelib chiqadi.

Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarni taxlil qilish usullari.

Ishlab chiqarishdagi jarohatlarni taxlil qilishdan maqsad, havfli yoki zararli ishlab chiqarish omillarini va baxtsiz hodisalarning vujudga kelishini aniqlash hamda ularning oldini olishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqarishdan iboratdir. Ishlab chiqarishda jarohatlanishni o'rganish va taxlil qilishda statistik, topografik, monografik, ergonomik va iqtisodiy usullar qo'llaniladi. Bu usullarning har biri mehnat sharoitini yaxshilashga va havfsizlikni ta'minlashga doir tor doiradagi masalalarni ko'rib chiqish va xal qilishga yo'naltirilgan. Jarohatlanishni o'rganishning statistik usuli eng ko'p tarqalgan. Bu usul baxtsiz hodisani tekshirish paytida N-1 shaklli dalolatnomadagi baxtsiz xodisalarni tavsiflovchi ma'lumotlarga asoslanadi. Shu usulga ko'ra barcha baxtsiz hodisalar alohida belgilari: jarohatlanganlarning yoshi, kasbi, jinsi, bajaradigan ishiga qarab guruhlarga ajratiladi. Bu usul kasblar, yosh va boshqa ko'rsatkichlar qanchalik havfli ekanligini aniqlashga, shuningdek, jarohatlanishning oldini olishga doir chora-tadbirlar ko'rishga imkon beradi. Ushbu usul orqali jarohatlanishning quyidagi asosiy nisbiy ko'rsatkichlari: tez-tez takrorlanish koeffitsienti K_m va og'irlik koeffitsienti K_o , ish vaqtining yo'qotilishi K_y va o'lim sonini ko'rsatuvchi koeffitsienti K_o' orqali jarohatlanish darajasini aniqlash mumkin. Taxlilga kirishishdan oldin boshlang'ich hujjatlarni tekshirish va tayyorlash lozim. Dastlab ishlab chiqarish to'liq hisobga olinganligi aniqlanadi. Buning uchun baxtsiz hodisalarni tekshirish tavsifnomalari buxgalteriyadagi mehnatga layoqatsizlik varaqalari bilan taqqoslanadi. Bu varaqalarda ko'rsatilgan tashxislar bilan tanishish korxonada jarohatlanishlarini yashirish hollari bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlashga imkon beradi. Shundan keyin tavsifnomalarda bayon qilingan hodisalarning to'g'riligiga ishonch xosil qilinadi, shubxa tug'dirgan yozuvlar baxtsiz hodisa ro'y bergan joyda tekshirib ko'riladi. Shuni nazarda tutish kerakki, ayrim punktlarni noto'g'ri yoki noaniq to'ldirish, noto'g'ri xulosalar chiqarishga va buning oqibatida baxtsiz xodisa sabablarini yo'qotishga olib keladi. Jarohatlanishlarning tez-tez takrorlanish koeffitsienti,

$$K_T = 100T_1 / P (I).$$

Bu yerda: T_1 - tekshirilayotgan davr ichida jarohatlanganlar soni; R- shu davr oralig'ida ishlagan ishchilarning o'rtacha soni. Lekin jarohatlanishlarni tez-tez takrorlanish koeffitsienti olingan jarohatning og'ir-engilligini ko'rsatmaydi. Bir korxonada baxtsiz hodisalarning aksariyatida engil jarohat olgan va mehnat qobiliyatini yo'qotgan kishi kunlar soni eng kam, boshqa korxonada esa baxtsiz xodisalarda asosan og'ir jarohat olgan eng ko'p bo'lishi mumkin. Jarohatlanish darajasiga baho berishda ularni, albatta e'tiborga olish kerak. SHu maqsadlarda jarohatlanishning og'irlik koeffitsienti ko'rsatkichi qo'llaniladi, u bir baxtsiz hodisaga qancha mehnat qobiliyati yo'qotilganligini ko'rsatadi.

Jarohatlanishlarning og'irlik koeffitsienti K_{og} hisobot davridagi ishga yaroqsiz kunlar sonini tekshirilayotgan davr ichida jarohatlanganlar soniga nisbati bilan aniqlanadi.

$$K_{og} = D_y / T_1 (1.1)$$

Bu yerda: D_y - hisobot davridagi ishga yaroqsiz kunlar soni.

Ish vaqtini yo'qotish koeffitsienti K_y 1000 kishi hisobiga hisob-kitob qilinadi va quyidagicha aniqlanadi.

$$K_y = 1000 D_y / P (1.2)$$

O'lim miqdorini ko'rsatuvchi koeffitsienti K_o' o'zicha o'lim bilan tugagan xodisalarning I_o' sonini 10^4 ga ko'paytmasini o'rtacha ishchilar soniga nisbatidir.

$$K_o' = 10^4 I_o' / P (1.3)$$

Topografik usulda baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joy aniqlanadi. Buning uchun korxonaning bosh rejasida baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joy shartli belgi bilan belgilanadi. Bunda baxtsiz hodisalar tez takrorlanadigan joylar yaqqol ko'zga tashlanadi, bu esa ularning sodir bo'lish sabablarini yo'qotishga doir shoshilinch choralar ko'rishga imkon beradi.

Monografik usulda aniq ish joyi, uchastka, uskuna, mashina, mexanizm yoki texnologik jarayonda yuzaga kelgan havfli yoki zararli ishlab chiqarish omillari taxlil qilinadi. Bu usuldan foydalanib, baxtsiz hodisa sodir bo'lgandagi barcha holatlarni (ish joyidagi mikroiklim, shovqin, titrash va boshqalar) chuqur o'rganiladi.

Ergonomik usulda - mehnat turlarining o'ziga xos tomonlari ergonomik omillarning (mashina, mexanizmning boshqarish organlarida zo'riqish, ishchining ish bajarayotgandagi xolati va boshqalar) mehnat havfsizligiga ta'sir darajasi baholanadi.

Iqtisodiy usulda ishlab chiqarishdagi jarohatlanishdan keltirilgan iqtisodiy zarar, shuningdek mehnat havfsizligi chora-tadbirlariga sarflangan mablag'larning to'g'ri taqsimlanganligi baxtsiz hodisalarning oldini olishga ketgan harajatlarning samaradorligi aniqlanadi. Jarohatlanish darajasi korxonaning iqtisodiga ta'sirini baholashda jarohatlanish bilan bog'liq harajatlar, shuningdek sifatsiz mahsulotlar va mehnat unumdorligining pasayishidan qo'rilgan zararlar va boshqa harajatlar e'tiborga olinadi.

Topshiriq.

1. Ishlab chiqarishdagi yillik N-1 shakldagi dalolatnomalar o'rganilsin va baxtsiz hodisalarning sabablari aniqlansin.

2. Statistik usul yordamida har bir talaba uchun berilgan variant tipidagi son qiymatlarini jadvaldan olib, ishlab chiqarishda ro'y bergan baxtsiz hodisalarning takrorlanish, og'irlik, yo'qotish va o'lim miqdori koeffitsientlari hisoblansin.

K_T -takrorlanish, K_{og} -og'irlik, K_Y - yo'qotish, K_O - o'lim miqdorini ko'rsatuvchi koeffitsientlarini hisoblash uchun qiymatlar.

1-jadval

Var iant	P	T ₁	D _y	Vari ant	P	T ₁	D _y
1	80 0	3	8 1	11	3 65	3	64
2	94 7	4	4 8	12	4 10	4	48
3	64 5	2	1 6	13	4 40	4	78
4	34 2	1	1 9	14	6 17	6	96
5	61 0	2	2 4	15	8 47	8	41
6	11 05	5	6 5	16	5 65	6	85
7	18 10	6	4 8	17	4 98	5	70
8	19 60	7	1 12	18	3 69	4	49

9	⁷⁶ 4	4	⁶ 4	19	⁸ 17	2	23
10	⁵⁴ 5	5	⁵ 511	20	⁶ 45	1	29

6-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Havodagi gaz va chang miqdorini aniqlash.

Ishdan maqsad: Ishlab chiqarish muhitidagi havoning changlanganlik darajasini gravimetrik usulda o'lchash va havoning gazlanganligini PGF tipidagi gazoanalizator yordamida aniqlashni o'rganish hamda sanitariya nuqtai nazaridan baho berish.

Foydalaniladigan asbob va moslamalar

CHanglanganlik darajasini aniqlash qurilmasi, chang so'riluvchi kamera, aspirator, allonj va filtrdan iborat yig'iluvchi qutti, PGF gazonalizatori.

Umumiy ma'lumot .


Havodagi gaz va bug' miqdorini aniqlash uchun mo'ljallangan priborlar gazoanalizatorlar deb ataladi.

PGF tipidagi ko'chma gazoanalizator kabel tonneli, quduq havosida yoki biror xonada ish boshlashdan oldin uning havosida yonuvchi gazlar miqdorini aniqlashga imkon beradi.

PGF gazoanalizatorining sxemasi (1-rasm) elektrik o'lchash ko'prigidan iborat bo'lib, yonuvchi gazlar bo'lmaganida ko'priq muvozanatda bo'ladi. Gazoanalizatorning o'lchash kamerasi(9) ga priborga mantaj qilingan porshenli nasos yordamida analiz qilinayotgan havo bilan gazning aralashmasi so'rib olinadi.

Ta'minlash manbai zanjiridagi tugmacha bosilganda tok o'lchash kamerasiga joylashtirilgan platina spiralni qizdiradi va shu spiralda, agar gaz-havo aralashmasi yonuvchi bo'lsa, uning katalitik yonishi sodir bo'ladi.


Kamera (9) da aralashmaning yonishidan qo'shimcha qizish hisobiga platina spiralning qarshiligi kamera (10) dagi qarshilikka nisbatan o'zgaradi. Buning natijasida ko'priqning muvozanati buziladi va galvanometrning strelkasi og'adi.



1-rasm. PGF elektrik sxemasi.

1-batareya, 2 va rezistorlar, 4 o'zgarmas rezistorlar, galvanometrning rezistorlari, 9- 10- taqqoslash kamerasi.

gazoanalizatorining 3- o'zgaruvchan galvanometr, 5 va 6 7 va 8 qo'shimcha o'lchash kamerasi;



2-Rasm: Gravimetrik usulda havoning changlanganlik darajasini aniqlash qurilmasi.

I-changlantirish kamerasi: II-aspirator: 1.Havo purkagichlar: 2 -uch yo'nalishli kran: 3 - organik oyna: 4- filtrli allonj: 5-rezina trubakalar: 6 –shtutser: 7-oyna.

8-namuna olish tezligini rostlovchi dasta: 9-rotometr: 10-chang yig'gich.

Aspirator- bu chang havoni allonj orqali so'rib oluvchi qurilma, shu bilan birga surilgan havoning xajmiini ham ulchaydi.

Allonj- filtr o'rnatiladigan metall yoki shisha silindr

Belgilangan xonada havoning changlanganligini baholash uchun changning massasini, xajm birligidagi chang zarrachalarining sonini, uning tuzilish tarkibini, bug'lanuvchanligini va zaxarligini hamda formasini bilish shart. Havoning changlanganligini gravimetrik (tarozida tortish), hisoblash (sanash), elektrik va fotoelektrik usullar bilan aniqlash mumkin. Ushbu mashg'ulotda biz gravimetrik usulni o'rganamiz (2-rasm). Gravimetrik usul bu xajm birligidagi havo tarkibida bo'lgan chang massasining og'irligini o'chashdan iborat. Buning uchun maxsus filtrning og'irligi analitik tarozida o'lchab olinadi, so'ngra u orqali belgilangan xajmdagi chang –havo aralashmasi so'riladi. Filtrning og'irligini yana taroziga tortiladi. CHang aralashmasining xajmiy og'irligi quyidagi formuladan aniqlanadi. $mg|m^3$.

$$Q = \frac{R_i - R}{V_0} \quad (1)$$

Bu yerda R- filtrning boshlangich og'irligi (mg) R_i - filtrning oxirgi og'irligi (mg) V_0 harorat va 760 mm.sim.ust (m^3) havo bosimidagi normal holatga keltirilgan havoning filtr orqali so'rib olingan hajmi

$$V_0 = \frac{V_t \cdot 273 \cdot B}{(273 + t) - 760} \quad (2)$$

Bu yerda V_t - t harorat va V bosimdagi havoning filtr orqali so'rib olingan hajmi; V-namuna olingan xonaning barometrik bosimi (mm.sim.ust); t-namuna olingan xonaning harorati (0S); Gravimetrik usulning kamchiligi shundaki, bu usul bilan havodagi changning ximiyaviy tarkibiga baho berib bo'lmaydi. Bu esa havoga gigienik baho berib bo'lmaydi .U yoki bu og'irlikka ega bo'lgan chang zarrachalarining yig'ilishi inson organiziga turlicha ta'sir qiladi. Yirik va mayda changlarning ta'siri havoning xarakteriga bog'lik bo'ladi.

Ishni bajarish tartibi:

1.Shtuts yerdan rezina trubani sug'irish orqali aspiratorni changlash kamerasidan ajratish.

2. Aspiratorni ishlatish va qo'lda rostlovchi ventilni kerakli hajmdagi namuna olish uchun rostlash.

3. Analitik tarozi yordamida filtrning og'irligini milligramm darajasidagi aniqlikkacha o'lchang va uni allonjga o'rning.

4. Allonjni rezina trubkalar orqali changlanish kamerasi va aspiratorga shunday ulash kerakki, bunda allonjning enli uchi kameraga qaratilgan bo'lishi lozim.

5. Changlanish kamerasidagi ventilyatorni ishlatish.

6. Aspiratorni ulab, 3-4 minut davomida changlangan havoni allonj orqali so'rib oling.

7. Aspirator va changlanish kamerasi ventilyatorini o'chirib allonjni ajrating va uni analitik tarozi yordamida milligramm darajasidagi aniqlikda og'irligini o'lchang.

8. Maxsus asboblardan yordamida namuna olingan xonaning barometrik bosimi va harorati ko'rsatkichlarini o'lchang.

9. Havoning hajmiy tezligi va tajriba davomiyligini bilgan holda filtr orqali o'tgan havoning xajmini (V_T) aniqlang. So'ngra olingan natijalarni (2) formula qo'yib uni normal sharoitga keltiring.

10. Og'irlik konsentratsiyasini (1) formula yordamida hisoblang. Olingan ko'rsatkichlarni 1-jadvalga yozing.

11. Ishlab chiqarish xonasidagi havoning changlanganlik darajasini gravimetrik usulda aniqlanganidan so'ng, uni me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan havoning changlanganlik darajasiga taqqoslang va baho bering.

Gravimetrik usulda havoning changlanganlik darajasini aniqlash natijalari.

1-jadval

Tajriba turi	Namuna olingan xona	Havodagi havoning harorati $^{\circ}S$	Bosimi (mm.sim.ust)	Filtrning boshlangich oirligi(mg)	Ushlab olingan changning ogirligi (mg)	Tajri davomiyligi (min)	Filtr orqali o'tgan havo xajmi m^3 .	Havodagi chang havo konsentratsiyasi mg/m^3 .	Ruxsat etilgan me'yoriy asosidagi konsentratsiya mg/m^3 .

Hisobot: Changlanganlik darajasini aniqlash qurilmasidan olingan natijalar asosida kerakli hisoblashlarni bajaring. 5-jadvalni to'lg'azing hamda xonaning changlanganlik darajasiga baho bering.

Nazorat savollar.

1. Havoning changlanganligini aniqlashning qanday usullarini bilasiz?
2. Gravimetrik usulni tushuntiring.
3. Aspirator va Allonj nima?
4. Havodagi gaz miqdori qanday o'lchanadi?

7-Amaliy mash'g'ulot

Mavzu: Ishlab chiqarish korxonalarida mikroiklim sharoitini aniqlash.

1. Assmon psixrometri:
2. Stakanda suv: Katatermometr, sekundomer.

Nazariy ma'lumot.

Havo namligini psixrometr yordamida o'lchash keng tarqalgan bo'lib ularning bir nechtasi mavjud. Ular orasida ko'p qo'llaniladigan Avgust va Assmon psixrometrdir. Ikkala psixrometrlarning ishlash prinsiplari bir xil. Psixrometrlarning ishlash prinsiplari qo'yidagicha. Ikkita bir xil termometr birday havo oqimida turgan bo'lsin. Ikkala termometrlar balonchasi quruq bo'lsa ularning ko'rsatishi ham bir xil bo'ladi. Agar termometrdan birining balonchasiga batis yoki doka o'rab uni xo'llasa termometr ko'rsatkichlari orasidagi farq hosil bo'ladi. Batisda suvning bug'lanib turishi sababli ho'l termometr ko'rsatkichlari quruq termometrqa qaraganda past temperaturani ko'rsatadi.

Atrofdagi havo namligi qancha kam bo'lsa bug'lanish shuncha tezroq bo'ladi va ho'l termometrlar shunchalik past temperaturani ko'rsatadi. Ikkala termometr ko'rsatgan temperaturalar ayirmasi havo namligini aniqlaydi. Bug'lanish rejimi barqaror bo'lganda ho'l termometr temperaturasi ham turg'un bo'lib qoladi. SHu vaqtda tashqaridan kelayotgan Q_1 - issiqlik, termometr balonchasi sirtidan suvning bug'lanishiga sarflangan Q_2 - issiqlik miqdoriga teng bo'ladi. U xolda vaqt birligi ichida ho'l termometrqa tashqaridan keluvchi issiqlik quyidagicha bo'ladi.

$$Q_1 - q_{as1} \tau (t - t_1) \quad (1)$$

Bunda $t - t_1$ –temperaturalar ayirmasi.

S_1 -ho'l termometr balonchasining sirti:

a -proporsionallik koefitsinti:

τ -Bug'lanishlar vaqti.

Bug'lanayotgan suyuqlikning vaqt birligi ichida bug'lanishga aylanadigan massasi Dolton qonunidan quyidagicha topiladi:

$$M = \frac{CS_2(P_n \cdot P) \cdot \tau}{H} \quad (2)$$

Bunda: S -havo oqimi tezligiga bog'liq proporsionallik koefitsienti.

S_2 - Bug'lantiruvchi sirt yuzasi

P_n - tuyintiruvchi suv bug'ining bug'lantiruvchi suyuqlikning $t - t_1$ - temperaturalar orasidagi elastikligi. P - havodagi suv bug'ining elastikligi.

Ho'l termometrning bug'lanish vaqtida chiqarib turadigan Q_2 issiqlik miqdorini quyidagicha yozish mumkin.


$$Q_2 = M = \frac{CS_2 \lambda (P_n \cdot P)}{H} \quad (3)$$

bu yerda λ bug'lanishning solishtirma issiqligi. (1) va (3) gi formuladagi Q_1 va Q_2 ga S_1 va S_2 teng bo'lsa quyidagicha yoziladi.


$$\frac{C \lambda (P_n - P)}{H} = a(t - t_1) \quad (4)$$

Bunda

$$P = P_n \frac{a}{c \lambda} (t - t_1) H \quad (5)$$



a)



b)

1-rasm.

Psixrometr 2 ta A_1 va A_2 termometrlarda iborat. A_1 –termometr balonchasining batis o’ralgan aspiratori. A_2 -quruq termometr, V- kalit bilan yurgaziladigan B- ventilyator, a- stasionar psixrometr, b-Assmon psixrometr.

Ishning bajarish tartibi:

V kalitni 5-6 marta aylantirib ventilyator yurgiziladi va termometr ko’rsatkichlariga qarab turiladi.

Termometr ko’rsatkichlari qaror topgach ular yoziladi.

Atmosfera bosimi N barometrda yoziladi.

Bu termometr ko’rsatib turadigan $t-t_1$ termometrlardagi tuyingan bug’ bosimi “Ren’on” jadvalidan olinadi. (1-jadval)

Agar psixrometr doimiysi berk bo’lsa havoning absolyut namligi 5 formulada yordamida topiladi. R

$$V q \text{ ----- } 100\% \quad (5)$$

$$R_n$$

Havoning nisbiy namligi.

XULOSA.

Xo’l termometrning 0^0 va $q25^0S$ temperaturalar uchun Psixrometrik 4-jadvali

Jadval-1

Xo’l term	Ho’l va quruq termometrlarning ayirmasi																		
	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	,5	0
00	0	1	3	4	7	0	3	6	1	6	0	6	1						
00	0	2	4	6	9	2	6	9	3	9	9	9	5	1					
00	0	3	5	7	1	4	7	2	6	1	6	3	6	4	0				
00	0	3	6	9	3	6	9	4	9	4	9	6	1	7	3	0			

	00	1	4	7	0	4	7	1	6	1	8	2	8	4	0	6	4	1			
	00	1	5	8	1	5	9	4	8	3	9	4	0	7	3	9	7	3	0		
	00	2	5	8	2	6	1	6	0	5	1	5	3	9	6	2	9	6	3	0	
	00	2	6	9	3	7	2	7	2	7	3	9	5	1	8	5	2	2	5	2	1
	00	2	6	0	4	8	3	8	4	9	5	1	7	3	0	7	5	1	8	5	4
	00	3	6	1	5	0	5	0	5	1	7	3	9	5	2	9	7	4	1	8	7
0	00	4	7	2	6	1	6	1	7	3	8	5	1	2	4	1	8	6	3	1	9
1	00	4	2	2	7	2	7	2	9	5	0	7	3	0	6	3	0	9	5	3	0
2	00	4	2	2	2	3	8	3	9	6	2	8	4	2	8	5	2	0	7	5	2
3	00	4	9	3	2	3	9	4	1	7	3	0	6	3	0	7	4	2	9	7	4
4	00	4	9	3	9	4	0	6	2	8	4	1	7	5	1	9	6	4	1	9	6
5	00	4	9	4	0	5	1	7	3	9	5	2	9	6	3	1	7	5	3	1	8
6	00	5	0	4	0	5	2	7	4	0	7	3	0	8	4	2	9	7	4	2	0
7	00	5	0	4	1	6	3	8	5	1	8	4	2	9	6	4	0	9	6	4	1
8	00	5	0	5	1	6	4	8	6	2	9	6	3	0	7	5	2	0	7	5	3
9	00	5	1	5	2	7	4	0	6	3	0	7	4	1	8	6	3	1	9	7	4
0	00	5	1	6	2	8	5	1	8	4	1	8	5	3	9	7	4	3	0	8	6
1	00	5	1	6	3	9	5	1	8	5	2	9	6	4	1	9	6	4	1	9	7
2	00	5	1	7	3	9	6	2	9	5	3	0	7	5	2	0	7	5	2	0	8
3	00	6	1	7	3	0	6	2	9	6	3	1	8	6	3	1	8	6	3	1	9
4	00	6	2	8	4	0	7	3	0	7	4	2	9	6	3	2	9	7	4	2	0
5	00	6	2	8	4	1	7	4	0	8	5	3	6	7	4	2	0	7	5	4	2

Havoning harakat tezligini aniqlash.


Havo harakatining tezligi sekundiga metr|sek bilan ifodalanadi. Havo harakatining tezligi 1m|sek. dan kam bo'lsa odamga sezilmaydi. Havo harakatining 1m|sek. dan ortiqroq tezliklari odamga shamol bo'lib seziladi. Shamol paydo bo'lishiga sabab atmosfera bosimi bilan havo temperaturasining notekis tarqalishidir. Havo massalari bosim yukori bo'lgan tomondan bosim past tomonga qarab yuradi. SHamol kuchiga qarab Bofort shkalasi bo'yicha taxminiy baho beriladi. (5-jadval).

Bofort shkalasi (jadval-2)

Bofort ballari	SHamol tezligi m sek	Shamol xarakteris-tikasi	SHamol ta'siri
0	0-0,5	SHTil sukunat	Mutlaqo shamol yo'q.Trubalarda tutun tik ko'tariladi.
1	0,66-1,7	Sekin shamol	Trubalarda tutun uncha tik ko'tarilmaydi.
2	1,8-3,3	Engil shamol	SHamol esayotganda yuzga seziladi.
3	3,4-5,2	Kuchsiz shamol	Barglar va mayda navdalar qimirlab turadi.
4	5,3-7,4	O'rtacha shamol	Daraxtlarning ingichga shoxlari qimirlab turadi.CHang va qog'oz parchalarni shamol uchiradi.
5	7,5-9,8	Sovuq shamol	Katta-katta shoxlar qimirlab turadi.Suvda to'lqinlar paydo bo'ladi.
6	9,9-12,4	Kuchli shamol	Yo'g'on shoxlar kimirlaydi,telefon simlari chuvirlaydi.
7	12,5-15,2	qattiq shamol	Dengizda ko'piklanadigan to'lqinlar paydo bo'ladi. Kichikrok daraxt tanalari tebranadi.
8	15,3-18,2	Juda qattiq shamol	Daraxt shoxlari sinib tushadi. SHamolga qarshi yurish qiyin bo'ladi.
9	18,3-21,5	<u>Dovul</u>	Biroz shikast etkazadi,tutun trubalari va cherepitsa uzilib tushadi.
10	21,6-25,1	Kuchli dovul	Kattagina shikast etkazadi ,daraxtlar ildizi bilan qullaydi.
11	25,2-29,0	Juda qattiq dovul	Katta-katta shikast etkazadi.
12	29 dan ortiq	To'fon	Joylarni xarob qiladi.

Havoning harakati tezligi animometr bilan aniklanadi. Biz havo harakati tezligini katatermometr yordamida aniqlashni o'rganamiz. Katatermometr juda aniq kattalikdagissilindr rezervuarli (uzunligi 40mm,diametri 16 mm, yuzasi 26,6 sm²) spirtli termometrlardir.

Spirтли rezervuar ustki qismida kengaymasi bor kapilyar bilan tutashgan. Katatermometr shkalasi 38 dan 35S⁰ gacha darajalarga bo'lib chiqilgan. Katatermometr temperaturasi shu doiralarda pasayganidan asbobdan har qanday sharoitda yo'qoladigan issiqlik miqdori bir xil bo'lib qolaveradi.



2-rasm

Shu miqdordagi issiqlikning atrofdagi muxitga chiqib ketadigan vaqti o'zgaradi (atrofdagi havo harakatining tezligi nechog'li katta va temperaturasi ne chog'lik past bo'lsa, asbob temperaturasi shuncha qisqa vaqt mobaynida **38⁰S- 35⁰S** atrofida pasayadi). Asbobning **1sm²** yuzasidan yo'qotiladigan millikoloriyalar hisobidagi issiqlik miqdori asbob faktori **F** deb ataladi. Katatermometr faktori uni ishlab chiqargan zavodda aniklanadi va kattaligi asbobning orqa tomonida ko'rsatib qo'yilgan bo'ladi. Havo harakati tezligi katatermometr bilan quyidagicha aniqlanadi. Katatermometrning spirтли rezovuori issiq **70⁰S-80⁰S** suvli kosachaga tushiriladi va qizigan spirt ustki rezovuorning 1/3 - 1/2 qismini to'ldirmaguncha asbob qizdirilaveradi, shundan keyin katatermometr sochiq bilan quruq qilib artilib, kuzatish olib boriladigan joyga osib qo'yiladi. Bo'yalgan spirt ustunchasi **38⁰S** belgisiga tushgan zaxoti sekundomer yurgiziladi va spirt ustunchasi Meniskining pastki cheti **35⁰S**,gacha pasayganda to'xtatiladi

Tajriba **2-3** marta takrorlanadi va o'rtacha qiymati olinadi. O'lchash natijalari

6-7-jadvallardan topiladi. Avvalo **H/Q** kattaligi aniqlanadi. Bu yerda **N** – kuzatish olib borilgan 1 sekund vaqt moboynda asbobning 1 sm² yuzasidan yo'qotilgan issiqlik miqdori (millikaloryalari hisobida), **N** ni topish uchun asbob faktori (**F**) ni spirt ustunchasi **38⁰S- 35⁰S** gacha tushgan sekundlar soniga bo'linadi.

$$H = \frac{F}{t}$$

Q - asbobning o'rtacha temperaturasi (**36,5**) bilan atrofidagi havo temperaturasi o'rtasidagi farqni ko'rsatadigan son.

$$Qq36.5 - t \quad (6)$$

Bu yerda **t** havo harakatining aniqlangan joydagi temperaturasi. Misol: Asbob faktori **510** spirt ustunchasi 30 sekund mobaynida **38⁰S dan 35⁰S**gacha pasayadi. Havo harakati aniqlangan joydan temperatura **16,5⁰S**. **N** kattalikni topamiz.

$$H = \frac{510}{30} = 17$$

Q - kattalikni topamiz:

$$Qq36,5-16,5q20$$

SHunday qilib , $\frac{H}{Q} = \frac{17}{20} = 0,85$

2-jadvaldan havo harakatining tezligi 2,34 metr sekundligini topamiz.

3-jadval 1m|sek dan kattaroq havo tezligini aniqlash formulasiga kerakli tayyor hisoblar

$\frac{N}{Q}$	T	$\frac{N}{Q}$	T	$\frac{N}{Q}$	Te	$\frac{N}{Q}$	T	$\frac{N}{Q}$	T
ezlik		ezlik		zlik m s		ezlik		ezlik	

	m/s hisobi da		m/s hisobi da		hisobida		m/s hisobi da		m/s hisobi da
0	1	0	1	0	1,	0	2	0	2
,60	,00	,66	,27	,72	59	,83	,22	,94	,97
0	1	0	1	0	1,	0	2	0	3
,61	,04	,67	,32	,73	63	,84	,28	,95	,04
0	1	0	1	0	1,	0	2	0	3
,62	,09	,68	,32	,74	68	,85	,34	,96	,12
0	1	0	1	0	1,	0	2	0	3
,63	,13	,69	,42	,75	74	,86	,41	,97	,19
0	1	0	1	0	1,	0	2	0	3
,64	,18	,70	,47	,76	80	,87	,48	,98	,26
0	1	0	1	0	1,	0	2	0	3
,65	,22	,71	,52	,77	85	,88	,54	,99	,35
				0	1,	0	2	1	3
				,78	91	,89	,61	,00	,43
				0	1,	0	2		
				,79	97	,90	,68		
				0	2,	0	2		
				,8	03	,91	,75		
				0	2,	0	2		
				,81	09	,92	,82		
				0	2,	0	2		
				,82	16	,93	,90		

Nazorat savollari

1. Qanday psixrometrlarni bilasiz, ishlash usulini tushuntiring?
2. Havoning namligi temperaturaga bog'likligini tushuntiring?
3. SHamolning paydo bo'lishi sababi qanday va shamol kuchiga qarab Bofort shkalasi bo'yicha taxminiy baho bering, havoning xarakter tezligi katatermometr orqali qanday o'lchanadi?

8-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: O'quv xonalarida tabiiy yorug'likni aniqlash.

Ishdan maqsad: Yorug'lik haqida ma'lumot bilan tanishish va asboblarning yordamida tabiiy yorug'likni aniqlash.


Kerakli asboblari: Fotoelement, filtr nasadka, millampermetr (LYUKSDA) darajalangan.

Nazariy ma'lumotlar.

Organizmga ta'sir qiladigan tashqi muhit omillari orasida yorug'lik dastlabki o'rinlardan birini egallaydi. Yorug'lik qo'rish organiga ta'sir qilishiga qolmay umuman butun organizmga ham ta'sir ko'rsatadi. Yorug'lik ko'rinishi organ orqali ta'sir ko'rsatgan ekan bosh miya katta yarim sharini postlog'iga etib boradigan qo'zg'alishni keltirib chiqaradi. Yorug'lik ta'siri ostida organizmning fiziologik va psixik reaksiyalari qayta tuziladi. Organizmning umumiy tanasi o'zgarib u faol xolatga o'tadi. Yorug'lik to'g'risidagi ma'lumot ko'zga ko'rinadigan yorug'likgina emas balki, ko'zga ko'rinmaydigan ultrabinafsha va infraqizil nurlar ham o'z ichiga oladi. Bu nurlarning hammasi

ham tabiatda bir xil bo'lib fazoda 300000 km|sekund atrofida tezlik bilan tarqalish xususiyatiga ega. Fizikadan ma'lumki, cho'g'lanib turgan qattiq jismdan sochilayotgan va ko'zga bir jinsdek bo'lib ko'rinadigan oq rangli yorug'lik nurlarini uch qirrali shisha prizma orqali o'tkazilsa, prizma orqasiga qo'yilgan ekranda xilma-xil tusga ega bo'lgan bir qancha qismdan iborat rangdor yo'l spektr paydo bo'ladi.

Nur energiyasi sepektorining optik soxasi to'liqining uzunligi 10mmk dan 380 mmk ga boradigan ultrabinafsha nurlarni, ko'zga ko'rnadigan nurlarni 380-760 mkm va infra qizil nurlarni 760-3400mkm o'z ichiga oladi.




1- rasm. Nur energiyasi sepektorining optik soxasi

1-rasmda ko'rinib turganidek to'liqinning uzunligi 550 mmk dan 558 mmk gacha bo'lgan nurlarni(spektr yashil sarik qism nurlari) odamning ko'zi hamma narsadan ko'ra yaqinroq sezadi. Ultrabinafsha nurlar kuchli biologik ta'sir ko'rsatadi Ularning biologik aktivligi darajasi to'liqin uzunligiga teskari proporsionaldir. Infraqizil nurlar asosan issiqlik ta'siri bilan xarakterlanadi. Ammo ular ximiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Fazodagi muayyan maydon orqali vaqt birligida o'tuvchi yorug'lik energiyasida teng miqdor mazkur maydon orqali o'tayotgan yorug'lik oqimi deb ataladi.

2-rasm. 1-Golvanometr 2. Fotoelement 3. Filtr nasadka

darajasi son
yorug'lik
bilan
uchun
shkalasi



Yoritilganlik ya'ni yorug'lik jihatdan yuza birligiga tushayotgan oqimiga tengdir.

Yorug'lik darajasi LYUKS ifodalanadi.

Yorug'lik darajasini aniqlash ob'ektivlik LYUKS metr qo'llaniladi.

Lyuksmetr fotoelement va lyukslar hisobida darajalarga

bo'lingan milliampermetr(galvanometr) dan tashkil topgan.

Fotoelement yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib beradigan asbobdir.

Fotoelektrik tok kuchi fotoelement katodining yoritish darajasiga to'g'ri proporsional bo'ladi.

Yorug'lik darajasini aniqlashga fotoelementga tushadigan nur fotoelektrik tok paydo qiladi. Bu o'z navbatida galvanometr strelkasini og'diradi.

Lyuksmetrining asosiy qismi selenli fotoelementdir. Bu element sim bilan milliampermetrga ulangan bo'ladi.

Milliampermetrning ko'rsatishlari «lyukslar» hisobidagi yorug'lik darajasi qiymatini bildiradi.

Ishni bajarish tartibi.

YU-16 lyuksmetrining qurilmasi bilan tanishish.

Laboratoriya xonasidagi yoritilganlik darajasini poldagi belgidan derazagacha bo'lgan 1,2,3,4,5 m oraliqlarda o'lchash bunda fotoelement plastinkasi tepaga qaratgan xolda polga parallel vaziyatda tutiladi hamda platina 0,8m masofa stol balandligida qilib joylashtiriladi.

$K_q (E_n | E_t) \cdot 100\%$ formuladan har beshta nuqta uchun T.YO.K. (tibiiy yoritilganlik koeffitsient) hisoblanadi.

quyidagi o'lchov ishlarini bajaring:

A) chiziqning yo'g'onligi 0,3 mm bo'lganda oynadan 3 m masofada chizmachilik ishlarini:

B) mikrometr shkalasining bo'limlari qalinligi 0,15 mm bo'lganda derazadan 5 m masofada o'lchov ishlarini.

5.Olingan raqamlarni va qilingan hulosalarni laboratoriya ishiga oid hisobotingizga yozing va 1- jadvalni to'ldiring.

Ekspiriment natijalari.

1-jadval

O'lchash vaziyatlari	E_t (lk)	E_y (lk)	T.E. K.	Ishning razryadi	Ish turi	Ob'ekt ish ulchamlari (mm)
1						
2						
3						
4						
5						

Nazorat savollari

1. Odam organizmiga yorug'likning ta'siri.
2. Ko'rinadigan nurlarning to'lqin uzunligini ayting.
3. YU-16 asbobining ishlash prinsipini tushuntiring

9-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Korxonalarda yong'in xavfsizligini ta'minlash.

Ishdan maqsad: Yong'inni o'chirish vositalari, usullari bilan tanishish. Yong'inni o'chirish vositalarining tuzilishi va ish prinsipi bilan tanishish.

Umumiy ma'lumotlar

Yong'in havfi mavjud xonalar tasniflanadi. Yong'in xavfi mavjud xonalar (tashqi qurilmalar) deb tez alanganuvchi moddalar saqlanadigan yoki ishlatiladigan xonalarga aytiladi. Xona ichidagi elektr mashinalar va uskunalarning konstruksiyasini tanlashda oldin ularni tasnifi aniqlanadi.

Yong'in havfi mavjud xonalar quyidagicha tasniflanadi:

Tez alanga oladigan moddalarni o't olish harorati 45 °C dan yuqori bo'lsa.

Tez alanga oladigan moddalarni changi ajralib chiqib muallaq turadigan xonalar. Bunda portlash havfi emas, balki alanga olish havfi bo'lganda.

Qattiq tez alanganuvchi moddalar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ishlab chiqarish xonalari yoki omborxonalar.

Tashqi qurilmalardagi tez alanganuvchi moddalarni bug'larini o't olish harorati 45 OS dan yuqori bo'lsa.

Yonish joyida yong'inni o'chirish uchun yonish jarayonini sekinlashtiradigan yoki to'xtatadigan sharoit yaratish kerak.

Yonish joyini yoki yonayotgan suyuqlikni ma'lum haroratga keltirib sovutish kerak. Bu maqsadda odatda suv, ugлекislotali gaz va h.k. ishlatiladi.

Yonish jarayoni tugaguncha yonayotgan moddalarni yonmaydigan inert gazlar bilan aralashtirish. Inert gazlarni (azot, ugлекislotali gaz, suv bug'i) yonish joyiga aralashganda kislorod jamlanishi minimumga yetadi va yonish to'xtaydi.

Yonish reaksiyasiga kimyoviy to'xtatishni ishlatish.

Yonayotgan moddalarni yonish zonasidan ajratish. Buning uchun havomexanik, kimyoviy ko'piklar ishlatiladi, ular yaxshi izolyasiyalash xususiyatiga ega. Shu maqsadda yana kukunli (poroshok) tarkiblardan ham foydalaniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kichik hajmdagi yong'inlarni to'xtatish uchun oddiy yong'inni o'chirish vositalaridan foydalanamiz, ular: o't o'chirgichlar (огнетушитель), qum va h.k.

O't o'chirgichlar quyidagilarga bo'linadi: ugлекislotali, kimyoviyko'pikli, havo-ko'pikli, kukunli va qo'shma. Markasiga qarab, turini va hajmini aniqlash mumkin. Masalan, OU-2: O- o't o'chirgich (огнетушитель), U-ugлекislotali, 2 - hajmi litrda.

Yong'inni to'xtatadigan moddani hajmi va soniga qarab quyidagilarga bo'linadi:

1. Kichik litrli suyuqlik hajmi 5 litrgacha.
2. Qo'lda olib yuruvchi korpus hajmi 10 litrgacha.
3. Qo'zgaluvchi va statsionar korpus hajmi 25 litrdan yuqori.

Ugлекislotali o't o'chirgichlar (OU-2. OU-5. OU-8) Uglerod ikki oksidi ishlatiladi. Transportda, arxivlarda, muzeylarda va h.k.larda ishlatiladi. 1000 volt kuchlanishgacha bo'lgan elektr qurilmalarda foydalanish tavsiya etiladi. Qorga o'xshagan ugлекislotali oqim 30-40 s ichida 2 m masofada yong'in joyga ta'sir etadi.

Ugлекislota -brometilli o't o'chirgichlar (OU B-7)

Havo-ko'pikli o't o'chirgichlar (OZP-5. OVP-10): Havo-mexanik ko'pik ishlatiladi. Ularni samaradorligi kimyoviy-ko'piklarga nisbatan ikki marta ko'proq. 3°C dan 50°C gacha bo'lgan haroratda ishlatiladi. Bu o't o'chirgichlar ishlab chiqarishni barcha sohalarida ishlatiladi. Ishqorli metallar va elektr uskunalardagi yong'inlarni o'chirish uchun ishlatilmaydi.

Kukunli o't o'chirgichlar (OP-8): Quruq kukun (kalsiylangan, yoki ikki ugлекislotali soda) ishlatiladi. Honalarda, transportda, hamma turdagi yonuvchi materiallar yonganda, bosim ostidagi elektr qurilmalarda va suv bilan o'chirish mumkin bo'lmagan joylarda ishlatiladi.

Kimyoviy ko'pikli o't o'chirgich (OXP-10): Kimyoviy reaksiya natijasida olinadigan ko'pik ishlatiladi. O't o'chirgich ichida, Fe₂SO₄ – N₂S₀₄ bilan shishali stakan bor. O't o'chirgichni ish holatiga o'tkazish uchun dastakni bosib o't o'chirgichni aylantirish kerak. Shu paytida stakan qopqog'i buziladi va stakan ichidagi kislotali zaryad o't o'chirgich korpusi ichidagi ishqor bilan aralashadi hamda kimyoviy reaksiya sodir bo'ladi. Ko'pikni olish uchun ishqorga ko'pik hosil qilgich (solodka ildizdan qiladigan ekstrakt) qo'shiladi. Bu o't o'chirgichlar ishlab chiqarishning barcha sohalarida ishlatiladi. Ishqorli metallar va elektr uskunalardagi yong'inlarni o'chirish uchun ishlatilmay

10-11-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Favqulotdagi vaziyatlarda fuqaro muhofazasi.

Ishdan maqsad: Favqulodagi vaziyatlarda fuqaro muhofazasi haqida batafsil o'rganish va tahlil qilish

Ishni bajarish tartibi:

1. Fuqaro muhofasasi haqida umumiy tushuncha
2. Favqulodda vaziyatlar, uning sababchi omillari va xususiyatlari
3. Favqulodda vaziyatning tavsifi
4. Fuqaro muhofazasining vazifalari
5. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari
6. Favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarini oldindan aytish va bashorat
7. FVlarda HFXni ta'minlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish

Umumiy ma'lumotlar

1. Fuqarolar muhofazasi- umumdavlat mudofa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, xalq xo'jaligi tarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning muttasil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqoralar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahaliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli ishlab chiqarish va hakoza qaratilgan.

Shunday qilib, fuqoralar muhofazasi har qanday favqulodda vaziyatlarda fuqoralarni, moddiy resurslarni muhofaza qilish, fuqoralarni qanday hatti-harakat etishi, ularga qanday chora tadbirlar bilan yordam berilishi, shikastlangan zonalarda qutqaruv va tiklov ishlarini olib borish, ishlab chiqarish tarmoqlarini muttasil ishlashini ta'minlash vazifalarini bajaradi. Zero, er yuzida umimiy qirg'in qurollari, hujumkor qurollarning zamonaviy turlari mavjud ekan, shu bilan birga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bo'lishligi muqarrar bo'lganligidan har bir davlatda va uning barcha hududlarida fuqarolar muhofazasi davlat tizimi tashkil etiladi va uning vazifalari aniq belgilanadi.

2. Favqulodda vaziyat (FV)-ma'lum hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'limiga, salomatligiga, tevarak atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar etkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir.

Favqulodda vaziyatlar xavfining tarqalish tezligiga ko'ra, quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- a) tasodifiy FV – er silkinishi, portlash, transport vositalaridagi avariya va boshqalar;
- b) shiddatli FV – yong'inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar va boshqalar;
- v) mo'tadil (o'rtacha) FV – suv toshqinlari, vulqonlarning otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariya va boshqalar;
- g) ravn FV – sekin-asta tarqaluvchi xavflar: qurg'oqchilik, epidemiyalarning tarqalishi, tuproqning ifloslanishi, suvni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Favqulodda vaziyatlar yana tarqalish miqyosiga (shikastlanganlar soniga hamda yo'qotishlar miqdoriga qarab) ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

1. Lokal (ob'ekt miqyosidagi) FV;
2. Mahalliy FV;
3. Respublika (milliy) FV
4. Transchegaraviy (global)

Lokal favqulodda vaziyat – biror ob'ektga taluqli bo`lib, uning miqyosi o`sha ob'ekt hududi bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ziyod bo`lmagan odam jabrlanadi yoki 100 dan ortiq bo`lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo`lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo`lmagan miqdorini tashkil etgan hisoblanadi.

Mahalliy tavsifidagi favqulodda vaziyat – aholi yashaydigan hudud (aholi punkti, shahar, tuman, viloyat) bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan kam bo`lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo`lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko`p bo`lmagan miqdorini tashkil etgan hisoblanadi.

Respublika (milliy) tavsifdagi favqulodda vaziyat – deyilganda favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar FV paydo bo`lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortig`ini tashkil etadigan, hamda FV mintaqasi viloyat chegarasidan tashqariga chiqadigan, respublika miqyosida tarqalishi mumkin bo`lgan FV tushuniladi.

Transchegaraviy (global) tavsifdagi favqulodda vaziyat deyilganda esa, oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan yoxud FV chet elda yuz bergan va O`zbekiston hududiga dahldor holat tushuniladi. Bunday falokat oqibatlari har bir mamlakatning ichki kuchlari va mablag`i bilan hamda hamjamiyat tashkilotlari mablag`lari hisobiga tugatiladi.

Favqulodda vaziyatlar tavsifiga ko`ra (kelib chiqish manbaiga ko`ra):

1. Tabiiy tUSDagi FV;
2. Texnogen tUSDagi FV;
3. Ekologik tUSDagi FVlarga bo`linadi.

Tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlarga 3 xil turdagi xavfli hodisalar kiradi:

- 1) geologik xavfli hodisalar: zilzilalar, er ko`chishlari, tog` o`pirilishlari va boshqalar
- 2) gidrometrologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor ko`chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqalar
- 3) Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar; alohida xavfli infeksiyalar (o`lat, vabo, sarg`ayma, isitma) yuqumli kasalliklar, terlama, Bril kasalligi, zoonoz tinfeksiyalar- Sibir yarasi, quturish, virusli infeksiyalar- SPID;

Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil turdagi vaziyat kiradi:

- 1) Transportlardagi avariya va halokatlar (kema, samolyot, temir yo`l, vokzal,)
- 2) Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariyaalar;
- 3) Yong`in-portlash xavfi mavjud bo`lgan ob'ektlardagi avariyaalar;
- 4) Energetika va komunal tizimdagi avariyaalar; (GES, GRES)
- 5) Bino va inshootlarning birdan qulab tushushi bilan bog`liq avariyaalar;
- 6) Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog`liq avariyaalar;
- 7) Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar va avariyaalar; (suv omborlari, kanallar)

Ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar. Ekologik tUSDagi FVlar asosan 3 xil bo`ladi:

- 1) Qurug`lik (tuproq, er osti)ning holati o`zgarishi bilan bog`liq vaziyatlar (foydali qazilmalarni qazish chog`ida, halokatli ko`chkilar)
- 2) Atmosfera tarkibi va xossalari o`zgarishi bilan bog`liq bo`lgan vaziyatlar; (havo muhitining zararli gazlar bilan ifloslanishi)
- 3) Gidrosfera holatining o`zgarishi bilan bog`liq vaziyatlar; Er yuzasi va osti suvlarining sanoat va qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi oqovalari.

3. Favqulodda vaziyatning tavsifi

1. Har qanday favqulodda vaziyatlar 8 ta ko'rsatkich bo'yicha aniqlanadi;
2. Favqulodda vaziyatning nomlanishi (FV ning ta'rifi);
3. FVning mohiyati;
4. FVning sabablari;
5. FVning shikastlovchi omillari;
6. FVning qaltislikni oshiruvchi omillari;
7. FVning oldindin bilish mumkinligi (monitoring, bashorat, Yu ogohlantirish, yumshatish);
8. FVni bartaraf qilish;
9. Moddiy zararni aniqlash;

FV oqibatining asosiy turlari: o'lim, odamlarning kasallanishi, inshootlarning buzilishi, radioaktiv ifloslanishlar, kimyoviy va bakterial zaharlanishlar.

FVning zararli va xavfli omillari ta'siri ostida joylashgan aholi, hayvonlar, inshootlar, moddiy resurslarning barchasi – «Shikastlanish o'chog'i» deyiladi. Oddiy (bir turdagi) shikastlanish o'chog'i deb, faqat bir shikastlovchi omil ta'sirida hosil bo'ladigan o'chog' tushiniladi. Masalan, portlash, yong'in natijasida buzilish, kimyoviy zaharlanish kuzatiladi. Murakkab (ko'p turli) shikastlanish o'chog'i deganda bir necha shikastlovchi omillar ta'sirida yuzaga kelishi tushuniladi. Masalan, kimyo korxonasiidagi portlash, binolarning buzilishi, yong'in, kimyoviy zaharlanish kabi oqibatlarga, er silkinishi, kuchli bo'ron, suv toshqini, yog'inlar, elektr tarmoqlarini ishdan chiqishi, zaharli gazlarning chiqib ketishi natijasida zaharlanish va boshqa talofatlarga olib kelishi mumkin.

4. Fuqaro muhofazasining vazifalari. Fuqaro muhofazasi davlat tizimlari – harbiy davrda ham yuzaga keladigan xavflardan aholini, hududlarni, moddiy boyliklarni muhofaza qilishda muhim vazifalarni bajaradi.

Fuqaro muhofazasining vazifasi quydagilardan iborat:

1. Aholi va ob'ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayorlash.
2. Boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish.
3. Xalq xo'jaligi ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o'tkazish.
4. Aholini, moddiy va madaniy boyliklarini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish.
5. Fuqaro muhofazasi harbiy tizimlari shayligini ta'minlash.
6. Aholini umumiy va shaxsiy saqlovchi vositalari bilan ta'minlash tadbirlari o'tkazish.
7. Aholini harbiy davrdagi hayot faoliyatini ta'minlash.
8. Radiatsiyaviy, kimyoviy biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish.
9. Qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish.
10. Harbiy davrlarda ham zarar ko'rgan hududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish.
11. Aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Mana shu vazifalarni muvaffaqiyatli olib bormay turib, zararlangan hududlarda, ob'ektlarda mo'tadil hayot faoliyatini yaratib bo'lmaydi. Bu ishlarni davlat organlari orqali, fuqaro muhofazasi boshchiligida butun xalq yordamida amalga oshiriladi.

1. Aholini favqulodda vaziyat sharoitida himoyalash, shu hodisaning noxush oqibatiga yo'l qo'ymaslik yoki uni maksimal darjada pasaytirish bo'yicha kompleks tadbirlardir. Aholini

himoyalashning yuqori samarasi ishlatilayotgan barcha vosita va usullar to'la ishlatilganda va xavfsizlikni ta'minlash printsiplari to'laligicha anglab etilgan taqdirdagina bo'lishi mumkin.

Xavfsizlikni ta'minlash printsiplarini ularni qo'llash bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

1. Oldindan tayorgarlik ko'rmoq himoya vositalarini to'plash, ularni tayyor holda saqlash hamda aholini xavfli zonadan evakuatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish.

2. Differentsiyalashgan yo'nalish shundan iboratki, bunda himoya tadbirlari hajmi va xarakteri xavfli va zaharli omillar manbainig turiga va mahalliy sharoitlarga bog'liq.

3. Tadbirlar kompleksi FV oqibatlaridan himoyalani sh usullari va vositalaridan samarali foydalanish, zamonaviy texnosotsial muhitda hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar bilan birga olib borishni taqoza qiladi.

FV larda aholini himoya qilishning asosiy usullari, aholini evakuatsiya qilish, himoya inshootlariga berkitish, shaxsiy himoya hamda tibbiy proflaktik vositalarni qo'llashdan iboratdar.

Siyosiy-harbiy nizolarni ayniqsa zamonaviy qurol-yarog'lar bilan hal qilishda qirg'indan saqlab qolish uchun eng samarali usullardan biri aholini himoya inshootlariga berkitishdir. Ayniqsa, radioaktiv va kimyoviy moddalardan saqlanish samarasi yuqoridir.

Himoya inshootlari-bular fizik, kimyoviy va biologik xavfli va zararli omillardan himoyalash maqsadida maxsus qurilgan muhandislik inshootlaridir.

Shaxsiy himoya vositalari-odam organizmining ichki a'zolariga, terisiga va kiyimiga radioaktiv, zaharlovchi va bakterial vositalarning ta'siridan saqlaydi.

Favqulodda vaziyatlarda hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash odam faoliyatining barcha jarayonlarida sog'ligini va hayotini saqlashga qaratilgan tashkiliy, muhandis-texnik tadbirlar va vositalar kompleksidir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan asosiy yo'nalishlar quydagilardan iborat:

- FV larni va ularning oqibatini oldindan aytish;

- FV paydo bo'lishi ehtimolini yo'qotish yoki kamaytirish tadbirlarini rejalashtirish, hamda ular oqibatlari ko'lamini kamaytirish;

- FV larda xalq xo'jaligi ob'ektlari ishining muntazamligini, uzluksizligini ta'minlash;

- FV lardagi aholini o'qitish;

- FV oqibatlarini tugatish.

Ushbu yo'nalishlarning qisqacha mazmunlari quydagilardir.

FV ni ularning oqibatlarini oldindan aytish va baholash.

Bu-tabiiy ofatlar, avariya va falokatlar tufayli yuzaga kelgan vaziyatini taxminiy aniqlash va baholash usulidir.

Hozirgi vaqtda seysmik rayonlar, tuproq siljishi mumkin bo'lgan, sel oqimlari yo'nalishlari, plotinalar buzilganda, suv toshqini bo'lganda, odamlarga va hududga zarar keltirishi mumkin bo'lgan zonalar chegaralari aniqlangan.

HFX bo'yicha prognoz qilish masalalariga FV larning sodir bo'lish vaqtini taxminiy aniqlash ham kiradi. Bu prognoz bo'yicha aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha operativ choralar ko'riladi. Hozirgi vaqtda ko'pgina olim va mutaxasislarning fikri FV larning boshlanishi va rivojlanishi oldindan aytib berishga qaratilgan.

2. Ko'rilayotgan muammoni ushbu sharoitda hal qilishda FV larga odamning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xavfning oldini olish va paydo bo'lish ehtimolini kamaytirish, hamda uning oqibatlari masshtabini kamaytirish masalalarini qamrab oladigan sistemali yondoshish kerak.

Ushbu metodologik asosda o'zimizning va chet el amaliy tajribasini hisobga olgan holda samaradrligi tabora ortib boruvchi tadbirlar kompleksi oldindan tayorlash, boshqacha qilib aytganda

zamonaviy texnosotsial muhitda odamning HFX ni ta'minlashning ko'p tabaqali sistemasini joriy qilish kerak.

FV lar oqibatida ko'riladigan zararlarning oldini olish tadbirlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

Doimiy o'tkaziladigan tadbirlar. Ular uzoq muddatli prognoz asosida tuziladi: Standart talablarini hisobga olgan holda qurilish-montaj ishlarini olib borish, aholini xavf-xatar haqida xabardor qilishning ishonchli sistemasini yaratish. Aholini ShXV bilan ta'minlash va himoya inshootlarining etarli fondini tuzish, nurlanish, kimyoviy va bakteriologik kuzatuv ishlarini tashkil etish, aholini FV chog'ida o'zini qanday tutish va faoliyati haqida umumiy o'quvlrini tashkil etish, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiena tadbirlarini o'tkazish.

FV vaqti aytib berilgach, ko'rilishi kerak bo'lgan himoya tadbirlari: prognoz uchun zarur bo'lgan razvedka va kuzatish sistemasini jonlantirib yuborish. Aholiga FV haqida xabar beruvchi sistemani tayor holga keltirish, iqtisodiy va jamoat hayotini maxsus qoida asosida qayta qurish, hattoki favqulodda holatgacha, yuqori xavfli manbalarni FV holatida neytrallash ular ishini to'xtatib qo'yish, qo'shimcha mustahkamlash yoki demontaj qilish, avariya qutqaruv xizmatini tayor holga keltirib qo'yish, aholini qisman evakuatsiya qilish.

3. FV da HFX ni ta'minlashda rejalashtirish asosiy omillardan biridir. U maqsadga erishish borasida vaqt, mablag` va ijrochilarni aniqlashtiradi. U sharoitni ilmiy asosda prognoz qilish, har tamonlama tahlil qilish, moddiy va ma'naviy resurslarni baholash va aholini FV holatida himoya qilishning zamonaviy, nazariy va amaliy tadbirlarga asoslanadi.

Rejalashtirishning natijasi sifatida ma'lum hujjat-reja tuziladi. U quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak: aniq ko'rsatkichlar (ish turlari, tadbirlar), bu ishlarni bajarish muddati, rejani bajarish uchun zarur resurslar (turlari, soni, manbalri) har bir punktni bajaruvchi mutassadi shaxslarga topshiriqlar, reja bajarilishining borishini nazorat qilish usullari va h.o.

Rejaning matn qismi ikki bo'limdan tashkil topgan bo'lishi mumkin: birinchi qismdan sharoitni baholash natijasida qilingan xulosalar bo'lsa, ikkinchi bo'limni FV vujudga kelganda va xavf tug'dirganda aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar tashkil etadi. Ularning asosiylari quyidagilardir: xabar berish tartibi, razvedka va nazoratni tashkil qilish, qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish uchun kuch va vositalarni tayorlash, FV oqibatlarini ogohlantirish va yumshatish tadbirlari, odamlarni va moddiy boyliklarni zudlik bilan himoyalash choralari, tibbiy ta'minot, dozimetrik va kimyoviy nazorat, korxonani avariyasiz to'xtatish tadbirlarini qo'llash tartibi, odamlarni himoya qilishni tashkil etish, aholiga ShHV tarqatish, evakuatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish, boshqaruvni tashkil etish, har xil sharoitlarda qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarin olib borish tartibi va navbati, yuqori tashkilotlarga, FV komissiyasiga axborat berish tartibi.

Rejaga turli ma'lumotnoma va tushuntiruvchi materiallar (chizma, matn) ilova qilib qo'yilishi mumkin.

Reja aniq, mazmunan to'liq, qisqa, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq va ob'ektning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan bo'lishi kerak. Rejaning hayotiyiligi kelib chiqishi bo'yicha tabiiy va texnogen FVlarda HFX ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil qilishda muntazam mashq va uquvlar jarayonida sinab boriladi.

12-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Korxonalarda shovqindan himoyalanih.

Ishdan maqsad: Talabalarga har xil joylardagi (manbalar) chiqaradigan shovqin kuchini aniqlashni va himoyalanihni o'rgatish.

Ish uchun kerakli jihozlar: Shovqin o'lchagich (shumomer) VZV-003 m2, SH-1m30, SH-71 yoki ISHV-1 shovqin va titrashni o'lchash asbobi.

Ishning borishi: Fan-texnika taraqqiyoti tufayli sodir bo'lgan shovqin va uning ta'siridan aholini muhofaza qilish hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoldi.

Shovqinning paydo bo'lishi biror qattiq jismning tebranma harakati oqibatida ovozli to'lqinlarni keltirib chiqaradi. Odamning eshitish a'zolari 26 dan 20000 Gts gacha tebranish to'lqinini hosil qiladi. Yosh o'tishi bilan odamning tovushni eshitish qobiliyati kamayib boradi.

Shaharlarda shovqinni kuchayib borishi insonlar orasida asab tizimini buzilishiga keyinchalik yurak-qon tomir, oshqozon-ichak va boshqa a'zolarini ishini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun har xil joylardagi shovqin kuchini aniqlash va undan kishilarni muhofaza qilish kerak.

№	Tekshiruv olib boriladigan joy	San a	Tekshirishlar soni				
			1	2	3	4	O'rtach a
1	Auditoriyada n tashqari						
2	Koridor tanaffusdagi vaqti						
3	Tashqaridagi shovqin						
4	A.Temur ko'chasi						
5	Ko'chabog' ko'chasi						

Ishning natijasi: Olingan ma'lumotlar to'planib, jadvalga yoziladi va geografik holatida tasvirlanadi.

Xulosa: Amaliy ishining natijasi asosida xulosa qilinadi, me'yoriy ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi.

Ma'lumot uchun:

Shovqinlarni kishi qulog'iga ta'siri bo'yicha 3 guruhga bo'linadi.

I-30-60 DB- orombaxsh, kishini tinchlantiradigan

II-65-90 DB- normal gaplashishga xalaqit beruvchi tovushlar

III-90-120 DB- shovqinlarda kishi o'zini noxush sezadi.

Shovqinning ruxsat etilgan darajasi.

№	Ob'ekt nomi	DB shovqin ko'rsatkichi
1	Kasalxona, sanatoriya	35
2	Xonadonlarda	40
3	Yotoqxonada	45
4	Sinfxonalarda	40
5	Kinoteatr va teatr	35
6	Stadionda	60
7	Auditoriyada	40
8	Oshxonada	55
9	Temiryo'l vokzalida	60
10	Serqatnov ko'chada	65

11	Shaharda	65
12	Qishloqda	40-45

Shovqin kuchini ishlatish tartibi:

Shovqin ulagich ish tartibini boshqaradigan ikki asosiy buragich, (1,2) volt-ampermetr shkalasi (3), turbo (tezkor) usulda ishlash uchun knopka(4) va ampermetr yoritgichini qo'shadigan knopkalar(15) va tovush qabul qiladigan moslamadan iborat.

1. Shovqin ulagichni ishlatish oldidan, uni tashqi muhit sharoitida (haroratida)10-15 minut saqlanadi.

2. (2) buragich yordamida kolibrovka holatiga o'rnatiladi, (1) buragichi esa "0" ga o'rnatiladi. Ampermetr shkalasidagi strelka "0" ga kelishi kerak. Strelka oldin siljigan bo'lsa, unda strelkani buragich yordamida "0" ga keltiramiz.

3. Kolibrovka qilib bo'lgach, shovqin ulagich ishga tayyor. So'ng 2-buragich yordamida ish holatiga o'tkaziladi. (A,V,S)

A-holat past tovushlarni o'lchaydi.

V-holat normal tovushni o'lchaydi.

S-holat shovqin tovushni o'lchaydi.

1. 2-buragichni A holatga qo'yib, 30-200 Gts gacha bo'lgan 1-buragich yordamida o'lchashni boshlash lozim. Ko'rsatkichi 50 Gts qo'yilgan bo'lsa, ampermetr ko'rsatkichi 10 ni ko'rsatsa unda tovush kuchi 60 Gts ni tashkil etgan bo'ladi. Amaliy ish davomida auditoriya, koridor, tashqaridagi dars va tanaffus paytida shaharda mashinalar serqatnov bo'lishi ko'chalarni shovqin kuchini o'lchab, jadvalga yozib boriladi.

13-14-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Radioaktiv nurlarni qayd qiluvchi hisoblash asboblarning tuzilishi va ishlash usullari.

Ishdan maqsad: Ionlashtiruvchi nurlarni qayd qiluvchi asboblarning tuzilishini va ishlash usulini o'rganish.

Kerakli asbob uskuna: Radiometrik asbob.

Umumiy ma'lumotlar.

Radioaktiv nurlanishlarni o'lchashda hisoblash priborlarining ishlash usuli shundan iboratki, ya'ni radioaktiv alfa, (α), beta (β), gamma (γ)-nurlarning havoda tarqalganda muhitni ionlash xususiyatiga asoslangandir.

Ionlashtiruvchi nurlarni aniqlashda turli uslublardan foydalanish mumkin. Ular quyidagilar.

1.Fotografik usul. Fotoemulsiyaning qorayishi darajasi o'zgarishiga asoslangan bo'lib, gamma nurlari ta'sirida fotoplyonkada tasvir hosil bo'ladi. Tasvir hosil bo'lishi (qorayish zichligi) nurlash dozasiga bog'liq bo'lib, u o'z navbatida etalon bilan solishtiriladi va rasm qog'ozida hosil bo'lgan tasvirga qarab nurlash dozasini quvvatini aniqlash imkoniyati tug'iladi.

2.Ximiyaviy usul -asosan ba'zi bir kimyoviy moddalarning radiatsiya ta'siridan keyin rangining o'zgarishi darajasini aniqlashga asoslangan.

3.Ssintillyasion usul. Ba'zi bir moddalar radiatsiya ta'sirida o'zidan ko'zga ko'rinadigan yorug'lik fotonlarini chiqaradi.

Natijada hosil bo'lgan ssintillyasiya (yorug'lik chaqnashlari) yozib olinadi.

4. Lyuminessent usuli. Bu usul asosan ba'zi bir kimyoviy moddalarning radiatsiya ta'sirida energiya to'plash qobiliyatiga asoslangandir.


5. Ionlash usuli. Bu usul katta ahamiyatga ega bo'lib, alohida olingan xajmdagi havo yoki gazning radioaktiv nurlar ta'sirida ionlanishning sodir bo'lishidan iborat bo'lib elektr neytral atomlardan musbat va manfiy zaryadlangan ionlar hosil bo'ladi. SHu xajmga 2 ta elektrod kiritiladi, ularga o'zgarmas kuchlanishli elektr toki ulansa, elektrod orasida elektr maydoni hosil bo'lib manfiy ionlar anodga, musbatlari esa katodga tortiladi va elektrodlar orasida potensiallar ayirmasi kamayishi kuzatiladi. Natijada hosil bo'lgan tok, ionizatsiya toki deb atalib, uning kattaligi radioaktiv nurlanishlarning intensivligiga to'g'ri proporsional bo'ladi.

Ionlash usuli asosida ishlovchi radiometrik asboblardan bir xil tartibda tuzilgan bo'lib, ularga qabul qiluvchi, kuchaytiruvchi, hosil bo'lgan signallarni o'lchovchi qurilmalar va ularning ishlashini ta'minlovchi oziqlanish manbai kiradi.

Ishning bajarish tartibi.

Qabul qiluvchi qurilma-asosan datchik deb yuritiladi. Datchik yoki nurlar detektoriga ta'sir qiladigan radioaktiv nurlar energiyasini boshqa turdagi yorug'lik, ximiyaviy, elektr energiyasiga aylantirish uchun mo'ljallangan bo'lib, bu qurilma sifatida radiometrik va dozimetrik priborlarida ionlash kamerasi va gazozaryad schyotchiklari keng ko'lamda qo'llaniladi.

Ionlash kamerasining sxemasi 10-rasmda ko'rsatilgandek asosan, 1-oyna, 2-markaziy elektrod va 3-izolyatorlardan tashkil topgan bo'ladi.



1-Rasm. Ionlash kamerasining sxemasi.


Kuchaytiruvchi qurilma-o'lchov qurilmasi ishi uchun past signallarni qabul qilib oluvchi qurilma tomonidan etarli darajada kuchaytirishga mo'ljallangan bo'lib, ko'pincha kuchaytiruvchi qurilma sifatida elektrometrik chiroqdan foydalaniladi.

O'lchov qurilmasi-qabul qilib oluvchi qurilma tomonidan ishlab chiqilgan signallarni o'lchash uchun xizmat qiladi. Oziqlanish manbai-quruq elementlar yoki akkumulyatorlar.

Rentgen va gamma nurlanishlarni o'lchovchi qurilma-ionlash kamerasi asosan havo bilan to'ldirilgan germetik idish bo'lib, unga korpusdan ajratilgan markaziy elektrod o'rnatilgan. Kamera devorlari izolyator materiallardan tayyorlangan bo'lib, ichki tomoni esa tok o'tkazuvchi material bilan qoplangan. Tashqi manbadan kamera ga elektr toki kuchlanishi berilib, potensiallar ayirmasi hosil qiladi. Radioaktiv nurlar bo'lmaganda, havo elektrodlar o'rtasida izolyator bo'lib xizmat qiladi va kamera zanjirida umuman tok bo'lmaydi.

Radioaktiv nurlar ta'sirida esa havo kamerasida ionlanish hodisasi sodir bo'lishi tufayli kamera zanjirida ionlash toki paydo bo'ladi. Zanjirda hosil bo'lgan tok kattaligi o'z navbatida

kamera orqali o'tayotgan radioaktiv nurlar dozasi quvvatiga bog'liq bo'lib, tok juda oz bo'lgan taqdirda kuchaytiriladi va so'ngra mikroampermetr yordamida o'lchanadi.



2-Rasm. Radiometrik asbobning tuzilish sxemasi.

1. ionlash kamerasi (ik). 2. Elektrometrik lampa (el) 3. Nagruzkali qarshilik (R)
4. Milliampmetr (mA) 5. Oziqlanish manbai.

Nazorat savollar.

- 1). Ionlashtiruvchi nurlarni aniqlashning usullarini ayting.
- 2). Radimetrik asbobning tuzilishini va ishlash prinsipini tushuntiring.

15-16-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini faoliyatini o'rganish.

Ishdan maqsad: O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini batafsil o'rganib chiqish va uni tahlil qilishni o'rganish.

Kerakli hujjat va adabiyotlar.

1. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son qarori **O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risida** nizom.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi 754-son qarori **Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida.**

Ishni bajarish tartibi:

1. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risida nizom qachon tasdiqlanganligi va u necha bob, qancha moddadan iboratligi haqida to'xtalish kerak bo'ladi.
2. Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida. nizom qachon tasdiqlanganligi va u necha bob, qancha moddadan iboratligi haqida to'xtalish kerak bo'ladi.

1. Umumiy ma'lumotlar.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son qarori

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining (keyingi o‘rinlarda — FVDT) tarkibini, asosiy maqsadi va vazifalarini, tashkiliy-funksional tuzilmasini hamda faoliyat ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

2. FVDTning tarkibi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlarga ega bo‘lgan yoki ushbu sohada majburiyatlar yuklangan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning tarkibiy bo‘linmalari, kuchlari va vositalaridan iborat.

3. FVDT tarkibiga kiruvchi respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig‘i, favqulodda vaziyatlar vazirining buyruqlari, ko‘rsatmalari va ushbu Nizom asosida olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar (keyingi o‘rinlarda — favqulodda vaziyatlar) — muayyan hududda odamlar qurbon bo‘lishiga, odamlarning sog‘lig‘iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish — favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda o‘tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘ligini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar ta‘sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar majmui;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish — aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar majmui, vositalar hamda usullar tizimi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish — oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda esa — odamlarning hayotini asrab qolishga va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui;

FVDTning funksional quyi tizimi — aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlarni o‘z ichiga olgan quyi tizim;

FVDTning hududiy quyi tizimi — tegishli hududda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini o‘z ichiga olgan quyi tizim;

fuqaro muhofazasi — harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O‘zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlar davlat tizimi.

2-bob. FVDTning asosiy maqsadi va vazifalari

5. FVDTning asosiy maqsadi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlarga ega bo'lgan yoki ushbu sohada majburiyatlar yuklangan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tinchlik va alohida davrda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlari samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat.

6. Quyidagilar FVDTning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tinchlik va alohida davrda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash;

respublika hududida ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish yuzasidan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni hamda tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, shuningdek, ushbu soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish;

FVDTning barcha darajadagi boshqaruv organlari va favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuchlar va vositalarning doimiy tayyorligini ta'minlash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, almashish, axborot tayyorlash va berish;

aholini, FVDT boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;

xorijiy davlatlar hududida ro'y bergan favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko'rsatish, shuningdek ularni va halok bo'lganlarni evakuatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida fuqarolarning, shu jumladan, ularni bartaraf etishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini ta'minlash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish;

ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardan sug'urta qilishning maqbul tizimini ta'minlash.

3-bob. FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi

7. FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi mazkur Nizomga ilovaga muvofiq belgilanadi.

8. FVDT hududiy va funksional quyi tizimlari hamda axborot-boshqaruv tuzilmasidan iborat bo'lib, respublika, mahalliy va obyekt darajalariga ega.

9. FVDTning har bir darajasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

FVDT boshqaruv organlari;

FVDT tezkor-boshqaruv organlari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari;

favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari.

10. FVDTning hududiy quyi tizimlari o'z ma'muriy hududlari doirasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil etiladi hamda tegishli tumanlar va shaharlar miqyosidagi bo'g'inlardan iborat bo'ladi.

FVDT hududiy quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuchlari va vositalari tarkibi, faoliyat ko'rsatish tartibi mazkur Nizom, mahalliy geofizik va tabiiy-iqlim sharoitlarini, xavf darajasi yuqori obyektlarning mavjudligini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan ushbu quyi tizimlar to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanadi.

Hududiy quyi tizimlar to'g'risidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o'rinlarda — FVV) bilan kelishgan holda tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan, shuningdek, mos ravishda hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarma (bo'lim)lari bilan kelishgan holda tuman (shahar)lar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

11. FVDTning funksional quyi tizimlari respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajarish, shuningdek, idoraviy mansub obyektlarda ularning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun tashkil etiladi hamda FVDT xizmatlaridan, quyi tizimlarning davlat nazorati organlari, kuchlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

FVDT funksional quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuchlari va vositalari tarkibi, faoliyat ko'rsatish tartibi mazkur Nizom, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha funksiyalari, xavf darajasi yuqori bo'lgan idoraviy mansub obyektlardagi ishlab chiqarish texnologiyalarining xususiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan ushbu quyi tizimlar to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanadi hamda FVV bilan kelishgan holda tegishli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tasdiqlanuvchi ixtisoslashgan xizmatlar va avariya-qutqaruv tuzilmalari to'g'risidagi nizomlar bundan mustasno.

12. FVDTning axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

FVVning Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi;

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining axborot-tahlil markazlari;

atrof tabiiy muhit va xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar holatini kuzatish va nazorat qilish organlarining axborot markazlari;

turg'un (statsionar) boshqaruv punktlari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalarini boshqarishning harakatdagi punktlari;

FVDTning hududiy va funksional quyi tizimlarining navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

aloqa va axborot uzatish vositalari, shu jumladan, boshqarish va axborot bilan ta'minlashning avtomatlashtirilgan tizimi.

Axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

FVDTning hududiy va funksional quyi tizimlarining ixtisoslashgan hamda laboratoriya nazorati va kuzatuv tizimidagi bo'linmalaridan olingan seysmologik, geologik, gidrometeorologik xavfli hodisalar, quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi, atmosfera (havo muhiti) tarkibi va

xossalari hamda gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar, sanoat va transportdagi avariya va halokatlar, epidemiya, epizootiya, epifitotiya, radioaktiv, kimyoviy va biologik (bakteriologik) holat to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash (tahlil qilish va saqlash);

FVDTning boshqaruv organlari, kundalik boshqaruv organlari, kuchlari hamda aholini favqulodda vaziyatlar xavfi yoki ro'y berganligi, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi holatlari, xususiyatlari, rivojlanish ko'lamlari va kechishi, yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi to'g'risida xabardor qilish va ma'lumot (axborot) berish;

FVDT quyi tizimlari va bo'g'inlari, boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlar o'rtasida o'zaro axborot va ma'lumot almashinuvini ta'minlash.

Favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborotlarning mezonlari, mazmuni va turlari, ularni FVDT quyi tizimlari va bo'g'inlariga, shuningdek, aholiga yetkazish muddatlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan davlat boshqaruv organlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xo'jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar o'rtasida favqulodda vaziyatlar masalalari bo'yicha kundalik hamkorlik qilish va xabar berish yo'riqnomasi asosida amalga oshiriladi.

13. FVDT boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

respublika darajasida — FVV markaziy apparati, FVDT tarkibiga kiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar markaziy (boshqaruv) apparatlarining vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni hal etish kiradigan bo'linmalaridan;

mahalliy darajada — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, tumanlar va shaharlar favqulodda vaziyatlar bo'limlari, tashkilotlarning vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni hal etish kiradigan bo'linmalaridan;

obyekt darajasida — obyektlar ma'muriyati hamda ularning vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni bajarish kiradigan tarkibiy bo'linmalari (xizmatlari, shubalari yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslari).

FVDT, uning quyi tizimlari va bo'g'inlarining faoliyatini tashkil etish, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha ularga belgilangan vazifalar o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash tegishli FVDT boshqaruv organlariga yuklanadi.

14. FVDT tezkor-boshqaruv organlari — FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari hamda ularning bo'g'inlaridagi tezkor boshqaruvni amalga oshiruvchi bo'linmalardir, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

respublika darajasida — FVVning Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi, FVDT tarkibiga kiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar markaziy (boshqaruv) apparatlarining navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

mahalliy darajada — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining tezkor-boshqaruv markazlari, shaharlar va tumanlar favqulodda vaziyatlar bo'limlarining tezkor-boshqaruv guruhlarini, tashkilotlarning navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

obyekt darajasida — obyektlarning navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

tegishli ravishda har bir darajadagi FVDT boshqaruv organlarining favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuchlari hamda vositalarini boshqarish statsionar va harakatdagi punktlari.

FVDT tezkor-boshqaruv organlari tegishli boshqaruv organining doimiy joylashuv punktlarida, favqulodda vaziyatlar ro'y berganda esa — favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuchlari va vositalarini boshqarish statsionar va harakatdagi punktlarida tashkil etiladi. Ular oldindan tegishli xabar berish, aloqa, axborotni qayta ishlash va uzatishning tegishli texnik vositalari bilan jihozlanadi hamda o'zlariga yuklangan vazifalarni bajarishga doimiy tayyor holatda saqlanadi.

Tezkor-boshqaruv organlari favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida ogohlantirish ma'lumotlarini hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha tavsiyalarning FVDT boshqaruv organlariga tezkor taqdim etilishini ta'minlaydi.

15. Quyidagilar respublika darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlar sharoitlarida iqtisodiyot tarmoqlari hamda o'ta muhim va xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar faoliyati barqarorligini oshirishga qaratilgan va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini imkon qadar kamaytiruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga rahbarlik qilish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida respublika maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarini ishlab chiqishni tashkil etish va bajarilishini ta'minlash;

aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimini budjet mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan yaratish va uni doimiy tayyor holatda saqlash;

boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar, hududiy tarmoqlardan va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlaridan, radio, televideniye va boshqa texnik vositalardan markazlashtirilgan holda foydalanishni ta'minlash;

kimyoviy, yonish, portlash va boshqa xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlarda, shu jumladan, suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida ularning texnik holatini avtomatik kuzatish, yong'in va boshqa xavflardan darak beruvchi tizimlarni, shuningdek, ushbu obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimlarini loyihalashtirish va yaratishni nazorat qilish;

favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognoz qilish yagona tizimida tegishli vazifalarni bajarish;

FVDT boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, FVDT kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligini ta'minlash;

ro'y bergan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlari hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga oid qabul qilinayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlarning to'planishini va almashinishini hamda yetkazilishini ta'minlash va nazorat qilish;

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni, shu jumladan, zarar ko'rgan aholining hayot sharoitlarini ta'minlash ishlarini, evakuatsiya ishlarini amalga oshirishga oid tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilinadigan FVDT funksional quyi tizimlari kuchlari va vositalarining o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish va ishlarini tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun respublika (idoraviy) moliyaviy va moddiy resurslar zaxirasini, shuningdek, FVDTning maxsus sug'urta jamg'armasini tashkil etishga va undan foydalanishga rahbarlik qilish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etish;

idoraviy mansub obyektlarning rahbarlari tarkibi va kuchlari, shuningdek, xodimlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishini va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashni muvofiqlashtirish;

ishlab chiqarish va texnologiyalar xavfsizligi, shuningdek, xodimlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning tarmoq normalari va qoidalarini ishlab chiqishda qatnashish.

16. Quyidagilar mahalliy darajadagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlar sharoitlarida xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlarning barqaror ishlash imkoniyatini oshirishga doir tashkiliy va muhandislik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha hududiy (viloyat) maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimining mahalliy darajasini tashkil etish va doimiy tayyor holatda saqlash;

boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar hududiy tarmoqlaridan va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlaridan, radio, televideniye va boshqa texnik vositalardan markazlashtirilgan holda foydalanilishini ta'minlash;

FVDTning manfaatdor funksional quyi tizimlari bilan birgalikda kimyoviy, yonish, portlash va boshqa xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlarda, shu jumladan, suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida ularning texnik holatini avtomatik kuzatish, yong'in va boshqa xavflardan darak beruvchi tizimlarni, shuningdek, ushbu obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimining lokal darajasini yaratish va ularning doimiy shayligini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarga olib keluvchi xavfli tabiiy, texnogen va ekologik jarayonlarning rivojlanish ehtimolini, xususiyatlari hamda ko'lamini, shuningdek, ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish;

FVDT boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha harakatlarga kuchlar va vositalarning doimiy tayyorligini ta'minlash;

ro'y bergan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlari, ularni bartaraf etishga doir ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlarni to'plash, almashish va ular to'g'risida o'z vaqtida xabar qilish;

FVDT hududiy quyi tizimlari kuchlari va vositalarining, shuningdek, ko'ngilli tuzilmalar, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining favqulodda vaziyatlar chog'ida qutqaruv ishlarini va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirishiga rahbarlik qilish va harakatlarining uyg'unligini ta'minlash, volontyorlar hamda mehnatga layoqatli aholini ushbu ishlarga jalb qilishni tashkil etish;

aholini evakuatsiya qilish (vaqtincha olib chiqish)ni, evakuatsiya qilingan aholini joylashtirishni, yashash sharoitini ta'minlashni va favqulodda vaziyatlar bartaraf etilgach ularning doimiy yashash joylariga qaytishini rejalashtirish va amalga oshirish;

xavfli zonalardagi aholi punktlarida va xo'jaliklarda yashovchilarni xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko'chirish hamda ularning yashash sharoitini har tomonlama ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni qayta tiklashni ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini moliyalashtirish;

FVDT xizmatlari va tuzilmalarini, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruv xizmatlarini belgilangan tartibda tashkil etish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

fuqarolarni, ularning uy-joyi va mol-mulkini maqsadli sug'urta qilishni tashkil etish hamda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan sug'urtalangan himoyasi samaradorligini ta'minlash uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va sug'urta tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

aholini, FVDT boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, kuchlar va vositalarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashga rahbarlik qilish.

17. Quyidagilar obyektlar darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, obyektlarning barqaror ishlashi imkoniyatini oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish;

texnogen avariya va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash, ular ro'y berganda oqibatlarini prognoz qilish hamda ularni bartaraf etish tadbirlarini rejalashtirish maqsadida avtomatik kuzatish, yong'in va boshqa xavflardan darak beruvchi va nazorat tizimlarini keng joriy etish, kunlik monitoring va kuzatuv ishlarini nazorat qilish;

obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining lokal va obyekt darajalarini yaratish ishlarini tashkil etish;

FVDT boshqaruv organlarining, obyektlar kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligini ta'minlash;

axborot to'plashni ta'minlash va nazorat qilish, yuzaga kelgan favqulodda vaziyat, uning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatni bartaraf etish uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar va zarur yordam to'g'risida yuqori organlarga ma'lumot berish;

qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalarini belgilangan tartibda tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlari bajarilishini, obyektning zarar ko'rgan xodimlarini va obyekt yaqinida yashaydigan aholini evakuatsiya qilish va hayot sharoitlarini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni qayta tiklashni ta'minlash;

xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar uchun texnik hujjatlar nusxalarini yaratish va saqlash ishlarini tashkil etish;

obyektlarning xavfsizligini pasportlashtirish va deklaratsiyalash, tabiiy va texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar chegaralarini belgilash.

18. FVDTning kuchlari va vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

fuqaro muhofazasi qo'shinlari;

FVVga to‘g‘ridan to‘g‘ri hamda tezkor bo‘ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning professional ixtisoslashtirilgan bo‘linmalari va tuzilmalari, respublika, mahalliy va obyektlar darajasida FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining xizmatlari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari.

FVDT kuchlari va vositalari belgilangan vazifalarni O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining ko‘ngillilar otryadlari (komandalari, guruhlari), fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi “Mahalla fuqaro muhofazasi” yig‘ma guruhlari, “Vatanparvar” mudofaaga ko‘maklashuvchi tashkiloti bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

19. Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari FVVga bo‘ysunadi hamda o‘z tezkor yo‘nalishlariga muvofiq alohida davrda respublikaning muhim mudofaa va sanoat obyektlarida favqulodda vaziyatlarni tugatishga doir ishlarni olib boradi.

Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari yirik ko‘lamdagi ishlab chiqarish avariylari, halokatlar, tabiiy ofatlar sharoitida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish va maxsus priborlar, texnikalar, asbob-uskunalar va tayyorlangan mutaxassislarni talab etuvchi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti — O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondonining farmoyishiga asosan jalb etilishi mumkin.

20. FVVga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘ysunuvchi qutqaruv tuzilmalari malakali mutaxassislar bilan butlangan va maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqarish vositalari bilan jihozlangan, qutqaruv ishlarini avtonom rejimda kamida 72 soat ichida amalga oshirishga mo‘ljallangan, doimiy shay holatdagi qutqaruv tuzilmalarini o‘z ichiga oladi.

21. FVVga tezkor bo‘ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Maxsus avariya-tiklash boshqarmasini, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazini va uning filiallarini, O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasining qidiruv-qutqaruv havo kemalarini, qidiruv va avariya-qutqaruv xizmatlari va tuzilmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda hududiy transport boshqarmalari tomonidan jalb qilinadigan avtotransport vositalari va tashkil etiladigan avtosanitar kolonnalari, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni tugatishga, FVDT kuchlari harakati va tadbirlarini ta‘minlashga mo‘ljallangan FVDT funksional quyi tizimlarining boshqa tarkibiy bo‘linmalarini o‘z ichiga oladi.

Tezkor bo‘ysunadigan tuzilmalarning vazifalari, tayyorlanish muddatlari, ularni jalb etish tartibi ushbu tuzilmalarning FVV bilan kelishilgan harakat rejalarida hamda FVDT tegishli funksional quyi tizimlari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilanadi.

22. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning harbiylashtirilgan va professional avariya-qutqaruv, avariya-tiklash va boshqa ixtisoslashtirilgan bo‘linmalari idoraviy mansub obyektlarda ishlab chiqarish-texnologiya avariylari va halokatlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, shuningdek, epidemiyalar, epizootiyalar va epifitotiyalar yuzaga kelganda maxsus vazifalarni hal etish uchun mo‘ljallangan.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning yong‘in, kon, gaz-qutqaruv, qurilish, qurilish-montaj, tibbiyot va boshqa ixtisoslashtirilgan bo‘linmalari va tashkilotlari negizida favqulodda vaziyatlarning tarqalishini cheklash hamda ularning oqibatlarini tugatish bo‘yicha birinchi navbatdagi ishlar uchun doimiy tayyorgarlikdagi idoraviy tuzilmalar tuzilishi mumkin.

Doimiy tayyorgarlikdagi idoraviy tuzilmalar idoradan tashqari avariya obyektlaridagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga amaldagi xarajatlar qoplangan holda shartnoma asosida jalb etiladi.

23. Hududiy quyi tizimlar va ularning bo‘g‘inlarida aholini va hududlarni ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yirik texnogen avariya, halokatlar va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishga doir vazifalarni bajarish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, shaharlar va tumanlar hokimlarining qarorlari bilan geofizik, tabiiy-iqlim va boshqa mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, qurilish, qurilish-montaj, avtokorxonalar va boshqa tashkilotlar negizida mahalliy davlat organlarining umumiy va maxsus vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan hududiy tuzilmalari tashkil etiladi.

24. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlarda ushbu obyektlar rahbarlarining qarorlari bilan mavjud ixtisoslashtirilgan xizmatlar va bo‘linmalar (qurilish, kimyo, tibbiy va boshqalar) negizida bevosita obyektlarda kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun shtatdan tashqari ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etiladi.

25. Yirik ko‘lamli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, tezkor qutqaruv ishlarini bajarish hamda zarar ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiyaning Radiatsion, kimyoviy, biologik muhofaza hamda maxsus avariya-tiklash boshqarmasi, muhandislik-sapyor va boshqa harbiy bo‘linmalari, harbiy-transport aviatsiyasi hamda harbiy-tibbiy xizmat muassasalari jalb etilishi mumkin.

4-bob. FVDTning faoliyat ko‘rsatishi tartibi

26. Prognoz qilingan yoki ro‘y bergan favqulodda vaziyatning ko‘lami va holatiga qarab FVDT muayyan hududda quyidagi rejimlardan birida faoliyat yuritadi:

kundalik rejim — muayyan hududda, obyektida favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi mavjud bo‘lmaganda;

yuqori tayyorgarlik rejimi — favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi mavjud bo‘lganda;

favqulodda vaziyat rejimi — favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda va favqulodda vaziyatlar davrida.

FVDT faoliyatining yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlari ro‘y bergan favqulodda vaziyatning turiga qarab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining, shuningdek tegishli obyektlar rahbarlarining qarorlari bilan joriy etiladi.

FVDT faoliyatining yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlarini joriy etish bo‘yicha qarorda:

tegishli faoliyat rejimini joriy etish uchun asos bo‘lgan holat;

favqulodda vaziyat ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hudud chegaralari yoki favqulodda vaziyat hududining chegaralari;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish uchun jalb etiladigan kuchlar va vositalar;

favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni yoki ro‘y bergan favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish hamda aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha choralar;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun mas’ul mansabdor shaxslar yoki favqulodda vaziyatni bartaraf etish tadbirlarining rahbari belgilanadi.

Favqulodda vaziyat rejimini joriy etishda favqulodda vaziyatlar turlari, shuningdek, aholining hayot faoliyati xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa omillar hamda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun qo'shimcha talab etiladigan chora-tadbirlardan kelib chiqib, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishning quyidagi darajalaridan biri amalga kiritiladi:

- a) obyekt darajasida bartaraf etish;
- b) mahalliy darajada bartaraf etish;
- v) respublika va transchegaraviy darajada bartaraf etish.

27. Quyidagilar FVDT faoliyat ko'rsatish rejimlarida amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar hisoblanadi:

a) kundalik faoliyat rejimida:

atrof tabiiy muhitning holati, xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlardagi va ularga tutash hududlardagi vaziyat ustidan nazorat qilish hamda kuzatish, ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotni to'plash, tahlil qilish va almashish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha maqsadli va ilmiy-texnik dasturlar hamda tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga doir tadbirlarni rejalashtirish;

aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o'rgatish;

aholiga xabar berishning va uni xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimi shayligini ta'minlash hamda nazorat qilish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish hamda ularning o'rnini to'ldirib borish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

sug'urtaning maqsadli turlarini amalga oshirish;

b) yuqori tayyorgarlik rejimida:

favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi to'g'risida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarga xabar berish, shuningdek, aholini xabardor qilish;

atrof tabiiy muhitning holati, xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlardagi va ularga tutash hududlardagi vaziyat ustidan monitoringni kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarning ro'y berishi ehtimolini, ko'lamlari hamda oqibatlarini prognoz qilish;

favqulodda vaziyatlar ro'y berishi mumkin bo'lgan hududlarda ularning ro'y berishi xavfini baholash uchun tezkor guruhlarni tashkil etish, tahdid soluvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tezkor tadbirlarni va, zarur bo'lganda, aholini xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilishni amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlar sharoitlarida aholini va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, shuningdek, turar joy binolarining, hayot ta'minoti tizimlarining, obyektlar hamda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash choralari ko'rish;

FVDT tarkibiga kiradigan davlat organlari va tashkilotlar rahbarlarining kecha-kunduz navbatchiligini tashkil etish;

FVDTga tarkibiga kiradigan davlat organlari va tashkilotlarning tezkor boshqaruv bo'linmalari o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish;

FVDT kuchlari va vositalarini shay holatga keltirish, faoliyatni yuqori tayyorgarlik rejimiga o'tkazish, ularning harakatlari rejalarini aniqlashtirish hamda zarur bo'lganda, ularni favqulodda vaziyatlar ro'y berishi mumkinligi taxmin qilinayotgan hududga yo'naltirish;

v) favqulodda vaziyat rejimida:

favqulodda vaziyatlar ro'y berganligi haqida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarga xabar berish, shuningdek, aholini xabardor qilish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir rejalarini amalga kiritish; aholining, moddiy va madaniy qimmatliklarning xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilinishini tashkil etish;

favqulodda vaziyat zonasining chegaralarini belgilash, o'rab olish (to'sib qo'yish), unga kirish-chiqish rejimini va unda harakatlanish rejimini belgilash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlarni jalb etish, mazkur tuzilmalar tomonidan favqulodda vaziyatlarning kengayishiga yo'l qo'ymaslikka va ularning birlamchi sabablarini bartaraf etishga doir ishlarni, qutqaruv ishlarini hamda kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish;

iqtisodiyot obyektlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini, shuningdek, jabrlangan aholining hayot faoliyati sharoitlarini ta'minlash ishlarini tashkil etish;

favqulodda vaziyatlar zonalarida atrof tabiiy muhitning holati, avariya obyektlaridagi va ularga tutash hududlardagi vaziyat yuzasidan monitoring olib borish;

evakuatsiya qilingan aholini vaqtinchalik joylashtirish va uning hayot faoliyatini ta'minlash, tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish hamda aholining vaqtincha bandligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish;

favqulodda vaziyatlar zonalarida epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyena tadbirlarini bajarish;

birinchi navbatda infratuzilma obyektlarini tiklash, ijtimoiy ahamiyatga molik obyektlarning faoliyatini yo'lga qo'yish;

jabrlangan aholiga moddiy yordam ko'rsatish, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

28. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun quyidagi mablag'lardan foydalaniladi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi va davlat zaxirasining moddiy resurslari zaxirasi — O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan;

idoraviy moliyaviy va moddiy resurslarning zaxirasi — FVDT funksional quyi tizimlarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi — Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag'lari hisobidan;

obyektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi — tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy donorlarning muruvvat yordami.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish uchun birinchi navbatda zarur bo'lgan tovarlar omborlari va zaxiralari tizimlaridan uning roziligi bilan foydalanish mumkin.

29. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari FVVning harbiy, ixtisoslashtirilgan yong'in-qutqaruv bo'linmalari, FVDT tarkibiga kiruvchi davlat organlari va tashkilotlarning tegishli tuzilmalari hamda bo'linmalarining kuchlari va vositalari bilan amalga oshiriladi.

30. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga doir ishlarga rahbarlik qilish:

lokal favqulodda vaziyatlarda — hududida favqulodda vaziyat ro'y bergan tashkilotning rahbari belgilagan mas'ul xodim tomonidan;

mahalliy miqyosdagi favqulodda vaziyatlarda — maxsus vakolatli davlat organi hududiy bo'linmasining rahbari yoki ro'y bergan favqulodda vaziyatning xususiyatiga qarab, tegishli sohadagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hududiy bo'linmasi rahbari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar, Toshkent shahar, shuningdek, tumanlar, shaharlar hokimlarining qaroriga asosan;

respublika miqyosidagi va transchegaraviy favqulodda vaziyatlarda — maxsus vakolatli davlat organining rahbari yoki ro'y bergan favqulodda vaziyatning xususiyatiga qarab, tegishli sohadagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

31. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun resurslar yetarli bo'lmagan taqdirda, ular obyekt ma'muriyati, FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari rahbarlarining iltimosnomasiga binoan FVDTning respublika darajasidagi boshqaruv organlari zaxiralaridan ajratilishi mumkin.

32. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha dasturlarni moliyalashtirish, tarmoqlar va obyektlarning barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash har bir darajada tegishli budjetlar, FVDTning funksional va hududiy quyi tizimlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash favqulodda vaziyatlar zonalarida joylashgan obyektlarning mablag'lari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) mahalliy budjetlari hamda FVDTning funksional va hududiy quyi tizimlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan mablag'lar mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasidan mablag'lar ajratiladi.

33. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular yuzaga kelganda ziyon va zararlar miqdorini kamaytirish bo'yicha oldindan choralar ko'rish maqsadida respublika va idoraviy harakat qilish rejalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va obyektlarning harakat qilish rejalari, shuningdek, FVDTning barcha darajalarida o'zaro hamkorlikda harakat qilish rejalari ishga solinadi.

34. FVDT harakatlarini rejalashtirishga tashkiliy-metodik rahbarlik qilishni FVV amalga oshiradi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

35. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining funksional quyi tizimi doirasidagi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha

FUNKSIYALARI

1-bob. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining funksiyalari

1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o'rinlarda — FVDT) faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirish va davlat nazoratini amalga oshirish.

2. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilishga doir ishlarni muvofiqlashtirish va FVDT tarkibidagi tashkilotlarning samarali hamkorligini tashkil etish.

3. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognoz qilishning yagona tizimini boshqarish va nazoratini olib borish.

4. Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tashkil etish va amalga oshirish.

5. FVDT boshqaruv organlari va aholini seysmik jarayonlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash.

6. Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning rahbarlarini, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun jalb etiladigan kuchlarni favqulodda vaziyatlar sharoitlarida harakat qilishga tayyorlashni tashkil etish.

7. FVDT funksional quyi tizimining:

Yong'in xavfsizligini ta'minlash xizmatini;

Seysmik xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

2-bob. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining funksiyalari

8. Tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda qatnashish.

9. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish chog'ida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish.

10. Favqulodda vaziyatlar zonalarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, obyektlar, hududlar, moddiy va madaniy qimmatliklarning qo'riqlanishini hamda muhofaza qilinishini ta'minlash.

11. FVDT funksional quyi tizimining Qo'riqlash xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

3-bob. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining funksiyalari

12. Favqulodda vaziyat zonasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibi va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish.

13. Aholini xabardor qilish, hududdagi zarur uchastkalarini o'rab olish (to'sib qo'yish) bo'yicha choralar ko'rish, qarovsiz qolgan mol-mulkni qo'riqlashni ta'minlash.

14. Sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda favqulodda vaziyatlarda halok bo'lgan odamlarning hisobini yuritish.

15. FVDT funksional quyi tizimining:

Jamoat tartibini saqlash xizmatini;

Yo'l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

4-bob. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining funksiyalari

16. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi obyektlari joylashgan mintaqalardagi radiatsiyaviy, kimyoviy va bakteriologik vaziyatning nazorat qilinishini ta'minlash.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining avariya-qutqaruv xizmati kuchlari va vositalarini, muhandislik-sapyor bo'linmalarini, radiatsion, kimyoviy, biologik muhofaza hamda

maxsus avariya-tiklash boshqarmasi maxsus texnika va moddiy resurslarini favqulodda vaziyatlar mintaqalariga yetkazishda harbiy-transport aviatsiyasining qatnashishini ta'minlash.

18. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o'rinlarda — FVV) bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun idoraviy mansub obyektlarda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfi to'g'risida axborot almashinuvini amalga oshirish.

5-bob. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligining funksiyasi

19. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va FVVning buyurtmalariga muvofiq xorijiy tovar ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilardan buyurtmachining mablag'lari hisobiga favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni tugatish uchun maxsus texnika, asbob-uskuna va materiallar xarid qilishni amalga oshirish.

6-bob. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining funksiyalari

20. Favqulodda vaziyatlarning xususiyatini hisobga olib zarar ko'rgan aholiga tezkor tibbiy xizmat ko'rsatish usullarini ishlab chiqish, joriy etish va takomillashtirish, zarar ko'rganlarga tezkor tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash.

21. Favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish, shuningdek, favqulodda vaziyat zonasiga dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika tezkor yetkazib berilishini ta'minlash.

22. Zarar ko'rgan va transportda tashish mumkin bo'lmagan kasallarni hisobga olish va ularning favqulodda vaziyatlar zonalaridan evakuatsiya qilinishiga doir ishlarni muvofiqlashtirish.

23. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi vositalar zaxiralarini yaratish hamda ularni zarur darajada saqlashni ta'minlash.

24. Aholini favqulodda vaziyatlar sharoitida dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishga o'qitish va tayyorlashning metodik asoslarini ishlab chiqish.

25. Xorijiy davlatlar hududida ro'y bergan yoki transchegaraviy favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlanganlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga evakuatsiya qilish tadbirlarining tibbiy ta'minotini amalga oshirish.

26. Tashish mumkin bo'lmagan jabrlanganlarga chet elda tibbiy yordam berish tadbirlarini amalga oshirishda xorijiy davlatning tegishli tibbiyot muassasalariga ko'maklashish.

27. Xorijiy davlatlar hududida favqulodda vaziyatlarda halok bo'lganlar va jabrlanganlarning ro'yxatini yuritish.

28. Xorijiy davlatlar hududida yoki transchegaraviy favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga malakali va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni, shuningdek, ularning tibbiy rehabilitatsiyasini ta'minlash.

29. Respublika hududida favqulodda vaziyatlarda jarohatlangan va halok bo'lgan chet el fuqarolari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar berish.

30. Obyektlarning sandrujina (postlari) soni, tarkibi va moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlanish me'yorlarini O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati bilan hamkorlikda ishlab chiqish.

31. O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati bilan birgalikda sanitariya drujinalari va postlarini dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishga tayyorlash.

32. Respublika hududidagi sanitariya-epidemiyaga oid ahvolni kuzatish, nazorat qilish va prognoz qilishni ta'minlash.

33. Sanitariya-epidemiologiya sohasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, respublika hududidagi yuqumli kasalliklar tabiiy o'choqlari ustidan epidemiologik monitoring va epidemiyaga qarshi profilaktik tadbirlar majmuini amalga oshirish.

34. Epidemiyalar va pandemiyalar sharoitlarida karantin tadbirlarini tashkil etish, tibbiy, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish.

35. Favqulodda vaziyat zonalarida sanitariya-gigiyena, radiatsion gigiyena, fizik omillar, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar tashxisi bo'yicha laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish.

36. Favqulodda vaziyatlar zonasidagi atrof-muhitning radioaktiv, kimyoviy, zaharlovchi moddalar va bakterial (biologik) vositalar bilan ifloslanishini nazorat qilish.

37. Inson salomatligiga ta'sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

38. Tibbiy profilaktika bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlash.

39. FVDT boshqaruv organlari va aholini favqulodda vaziyatlar mintaqalaridagi sanitariya-epidemiologik ahvol to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

40. FVDT funksional quyi tizimining:

Tibbiy yordam xizmatini;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

7-bob. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining funksiyalari

41. Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida moddiy resurslar zaxirasini yaratish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash.

42. FVV bilan birgalikda zaxira jamg'armasidan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun ajratilgan mablag'larning hisobi yuritilishini tashkil etish hamda ulardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

43. Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari asosida xorijiy davlatlar hududida ro'y bergan favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko'rsatish hamda ularni va halok bo'lganlarni evakuatsiya qilish tadbirlarini, mutaxassislarning xorijiy davlatga voqea joyiga yetib borishini va O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelishini moliyalashtirish.

44. FVV bilan birgalikda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi obyektlarini qurish yuzasidan o'rta va uzoq muddatli strategiyalar va dasturlarni ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga kiritish uchun takliflar tayyorlash.

8-bob. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining funksiyalari

45. Aholi va atrof tabiiy muhit uchun radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik), yong'in xavfini tug'diradigan tovarlarning O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi va uning hududidan olib chiqib ketilishini nazorat qilish va hisobini yuritish.

46. FVDT funksional quyi tizimining Yong'in chiqishi, portlovchi-radiatsiyaviy xavfli yuklar (tovarlar), zaharli va kimyoviy moddalar, shuningdek, kuchli ta'sir ko'rsatadigan zaharli moddalar olib kirilishi va olib chiqilishi ustidan kuzatish hamda nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

9-bob. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining funksiyalari

47. Favqulodda vaziyat ro'y bergan joylar hamda favqulodda vaziyat ta'siriga tushuvchi hududlar relyefining kompyuter modullarini ishlab chiqish.

48. FVVni hamda favqulodda vaziyatni bartaraf etishga rahbarlik qiluvchi shaxsni favqulodda vaziyat ro'y bergan hudud to'g'risidagi geodezik va kartografik axborot, shuningdek, yer-kadastr xaritalari bilan ta'minlash.

10-bob. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining funksiyalari

49. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan shartnoma asosida chet davlatlarga ishga yuborilayotgan fuqarolar bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda to'g'ri harakat qilish bo'yicha FVV bilan hamkorlikda o'quv mashg'ulotlari o'tkazish.

50. Favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish chog'ida hayot faoliyatini tiklashga doir ishlarni bajarishga band bo'lmagan aholini jalb etish.

51. Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya qilingan aholi bandligini ta'minlash maqsadida ularni vaqtinchalik ish bilan ta'minlash.

52. Mahalla fuqarolar yig'inlari darajasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi vazifalarni hal etishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga ko'maklashish.

53. Mahalla fuqarolar yig'inlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmagan aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash.

54. "Mahalla fuqaro muhofazasi" yig'ma guruhlarini tuzish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

55. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga aholini ixtiyoriy ravishda jalb etish.

56. Aholining favqulodda vaziyat zonasidan xavfsiz joylarga evakuatsiyasini tashkil etishda ishtirok etish.

57. Evakuatsiya qilingan aholini hisobga olishda va vaqtinchalik joylashtirishda ishtirok etish.

58. Tizim obyektlarida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish.

59. Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish.

11-bob. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining funksiyalari

60. O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlarini xorijiy davlatda ro'y bergan favqulodda vaziyat hududidagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, ushbu hududdagi vaziyatning rivoji to'g'risida xabardor qilish.

61. Xorijiy davlatlar hududida va transchegaraviy hududlarda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi bo'lganda yoki favqulodda vaziyatlar ro'y berganda, shu jumladan, epidemiyalar va pandemiyalarda O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari bilan birgalikda xorijiy (chegaradosh) davlat hududida turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish.

62. Favqulodda vaziyat ro'y bergan xorijiy davlatlarning mas'ul davlat organlari bilan birgalikda jabrlanganlarga tibbiy va boshqa ijtimoiy yordam ko'rsatilishini ta'minlash.

63. Xorijiy davlatlar hududida va transchegaraviy hududlarda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi bo'lganda yoki favqulodda vaziyatlar ro'y berganda O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari bilan birgalikda chegaradosh davlat hududida turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsiz joylarga evakuatsiya qilinishini tashkil etish yoki ularni O'zbekiston Respublikasiga qaytarish, shuningdek, halok bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jasadlarini O'zbekiston Respublikasiga jo'natish choralarini ko'rish.

64. O‘zbekiston Respublikasi hududida favqulodda vaziyatlarda jarohatlangan yoki halok bo‘lgan chet el fuqarolari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasidagi xorijiy davlatlarning tegishli diplomatik vakolatxonalarini yoki konsullik muassasalariga yuborish.

65. Konsullik ustavi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va fuqaro muhofazasi sohasidagi qonunchilik hujjatlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish.

**12-bob. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining funksiyalari**

66. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlashda ishtirok etish.

67. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta‘lim tashkilotlarida o‘quvchilarni “Hayot faoliyati xavfsizligi” mavzulari bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish.

68. Ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya jarayonlarida hayot xavfsizligi asoslarini o‘rgatishni tashkil etish choralari ko‘rish.

69. O‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va nashr etish.

**13-bob. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Innovatsion rivojlanish agentligining funksiyalari**

70. FVDT tarkibiga kiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining asoslangan takliflariga muvofiq tanlovlar asosida FVDT faoliyatidagi mavjud muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini shakllantirish.

71. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan samarali muhofaza qilish uchun ilmiy va loyiha-konstruktorlik tashkilotlarining ilmiy-texnik salohiyatidan foydalangan holda FVDTning innovatsion faolligini oshirishga ko‘maklashish.

**14-bob. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi
Maktabgacha ta‘lim agentligining funksiyalari**

72. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya jarayonida favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatishni tashkil etish choralari ko‘rish.

73. Tizim tashkilotlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

15-bob. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining funksiyalari

74. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotning tezkorlik bilan olinishi, qayta ishlanishi va taqdim etilishini ta‘minlash.

75. Favqulodda vaziyat zonasidagi aholini va evakuatsiya qilingan aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat bilan ta‘minlashni tashkil etish.

76. Tarmoq tarkibiga kiruvchi obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish hamda amalga oshirish.

77. FVVni, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini oziq-ovqat xavfsizligi, idoraviy mansub obyektlardagi avariya hamda halokatlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda aholining harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlash.

78. Favqulodda vaziyatlar zonasidagi qishloq xo‘jaligi o‘simliklarini himoya qilish, o‘simliklar orasida yuqumli kasalliklar (epifitotiyalar) tarqalishining oldini olish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

**16-bob. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va
chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining funksiyalari**

79. Epizootik vaziyatni prognoz qilish, hayvonlarning yuqumli kasalliklari va ushbu kasalliklarni qo'zg'atuvchilar tarqalishini cheklash bo'yicha tadbirlar majmuini ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

80. Favqulodda vaziyatlar sharoitlarida hayvonlar orasida yuqumli kasalliklar (epizootiyalar) ommaviy ravishda tarqalishining oldini olishga doir tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish, epizootiyalarni bartaraf etish choralarini ko'rish.

81. FVV, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini hamda aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi epizootik vaziyat to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

82. FVDT funksional quyi tizimining Epizootiyani bartaraf etish bo'yicha veterinariya xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

17-bob. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligining funksiyalari

83. Iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan o'simliklar karantini obyektlari (karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizm) va boshqa zararli organizmlarning respublika hududiga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish hamda ularni yo'q qilish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

84. O'simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashish, agrokimyoviy xizmat ko'rsatish hamda tuproqni muhofaza qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

85. O'simliklar kasalliklari keng tarqalishi (epifitotiyalar) bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish.

86. FVV, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini hamda aholini o'simliklar karantini va agrokimyoviy vaziyat to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

87. FVDT funksional quyi tizimining O'simliklarni himoya qilish va agrokimyoviy nazorat xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

18-bob. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining funksiyalari

88. Xavf darajasi yuqori bo'lgan suv xo'jaligi obyektlarining texnik holati ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlash.

89. Suv omborlari, daryolar va kanallarning gidrologik rejimi, toshqinlar, halokatli suv bosishlar, gidrotexnika inshootlari holatiga tabiiy va texnogen ta'sirlar monitoringini tashkil etish va olib borish.

90. Suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish xavfsizligini, ularda avariya va halokatlarning yuzaga kelishi xavfi ehtimolini prognoz qilish.

91. Suv xo'jaligi obyektlarining ish rejimini o'zgartirish yoki keyinchalik ulardan foydalanish zaruratini belgilash, suv omborlaridan suvni avariyaning oldini olish maqsadida chiqarib yuborish.

92. FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birgalikda suv bosishi, toshqinlar, sellarning oldini olish va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish hamda toshqin suvlari va sellarning avariya o'tkazilishini ta'minlashga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar kompleksini tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish.

93. Xavf-xatar darajasi yuqori suv xo'jaligi obyektlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish.

94. Aholini hamda tegishli tashkilotlarni suv omborlarida va boshqa gidrotexnika inshootlarida favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyatlar ro'y berganligi haqida xabardor qilish.

95. Favqulodda vaziyatlar zonalaridagi gidrotexnika inshootlarini, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini tiklashni, toshqin suvlarining xavfsiz o'tkazib yuborilishini ta'minlash.

96. FVDT funksional quyi tizimining:

Suv xo‘jaligi xizmatini;

I, II va III sinfga mansub xavf darajasi yuqori bo‘lgan, shuningdek, respublika va mintaqa suv xo‘jaligi hamda energetika tizimiga kiruvchi gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi holatini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

19-bob. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasining funksiyalari

97. Suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlarining (keyingi o‘rinlarda — xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlari) xavfsizligini, ishonchli ishlashini hamda qo‘riqlanishini nazorat qilish.

98. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlarini joylashtirish va loyihalash bo‘yicha topshiriqlarni hamda ulardan foydalanish bo‘yicha qoidalarni kelishish, shuningdek, ularning xavfsizligi qoidalari va mezonlarini ishlab chiqish.

99. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ularni foydalanishga qabul qilish, konservatsiyalash va tugatish ishlarida ishtirok etish hamda tegishli xulosalar berish.

100. Favqulodda vaziyatlarda xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlarining aholiga va iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish.

20-bob. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining funksiyalari

101. Avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo transportlari, metropolitendan xavfsiz foydalanish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

102. Yo‘l va yo‘l inshootlarining texnik holati bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni FVDT kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlar mintaqalariga tashish uchun tayyorlash.

103. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qutqaruv tuzilmalarining, kuchlar va vositalarning, harbiy bo‘linmalarning, maxsus texnika resurslarining hamda moddiy resurslarning birinchi navbatda tashilishini ta‘minlash.

104. Yong‘in va avariya-tiklash poyezdlari, ixtisoslashgan va qutqaruv tuzilmalari shaxsiy tarkibining temir yo‘l transportida favqulodda vaziyatlarni tugatishda qatnashishini ta‘minlash.

105. Qidiruv-qutqaruv havo kemalari va ekipajlari hamda qidiruv va avariya-qutqaruv tuzilmalarining qutqaruv ishlarini olib borishda ishtirokini ta‘minlash.

106. O‘zbekiston Respublikasining fuqaro va eksperimental aviatsiyasida qidiruv va avariya-qutqaruv ishlarini olib boruvchi xizmatlar ustidan nazorat olib borish.

107. Favqulodda vaziyatlardagi evakuatsiya tadbirlari davrida tashishlarni amalga oshirish uchun evakuatsiya poyezdlari, avtotransport vositalari ajratilishini tashkil etish, buzilgan avtomobil yo‘llarini, shuningdek, transport infratuzilmasi obyektlarini tiklash.

108. Portlovchi, yong‘in xavfi bo‘lgan yuklar va kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan zaharli moddalarni tashishda xavfsizlikni ta‘minlash.

109. FVDT boshqaruv organlarini, yo‘lovchilar hamda aholini avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo transportlari va metropolitenda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi mavjudligi yoki yuzaga kelganligi to‘g‘risida xabardor qilish, shuningdek, ularning kutilayotgan oqibatlari, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta‘minlash.

110. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlash ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

111. FVVga zarur axborotlarni taqdim etish.

112. FVDT funksional quyi tizimining:

Avtotransport xizmatini;

Avtoyo‘l xizmatini;

Qidiruv va parvozlarni avariya-qutqaruv jihatdan ta‘minlash xizmatini;

Temir yo‘l va temir yo‘l transportida yong‘in, portlash xavfi bo‘lgan yuklar, kimyoviy moddalar va kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan zaharli moddalar tashilishini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

**21-bob. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi,
“O‘zsuvta‘minot” aksiyadorlik jamiyatining funksiyalari**

113. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning ta‘siriga uchragan joylarda va aholi punktlarida shaharsozlik faoliyatini alohida tartibga solishni ta‘minlash.

114. Shaharsozlik, loyihalash va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirishda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong‘in xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini tashkil etish.

115. Shaharsozlik hujjatlarini belgilangan tartibda ekspertiza qilishni, shuningdek, xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar, texnik jihatdan murakkab va noyob obyektlarning loyiha hujjatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish talablariga rioya etilishi nuqtai nazaridan maxsus vakolatli davlat organi tomonidan davlat ekspertizasidan o‘tkazilishini ta‘minlash.

116. Shaharsozlik vositalari orqali O‘zbekiston Respublikasi, viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar ta‘siridan muhofaza qilish choralarini ko‘rish.

117. Favqulodda vaziyatlar natijasida obyektlarga hamda fuqarolarning turar joylariga yetkazilgan zararni hamda qutqaruv ishlarini va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslarga ehtiyojlarni hisob-kitob qilishda ishtirok etish.

118. Favqulodda vaziyatlar oqibatida binolar va inshootlarga yetkazilgan zararni baholash, shuningdek, ularning mustahkamlik holatini tekshirish tadbirlarini amalga oshirish.

119. Uy-joy kommunal xo‘jaligi faoliyatining barqarorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

120. Favqulodda vaziyatlarda shikastlangan ichimlik suv ta‘minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini tiklash, shuningdek, ularning favqulodda vaziyatlar sharoitlarida barqaror ishlashini ta‘minlash.

121. Favqulodda vaziyatlar oqibatida shikastlangan uy-joy kommunal xo‘jaligi obyektlarini tiklash va ularning to‘laqonli faoliyatini ta‘minlash, jabrlangan aholini belgilangan me‘yorlar miqdorida ichimlik suvi bilan ta‘minlash.

122. FVDT funksional quyi tizimining:

Shaharlar, aholi punktlari va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhandislikka doir muhofaza qilish xizmatini;

Ichimlik suvi ta‘minoti xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

22-bob. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining funksiyalari

123. Respublika aholisini, ishlab chiqarishga oid hamda ijtimoiy obyektlarni kundalik rejimda va favqulodda vaziyatlar sharoitlarida yoqilg‘i-energetika resurslari bilan uzluksiz ta‘minlash ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish.

124. Atom energetikasini rivojlantirish agentligiga (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tegishli bo‘lgan atom energetik reaktorlari, yadro-fizik qurilmalar, yadroviy materiallar va radiatsiyaviy manbalarni hamda radiofaol chiqindilarni saqlash punktlarining xavfsizligini ta‘minlash.

125. Atom energiyasidan foydalanish obyektlarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlikni ta'minlash, ularda radiatsiyaviy avariylarning oldini olish, ixtisoslashgan kuchlarning harakat qilishga shayligini ta'minlash, shuningdek, ta'sir ko'rsatish sohalari mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish.

126. Tarmoq obyektlarida ishlab chiqarish va texnologik jarayonning yuqori darajada xavfli o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan avariylar va halokatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

127. Tarmoq obyektlarida avariylar kelib chiqishi ehtimolini va oqibatlarini prognoz qilish, tarmoqning birlashmalari va obyektlarida ularning favqulodda vaziyatlar sharoitida ishlarning barqarorligini oshirish.

128. Idoraviy mansub yirik gidrotexnik inshootlardan chiqarib yuborilayotgan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni FVDT boshqaruv va tezkor-boshqaruv organlariga hamda mutasaddi xizmatlarga taqdim etib borish.

129. Xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar, shu jumladan, yoqilg'i-energetika tarmog'ining yirik gidrotexnik inshootlari, neft va gazni qayta ishlash va boshqa xavfli obyektlarda hamda ularga yondosh hududlarda aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning lokal darajadagi avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish.

130. Ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalarini doimiy tayyorlik holatida saqlashni hamda tarmoq obyektlaridagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda ishtirok etishini ta'minlash.

131. FVDT boshqaruv organlari va aholini tarmoq obyektlarida avariylar va halokatlarni yuzaga kelishi xavfi mavjudligi yoki ro'y berganligi, ko'rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlar sharoitida aholining harakat qilish tartibi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

132. Favqulodda vaziyatlar natijasida shikastlangan energetika tizimlarini tiklash va ularni ta'mirlashni amalga oshirish.

133. Qutqaruv va avariya-tiklash ishlari uchun yetarli miqdorda yoqilg'i-energetika resurslarini ajratish.

134. Issiqlik va gidravlik elektr stansiyalari, elektr va issiqlik tarmoqlari asbob-uskunalaridan ishonchli va xavfsiz foydalanishga oid, shuningdek, iqtisodiyot obyektlari va respublika aholisini elektr energiyasi hamda issiqlik bilan uzluksiz ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

135. FVDT funksional quyi tizimining:

Energetika xizmatini;

Atom energiyasidan foydalanish obyektlarining xavfsizligini ta'minlash xizmatini;

Yoqilg'i-energetika tarmog'i obyektlarida ishlarni olib borishning holati va xavfsizligini nazorat qilish idoraviy xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

23-bob. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining funksiyalari

136. FVDTning barcha rejimlarida respublika va mahalliy darajalardagi kommunikatsiyalar va markazlashtirilgan xabar berish tizimlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

137. Aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratishga ko'maklashish.

138. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga doir ishlarga rahbarlikni amalga oshiruvchi FVDT boshqaruv organlarini umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlari bilan ustun darajada ta'minlash.

139. Favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborotlarni to'plash va FVDT boshqaruv organlariga uzatishni texnik ta'minlash.

140. Xabar berish, aloqa va axborot bilan ta'minlashning statsionar vositalariga foydalanish-texnik xizmat ko'rsatishni shartnomaviy shartlarda amalga oshirish.

141. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni amalga oshirish chog'ida kommunikatsiyani va axborot almashishni ta'minlash.

142. Aholiga favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyatlar ro'y berganligi haqida o'z vaqtida xabar berish uchun mobil aloqa operatorlari orqali axborot (ma'lumot) yetkazilishini tashkil etish.

143. FVDTning funksional quyi tizimining Aloqa va xabar berish xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

24-bob. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining funksiyasi

144. Keng ko'lamli favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda yoki ro'y berganda ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilish uchun FVV so'roviga asosan hududlarning kosmik suratlarini Agentlikka davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida bepul taqdim etish.

25-bob. O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining funksiyalari

145. Xavfli tabiiy geologik jarayonlar (ko'chish, qulash, suffoziol, karst)ning rivojlanish mintaqalari (zonalarini) aniqlash, ularning faollashishini o'rganish va ogohlantirish, tog' yonbag'irlarining tabiiy barqarorligini saqlash bo'yicha ko'chikiga qarshi va boshqa oldini oluvchi tadbirlar birinchi navbatda o'tkaziladigan zonalarni belgilash.

146. Aholi punktlarida, tog'li va tog'oldi mintaqalarda sog'lomlashtirish obyektlari va boshqa jamoat obyektlari joylashgan hududlarda xavfli geologik jarayonlar monitoringini tashkil etish va olib borish (iqtisodiyot obyektlari, shu jumladan, liniyali inshootlar (yo'llar, kanallar, elektr uzatish liniyalari, quvurlar va shu kabilar), kon-ruda korxonalari xo'jalik faoliyati hududi bundan mustasno).

147. FVVni, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini xavfli geologik jarayonlarning rivojlanishi ehtimollari to'g'risidagi geologik axborot bilan ta'minlash, ko'chki xavfi bo'lgan mintaqalardagi hududlardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish.

148. Yer osti suvlarining radioaktiv, kimyoviy va boshqa zaharli moddalar bilan ifloslanishini kuzatish va nazorat qilib borish.

149. Transchegaraviy hududlarda radioaktiv va zaharli elementlar bilan ifloslanish o'choqlarini aniqlash va o'rganishni amalga oshirish.

150. O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi hamda Suv xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda xavfli zonalarda joylashgan aholini vaqtincha evakuatsiya qilish yoki bosqichma-bosqich xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko'chirish shart bo'lgan xo'jaliklar ro'yxatini belgilash hamda FVVga va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga taqdim etish.

151. Yangidan qurilayotgan aholi punktlari va obyektlar uchun yer ajratishni tegishli tartibda kelishish.

152. Xavfli geologik jarayonlar bo'yicha ma'lumotlar elektron bazasini shakllantirish va ularning ta'siridan ko'rilgan zararlarni fizik baholash.

153. FVDT funksional quyi tizimining Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

**26-bob. O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi
Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasining funksiyalari**

154. Kimyoviy, portlovchi hamda boshqa yuqori darajada xavfli obyektlarning holatini nazorat qilishni tashkil etish va amalga oshirish, ularda avariya va halokatlar yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilish.

155. Texnogen avariya va halokatlarning oldini olish, radioizotop priborlarini saqlash hamda ulardan foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazorat qilish.

156. FVV, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini sanoat obyektlarida yuzaga kelgan avariya va halokatlar, ularning ko‘lamlari, rivojlanishi, yetkazishi mumkin bo‘lgan zarari hamda favqulodda vaziyatlarni tugatish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta‘minlash.

157. Harbiylashtirilgan kon-qutqarish qismlari bo‘linmalarining kon qazish ishlaridagi nafas olish organlarini muhofaza qilish vositalarini qo‘llashni hamda maxsus jihozlarni talab etuvchi gaz portlashlari, otilib chiqishlar va to‘lib qolishlar bilan bog‘liq avariya larni tugatishda qatnashishini ta‘minlash.

158. FVDT funksional quyi tizimining kon-ruda, kimyo, neft va gazni qayta ishlash hamda qayta ishlash sanoatida va “Toshmetroqurilish” obyektlarini qurishda yer osti o‘tish ishlarini bajarishda ishlarining holati hamda xavfsiz olib borilishini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

27-bob. O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining funksiyalari

159. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar hamda intensiv sanoat va qishloq xo‘jaligi faoliyati obyektlari joylashgan mintaqalarda ekologik vaziyat ustidan davlat nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish, uni yaxshilash tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish.

160. Sanoat chiqindilari to‘plagichlari, chiqindi omborlari, zaharli moddalar ko‘miladigan joylar va boshqalarning joylashtirilishi hamda ulardan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

161. Suvdan foydalaniladigan joylarda ochiq suv havzalaridagi suvning ifloslanishi, sanoat, baliqchilik xo‘jaliklari va boshqa tarmoqlarning chiqaradigan oqovalar, shuningdek, zararli moddalarning atrof tabiiy muhitga tashlamalari hamda chiqindilarning joylashtirilishi ustidan monitoring olib borish.

162. Favqulodda vaziyatlar zonasida ochiq suv havzalaridagi suvning ifloslanishi, sanoat obyektlari hamda boshqa obyektlar tomonidan zararli moddalarning atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlanishi va chiqindilarning joylashtirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish.

163. FVVni, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini ekologik vaziyat, atrof tabiiy muhitga zaharli moddalarning tashlanishi va chiqarib yuborilishi to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlash.

164. FVDT funksional quyi tizimining Atrof tabiiy muhit muhofazasi hamda ekologik xavfsizligi bo‘yicha nazorat-inspeksiya xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

**28-bob. O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi huzuridagi O‘rmon
xo‘jaligi agentligining funksiyalari**

165. Geologik va gidrometeorologik xavfli uchastkalarda o‘rmonzorlar barpo etilishining oldi olinishini nazorat qilish.

166. O‘rmonlarni yong‘inlardan muhofaza qilish va epifitotiyaga qarshi kurashish.

167. O‘rmon xo‘jaligi sohasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlarni va prognoz ma‘lumotlarni FVVga taqdim etib borish.

**29-bob. O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi huzuridagi
Gidrometeorologiya xizmati agentligining funksiyalari**

168. Xavfli gidrometeorologik hodisalar prognozini tayyorlash va ularni kuzatib borish.

169. Sel va qor ko‘chkariga qarshi tadbirlarni o‘tkazish zarurati bo‘lgan mintaqalar va hududlarni aniqlash.

170. Atrof tabiiy muhit (atmosfera, tuproq va yer usti suvlari)ning ifloslanishi, gidrologik rejim va daryolar qayirlari hamda o‘zanlaridagi toshqinlar xavfi monitoringini tashkil etish va o‘tkazish.

171. FVVga, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlariga gidrometeorologik axborot taqdim etish, ularni atrof tabiiy muhit ifloslanishining ekstremal yuqori darajalari to‘g‘risida xabardor qilish.

172. Favqulodda vaziyatni bartaraf etishga rahbarlik qiluvchi shaxsni favqulodda vaziyat ro‘y bergan joyga eng yaqin bo‘lgan meteorologik kuzatuv punkti ma‘lumotlariga asosan mavjud gidrometeorologik sharoitlar to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlash.

173. FVDT funksional quyi tizimining Tabiiy gidrometeorologik hodisalar yuzaga kelishi va rivojlanishi, atmosfera havosi, tuproq va yuza suvlari ifloslanishi ustidan gidrometeorologik kuzatishlar olib borish xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

30-bob. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining funksiyalari

174. Turizm xizmatlarini tashkil etishda, turistik obyektlarda, turistlar vaqtincha joylashtiriladigan, ovqatlanadigan va harakatlanadigan joylarda, respublika hududi bo‘ylab harakatlanishda va turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan noxush holat (favqulodda vaziyat)larning oldini olish tadbirlarini muvofiqlashtirish va nazoratini amalga oshirish.

175. Turizm obyektlari va yo‘nalishlari, shuningdek, sohada ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlar va prognoz ma‘lumotlarni FVVga taqdim etib borish.

31-bob. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining funksiyalari

176. Seysmik xavf-xatarni turli ko‘lamlarda baholash, hududlarning seysmik xavfi va seysmik xatariga doir har xil masshtabli xaritalarni tuzish, zilzilalarni vaqt kesimida prognoz qilish, binolar va inshootlarning zilzilabardoshlilikini ta‘minlash bo‘yicha metodikalarni ishlab chiqish.

177. Kuchli zilzila ro‘y bergan taqdirda, zilzila kuchini va uning hududlar bo‘yicha o‘zgarishini aniqlash, binolar va inshootlarning shikastlanish darajasini baholash uchun zilzila epitsentri hududida makroseysmik hamda boshqa tadqiqotlar o‘tkazish.

178. Kuchli zilzilalarda aholi va hududlardagi talafotlarni kamaytirish hamda ularning oqibatlarini yumshatish, seysmik xavfsizlikni ta‘minlashda seysmik xatarni baholashning ilmiy uslublarini ishlab chiqish.

**32-bob. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
funksiyalari**

179. Favqulodda vaziyatlar natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash hamda baholash ishlarini tashkil etish.

180. FVVga zarur ma‘lumotlarni taqdim etish.

**33-bob. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
funksiyalari**

181. FVV, FVDTning hududiy quyi tizimlari rahbarlari buyurtmanomalari bo‘yicha aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalariga oid teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etish.

182. Aholining ommaviy axborot vositalari orqali favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilinishini FVV bilan birgalikda tashkil etish.

183. FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birgalikda aholi o'rtasida favqulodda vaziyat zonasida qolgan odamlarning birinchi navbatdagi harakatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.

184. Inqirozli va favqulodda vaziyatlar ro'y berganda FVV tashabbusi bilan aholiga tezkor va xolis axborot yetkazish maqsadida maxsus axborot tadbirlarini tashkil etishga ko'maklashadi.

185. Yuqori darajadagi xavfga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va favqulodda vaziyatlarning axborot monitoringini ta'minlash (tabiiy, texnogen, antropogen ofatlar, halokatlar va h.k.) va bunday voqealarga mas'ul tashkilotlar tomonidan tezkorlik bilan munosabat bildirilishi yuzasidan zarur choralar ko'radi.

186. Aholining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida muntazam ravishda xabardor qilinishini ta'minlash.

187. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati bilan birgalikda aholini dastlabki tibbiy o'zaro va o'ziga o'zi yordam ko'rsatishga o'qitish bo'yicha maxsus eshittirishlarni tashkil etish.

34-bob. "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatining funksiyalari

188. Jamiyat tizimidagi gidroelektrostansiyalar, gidrotexnik va boshqa gidroenergetika obyektlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, ularda avariya hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

189. Jamiyat tizimidagi gidrotexnik inshootlarda va ularga yondosh hududlarda lokal darajadagi aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish.

190. Favqulodda vaziyatlar sharoitida gidrotexnik inshootlardan xavfsiz va samarali foydalanishni ta'minlash, gidroenergetika obyektlarini markazlashtirilgan tarzda texnologik boshqarishni amalga oshirish.

191. FVDT boshqaruv organlarini gidroelektrostansiyalar, gidrotexnik va boshqa gidroenergetika obyektlarida yuzaga kelgan avariya va halokatlar, ularning oqibatlari, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash.

35-bob. "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining funksiyalari

192. Tarmoq korxonalarida ishlab chiqarish va texnologik jarayonning yuqori darajada xavfli xos xususiyatlari bilan izohlanadigan avariya hamda halokatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

193. Kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyaarning yuzaga kelishi ehtimoli va oqibatlarini prognoz qilishni, favqulodda vaziyatlar sharoitida ularning barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.

194. Kimyoviy xavfli obyektlar va ularga yondosh hududlardagi aholini lokal darajadagi favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish.

195. Kimyoviy xavfli obyektlardan kimyoviy zararlanishi ehtimoli bo'lgan zonalarni aniqlash.

196. FVDT boshqaruv organlari va aholini avariya va halokatlar, ularning oqibatlari, ko'rilayotgan chora-tadbirlar hamda aholining favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishi tartibi to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash.

197. Idoraviy ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalarining tarmoq obyektlaridagi favqulodda vaziyatlar sharoitida qutqaruv hamda boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirishda qatnashishini ta'minlash.

198. FVDT funksional quyi tizimining Tarmoq obyektlarida ishlarni olib borishning ahvoli va xavfsizligini nazorat qilish idoraviy xizmatini tashkil etish va uning faoliyatiga rahbarlik qilish.

**36-bob. “O‘zmaxsusmontajqurilish” aksiyadorlik kompaniyasi,
“O‘z sanoatqurilish materiallari” uyushmasining funksiyalari**

199. Qurilish va qurilish-montaj tashkilotlari negizida ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etish hamda ularning favqulodda vaziyatlar zonalarida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni bajarishda qatnashishini ta'minlash.

200. Favqulodda vaziyatlar zonalariga qurilish materiallari yetkazib berilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

37-bob. Sug'urta tashkilotlarining funksiyalari

201. Suv toshqini, ko'chkilar, sel xavfi mavjud bo'lgan va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlar xavfi yuqori bo'lgan hududlarda yashaydigan fuqarolarni, ushbu hududlardagi binolar va inshootlarni, qishloq xo'jaligi ekinlari va hayvonlarini hamda boshqa mol-mulkini sug'urtalashni ta'minlash.

38-bob. O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining funksiyalari

202. FVV, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, FVDTning boshqa funksional quyi tizimlari bilan birgalikda aholini favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish masalalari bo'yicha tayyorlash.

203. FVDTning funksional va hududiy quyi tizimlarida sanitariya drujinalarini tuzish, ularni jihozlash va yuklangan vazifalarni bajarishga tayyorlash, tayyorgarlik holatini nazorat qilishda ko'maklashish.

204. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida sanitariya postlarini tuzish va o'qitishni tashkil etish.

205. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, birinchi navbatda, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi xodimlarini, kursantlar, haydovchilar va yo'l-transport xizmatlari xodimlarini birinchi yordam ko'rsatish amaliyotiga shartnoma asosida o'qitishni tashkil etish.

206. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda aholini birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, o'ziga o'zi va o'zaro yordam berish hamda zarar ko'rganlarga g'amxo'rlik qilishga o'qitish bo'yicha maxsus teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etish.

207. O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining otryadlari va boshqa ko'ngillilar bo'linmalarini tashkil etish, o'qitish, jihozlash hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etish.

208. Favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish uchun O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining eng zarur tovarlar omborlari va zaxiralari tizimini tashkil etish.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son qaroriga

3-ILOVA

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining hududiy quyi tizimi doirasidagi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha

FUNKSIYALARI

1. Tegishli hududda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga rahbarlik qilish.
2. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qarorlar qabul qilish.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o‘rinlarda — FVDT) hududiy quyi tizimlarini tashkil etish, faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.

4. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohaslarida band bo‘lmagan aholini, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni, shuningdek, tizimidagi tashkilotlarning rahbarlari, ishchi va xizmatchilarini tayyorlash tadbirlarini tashkil etish va nazorat qilish.

5. Favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqishni tashkil etish hamda tegishli hudud bo‘yicha rejani tasdiqlash.

6. Aholini va hududlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi axborotni to‘plash hamda almashish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyatlar ro‘y berganligi haqida aholiga o‘z vaqtida xabar berish va axborot uzatish.

7. Xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan favqulodda vaziyatlar monitoringini yuritish.

8. FVDT xizmatlarining umumiy va maxsus vazifalari hududiy tuzilmalarini, yig‘ma mexanizatsiyalashgan otryadlarni, yig‘ma qutqaruv komandalarini, avtosanitariya otryadlarini tashkil etish va boshqarishga rahbarlik qilish.

9. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlarning shayligi ustidan nazoratni amalga oshirish.

10. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga doir tadbirlarni moliyalashtirish.

11. Tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy mansubligidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda ishlash barqarorligini oshirishga ko‘maklashish.

12. Aholini xabardor qilish va aholiga axborot uzatishning maxsus texnik vositalarini o‘rnatish uchun joylar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida efir vaqti ajratilishini tashkil etish va nazorat qilish.

13. Mahalliy miqyosdagi favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda, FVDTning hududiy quyi tizimi uchun yuqori tayyorgarlik rejimini yoki favqulodda vaziyat rejimini joriy etish haqida, shuningdek, aholini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

14. Qutqaruv ishlarini va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni tashkil etish hamda amalga oshirish, shuningdek, bunday ishlar o‘tkazilishi davomida jamoat tartibi saqlanishini tashkil etishga ko‘maklashish.

15. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish hamda aholini muhofaza qilish uchun barcha hududiy kuchlar va vositalarni jalb etish.

16. Favqulodda vaziyat zonasida qutqaruv ishlarini va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv kuchlarining (shu jumladan, tezkor harakat bo‘linmalarining) va maxsus tuzilmalarning doimiy shayligini tashkil etish.

17. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga volontyorlarni jalb etish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

18. Favqulodda vaziyat zonalaridagi zarar ko‘rgan aholi hamda ular joylashtirilgan tumanlarda evakuatsiya qilingan aholini ta‘minlash uchun tegishli hududning mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan oziq-ovqat va eng zarur tovarlar yetkazib berilishini tashkil etish.

19. Favqulodda vaziyatlar zonalaridagi obyektlar va aholini elektr energiyasi, gaz, yoqilg‘i va ichimlik suv bilan uzluksiz ta‘minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

20. Aholi punktlari va iqtisodiyot obyektlari faoliyatini tiklash ishlarini tashkil etish.

21. Favqulodda vaziyatlar oqibatida zarar ko'rgan aholi hayot faoliyatini tiklash, yetkazilgan zararning o'rnini qoplash bo'yicha choralar ko'rish.

22. Quyidagi FVDT hududiy quyi tizimlari faoliyatiga rahbarlik qilish:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat FVDT xizmatlari va tuzilmalari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman (shahar)lar hamda iqtisodiyot obyektlarining umumiy va maxsus vazifalar yuklangan hududiy tuzilmalari.

23. Mahalliy sharoitlarga, favqulodda vaziyatlarning xususiyatiga va viloyatlar (shaharlar va tumanlar)ning moddiy-texnik bazasiga qarab fuqaro muhofazasi boshlig'i o'z vakolatlari doirasida FVDTning tegishli hudud va obyektlar bo'yicha quyidagi xizmatlarini tashkil etishi hamda vazifalarini belgilashi mumkin:

avtoyo'l xizmati — favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yo'l-ko'priklarni ta'minotini tashkil etish va amalga oshirish, yo'llar va ko'priklarni ta'mirlash va tiklash;

avtotransport xizmati — temir yo'l va havo transporti organlari bilan birgalikda aholini joylashtirish va favqulodda vaziyatlar zonalaridan evakuatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlar va vositalarni yetkazib berish, ishchi smenalarini olib kelish (olib ketish), moddiy va tarixiy-madaniy boyliklar, noyob asbob-uskunalar, oziq-ovqat, qurilish materiallarini va boshqa moddiy vositalarni evakuatsiya hududiga olib chiqib ketish;

gaz ta'minoti xizmati — gaz ta'minoti inshootlari va tarmoqlarining barqaror ishlashini va ulardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash, ularda avariya-tiklash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

suv ta'minoti xizmati — suv ta'minoti inshootlari va tarmoqlarida avariya-tiklash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, suv manbalarining radioaktiv, kimyoviy va zaharli moddalar hamda bakteriyali vositalar va og'ir metallar bilan ifloslanish (zararlanish)dan muhofaza qilinishini ta'minlash. Ichimlik suvi sifati va oqova suvlarni tozalash ustidan nazoratni ta'minlash;

veterinariya nazorati va hayvonlarni muhofaza qilish xizmati — hayvonlarda yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi (epizootiyalar)ning oldini olish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarida sanitariya-veterinariya va epizootiyalarga qarshi tadbirlarni amalga oshirish. Epizootiyalarni tugatish. Rahbariyatga favqulodda vaziyatlar zonasidagi sanitariya-veterinariya holati to'g'risida axborot taqdim etish;

o'simliklarni himoya qilish va agrokimyo nazorati xizmati — epifitotiyalarning oldini olish, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish. O'simliklarni himoya qilish tadbirlarini amalga oshirish yo'li bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror ishlashini ta'minlash. Fitopatologik qidiruv ishlarini, qishloq xo'jaligi yerlarining radioaktiv va zaharli moddalar bilan ifloslanishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish. Ekinzorlar, yaylovlar hamda chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini zararsizlantirish. Epifitotiyalarni tugatish;

suv xo'jaligi xizmati — suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlarining barqaror ishlashini va ulardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash, ularda avariya va halokatlar yuz berishi mumkinligini prognoz qilish. Suv xo'jaligi obyektlarining ish rejimini yoki ulardan bundan keyin foydalanish rejimini o'zgartirish zarurligini belgilash, suv omborlaridan suvni avariya yuzasidan chiqarib tashlash. Xavf darajasi yuqori bo'lgan suv omborlari va ularga yondosh hududlarda lokal darajadagi aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish. Toshqinlar, suv bosishlari, sel oqimlaridan himoya qilish va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan kompleks chora-tadbirlarni tashkil etish,

ishlab chiqish va amalga oshirish hamda toshqin suvlari va sel oqimlarini avariyasiz o'tkazib yuborishni ta'minlash;

muhandislik xizmati — tinchlik davrida himoya inshootlari fondi to'planishi va mavjud bo'lishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish, boshlang'ich hududlarda zararlangan joylar tomonga harakat qilinganda, halokatli suv bosishi zonalarida va ishlar olib boriladigan obyektlarda, yirik yong'inlarni o'chirishda, tabiiy ofatlar, yirik avariya va halokatlar oqibatlarini tugatishda FVDTning kuchlari harakatlarini muhandislik jihatdan ta'minlash uchun favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga jalb etiladigan tegishli tuzilmalarni tayyorlash va ularning harakat qilishini tashkil etish;

kommunal-texnika xizmatlari — kommunal xo'jaligi inshootlari va tarmoqlari ishlarining barqarorligini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, ulardagi avariylarni bartaraf etish, halok bo'lganlarga maxsus ishlov berish, tashish va ommaviy ko'mish shoxobchalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish;

moddiy-texnika ta'minoti xizmati — evakuatsiya qilinadigan aholini eng zarur buyumlar va anjomlar (kiyim-bosh, poyabzal va shu kabilar) bilan ta'minlashni tashkil etish, tuzilmalarning shaxsiy tarkibini anjomlar va maxsus kiyim-bosh, shuningdek, iqtisodiyot obyektlarini ularning barqaror faoliyat ko'rsatishi va buzilgan ishlab chiqarishni tiklash uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika vositalari va qurilish materiallari bilan ta'minlash;

tibbiy xizmat — aholi va tegishli tuzilmalarning shaxsiy tarkibi sog'lig'ini saqlashga, jabrlanganlar va bemorlarga o'z vaqtida tibbiy yordam berishga yo'naltirilgan davolash-evakuatsiya, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

sanitariya ishlovini berish va zararsizlantirish xizmati — zararlanish joylaridan chiqqan odamlarga sanitariya jihatidan ishlov berish, ularning kiyim-boshlari va yakka tartibdagi himoyalani vositalarini zararsizlantirishni tashkil etish va amalga oshirish;

aloqa, xabar berish va axborotlashtirish xizmati — boshqaruv organlarini barqaror va uzluksiz aloqa bilan ta'minlash, aloqa va xabar berishning turg'un vositalariga foydalanish-texnik jihatdan xizmat ko'rsatishni tashkil etish va ularni nazorat qilish, shuningdek, ularni doimiy tayyor holatda saqlash, hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining ko'rsatmalariga binoan xabar berish signallarini uzatish va qabul qilishni texnik jihatdan ta'minlash;

jamoat tartibini saqlash xizmati — favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazishda jamoat tartibini saqlash;

qo'riqlash xizmati — favqulodda vaziyatlar zonalarida obyektlar, hududlar, moddiy va madaniy qimmatliklarni, shuningdek, aholi evakuatsiya qilingan joylarni qo'riqlash;

yong'in xavfsizligini ta'minlash xizmati — yong'inlar profilaktikasini o'tkazish va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish, yong'inlarni o'chirish, yong'in zonasida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish;

yonilg'i-moylash materiallari ta'minoti xizmati — favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etiladigan avtotransport vositalari va boshqa texnik vositalarni yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlashni tashkil etish, ushbu maqsadlar uchun turg'un va ko'chma avtomobil yonilg'isi quyish shoxobchalaridan foydalanish;

texnik xizmatlar — texnikani texnik jihatdan soz holatda saqlash va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun jalb etiladigan avtotransport vositalarini texnik ta'mirlash, shikastlangan va nosoz texnikani qutqarish ishlari yo'nalishlari va uchastkalaridan shikastlangan mashinalarni yig'ma punktlarga va ta'mirlash korxonalariga evakuatsiya qilish, ta'mirlash korxonalarini va tuzilmalarini ehtiyot qismlar va anjomlar bilan ta'minlash hamda ularning zaxirasini shakllantirish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat bilan ta‘minlashni tashkil etish xizmati — qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat zaxirasi g‘amlanishini va muhofaza qilinishini tashkil etish, favqulodda vaziyat zonasidagi aholini hamda jalb etilgan tuzilmalarni oziq-ovqat, issiq ovqat bilan ta‘minlash;

boshpanalar va bekinish joylari xizmati — tashkilotlarning muhofaza inshootlari fondini hisobga olish, muhofaza inshootlarining bekinadigan odamlarni qabul qilishga doimiy tayyorligini nazorat qilish, muhofaza inshootlari imoratlarining to‘g‘ri saqlanishi, muhofaza konstruksiyalari, qurilmalari va muhandislik-texnik asbob-uskunalari saqlanishi, ulardan iqtisodiyot ehtiyojlari va aholiga xizmat ko‘rsatish uchun foydalanilishini tizimli nazorat qilish. Qurilishi tugallangan muhofaza inshootlarini qabul qilishda qatnashish. Muhofaza inshootlari fondini jamlash rejalarini ishlab chiqish va ularga tuzatish kiritish, boshpana va bekinish joylariga xizmat ko‘rsatish bo‘linmalarini tashkil etish va tayyorlash;

energetika xizmati — favqulodda vaziyatlar sharoitlarida energiya obyektlarining barqaror ishlashini ta‘minlash va ulardagi avariylarni bartaraf etish. Favqulodda vaziyat zonalarida qutqaruv ishlarini olib borishda ishtirok etish.

24. Favqulodda vaziyatlarda nobud bo‘lgan uy hayvonlari jasadlarini yig‘ib olish va utilizatsiya qilish xizmati (tumanlar obodonlashtirish boshqarmalari hamda “Toza hudud” DUKlari negizida) tashkil etiladi.


25. Zaruratga ko‘ra va tegishli kuchlar mavjud bo‘lganda FVDTning boshqa xizmatlari, shu jumladan, avariya-texnik, radiatsiyaviy va kimyoviy himoya, niqoblanish, axborot bilan ta‘minlash xizmatlari ham tashkil etilishi mumkin.

17-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: «Elektromagnit maydonlar va ulardan saqlanish usullarini aniqlash»

Ishdan maqsad O‘ta yuqori chastotadagi elektromagnit to‘lqinlarning intensivligini o‘lchash va nurlanish intensivligini pasaytirish choralarini o‘rganish.

Foydalanilgan asbob va moslamalar.



13-rasm. Elektromagnit maydonlardan foydalanish usulini aniqlash qurilmasi.

1-o'zgaruvchan tok manbai,2-yuqori chastotali generator,3-ruyorli antenna,4,5,6-himoya ekranlari,7-quvvatni o'lchash asbobi,8-o'lchash antennalari,9-termistorli golovka,10-qo'zg'aluvchan shtativ,11-burilish qurilmasi.

Ishni bajarish tartibi

quvvat o'lchash asbobini ishga tayyorlash.Ushbu seminar mashg'ulotimizdagi yuqori chastotali generator 10 000 MGs ($\lambda \cdot 3$ sm)chastotadagi elektromagnit energiyani

Nurlantiradi hamda 500 kGs chastotadagi signalni modulyasiyalaydi.SHuning uchun asbob elektromagnit maydon oqimi quvvatini mustahkamlaydigan M5-20 termistorli golovka va P6 -14 ruyorli antenna bilan jihozlangan.

1.Tok manbai va quvvat o'lchash asbobi kabelini 220 V o'zgaruvchan tok manbaiga ulang.

2. quvvat o'lchash asbobini tok manbaiga ulaydigan tugmachani « Vkl» holatiga keltiring.Bunda asbobning orqa devoridagi indekator lampochkasi yonishi kerak.Asbobni 10-15 minut qizdiring.O'.YU.CH (S.V.CH) generatorini ulamang

3. «Predeli izmereniya» tugmachasini 1500 mkVt holatiga keltiring.

4. «Rod raboti» tugmachasini «Kalibrovka» vaziyatiga keltiring va «Kalibrovka» dastasini oxirigacha bosgan holda hisoblash asbobining «150 mkV» oxirgi shkala ko'rsatgichiga strelkani to'g'irlang.So'ngra «Kalibrovka» dastasini qo'yib yuboring.

5. «Rod raboti» tugmasini «Nachalniy balans» vaziyatiga keltiring va katta «Balans» dastasi yordamida sxemani «Grubo» holatiga keltirib, «Tochno» tugmachasini bosing.SHu holatda kichik «Balans» dastasi bilan aniq balansga keltiring.Boshlang'ich balans holatiga keltirib,o'ta yuqori chastotali (O'.YU.CH) signallar yo'q holatda yoki kirish antennalarining to'liq yopiq holatlarida o'rnatiladi.Maydon oqimining quvvat zichligi (intensivligi) quyidagi formuladan hisoblanadi

$$P * \frac{WSn}{\eta SS}$$

bu yerda W - quvvat o'lchash asbobining ko'rsatkichi (mkVt), n- ayni holatda n*1 deb olinadi,chunki nurlanish quvvati past , η – termistorli golovkaning F.I.K ($\lambda \cdot 3$ sm bo'lganda $\eta \approx 0,93$ ga teng),S – antenaning qamrash yuzasi (sm^2) (P6- 14 antennasi uchun $Sq \approx 50 sm^2$ ga teng).

1- jadval

O'lchov kattaliklari	Manbagacha bo'lgan masofa (sm)			
	10	20	40	80
quvvat W,(mkVt)				
Solishtirma quvvat zichligi P (mkVt sm ²)				

Umumiy ma'lumotlar

YUqori (YU.CH.),ultrayuqori (U.YU.CH) va o'ta yuqori (O'.YU.CH) chastotali elektromagnit maydonlar fazoda yorug'lik tezligiga yaqin tezlik bilan tarqalishi bilan birga o'zi bilan energiyani ham eltadi.Elektromagnit chastotasi uni hosil qilgan tok chastotasiga teng chastota bilan o'zgaradi.Maydonning to'lqin uzunligi λ deb, ma'lum bir davr ichidagi bosib o'tgan masofasiga aytiladi

$$\lambda q \text{ -----}$$

f

bu yerda s – elektromagnit to'liqlarining fazoda tarqalish tezligi ($3 \cdot 10^8$ m/s) ,
f- tebranish chastotasi (Gs)

Elektromagnit maydonlarning inson organizmiga ta'siri nurlanish intensivligiga, chastotaga va ta'sir qilish davomiyligiga bog'liq. Elektromagnit maydon energiyasi ta'sirida organizm to'qimalariga qisman yutilish sodir bo'ladi va shuning uchun tana harorati ortadi.

Katta intensivlikdagi elektromagnit maydonlarning insonga uzoq vaqt ta'siri natijasida qattiq charchash, uyquning kelishi, bosh og'rig'i, bosh aylanish (gipertoniya) va yurak atrofida og'riqlar paydo qilishiga olib keladi.

O'ta yuqori chastotadagi maydonlarning ta'siri qon tarkibining o'zgarishi va ko'z og'rig'iga olib kelishi mumkin. Elektromagnit to'liqlardan quyidagi usullar bilan saqlanish mumkin:

a) bevosita manbaning o'zida nurlanishni kamaytirish;

b) ish o'rnini ekran bilan himoyalash,

v) yuqori chastotali tebranishlar uzatish liniyasi va uning elementlaridagi nurlanish manbasini ekran bilan himoyalash;

g) individual himoya vositalaridan foydalanish;

d) masofadan boshqarishni qo'llash.

Effektiv ekranlashtirish ekranning materialiga va konstruksiyasiga bog'liq bo'ladi. Effektiv ekranlashtirishni quyidagi formuladan hisoblaymiz: (%)

$$Eq = \frac{R_N - R_E}{R_N} \cdot 100 \%$$

Bu yerda R_N , R_E - ekran qo'yilmasdan oldingi va keyingi nurlanish intensivligi ($\text{mKv} \cdot \text{m}^2$)

Hisobot: Yuqorida keltirilgan ishning bajarilish tartibi bo'yicha talaba belgilangan asboblarning ko'rsatkichlarini olib jadvalni to'ldiradi hamda elektromagnit maydon ta'siridan himoyalash usullariga baho beradi.

18-Amaliy mashg'ulot


Mavzu: Yonuvchi havo va bug'larning o'z-o'zidan alanganishni aniqlash

Ishdan maqsad: Havodagi yonuvchi suyuqlik bug'larining o'z-o'zidan alanganish haroratini va portlovchi aralashmaning gruppasini aniqlash.

Nazariy ma'lumotlar

Agar yonuvchi aralashmaning boshlang'ich harorati yetarlicha yuqori bo'lsa va ajralayotgan issiqlik tashqi muxitga chiqib ulgurmasa harorat ko'tarilishining ko'chirish jarayoni sodir bo'lib, alanganish bilan yakunlanadi. Bunday jarayon o'z-o'zidan alanganish yoki issiqlikdan portlash deyiladi. O'z-o'zidan alanganish harorati bu yonuvchi aralashmalarning kichik harorati bo'lib, bunda alanganib yonish bilan tugallanadigan ekzotermik reaksiya tezligi oshirilishi sodir bo'ladi. O'z-o'zidan alanganish harorati aralashma turiga uning konsentratsiyasiga, reaksiyaga kirituvchi idish materialiga, idish xajmiga va satxiga bog'lik bo'ladi.

Qullaniladigan asbob va moslamalar



1-rasm.

Yonuvchi bug'larning havodagi o'z-o'zidan alanganishini aniqlaydigan qurilma:

1. Silindrik isitkich. 2. Kolba bug'ini isitkich. 3. Reaksiyon kolba. 4. Isitkich element. 5. Isitkich izolyatsiyasi. 6. Idish tubini isitkich. 7. Termoparalar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.

1. Havodagi o'z-o'zidan alanganuvchi suyuqlik bug'larining haroratini aniqlash.

O'z-o'zidan alanganish haroratini aniqlash. Havodagi yonuvchi suyuqlik bug'larining harorati o'lchashdan oldin kolba 3 ni o'z-o'zidan alanganishining haroratidan bir oz ko'p haroratgacha qizdiriladi. O'rganish uchun kiritilayotgan suyuqlikning havodagi yonuvchi bug'lar konsentratsiyasi miqdorini (14-1) formuladan hisoblanadi.

$$G = \frac{MV_K}{FV_{XABO}}$$

Bu y yerda G suyuqlik miqdori (gr):

M -suyuqlik molyar massasi (2 mol)

V_k -Kolba xajmi (l) V_{voz} - yonuvchi suyuqlik bitta molekulasi uchun kerak bo'lgan havo xajmi (l)

$$V_{xavo} = (b+c) V_z \quad (14-2)$$

bu y yerda V_z belgilangan harorat va bosimdagi gramm molekula (l):

v.c- yonish reaksiyasidan aniqlanuvchi 1 mol yoqilg'iga teng bo'lgan kislorod va azot molekulalarining soni.

$$V_z = \frac{V_0 \cdot 760(t + 273)}{273 \cdot P_{\delta ap}}$$

bu y yerda V_0 - 760 mm.sim ust. bosim va havoning 0°S dagi gramm molekula xajmi (V_0 q24,4l)

O'rganilayotgan suyuqlikning solishtirma xajmi V q(ml)

$$V = \frac{g}{\rho} \quad (14-4)$$

bu y yerda ρ suyuqlikning zichligi (g/sm^3); g -suyuqlik miqdori(gr). Bundan tashqari bu qurilma bilan o'zidan alanganuvchi gaz yoqilg'ilarning havodagi aralashmasi haroratini ham o'lashda foydalanish mumkin. Suyuqlik kolbaga kiritilgandan boshlab sekondomer ishlatiladi va kolbaga ma'lum burchak ostida joylashtirilgan oynadan ichkaridagi jarayon kuzatiladi. Alanganish jarayoni asosan yorug' alanganing xosil bo'lishi bilan tugallanadi. Agar 5-minut davomida alanganish sodir bo'lmasa, tajriba to'xtatilib, o'z-o'zidan alanganish bo'lmagan deb hisoblanadi. Kolbaning ichini dastaki nasos yordamida shamollatiladi. Keyingi tajribani ham shu konsentratsiyada, lekin yuqorirok haroratda bajariladi. Tajribalarni yonuvchi aralashmaning o'z-o'zidan alanganish haroratigacha oshirib borib takrorlanadi. Tajribalarni kolbaning turli xaroratlarida turli xil moddalar miqdorida va konsentratsiyalarida takrorlanadi. Olingan natijalar 7-jadvaliga yoziladi.

7-jadvalda yozilgan natijalarida $t_{c.b} = f(v)$ tengsizlikni tuzamiz, bu y yerda $t_{c.b}$ -yonuvchi suyuqlikning o'z-o'zidan alanganishdan haroratini ($^{\circ}C$) V -kolbaga kiritilgan yonuvchi suyuqlik xajmi(ml), o'z-o'zidan alanganish sodir bo'lgandagi- $t_{c.b}qf(v)$ -ifodadan topilgan minimal haroratni Selsiy gardusining kichiklashtirilgan qiymatida olinib, uni o'z-o'zidan alanganish harorati deb qabul qilinadi. Topilgan haroratda, yonuvchi aralashmaning portlash gruppasi aniqlanadi.

Tajriba nomeri №	Kolba harorati S	Kolbakol- badagi suyuqlikning xajmi Ml.	Tajriba natijasi (o'z- o'zidan alanganish kuzatilayap- timi)	Portlovch i aralashma- ning gruppasi
----------------------------	----------------------------	---	---	---

19-20-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Sun'iy nafas berish va yurakni massaj qilish usullarini maneken trenajyorda o'rganish

Ishning maqsadi: Jabrlanuvchi hushidan ketganda tez va malakali birinchi yordam berishni o'rganish. Sun'iy nafas berishni («og'izdanog'izga» va yurakni yopiq massaj qilish) amalda qo'llay bilish.

Umumiy ma'lumotlar Jarohatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ba'zi bir holatlarda jabrlangan kishilarga tezlik bilan malakali birinchi yordam ko'rsatilsa, o'limni oldini olish imkoniyati bo'lar ekan.

Birinchi yordam, tezlik bilan, jabrlanuvchini yaqinida turgan kishi tomonidan berilishi kerak. Ba'zan jabrlanuvchini taqdiri, uning atrofida turgan kishilarning tayyorgarligi, malakasi va tez yordam ko'rsata olishi qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Agar, odam bexosdan tok yurituvchi qismga tegib qolgan bo'lsa, uni tezda tok ta'siridan ozod qilish kerak. Bunda o'zi ham tok ta'siri ostiga tushib qolmasligi uchun ehtiyot choralarini qo'llashi va jabrlanuvchi bilan kontaktida bo'lmasligi va qadam kuchlanishiga tushmasligi kerak. Eng yaxshisi, uskunani o'chirgani ma'qul, agar iloji bo'lmasa (1000 V gacha bo'lgan elektr uskunalarda), yog'och dastali yoki dastasi ihotalangan asbob bilan simlarni uzib tashlash kerak.

Kuchlanish 400 V gacha bo'lgan moslamalarda shikastlangan odamni palto yoki kostyumi polga tegib turmagan va tanasidan ajralib turgan bo'lsa, hamda nam bo'lmasa, tok yurituvchi qismdan tortib ajratib olish mumkin. Bunda shikastlangan kishi tanasi, oyoq kiyimi nam jismga va atrofdagi yerga tutashgan narsalarga tegmasligi kerak. Agar bu harakatlarni biror bir sababga ko'ra amalga oshirib bo'lmasa, qo'llarga dielektrik qo'lqoplar kiyib olish kerak. Dielektrik qo'lqoplar bo'lmasa, qo'lga sharf yoki biror bir quruq latta o'rab olish kerak. Qo'llarni ihotalash o'rniga butun tanani ihota qilsa ham bo'ladi. Bunda, oyoqlarga rezina kalish kiyish, rezina poyonoz yoki taxta to'shama ustiga chiqib olish kerak. Agarda jabrlanuvchi elektr simini qattiq siqib ushlab olgan bo'lsa, har bir barmog'ini alohida alohida ajratish kerak. Agar jabrlanuvchi baland joyda bo'lsa, moslamani o'chirish uni yiqilishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda jabrlanuvchining yiqilib tushmasligini oldini olish kerak.

Birinchi yordam ko'rsatish Jabrlanuvchi xushidan ketib, yana o'ziga kelsa, uni darhol vrach kelguncha yotqizib, osoyishtalikni ta'minlash kerak va tomir urishi bilan nafas olishini nazorat qilib turishi zarur. Agar vrach chaqirishni imkoni bo'lmasa, uni tezlik bilan shifoxonaga zambil yoki transportda olib boorish kerak. Agar jabrlanuvchi xushidan ketgan bo'lsa-yu, lekin tomir urishi barqaror bo'lsa, uni tekis joyga yotqizib, ko'ylak yoqasini yechib, toza havo kelishini ta'minlab, burunga nashatirda namlangan paxtani qo'yib hidlatish yoki yuzga sovuq suv sepish kerak. So'ngra vrachni zudlik bilan chaqirish lozim. Jabrlanuvchining nafas olishi va tomir urishi to'xtagan bo'lsa – u klinik (mavhum o'lim holatida bo'ladi).

Nafas olish va qon aylanish to'xtaganda, hujayra va to'qimalar qondagi oxirgi kislorodni so'rib oladi, qonning rangi o'zgaradi. Teri va shilimshiq pardaning ko'karishi kuchayadi. Dastlab kislorod kamligiga ta'sirchan bo'lgan bosh miya po'stlog'ining hujayralari o'la boshlaydi. Hujayralarning bo'linishi tezlashadi. Organizmda qaytarib bo'lmas jarayonlar sodir bo'ladi. Insonni hayotga qaytarish har bir daqiqa o'tgan sayin qiyinlashadi. Shunday qilib klinik o'lim holati – hayotdagi o'limga o'tish davri – nafas olish va yurak faoliyatini to'xtashidan boshlab, bosh miya po'stlog'ini hujayralari o'lishigacha bo'lgan vaqt bilan aniqlanadi. Inson biror bir baxtsiz hodisa, masalan, elektr toki urganda klinik o'lim vaqti 7-8 daqiqa davom etishi mumkin. Klinik o'lim davri tugagandan so'ng, biologik (haqiqiy) o'lim yuzaga keladi, ya'ni insonni hayotga umuman qaytarib bo'lmaydi. Klinik o'lim holatida, ya'ni nafas olish faoliyati va yurak urish to'xtagandan so'ng, 8 minutgacha bo'lgan vaqt ichida insonni hayotga qaytarish mumkin, bunda qanchalik tez harakat qilinsa, shuncha oson kechadi. Har bir daqiqani bekorga o'tkazmasdan harakat qilish kerak. Shuning uchun ham, baxtsiz hodisa ro'y berganda, tiriltirish yuzasidan qilingan ishlar, passiv harakat o'limga hukm qilgan bilan barobar. Har bir inson birinchi yordam ko'rsatishning elementar usullarini bilishi kerak. Bu usullar jarohatlangan kishi organizmida sun'iy qon aylanish va havo almashishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu usul mutlaqo zarur bo'lgan 2 ta chora tadbirni qo'llashni taqozo etadi.

1. Sun'iy nafas oldirish, «og'izdan-og'izga», «og'izdan-burunga» bo'lishi mumkin.

2. Yurakni tashqi (yopiq) massaj qilish. Insonni sun'iy nafas oldirish va yurakni tashqi massaj qilish yo'li bilan hayotga qaytarish, o'pka-yurak reanimatsiyasi deb ataladi. (Reanimatsiya lotincha so'z bo'lib, “-re” boshqatdan, takroran, onimatiot-tirilish ma'nosini anglatadi).

1.Sun'iy nafas oldirish. Sun'iy nafas oldirish, yordam ko'rsatuvchi o'z o'pkasidan, «og'izdanog'izga» yoki «og'izdan-burunga» usulida havo puflash yo'li bilan oshiriladi. «Og'izdan-og'izga» sun'iy nafas oldirish usulini faqatgina elektr tokidan jarohatlanib, mavhum o'lim holatida emas, balki boshqa baxtsiz hodisalar: bo'g'ilish, zaharlanishning, dori-darmonlarni ko'p miqdorda iste'mol qilish, suvga cho'kish (bunda suvni o'pkadan chiqarib o'tirishga vaqt ketkazmasdan zudlik

bilan sun'iy nafas oldirishga kirishilsa, suvni o'pkadan asta sekinlik bilan chiqadi) ro'y berganda ham qo'llash mumkin. Bu usul boshqa usullarga qaraganda quyidagi sabablarga ko'ra qulayroqdir:

a) yordam ko'rsatuvchi, haqiqatdan ham, havo shikastlangan kishining o'pkasiga kirayotgan va chiqayotganligini ko'krak qafasini ko'tarilib – tushishiga qarab ishonch hosil qilish mumkin.

b) yordamchi tomonidan puflanayotgan havo tarkibida nafas olish uchun yetarli miqdorda kislorod bo'ladi. Bunda boshqa usullarga nisbatan, o'pkaga puflanayotgan havoning miqdori 1000-1500 sm³ ga yetadi. Shikastlanib asfiksiyaga (nafas olishi va qon aylanishi to'xtagan holati) uchraganlarda, halqum va jag' muskullarining bo'shashishi natijasida til pastki jag'ga yopishib, orqaga ketib qoladi va nafas olish yo'lini to'sib qo'yadi. Sun'iy nafas oldirishni boshlashdan avval, o'pkaga havo yo'lini ochish kerak. Buning uchun shikastlangan odam boshini iloji boricha orqaga og'dirish kerak. Shunda pastki jag' bilan til oldinga cho'zilib, nafas yo'li ochiladi. Yordam ko'rsatuvchi puflayotganda og'zini jabrlanuvchi og'ziga zich birlashtirib shunday kuch bilan havo berishi kerakki, bunda jabrlanuvchining ko'krak qafasi ko'tarilishi kerak. Havo tashqariga chiqib ketmasligi uchun burun teshiklari barmoqlar bilan qisiladi. «Og'izdan-og'izga» usuli oddiy va qulaydir. Ba'zan bosh orqaga og'dirilsa ham, og'izni ochish imkoniyati bo'lmaydi. Bunday holatda, havo burun orqali «og'izdan-burunga» usuli asosida o'pkaga puflanadi. Havo tashqariga chiqmasligi uchun og'izni qo'l bilan mahkam yopish kerak. Jabrlanuvchining og'zidan suyuqlik va ovqat qoldiqlari chiqishi mumkin. Bunday hollarda, ovqat o'pkaga tushmasligi uchun og'iz tezlik bilan tozalanishi kerak. Og'iz va tomoqda suyuqlik borligini sezgan zahotiyiq, jabrlanuvchining boshi yon tomonga og'dirilib, qarshi tomondagi yelkasi ko'tariladi, bunda og'iz ko'krakdan pastga bo'lishiga e'tibor berish kerak. Shunda suyuqlik pastga oqib ketadi. So'ngra tezlik bilan og'iz dastro'mol yoki qo'l bilan tozalanib, yana havo beriladi. Kattalar, bolalar va go'daklarda sun'iy nafas berish tartibi

	Kattalar	Bolalar	Go'daklar
Yoshi	8-yoshdan katta	1-8 yosh	1 yoshgacha
Boshi	Bosh orqaga egilib, iyak ko'tariladi	Ehtiyotkorlik bilan bosh jrqaga egilib iyak ko'tariladi	Bosh biroz orqaga egiladi
Burni	Burun kataklari bosh va ko'rsatkich barmoq bilan mahkam qisiladi.	Burun kataklari bosh va ko'rsatkich barmoq bilan mahkam qisiladi.	
Og'zi	Jabrlanuvchining lablari lablar bilan zich qamrab olinadi	Jabrlanuvchining lablari lablar bilan zich qamrab olinadi	Jabrlanuvchining burni va og'zi lablari bilan zich qamrab olinadi
Puflashni bajarish	1,2,3,4 deb 5-sida puflash	1,2 deb 3-sida puflash	1,2 deb 3-sida puflash
Puflash	Har 5	Har 3	Har 3

ni maromi	sekundda 1 marta puflash	sekundda 1 marta puflash	sekundda 1 marta puflash
Puflash ning davomiyligi	1.5-2 sek	1-1,5 sek	1-1,5 sek
Tomir urushini tekshirish	Uyqu arteriyasida	Uyqu arteriyasida	Elka arteriyasida

Agar nafas olish bilan birgalikda, yurak urishi ham to'xtasa, sun'iy nafas olish bilan birgalikda yurak yopiq massaj qilinadi.

2. Yurakni yopiq massaj qilish. Yurakni massaj qilishdan asosiy maqsad, qon aylanishini tiklash va ta'minlashdir. Yurak ishdan to'xtasa qon aylanishi to'xtab, organizmda tiklab bo'lmaydigan hodisalar ro'y beradi. Yurak ko'krak qafasini ichida bo'lib, ko'krak oldi va umurtqa pog'onasi oralig'ida joylashgan, shuning uchun ko'krak bosilganda, uni umurtqa pog'onasi tomon taxminan 4 sm gacha siqish mumkin. Bu bosim yurakka ta'sir etib, uning ichidan qonni aortaga so'ngra esa kichik va katta qon aylanish doiralarga siqib chiqaradi. Qo'l olinganda, ko'krak qafasi tiklanadi va yurak bo'shlig'i yana qonga to'ladi. Bu harakatlar qaytarilganda qonning aylanishi tiklanadi va yurakni ishlab ketishiga olib keladi. 3. Jabrlanuvchiga vrach kelgunga qadar dastlabki yordam ko'rsatish tartibi.

a) Jabrlanuvchini gorizontal qattiq yuzaga yotqizish kerak. Agar binoda nam sovuq pol bo'lsa, vaqtni o'tkazmasdan jabrlanuvchini tagiga quruq kiyim yozish kerak;

b) Jabrlanuvchini bir qo'l bilan peshonasidan, ikkinchi qo'l bilan daxani tagidan ushlab, boshini orqaga og'dirish kerak;

v) Sun'iy nafas oldirishni «og'izdan-og'izga» usuli asosida amalga oshirish. Buning uchun yordam ko'rsatuvchi ikki marta chuqur nafas olib, jabrlanuvchining og'ziga puflash lozim. Bunda yuzi bilan jabrlanuvchining burun teshiklarini yopib turushi kerak. Agar havo chiqib ketsa, burunni barmoqlar bilan yopish kerak. puflaganda ko'krak ko'tarilishi lozim. Dastlabki 10 ta puflash mumkin qadar tezroq bajarilgani ma'qul;

g) O'pkaga havo 5-10 marta puflangandan keyin, uyqu tomirlaridagi puls qo'l bilan ushlab tekshiriladi. Agar puls yaqqol sezilsa o'pkaga har daqiqada 12 marta havo berish davom ettiriladi;

d) Agar puls urishi sezilmasa darhol yurakni yopiq massaj qilishga kirishiladi. Yurak to'xtaganini yana bir alomati ko'z qorachig'ining kengayib ketishidir. Bu hodisa yurak to'xtaganidan keyin 1 daqiqa vaqt ichida sodir bo'ladi. shuning uchun agar puls sezilmasa, darhol yurakni yopiq massaj qilishga kirishiladi. Bunda, jabrlanuvchini qattiq yerga yotqizilishi kerak. Ko'krak o'ng qo'lning kafti bilan bosiladi, ikkinchi qo'l esa birinchisini ustiga qo'yiladi. Ko'krakda qo'l kaftini qo'yadigan joyni topish juda muhimdir. Bu joy ko'krak qovurg'alari birlashgan joyning eng pastidan 4 sm yuqorida joylashgan. Yopiq massaj ritmi har bir sekundda ko'krakka bir marta bosish bilan amalga oshiriladi.

e) Shu bilan bir vaqtda sun'iy nafas oldirishni ham davom ettirish kerak. Agar yordam ko'rsatuvchi bir o'zi bo'lsa, sun'iy nafas oldirish bilan yurakni massaj qilishni galma-galdan olib borish kerak: ya'ni ikki marta o'pkaga havo puflab, 15 marta ko'krak massaj qilinadi. Agar yordam ko'rsatuvchilar 2 kishi bo'lsa, biri havo berib, ikkinchisi yurakni massaj qiladi. Bunda, 1 marta havo berilib 5 marta ko'krakni bosish kerak.

j) Yordam ko'rsatuvchi sun'iy nafas berish hamda yurakni massaj qilish bilan birgalikda, atrofda odamlar bo'lsa baqirib yordamga chaqirish kerak. yetib kelganlar vrachni chaqirtirib,

jabrlanuvchiga yordam berishlari lozim. Sun'iy nafas oldirish va yurakni massaj qilish vrach kelgungacha to'xtamay davom ettiriladi.

Amaliy qism

I. Qo'llaniladigan apparatura. Yorug'lik tablosi bilan ta'minlangan "Vitim" trenajyori.

Trenajyorda o'rganish jarayoni:

- mavhum o'lim va tirilish tashxisi.
- reanimatsiya usullari.
- reanimatsiya tadbirlarining samaradorligini baholashni o'z ichiga oladi.

Trenajyorning tarkibi organizmning asosiy fiziologik funksiyalari

– nafas olish yurakning ishi, ko'z qorachiqclarini holatini modellashtirish imkonini beradi.

Reanimatsiyani nazorat qilish va o'rganish uyqu arteriyalarining urishi, ko'z qorachiqclarining kengayishi, yorug'lik tablosi ekranida ko'rinadigan ko'krak qafasining, yurak, o'pka va oshqozon holatlariga qarab bajariladi.

II. Trenajyorni ishga tayyorlash.

1. Trenajyorni qattiq taglik ustiga (stol, kushetka, pol va h.k.) chalqancha yotqizing.
2. Yorug'lik tablosini sim yetadigan qilib, ko'rishga qulay bo'lgan joyga o'rmashtiring.
3. "Tablo-mulyaj" kabelini va ta'minot simini ehtiyot choralari ko'rgan holda joylashtiriladi.

4. Yorug'lik tablosini trenajyor bilan «tablo-mulyaj» kabeli orqali ulab qo'ying.

5. Hajmining 2/3 qismigacha to'ldirilgan zararsizlantiruvchi eritma solingan idishni trenajyor yaqiniga qulay joyga keltirib qo'ying. Unda og'iz-burun maskasini dezinfeksiya qilib quritib trenajyorga o'rning.

6. Ta'minot simini kuchlanish 220 V va chastotasi 50 Gs li elektr toki zanjiriga ulang. Bunda, tabloning yuqorigi chap burchagida yorug'lik nuqtasi va yuqorigi o'ng burchagida hisoblash sonlari paydo bo'ladi. «Tayyor» tugmasini bosib trenajyor ishga tayyor holga keltiriladi.

III. Ishni bajarish tartibi.

1. «Tayyor» tugmasini bosish trenajyorning boshlang'ich holatini bildirib, odamning klinik o'lim holatiga mos keladi (ya'ni anatomik tirilish alomatlari, nafas olish, tomir urish sezilmaydi. Ko'z qorachiqclarini kengaygan holatda bo'ladi).

2. Yuragi kichrayib borayotgan, lekin nafas olishi to'xtagan odamning holatini imitatsiya qilish uchun «Puls» tugmasini bosing. Bunda uyqu arteriyasida chastotasi 1 Gs (daqiqasiga 60 marta) qon tomiri urayotganini, ko'z qorachig'i kichrayib borayotganini va nafas olish (ko'krak qafasini ko'tarilishi) yo'qligini ko'ramiz. Tabloda kichrayayotgan yurak va siqilgan o'pka ko'riladi.

3. «Tirik odam» holatini imitatsiya qilish uchun «puls» va «nafas» tugmalarini bosing. Bunda uyqu arteriyasida qon tomiri urishi va ko'z qorachig'ining kichrayishi seziladi. Nafas olish paydo bo'ladi (ya'ni, ko'krak qafasining daqiqasiga 12-20 marta harakati seziladi). Tabloda siqilayotgan yurak va kengayayotgan o'pka ko'rinadi.

4. Reanimatsiya amallarini trenajyorda «klinik o'lim» holatidan boshlab bajariladi. Buning uchun bir marta o'pkaga puflanadi, bundan so'ng reanimatsiyaning nazorat vaqtini hisoblash boshlanadi. Bunda, tabloda yurakning bo'shashgan va o'pkaning siqilgan holatlari ko'rinadi.

Reanimatsiyani bajarish jarayonida tabloda uning asosiy ko'rsatkichlar beligilanib turadi. Masalan:

a) berilgan havo hajmi yetarli bo'lmasa (1000 ml dan kam bo'lsa) ekranda siqilgan o'pka ko'rinadi;

b) berilgan havo hajmi yetarli bo'lsa, (1000-1300 ml dan ko'p) ekranda normal o'pka ko'rinadi;

v) berilgan havo hajmi ko'p bo'lsa (1500 ml dan ko'p) ekranda meyoridan ortiq shishgan o'pka ko'rinadi;

g) yurakni massaj qilishda yetarli kuch bilan bosilmasa ekranda yurakning bo'shashgan holati (diastola) ko'rinadi;

d) yurakni massaj qilishda me'yoridagi kuch bilan (130-340 N kuch bilan, o'rtacha qiymati 230 N) bosilsa ekranda yurakning siqilib borayotgan holati (sistola) ko'rinadi; ye) yurakni massaj qilishda haddan ortiq (me'yoridan 1,5-2 marta) kuch bilan bosilsa tabloda yonib-o'chib turuvchi nuqtalar paydo bo'ladi.

5. «Tayyor» tugmasini bosib, og'izdan puflang, bunda tabloda avtomatik ravishda reanimatsiya nazorat vaqti hisoblana boshlaydi. Shu ondan boshlab «tibbiy yo'riqnomaga» asosan «1:5» yoki «2:15» tartibida sun'iy nafas beri shva yurakni massaj qilishni boshlang. Tartibni tumbler orqali o'rnatang.

6. Reanimatsiyaning nazorat vaqti (60 sek) tugagach yorug'lik tablosining yuqori chap burchagidagi nuqta o'lchanadi. Agar reanimatsiyaning amallarini to'g'ri bajargan bo'lsangiz tablo ekranida qisqarib borayotgan yurak va kattalashayotgan o'pka ko'rinadi. Trenajyorning o'zida esa «anatomik tirilish» alomatlari seziladi.

7. Yurakni yetarli kuch bilan bosilmasa yoki o'pkaga yetarli havo berilmasa, reanimatsiyaning nazorat vaqti tugagandan keyin ham tabloda bo'shashgan yurak va siqilgan o'pka tasviri qolaveradi.

8. Yurakni massaj qilishda qo'lni ko'krakka noto'g'ri qo'yish yoki og'izga puflashda trenajyor boshini noto'g'ri o'rnatilsa tabloda «kattalashgan oshqozon» tasviri ko'rinadi. Bu, oshqozonga havo kirib qolganligini bildiradi. Uni oshqozondan chiqarib tashlash uchun trenajyorni yon tomonga burish kerak bo'ladi.

9. Trenajyorni ishning yangi sikliga tayyorlash uchun «tayyor» tugmasini bosing.

Ishni bajarish davomida har bir talaba quyidagi mashqlarni bajarishi kerak:

1-mashq. Avval o'zining, do'stining va so'ngra trenajyorning uyqu arteriyasini topish.

2-mashq. Trenajyorda «og'izdan-og'izga» usulida sun'iy nafas berish.

GLOSSARIY

Atrof-muhit – insonni o‘rab turgan muhit bo‘lib, insonning hayot faoliyatiga, uning sog‘ligi va nasliga to‘g‘ridan to‘g‘ri, birdan urinma yoki masofadan ta‘sir etishga qobiliyatli omillarning (jismoniy, ximiyaviy, biologik, informatsion, ijtimoiy) shartli yig‘indisidir.

Atrof muhitni muhofazalash-tirik (o‘simliklar va hayvonot dunyosi) va o‘lik (tuproq, suv, atmosfera, iqlim) tabiatni tiklash va muhofazalash va ulardan ratsional foydalanish bo‘yicha kompleks tadbirlardir.

Asos- bu fikr, g‘oya, maqsad (asosiy holat)dir. Usul, bu – eng umumiy qonuniyatlarni bilish orqali maqsadga erishish yo‘lidir.

Biosfyera-barcha turdagi organizmlar, jumladan inson yashashi mumkin bo‘lgan atrof-muhit bo‘lib, u murakkab tuzilishdagi yer sharining muhim qobig‘idir. Biosfyera bir necha milliard yillar davomida shakllangan.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Davriy yo‘riqnoma - ishchining malakasi va ish stajidan qat‘iy nazar har 6 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda xavfsiz ishlash usullari bo‘yicha davriy yo‘riqnoma o‘tkazib turiladi.

Dam olish vaqti - xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo‘lgan va bunday u o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanishi mumkin bo‘lgan vaqtdir.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o‘zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Ekologiya - organizmni atrof muhit bilan o‘zaro ta‘siri qonuniyatlarini o‘rganadi.

Elektr xavfsizligi– kishilarni elektr toki, elektr yoyi, elektrmagnit maydonining zararli va xavfli ta‘siridan muhofaza qilishni ta‘minlaydigan tashkiliy va texnik chora-tadbirlar sistemasini.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta‘lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta‘limni ifodalaydi.

Hamkorlikdagi ta‘limni tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi o‘rtasidagi subyektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e‘tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Ishlab chiqarish muhiti – bu mehnat faoliyati jarayonida insonga ta‘sir qiluvchi omillar yig‘indisidir.

Inson faoliyati - bu har doim hayot uni oldiga qo‘yilayotgan muammolarni hal etilishidir.

Ishlash ritmi – (tadqiqotlar va ko‘p yillik amaliyotlarning ko‘rsatishicha) insonning shaxsiy xususiyatlari, xarakteri va uning maqsadga intiluvchanligi bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarishdagi xavfli omil – ishlab chiqarishda ishlovchilarga muayyan sharoitlarda ta‘sir etganda shikastlanishga yoki sog‘liqning keskin yomonlashuviga olib keladigan omil.

Ishlab chiqarishdagi zararli omil – ishchilarga ish vaqtida ta‘sir etib kasallanishga yoki ish qobiliyatining pasayishiga olib keladigan omil.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa – ish vaqtida yuz beradigan hodisa.

Ishlab chiqarish sanitariyasi - ishchilarga zararli ishlab chiqarish omillarini ta‘sirini oldini oluvchi vositalar, sanitar-texnik, gigienik va tashkiliy tadbirlar sistemasidir.

Ishlab chiqarishda shamollatish - bu davlat standarti talabiga mos holda, xonalardan ortiqcha issiqlikni, namlikni, changlarni, zararli gazlar va bug‘larni chiqarish va mikroiklimni yaratish uchun zarur qurilmalar sistemasidir.

Kirish yo‘riqnomasi - Barcha ishga yangi kiruvchilar, boshqa korxonalaridan xizmat safariga jo‘natilganlar (ish malakasi va stajidan qat‘iy nazar) amaliyot o‘tayotganlar va shogirdlar kirish yo‘riqnomasini o‘tadilar.

Kasb kasalligi – kishi organizmiga ish sharoitlarining zararli ta'siri natijasida kelib chiqqan (surunkali changli bronxitlar, titrash kasalligi, har xil kimyoviy preparatlar bilan zaharlanish) kasalliklardir.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Maishiy muhit – bu maishiy sharoitdagi insonga ta'sir qiluvchi barcha omillarning yig'indisidir.

Mehnat qobiliyati - bu insonning jismoniy yoki aqliy ishida unga yuklatilgan hajmdagi ishni bajarish qobiliyatidir.

Mehnat muhofazasi- huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy texnologik va sanitariya me'yorlari sistemasi bo'lib, mehnatkashlarni ishlash sharoiti va hayot xavfsizligini ta'minlaydi.

Mehnat sharoiti – mehnat jarayonida insonning salomatligi va ish qobiliyatiga ta'sir etadigan omillar majmui.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Rostlanmaydigan yoki inson ixtiyoriga bo'ysunmaydigan enyergiya- sarflari birinchi o'rinda insonning barcha organlarini, faoliyatini ta'minlovchi asosiy moddalar almanishuvi bilan bog'liq.

Ruxsat etilgan kontsentratsiya (daraja, miqdor) (REK, RED, REM) – 8 soatli yoki boshqa ish kuni, shuningdek haftasiga 40 soatdan ortiq bo'lmagan, ishlashi davomida kasallik yoxud sog'ligida o'zgarishlar keltirib chiqarmaydigan kontsentratsiya (daraja, miqdor).

Sabab va oqibatlar. Yashirin xavflarni amalga oshishiga olib keladigan sharoit-sabab deb ataladi. Sabablar, jarohatlar, yuqumli kasalliklarni keng tarqalishi (epidemiya), atrof-muhitga zarar va boshqa xil oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Sanitar-maishiy xona - bu shaxsiy va maxsus kiyimlar uchun shkaflari echinadigan, yulvinadigan va ovqat eydigan xona hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzi - bu avvalo qarilikkacha bo'lgan uzoq yillargacha har bir kishini sog'ligini mustahkamlovchi va ta'minlovchi turmush tarzining kechishidir.

Shikastlanish– ishlab chiqarishdagi zararli yoki xavfli ta'sirlar natijasida inson organlari yoki teri qoplamasi fiziologik butunligini buzilishi.

Shaxsiy himoyalani vositalari – bir xodimni muhofaza qilish uchun xizmat qiladigan vositalar. Shaxsiy himoya vositalariga – ish kiyimi, poyafzal, gaz niqoblar, respiratorlar, niqoblar, shlemlar, himoya ko'zoynaklari, quloqchinlar va boshqalar kiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Texnosfyera - o'tmishda biosfyeraga taalluqli bo'lgan keyinchalik insonlarning o'zining moddiy va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini yanada yaxshilash maqsadida to'g'ridan to'g'ri yoki sirtdan texnik vositalar bilan ta'sir etgan hududdir.

Tabiiy muhitdagi xavfsizlik – bu ekologiya sohasidagi biridir.

Tavakkal nazariyasi. 1950-yil sentyabr oyida Gyermaniyaning Kyoln shahrida bo'lib o'tgan birinchi jahon qongresida hayot faoliyat xavfsizligi fan deb qabul qilindi. Olimlar o'z ma'ruzalarida «tavakkal» tushunchasini qo'lladilar va bu tushunchani har bir olim o'zicha talkin kildi. Masalan, V.Marshal «tavakkal, bu xavfning miqdoriy bahosidir» dedi. Miqdoriy baho kungi isiz hodisalarni aniq bir davr ichida bo'lib o'tgan sonining bo'lishi mumkin bo'lgan soniga nisbatidir.

Tizim - deganda birgina moddiy ob'ektdan tashqari aloqalar va bog'lanishlar ham tushuniladi.

Texnika xavfsizligi - ishlovchilarga ishlab chiqarishda texnika xavfsizligini, uning oldini oladigan tashkiliy chora-tadbirlar va texnika vositalari sistemasi.

Тизимли yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jaryonning mantiqiyiligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, amaliy ishlash usuli.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asolangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Xavf-xatar deganda, odam sog'ligiga bevosita yoki bilvosita zarar etkazadigan kungilsiz hodisalar tushuniladi.

Xavflar taksonomiyasi- bu murakkab hodisalarni, tushunchalarni, kishi faoliyatiga qaratilgan narsalarni tasniflash va tizimlash to'g'risidagi fandir.

Xavflar kvantifikatsiyasi hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar uchun etarli darajadakerak bo'lgan miqdoriy, vaqtincha, fazoviy va boshqa xususiyatlarni aniqlab amalga oshirish jarayonidir.

Xavfsizlikni ta'minlash choralari - bu usullarni va asoslarni amaliy, tashkiliy, moddiy gavalantirib amalga oshirishdir.

Hayot faoliyat – bu insonning kunlik faoliyati, dam olishi va yashash tarzidir.

Yong'in xavfsizligi – ob'ektda yong'in paydo bo'lish xavfini oldini olish, shuningdek moddiy boyliklarni muhofaza qilishdan iborat.

ГЛОССАРИЙ

Охрана труда является законодательным актом и системой экономических, технических и организационных мер, обеспечивающий безопасность, здоровье и умение работать на рабочем месте.

Предметам охраны труда являются следующие основные разделы: законодательство о защите меланотов, техника безопасности, меры промышленной санитарии и противопожарной защите.

Законодательство о защите труда – включает нормы системаы права и трудового права и это гарантирует их защиту.

Техник безопасности – это система организационных и технических мер и инструментов для предотвращения опасностей производственных факторов, то есть несчастных случаев, травм и травм для здоровья человека.

Производственная санитария – это система организационных, гигиенических и санитарно-гигиенических мер и средств для предотвращения вредного воздействия вредных факторов производство, то есть факторов, вызывающих профессиональные заболевания.

Законодательство о защите труда- включает нормы права и трудового права и это гарантирует их защиту.

Противопожарная защита представляет собой комплекс технических и организационных мероприятий, направленных на защиту людей от пожаров и взрывов

Контролируемый государством контроль является государственным контролем соблюдения правил промышленной безопасности, который имеют следующие подразделения: котонадзор и подъемное оборудование, горнодобывающие, газовые инспекции и другие инспекции; контролируя безопасную работу котлов и бутылок, использование труб пара и горячей воды, а также выполнение взрывных работ.

Государственный контроль мощности- государственный контроль за реализацией мероприятий, обеспечивающих безопасную работу электрических и теплогенерирующих устройств.

Государственная санитарная инспекция- государственная санитарная инспекция предприятий и организаций, которая контролирует гигиенические нормы, санитарно-гигиенические и санитарно-эпидемиологические правила.

Государственный пожарный контроль- обеспечивает высокий уровень пожарной безопасности.

Стате Траффик Контроль- контролирует соблюдение правил дорожного движения и обеспечивает безопасность пассажиров или других пассажиров транспортных средств и безопасность пешеходов .

Основной преподаватель –учитель или руководитель отдела с каждым учеником или работником .Первоначальная инструкция включает в себя задачу сотрудника по его специализации, ознакомление с процедурой безопасного места работы,использование инструментов и средств защиты, как их использовать, безопасные методыобработки,средства обнаружения пожара и расположение и способы использования сигнализации , а также поведение в случае опасности . Инструкторизучает знание правил безопасности работника или ученика , а также позволяет им работать и регистрироваться , если они изучает основные требования к охране труда .Периодический инструктор –сотрудники и студенты проходят на рабочем месте на реке одного раза в полгода .Его цель –укрепить знание правил безопасности и пожарной безопасности в памяти рабочего и не реке одного раза в три месяца для обслуживающего персонала электр лооборудования. .

Авария-это внезапная травма, которая заставляет человеческое тело потерять способность функционировать . Несчастные случае включает травмы, пульс,травмы,перелом, ожоги, тепловой удар ,простуду и сильное отравление.

Статистическая методология- основано на статистических данных о данных об авариях . Этот метод основан на конкретных характеристиках несчастных случаев : занятия, типа занятия во время травмы,занятия пострадавшего, характера травмы и причин этого.

Топографический метод- это метод который помещает условные знаки в те места ,где запланирована работа системы. Обязательным условием топографического метода является семантическая и немедленная регистрация всех аварий (даже микроаррея , которая может привести к потере рабочей силы менее 1 дня)

Экономическая методология - это матреальный ущерб, иызванный авариями и профессиональными заболеваниями ,особенно на крупных предприятиях .Экономические потери собираются из следующих расходов:оплата за отпуск по болезни и выплата компенсации торговцу,стоимость обучения вновь замещаемых работников ,сломанное оборудование, стоимость оборудования.Экономические затраты на анализ позволят эффективно потратить затраты на охрану труда.

Монографическая методика заключается в том ,что все условия производства тцательно исследованы,а причины несчастных случаев на рабочем месте или в помещениях исследованы.В этом случае технологические и трудовые процессы , машины, оборудование, средства индивидуальной защиты и т. д.

Искусственная пыль включает пыль, которая прямо или косвенно образуется людьми на промышленных предприятиях и в зданиях. Например, в машиностроении, в доме и Мартенских печат в машиностроительной промышленности и на всех нефтеперерабатывающих заводах этой отрасли некоторые из сжигания угля в тепловом ЕС выбрасываются в атмосферу как серый и дым, строительные работы, бурение, взрыв во многих случаях производства цемента и многие другие виды пыли могут подвергаться загрязнению окружающей среды,что может иметь катастрофическое воздействие на природу.

Вещества которые отрицательно влияют на организм человека и которые нарушают нормальное функционирование человеческого организма, называются токсичными веществами.

Дыхательный аппарат-кремний (4) оксид ,сульфат-диоксид и и. т. д.

Загрязнителями крови являются окись углерода, пероксид водорода.

Повреждение кожи и черепицы- сульфат, хлоридная кислота, хром ангидрид и так далее.

Вещества, которые влияют на нервную систему – спирты, сложные эфиры, сероводороды, пары ртути и т.д.

Существует три категории людей с радиацией.

«А»- категория- профессиональное излучение лиц ,работающих непосредственно с источниками ионизирующего излучения.

К ним относятся сотрудники лабораторий по испытанию радиоизотопных устройств. Которые содержат свариваемые контейнеры. Для этих людей рекомендуемая доза облучения составляет 0, 1 рентген в неделю.

«Б»- это облучение лиц, временно работающих в соседней комнате или в помещениях помещений, оборудованных источниками ионизирующего излучения, и всех лиц в санитарно- защитной зоне. Для этих людей рекомендуемая доза облучения составляют 0,01х сервис неделю.

Категория «В»- это излучение всех возрастов. Рекомендуемая доза облучения составляет 0,001 рентген в неделю.

Световой поток – в определяется как сила световой энергии и интерпретируется как ощущение воздействия человеческая глаза. Просвет (лм) является единицей светового потока.

Термодинамика- расплавленный металл под действием электрического удара проникает в кожу мельчайших частиц.

Механические травмы вызваны внезапным резким сокращением мышцы через организм человека. В результате кожа , кровеносные сосуды и нервная ткань ломаются, сусеявы могут даже сломать кости.

Биологическая (необратимая) смерть является необратимым процессом, который приводит к полному коллапсу биологических процессов в организме. Это происходит после окончания клинического испытания.

Спонтанное пламя- когда вещество нагревается до определенной температуры, происходит прямое воспламенение. Температура самовоспламенения является важным параметром, определяющим пожароопасные свойства вещества.

Трудные мателиалы. Они опнут, устареют или становятся углем, и продолжают гореть , когда есть источник огня.(солома, тростник). Он изготовлен из материалов, которые могут быть использованы для производства негорючих материалов.

Легко воспламеняющ и еся материалы и конструкции. Они могут также гореть или разливаться, когда источник пламени может быть сожжен. К ним относятся все органические материалы; деревянные материалы и другие.

Glossary

Used in lecture classes for the direction of education 5111000- Vocational education (5320100- Material science and technology of new materials) in the discipline of Materials Science

Azo and tion - the process of nitrogen saturation with the diffusion method of the steel surface in an ammonia environment;

Anisotropy - (from the Greek anisos -neravny «tropos»-direction.), The properties of the medium in dependence upon the direction I;

Austenite is a structural constituent of iron-carbon silals, a solid solution of carbon (up to 2%), and alloying elements in -iron;

Bronze - the name of the copper force with other elements, except zinc;

Borated and e - the process of boron saturation by the diffusion method on the surface of steel;

Wakan rmation - a type of structural defects in the lattice site-crystal-crystal lattice in which no atom or ion;

Deformation - the change in the geometric shape of the metal under the influence of some force s ;

Тепические свойства металлов - technical characteristics, determines the behavior of metals is, under the influence of external forces;

The strength of metals - the resistance of metals, exerted by deformation

Plasticity - property of solid chalk is irreversibly deformed under the action of mechanical loads

Crowding - changing the structure and properties of metals and alloys as a result of plastic deformation, wherein the reduced ductility and toughness, but the toughness increased and plasticity.

Recrystallization - the growth process of some crystalline polycrystalline grains, due to the other, takes place particularly intensively in plastically deformed material.

Hot metal processing under load - deformation of metals at a high temperature than the temperature of recrystallization

Processing of metal at low temperature than the temperature of recrystallization - deformation of metal at low temperature than the temperature of recrystallization

Black metals - at mainly iron and its alloys (cast iron, steel)

Non-ferrous metals are all metal groups except iron

Crystalline bodies are bodies, in which atoms they form crystal lattices and are located in a certain order

Amorphous bodies - bodies whose atoms are randomly distributed

Single crystals - a single crystal with a continuous crystal lattice

Polycrystal - The aggregates, consisting of many differently oriented small single crystals

Pristina struktura - spatial lattice is formed of a plurality of planes kristallografichesikh that location with respect to each other in parallel.

Elementary cell - the smallest part of the crystal lattice

The period (parameter) of the crystal lattice - the distance between the two nearest neighboring atoms in the unit cell

Primary crystallization of metals - the transition of metals from liquid to solid

Absolute crystallization temperature - the temperature at which the liquid metal completely crystallizes

Supercooling - the difference between the equilibrium temperature of a metal by the temperature of absolute crystallization

Potential heat of crystallization - the heat released during the transition of a metal from a liquid state to a solid state

Thermoelectric and calorimeter - device used during thermal analysis of the potential heat of the metal temperature kristalizatsii- those amounts, released during the transition metal from the liquid state to a solid

Curved metal cooling line - graphical dependence, showing the change of heat in the cooling process of the metal

Metallic Crystallites - crystallites that have a certain constant geometric shape

Modifiers - substances added to form small crystallites in a liquid metal

Dendrite - crystal in the form of a branchy tree

Allotropy (polymorphism) - may be due to the formation of molecules with different numbers of atoms or the formation of crystals of different modifications

Alloy - substance of two or more metals, obtained from mixing them during melting

Pseudo-binary - alloys formed without a definite number of elements, such as by electrolysis, and other methods of sublimation

System - alloys are also called systems

Component - each of the elements that make up the alloys

Metastable mixtures - alloys, the components of which are dissolved in the liquid state, but do not dissolve in the solid state and do not form a chemical compound between themselves

Solid solutions - homogeneous solids, consisting of several components, the concentrations of which can be changed without destroying the homogeneity

Chemical compounds - alloys, which are formed as a result of the chemical reaction of the components in the process of primary crystallization

Diagram state - and diagrams, which shows the change of state of alloys in the temperature and concentration

Liquidus point - point showing temperatures of alloys, which starts to crystallize

The solidus point - a point showing the temperatures of the alloys, which completely crystallize

Eutectic - liquid, the melt in equilibrium with the two or more solid phases, an alloy melt which is solidified in the system at the lowest temperature

Phase - homogeneous alloy part, which is divided as a boundary between two phases

Microstructure - structure, which may be able to see Article mikroskopiya under microscope

Metallography - a metal sample that is manufactured by special treatment for observation under a microscope

Ferrite - zhelezouglerodistyh structural component with interstitial solid solution of carbon and alloying elements in the alpha-iron

Sementite - Iron carbide, cemented in cast iron and steel

Hardness of metals and alloys - resistance of a solid body to indenting or scratching

Technological properties of metals and alloys - properties indicating suitability level of metals and alloys for processing, forging, bending and cutting and RCT

Fluidity - properties of metals and alloys, which is contributing to shaping so filling in their liquid state

Ductility - the property of metals and alloys, which contributes to the change of shape without destruction during forging, stamping and rolling

The property of welding - The property of metals and alloys, which contributes to the formation of a strong and dense compound

Treatment Res aniem - quantity, estimated chips at weight ohm obtosyvanii e dyanitse in time or at a certain p and m are working time.

Perlite is a eutectic mixture of ferrite and cementite.

Ledeburite is an eutectic mixture of austenite and cementite, formed at a temperature below 1145°C

Graphite - mineral hexagonal polymorphic modification of carbon, is in the form of plates or a face catch

Carbon instrument-making steels are non-machined structural and tool steels containing carbon (0.04-2 %).

Alloyed steel - in addition to the usual impurities, contains alloying elements to impart certain physical, chemical or mechanical properties to the alloys, in which there is chromium, nickel, molybdenum, tungsten, vanadium and a friend.

Stainless steel - steel, resistant to electrochemical corrosion, is obtained by adding alloying elements to the composition of carbon steel

Refractory steels - steel, which does not collapse under the influence of high (above 550°C) temperature and gases

Heat resistant steels - Steel, which is used for the manufacture of parts, under load at high temperatures.

Heat treatment - a set of operations thermal effects on metals and a set of operations thermal effects on metals and alloys for the purpose and edited neniya structure and with properties in the desired direction, by annealing, hardening, tempering, normalization and others.

Steel softening - the process in which steel is heated to a certain temperature, this temperature is held for a certain time, after which it is slowly cooled

Normalization of steel - the kind of heat treatment of steel, consisting in heating (above the upper critical point), holding and cooling in air in order to give the metal a uniform fine-grained structure to increase its ductility and toughness

Hardening of steel - steel is heated above the temperature of A_{c3} and A_{c1} , maintained and the necessary changes in the structure of the steel, after which it quickly cools.

Vakal'yaemost steel (the degree of hardening) - the property of steel, in which as a result of hardening it increases hardness.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Yong'in xavfsizligi" to'g'risida, O'RQ 226-son, 30.09.2009.
3. O'zbekiston Respublikasini "Mehnat kodeksi" Toshkent, 2022-y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni Toshkent, 2016 y.
5. Sh.Ch Tursunov, A.T.Butayarov, K.A.Yodgorov. "Hayot faoliyati xavfsizligi" Darslik, T-2022 y. 250 b.
6. O.R.Yuldashev, R.R.Nurmamatova "Mehnat muhofazasi" darslik T-2019, 428 b.
7. O.T.Aliyev, Z.Sh.Tursunov "Hayot faoliyati xavfsizligi" darslik T-2022, 280 b.
8. O.T.Hasanova, V.V.Zayniddinov "Hayot faoliyati xavfsizligi" T-2020, 482 b.
9. O.T.Hasanova, V.Zayniddinov "Hayot faoliyati xavfsizligi" darslik T-2020, 241 b.
10. O.Yuldashev, G.G'ulomova, I.Axmedov, D.Zokirov "Bino inshootlari xavfsizligi" T-2017, b-361.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. J.Sh.Abduraxmonov "Favqulodda vaziyatlarni prognozlash va ma'lumotlar bazasini takomillashtirish" Monografiya, TerDU nashr-matbaa markazi nashriyoti, Termiz 2022-y, 102 b.
4. E.T.Туракулов "Безопасность жизнедеятельности" Термиз. 2023-год. 210 стр.
5. Е.И.Холостовой, О.Г.Прохоровой. Безопасность жизнедеятельности: учебник: [Электронный ресурс] под ред. – 2-е изд. – Москва: Дашков и К, 2019. – 453 с.
6. Энциклопедия по БЖД.-М.Энциклопедия,
7. ГОСТы ССБТ
8. А.Е.Волощенко, Н.А.Прокопенко, Н.В.Косолапова; Безопасность жизнедеятельности / Под ред. Арустамова Э.А., - 20-е изд., перераб. и доп. - Москва:Дашков и К, 2018. - 448 с.:
9. Ю.Н.Сычев, Безопасность жизнедеятельности: учеб. пособие — Москва: ИНФРА-М, 2019. — 204 с. — (Высшее образование: Бакалавриат).
10. R.G.Batiyev, R.X. Tovashov, Sh.X. Tovashov "Hayot faoliyati xavfsizligidan laboratoriya ishlari" Qarshi-2022. 105 b

ELEKTRON RESURLAR.

1. www.bilim.uz - OO'MTV sayti
2. www.ziyo.edu.uz - OO'MTV sayti
3. www.ziyo.net.uz - OO'MTV sayti
4. www.mintrud.uz - Mehnat vazirligi sayti.
5. www.minzdrav.uz - Sog'liqni saqlash vazirligi sayti.
6. www.mchs.gov.uz - Favqulodda vaziyatlar vazirligi sayti.
7. LexUz - O'zbekiston Respublikasining Milliy qonunchilik bazasi.